



BOSH MUHARRIR:

Baratov Sharif Ramazanovich

psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o`rinbosari:

Shoumarov G`B. – O`zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI

Mas`ul kotib:

Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Maksimenko S.D.- psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)

Rejep O`zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O`ZBEKISTON OLIMLARI

PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov B.M.- psixologiya fanlari doktori, professor

Qodirov B.R. - psixologiya fanlari doktori, professor

Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Akramova F.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Utepberganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor

Ayrapetova A.G.- psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nazarov A.M. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ruxiyeva X.A. - psixologiya fanlari nomzodi, professor

Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor

Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O`zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Hamroyev A.R. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rajabov T.I. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor

Gadoyeva M.I.- filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor

Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.

Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov A.M. - BuxPXTI "Xorijiy tillar" kafedrasini mudiri



**"Scientific reports of Bukhara institute of psychology and foreign languages"
scientific-theoretical journal**

EDITOR-IN-CHIEF:

Baratov Sharif Ramazanovich

doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences

Deputy editor-in-chief:

Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS

Responsible secretary:

Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor

FOREIGN SCIENTISTS

Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)

Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)

Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)

Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)

Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)

**SCIENTISTS OF UZBEKISTAN
PSYCHOLOGICAL SCIENCES**

Umarov B.M. - doctor of psychology, professor

Kadirov B.R. - doctor of psychology, professor

Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor

Akramova F.A. - doctor of psychology (DSc), professor

Baratova D.SH. - doctor of psychology (DSc), professor

Utepberganov M.A. - doctor of psychology, professor

Ayrapetova A.G. - doctor of psychology (DSc), associate professor

Nazarov A.M. - doctor of psychology (DSc), professor

Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor

Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor

Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor

Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor

Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor

Rukhiyeva K.A. - candidate of psychology, professor

Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor

Ostanov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

Rustamov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD)

PEDAGOGICAL SCIENCES

Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor

Hamroyev A.R. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor

Rajabov T.I. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor

PHILOLOGY SCIENCES

Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor

Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor

Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor

Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor

Toirova G.I. - doctor of philological sciences (DSc), professor

Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)

Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)

EDITORS:

Rakhmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Tursunov M.M. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Kurbonov A.M. - Head of the Department of Foreign Languages of BukhPFL

Jabborov Azim Meyliqulovich
Qarshi davlat universiteti professori
psixologiya fanlari doktori

Sharipov Alisher Nuriddinovich
Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

O‘ZBEK XALQ PSIXOLOGIYASI (O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODI)GA TAYANIB O‘SMIRLARDA IRODAVIY SIFATLARNI TARBIYALASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xalq psixologiyasi (o‘zbek xalq maqollari va hikmatlari)ga tayanib o‘smirlarda irodaviy sifatlarni tarbiyalashning muhim jihatlari haqida so‘z boradi.

Tayanch tushunchalar: Xalq psixologiyasi, o‘zbek xalq maqollari, xalq hikmatlari, ongli harakatlar, irodaviy harakatlar, irodaviy sifatlari: maqsadga intilish, intizomlilik, o‘zini tuta bilish, o‘ziga ishonganlik, chidamlilik, sabotlilik, qat’iyatlilik, botirlik, mustaqillik, mardlik.

ВОСПИТАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ У ПОДРОСТКОВ НА ОСНОВЕ ПСИХОЛОГИИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА (СЛОВЕСНОЕ ТВОРЧЕСТВО УЗБЕКСКОГО НАРОДА)

Аннотация. В данной статье говорится о важных аспектах воспитания произвольных качеств у подростков на основе узбекской народной психологии (узбекские народные пословицы и мудрости).

Ключевые слова: Народная психология, узбекские народные пословицы, народная мудрость, осознанные действия, волевые действия, волевые качества: стремление к цели, дисциплинированность, самообладание, уверенность в себе, выносливость, настойчивость, настойчивость, храбрость, независимость, смелость.

EDUCATION OF VOCATIONAL QUALITIES IN ADOLESCENTS BASED ON THE PSYCHOLOGY OF THE UZBEK PEOPLE (VERBAL CREATION OF THE UZBEK PEOPLE)

Abstract. This article talks about the important aspects of training voluntary qualities in teenagers based on Uzbek folk psychology (Uzbek folk proverbs and wisdom).

Keywords: Folk psychology, Uzbek folk proverbs, folk wisdom, conscious actions, volitional actions, volitional qualities: striving for a goal, discipline, self-control, self-confidence, endurance, perseverance, perseverance, bravery, independence, courage.

O‘zbek xalqining o‘tmish tarixiga e’tibor berganimizda psixologiya va badiiy adabiyot bir-biri bilan bog‘liq holda taraqqiy etganligini guvohi bo‘lamiz. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi va xalq psixologiyasida bu uzviy bog‘liqlik asrlar osha rivojlanib kelganligini ko‘ramiz. Psixologiya bilan badiiy adabiyotning asosi – xalq og‘zaki ijodi tarixan va mantiqan uzviy bog‘liqdir. «Adab» - odob, xulq, axloq, «yot» - ilm, ya’ni adab yoki xulq – atvor haqidagi ta’limot ma’nosini anglatadi. Adabiyot–ma’naviyat, hayot darsligi yoki jamiyat hayotiga xos tarbiyashunoslikdan iboratdir.

Dunyo fanlari taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ mutafakkir bobokalonlarimiz, avvalo, mudarris, murabbiy, adib va mashhur ilm darg‘alari bo‘lganlar. Ular uchun xalq og‘zaki ijodi va badiiy adabiyot ham darslik, ham ma’naviy oziq manbai, ham ijod mahsulini yorituvchi vosita bo‘lgan.

Darhaqiqat, Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Abu Ali Ibn Sinoning “Donishnoma”, “Tibbiy doston”, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, “Bo‘ston”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Ahmad Yassaviyning “Devoni Hikmat”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul xaqoyiq”, Alisher Navoiyning “Mahbub-ul-qulub”, “Hayratul abror” kabi asarlarida badiiylik va psixologik uyg‘unlik mustahkam o‘rin topgan.

Ta’lim-tarbiyada milliylik va umuminsoniylik birligiga erishish avvalo psixologiyaning milliy asosga ega bo‘lishiga bog‘liq. Psixologiya ilmidagi inqirozning tub ildizlari, eng avvalo, uning milliy zaminidan, ko‘hna Sharqning ming yillik teran an’analaridan uzilib qolganligidir. Psixologiya bilan

badiiy adabiyotning tarixan bir-biri bilan bog'liqligi va o'zaro aloqasining metodologik va metodik tizimini yaratish psixologiya tarixiga doir tadqiqotlarning samaradorligini ta'minlaydi, deb ishonamiz

Psixologiyada xalqimizning milliy xususiyatlari va hissiy-irodaviy holatlari kam o'rganilganligi bilan alohida ajralib turadi. Hozirgi paytda milliy xususiyatlar va irodaviy sifatlarning shakllanish boskichlari, uning tarkibiy qismlari, ularga ta'sir etuvchi muhim omillar, milliy ongning ontogenezi, o'ziga xos xususiyatlari va o'zini-o'zi anglash kabi muammolarning o'rganilishi psixologiya fani uchun dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Shu bois, millat madaniyati, turmush tarzi va tarbiya tizimi, xalqning milliy ongi, milliy xarakteri, hissiy-irodaviy holati millatning o'ziga xosligini belgilovchi asosiy mezonlardir.

Psixologiya insonning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadigan fan sifatida milliy psixologiyaning asosiy manbai sifatida o'zbek xalq og'zaki ijodini psixik rivojlanishning asosi sifatida qarashni taqozo etadi. Bu bog'liqlik psixologiya muammolarini xalq og'zaki ijodida aks ettirilishida va psixologik ta'limda xalq og'zaki ijodidan keng foydalanishda namoyon bo'ladi.

Shu paytgacha o'zbek xalq og'zaki ijodining psixologik asoslari, rivojlanish qonuniyatlari, o'quv – tarbiya jarayonlaridagi ahamiyati va yoshlar kamolotidagi o'rni psixologik nuqtai nazardan o'rganilmagan.

Shunga ko'ra biz, o'smirlar (11-15 yosh) irodaviy sifatlarni shakllantirishda o'zbek xalq og'zaki ijodining ahamiyatini (o'zbek xalq maqollari va hikmatlaridan foydalanish tizimini) ilmiy asoslashga harakat qildik.

Xalq donishmandligi namunalari ichida ayniqsa maqollarning yoshlarda irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirilganligi bilan ahamiyati beqiyosdir. Maqollar ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo'lib, ularda xalqning turmush tarzi, ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi, jamiyat va tabiatga bo'lgan munosabati yorqin ifodasini topgan. Maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelganligi sababli ular o'zida kishilar hayotining g'oyat xilma-xil tomonlarini mujassamlashtirgan, ayniqsa, turmush tarzining qiyin, og'ir va muammoli, shu barobarida me'yoriy – axloqiy jihatlarini aks ettirishi bilan bog'liq zarur irodaviy sifatlarni va irodaviy barqarorlikni taqozo etadi.

Maqollar inson psixologiyasining, unda shakllangan insoniy sifat va fazilatlarining (shuningdek, irodaviy sifat va fazilatlarining) yoki insoniy sifat va fazilatlariga bo'lgan munosabatning til vositasidagi ifodasidir. Har bir xalq yoki millat tomonidan yaratilgan xalq og'zaki ijodi, jumladan xalq maqollari va hikmatlari shu xalq farzandlari uchun tarixning hamma davrlarida inson hayoti uchun zarur bo'lgan hissiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalash uchun xizmat qilgan va takomillashib kelgan.

O'zbek xalq maqollari shu xalq psixologiyasining amalda sinalgan in'ikosi bo'lganligi uchun hozirgi ta'lim tizimining hamma bosqichlarida undan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olayotgan o'smirlarda ijtimoiy fanlarni o'qitish jarayonida o'zbek xalq maqollariga tayanish mavzu mohiyatini, ya'ni inson psixikasi mohiyatini, insonga xos sifat hamda fazilatlar, eng muhimi shaxsga xos hissiy-irodaviy sifat va fazilatlarining shakllanish qonuniyatlarini ilmiy va hayotiy xulosalarga tayangan holda tushuntirishga imkon beradi.

Maqollar ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo'lib, ularda xalqning turmush tarzi, ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi, jamiyat va tabiatga bo'lgan hissiy - irodaviy munosabati to'liq ifodasini topgan. Hozirgi Markaziy Osiyo hududida yashagan xalqlar doimo yuksak axloqiylik, uzoqni ko'ra bilishi, mardligi, qat'iyatligi va oliyjanobligi bilan ajralib turgan. «Tinchlik va xotirjamlikni bersin» degan ibora xalqimizning azaldan tinchliksevar va mard ekanligini ifodalovchi dalildir. Vatanga sodiqlik, mardlik, qat'iylik, dadillik, xalqqa muhabbat, qahramonlik, kamtarlik, haqgo'ylik, samimiylik, halollik kabi yuksak axloqiy va irodaviy fazilatlar bizda doimo qadrlangan. Zero, taniqli rus yozuvchisi L.N.Tolstoy maqollarning xalq hayoti, ruhiy dunyosi bilan naqadar yaqinligi haqida to'xtalib: «Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko'raman», - deb yozgan edi.

Tadqiqotning boshlanishida o'zbek xalq og'zaki ijodi – milliy ongning in'ikosi ekanligi nazariy jihatdan o'rganilib tahlil qilindi. Unda milliy ongning psixologik talqini haqidagi ilmiy qarashlar, o'zbek xalq milliy psixologiyasi tarkibiy qismi bo'lgan hissiy-irodaviy holatlarning o'zbek xalq og'zaki ijodidagi talqini yoritildi. O'zbek xalq og'zaki ijodining muhim sohasi o'zbek xalq maqollari o'rganildi, o'smirlarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida misollar va namuna sifatida foydalanishi zarur bo'lgan maqollar to'plandi, tizimlashtirildi va tahlil qilindi, hamda ijtimoiy - tarbiyaviy fanlarni o'qitishda ulardan o'rinli foydalanish rejalashtirildi. Shundan so'ng, o'qitish jarayonida foydalanish nazarda tutilgan o'zbek xalq maqollarining quyidagicha tasnifi yaratildi va ularning irodaviy sifatlarni rivojlantirishdagi mohiyati psixologik nuqtai nazardan talqin qilindi.

Zamonaviy psixologiyada irodaning tarkibiy qismlari yoki muhim sifatleri qatoriga maqsadga intilish, intizomlilik, o'zini tuta bilish, o'ziga ishonganlik, chidamlilik (sabr-toqat), sabotlilik, qat'iyatlilik (dadillik), botirlik (matonatlilik), mustaqillik, mardlik va boshqalar kiritiladi.

Maqsadga intilish — shaxsning o'zidagi barcha kuch-quvvatlarni oldiga qo'ygan maqsadiga qaratish, o'z xatti-harakatlarini ko'zlagan maqsadiga erishish vazifasiga bo'ysundirish, har qanday qiyinchilik va to'siqlarga qaramay maqsadni amalga oshirish uchun intilish qobiliyatidir. "Azob ko'rmay – rohat yo'q", "Barvaqt qilingan harakat – hosilga berar barokat", "Baxt yalqovga begona", "Bir yil tut ekan kishi, yuz yil gavhar terar", "Bog' jamoli – bog'bondan", "Yerga oshatsang osh bitar, oshatmasang – tosh", "Yozgi mehnat – qishgi rohat", "Ishning o'zini bilgincha, ko'zini bil", "Ko'z – qo'rqoq, qo'l – botir", "Mehnat qancha qiyin bo'lsa, keti shuncha shirin bo'lar", "Mehnatdan kelsa boylik, turmushing bo'lar chiroylik", "Oltin o'tda bilinar, odam – mehnatda", "Tek turmasang – to'q bo'lasan", "Tekinning minnati ko'p – mehnatning ziynati ko'p", "Tog'ni baland dema, talab qilsang chiqasan", "Chumchuqdan qo'rqan tariq ekmas", "Halol mehnat – yaxshi odat, berur senga saodat".

Intizomlilik (mas'uliyatlilik) – jamiyat qonunlariga, axloq normalari va qoidalariga, milliy (umumbashariy) urf-odatlariga, ixtiyoriy hamda ongli ravishda bo'ysunishda ifodalanuvchi inson sifatidir. "Har yerni qilma orzu, har yerda bor toshu tarozi", "O'g'lingni sevsang, qulingdek ishlat", "Qo'nimi yo'qning unimi yo'q", "Bor-bor ishga bor, ishlamagan nonga zor" "Gap bilguncha – ish bil", "Yer egasi bo'lma, mehnat egasi bo'l", "Ishlab topganning oshi lazzatli", "Ko'klam – mehnat bilan ko'rkam", "Erinchoqni er olmas", "Yutuqning kaliti – mehnat", "Yalqovlik – oxiri xo'rlik", "Qo'rqoqning ko'zi katta, dangasaning – so'zi", "Harakat, harakatda – barakat".

O'zini tuta bilish – odamning o'z xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari, xulq-atvori kabilarni boshqara bilishda aks etuvchi iroda sifatidir. "Egri ko'chadan yursang ham, to'g'ri yur", "Yo'ldan chiqsang ham, ko'pdan chiqma", "Boylik boylik emas, birlik boylik", "Dasturxonga boqqan do'st emas", "Dil og'ritgan do'st emas", "Ichdan buzilmay, qo'shin yengilmas", "Sen tinch – qo'shning tinch", "Ishdan qo'rqmagan qishdan qo'rqmaydi", "Avval o'yla, keyin so'yla", "Axmoqqa javob – sukunat", "Kim gapirganiga boqma, nima gapirganiga boq", "Nodon so'zlar, dono ibrat olar", "Odamning tizgini – aql", "Oz so'zla, ko'p tingla", "Yomonga yaxshilik qilsang, yoqangni yirtar".

O'ziga ishonganlik – o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirish jarayonida jamiyatda amaldagi qadriyatlar va meyorlarga amal qilish hamda o'zaro munosabatlarga kirishishda o'zidagi mavjud bilim, malaka va mahoratlarga ishonish, shuningdek, mazkur faoliyatda aniq muvaffaqiyatga erishishga yo'nalgan sifatlardir. "Botar kunning otar tongi bor", "Bug'doy eksang – bug'doy o'rasan, arpa eksang – arpa o'rasan", "Yaxshi niyat – yarim davlat" "Arslon bolasini tutmoq uchun, arslon uyasiga kirmoq kerak", "Bilagidan ko'ra, yuragiga qara", "Bitmas ishning boshiga, botir kelar qoshiga", "Jasur bo'lsang yov qaytar", "Ziyrakning aqli tosh yorar, nomardning mushti – bosh", "Yigit so'zidan qaytmas, arslon – izidan", "Yigitning botirini maydonda sina", "Odam safarda bilinar, botir – xatarda", "To'g'ri yurdim, yetdim murodga, egri yurdim qoldim uyatga".

Chidamlilik (sabr-toqatlilik) – maqsadga erishishda odamning ko'pincha sovuq va issiqqa ham, ochlik-tashnalikka ham, betoblik va boshqa shu singari qiyinchiliklarga qaramay, barcha to'siqlarni yengib, o'z maqsadini ro'yobga chiqarishga intilishda aks etuvchi ijobiy sifatdir. "Sabr qilsang g'o'radan halvo bitar, besabrlar bosh-oyog'idan yetar (yo'qolar)", "Sabrning tagi – sariq oltin", "Tindim tunda, tinmadim kunduzi, bo'ldi qo'y telpagim qunduzi", "Azob ko'rmay – rohat yo'q", "Terga botgan rohatga botar", "Tirishgan tog'dan oshar", "Aqlinga aql qo'sh, jahlinga – sabr", "Odob bilan baxt topilar, sabr bilan taxt", "Sabr achchiq mevasi shirin", "Boygga kelin bo'lguncha, kambag'alga qiz bo'l", "Boylik murod emas, yo'qlik uyat emas", "Boyning ishi farmon bilan, yo'qning ishi armon bilan", "Odamni g'am chirtar, temirni – nam", "Ochlik ko'cha kezdirar, yalang'ochlik uyga kirgizar", "Yuragi to'lganni yig'isi ko'p".

Sabotlilik – shaxsning qabul qilgan qarorini bajarish va o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun, ko'p vaqt hamda muayyan qiyinchiliklarni yengish talab etilishiga qaramay, og'ishmay intilishida gavdalanuvchi iroda belgisidir. "Salobatli bo'lma – sabotli bo'l", "Boshliq bo'lsang, boshli bo'l", "Yetti o'lchab bir kes", "Aslning xatosi yo'q", "Baxl avliyo bo'lmas, avliyo – baxl", "Insofli oshini yer, insofsiz – boshini", "Non qadrini och bilar, kiyim qadrini – yalang'och", "Nomardga ishi tushmagan – mardning qadrini bilmas", "Oriyatsiz odamdan qoch", "O'limdan xo'rlik yomon", "Qadrlasang qadring oshar, qadrsizdan hamma qochar", "Ofat ko'rmay desang, hushyor bo'l".

Qat'iyatlilik (dadillik) – shaxsning vaziyatni tezda baholab, o'z vaqtida asosli, o'ylangan va mustahkam qaror qabul qilishi, hech qanday ikkilanishsiz uni bajarishga kirishishidan iborat fazilatidir. "Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar, to'rtovlon tugal bo'lsa, tepadagin endirar", "Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt", "Vaqtning ketdi – baxting ketdi", "Farosatni befarosatdan o'rgan", "Farosatsiz

falokatga yo'liqar", "Yaxshining nasihatiga kirmagan, yomoni yo'liga yurar", "O'zi yuzsiz, so'zi tuzsiz", "O'yidagini tilidan bil", "O'qish boshqa, uqish boshqa", "Izzat tilasang ko'p dema, sihat tilasang ko'p yema", "Och holini to'q bilmas, kasal holini – sog'", "Salomatlik tuman boylik".

Botirlik (matonatilik) – odam sog'lig'i yoki hayoti uchun xavfli va murakkab sharoitda ham biron qarorga kelishi va uni bajarishning uddasidan chiqa bilish xislatidir. "Arslon bolasini tutmoq uchun, arslon uyasiga kirmoq kerak", "Bilagidan ko'ra, yuragiga qara", "Bitmas ishning boshiga, botir kelar qoshiga", "Botirdan o'lim ham qo'rqr", "Botirlik shahar olar", "Botir qiyinni yengar, nomard bo'ynini egar", "Jasur bo'lsang yov qaytar", "Ziyrakning aqli tosh yorar, nomardning mushti – bosh", "Yigit so'zidan qaytmas, arslon – izidan", "Yigitning botirini maydonda sina", "Odam safarda bilinar, botir – xatarda", "Yantoqdan atir chiqmas, qo'rqqoqdan – botir".

Mustaqillik – insonning o'zicha biror qarorga kelishi va uni amalga oshirishidan, qarorni amaliyotga tatbiq etishning usul va yo'llarini o'zi mustaqil ravishda tanlashidan, har bir ishda o'zining bilimlari, dunyoqarashi va e'tiqodlariga amal (rioya) qilishidan iborat iroda sifatidir. "Hashar qildim – uy qurdim, unda ko'p hikmat ko'rdim", "Ko'p bilsang ham, ko'pdan ortiq bilmaysan", "Ko'mak bo'lsa har ishga, bitadi qolmay qishga", "Sen bo'rini ayasang, bo'ri seni talar", "Sir saqlaganga balo yo'q, saqlamaganga – davo", "Sihat tilasang, ko'p yema, izzat tilasang, ko'p dema", "Tomchi sel bo'lmas, dushman el bo'lmas", "O'zingni er bilsang, o'zganini sher bil".

Mardlik – oliy maqsadlarni ko'zlab ish ko'ruvchi, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishda qat'iylik, vazminlik, sabr-matonat, chidamlilik, bardoshlilik, mustaqillik va dadillik ko'rsatuvchi xislatlar majmuasidir. "Jasur bo'lsang, yov qaytar", "Yigitni botirini maydonda sina", "Mard yigit so'zidan qaytmas, arslon-izidan", "Nolish bilan ish bitmas, mard nomardga tiz cho'kmas", "Odam safarda bilinar, botir – xatarda", "O'z aybini bilgan mard", "Qo'rqqanni ajal quvlar", "Ko'p bo'lsa seplab ko'r, oz bo'lsa – eplab", "Otni ayagan ot minar, to'nini ayagan to'n kiyar", "Pulni topguncha hisob top", "Saqlasang ming kunlik, saqlamasang bir kunlik", "Baland tog'da qor bo'lar, er kishida or bo'lar".

Yoshlarda yuksak irodaviy sifat va fazilatlarini shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida o'zbek xalq ijodidan foydalanishning ijtimoiy-psixologik ahamiyati beqiyosdir. Jumladan, o'smirlik davri psixologiyasi qonuniyatlariga amal qilib ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida o'smirlarni yuksak hissiy-irodaviy holatlarini, xarakter fazilatlarini, temperament tiplari va qobiliyatning noyob tomonlarini tarbiyalash uchun o'zbek xalq psixologiyasi aks etgan maqollardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek xalq maqollari orasida kishilar fe'l-atvorida uchraydigan irodaviy sifatlarning salbiy illatlari (distruktiv xulq-atvor) zarari va oqibatlaridan ogoh etuvchi maqollar keng o'rin topgan bo'lib, ulardan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida o'smir yoshlar tarbiyasini to'g'ri tashkil etish maqsadida psixoterapevtik vositalar sifatida o'rinli foydalanish mumkin.

O'zbek xalq maqollari to'plamidan shaxslararo munosabatlarni me'yorlashtirish, yashash va turmush farovonligini ta'minlashga yo'nalgan maqollar keng o'rin olgan bo'lib, ular o'smir yoshlar irodaviy harakatlariga xos muomala - munosabat odobini shakllantirishga, yashash va turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbek xalq og'zaki ijodida odamning narsalar, hodisalar va mehnatga bo'lgan irodaviy munosabatlarini tarbiyalashga xos maqollar anchagina bo'lib, ulardan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida hayotiy misollar sifatida foydalanilsa, yoshlarda narsalarga to'g'ri baho berish, voqealarni real va obyektiv baholash, halol mehnat qilishga o'rganish, mehnat qilishga xos irodaviy bilim, malaka va mahorat kabi insoniy sifat va fazilatlar (konstruktiv xulq - atvor) shakllanadi.

Adabiyotlar

1. Абульханова-Славская К.А. Типология активности личности// Психология личности и образ жизни. –М.: 1997. -С.10-11.
2. Бобнева М.И. Социальные нормы и регуляция поведения. –М.: 2004. -310 с.
3. Быков А.В. Генезис волевой регуляции: монография // М., 2003. – 248 с.
4. G'oziyev E. G'. Umumiy psixologiya. –T.: 2010. -544 b.
5. Jabborov A. M. O'qituvchi etnopsixologiyasi. Qarshi "Nasaf". 2015. – 180 b.
6. Jabborov A.M. Milliy psixologiyaning shakllanish manbalari. Qarshi "Nasaf". 2017.–72 b.

Koshnazarova Maloxat Alimovna

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti" O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: maloxat75a@gmail.com

MOBILLIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH SHARTI SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada psixologik kontekstda "mobillik" va "mobil shaxs" tushunchalari tahlil qilinib, unda kasbiy mobillik muammosini tizimli yondashuv nuqtai nazaridan yoritishning turli tendensiyalari tadqiq qilingan. Shuningdek, mobil shaxs xususiyatlari ochib berilgan. Mobil mutaxassisning kompetentligini belgilovchi omillar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: mobillik, ijtimoiy mobillik, kasbiy mobillik, kasbiy-pedagogik mobillik, tizimli yondashuv.

МОБИЛЬНОСТЬ КАК УСЛОВИЕ ПОДГОТОВКИ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В статье анализируются понятия «мобильность» и «мобильная личность» в психологическом контексте, а также исследуются различные тенденции системного подхода к проблеме профессиональной мобильности. Также раскрываются особенности мобильной личности. Обсуждаются факторы, определяющие компетентность мобильного специалиста.

Ключевые слова: мобильность, социальная мобильность, профессиональная мобильность, профессионально-педагогическая мобильность, системный подход.

MOBILITY AS A CONDITION OF PREPARATION FOR PROFESSIONAL ACTIVITY

Abstract. The article analyzes the concepts of "mobility" and "mobile personality" in a psychological context, and also examines various trends in a systematic approach to the problem of professional mobility. The features of a mobile personality are also revealed. Factors that determine the competence of a mobile specialist are discussed.

Key words: mobility, social mobility, professional mobility, professional-pedagogical mobility, systematic approach.

Kirish. O'zbekistonda oliy ta'limi tizimi hozirgi vaqtda bir qator asosiy muammolarni hal qilish bilan bog'liq global o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Xususan:

- ✓ amaldagi qonunchilikning bozor iqtisodiyoti sharoitida oliy ta'limni rivojlantirish maqsadlariga mos kelmasligi;
- ✓ ta'lim dasturlarining mehnat bozorining real ehtiyojlariga nisbatan yetarli darajada moslashuvchan emasligi;
- ✓ ta'lim muassasalarida ham, undan tashqarida ham ish beruvchilar tomonidan samarali boshqaruv tizimlari va mutaxassislar tayyorlash sifatini baholashning shakllanmaganligi;
- ✓ pedagogik kadrlar darajasini pasaytirish; yosh istiqbolli kadrlarning xorijga va faoliyatning boshqa sohalariga chiqib ketishi;
- ✓ OTMlarning zamonaviy o'quv, laboratoriya va ilmiy jihozlar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi;
- ✓ mutaxassislarni kasbiy tayyorlash jarayoniga zamonaviy texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi.

Bunday sharoitda ko'rib chiqilayotgan va hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ko'lamini kengaytirish hamda tegishli qonunchilik, mazmun-mohiyat va tashkiliy chora-tadbirlarni ko'rish zarurati tug'iladi.

Davlat ta'lim siyosatining zamonaviy strategiyasi "O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari", ularni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuida, ta'limni rivojlantirishning tashkiliy asosi sifatida maqsadli dasturda o'z ifodasini topgan.

Kasbiy faoliyatni amalga oshirish muhandislarga ma'lum talablarni qo'yadi: u kasbiy jihatdan malakali, ijtimoiy moslashgan va faol bo'lishi kerak. Doimiy o'zgaruvchan sharoitlarda ishlaydigan muhandis muntazam ravishda bu o'zgarishlarga tayyor bo'lishi kerak. Bizningcha, bu davlat "mobillik" sifatida belgilanishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning mobilligini rivojlantirish pedagogika va psixologiya sohalarida ko'proq o'rganilgan muammodir.

Kasbiy mobillikni o'rganish uchun asos rus psixologlari - P.Sorokin, M.Veber, E.Dyurkgeym asarlarida ko'rib chiqilgan bo'lib, bu ijtimoiy hodisa sifatida funktsional yondashuv asosida tahlil qilishgan.

Boshqa bir olimlar esa kasbiy mobillikni ijtimoiy tabaqalanish pozitsiyasidan ko'rib chiqishgan. Jumladan, T.I.Zaslavskaya, R.V.Ryvkina, V.G.Podmarkovalarning ishlarida mehnat faoliyatini tahlil qilish va ish joyini o'zgartirish mexanizmlarini o'rganish metodologiyasi ishlab chiqilgan [1].

Zamonaviy jamiyat har qanday o'zgarish va yangiliklarga tayyor mobil mutaxassisga muhtoj. Hozirgi vaqtda insonning ma'lum bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi yetarli emas. Atrofimizdagi dunyo kundan-kunga tezroq va tezroq o'zgarib bormoqda va ba'zida bu yoki boshqa o'zgarishlar nimaga olib kelishini bilmay qolasiz. Inson ushbu o'zgarish sikliga moslashishi uchun uning o'zi o'zgarishi kerak.

Mobillik (lotincha mobilis - mobil) - topshiriqlarni tez bajarishga tayyorlik degan ma'noni anglatadi.

Rus olimi O.Golovanov esa inson faoliyati tufayli yaratilgan yoki o'zgartirilgan qiymatning bir ijtimoiy pozitsiyadan ikkinchisiga o'tishidir, deya ta'kidlaydi [2].

Ijtimoiy fanlarda mobillikning quyidagi turlari:

- ✓ yuqoriga va pastga yo'naltirilgan;
- ✓ ijtimoiy va ta'limiy.

Jamiyatning ijtimoiy mobilligi qarama-qarshi jarayon ekanligini tushunish muhimdir. Bir ijtimoiy qatlamdan ikkinchisiga (vertikal mobillik) yoki bir xil ijtimoiy qatlam doirasidagi (gorizontal mobillik) ijtimoiy tuzilmadagi shaxs yoki guruh egallagan joyning o'zgarishi har doim ham yumshoq va og'riqsiz emas.

Ijtimoiy mobillik sanoat va postindustrial jamiyatda sezilarli darajada ortadi. Har bir inson uchun mobillik har doim qiyin, chunki ular yangi submadaniyatga moslashishlari, yangi aloqalarni o'rnatishlari va yangi maqomini himoya qilishlari kerak. Shu bilan birga, murakkab jamiyat uchun cho'qqilarga ochiq yo'l, ko'p sonli erishilgan maqomlar rivojlanishning yagona yo'lidir, chunki aks holda ijtimoiy keskinlik va nizolar kelib chiqadi.

Psixologik kontekstda "mobillik" va "mobil shaxs" tushunchalari boshqa fanlar tomonidan taklif qilinganlardan farq qiladi. Psixologik nuqtai nazardan mobillik shaxsning fazilatlaridan biri - o'z ehtiyojlari, qarashlari va maqsadlariga muvofiq o'zini o'zgartirish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

Rus olimlari - O.V.Amosova, O.M.Dudina, P.M.Ratnikova, Yu.I.Kalinovskiy, va N.I.Tominlarning tadqiqotlarida mobillikni, bir tomondan, shaxsning sifati, ikkinchi tomondan, jarayon sifatida ko'rsatiladi[3]. Binobarin, ijtimoiy mobillik ikki tomonlama yuzaga keladi. "Mobillik" toifasining ikki tomonlamaligi inson mobil bo'lishi mumkinligi bilan tavsiflanadi. Agar u ma'lum shaxsiy va kasbiy fazilatlarga ega bo'lsa, lekin uning mobilligi faqat faoliyatda susayishi mumkin va agar u faoliyatda amalga oshirilgan bo'lsa, insonning mobilligi darajasi va saviyasi haqida gapirish kerak.

Ilmiy, pedagogik va ijtimoiy adabiyotlarda "ijtimoiy mobillik", "ijtimoiy-madaniy mobillik", "akademik va ta'lim mobilligi" kabi tushunchalarning shakllanishi genezisini tahlil qilib, zamonaviy kasbiy ta'limning natijasi bitiruvchilarning yangi turdagi kasbiy mobillik qobiliyati bo'lib, bu ularning o'ziga va kelajagiga, kuch va imkoniyatlariga ishonchining asosi ekanligini ta'kidlashimiz joiz.

Biz V.E.Klochko va E.V.Galajinskiylarning "Mukammal shaxs" tushunchasini qo'llaymiz - "muntazam ravishda o'zini doimiy nobutunlikdan yaxlitlashtirmoqda, doimo murakkabroq bo'lib bormoqda". Ushbu asorat mobillikni ta'minlaydigan ma'lum psixologik xususiyatlar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Shu o'rinda mobil shaxsning ba'zi psixologik xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Metodlar: tarixiy, retrospektiv va nazariy-uslubiy manbalarni tahlil qilish, olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va sharhlash, kuzatish, suhbat, anketa, kontent tahlil, kvalimetriya va ekspert baholash.

Natijalar va muhokama: Mobil shaxs ma'lum psixologik xususiyatlarga ega, biz birinchi navbatda faollik, ijtimoiy faollik, egiluvchanlik, ochiqlik va o'zini o'zi anglash istagi haqida gapirish kerak, deb hisoblaymiz. Bu xususiyatlar mobillikni ta'minlaydigan o'zgaruvchan sharoitlarda yaxlitlikni saqlashga yordam beradi.

Mutaxassisning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi uning jamiyat hayotidagi ongli ishtiroki darajasi bilan o'lchanadi. Mutaxassis shaxsining faol hayotiy pozitsiyasini shakllanishi va namoyon bo'lishi uning ijodiy salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq.

Faoliyat asab tizimining mulki bo'lib, shaxsning shakllanishi uchun asos bo'ladi. Ontogenezning dastlabki bosqichlarida shaxsning "poydevori" qo'yiladi. Rus psixologi S.L.Rubinshteyn, insonning xatti-harakati ma'lum sharoitlarda yuzaga keladi va uning sababi "ichki sharoitlar" deya ta'kidlayotgan bir paytda, rus olimi A.N.Leontev esa "kelajakka moslashish, ayniqsa, insonning xatti-harakatlariga xosdir", - deb yozadi [5].

Ijtimoiy faollik turli xil tashqi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Uning foydali natijasi insonning "vaziyatni va o'zini" qayta qurishga qo'shgan hissasi bilan o'lchanadi. Shu bilan birga, faoliyat shaxsning

subyektiv pozitsiyasi bilan tashkil etiladi va boshqariladi, tashqi talablarni ichki talablarga "o'tkazish"ni ta'minlaydigan yaxlit shakllanish sifatida ishlaydi.

Mobil shaxs - bu psixologik jihatdan sog'lom, kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyor, qat'iyatlilik va o'zini o'zi tashkil qilish bilan ajralib turadigan shaxs. Diqqat va faoliyat obyekti nafaqat tashqi dunyo, balki o'zi ham bo'lib, uning "Men" tuyg'usida namoyon bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, o'z-o'zini tasavvur qilish, o'zini o'zi qadrlash, o'zini o'zi takomillashtirish dasturlari va unga odatiy ta'sirlarni o'z ichiga oladi. Bu esa uning ba'zi fazilatlarini va o'zini o'zi boshqarish qobiliyatlarining namoyon bo'lishida aks etadi.

Ochiqlik, egiluvchanlik, faollik va bu jarayonlarning barchasidan xabardorlik tufayli jamoat maydoniga moslashib, inson o'zini o'zi amalga oshiradi va shu bilan o'zini mobil shaxs sifatida namoyon qiladi [6]. Bunday odam yangi xulq-atvor namunalari yaratadi yoki mavjudlarini o'zgartiradi. Bu unga atrof-muhit bilan yanada samarali munosabatda bo'lish, u bilan bog'liq munosabatlarni doimiy ravishda o'zgartirish va yangilash imkonini beradi.

Mobil shaxs - bu o'zgaruvchan shaxsiy xususiyatlarga (egiluvchanlik, faollik ochiqlik) ega ochiq psixologik tizim bo'lib, bu shaxsning tuzilishini vayron qiluvchi o'zgarishlarsiz vaziyat talab qiladigan tarzda o'zgartirishni ta'minlaydi. O'zgarish insonning tizimli tashkil etilishi tufayli mumkin bo'ladi.

Mobillik - bu shaxsning psixologik xususiyati bo'lib, u biror bir ehtiyoj bo'lgandagina yuzaga kelishi mumkin [7]. Mobillik (ichki mavjudligi bilan) tashqi ehtiyojda odamning xatti-harakatiga maqsadli xususiyat beradi, shuning uchun belgilangan maqsadga ma'lum harakatlar bilan erishish mumkin.

Xulosa. Shunday qilib, kasbiy mobillik ijtimoiy xususiyatga ega. U faqat ijtimoiy tizimlarda namoyon bo'lishi mumkin; uning muvaffaqiyati mutaxassis shaxsi shakllanadigan ijtimoiy va ta'lim muhitiga bog'liq. Kasbiy faoliyatni muhokama qilishda biz ko'plab mualliflarning pozitsiyasiga amal qilamiz: u shaxsning ijtimoiylashuv darajasining ko'rsatkichi bo'lgan faoliyatga asoslanadi va nafaqat shaxsning boshqa kasbiy sharoitlarga moslashishida namoyon bo'ladi, balki ularni o'zgartirishga ham qaratilgan. Ushbu shartlarning o'zgarishi darajasi faoliyat ko'rsatkichi va natijada kasbiy sohadagi mutaxassisning mobilligi hisoblanadi. Bir tomondan, mutaxassisning kasbiy mobilligi olingan ta'lim natijasida, ikkinchi tomondan, ushbu ta'limni belgilovchi omil sifatida ishlaydi.

Umuman olganda, kasbiy mobil shaxsning rivojlanishi va shakllanishini ko'rib chiqish uchun psixologlar va o'qituvchilarga mutaxassislarning mobilligini shakllantirish uchun sharoit yaratishga imkon beradigan psixologik xususiyatlarni ajratib ko'rsatish kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Горюнова Л.В. Составляющие профессиональной мобильности современного специалиста // *Естествознание и гуманизм. Сб. научных работ. Т.2. №5. Под ред. проф., д.б.н. Н.Н. Ильинских.* - Томск: Томский государственный университет, Сибирский государственный медицинский университет, 2005. - С.8-11.
2. Каплина С.Е. Концептуальные и технологические основы формирования профессиональной мобильности будущих инженеров в процессе изучения гуманитарных дисциплин. Автореф. на соиск. уч.ст. докт. пед. наук. – Чебоксары, 2008. – С.47.
3. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема // *Scientific progress. Volume 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan.* – Pp. 384-390. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf>
4. Salayeva M.S., G'ulamova S.R. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning virtual akademik mobilligini shakllantirish / "Xorijiy tillarni o'qitishda yangicha yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: "Firdavs-Shoh" nashriyoti, 2022 – B. 209-213.
5. Salayeva M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida shaxs mobilligini shakllantirish Monografiya – T.: 2024. - 128 b.
6. Salayeva M.S. Professional darajaga erishish maqsadida pedagogning virtual akademik mobilligini rivojlantirish / "Xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb masalalari: muammolar va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. Elektron to'plam.. 2021-yil 5-may. - B.230-234.
7. Salayeva M.S., G'ulamova S.R. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning virtual akademik mobilligini shakllantirish / "Xorijiy tillarni o'qitishda yangicha yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: "Firdavs-Shoh" nashriyoti, 2022 – B. 209-213.



Ro'ziqulova Amina Totliboyevna

Navoiy davlat pedagogika instituti "Umumiy pedagogika va psixologiya" kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Rahmatova Nasiba Sobirovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası
Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi o'qituvchisi.

IRODAVIY HARAKATLAR MUSTAQILLIGI SHAXSNING TASHABBUSKORLIGIDA NAMAYON BO'LISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishida qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishi, mustaqillik, qat'iyatlilik, tirishqoqlik kabi mavzular ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Iroda, tashabbuskorlik, mustaqillik, tirishqoqlik, intizomlilik, qat'iyatlilik, o'z xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari, xulqatvori kabilarni boshqara bilishda aks etuvchi iroda sifatidir.

НЕЗАВИСИМОСТЬ ВОЛЕВЫХ ДЕЙСТВИЙ ПРОЯВЛЯЕТСЯ В ИНИЦИАТИВЕ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В данной статье раскрываются такие темы, как самоконтроль, самостоятельность, настойчивость, а также самоуправление своей деятельностью и поведением, направленное на преодоление трудностей в достижении своих целей.

Ключевые слова: Воля, инициатива, самостоятельность, трудолюбие, дисциплинированность, целеустремленность – качества воли, выражающиеся в умении управлять своими действиями, эмоциями, поведением и т.п.

THE INDEPENDENCE OF VOLUNTARY ACTIONS IS MANIFESTED IN THE INDIVIDUAL'S INITIATIVE

Abstract. This article reveals topics such as self-management, independence, perseverance, and self-management of one's activities and behavior aimed at overcoming difficulties in achieving one's goals.

Key words: Will, initiative, independence, diligence, discipline, determination, is the quality of will that is reflected in the ability to control one's actions, emotions, behavior, etc.

Kishilarning irodaviy harakatlariga ularning mustaqillik darajasiga qarab ham baho beriladi. Irodaviy harakatlarning mustaqilligi kishining avvalo tashabbuskorligida ko'riladi. Tashabbuskorlik biror bir ishni shaxsan boshlab yuborish demakdir. Tashabbuskorlik odatda tevarakatrodagi sharoit hamda ijtimoiy hayot talablarini epchillik, mohirlik bilan hisobga olish va ko'pincha kelajakni, yangilikni oldindan ko'ra bilish qobiliyati bilan bir vaqtda namoyon bo'ladi.

Tashabbuskor kishi shaxsiy hayotida ham, ijtimoiy faoliyatida ham vaziyat va turmush talablarini hisobga ola biladi, shu bilan bir vaqtda vazifalarni ilgari suradi, qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun yo'l va vositalari tanlaydi va bu vazifalarni hal etishda faol ishtirok etadi. Mustaqillik qilinmagan va qilingan ish-harakatlar uchun javobgarlik sezishda ko'rinadi. Javobgarlikni sezish ayni harakatlarning to'g'riligiga, maqsadga muvofiq ekanligiga va zarurligiga ishonch hosil qilish demakdir. Irodaning mustaqilligi yana boshqa kishilarning fikr, maslahat va takliflarini tanqidiy ko'z bilan mulohaza qilib chiqishda ham ko'rinadi. Tanqidiy ko'z bilan mulohaza yuritish xarakter xislati bo'lib, boshqa kishilarning birga maslahat va takliflarini diqqat bilan tahlil qilishda ko'rinadi, xarakterning shu xislati bo'lgan kishi boshqa kishilarning fikr va maslahatlariga e'tibor bilan quloq soladi, ularga muayyan tamoyillar nuqtai nazaridan baho beradi, ijobiy foydali narsani qabul qilib undan foydalanadi, salbiy befoyda narsani dalillar bilan rad etadi. Ayrim kishilarning iroda mustaqilligi ba'zan qaysarlik kabi maxsus holatda ko'rinadi. Bu holat shundan iboratki, odam boshqa kishilarning aytgan hamma gaplariga, maslahat, iltimoslariga qarshilik ko'rsatadi. Qaysarlik qilayotgan odam yo buyirilgan ishni qilmasdan, o'z bilganini qilaveradi yoki buyirilgan ishni teskarisini qiladi.

Iroda — bu insonning qo'yilgan maqsadlariga erishish uchun qilgan faolligidir. Iroda tushunchasi mohiyatiga inson tomonidan maqsad qo'ya olish kabi shaxsiy gavdasini va xulqini idora qilish ham kiritiladi. I.V.Selivanov irodani tadqiq etish negizidan kelib chiqqan holda ayrim xulosalarni chiqaradi:

a) iroda - bu shaxsning o'z faoliyatini va olamdagi o'zini o'zi boshqarish shakllarini anglashning tavsifidir;

b) iroda — inson yaxlit ongining bir tomoni hisoblanib, u onging barcha shakl va bosqichlariga taalluqlidir;

d) iroda — bu amaliy ong, o'zgaruvchi va qayta quriluvchi olam, shaxsning o'zini ongli idora qilishlikdir;

e) iroda — bu shaxsning hissiyoti va aql-zakovati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatidir, ammo qaysidir harakatining motivi, turtkisi hisoblanadi.

P.M.Yakobson bo'lsa, irodaning muhim jihatlari sifatida mustaqillik, qat'iylik, tirishqoqlik o'zini uddalashni ko'rsatadi. Insonda namoyon bo'ladigan irodaviy sifatlar sarasiga A.I.Shcherbakov quyidagilarni kiritadi: sobitqadamlik va tashabbuskorlik, tashkillashganlik va intizomlilik, erinchoqlik va qat'iyatlilik, chidamlilik va o'zini uddalashlik, botirlik va jasoratlilik.

Iroda borasidagi tadqiqotlarda "ishonch" atamasi kamdan kam hollarda qo'llaniladi. Shunga qaramasdan ishonch, iroda sifati tariqasida tadqiq etilishga haqlidir. Buning uchun A.I.Shcherbakov tomonidan quyidagicha tadqiqot ishi amalga oshirilgan. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, bir talabaga qisqa vaqt ichida institutni tugatish taklif qilingan, lekin sinaluvchi bu ishni uddasidan chiqa olmaslikni oshkora bildirgan. Shundan so'ng tadqiqotchi talabada o'z kuchiga ishonch uyg'otishni maqsad qilib qo'ygan va unda irodaviy zo'r berish, qiyinchiliklarni yengish vositalarini shakllantirgan. Buning natijasida talaba o'z maqsadiga erishishga musharraf bolgan. Xuddi shu bois hozirgi zamon psixologiyasining irodaga oid nazariyasi zaifligi tufayli irodaviy sifatlarini tasniflashning asosiy tamoyili ishlab chiqilmagandir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, tirishqoqlik, intizomlilik, qat'iyatlilik sifatleri bilan bir qatorda chidamlilikni irodaviy xislatlarning yetakchisi tariqasida tan olish, qiyinchiliklarga qaramasdan, harakatni davom ettirishga intilish tarzida tushunish muhim ahamiyat kasb etishi shak-shubhasiz. Lekin og'riqqa chidash, bardoshlilikka moyillik nuqtayi nazardan yondashilganda esa irodaning erkinligi ta'biri, irodaviy sohaning paydo bolishi va amalga oshishi mohiyati yuzasidan metodologik nuqsoniy talqin yuzaga kelishi mumkin.

Intizomlilik - xarakter xislati bo'lib, jamiyat talablariga ongli ravishda o'z ixtiyori bilan bo'ysina bilishda ko'rinadi. Intizomlilik, jumladan, belgilangan tartibga aniq rioya qilishda, olingan va'dani vijdonan bajarishda, o'z burchiga ongli ravishda bo'ysinishda o'z ifodasini topadi. Intizomli kishi mustaqil tashabbuskor bo'lib, ayni vaqtda qabul qilingan qarorlarni so'zsiz ijro etadi, jamiyat manfaatlariga va axloq tamoyillariga itoat qila biladi. Mustaqillik ayni vaqtda irodaning kuchli ekanligini ham ko'rsatadi.

Maqsadga intilish – shaxsning o'zidagi barcha kuch-quvvatlarini oldiga qo'ygan maqsadiga qaratish, o'z xatti-harakatlarini ko'zlagan maqsadiga erishish vazifasiga bo'ysundirish, har qanday qiyinchilik va to'siqlarga qaramay maqsadni amalga oshirish uchun intilish qobiliyatidir.

O'zini tuta bilish – odamning o'z xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari, xulq-atvori kabilarni boshqara bilishda aks etuvchi iroda sifatidir.

Chidamlilik – maqsadga erishishda odamning ko'pincha sovuq va issiqqa ham, ochlik-tashnalikka ham, betoblik va boshqa shu singari qiyinchiliklarga qaramay, barcha to'siqlarni yengib, o'z maqsadini ro'yobga chiqarishga intilishda aks etuvchi ijobiy sifatidir.

Qat'iylik - shaxsning vaziyatni tezda baholab, o'z vaqtida asosli, o'ylangan va mustahkam qaror qabul qilishi, hech qanday ikkilanishsiz uni bajarishga kirishishidan iborat fazilatidir. Botirlik – odam sog'lig'i yoki hayoti uchun xavfli va murakkab sharoitda ham biron qarorga kelishi va uni bajarishning uddasidan chiqa bilish xislatidir.

Sabotlilik – shaxsning qabul qilgan qarorini bajarish va o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun, ko'p vaqt hamda muayyan qiyinchiliklarni yengish talab etilishiga qaramay, og'ishmay intilishda gavdalanuvchi iroda belgisidir.

Mustaqillik – insonning o'zicha biror qarorga kelishi va uni amalga oshirishidan, qarorni amaliyotga tatbiq etishning usul va yo'llarini o'zi mustaqil tanlashidan, har bir ishda o'zining bilimlari, dunyoqarashi va e'tiqodlariga amal (rioya) qilishidan iborat iroda sifatidir.

Mardlik – oliy maqsadlarni ko'zlab ish ko'ruvchi, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishda qat'iylik, vazminlik, sabr-matonat, chidamlilik, bardoshlilik, mustaqillik va dadillik ko'rsatuvchi xislatlar majmuasidir.

Maqsadlarni amalga oshirishda yengishga to'g'ri keladigan qarshilik va qiyinchiliklar kishidan kuch hamda vaqt sarf qilishni talab qilibgina qolmay, balki unga, ko'pincha, jismoniy va ruhiy azob beradi.

Kishi o'z faoliyati davomida, ba'zan sovuq va issiqdan, yomg'ir va qordan, qattiq toliqish va och qolishlikdan hamda turli kasalliklardan azob chekadigan hollari bo'ladi. Agar, mana shunday qarshiliklarga qaramay, kishi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga sodiq bo'lib, uni amalga oshirishga urinaversa, bunday harakatlarda ko'rinadigan irodani chidam va toqat deb ataladi.

Kosmonavtlarning jasoratlari g'oyat zo'r chidam va toqatligi bilan xarakterlidir. Irodaning bunday sifati ulardan taxminiy mashqlar o'tkazish davridayoq talab qilingan edi. Lekin irodaning bu sifati, xususan, o'qish paytida, ya'ni ular g'oyat zo'r jismoniy va asabiy o'zgarishlarni toqat bilan kechirishlariga to'g'ri kelgan paytda kuchli namoyon bo'ladi. Shuning bilan bir vaqtda bu qahramonlar jiddiy keskinliklarga chidab o'qish davomida turli yo'l tutmoq va harakat qilmoq uchun onglarini juda ravshanlikda saqlab qolishlari lozim edi. Tibbiyot va psixologik tekshirishlarning ko'rsatishicha, shu qadar jiddiy vazifani ado etishga faqat mustahkam sog'liq hamda kuchli irodaga ega bo'lgan kishilargina chiday olishlari mumkin edi. Odamdagi qat'iyat va chidamlilik aniq maqsad va o'zining anchagina barqarorligi bilan ajralib turadigan kuchli motivlarning mavjudligiga bog'liq.

Iroda kuchi irodaning muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi butun irodaviy jarayonlarda ko'rinadi. Iroda kuchi, avvalo, intilishlarda ko'rinish boshlaydi; biz kuchli hamda kuchsiz intilishlarni, kuchli va kuchsiz xohishlarni farq qilamiz. Iroda kuchi yana tezlik bilan qarorga kela olishda va qarorning mustahkamligida ko'rinadi.

Yuksak g'oyaviy tamoyillarga asoslangan ongli qat'iyat va sabotlilik kuchli iroda belgilaridandir; qat'iysizlik, ikkilanish, qabul qilingan qarorning bajarilishiga shubha bilan qarashlik va sabotsizlik kuchsiz iroda belgilaridandir. Iroda kuchi qat'iyatlikda ifodalanadi. Qat'iyat qarorning bajarilishiga to'la ishonish va qarshilik hamda qiyinchiliklar qanchalik katta bo'lmasin uni albatta amalga oshirishga otlanishdir. Jazm o'z-o'ziga buyruq berishdir.

Vijdoniy burch talabi yoki yuksak maqsadni amalga oshirish tufayli odamning kerak bo'lib qolgan paytda o'lim bilan hayot o'rtasidan birontasini darhol tanlab ola bilishida ko'rinadigan jazm, kuchli iroda dalilidir. Bunday jazmning misoli sifatida Usmon Nosir, Cho'lpon, Abdulla Qodiriylarning mardona jasoratini ko'rsatishimiz mumkin.

Iroda kuchi qabul qilingan qarorni o'z vaqtida bajarishda ko'rinadi. Shuning uchun qarorni bajar-maslik yoki uning bajarilish muddatini doim «galdan-galga» qoldiraverish va boshlangan ishni oxirigacha yetkaza olmaslik kuchsiz irodaning alomatidir. Ammo berilgan qarorni bajarishning, qilingan ish-hara-katning hammasi ham irodaning kuchli ekanidan darak beravermaydi. Iroda kuchi, asosan, irodaviy hara-katlar yordami bilan qanday to'siqlar yengilgani va buning bilan qanday natijalarga erishilganligi ila aniqla-nadi. Biz irodaviy zo'r berishlar vositasi bilan yengadigan qarshilik va qiyinchiliklar darajasi va xarakteri iroda kuchining obyektiv ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kishining dunyoqarashi irodaga va iroda kuchining namoyon bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Dunyoqarash kishilarning mehnat va ijodiy faoliyatlaridagi har qanday qiyinchiliklarni yengishlarida ularning irodalarini harakatga keltiruvchi buyuk kuchdir. Ishonch e'tiqodlar kishining in-tilishlari va harakatlarini ongli intilish va harakatlar bo'lishiga yordam beradi. Intilishlarimiz va hara-katlarimiz, ongli intilish hamda harakatlar bo'lsa va harakatlarimiz qaratilgan maqsad muhim bo'lsa, bu harakatlar ham juda aniq, qat'iy va barqaror bo'ladi. Ulug' maqsadlar ulug' g'ayrat tug'diradi. Iroda kuchi katta to'sqinliklarni bartaraf qila olish qobiliyati bilangina ifodalanmay, tashabbuskorlik ko'rsatish, mus-taqillik, dadillik ko'rsatish va qabul qilingan qarorlar uchun, o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyat sezish bilan ham ta'riflanadi. Irodaviylik - xarakter xislati bo'lib, jamiyat talablariga ongli ravishda o'z ixtiyori bilan bo'ysuna bilishda ko'rinadi. Intizomlilik, jumladan, belgilangan tartibga aniq rioya qilishda, olingan va'dani vijdonan bajarishda, o'z burchiga ongli ravishda bo'ysinishda o'z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'oziev E.G'. Komil insonning psixologik tavsifi. Toshkent: "Universitet", 2006
2. Baratov Sh.R., Olimov L.Y., Avezov O.R. Psixologiya nazariyasi va tarix — Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019. — 504 b.
3. Sh.M. Salixov, T.M. Salixov Sportchilardagi hissiy - irodaviy sifatlarning psixologik xususiyatlari. 2021yil
4. M. E. Zufarova. Umumiy psixologiya. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. - 304 b.
5. M. E. Zufarova Umumiy psixologiya o'quv qo'llanma O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. - 304 b.

UDK: 159.9

Zaynobidinov Jalolidin
Fargʻona davlat universiteti dotsenti
Psixologiya fanlar nomzodi

TALABALARDA RAHBARLIK SIFATLARINI VA QOBILIYATLARINI ANIQLASH USULLARI

Annotasiya. Ushbu maqolada talabalarda rahbarlik sifatlarini faoliyati jarayonida shakllantirish, boshqaruvchanlikka qobiliyatlarini aniqlangan. Guruh sharoitida talabalarni yetakchi faoliyati boʻlgan oʻquv jarayonida hamda oʻzaro hamkorlik sharoitida namoyon boʻladigan rahbarlik sifatlarini emperik tarzda asoslangan.

Kalit soʻzlar: intellekt, boshqaruv, qobiliyat, "rahbar", "lider", "ilmiy menejment", X-nazariyasi, Y-nazariyasi.

МЕТОДИКИ ИЗУЧЕНИЯ ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ И СПОСОБНОСТЕЙ У СТУ- ДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье раскрывается формирование лидерских качеств студентов и определена их способность управлять. Эмпирически обоснованы лидерские качества, проявляющиеся в образовательном процессе студенческой группы в условиях взаимного сотрудничества.

Ключевые слова: интеллект, управление, способности, лидер, руководитель, научный менеджмент, X – теория, Y – теория.

METHODS FOR DETERMINING LEADERSHIP QUALITIES AND ABILITIES IN STU- DENTS

Annotation. In this article, students have identified those who are capable of management, forming leadership qualities in the process of their activities. The group is empirically based on the qualities of leadership that are manifested in the educational process, which is the leading activity of students in the conditions, as well as in the conditions of mutual cooperation.

Keywords: intelligence, management, ability, "leader", "leader", "scientific management", X-theory, Y-theory.

Kirish. Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy taʼlim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi. Maʼlumki Respublikamizda majburiy umumiy oʻrta taʼlim qonun yoʻli bilan mustahkamlab qoʻyilgan. Bunday taʼlimni umumiy taʼlim maktablari, litsey gimnaziyalar, oʻrta kasb-hunar oʻquv yurtlari va tijorat maktablarining keng tarmogʻi orqali olish mumkin.

Moddiy ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohasida band boʻlgan 4 kishining bittasi oliy yoki oʻrta maxsus maʼlumotga ega. Yuqoridagi maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, respublikamizda taʼlim tizimi yaxshi yoʻlga qoʻyilgan, bu esa oʻquvchilarni aqliy qobiliyatini oshirishga intellektni rivojlantirishga oʻzining ijobiy taʼsirini koʻrsatmoqda. Bunda oliy oʻquv yurtlarini ahamiyati kattadir. Yoshlarni qay usulda oʻqitish, ularni tarbiyalash, mustaqil mamlakatning yetuk mutaxassislari boʻlishiga qaygʻurish har birimizning muqaddas burchimizdir" deb taʼkidlagan.

Boshqaruv muammosi XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Bu holat inson omilligining barcha ijtimoiy jarayonlardagi oshgan roli boʻlib hisoblanadi. Bundan tashqari, insonlarning oʻzida ham ilk yoshlikdan liderlikka ishtiyoq, xizmat lavozimlarida muvaffaqiyatga intilishga moyillik kabi shaxsiy sifatlar ham namoyon boʻla boshlaydi. Bunday ijtimoiy psixologik hodisalar eng avvalo boshqaruv sohasini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish, mehnat maxsuldorligi va insoniy munosabatlarni yaxshilash kabi masalalarda ushbu omilning taʼsirchan roli oshgan kun tartibiga dolzarb qilib qoʻydi.

Mustaqil rivojlanish yoʻlidan borayotgan Oʻzbekiston uchun ham boshqaruv tizimini takomillashtirish, rahbar kadrlar tanlash, tayyorlash, malakasini oshirish, ularning bilim saviyalarini yanada yuqori boʻlishi bilan bogʻliq shart-sharoitlarni yaratish masalasi taraqqiyotning muhim omiliga aylanib bormoqda.

Psixologiya boshqaruv faoliyatining subyekt boʻlgan insonlarni koʻrganda, ikkita kategoriya borligini eʼtirof etadi. Bu — «rahbar» va «lider» tushunchalaridir. Birinchi tushuncha koʻproq rasmiy

munosabatlar tizimida faoliyat ko'rsatadigan, asosiy vazifasi tashkilotning davlat va jamiyat oldidagi vakolatlarini yurituvchi shaxsga ta'alluqli bo'lsa, lider jamoa ichidagi norasmiy munosabatlarning mahsuli, jamoadagi ma'naviy — psixologik muhitga bevosita javobgar insonga nisbatan ishlatiladi. Lider tushunchasi bilan umuman boshqaruv tizimi muammolarini uyg'unlashtirishga intilish bor. To'g'ri, boshqaruv masalalariga aloqador «menejer», «boss», shef» kabi qator tushunchalar ham bor, lekin shu nuqtai nazardan ushbu fenomen liderlik doirasida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili. Agar ushbu hodisalarning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqaruv nazariyoti va amaliyoti sohalarida tadbiqiy ishlarning tashabbuskori F. Teylor hisoblanadi. Keyinchalik bu yo'nalish "ilmiy menejment» deb atala boshladi. Tayyor yangicha funksional ma'muriyatchilik tizimining asoschisi sifatli boshqaruv uslublariga, intizomiy sanksiyalar va rag'batlantirish tizimiga katta ahamiyat berish lozimligini ta'kidlaydi. U rag'batlantirishning alohida rolini ta'kidlagan tarzda, odamlardagi mehnatga motivatsiyaning asosi sifatida mehnatga haq to'lashining differensial tizimini tavsiya etdi.

Uning izdoshlaridan biri — D. Jilbert esa odamlar yaxshi va unumli ishlashlari uchun ularning ish joylarini va u yerdagi shart-sharoitlarga yaxshilash shartligi g'oyasini ilgari surdi.

Ishlab chiqarishni samarali tashkil etishning muxim omili sifatida insoniy munosabatlarni ilgari surgan E.Meyo, boshqaruvchi eng avvalo odamning o'z professional va ijtimoiy holatidan qoniqishini inobatga olishi zarurligi isbotlagan. U birinchi marta boshqaruvda aniq belgilangan boshliq - bo'ysinuvchi ierarxiya bo'lishi mumkin emasligi, bu narsa jamoadagi psixologik muxitga faqat salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. Shuning uchun ham u individual rag'batlantirishni guruh bilan, iqtisodiy ijtimoiy-psixologik omillar bilan almashtirish kerakligi g'oyasini ilgari surdi.

Meyo boshqarishni rivojlantirib, R. Laykert yaxshi boshqaruvning 15 ta quyidagi omillarini belgilaydi:

- *boshqaruv* uslublaridan shunday mavjudki, bunda rahbar xodimlariga ishonadi;
 - xodimni faol mehnatga, gruppavoy faoliyatga tortadigan *motivatsiya* shakllari;
 - hammaga teng etib boradigan kommunikatsiya turi;
 - barcha a'zolar ishtirokida va ularning fikrlarini inobatga odadigan *qarorlar qabul kilish*;
- Jamoaning umumiy muhokamasi natijasida belgilangan *maqsadlar*;
- Markazlashmagan *nazorat* shakli.

Boshqaruv muammolariga bag'ishlangan nazariyalar orasida De Mak-Gregorning «X» va «O» quv nazariyalari alohida da'vat talab qiladi. «X nazariyasi» ma'lumki, boshqaruvga yondashuvning ma'muriy - buyruqbozlikka asoslangan tamoyillarini nazarda tutsa, «O» quv nazariyasi» undan tubdan farq qiladi. «X» yondashuv quyidagilarga tayanadi:

1. Odamning aslida mehnatga toqati yo'q, unga ishdan qochishg moyillik kuchli.
 2. Oddiy odamga tavakkal qilishdan va mas'uliyatlardan qochish xos bo'lib, u passiv va boshqarishlariga muhtoj.
 3. Oddiy odamga ko'p narsa shart emas, uni tinch qo'yishsa bas, u himoyaga, xavfsizlikka muhtoj.
- «Y» — *nazariyasiya esa quyidagilarga asoslanadi:*

1. Odamning jismoniy va intellektual imkoniyatlarini sarflashga intilishi tabiiy bo'lib, uning uchun mehnat faoliyati yoki o'qish kabi maroqlidir.
2. Odam mehnat jarayonida o'z — o'zini boshqarish va nazorat qobiliyatiga ega.
3. Odatda odam o'z bo'yniga mas'uliyatlarni olishga intiladi va o'z iqtidorini namoyish qilishga ehtiyoj sezadi.
4. Odam o'z bo'yniga mas'uliyat olishga undagan narsa — bu umumiy faoliyatda ishtirok etishga moyillikdir.
5. Ko'pchilikda ijodiy ishlash zarurligi tashabbuslar ko'rsatishga ishtiyoq mavjud, bu narsa boshqaruvga ham taluqlidir.

Muhokama va natijalar Tadqiqodimizning amaliy qismida dastlab "Boshqaruvchanlikka qobiliyatingiz bormi" metodikasidan foydalandik guruh natijalar tahlili bo'yicha. Ushbu metodikani tabiat-geografiya fakultetida 30 nafar obyekt sinaluvchida tanlab olindi. Shunday odamlar borki, ular har bir ishni amalga oshirishdan oldin kimningdir ko'magini, ko'rsatmasini kutib turishadi. Ular o'zlaricha mustaqil harakatlanishga odatlanmagan. Ushbu metodikada talabalaridagi rahbarlik sifatleri qay darajada ekanligini bilib olishimiz mumkin. Ushbu metodikamiz 15 ta savoldan iborat bo'lib, uchta variantda, variantlar esa 15, 5, 0 ballari bilan baholanib borildi. Tadqiqodimiz so'ngida ballar hisoblanib, sinaluvchilarimiz ballari bo'yicha ajratib chiqildi. Sinaluvchilarimizning 12 nafarini o'g'il bolalar, 18 nafarini qiz bolalar tashkil qildi. Buni foizlarda ko'rsatadigan bo'lsak, 40 % ni o'g'il bolalar, 60 % ni esa qiz bolalar tashkil qildi.

Sinaluvchilarimizning 15 nafari 120 ballgacha bo'lgan natijalarni to'plashdi. 11 nafar sinaluvchi 180 ballgacha 4 nafar sinaluvchi esa 200 ballgacha natijalarni ko'rsatishdi. Buni foizlarda ko'rsatsak, 120 ballgacha 50 % ni, 180 ballgacha 36.6 % ni, 200 ballgacha esa 13.3 %ni tashkil qildi.

Jadval-1


“Boshqaruvchanlik qobiliyatingiz bormi?” metodikasi tahlili

№	F .I. Sh	Ballari	Natijalar
1	Mamarasulov D	110	120 balldan past: Siz kimlardir o'zingizni boshqarib turishiga qarshi emassiz. Chunki, siz rahbardan ko'ra, ajoyib xodim bo'lishga ko'proq moyilsiz.
2	Ismoilova Z	110	
3	Mamataev A	80	
4	Hazratqulova M	110	
5	Baxromova M	100	
6	Mahmudjonova G	105	
7	Tursunboyev M	115	
8	Yo'ldasheva M	90	
9	Bobobekova M	100	
10	Tolipova R	115	
11	Madatova M	60	
12	Abduxalilova I	90	
13	Ergasheva M	85	
14	Raxmonova M	105	
15	Ergasheva E	85	
16	Qo'ldashev M	135	
17	Soliyev A	140	
18	Nosirov U	125	
19	Akbarova H	145	
20	Saidova N	135	
21	Qobilov K	125	Siz boshqalar ustidan hukmronlik qilishga moyil odamsiz. Adashmasak, hozir ham rahbarlik lavozimidasiz
22	Sunnatov F	130	
23	To'lanova R	155	
24	Maripova E	145	
25	Roziqov J	160	
26	To'lanova A	135	
27	Yo'ldashev M	185	
28	Azizova B	195	
29	Jamolov O	190	
30	No'monov T	190	

Ushbu ko'rsatilgan o'nta rahbar sifatlaridan sinaluvchilar darajalarda raqamlab berishlari kerak boldi. Ushbu metodikadan foydalanib rahbar shaxsi qanday sifatlarga ega bo'lishi kerakligi haqida bilib oldik. Ushbu natijalarni solishtiradigon bo'lsak, ballar qancha kamaygan sari rahbar sifatleri yuqoriga birinchi o'ringa chiqib boradi. Sifatlardan eng ko'p sinaluvchilar 48-59 ballar bilan bilimdon, adolatli kabi sifatlarni qo'yganlar.

Quyidagi o'tkazilgan “Rahbar sifatlarini aniqlash” metodikasi bo'yicha olingan natijalarda talabalar rahbarlarning sifatlarini darajalarda ko'rsatib berilgan.

Tadqiqodimizning ikkinchi bosqichida talabalardan olingan natijalarga ko'ra



1-diagramma Rahbar sifatlarini tahlili

Bilimdon sifati-Tadqiqotda qatnashgan respondentlarimizning birinchi darajaga qo'yishgan bundan ko'rinib turibdiki rahbar shaxs eng avvalo biliml bo'lishi kerak bo'ladi. Bilimdon deganda insonning faqatgina o'zining sohasini yaxshi bilibgina qolmasdan boshqa sohalardan ham yetarlicha xabardor bo'lishi lozim, shundagina bunday shaxsni bilimdon inson deyish mumkin. Bilimdon sifati bo'yicha olingan natijalar taxlili. Ushbu tadqiqotimizda qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan bilimdonlik sifatini ko'proq tanlashgan, qiz bolalarning 25 % i ushbu sifatni yuqori o'rinlarga qo'yishgan, bundan ko'rinib turibdiki, qiz bolalar rahbar ko'proq bilimdon bo'lishlari kerak deb fikrlashadi. Quyidagi tahlilimizda ham bilimdonlik sifatini sinaluvchilar yuqori o'rinlarga qo'yanlar.

Adolatli sifati – Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarimiz adolatli sifatini yuqoriroq darajalarga qo'yishga tadqiqotlarimizda esa ikkinchi pog'onada chiqdi. Adolatli rahbar deganda hodimlarga teng muomala qiladigan, xato qilib qo'ysa yoki o'zaro janjallarda adolatli hokum chiqarishi hamda hodimlarni sharoitini tushuna bilishlik qobiliyatlarini kiritib o'tsak bo'ladi.

Adolatli sifati bo'yicha olingan natijalar tahlili. Tadqiqotimizda ushbu sifatning 45 % i o'g'il bolalar, 55 % i qiz bolalar yuqori o'rinlarga qo'yishgan, bundan ko'rinib turibdiki, qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan ko'proq tanlaganliklari qizlar uchun rahbar adolatli bo'lishi kerakligi aniqlandi.

Tashkilotchilik sifati – ushbu sifat rahbarning asosiy sifatlaridan biri hisoblanadi. Chunki rahbar shaxs barcha ishlarni xodimlardan ko'ra tashkilotchi bo'lmog'i lozim. Tadbirlar tashkillashda dam olish ishlarni rejalashtirishda barcha barchasida tashkilotchi bo'lishi kerak.

Tashkilotchilik sifati bo'yicha olingan natijalar. Respondentlarimiz ushbu sifatni ham yuqori darajalarga qo'yan lekin ushbu sifat tadqiqotimizda uchinchi pog'onada ko'rsatilgan. Tadqiqotda qiz bolalar 25.4 % i yuqori o'rinlarga, o'g'il bolalarning 30.6 % i yuqori darajalarga qo'yan. Bu sifatimizni o'g'il bolalar ko'proq yuqori o'rinlarga qo'yishgan, bundan ko'rinib turibdiki, tashkilotchilik sifati o'g'il bolalar uchun asosiy o'rinlarda bo'lishi kerakligini aniqlandi.

Tartibli sifati - Bu sifat nafaqat rahbarda balki har bitta shaxsda bo'lishi kerak. Tartibli inson o'z ishlarini hayotini rejalashtira oladi va hammasiga ulguradi. Tartib intizom bo'lgan joyda har doim ish unumdorligi yuqori darajada bo'ladi. Buni esa rahbar o'zida xodimlarga ko'rsatib o'rnatib bo'lishi kerak.

Tartibli sifati bo'yicha olingan natijalar tahlili. Tadqiqotimizdagi tartibli sifati bo'yicha qiz bolalarda 42.6 % , o'g'il bolalarda 33.8 % natijalarga erishildi. Bundan ko'rinib turibdiki tartibli sifati ham qiz bolalar yuqori o'rinlarga qo'yan. Qiz bolalarning fikriga ko'ra rahbar sifatleri ichida asosiy o'rinlarda tartibli sifati ham bo'lishi kerak.

Jiddiy rahbar sifati - albatta insonga jiddiy bo'lish hurmat qilishlikni oshiradi va jiddiylik insonning har bir ishga chuqur o'ylab ko'rib yondashishga yordam beradi. Ushbu tadqiqotimizda talabalar rahbarlik sifatlarini belgilashda jiddiylik sifatini beshinchi o'ringa qo'yib belgilab berishgan.

Jiddiy rahbar sifati tahlili. Tadqiqotimiz davomida ushbu sifat qiz bolalarda 36.5 % ni, o'g'il bolalarda 60.5 % ni tashkil qildi. Sinaluvchilarimizning ichida o'g'il bolalarda ushbu sifat bo'yicha

ko'rsatkichlar yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'g'il bolalarning fikriga ko'ra rahbar shaxs jiddiy inson bo'lishi kerak degan fikrda bo'ldilar.

Kasbini sevuvchi – Albatta har bir shaxs o'zi faoliyat yuritayotgan kasbini sevishi kerak o'shandagina yuksalish va o'z kasbini ustasi bo'lib yetishadi.

Shuning uchun rahbar eng avvalo o'zining kasbini sevishi kerak bo'ladi. Bunday rahbar albatta shu kasb ishlovchi xodimlarini tushuna oladi va kasb qiyinchiliklarini anglay oladi. Fikrimizcha kasbini sevuvchilar haqiqiy fidoiy insonlar hisoblanadi.

Kasbini sevuvchi sifati bo'yicha natijalar tahlili. Tadqiqodlarimiz davomida shuni bilib oldikki, qiz bolalarda 65.7 % ni, o'g'il bolalarda esa 33.5 % ni tashkil qildi. Bundan ko'rinib, turibdiki, asosiy qiz bolalar ushbu sifatni yuqori o'rinlarga qo'yanlar. Ularning fikriga ko'ra kasbini sevmasdan turib, yaxshi rahbar bo'lish qiyin degan fikrdalar.

Xushmuomala sifati – Bu sifat nafaqat rahbar shaxsda balki har bir insonda bo'lishi kerak, chunki insonlar bilan muloqot qilishda asosiy rol o'ynaydi. Xushmuomala rahbar ham xodimlar orasida hurmat qozonishi oson bo'ladi. Xushmuomala sifati insonlarda samimiy bo'lishni kulib muomala qilishni talab qiladi.

Xushmuomala sifati natijalar tahlili. Tadqiqodimizning keyingi sifatlaridan biri xushmuomala sifatini qiz bolalarda 55.4 % ni o'g'il bolalarda 45.6 % ni tashkil qilgan. Sinaluvchilarning fikriga ko'ra xushmuomalalik rahbarning asosiy sifatlaridan biri deb ta'kidlashdi.

Madaniyatli sifati – Ushbu sifatda nafaqat rahbar balki har bir shaxs tashqi ko'rinishi, yurish turishi, o'zini tutishi va jamoat joylarida qanday harakat qilishi barchasi ushbu sifatlarga kirib ketadi. Madaniyatli rahbar, o'zini hurmat qilgan holda boshqalarni ham hurmat qilmog'i lozim. Shunda haqiqiy madaniyatli rahbar hisoblanadi.

Madaniyatli sifati natijalari tahlili. Sinaluvchilarimiz ichida qiz bolalarda 42.6% ni o'g'il bolalarda 58.4 % ni tashkil qildi. Bu sifat bo'yicha o'g'il bolalar yuqori chiqdi. Bundan ko'rinib turibdiki o'g'il bolalarning fikriga ko'ra rahbar shaxs madaniyatli bo'lishi kerak degan xulosaga kelishdi. (9 – jadval. 8 - diagramma)

Mehribon sifati - mehribonlik rahbarning o'z xodimlariga bo'lgan kuyinchakligi, ularni har doim tushunishlari va kerak bo'lsa shaxsiy hayotlarida ham yordam berishlari kerak bo'ladi. Haqiqiy rahbar bu o'z xodimlarini o'ylaydigan va jon kuydiradigan rahbar hisoblanadi.

Mehribon sifatlari tahlili. Sinaluvchilar ichida qiz bolalardan 25.9 % ni o'g'il bolalarda 33.8 % ni tashkil qildi. Bu sifat sinaluvchilarimiz ichida eng kam natijalarni belgilashgan, demak rahbar shaxsi ish davomida yuqori darajada mehribon bo'lishi shart emas degan fikrga kelishgan. (10 – jadval. 9-jadval)

Rostgo'y sifati - rostgo'ylik insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Rahbar shaxsda ham hodimlar va rahbar o'rtasidagi o'zaro ishonchni tashkil qiladi. Shuning uchun rahbar albatta rostgo'y bo'lmog'i lozim.

Rostgo'y sifati bo'yicha olingan natijalar tahlili. Tadqiqodimizni so'ngi sifatida qiz bolalarda 25.9 % ni, o'g'il bolalarda 30.8 % ni tashkil qildi. Ushbu sifatni sinaluvchilarimiz oxirgi o'rinlarga qo'yishgan, rahbarning ushbu sifati muhim emas degan xulosaga kelishgan. Natijalar tahlilidan ko'rinib turibdiki, rahbar kuchli psixologik bilim egasi bo'lish kerakligi aniqlandi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bo'lajak rahbar shaxsni rivojlantirishda talabalarda treninglar tashkil qilish va ularni o'z kasblarida ishlashda qat'iyatli va intiluvchan qilib o'qitish va tarbiyalash kerak bo'ladi. Bundan tashqari sanab o'tilgan lizalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Rahbarning real, ilmiy bashorat qilish mumkin bo'lgan kelajakka ustanovkasi.
2. Rahbarning ishbilarmonligi, ephilligi, topqirlik.
3. Jamoa faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy mafkuraviy so'zlarda ifodalanish muvaffaqiyati.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: «Adolat», 1998. – 302 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T: «O'zbekiston», 2018.– 40 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 fevraldagi «2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish kontseptsiyachini tadqiqlash to'g'risida»gi PQ- 4190 - son qarori/Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.02.2019 y., 07/19/4190/2614-son.
4. Abdullayev Y.O Menejment. «Boshqarish nazariyasi va boshqalar asoslari». T. 1998 yil
5. Baratov SH.R “Mehnat jarayoni va ijtimoiy-ruhiy jihatlar/ Iqtisod va hisobot”. 1997 yil

Jabborova Malohat Azimovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TALABALAR AKADEMIK O'ZLASHTIRISHIDA YUZAGA KELUVCHI MUAMMOLARNI IJTIMOY-PSIXOLOGIK YECHIMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalar akademik o'zlashtirishida yuzaga keluvchi muammolarni ijtimoiy-psixologik yechimlari yoritilgan. Shuningdek, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash, akademik muvaffaqiyatga erishgan talabalarda yuqori darajadagi o'zini o'zi boshqarish, hissiy holatlarni tartibga solish qobiliyati, stressga chidamlilik va maqsadlarga erishish qobiliyati ustunlik qilishi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: akademik o'zlashtirish, ta'lim, motiv, o'quv faoliyati, tafakkur, dars jarayoni, intellektual fazilatlar, kasb, talaba, qobiliyat.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМ, ВОЗНИКАЮЩИХ В УЧЕБНОМ РАЗВИТИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье освещены социально-психологические пути решения проблем, возникающих в академическом развитии студентов. Также научно проанализировано, что студенты, достигшие академических успехов, обладают высоким уровнем самоконтроля, способностью регулировать эмоциональные состояния, стрессоустойчивостью и способностью достигать целей.

Ключевые слова: академическое мастерство, образование, мотивация, учебная деятельность, мышление, учебный процесс, интеллектуальные качества, профессия, ученик, способности.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL SOLUTIONS OF THE PROBLEMS ARISING IN STU- DENTS' ACADEMIC DEVELOPMENT

Abstract. In this article, socio-psychological solutions to problems arising in the academic development of students are highlighted. It has also been scientifically analyzed that students who achieve academic success have a high level of self-control, the ability to regulate emotional states, stress resistance, and the ability to achieve goals.

Key words: academic mastery, education, motivation, educational activity, thinking, teaching process, intellectual qualities, profession, student, ability.

Agar talaba talim jarayonlarida faol qatnashib, o'ziga birlashtirilgan barcha vazifalarni osonlik bilan bajarsa, unda mantiqiy tafakkur, kuzatuvchanlik, mustahkam xotira, barcha narsalarga qiziquvchanlik, o'z fikrini tushuntira olish, matematik amallarni bajara olishi, dunyoqarashining kengligi - bularning barchasi unda bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanganligini bildiradi. Iqtidorli talaba quyidagi xususiyatlarni ham o'zida mujassam etadi: ijodiy va original fikrga ega; yumor, hazilni tushunadi; biror narsani bilishga nisbatan cheksiz intilish va qiziquvchanlik yuqori; boy tasavvurga ega (ijodiy faoliyatda namoyon bo'ladi); ko'p hollarda o'z tengdoshlaridan mustaqil va erkin fikrlashi bilan ajralib turadi, o'z tengqurlari va katta yoshlik insonlar bilan mazmunli muloqotga intiladi. Ba'zida esa ota-onalarni farzandlarining o'z tengdoshlariga o'xshamasligi, undagi o'ta qiziquvchanlik, bilishga katta ishtiyoq xavotirga solib turadi.

Psixologlar shuni ta'kidlaydilar, agar uzoq vaqt iqtidorli o'spirinning intellektual yoki harakat ehtiyojlari qondirilmasa, bu o'spirinning his-tuyg'ulariga putur yetkazishi va nevroz holatlariga olib kelishi mumkin. Agar talaba iqtidorli bo'lsa, u holda:

- uning qiziqishi va ijodkorligini, fikrlar originalligini qo'llab-quvvatlash kerak;
- uning o'z sevimli mashg'ulot turini tanlashiga va o'z fikrini bayon etishiga imkon berish lozim;
- tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlardagi muammolarni bartaraf etishda yordam berish kerak;
- o'zi kabi har tomonlama rivojlangan do'stlari bo'lishiga ahamiyat berish lozim.

Ta'lim jarayonida o'zlashtira olmaslik (OTM da tahsil olayotgan har bir talaba ham yuqori bilim ko'rsatkichlariga ega emas) tushunchasi mavjud, bu ta'lim harakati va natijalari, ta'lim muassasasini tarbiyaviy va didaktik talablariga to'g'ri kelmaydi. O'zlashtirishdagi qoloqlik talabada o'qish qobiliyatini yaxshi rivojlanmaganligida, intellektual tahlil bilimlarini ajratish sustligida, ko'nika olmaslik va

boshqalarda namoyon bo'ladi. Tizimli o'zlashtirmaslik pedagogik qoloqlikka olib keladi, bunda shaxsni ta'lim muassasasi va jamiyat talablariga teskari salbiy sifatleri tushuniladi. Pedagogik qoloq o'spirin ko'pincha 4 yil davomida bitta maqsad yo'lida – diplomni tezroq qo'lga olish uchun harakat qiladi. Talabalardagi pedagogik qoloqlik ularning individual xususiyatlari va rivojlanishi kechayotgan sharoitlarga bog'liq. Muammoni tadqiq qilish ijtimoiy savollarning katta doirasiga taalluqlidir, odam, individ, shaxs haqidagi barcha fanlarni o'rganishni talab qiladi.

Ta'limni tashkil etuvchi talablar faqatgina talabalarni psixik va jismoniy imkoniyatlaridan ortmaganda, ulardagi ta'lim va tarbiya jarayoni hamohangligi buzilmaganda amalga oshishi mumkin.

Talaba imkoniyatlarida ikkita bir-biriga bog'liq tomonni ajratish mumkin – jismoniy imkoniyatlar (organizm holati va uni rivojlanishi) va psixik imkoniyatlar (hayol, xotira, tasavvur, qabul qilish, e'tiborni rivojlanishi). Talabalarga talablarni ishlab chiqishda har bir o'quv predmeti mutaxassisleri o'spirinlarga xos imkoniyatlarga asoslanadilar. Ularning psixojismoniy imkoniyatlari ijtimoiy sharoitlar, shuningdek o'quv-tarbiya jarayoni ta'sirida o'zgaradi. Ta'lim mazmuni va metodlari talaba imkoniyatlarini oshiradi (ba'zida susaytiradi).

Ijtimoiy sharoitlar o'zlashtirish faktori sifatida talaba imkoniyatlari bilan hamohangdir. Bu o'spirin yashaydigan, o'qiydigan, tarbiyalanadigan, kundalik sharoitlar, ota-onalarning va o'rab turgan muhitning madaniy darajasi, guruhlarning tarkibi, ta'lim maskani jihozlari, pedagoglar kvalifikatsiyasi, o'quv adabiyotlarining soni va sifati va boshqa sharoitlar. Bu omillar ta'lim mazmunini aniqlash va baholashda qo'llaniladi.

Bir xil ta'lim va tarbiya sharoiti turli sharoitda tarbiyalangan, organizmida turli farqlari mavjud, umuman turli rivojlanishdagi o'spirinlarga (talabalarga) turlicha ta'sir qiladi. Nafaqat ta'lim, balki butun hayoti o'spirin shaxsini shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi hamda ijtimoiy-psixologik shakllanish ichki va tashqi ta'sirlar asosida kechadi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'zlashtirish darajasining pastligi asosida bitta emas, balki, bir nechta sabablar yotadi, ular ko'pincha birgalikda kompleks shaklda namoyon bo'ladi. Ularni orasidan quyidagilarni keltirish mumkin: talaba shaxsining psixologik xususiyatlari, o'qitish metodlarining mukammal emasligi, pedagog bilan pozitiv munosabatlarning yo'qligi, boshqa talabalardan yaxshiroq bo'lib qolishdan qo'rqish, ma'lum bir jahdada eng yaxshi bo'lib qolishdan qo'rqish, fikrlash jarayonlarining shakllanmaganligi va boshqalar.

Biroq, sabablarni u yoki bu tarzda guruhiylashtirishga urinishlar ham bo'lgan. Masalan, rus mediapedagogi A.M.Gelmont [2] o'zlashtirmaslik sabablarini uning kategoriyalari bilan birlashtirmoqchi bo'lgan. U o'zlashtirmaslikni uch kategoriyasini ajratgan: chuqur va umumiy ortda qolish (1 kategoriya), qisman, ammo barqaror qoloqlik (2 kategoriya), epizodik o'zlashtirmaslik (3 kategoriya).

I kategoriyani sabablari sifatida quyidagilarni belgilagan: talaba tayyorligini past darajasi; turli xildagi noqulay sharoitlar (jismoniy defektlar, kasallik, yomon kundalik sharoitlar, yashash joyining OTMdan uzoqligi, ota-ona g'amxo'rlikining yo'qligi); talabada tarbiyaning yetishmasligi (erinish, betartiblik), uning sust aqliy rivojlanishi.

II kategoriyaga quyidagilar ko'rsatilgan: avval o'tilgan fanlar bo'yicha o'zlashtirishning tugallanmaganligi; o'rganilayotgan fanga talabada yetarli qiziqishning yo'qligi, qiyinchiliklarni yengishga irodaning yetishmasligi.

III kategoriyaga quyidagilar ko'rsatilgan: ta'lim berishni yetishmasligi, bilimlarning mustahkam emasligi, kuchsiz nazorat; darslarga tartibsiz qatnashish, darslarda e'tiborsizlik, uyga vazifalarni bajarmaslik.

O'zlashtirmaslikni sabablariga Y.K.Babanskiy [1] tadqiqotlarida alohida e'tibor qaratgan. U talabalarni o'quv imkoniyatlarini, o'zlashtirishning ikki asosiy faktori tushunchasiga bog'liq holda o'rganadi. Y.K.Babanskiy mulohazalarida o'quv imkoniyatlari, o'quv faoliyatida shaxs potensialini tashkil etadi va shaxs xususiyatlari sintezi va uning tashqi ta'sirlarga munosabati potensialini tashkil etadi.

Y.K.Babanskiy tomonidan ishlab chiqilgan talabalarni o'rganish sxemasi oliy ta'lim darajasida o'quv jarayonini optimallashtirish maqsadiga yo'naltirilgan.

Talabalarni o'rganish sxemasi

I ichki reja sharoitlari;

– talaba organizmi xususiyatlari;

– talaba shaxsiy xususiyatlari;

II, III— tashqi reja sharoitlari;

– maishiy sharoitlar;

– ta'lim muassasasidagi gigiyenik sharoitlar;

- oiladagi tarbiya xususiyatlari;
- maktabdagi ta'lim va tarbiya xususiyatlari;
- maishiy imkoniyatlar yetishmasligi sabablari;
ta'lim muassasasida gigiyenik sharoitlarni yetishmasligi sababi;
- oiladagi tarbiyani yetishmasligini keltirib chiqaruvchi sharoit;
- o'quv-tarbiya jarayonini yetishmasligini keltirib chiqaruvchi sharoitlar.

Ichki reja sabablariga u sog'liqdagi defektlar, ularning rivojlanishi, bilim, ko'nikma va malakalar ko'lamining yetishmasligini kiritadi. Tashqisining sabablariga birinchi navbatda pedagogik sabablar:

- a) didaktik va tarbiyaviy ta'sirlarni yetishmasligi;
- b) tashkiliy-pedagogik xarakter (maktabdagi jarayonni tashkil etish, ma'lumotlar bazasi);
- c) o'quv rejaları, dasturlari, metodik qo'llanmalari, shuningdek, maktabdan tashqari, oilaning ta'sirlarini yetishmasligi.

Y.K.Babanskiy sxemasida eng muhimi, unda sabablar guruhi orasidagi bog'liqlik ko'rtilgan, birinchi va ikkinchi tartib ajratilgan, ular o'zaro sabab va oqibatdir. Masalan, oilaning salbiy ta'siri talaba tartibsizligi bilan bog'liq.

O'zlashtirmaslikni sabablarini guruhlashtirishga bo'lgan xarakterlar ko'proq nazariy talablarga mosdir. Buni P.P.Borisov tomonidan ishlab chiqilgan sxemada ko'rishimiz mumkin. Unda o'zlashtirmaslikni uch guruhi farqlanadi:

- I. Umumpedagogik sabablar
- II. Psixofiziologik sabablar
- III. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sabablar

Birinchi guruh sabablari avtor fikricha, o'qituvchilarning o'quv-tarbiya ishlarini yetishmasligidir. Bu sabablar didaktik (didaktikani prinsip va qoidalarini buzilishi) va tarbiyaviy (asosiy tarzda bolalar bilan ishlashda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga e'tibor qaratmaslik)ga bo'linadi. Ikkinchi guruh sabablari sifatida normal jismoniy, fiziologik va intellektual rivojlanishning buzilishi bilan belgilanadi. Uchinchi guruh sabablar, P.P.Borisov ta'kidlashicha, o'qituvchi va talabalar irodasiga bog'liq emas. Ularga ta'lim muassasasidagi sust moddiy-texnik bazani, tarbiya darajasi pastligini, ta'lim tili muammolarini ishlab chiqilmaganligini, talabalarni uydagi hayotiy sharoitlarini, ota-onalarini madaniyatlilik darajasini, oiladagi munosabatni, o'qituvchilar yetishmasligini kiritadi.

Bu klassifikatsiya talabalarga munosabat sabablarini ichki sharoitlardan tashqisiva ta'lim sharoitlari boshqa ijtimoiy sharoitlardan ajratilgan.

Talabalarining muvaffaqiyatli o'qishiga hissa qo'shadigan omillarni o'rganishga bag'ishlangan ko'pchilik tadqiqotlar jahon ilm-fanida ko'plab amalga oshirilgan. Ta'lim faoliyatini belgilovchi omillar orasida mualliflar ijtimoiy-biografik xususiyatlarni (yoshi, oilaviy ahvoli, universitetgacha bo'lgan tayyorgarlik darajasi va boshqalar) va jismoniy salomatlikni alohida e'tirof etishgan. Masalan, qisqa uyqu davomiyligi va talabalarining akademik muvaffaqiyatsizliklari o'rtasida bog'liqlik aniqlangan. Ma'lum bo'lishicha, asosan erkaklar akademik muvaffaqiyatga erisha olmaydilar [11]. Aniqlik kiritilishi kerakki, akademik muvaffaqiyatsizlik deganda biz imtihonlar va nazorat ishlarni topshirish bo'yicha o'quv rejasini bajarmaslikni tushunamiz. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar (talabaning moliyaviy ahvoli, ta'lim shakli, to'lovlar, universitetning moliyaviy barqarorligi, o'qituvchilar malakasi darajasi, universitet nufuzi) muhim rol o'ynaydi. Ularning ish jarayonida bandligi, shuningdek, uyda yoki yotoqxonadagi noqulay yashash sharoitlari talabalarining muvaffaqiyatli o'qishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi [12]. Amerikalik talabalarining qariyb uchdan bir qismi yuqori o'quv yuki va ish joyidagi bandlik tufayli o'qishni to'xtatishga qaror qilgan. Atigi 6% ta'limning boshida akademik muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Rossiya ilm-fanida universitet rahbariyatining talabalarining akademik o'zlashtirish muammosiga beparvo munosabatiga e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, ta'limning ko'lamini va xarakterini kuzatish. Talabalarining o'zlashtirishini pastligi kompaniyalar, mehnat bozori va ish beruvchilar uchun qo'shimcha xavflarni minimallashtiradi [7]. Ayniqsa, bir qator psixologik omillarni (motivatsiya, kognitiv qobiliyat, o'z-o'zini baholash, moslashish salohiyati, hissiy intellekt, o'zini o'zi boshqarish, stressga chidamlilik va boshqalar) o'rganish orqali talabalarining akademik samaradorlikka erishish mumkin deb hisoblangan [8].

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, akademik muvaffaqiyatga erishgan talabalarda yuqori darajadagi o'zini o'zi boshqarish, hissiy holatlarni tartibga solish qobiliyati, stressga chidamlilik va maqsadlarga erishish qobiliyati ustunlik qiladi [4]. Sessiyada muvaffaqiyatsizlikka uchragan va qarzlarga paydo bo'lganidan so'ng, o'zini ijobiy baholagan va o'z samaradorligiga yuqori ishonchga ega bo'lgan talabalar xatolar ustida ishlaydilar va keyinchalik akademik muvaffaqiyatga erishishgani aniqlangan. Ta'kidlanishicha, talabaning normal IQ darajasiga qaramay, akademik ko'rsatkichlar pasayishi mumkin.

Uning pasayishining sabablaridan biri bu ta'lim motivatsiyasidir. Akademik muvaffaqiyatga erishgan talabalarda kasbni o'zlashtirish va bilim olishda o'z-o'zini rag'batlantirish ustunlik qiladi. Akademik jihatdan orqada qolgan talabalar tashqi situatsion motivlarni ko'rsatadi: stipendiyani yo'qotmaslik, jazodan qochish, yomon o'qish uchun qoralash va h.k.

O'quv motivatsiyasiga ta'sir qiluvchi muhim omil - bu o'quv guruhidagi psixologik muhit va ijtimoiy muhitga xos har xil turdagi ziddiyatlarning mavjudligidir. Talabalar guruhida yoshlar subektiv yolg'izlik tuyg'usini boshdan kechirishi mumkin. O'quv faoliyatining muhim tarkibiy qismi bu do'stona munosabatlar, jamoadagi ijobiy psixologik muhitdir. Ko'pincha talabalar ta'lim maqsadlarini belgilash, ularga erishish vositalari va ta'lim natijalarini baholash usullarini tanlashda o'qituvchilarga bog'liq bo'lishi mumkin. O.S.Ioninaning [5] so'zlariga ko'ra, agar talabaning o'quv faoliyati uslubi o'qituvchining o'qitish uslubiga to'g'ri kelsa, talaba bilim olishda muvaffaqiyat qozonadi.

Olimlar akademik samaradorlikni bashorat qilish zarurligiga e'tibor qaratadilar [10]. Ma'lumki, mutaxassislik fanlarini o'rganish 2-3-bosqichda amalga oshirilsa, talaba o'quv va kasbiy muhitga to'liq singib ketadi va uning kutganlari qanchalik haqiqatga to'g'ri kelishi yoki mos kelmasligini anglay boshlaydi. Ushbu davrda umidsizlik, illyuziyalarni yo'qotish, ta'lim kesimini tanlashdan afsuslanish hissi bo'lishi mumkin. Mutaxassislar bu hodisani "uchinchi yil inqirozi" deb atashadi.

Imtihonlarni eng muvaffaqiyatli topshirish uchun A.E.Nelson, S.Kotcherlakota [13] talabalar imtihon rejasini (TIR) ishlab chiqdilar. Talabalar maxsus o'rganish strategiyalaridan doimiy foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun modullar yaratildi. Mualliflar bunday texnik yordam haqida xulosa qilishicha, bu ilmiy yutuqlarni oshiradi. Shunday qilib, manbalarni ko'rib chiqish talabalarning o'quv faoliyatiga ta'sir qiluvchi ko'plab sabab va omillarni ko'rsatdi.

Shu bilan birga, akademik o'zlashtirishi past talabalarning o'quv faoliyatini belgilovchi psixologik omillarga oid ma'lumotlar yetishmasligiga guvoh bo'ldik. Bizning nuqtai nazarimizdan, nafaqat muvaffaqiyatli, "kuchli" talabalarni qo'llab-quvvatlash, balki akademik muvaffaqiyatsizlikka uchragan talabalarga ham yordam berish kerak. Talabaning o'zlashtirishi bilan bog'liq turli sabablari va individual psixologik xususiyatlarini aniqlab, uni universitetda o'qitishni tashkil etish, o'zlashtirish dasturlari, strategiyasi va yondashuvlarini ishlab chiqish lozim.

Ba'zi talabalar bilim va kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirish ustida qattiq va iroda bilan harakat qilishadi hamda paydo bo'ladigan qiyinchiliklar o'z maqsadlariga erishish uchun kuch va ishtiyoq qo'shadi, boshqalari esa hamma narsani xuddi bosim ostida qiladi va hatto kichik to'siqlarning paydo bo'lishi ularning faolligini keskin pasaytiradi.

Bunday farqlar ta'lim faoliyatining bir xil tashqi sharoitlarida (ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, o'quv jarayonini tashkil etish va uslubiy ta'minlash, o'qituvchining malakasi va boshqalar) kuzatilishi mumkin. Ushbu hodisani tushuntirishda psixologlar va o'qituvchilar ko'pincha talabalarning aqliy darajasi (bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni egallash va muammolarni hal qilishda muvaffaqiyatli qo'llash qobiliyati) kabi individual psixologik xususiyatlarga; ijodkorlikka (yangi bilimlarni o'zlari ishlab chiqish qobiliyati); o'quv maqsadlariga erishishda kuchli ijobiy tajribani ta'minlaydigan o'quv motivatsiyasiga; yuqori darajadagi da'volarning shakllanishiga olib keladigan yuqori o'zini-o'zi hurmat qilish va hokazolarga murojaat qilishadi. Lekin bu fazilatlarining birortasi alohida olingan yoki hatto ularning kombinatsiyasi talabaning kundalik, qat'iyatli va mashaqqatli mehnatga munosabatini shakllantirishni kafolatlash uchun yetarli emas.

Har bir o'qituvchi o'zining pedagogik amaliyotidan ko'plab misollar keltirishi mumkin: ba'zi talabalar juda qobiliyatli va ijodiy imkoniyatlari yuqori bo'lib u yoki bu turdagi o'quv faoliyatida (fanlarni o'zlashtirish jarayonida) jiddiy qiyinchiliklarga duch kelib, bilimlarini rivojlantirishdan to'xtaydi, shu bilan birga uning iqtidorli bo'lmagan tengdoshi bu qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli yengib chiqib, vaqt o'tishi bilan muvaffaqiyatga erishadi. Bunga sabab bo'ladigan qanday omillar mavjud? Bu savolga javob berish uchun hech bo'lmaganda odamlarning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarining asosiy turlarini, shuningdek, ularning talabalarning o'quv faoliyatiga ta'siri to'g'risidagi mavjud ma'lumotlarni qisqacha ko'rib chiqish kerak. Psixologik omillarni aniqlashda turli yondashuvlar mavjud. Masalan, I.I.Ilyosov [3] omillarning ikkita kichik guruhini aniqlaydi: kognitiv va shaxsiy. Ta'lim muvaffaqiyatini belgilovchi kognitiv omillarning kichik guruhiga quyidagilar kiradi: idrok, fikrlash, tushunish, tasavvur, xotira, nutq, diqqat, bilishning intellektual uslublari. Shaxsiy omillarning kichik guruhiga motivatsion, irodaviy, hissiy omillar va o'z-o'zini anglash (o'zini o'zi qadrlash) kiradi.

S.D.Smirnov o'z asarlarida oliy o'quv yurtlarida talabalarning muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi quyidagi omillarni aniqlaydi [8]. 1. Konstitutsiya. 2. Neyrodinamika. 3. Qobiliyat (umumiy intellekt,

ijtimoiy intellekt, maxsus qobiliyat va ijodkorlik (ijodkorlik qobiliyati)). 4. O'quv motivatsiyasi. 5. Irodaviy sifatlar. 6. Belgilar urg'usi.

I.L.Solomin [9] ta'kidlaganidek, "ta'lim faoliyatining samaradorligi nafaqat aql darajasi va tuzilishiga, nafaqat shaxsiy xususiyatlarning namoyon bo'lish darajasiga, balki ehtiyojlar mazmuniga ham bog'liq".

O'z asarlarida A.D.Ishkov talabani ta'lim muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadigan shaxsiy profilning psixologik xususiyatlarining uchta darajasini keltiradi: konstitutsiyaviy, ijtimoiy-rol va shaxsiy [6].

Talabalarining ko'rib chiqilgan individual psixologik va psixofiziologik xususiyatlari, shuningdek ularning mashg'ulot muvaffaqiyatiga ta'siri o'qituvchilarga talabani yaxshiroq tushunishga, ikkala tomon uchun muhim bo'lgan muammolarni hal qilishda u bilan umumiy til topishga yordam berishi mumkin. Bu esa ta'lim faoliyati samaradorligini va kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Talabalar akademik o'zlashtirishida yuzaga keluvchi muammolarni bartaraf etish yo'llari

Zamonaviy ta'limda talabalar akademik o'zlashtirishida yuzaga keluvchi muammolarni bartaraf etish yo'llari sifatida quyidagilar taklif qilindi:

1. Pedagogik profilaktika – optimalashtirilgan pedagogik sistemalarni izlash, ta'limni faol metod va formalarini, yangi pedagogik texnologiyalarni, muammoviy va dasturlashtirilgan ta'limni qo'llash.

2. Psixoprofilaktika – talabalarining o'zlashtirishi, o'qishdagi qiyinchiliklarni, uning o'qishiga ta'sir qilayotgan psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillarni o'rganishga yo'naltiriladi.

Psixoprofilaktik ishlar davomida olingan tashxis natijalari tarbiya jarayonini to'g'ri rejalashtirish, yo'lga qo'yilgan xatolarni tuzatish hamda quyidagi pedagogik-psixologik profilaktika ishlarini olib borish imkonini beradi:

talabani hissiy va kommunikativ doirasini rivojlanish darajasini aniqlash va tavsiflash.

aqliy rivojlanish darajasini aniqlash;

ijtimoiy-maishiy faoliyatni rivojlanish darajasini aniqlash;

talabani psixik rivojlanish saviyasini aniqlash, potensial imkoniyatlari asosida korreksion ishlarni belgilash;

talabalarining dars jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha, shuningdek, ota-onalar va mutaxassislar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

talabalarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ishtiroki, ularning har bir holat, voqea va hodisaga munosabatini psixologik-pedagogik tashxisga oid yangi metodikalar asosida o'rganish, tahlil etish va zarur ko'rsatmalar berish;

talabalarining qiziqishlari, moyilliklari, iste'dodi va iqtidoridagi asosiy yo'nalishlarni aniqlash;

ta'lim muassasasiga qabul qilingan talabalarining psixologik moslashuvi va rivojlanish dinamikasini, talabalarining o'qishga tayyorgarlik holatlari, o'zlashtirishi va rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash, o'rganish, tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqish;

ta'lim muassasasining keyingi bosqichlariga o'tgan talabalarining yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi, o'quv faoliyati, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasi, shaxs sifatleri, shaxslararo munosabatlar shakllanishini kuzatib borish, tahlil etish, korreksion mashg'ulotlarni tashkil etish;

psixologik tashxislar, so'rovnomalar, suhbatlar orqali talabalarining kasbiy qobiliyatlari, qiziqishlari va fanni o'zlashtirishga moyilliklarini aniqlash, ularning ongli ravishda tanlagan kasblariga oid bilimlarni egallashga ko'maklashish, kasbga yo'naltirilganligiga oid talab va tavsiyalar berish hamda yo'naltirish;

ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud hamda fanlarni o'zlashtirishi past talabalar bilan psixologik-pedagogik tashxislar, so'rovnomalar, suhbatlar va psixotreninglar o'tkazish orqali muammo turini aniqlash, guruhlash va ular bilan korreksion ishlarni olib borish.

3. Psixodiagnostika – ta'lim natijalarini sistematik nazorat va bahosi. Buning uchun o'qituvchining talabalar, ularning ota-onalari bilan suhbat, xulqi og'ir o'spirinni o'qituvchi tomonidan kuzatalishi, testlarni o'tkazish, natijalarini analizi kiritiladi.

4. Psixoterapiya – ta'limda ortda qolishni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llash.

5. Tarbiyaviy ta'sir. O'qishdagi omadsizliklar yomon tarbiya bilan bog'liq, o'zlashtirmaydigan talabalar bilan individual tarbiyaviy ish olib borilishi lozim, u o'ziga talabani oilasi bilan olib boriladigan ishni ham kiritishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Бабанский Ю.К. Избранные педагогические труды / Ю.К. Бабанский, М.Ю. Бабанский. – Москва: Педагогика, 1989. – 560 с.
2. Гелмонт А.М. Предупреждение неуспеваемости в школе: Обобщение опыта работы передовых учителей / А.М. Гелмонт и С.М. Ривес. - Москва: Учпедгиз, 2011. - 176 с.
3. Дворникова Т.А. Психологические факторы развития учебных стратегий студентов: дисс ... кан. пс. наук. Санкт-Петербург, 2017. – 214 с.
4. Дериш Ф.В., Пузырёва Л.О. Вклад черт личности и академической мотивации в успешност обучения. Вестник ПГГПУ. Серия № 1. Психологические и педагогические науки. 2018; (1):39–53.
5. Ионина О.С. Проявления индивидуального стиля учебно-профессиональной деятельности студента / О. С. Ионина. – М.: - 2015. - № 212. - С. 16-20.
6. Ишков А.Д. Учебная деятельность студента: психологические факторы успешности. М.: Изд-во АСВ, 2004. 224 с.
7. Зборовский Г.Е., Амбарова П.А. Образователно неуспевающие студенты: позиция университетского управления. Педагогический журнал Башкортостана. 2020; 2:87:38–48. <https://doi.org/10.21510/1817-3992-2020-87-2-38-49>
8. Смирнов С.Д. Психологические факторы успешной учебы студентов вуза. URL: <http://www.psy.msu.ru/science/public/smirnov/students.html>
9. Соломин И.Л. Современные методы психологической экспресс-диагностики и профессионального консультирования. СПб: 2006. 279 с.
10. Costa E.B., Fonseca B., Santana M.A., de Araújo F.F., Rego J. Evaluating the effectiveness of educational data mining techniques for early prediction of students' academic failure in introductory programming courses. Computers in Human Behavior. 2017; 73:247–256. <https://doi.org/10.1016/j.chb.2017.01.047>
11. Hanley A.W., Palejwala M.H., Hanley R.T., Canto A.I., Garland E.L. A failure in mind: Dispositional mindfulness and positive reappraisal as predictors of academic self-efficacy following failure. Personality and Individual Differences. 2015; p. 332–337.
12. Mthimunye K.D.T., Daniels F.M. Exploring the challenges and efforts implemented to improve the academic performance and success of nursing students at a university in the Western Cape. International Journal of Africa Nursing Sciences. 2020; 12:100196. <https://doi.org/10.1016/j.ijans.2020.100196>
13. Nelson A.E., Kotcherlakota S. Development of technology-based resource to promote students academic success. Teaching and Learning in Nursing. 2019; 14(4):231–234. <https://doi.org/10.1016/j.teln.2019.05.004>

Jabborov Jamshid Azimovich

Xalqaro Innovatsion Universitet dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TALABALAR O'QUV FAOLIYATI MOTIVLARINING EMPIRIK TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalar o'quv faoliyati motivlarining empirik tahlili yoritilgan. Shuningdek, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash, milliy ta'lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, motiv, o'quv faoliyati, diplom, dars jarayoni, intellektual fazilatlar, kasb, talaba.

ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МОТИВОВ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье описан эмпирический анализ мотивов учебной деятельности студентов. Также рассматриваются вопросы обеспечения целостности и преемственности образования, модернизации национальной системы образования исходя из потребностей времени, воспитания молодежи высокообразованными, физически и духовно здоровыми людьми, создания необходимых условий для эффективного функционирования системы образования. учебных заведений были подвергнуты научному анализу.

Ключевые слова: образование, мотивация, учебная деятельность, диплом, учебный процесс, интеллектуальные качества, профессия, студент.

EMPIRICAL ANALYSIS OF STUDENTS' LEARNING ACTIVITY MOTIVES

Abstract. This article describes the empirical analysis of the motives of students' educational activities. Also, the issues of ensuring the integrity and continuity of education, modernizing the national education system based on the needs of the times, raising young people to be highly educated, physically and spiritually healthy people, and creating the necessary conditions for the effective functioning of educational institutions were scientifically analyzed.

Key words: education, motivation, educational activity, diploma, teaching process, intellectual qualities, profession, student.

Zamonaviy oliy ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishi talabalarning shaxsiy, intellektual fazilatlarini aniqlash va rivojlantirishga yo'naltirilganlikni oshirish bilan bog'liq. Shu munosabat bilan o'quv jarayonida talabani shaxsini psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash dolzarb bo'lib qoladi. Psixologik-pedagogik loyihalar shaxsning o'zini o'zi belgilashini rag'batlantirish, individuallashtirish va o'z-o'zini rivojlantirishga yordam berish, shaxsning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini optimallashtiradigan shart-sharoitlarni yaratish muammolarini hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Universitetda o'qish inson rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Tanlangan o'quv yo'nalishi nafaqat kelajakdagi kasbiy faoliyat subyekting muhim vakolatlarini shakllantirishga yordam beradi, balki shaxsning rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Har qanday kasb bir qator xususiyatlarga ega bo'lib, ularni tushunish talabani ta'lim muvaffaqiyatiga ko'p jihatdan bog'liq. Bularning barchasi o'quv jarayonini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash doirasida shaxsning motivatsion xususiyatlarini o'rganish zarurligidan dalolat beradi.

Tadqiqot ishimizda A.A.Rean va V.A.Yakunin tomonidan talabalar uchun maxsus ishlab chiqilgan «Talabalarning o'quv faoliyati motivlarini o'rganish» metodikasidan foydalanib, talabalarning ta'lim faoliyati motivlarini har bir bosqich davomida o'zgarib borishini aniqlashga harakat qildik.

Olingan natijani qayta ishlashda biz ushbu anketaning 16 motivini 5 guruhga ajratdik. Motivlarning ushbu guruhlanishi (1-jadval) ulardagi fundamental ehtiyojlarning ifodalanishini mazmunli baholash va mustaqil xususiyatlar usuli asosida olingan.

Talabalarining o'quv faoliyati motivlarini o'rganish

Motivlar guruhi	O'quv faoliyati motivlari
Ta'lim – bilish motivlari	Keyingi kurslarda o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirish; Muvaffaqiyatli o'qib, «yaxshi» va «a'lo» baholarda imtihonlarni topshirish; Chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lish; Har doim keyingi darsga tayyor bo'lish; O'quv jarayoni davomida mavzularni o'rganishni boshlamaslik Intelktual rivojlanishga erishish.
Professional-kasbiy motivlar	Yuqori malakali mutaxassis bo'lish; Men diplom olmoqchiman; Kelajakdagi kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlash.
O'zini chetga olish motivlari	Talabalar bilan birga bo'lish; O'quv faoliyatining yomonligi uchun turli jazolardan qochish.
Obro'-ye'tibor motivlari	O'qituvchining hurmatiga sazovor bo'lish; Talabalar uchun namuna bo'lish; Oliy o'quv yurtiga o'qishga kirib, uni tugatish uchun o'qishga majbur; Ota-onalar va boshqalarning roziligini olish.
Kommunikativ motivlar	Qiziqarli odamlar bilan tanishish va muloqot qilish.

Tadqiqot ishida qatnashgan respondentlar kurslar kesimida: 1-kurs talabari – 81 nafar, 2-kurs talabari – 110 nafar, 3-kurs talabari – 118 nafar, 4-kurs talabari – 51 nafarni tashkil etdi.

Talaba yoshiga xos bo'lgan motivlar shaxsni shakllantiruvchi tizim sifatida ishlaydi va o'z-o'zini anglashni rivojlantirish bilan bog'liq, ijtimoiy munosabatlar tizimida o'z «men»ining o'rnini bilishga xizmat qiladi. Qadriyat yo'nalishlari ham, motivlar ham shaxs tuzilishining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ularning shakllanish darajasini tahlil qilish orqali shaxsning shakllanish darajasini baholash mumkin.

Talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma orqali ularning o'zlashtirishiga bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida o'quv faoliyati motivlari o'rganildi. Natijada, har bir kurs davomida turli motivlar boshqalariga nisbatani ustunlikka ega bo'lganligini ko'rish mumkin.

«Ta'lim faoliyati motivlarini o'rganish» (A.A. Rean, V.A. Yakunin) metodikasi bo'yicha olingan natijalar talabalarga 16 ta motiv taklif qililib, ularning har biri ahamiyatlilik nuqtai nazaridan 1 dan 7 ballgacha baholanib olindi. Natijalarni qayta ishlash – o'rganilayotgan namunadagi eng muhimlari orasida motivlarni nomlash chastotasini aniqlash orqali amalga oshirildi. Olingan natijalar asosida motivning reyting o'rnini aniqlandi, bu har bir kurs va umuman namuna uchun motivlar ierarxiasini yaratishga imkon berdi. Kurs talabari orasida tahlil qilish uchun o'quv faoliyatining beshta eng muhim motivlari tanlab olindi.

Muham motivlarning umumiy manzarasi barcha kurs talabari uchun bir xil bo'lib chiqdi, lekin har bir kursda u o'zgarib borishi kuzatildi. 1-kursda o'qiyotgan respondentlar tomonidan berilgan javoblarga ko'ra «Chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lish» motivi o'quv faoliyat motivlari orasida yuqori ko'rsatkichni qayd etdi – 6.57. Keyingi o'rinlarda «Yuqori malakali mutaxassis bo'lish» – 6.43, «Muvaffaqiyatli o'qib, «yaxshi» va «a'lo» baholarda imtihonlarni topshirish» – 6.3, «Men diplom olmoqchiman» – 5.81, «Keyingi kurslarda o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirish» motivlari – 5.71 natijalari bilan keyingi o'rinlarni qayd etildi (2-jadval).

Talabalar o'quv faoliyati motivlari orasida past ko'rsatkichlarni «O'quv jarayoni davomida mavzularni o'rganishni boshlamaslik» (yoki dars jarayonlariga tayyor bo'lmaslik) (3.72) va «O'quv faoliyatining yomonligi uchun turli jazolardan qochish» (3.51) motivlari egalladi.

Talabalarining o'quv faoliyati motivlari (1-kurs, n=81)

O'quv faoliyati motivlari	Natija
Yuqori malakali mutaxassis bo'lish	6.43
Men diplom olmoqchiman	5.81
Keyingi kurslarda o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirish	5.71
Muvaffaqiyatli o'qib, «yaxshi» va «a'lo» baholarda imtihonlarni topshirish	6.3
Oliy o'quv yurtiga o'qishga kirib, uni tugatish uchun o'qishga majbur	2.84
Chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lish	6.57
Har doim keyingi darsga tayyor bo'lish	5.03
O'quv jarayoni davomida mavzularni o'rganishni boshlamaslik	3.72
Talabalar bilan birga bo'lish	4.13
Kelajakdagi kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlash	5.39
Qiziqarli odamlar bilan tanishish va muloqot qilish	4.79
O'qituvchining hurmatiga sazovor bo'lish	5.12
Talabalar uchun namuna bo'lish	5.33
Ota-onalar va boshqalarning roziligini olish	4.91
O'quv faoliyatining yomonligi uchun turli jazolardan qochish	3.51
Intelktual rivojlanishga erishish	5.08

A.A.Rean va V.A.Yakunin tomonidan talabalar o'zlashtirishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida o'quv faoliyat motivlarini o'rganish uchun maxsus ishlab chiqilgan metadika yordamida 2-kurs talabalarining (n=110) javoblarini o'rganib chiqdik. Natijada, «Men diplom olmoqchiman» – 6.39, «Yuqori malakali mutaxassis bo'lish» – 6.03 motivlari talaba-yoshlar orasida boshqa motivlarga nisbatan yuqoriroq natija qayd etganligini ko'rish mumkin.

Talabalar muvaffaqiyatli o'qishiga turtki bo'luvchi sabablar orasida «Oliy o'quv yurtiga o'qishga kirib, uni tugatish uchun o'qishga majbur», «O'quv jarayoni davomida mavzularni o'rganishni boshlamaslik» (yoki dars jarayonlariga tayyor bo'lmaslik) va «O'quv faoliyatining yomonligi uchun turli jazolardan qochish» motivlari nisbatan past ko'rsatkichlarni qayd etdi (3-jadval).

Jadval-3

O'quv faoliyati motivlari	Yuqori malakali mutaxassis bo'lish	Men diplom olmoqchiman	Keyingi kurslarda o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirish	Muvaffaqiyatli o'qib, «yaxshi» va «a'lo» baholarda imtihonlarni topshirish	Oliy o'quv yurtiga o'qishga kirib, uni tugatish uchun o'qishga majbur	Chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lish	Har doim keyingi darsga tayyor bo'lish	O'quv jarayoni davomida mavzularni o'rganishni boshlamaslik	Talabalar bilan birga bo'lish	Kelajakdagi kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlash	Qiziqarli odamlar bilan tanishish va muloqot qilish	O'qituvchining hurmatiga sazovor bo'lish	Talabalar uchun namuna bo'lish	Ota-onalar va boshqalarning roziligini olish	O'quv faoliyatining yomonligi uchun turli jazolardan qochish	Intellektual rivojlanishga erishish
Natija	6.03	6.39	5.71	5.76	3.98	5.94	4.96	3.65	5.23	5.44	4.73	5.03	4.64	4.71	4.43	5.23

Talabalarining o'quv faoliyati motivlari (2-kurs, n=110)

3-kurs talabalar orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlar tomonidan tanlangan motivlar 1- va 2-kurs talabalarini tanlangan o'quv faoliyati motivlarini takrorlaganligi, ko'rsatkich jihatdan mustahkamlanganligi ko'rish mumkin (4-jadval).

Jadval-4

Talabalarining o'quv faoliyati motivlari (3-kurs, n=118)

O'quv faoliyati motivlari	Yuqori malakali mutaxassis bo'lish	Men diplom olmoqchiman	Keyingi kurslarda o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirish	Muvaffaqiyatli o'qib, «yaxshi» va «a'lo» baholarda imtihonlarni topshirish	Oliy o'quv yurtiga o'qishga kirib, uni tugatish uchun o'qishga majbur	Chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lish	Har doim keyingi darsga tayyor bo'lish	O'quv jarayoni davomida mavzularni o'rganishni boshlamaslik	Talabalar bilan birga bo'lish	Kelajakdagi kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlash	Qiziqarli odamlar bilan tanishish va muloqot qilish	O'qituvchining hurmatiga sazovor bo'lish	Talabalar uchun namuna bo'lish	Ota-onalar va boshqalarning roziligini olish	O'quv faoliyatining yomonligi uchun turli jazolardan qochish	Intellektual rivojlanishga erishish
Natija	6.22	6.48	5.83	5.62	4.22	6.07	4.81	3.58	5.25	6.17	5.02	4.62	4.49	4.67	4.27	4.83

4-kursga kelib talabalarining o'quv faoliyati motivlari orasidan diplom olish, chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lish va kelajakda yetuk kadr bo'lib yetishish motivlari ahamiyatlilik darajasiga ortib borganligini, o'quv jarayonida mavzularga tayyor bo'lmaslik, dars jarayonida turli jazolarda qochish motivlari


ko'rsatkichi pasayib borganligini ko'rish mumkin (5-jadval).

Jadval-5

Talabalarining o'quv faoliyati motivlari (4-kurs, n=51)

O'quv faoliyati motivlari	Natija
Yuqori malakali mutaxassis bo'lish	6.35
Men diplom olmoqchiman	6.6
Keyingi kurslarda o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirish	3.57
Muvaffaqiyatli o'qib, «yaxshi» va «a'lo» baholarda imtihonlarni topshirish	6.15
Oliy o'quv yurtiga o'qishga kirib, uni tugatish uchun o'qishga majbur	4.17
Chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lish	6.11
Har doim keyingi darsga tayyor bo'lish	4.68
O'quv jarayoni davomida mavzularni o'rganishni boshlamaslik	3.31
Talabalar bilan birga bo'lish	5.17
Kelajakdagi kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlash	6.02
Qiziqarli odamlar bilan tanishish va mu-loqot qilish	4.88
O'qituvchining hurmatiga sazovor bo'lish	4.43
Talabalar uchun namuna bo'lish	4.74
Ota-onalar va boshqalarning roziligini olish	4.9
O'quv faoliyatining yomonligi uchun turli jazolardan qochish	4.12
Intellectual rivojlanishga erishish	4.66

Motivlar orasida ta'lim – bilish motivlari va professional-kasbiy motivlar boshqa guruh motivlariga (o'zini chetga olish motivlari, obro'-ye'tibor motivlari, kommunikativ motivlar) nisbatan talabalar tomonidan yuqoriroq baholandi. Barcha kurslar tomonidan olingan umumiy natajalarni tahlil qilib, yuqori ko'rsatkich qayd etgan o'quv faoliyat motivlarining jadvalini ishlab chiqdik (1-rasm). «Men diplom olmoqchiman» motivining dinamikasi 1-kursdan 4-kursgacha asta-sekin o'sib borib, oxirgi kursda yetakchi motivga aylanishiga guvoh bo'ldik.



1-rasm. Talabalar o'quv faoliyati motivlari

Albatta, o'quv faoliyati motivlari va talabalarining egallangan kompetensiyalari darajasi o'quv jarayoni samaradorligi va talabalarining akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'sishiga xizmat qiladi. O'quv faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirish uchun talaba o'z ta'lim faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirishi, amalga oshirishi va nazorat qilishi kerak. Bu jarayon aniq motivatsiyani talab qiladi.

Tadqiqotimiz davomida E.P.Ilin va N.A.Kurdyukova tomonidan ishlab chiqilgan «Bilimlarni o'zlashtirishga yo'nalganlik» metodikasi yordamida respodentlarimiz ta'lim jarayonida kuzatiladigan ba'zi jarayonlarga nisbatan munosabatlarini bilishga harakat qildik (6-jadval).

Barcha bosqichdagi talabalarga juft javobli bir qator savollar berildi. Talaba ikki javobdan birini tanlashi kerak va savolning yoniga tanlangan javobga mos keladigan harfni (a yoki b) yozish lozim edi.

Jadval-6

**Talabalar bilimlarini o'zlashtirishga yo'nalganlik darajasini aniqlash (ko'rsatkichlar foizda)
(n=360)**

№	Savollar	Kurslar			
		1-kurs (n=81)	2-kurs (n=110)	3-kurs (n=118)	4-kurs (n=51)
1	Yomon baho olganingizdan so'ng, uyga kelganingizda...	76.5	73.6	72.8	68.6
2	Yaxshi baho olganingizdan so'ng siz...	70.3	64.5	66.9	70.5
3	Bahodan emas, balki javobdan norozi bo'lganingiz ro'y beradimi	62.9	61.8	61	56.8
4	Siz uchun o'rganish nima	87.6	89	87.2	82.3
5	Sizning baholaringiz darsga puxta tayyorgarlik ko'rishga bog'liqmi	69.1	75.4	66.9	68.6
6	Past baho olganingizdan so'ng, nima xato qilganingizni tahlil qilasizmi	60.5	55.4	63.5	60.7
7	Uy vazifasini tayyorlashga bo'lgan xohishingiz uning belgilangan yoki belgilanmaganligiga bog'liqmi	66.6	60.9	58.4	60.7
8	Ta'tildan keyin o'qishga kirishish sizga osonmi	70.3	67.3	68.6	66.6
9	O'qituvchining betobligi yoki boshqa sabablar tufayli dars bo'lmasligidan afsuslanasizmi	41.9	43.6	41.5	43.1
10	Keyingi bosqichda fan bo'yicha yangi axborotlar olganingizda, ular nima haqida ekanligi bo'yicha qiziqasizmi	51.8	56.3	57.6	60.7
11	Sizningcha, nima yaxshi – dars jarayonlarida qatnashib, yangi bilimlar olish yoki ba'zi sabablarga ko'ra dars jarayonlarida qatnashmaslik	85.1	79.1	82.2	80.3
12	Siz uchun muhimroq narsa - baho yoki bilim	71.6	75.4	68.6	72.5

«Bilimlarni o'zlashtirishga yo'nalganlik» metodikasi yordamida respondentlarimizdan olingan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, "Yomon baho olganingizdan so'ng, uyga kelganingizda" deb nomlangan savolga yomon javob berganlik uchun darhol darsga o'tirib, o'tilgan mavzuni takrorlash lozimligini talabalarining asosiy qismi qayd etishdi (1-kurs talabalarida - 76.5 %, 2-kurs talabalarida - 73.6 %, 3-kurs talabalarida - 72.8 %, 4-kurs talabalarida - 68.6 %). Ijobiy javob bergan talabalarining o'rtacha qiymati kurslar davomida kamayib borganligini ham e'tirof etish lozim.

Respondentlardan "Siz uchun o'rganish nima" deb savol berilganda, 2-kurs talabalarining 89 %i "Yangi narsalarni o'rganish" ekanligini ta'kidlashdi. Kurslar kesimida bu natija eng yuqori ko'rsatkichni qayd etdi. Olingan natijalarga ko'ra so'rovnoma qatnashgan talabalarining yarmidan ko'proq qismi o'qituvchining betobligi yoki boshqa sabablar tufayli dars bo'lmasligidan afsuslanmasliklarini bildirishdi (o'rtacha 42.5 %).

Tadqiqotimiz davomida bahodan emas, balki javobdan norozi bo'lganlik holatlari 60.6 % talabalar hayotida sodir bo'lganligini, ta'tildan keyin o'qishga kirishish ular uchun oson bo'lishini 68.2 % talaba tasdiqlashdi. So'rovnoma qatnashchilarining keyingi bosqichda fan bo'yicha yangi ma'lumot va axborotlar olganida, ular nima haqida ekanligi bo'yicha qiziqish darajasi o'rta darajada ekanligi (56.6 %) ekanligi ma'lum bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 1-kurs respondentlari uchun dars jarayonlarida qatnashib, yangi bilimlarni egallash muhim ekanligi so'rovnoma orqali olingan natijalardan ma'lum bo'ldi (85.1 %). Lekin keyingi kurslarga o'qish davom etgani sayin foiz - % ko'rsatkichlari ham kamayib borganligini ko'rish mumkin (85.1% - 79.1% - 82.2% - 80.3%). Oliy ta'lim muassasasi talabalarini uchun bilim olish (72 %) baho olishga (28 %) nisbatan ustunlik qildi.

Albatta, har bir talabaning asosiy maqsadi – dars jarayonlarida qatnashib, yangi bilimlarni egallash bo'lsa, jarayonlarga faol ishtirok etsa, tengdoshlari orasida namuna bo'ladigan inson bo'lib yetishsa, muvaffaqiyatli o'qib, «yaxshi» va «a'lo» baholarda imtihonlarni topshirishga harakat qilsa – talimda samaradorlikka, talabalar akademik o'zlashtirishida muvaffaqiyatga erishilgan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Жабборов, Ж.А. (2021). Интерпретация проблемы духовных потребностей в научных исследованиях ученых нашей страны. Общество и инновации, 2(5/S), 484–491. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp484-491>
2. Жабборов, А. М., Жабборов, И. А., & Жабборов, Ж. А. (2015). ЭТНИЧЕСКИЕ СТЕРЕОТИПЫ И ПСИХОЛОГИЯ САМОБЫТНОСТИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, (1), 80-83.
3. Жабборов, А. М., & Жабборов, Ж. А. (2016). СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ ПРИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, (3), 93-95.
4. Жабборов Ж.А. Маънавий эҳтиёжлар – жамият тараққиётининг мезони // «Трансформация суспільних наук: соціально-економічний, лінгвістичний, політичний та іт-виміри» II Міжнародна наукова конференція. 22.10.2021. Харків, UKR. 40-43 бет. <https://doi.org/10.36074/mcnd-22.10.2021>
5. Жабборов Ж.А. Ўзбекистонда таълим-тарбия тизимини объектив заруратга мослаштириш бўйича олиб борилаётган давлат сиёсати. BARQARORLIK VA YETAKSCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. (6), 2021 y. 19-28 b.
6. Жабборов Ж.А. Илм-фанда эҳтиёжлар таснифи. Збірник наукових праць ЛОГОС. 2021. <https://doi.org/10.36074/logos-29.10.2021.v1.34>
7. Жабборов Ж.А. Постмодерн жамият зиддиятларининг маънавий эҳтиёжлар юксалишига таъсири (фалсафий таҳлил). Традиційні та інноваційні підходи до наукових досліджень, 149.

DINIY QADRIYATLAR TUSHUNCHASINING TUZILISHI VA MAZMUNI

Annotatsiya. Hozirgi zamon qadriyatshunos olimlarining fikrlaridan kelib chiqib, qadriyatlarning ham o'ziga xos qonunlari yoritilgan. Bu qonunlar inson irodasiga bo'ysunmaydi. Shu bilan birga qadriyatlar obyektiv olamning subyektiv in'ikosi bo'lgani uchun, kishilarning amaliy faoliyatiga o'z aksini ko'rsatishi va uning jamiyat orasida ahamiyatini va zamonlar o'tgan sari yangi qadriyatlar shakllanib borishi kishilar o'zlarining turmush tarzlarini insoniyat yaratgan qadriyatlariga qarab o'zgartirib borish jarayonlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Din, qadriyat, jamiyat, an'analar, urf-odatlar, ayollar.

СТРУКТУРА И СОДЕРЖАНИЕ ПОНЯТИЯ РЕЛИГИОЗНЫЕ ЦЕННОСТИ

Аннотация. На основе мнений современных ученых-ценностистов выделены специфические закономерности ценностей. Эти законы не отменяются человеческой волей. В то же время, поскольку ценности представляют собой субъективное восприятие объективного мира, они проявляют свое отражение в практической деятельности людей и своей значимости в обществе, а также в процессах формирования новых ценностей с течением времени. по ценностям, созданным человечеством.

Ключевые слова: Религия, ценности, общество, традиции, обычаи, женщины.

STRUCTURE AND CONTENT OF THE CONCEPT OF RELIGIOUS VALUES

Abstract. Based on the opinions of modern value scientists, specific patterns of values are identified. These laws are not repealed by human will. At the same time, since values represent a subjective perception of the objective world, they are reflected in the practical activities of people and their significance in society, as well as in the processes of formation of new values over time. according to the values created by humanity.

Key words: Religion, values, society, traditions, customs, women.

Jahonda yuzaga kelayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va diniy muammolar fonida rivojlanayotgan jamiyat o'z ta'siri doirasida insonlarning ruhiy borlig'iga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. O'z navbatida mazkur omillar sabab insonlarning diniy ongi va diniy xulq-atvori ham o'zgarib bormoqda. Olimlar esa mazkur o'zgarishlarning konstruktiv va destruktiv jihatlari borligini alohida ta'kidlab o'tadilar. Shu boisdan ham bugungi kunda inson ruhiyatini o'rganuvchi olimlar dindorlik, diniy ong, diniy xulq-atvor, dindorlik tiplari va diniy qadriyatlarni o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlariga ko'proq e'tibor qaratmoqdalar.

Zamonaviy jamiyat dunyoqarash sohasidagi eng katta plyuralizm bilan ajralib turadi, bu bir tomondan ma'naviy erkinlik ikkinchi tomondan esa monistik va an'anaviy ta'limotlarning inqirozi bilan bog'liq hisoblanadi. Bunday sharoitda insonlarning diniy ongi o'zgarishga va rivojlanishga yuz tutadi. Insonlarning diniy ongi o'zgarishga yuz tutishi o'z navbatida diniy qadriyatlar tizimiga ham yetarlicha ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Shu boisdan ham diniy ong va uning zamirida yuzaga keluvchi diniy qadriyatlarning mohiyatini, ma'no va mazmunini tushunish, uning namoyon bo'lishining turli shakllari uchun umumiy asoslarni aniqlashga zarurati tug'iladi.

Diniy qadriyat fenomeni doimo falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika, tarix, dinshunoslik va siyosatshunoslik kabi fanlar doirasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Buning izohi sifatida diniy qadriyat insonning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda va bugungi tahlikali zamonda inson ruhiyatini psixologik xavfsizligini ta'minlashda yetakchi omil bo'lib xizmat qilishini ta'kidlab o'tishimiz mumkin.

N.A. Limanning fikricha, qadriyatlar tabiatiga ko'ra ijobiy va salbiy xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Inson tomonidan ijobiy qadriyatlar o'zlashtirilsa unda barqaror emotsional xususiyatlarni, aksincha, salbiy qadriyatlar o'zlashtirilsa beqaror emotsional xususiyatlarni shakllantiradi. Shaxsning hayotida subyektiv ahamiyatga ega bo'lgan obyektlar qadriyatlarga aylanishi mumkin, masalan, inson hayotida alohida ma'noga ega bo'lgan obyekt, bolalarning va yaqin kishilarining fotosuratlari, o'quvchiga

taqdim etilgan muallifning kitobi. Psixologiya fanida "qadriyat" tushunchasiga ta'rif berish biroz qiyinchilik tug'diradi. V.V. Znakovning fikricha "qadriyat" boshqa tushunchalar bilan taqqoslab bo'linmaydigani uchun ham aniq ta'rif berish murakkab hisoblanadi.

Shaxsning qadriyatlar ierarxiyasida ba'zi individual qadriyatlar katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, bu shaxs rivojlanishining yosh xususiyatlariga bog'liq bo'lishi ehtimoli bor. Shunday qilib, ma'lum qadriyatlarning shakllanishi ularning paydo bo'lishining turli mexanizmlariga asoslangan degan xulosaga kelishimiz mumkin.


Shuningdek, psixologiyada qadriyatlar shaxs ongining tarkibiy qismi sifatida tadqiq etiladi va irodaviy fazilatlarida, motivatsiyalarida va boshqa individual tuzilmalarida namoyon bo'ladi.

- qadriyatlar - inson o'z hayotining maqsadi sifatida belgilagan munosabatlar, shuningdek ularga erishish uchun tanlagan vositalar;

- qadriyatlar mavjud sharoitlardan qat'iy nazar o'z ahamiyatini saqlab qoladi;

- qadriyatlar shaxs va jamiyatning xulq-atvor uslubini tartibga soluvchi, shuningdek, uni to'g'ri yoki noto'g'ri deb bilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

- har bir qadriyat shaxs uchun ahamiyatlilik darajasiga qarab o'z darajasiga ega bo'lishi mumkin (1.1- rasmga qarang).



1-rasm. Qadriyat turlari

Insoniy qadriyatlarning asosiy turlari, I.I. Xorunjiyning fikricha uch guruhga bo'linadi.

- Ma'naviy - aniq jismoniy shaklga ega bo'lmagan, lekin shu bilan birga insonning ham, umuman jamiyatning ham hayot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan narsa.

- Ijtimoiy - odamlarning ma'lum bir doirasi uchun muhim bo'lgan, ammo shunday shaxslar borki, ular uchun bu mutlaqo muhim emas, ya'ni to'laqonli hayot uchun zarur bo'lmagan narsa.

- Moddiy - atrofda dunyo obyektlari va predmetlari, shuningdek, shaxs uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy narsalar bilan ifodalangan qadriyatlar.

Barcha turdagi qadriyatlar shaxs, guruh, jamiyat yoki umuman insoniyat rivojlanishining asosiy sababi va harakatlantiruvchi kuchiga ega. Qadriyatlar muvaffaqiyat va taraqqiyot ko'rsatkichidir.

Siyosiy - ijtimoiy zinapoyaning darajasi: ba'zi odamlar uchun hokimiyat tepasida turish, hamma tomonidan hurmat va hurmatga sazovor bo'lish juda muhimdir.

Qadriyat umumiy mazmuniga nisbatan, subyekt tomonidan obyektiv voqelik sari yo'naltirilgan, eng muhim maqsadlar va ma'noni o'z ichiga olgan, ma'lum intilishlarni o'zida mujassam etgan ixtiyoriy, hissiy, intellektual kechinmalar majmuasi sifatida qaraladi. Qadriyat subyektiv kechinmalarni keltirib chiqaradigan obyektlarning ma'nolari va ularni yaratishdan iborat bo'lgan ma'naviy ijod namunasi sifatida qaraladi. Qadriyat bu holda borliqning mazmunli maqsadi sifatida tushuniladi, baholash esa ijobiy yoki salbiy sifat va xususiyatlarni aniqlash nuqtai nazaridan shaxsning obyektlarga munosabati hodisasidir.

Yuqorida qayd etilib o'tilgan olimlardan farqli ravishda noklassik dunyoqarash olimlari psixoanaliz nazariyalaridan foydalangan holda insoniy qadriyatlarning asosiy mazmunini hokimiyat tamoyili va

zavqlanish hissi tashkil etadi deb ta'kidlaydilar. Shunday bo'lsada, ikkala yo'nalishdagi yondashuvlar ham qadriyatlarini – shaxsiy va umuminsoniy intilishlarni aks ettirish ko'rsatkichi sifatida qaraydilar.

Qadriyatlar komillikka erishishga qaratilgan, shaxs va uning atrofidagi dunyoning ichki rivojlanishi uchun ma'noli jihatlari bilan to'ldirish orqali ijodiy ta'sir ko'rsatadigan ong va borliqning ustunlari sifatida tasniflanishi mumkin. Qadriyatlar inson va uni o'rab turgan olamni ahamiyatli rishtalar bilan bog'laydi hamda bu munosabatlarni kerakli tomonga o'zgartiradi.

Diniy qadriyatlar subyektning hayotiy, ijtimoiy, axloqiy, mazmunli hayot kabi barcha hayotiy faoliyat yo'nalishlarini bo'ysundirishga qodir. Bundan tashqari, diniy qadriyatlar shaxsning eng muhim ijodiy manbai bo'lib, insonning mavjud holatini tasavvufiy va axloqiy ideal holatga aylantirishga, ichki borliqni ma'naviy maqsadlarga mos ravishda o'zgartirishga hissa qo'shadi. Diniy qadriyatlar insonni biologik va ijtimoiy mavjudotdan tasavvufiy mavjudotga aylantiradi, ular uchun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar emas, balki ong va faoliyatning ob'ektiv ma'naviy kuchlar ustunlik qilishini ta'minlaydi.

Diniy qadriyatlar o'z-o'zidan shaxsni oddiy mavjudlik chegarasidan yuqori va mukammal ruhiy mavjudot bo'lishi uchun zamin xozirlash istagini uyg'otadi. Turli dinlar yoki konfessiyalar mavjud diniy qadriyatlar Alloh in'om etgan mavjudot va tamoillarning haqiqatini tan olish, ularga iymon keltirish bilan tavsiflanadi. Ularning barchasi u yoki bu darajada borliqning mukammal shakliga erishish, yuqori kuch, bilim, baxt-saodatga ega bo'lish, shuningdek, jismoniy mavjudligi va uning mavjudligidan qat'iy nazar, adolatli, zo'ravonliksiz hayot tartibiga erishish istagi bilan tavsiflanadi.

Insonlarning din va diniy qadriyatlar zamirida yuzaga keluvchi psixologik xususiyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Diniy qadriyat o'z xususiyatidan kelib chiqqan holda diniy ong, diniy xulq-atvor va dindorlik tiplari bilan ham bog'liqlik qonuniyatlari mavjuddir. Diniy qadriyat tushunchasi ikki so'z birikmasidan ya'ni din va qadriyat so'zlaridan tuzilgan kategoriya hisoblanadi. Shu boisdan ham mazkur paragrafda biz dastlab din, qadriyat so'ngra diniy qadriyat fenomenlarining psixologik, sotsiologik va falsafiy jihatlari yoritib o'tishga harakat qildik.

Arab tilida "din" so'zi o'zagidan kelib chiquvchi so'zlarni bildiruvchi ma'nolar quyidagi shaklda tartiblanishi va misol sifatida keltirilishi mumkin:

1. Jazo, mukofot, hukm, hisob-kitob
2. Itoat, toat, taslimiyat, xizmat, ibodat
3. Ustun kelish, hokimiyat, xorlash, majburlash hokimiyat va itoat ma'nolarida ishlatilgan ¹.

Yuqorida qayd etilib o'tilgan ma'nolar asosan Qur'oni Karimning bir nechta suralarida keltirilib o'tilgan.

Xalqimizning moziy sinovlaridan o'tib kelayotgan boy madaniy va ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odat va an'analari, qo'shiklari, bayram va marosimlaridagi ozodlik, erkinlik uchun kurash ruxi, ota-bobolarimizning mustaqillik yo'lida ko'rsatgan jasorati, bunyodkorlik ishlari hamda ularni amalga oshirishda ma'naviy ro'y bergan tafakkur tarzida namoyon bo'ladi. U asrlar mobaynida yillar sinoviga dosh berib, sayqallanib, takomillashib kelgan. Bu tafakkurning markazida Yaratganning eng ulug' mo'jizasi bo'lmish insonning ulug'ligi va mo'tabarligi g'oyasi yotadi. Binobarin, u qadrlanishi, e'zozlanishi lozim. Chunki, mamlakatning hayoti, farovonligi, ana shu mexnatkash insonlarning mehnatiga, faoliyatiga bog'lik. Shu tufayli ham Sharqda komil inson g'oyasi qadimdan buyuk orzu bo'lib, donishmandlarimiz xayolini band etib kelgan. Insonning azizligi unga o'z hatti-xarakatlarini o'zi mustaqil idora etishiga imkoniyat beruvchi aql-zakovat ato etilgani bilan bog'liqdir. Ya'ni, inson o'z aql-idroki yordamida olamni gullatib-yashnatadi. Ammo bu aql-idrokda nafaqat yashnatuvchi, balki vayron etuvchi kuch xam mavjud. Hayotda ezgulik hukmron bo'lishi uchun aql yaxshilikka, adolatga xizmat qilishi zarur. Buning uchun esa u sog'lom ma'naviyat izmida bo'lishi lozim. Shu tufayli ota-bobolarimiz aql-idrokni yovuzlik qo'lga tutqazmaslikka harakat qilganlar, uni ma'naviyat bilan, iymon-e'tiqod, insof va diyonat bilan boshqarishga alohida e'tibor berganlar. Bu tamoyil xalqimiz ruxini, daxosini aks ettiruvchi o'lmas qadriyatlar bilan uzviy bog'likdir. Xususan, buyuk ajdodimiz, soxibqiron Amir Temurning sog'lom ma'naviyat mahsuli bo'lgan «Kuch - adolatdadir» degan shiori milliy g'oyaning tarkibiy qismiga aylanib ketgan, mamlakat birligini ta'minlash, markazlashgan davlat barpo etishda, ayniqsa uni odillik bilan boshqarishda ma'naviy-mafkuraviy asos bo'lib xizmat qilgan. Shu bois Temur saltanatida ilm-ma'rifat yuksak qadrlangan, insonning sha'ni, or-nomusi e'zozlangan, inson va uning mol-mulki davlat muxofazasiga olingan, qaroqchilik, o'g'rilikka keskin barham berilgan edi. Soxibqiron bobomizning: «Mening saltanatimning u

¹ Filosofiya. Pod red. V. D. Gubina, T. Yu. Sidorinoy, V. P. Filatova. Moskva, 1998, s. 130-134



chetidan bu chetiga, boshida oltin to'ldirilgan laganni yosh bola ko'tarib o'tsa xam, uning mulkiga xech kimsa daxl eta olmaydi» degan so'zlari hayotiy haqiqat edi.

Diniy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarida olimlar ularni ma'lum bir din misolida ko'rib chiqishga harakat qiladilar, chunki dunyodagi mavjud dinlarning har biri o'z e'tiqodi haqiqatlar mezonlariga ega. O'z e'tiqodidagi inson ideal qiyofaga diniy qadriyatlarga rioya qilish orqali yaqinlashadi. Ular, ta'bir joiz bo'lsa, kamtarlik, oliy yaxshilik va baxtga erishishning kalitlaridir. Diniy omilning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy hayot haqiqatlariga kirib borishi sharoitida diniy qadriyatlarining jamiyat tizimidagi o'rni va rolini o'rganish dolzarb masalalarning biri bo'lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Falsafa. q. Nazarov tahriri ostida. Toshkent, 2000, 257-266-betlar.
- 2.Filosofiya. Pod red. V. P. Koxanovskogo. Rostov-na-Donu, 1999, s. 515-540.
- 3.Barulin V.S. Sotsialnaya filosofiya. Moskva, 1999, s. 399-427.
- 4.Falsafa. E. Yusupov tahriri ostida. Toshkent, 1999, 301-321-betlar.
- 5.Osnovo' filosofii. Pod red. M. Axmedovoy i V. Xana. Toshkent, 1998, s. 349-356.
- 6.Spirkin A. G. Filosofiya. Moskva, 1998, s. 762-769.

Maxmudova Zulfiya Mexmonovna

Buxoro davlat universiteti Psixologiya va
sotsiologiya kafedrasida katta o'qituvchisi
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

QO'RIQLASH XIZMATI XODIMLARI IJTIMOY-PSIXOLOGIK VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada qo'riqlash xizmati xodimlari ijtimoiy-psixologik va kommunikativ kompetentligi omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi va kommunikativ kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, kasbiy faoliyat, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ И КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ СОТРУДНИКОВ СЛУЖБЫ ЗАЩИТЫ

Аннотация. В данной статье рассматриваются исследования проявления и развития факторов социально-психологической и коммуникативной компетентности сотрудников органов безопасности и совершенствования ее специфических социально-психологических факторов, раскрываются механизмы определения компонентов.

Ключевые слова: компетентность, социально-психологическая компетентность работника, профессиональная компетентность, компетенция, профессиональная деятельность, профессиональные знания, умения и навыки, профессионально-психологические характеристики.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL AND COMMUNICATIVE COMPETENCE OF PROTECTIVE SERVICE STAFF

Abstract. This article discusses the research of the manifestation and development of the factors of social-psychological and communicative competence of security service employees and the improvement of its specific social-psychological factors. , the mechanisms for determining the components are revealed.

Key words: competence, social-psychological competence of an employee, professional competence, competence, professional activity, professional knowledge, skills and competencies, professional psychological characteristics

Kirish. Jahonda yuqori malakali, raqobatdosh, mustaqil fikrleydigan mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Jahonda qo'riqlash xizmati xodimlari ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentligining psixologik jihatlarini o'rganish, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish omillarini tadqiq etish, qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarini baholash, ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga mo'ljallangan maxsus tizimlashtirilgan psixologik usullar majmuini ishlab chiqish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy faoliyatiga psixologik tayyorgarlik darajasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta'siri masalasini aniqlash alohida tadqiqot muammosi sanaladi.

Psixolog qo'riqlash xizmati tizimida xizmat qilayotgan barsha xodimlar va harbiy xizmatchilarni axloqiy-ruhiy qo'llab-quvvatlashning mutlaqo yangi vazifalari, shuningdek, xodimlarning umumiy dunyoqarashi, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g'urur, iftixor, kasbiga sadoqat va yuqori mas'uliyat xislarini oshirish bilan bohlash vazifalarni belgilab beradi.

Xodimlarni ahloqiy-ruhiy qo'llab-quvvatlash psixodiagnostika, psixoprrofilaktika va psixokorreksiya ishlarida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Ko'pgina xorij va mahalliy psixologiya, shuningdek pedagogik adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, xodim kasbiy kompetentligining turlicha xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda kasbiy kompetentlik metodologiyasiga dahldor bo'lgan pedagogik psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan

izohlashga harakat qildik. Ko'pgina ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kasbiy kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud.

Jahon va respublikamizdagi psixologiya maktablarida inson omilini tahlil qilish, ularni har tomonlama rivojlantirishda turli xil psixologik usullardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xorijiy va mahalliy adabiyotlarda «Kompetentlik» tushunchasini ta'riflashda yagona yondashuv mavjud emas. Kompetentlik so'zining ma'nosi lotinchadan olingan bo'lib, «competo» «erishayapman, munosibman» degan ma'nolarni anglatadi, hamda ma'lum faoliyat turidan xabardorligini bilishini bildiradi. «Kompetensiya» bu – inson faoliyatiga namoyon bo'ladigan, yetarli darajada boxabar faoliyat yoki sohada insonning amaliy jihatdan qodirligi, shuningdek, kasbiy faoliyatning ma'lum bir tizim bo'yicha shakllanganligini belgilovchi xususiyat hisoblanadi. Shunga qaramay, aksariyat mualliflar tomonidan kompetentlik faoliyat yoki harakatning samarali ishlashi bilan bog'lanadi.

Nazariy manbalarning tahliliga ko'ra qo'riqlash xizmati xodimlarining «kompetensiya» va «kompetentligi» bo'yicha aniq talqin juda kam uchraydi. Bu esa ushbu atamani zamonaviy psixologik mazmundagi muammolarni o'rganishda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

«Kompetentlik» tushunchasi dastlab kognitiv psixologiya sohasi vakillari tomonidan qo'llanila boshlagan. Ushbu tushuncha shaxsning o'zini-o'zi anglashi, o'z-o'zini hurmat qilishini belgilovchi omil bo'lib hisoblanadi va shaxsning umumiy xususiyatlari hamda uning kasbiy faoliyati xususiyatlaridan ko'ra ko'proq bog'liqligini bildiradi.

Deyarli barcha lug'atlarda «kompetentlik» va «kompetensiya» muammolari alohida bir kategoriya sifatida o'rganiladi. Kompetentlik ta'riflari bir-biriga juda o'xshash va bir-birini takrorlaydi, «kompetentlik» uchun yagona talqin bo'lmasa-da, bu konsepsiya «har qanday tashkilot yoki mutaxassisning bilimlarga egalik qilish vakolatlari (huquq va burchlari) yig'indisi» deb talqin qilinadi. Shunday qilib, «kompetensiya» – bu «kompetentlik» so'zidan olingan termin bo'lib, insonning bilim, ko'nikma va malakalarni to'g'ri anglay olishiga, «kompetentlik» esa semantik tomondan birlamchi yo'nalish bo'lib, ularning intro (insonning ichki imkoniyatlari) jamlanmasi, tizimi, shaxsning ma'lum bir tajribalari «jamlanmasi» ni bildiradi [2].

I.A.Zimnyaya «kompetentlik»ni uch guruhini keltirib o'tadi:

- o'z-o'ziga shaxs sifatida va hayot faoliyatining sub'ekti sifatida qarashligi;
- insonning boshqa kishilar bilan o'zaro ta'sir munosabati bilan bog'liqligi;
- inson faoliyati bilan bog'liq kompetensiyalar uning barcha turlari va shakllarida namoyon bo'lishi

[4].

Bizning fikrimizcha, qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy tayyorgarligini tashkil etish jarayonida I.A.Zimnyaya asarlari juda muhim sanaladi.

Kompetentlik keng ma'noda qobiliyat bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ko'nikma, malaka va boshqalar. Kompetentli shaxs - yetarli malakaga, bilim va imkoniyatlarga ega shaxs hisoblanadi.

M.Kyaerst tadqiqotlarida kompetentlikning mohiyati va uning asosi sifatida (qobiliyatlar, iqtidor, bilim), inson faoliyati jarayon sifatida (ta'riflar, tavsiflar, alomatlar), faoliyat natijalari (ish natijalari, faoliyat ob'ektidagi o'zgarishlar) kabi komponentlar kiritiladi. Muallif kompetentlik mazmuniga quyidagi tavsiflarni kiritgan:

- lavozimda ishlayotgan shaxs(xodim)ga majburiy bo'lgan masalalarga intellektual mosligi;
- mutaxassis tomonidan shakllantirilgan va hal etilgan masalalarning asosiy ishdagi miqdori va sifati;
- asosiy masalalarni hal etishdagi muvaffaqiyat;
- muammoli masalalar yechimining samaradorligida namoyon bo'luvchi shaxsning xususiyatlari.

Bu yerda olim kompetentlik tushunchasiga ko'proq insonning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olib yondashgan [86].

Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G.Garanina quyidagi ikkita darajaning mohiyatini bilim, ko'nikma, malaka va fikrlash asosida talqin qiladi:

- 1) kategoriyalar, hissiy-emotsional obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar, hamda fikrlash tizimlari (ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha reflektiv aqliy faoliyat);
- 2) amaliy, ijrochilik, ya'ni insonlar bilan o'zaro ta'sir o'tkazish malaka va ko'nikmalar tizimi. Yuqoridagi ikkala yo'nalish kompetentlikning reflektiv va progressiv xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi [4].

Bizning fikrimizcha, agar shu ikki daraja bo'lmaganida edi kompetentlik tushunchasining mohiyati u qadar to'laonli hisoblanmasdi.

O.A.Bulavenkoning ta'kidlashicha, kompetentlikni kasbiy faoliyatning o'ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg'un oshirilgan yoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo'luvchi holati sifatida qarash kerakligini taklif etadi [4]. Fikrimizcha, kompetentlik faqat faol kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi, faoliyatda qanaqadir turg'unlik bo'lishi uni muvaffaqiyatga erishishida to'siq bo'lishi mumkin.

I.A.Zimnaya kompetentlikni yo'naltirilganlik, maqsadni qo'ya bilish, xulqning hissiy-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o'z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Uning fikricha, kompetentlik tuzilishi quyidagi komponentlar tizimidan iborat:

a) shaxsning ichki psixik, tashqi xulqiy harakatida ushbu xususiyatlarni namoyon qilishga tayyorlik;
b) muvaffaqiyatga erishish uchun vazifalarni bajarishning vositasi, metodlari va dasturlarini anglash, ijtimoiy va kasbiy masalalarni yecha olish, tartib-intizom talablari va o'ziga xos bo'lgan me'yorlariga rioya qilish. Bu kompetensiyaning asosiy mazmun-mohiyatini quyidagicha mazmunda ochib beradi;

c) bilimlarni amaliyotda qo'llay olish tajribasi, ya'ni ko'nikma va malaka;

d) hissiy-irodaviy regulyatsiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o'zaro ta'sir holatlariga bog'liq holda namoyon bo'lishini muvofiqlashtirish sifatida [5].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kompetensiya tarkibida ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lish holatlarida o'zini-o'zi nazorat qilish, shaxsiy va kasbiy imkoniyatini namoyon qilish qobiliyatini aks ettiruvchi o'ziga xos belgilarni ajratish zarur. Kasbiy faoliyat jarayonida o'z bilim, ko'nikma va malakalarni samarali qo'llashda xodimdan o'zini-o'zi idora qilish va o'zini-o'zi boshqarishning psixologik mexanizmlarining shakllanishini talab qiladi.

Pedagog A.A.Dunyushin shaxsning ijtimoiy-psixologik kompetentligi kasbiy faoliyatda insonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llay olish qobiliyati ekanligini ta'kidlaydi [3]. Ko'rinib turibdiki, fikr muallifi tomonidan quyidagi bir necha mulohazalar orqali aniqlashtirilgan:

a) kompetentlik aniq bir faoliyat sub'ekti tavsifi sifatida baholanishi mumkin;

b) kompetentlikning mazmuni kasbiy faoliyat maqsadi, tuzilishi va maxsus talablariga bog'liq;

c) kompetentlik hissiy-irodaviy sifatlar, shaxsning muloqotmandligi, intellektual salohiyati, shaxsning yo'naltirilganligi kompetentlikka asos bo'lib xizmat qiladi [4].

Demak, yuqoridagi tahlillarga tayangan holda, xodimlarning kommunikativ kompetentligiga aloqador bo'lgan jihatlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi, qo'riqlash xizmati xodimlari kasbiy faoliyatining turli tomonlarini tadqiq etishni hozirgi zamon talabi sifatida tushunish lozim.

O.A.Konopkinning fikriga ko'ra, inson faoliyatga kirishishida ongli ravishda o'zini-o'zi nazorat qilishi quyidagi tuzilmaga ega bo'lishi lozimligini ko'rsatadi: maqsadni sub'ektiv qabul qilish faoliyatning muhim shartlarini sub'ektiv moduli; harakat dasturi (harakatlarni, vosita va usullarni tartiblashtirish); natijalarni baholash [6].

Natijalar

Xodimlarning Kommunikativ ijtimoiy kompetentligini baholashda G.M.Manuylov V.V.Kozlov M.P.Fetiskinlar tomonidan ishlab chiqilgan metodikaladan unumli foydalanildi.

Ushbu metodika kommunikativ ijtimoiy kompetentlikni baholashga mo'ljallangan bo'lib, qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy muloqotmandligini quyidagi omillar asosida diagnostika qilindi:

Omillar: Muloqotchanlik, mantiqiy tafakkur, hissiy barqarorlik, beg'amlik, hissiyotga berilish, mustaqillik, o'zini nazorat qilish, asotsial xulq-atvoriga moyillik.

Jadval-1

Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili
(n=102)

Omillar	besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlar		besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan xodimlar		Farq (% hisobida)	
	n ₁ -41		n ₂ -61			
	n	%	n	%		
«A» omil	Muloqotchan	16	39,01	40	65,6	±26,5
	Muloqotga kirishishga qiynaladigan	25	60,9	21	34,4	
	Jami	41	100	61	100	

«B» omil	Mantiqiy fikrlaydigan	19	46,3	33	54,1	±7,8
	Zaif fikrlaydigan	22	53,6	28	45,9	
	Jami	41	100	61	100	
«C» omil	Barqaror	13	31,7	43	70,5	±38,8
	Beqaror	28	68,3	18	29,5	
	Jami	41	100	61	100	
«D» omil	Optimizm	16	39,01	34	55,7	±16,6
	Pessimizm	25	60,09	27	44,3	
	Jami	41	100	61	100	
«K» omil	Ijodiy tafakkuri rivojlangan	14	34,1	38	62,3	±28,2
	Realist	27	65,9	23	37,7	
	Jami	41	100	61	100	
«N» omil	O'zini nazorat qila oladigan	19	46,3	45	73,8	±27,5
	Nazoratda qiyinchilikka uchraydigan	22	53,7	16	26,2	
	Jami	41	100	61	100	
«M» omil	O'ziga yo'nalgan	18	43,9	28	45,9	±2
	O'zgalarga yo'nalgan	23	56,1	33	54,1	
	Jami	41	100	61	100	
Jami		41	100	61	100	

“Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi” metodikasidan olingan natijalar tahliliga ko‘ra “A” omil bo‘yicha “muloqotchanlik” besh yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan xodimlarga nisbatan besh yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan xodimlarda 65,6% (+26,5%) ni, aksincha, muloqotga kirishishga qiynalish 34,4 % (-26,5%) tashkil qildi. Ko‘rinib turibdiki, sud psixolog xodimi faoliyati ish staji va tajribasining ortib borishi bilan bog‘liq omil hisoblanadi. “B” omil bo‘yicha “mantiqiy fikrlash” darajasi besh yil stajga ega bo‘lganlarga nisbatan besh yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan xodim 54,1% ni (+7,8%), “zaif fikrlash darajasi” esa besh yilgacha mehnat faoliyati davomiyligiga ega bo‘lgan sud psixolog xodimlarda 53,6% ni (-7,8%) ko‘rsatdi. Lekin bu omil bo‘yicha besh yil va besh yildan ko‘p ish stajiga ega bo‘lgan xodimlar ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farq oralig‘i (±7,8) keskin tafovut qilmaganligini ko‘rishimiz mumkin. “Mantiqiy fikrlash” qobiliyati sud psixolog xodimi faoliyati uchun muhim jihat hisoblanib, bu qobiliyat yillar mobaynida shakllanishi aniqlandi. Bunda bevosita intellektual rivojlanish jarayonning roli beqiyosdir. “Barqarorlik” va “beqarorlik” omillari bo‘yicha ham besh yildan ortiq 70,5%, beqarorlik esa besh yilgacha 68,3% ni (±38,8) tashkil etdi. Bundan ma‘lum bo‘ldiki, barqaror ijtimoiy munosabatlar yillar davomida taraqqiy qiladi. Keyingi mezon, ya‘ni, “optimizm” va “pessimizm” omili bo‘yicha besh yilgacha optimizm 39,01% ni, “pessimizm” esa besh yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan sud psixolog xodimlarda 60,09 % ni tashkil etdi. Optimizm, ya‘ni yuqori kayfiyatda atrofdegilar bilan munosabatga kirishish 5 dan ortiq ish tajribasiga ega bo‘lgan sud psixolog xodimlarda ustun bo‘lsa, pessimizm – ya‘ni kayfiyatdagi o‘zgarishlar, shaxsiy pragmatik kelishmovchiliklar va muloqot jarayonidagi uzilishlar besh yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan psixologlarda yuqori o‘rin egallashi aniqlandi (±16,6%).

“K” omili bo‘yicha “ijodiy tafakkuri rivojlanganlik darajasi” besh yilgacha 34,1 % ni, realistlar esa 65,9 % ni tashkil qildi. Bundan ko‘rinib turibdiki, muloqot qilish davomida besh yilgacha realist tafakkur besh yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lganlarda esa voqealarga kreativ yondashish, erkin munosabat bildira olish va tahlil qilish kabi sifatlar rivojlanar ekan.

Keyingi omil bo‘yicha “O‘zini nazorat qila olish” omili besh yilgacha 19 nafar shaxsda 46,3 % ni, “O‘zini nazorat qilishda qiynalish” esa besh yildan ortiq stajilarda 45 respondent ishtirokida 73,8 % da namoyon bo‘ldi. So‘nggi omil bo‘yicha tahlil qilinganda “o‘ziga yo‘nalganlik” besh yildan ortiqish stajiga ega bo‘lgan 28 nafar respondent ishtirokida 45,9%ni “o‘zgalarga yo‘nalganlik” 23 nafar respondent bilan besh yilgacha 56,1%ni tashkil qildi. Unga ko‘ra kommunikasion muomala jarayonida o‘ziga bo‘lgan munosabatning ustunligi besh yildan ortiq vaqt ichida to‘liq shakllanadi, ungacha esa o‘zgalarga ya‘ni

ijtimoiy muhitga e'tibor bevosita ustunlik qiladi. Ushbu tahlillar 1-jadvalda yanada aniqroq o'z aksini topgan.

Demak, o'rganilgan empirik natijalar asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko'rinishda bo'lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko'rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

Xulosa

Demak, o'rganilgan empirik natijalar asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko'rinishda bo'lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko'rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
3. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
4. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
5. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
6. Olimov L.Ya., Nazarov A.M. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
7. Olimov L.Ya., Bahronova M.O'. O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.
8. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. O'smirlarda psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo'lishining o'ziga xosligi. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.
9. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Ekstremal vaziyatlarda koping xulq-atvor va strategiyalar namoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 3 son 98-106 b.

UDK: 301.085:15 (048)

Mo'minov Davron
Farg'ona davlat universiteti
Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

O'QUVCHILARNING KASB TANLASHLARIDA QADRIYATLARNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqola o'rta maktab o'quvchilarining qiziqishlari va qadriyatlaridan kelib chiqqan holda kasb tanlashga to'g'ri yo'nalishni asoslaydi. Maktab o'quvchilarida kasb tanlashga qiziqish va imkoniyatlarni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini o'rganish, psixodiagnostika usullarini tizimlashtirish bo'yicha empirik tadqiqotlarning metodik va metodologik asoslari ishlab chiqilganligi isbotlangan.

Kalit so'zlar: kasb, interaktiv, maslahatchi, konversiya turi, realistik tip, intellektual tip, tadbirkorlik tipi, estetik tip.

РОЛЬ ЦЕННОСТЕЙ В ВЫБОРЕ УЧАЩИМИСЯ ПРОФЕССИИ

Аннотация. В данной статье обоснована правильная ориентация на выбор профессии, исходя из интересов, ценностей старшеклассников. Доказана разработка методических и методических основ эмпирического исследования по изучению психологических механизмов развития у школьников интереса и возможностей к выбору профессии, систематизация психодиагностических методик.

Ключевые слова: профессия, интерактив, консультант, конверсионный тип, реалистичный тип, интеллектуальный тип, предпринимательский тип, эстетический тип.

THE ROLE OF VALUES IN STUDENTS' CHOICE OF PROFESSION

Abstract. This article substantiates the correct orientation towards choosing a profession based on the interests and values of high school students. The development of methodological and methodological foundations of empirical research on the study of psychological mechanisms of the development of interest and opportunities for choosing a profession in schoolchildren, the systematization of psychodiagnostic techniques is proved.

Keywords: profession, interactive, consultant, conversion type, realistic type, intellectual type, entrepreneurial type, aesthetic type.

Kirish. Barcha jamiyatlarda salomatlikni saqlash doimo dolzarb ahamiyatga ega masala sifatida e'tibor markazida bo'lib kelgan. Aholi salomatligini saqlash muammosi nafaqat fiziologik-jismoniy jihatdan, balki ijtimoiy psixologik darajada ham nazariy, ham amaliy dolzarb ahamiyatga ega ekanligi global inqirozlar sharoitida (2020-2021-yillardagi Koronavirus pandemiyasi yaqqol misol sifatida keltirishimiz mumkin) yana bir bor oydinlashdi. Ijtimoiy hayotning iqtisodiy, demografik, etnik, axloqiy va ekologik sohalaridagi o'zgarishlarning jadal sur'atlarda kechishi sharoitida har bir insonga kuchli bosim o'tkazmoqda. Doimiy ruhiy zo'riqish, stress holatida ishlash psixik jarayonlar - xotira, e'tibor, fikrlash ko'rsatkichlarining susayishiga, ish suratlarining pasayishiga, hissiy toliqishga va buning natijasida kasbiy kasalliklar sonining ortishiga sabab bo'lmoqda.

Odatda aholining aksariyat qismi salomatlik deyilganda tirik organizmlarning tana a'zolarida nuqson, kasalliklarning yo'qligini va o'z vazifalarini to'liq bajara olish imkoniyati deb tushunadi. "Salomatlik" tushunchasini jismoniy jihatdan tibbiy amaliyotga oid atama sifatida keng qo'llaydi. Lekin, shuni ta'kidlash kerakki hozirgi kunda "salomatlik" tushunchasining umumiy qabul qilingan talqini yo'q.

Odatda, salomatlik nima? deyilgan savolga to'g'ridan-to'g'ri, aniq javob topish qiyin. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti mutaxassislarining fikriga ko'ra, sog'lik nafaqat har qanday kasallik va nuqsonlarning yo'qligi, balki to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatidir.

So'ngi vaqtlarda aholi o'rtasida "ruhiy salomatlik" tushunchasi, ruhiy salomatlikka doir axborotlarga talab ortgan. Ruhiy salomatlikni ta'minlash masalasi jamiyatimiz keng ommasi orasiga kirib boryapti, bilim darajasi oshmoqda, sababi ruhiyatdagi o'zgarishlar - tushkunlik, stress, xavotir, muammolar bizni tobora ko'proq bezovta qilyapti. Ruhiy (psixik salomatlik deb ham atashimiz ham mumkin) salomatlik - shaxsning hayotiy murakkab vaziyatlarni yengishi, bir vaqtning o'zida eng optimal bo'lgan hissiy fonni va xatti-harakatlarning adekvatligini saqlab qolish qobiliyati deb tarflanadi. Psixologik atamalarining izohli lug'atida esa "ruhiy salomatlik" nisbatan barqaror ruhiy holat sifatida ta'riflangan bo'lib, bunda shaxsning moslashishi, hayotga qiziqishi va o'zini-o'zi anglashga intilish bilan tavsiflanadi.¹ Zamonaaviy qarashlarga ko'ra o'sib kelayotgan avlodlarning ruhiy salomatligi holati - jamiyatida yashash sharoitlari bilan izohlanamoqda.

¹ И.М. Танка, ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ СЛОВАРЬ. - БГПУ-2021.

Mamlakatimizda ham aholi salomatligini saqlash masalasi muhim vazifalar qatoridan o'rin egallagan. Qabul qilingan va qilinayotgan qator hukumat qarorlari, farmonlar bunga yorqin misol bo'ladi. Sababi yuqorida keltirib o'tganimizdek jamiyatimizda ham ruhiy salomatlik masalasi dolzarblashib bormoqda. Respublikamiz aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil etadi. Bu esa ruhiy salomatlikni taminlash ham muhim ahamiyatga ega ekanligi oydinlashadi. Sababi, 2021 – yilda JSST tomonidan olingan so'rovnoma ko'ra: har 10 tadan 4 nafar (42%) talaba o'zini qayg'uli yoki umidsiz his qilishi, talabalarning 1/3 qismi (29%) ruhiy salomatligida muammolar bor deb hisoblashlari ma'lum bo'ldi.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ning "Xalq ta'limi tizimining joriy holati va mavjud muammolari bobida keltirilishicha: Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari umumiy sonining qariyb 25 foizini "Pedagogika" mutaxassisligi bitiruvchilari tashkil etishi va bu mutaxassislik eng ommaviylardan biri bo'lishiga qaramasdan, uning jozibadorligi pastligi sababli pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining o'z kasbi bo'yicha mehnat qilish motivatsiyasi past darajada qolmoqda".

Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat yo'nalishini 86 458 nafar talaba bitirgan. Bundan pedagogik yo'nalish bitiruvchilari soni 28190 nafar sifatida ko'rsatilgan.

Bo'lajak pedagog kadrlaning pedagogik faoliyatda uchrashi mumkin bo'lgan turli ruhiy zo'riqishlar, kasbiy stresslar, emotsional ta'sirlarning ham mavjudligini hisobga olishimiz, bo'lajak pedagoglarning ruhiy salomatligiga bo'lgan salbiy ta'sirlarini aniqlash, ularni oldini olish kabi qator vazifalar ham paydo bo'lmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Asrimizning dastlabki yillaridanoq ruhiy salomatlik borasida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi, olingan natijalar yana boshqa ilmiy izlanishlarga sabab bo'lmoqda. Ruhiy salomatlik, unga ta'sir etuvchi fiziologik, ijtimoiy, psixosomatik omillar, sabablarga doir izlanishlar dolzarb darajada e'tibor qaratildi. Xususan: quyidagi olib borilgan tadqiqotlar ham firkimizning tasdig'i sifatida e'tibor qaratishimizga undaydi:

Angererning 2003 – yildagi tadqiqotlariga ko'ra, faoliyat jarayonida yuzaga keluvchi kasbiy stress va zo'riqishlardan ortirilgan tajribalar, odatda hodimlarning toliqishiga, charchashiga bevosita hissa qo'shadi, buning natijasida ish joyidagi mahsuldorlik va ishlashga, ishdan qoniqish va majburiyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishini (Angerer, 2003);

Maslax, Shaufeli va Leytarning bir qator tadqiqotlarida ruhiy salomatlik kundalik ish faoliyatning ko'plab sohalarida, jumladan, mehnat unumdorligi va bilan bog'liq stress darajasida asosiy rolga egaligi takidlanadi.

Geving, Grayson, Alvarez, Stoyberning ilmiy tadqiqotlarida o'qituvchilik kasbi - bu yuqori darajadagi stress va charchash bilan bog'liq xizmatlar bilan bog'liq kasb ekanligi o'z ifodasini topadi.

Pedagoglarning ish faoliyatidan toliqish, charchash jarayoni pedagog kadrlar faoliyatining dastlabki bosqichlarida boshlanishi, yuzaga kelishi tadqiqotlar natijasida aniqlangan. Asosiy sabablardan biri sifatida maktablarda muayyan muddatlardan beri faoliyat yuritayotgan ko'plab o'qituvchilar bo'lajak pedagog talabalarga o'qitish davomidagi katta stresslar haqida xabar berishlari, axborot yetkazishlari keltiriladi. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda natijasida olingan ma'lumotlar bo'lajak pedagoglarning ruhiy salomatligini taminlash vazifasi doimiy tarzda dolzarb masalalardan biri sifatida e'tibor qaratishimizga sabab bo'ladi.

Fontana va Abuzerilarning XX asr boshida olib borgan tadqiqot ishlariga ko'ra o'qituvchilarning ish jarayonida yuzaga keluvchi stress barcha mamlakatlardagi va ta'limning turli bosqichlarida faoliyat yurutuvchi pedagog kasbida keng tarqalganini ma'lum etishgan bo'lsa, tadqiqotchi Harnining tadqiqot natijalariga ko'ra o'qituvchilik kasbida faoliyat yurutuvchilar hamma joyda, ishdagi stressning yuqori darajasi haqida xabar berishi aniqlandi. (Fontana and Abouserie.; Harney, 2008); Pedagoglarda yuzaga keluvchi stressning sababini o'qituvchilarning kasbiy faoliyatlari davomidagi umumiy talablari(axloqiy, rasmiy, ma'naviy)dan kelib chiquvchi salbiy hissiy tajribalari (o'quv dasturlarini o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirishni hisobga olgan holda moslashtirish yoki yuqori sinflardagi o'quvchilarning xulq-atvoridagi muammolarini hal qilishda yuzaga keluvchi umidsizlik, tushkunlik holatini misol sifatida keltirishimiz mumkin) bilan tavsiflanadi.

Muhokama va natijalar. Bo'lajak pedagoglarning ruhiy salomatligini belgilovchi omillarni o'rganish maqsadida diagnostikani o'tkazish va olingan natijalarning statistik tahlilini aniqlash maqsadga

¹ Scientific Journal Impact Factor - 2023


muvofigdir. Ushbu tadqiqotimiz davomida bitiruvchi bosqichdagi pedagoglar o'rtasida tanlangan kasbiy faoliyatda o'z-o'zini anglash, rivojlantirish vositasi sifatida qabul qilish darajasini, yangi jamoadagi o'rni, o'ziga xosligini anglashni va unga a'zolikning ahamiyatini baholashni aniqlash maqsadida "Bo'lajak pedagoglarning kasbiy identifikatsiyasi bo'yicha so'rovnomamizda jami 118 nafar sinaluvchilar ishtirok etdi. So'rovnomamiz jami 21 ta so'rovdan iborat bo'lib, talaba berilgan savollarga nisbatan javoblarini quyidagi shaklda o'ziga mos kelganini tanlash orqali belgilaydi:

1	Maqullayman / +
2	Maqullamayman / -

Natijalar taxlili quyidagi 4 shkala bo'yicha aniqlanadi. Bunda:

1-shkala	<i>"Talabaning kasbga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq ijobiy his tuyg'ular"</i>
2-shkala	<i>"Talabaning kasbga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq salbiy his tuyg'ular"</i>
3-shkala	<i>"Talabaning kasbga bo'lgan faol munosabati pozitsiyasi"</i>
4-shkala	<i>"Talabaning kasbga passiv munosabati pozitsiyasi"</i>

So'rovnomamiz bo'yicha olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, bo'lajak pedagoglarning 15,3% da (sinaluvchilarning 18 nafarida) kasbga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq salbiy his-tuyg'ular yuqori ustunlikka, 11% da kasbga passiv munosabat pozitsiyasi yuqori ekanligi aniqlandi.



Xulosa sifatida shuni ma'lum qilishimiz mumkinki, hozirgi kunda pedagogik yo'nalishda taxsil olayotgan talabalar uchun 4+2 ya'ni 4 kun oliy ta'lim muassasida, 2 kuni maktabgacha ta'lim muassasi va umumiy o'rta ta'lim maktablarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishi joriy etilgan. Bu bo'lajak pedagoglar uchun katta imkoniyat yaratadi. Nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlashga, o'z ustilarida doimiy ishlashlari, izlanishlariga sabab bo'lmoqda. Shuning bilan birga bir qator pedagogik faoliyatda uchrashi mumkin bo'lgan turli ruhiy zo'riqishlar, kasbiy stresslar, emotsional ta'sirlarning ham mavjudligini, bo'lajak pedagoglar ruhiy salomatligiga salbiy ta'sirini oldini olish bo'yicha ham bir qator vazifalarni hal etishimiz zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi PF-5712-son "O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni.
2. И.М. Танка, ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ СЛОВАРЬ. - БГУ-2021.
3. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
4. Maslach, Schaufeli and Leiter, 2001; Maslach, Leiter, 2008
5. Geving, 2007; Grayson and Alvarez; 2008; Stoeber and Rennert, 2008)
6. Fives, Hamman and Olivarez, 2007

Sattarova Gulnora Ikromovna

Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasida dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ZAIF ESHITUVCHI VA NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN O'SMIRLARDA HISSIY- IRODAVIY SIFATLARNI BELGILOVCHI FAKTORLAR

Annotasiya. Mazkur maqolada aqliy rivojlanishi saqlangan zaif eshituvchi va nutqida nuqsoni bo'lgan o'smirlarda hissiy-irodaviy sifatlarni belgilovchi faktorlar "Shaxsning ko'p omilli xususiyatlarini o'rganish" so'rovnomasi, "Koping-indikator" testi, "Emotsional intellekt" metodikasi, "Subyektiv lokus nazorat xususiyatlari" so'rovnomasi hamda "Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish" so'rovnomalari tatbiqidan olingan natijalar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: faktor, o'smir, hissiy-irodaviy soha, emotsionallik, ijtimoiylash, ta'sirchanlik, irodaviy beqarorlik, o'zini o'zi nazorat qilish, sobitqadamlik, lokus nazorat.

ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ФАКТОРЫ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ У ПОДРОСТКОВ С НАРУШЕНИЕМ СЛУХА И РЕЧИ

Аннотация. В данной статье освещены факторы, определяющие эмоционально-волевые качества подростков с сохраненным интеллектуальным развитием, слабослышающими и нарушениями речи, на основе результатов опроса "Исследование многофакторных особенностей личности", теста "Копинг-индикатор", методики "Эмоциональный интеллект", "Особенности субъективного локусного контроля" и "Самоконтроль в эмоциональных состояниях".

Ключевые слова: фактор, подросток, эмоционально-волевая сфера, эмоциональность, социализация, аффективность, волевая нестабильность, самоконтроль, устойчивость, локусный контроль.

DETERMINING FACTORS OF EMOTIONAL AND VOLITIONAL QUALITIES IN ADOLESCENTS WITH HEARING AND SPEECH IMPAIRMENTS

Abstract. This article highlights the factors that determine the emotional and volitional qualities of adolescents with preserved intellectual development, hearing impairments and speech impairments, based on the results of the survey "Study of multifactorial personality traits", the "Coping indicator" test, the "Emotional intelligence" methodology, "Features of subjective locus control" and "Self-control in emotional states".

Key words: factor, teenager, emotional-volitional sphere, emotionality, socialization, affectivity, volitional instability, self-control, stability, locus control.

Kirish. Hozirgi kunda zamonaviy psixologiya fanining ilmiy bilimlar tizimi tobora kengayib borayotganligi sababli uning sohalariga bo'lgan talablar ham ancha ortib bormoqda. Bizningcha, psixologiya fanining asosiy maqsadi, psixik jihatdan sog'lom, intellektual rivojlanishi barqaror, kognitiv sohasi faol, o'zlashtirish imkoniyati yuqori bo'lgan barkamol shaxslarni tarbiyalash, ularning qobiliyatlarini psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda ko'nikma va malakalarini takomillashtirishdan iboratdir. Biroq, ta'lim-tarbiya ishlari faqatgina sog'lom shaxslar uchunгина emas, balki jismoniy salomatligida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun ham ahamiyatli jarayon sanaladi. Garchi, insonning psixik salomatligi hamda uning nuqsonlari qator fanlarning o'rganish obyekti bo'lsa-da, biroq tibbiy psixologiya, pedagogik psixologiya, maxsus psixologiya kabi fanlarning ma'lumotlari psixolog mutaxassislar uchun alohida ahamiyat kasb etib, ushbu masalada kengroq izlanishlar olib borish nafaqat jahon afgor ommasi uchun balki, mahalliy psixologiya uchun ham ahamiyatga ega bo'lgan vazifalardan biri sanaladi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, dunyo miqyosida nutq sohasida nuqsoni bo'lgan o'smirlar imkoniyati cheklangan o'smirlar ichida eng katta guruhni tashkil etishi aniqlangan. Shu bois ham, bunday nuqsonli o'smirlarni o'qitish va tarbiyalash, ularni psixologik o'rganish va ularda hissiy-irodaviy sifatlarni shakllantirish bilan bog'liq psixokorreksion ishlar olib borish ishlariga, yetakchi davlatlar tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. T.N.Volkovskayaning yozishicha, nutqida muammosi borlik, insonda muloqot tabiatining o'zgarishiga, hissiy va ijtimoiy rivojlanishning kechikishiga olib keladi, shuningdek, u o'smir shaxsi shakllanishiga, ijtimoiy munosabatlarni anglashning mazmuniga, o'z-o'zini anglash ko'nikmasi shakllanishiga ham keng salbiy ta'sir etadi [2]. Nutq sohasida muammosi bor o'smirlarning

hissiy-irodaviy sohasi xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlar orasida S.V.Lautkina, G.V. Chirkina, L.G. Solovyova, G.X. Yusupova, Ye.V. Julina, O.A.Slinko, I.Yu.Levchenko, S.A. Klyujev kabilarning ilmiy izlanishlari, jahon afgor ommasi uchun, alohida ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar turkumidan biri sanaladi [3,4]. Olimlar tadqiqotlarda nutqida nuqsoni bor o'smirlarda o'zini o'zi baholash ko'nikmalari va bezovtalik, tajovuzkorlik namoyon bo'lishining sabablarini aniqlashga harakat qilganlar.

Kar va aif eshituvchi bolalarda sog'lom bolalarga xos bo'lgan barcha xususiyatlar mavjudir. Ammo kar bolalardagi nutqning yoqligi ular psixologiyasi atrof-muhitga moslashish jarayonida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. O'z navbatida, nutq fikrlash bilan o'zaro bog'liq bo'lganligi sababli, kar bolalarda fikrlash jarayoni alohida xususiyatga ega bo'ladi. Bu xususiyat shundan iboratki, kar bolalardagi fikrlash qobiliyati ko'rish, sezish, hid bilish kabi analizator asosida rivojlanadi, yani ularning fikrlashi aniq obrazli bo'ladi. Ammo bu holat hech qachon aqli zaiflik belgisi deb qaralmagan. Bunday bolalar maxsus bog'cha yoki maktablarda tarbiya olsalar, hayotiy zarur so'zlar aytishga o'rgana oladilar va abstrakt fikrlash qobiliyati ham shakllana boradi.

Y.E.Artemovanning aniqlashicha, eshitish qobiliyati cheklangan o'smirlarning hissiy jihatdan rivojlanishining o'ziga xosligi ko'proq, ularning ota-onalari va yaqin oila a'zolari bilan bo'ladigan doimiy munosabatlariga ham uzviy bog'liq sanaladi [1]. I.P.Volkovanning ta'kidicha, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'smirlarda irodaviy boshqaruv mexanizmi ham kuchsiz rivojlangan bo'lib, bunday imkoniyat ularga o'z his-tuyg'ularini yetarlicha boshqarishga imkon bermaydi. Muallif bunday nuqsonli o'smirlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ikkita omilni ajratib o'tadi: asosiy nuqson (eshitish yoki miya faoliyati bilan bog'liq buzilish) va disfunktsiyali ijtimoiy muhit yoki pedagogik e'tiborsizlikdir [2]. Biroq, bunday kamchiliklarga ega bo'lgan o'smirlarning his-tuyg'ularini tuzatish mumkin va vaqt o'tishi bilan tarbiya vositalaridan foydalangan holda, o'smirlarni yuqori turli xil hissiy holatlarni tan olishga, ularni nazorat qilish va o'zgartirishga o'rgatish mumkin

V.P.Kashenko jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor o'smirlarning hissiy-irodaviy sohasini tadqiq etar ekan, ularga xos bo'lgan quyidagi xarakterologik xususiyatlar mavjudligini ajaratib o'tadi :

- Kayfiyatdagi beqarorlik, nomuvofiqlik (kayfiyatning keskin o'zgarishi);
- Affektiv qo'zg'aluvchanlikning kuchayishi (ajablanish, emotsional reaksiyalarning jilovsiz va cheklanmagan ko'rinishi);
- Odamlarni yoqtirish yoki yoqtirmaslikning kuchli ko'rinishi (yoqimli va yoqimsiz hislar);
- Harakatlarning impulsivligi (hissiy muvozanatning buzilishi);
- G'azablanganlik (qisqa muddatli aqldan ketish holati);
- Uyatchanlik va og'riqli qo'rquv (fobiya);
- Pessimizm va haddan tashqari xushchaqchaqlik;
- Befarqlik, befarqlik (harakat va so'z uzoq qayd etilmasligi);
- Tozalikka rioya qilmaslik;
- Ehtirosli o'qish (tashqi dunyoga e'tibor bermaslik) [5].

Yuqorida qayd etilgan tasniflarga muvofiq, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor o'quvchilar nafaqat, hissiy jihatdan balki, irodaviy sifatlar jihatdan ham, sog'lom o'quvchilardan farqlanib turar ekan. Xuddi shunday tadqiqotlar psixologlardan L.M.Krijanovskaya, L.O.Goncharova, K.S.Kruchinova, A.A.Maxovalar tomonidan o'tkazilgan bo'lib, unga ko'ra, nogiron o'smirlarning hissiy - irodaviy sohasi "Rang" testi, "Mavjud bo'lmagan hayvon" testi kabi psixodiagnostik vositalar orqali baholangan. Amalga oshirilgan tadqiqotning natijalariga ko'ra, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor o'quvchilarning aksariyati ko'k va qizil rangni ma'qul ko'rishgan [6]. Aynan ushbu ikki rang, psixologik mazmuniga ko'ra, nogiron o'smirlarning hissiy -irodaviy sohasi imkoniyatlarini ifodalab, ular ko'proq ijtimoiy munosabatlardan qoniqmasligini, o'ziga yaqinroq kishilarni qidirishlarini namoyon etganlar.

Tadqiqotning maqsadi zaif eshituvchi va nutqida nuqsoni bor bo'lgan (aqliy rivojlanishi saqlangan) o'smirlarning hissiy-irodaviy rivojlanishini belgilovchi faktorlarni aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida zaif eshituvchi va nutqida nuqsoni bor o'smirlar jalb etildi.

Tadqiqotni amalga oshirishda bir qator metodika va so'rovnomalar tanlab olingan. Jumladan, Kettellning "Shaxsning ko'p omilli xususiyatlarini o'rganish" so'rovnomasi, Jeymsom Amirxon tomonidan ishlab chiqilgan "Koping-indikator" testi, D.V. Lyusinaning "Emotsional intellekt" metodikasi, S.R. Panteleev va V.V.Stolinning "Subyektiv lokus nazorat xususiyatlari" so'rovnomasi hamda G.S. Nikiforov tomonidan yaratilgan "Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish" so'rovnomalaridan foydalanilgan. Mazkur metodikalar sinaluvchi haqida qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kiritish imkonini beradi.

Quyida keltiriladigan jadvallarda jismoniy rivojlanishda nuqsoni bor bo'lgan o'smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarini belgilab beruvchi psixologik indikatorlar mazmuni keltiriladi.

Quyidagi jadvalda nutqida nuqsoni bo'lgan o'smirlarning koping indikator, shaxs irodaviy sifatleri va subyektiv lokus nazorat so'rovnmalari faktorizatsiyalari keltirilgan.

Jadval-1

Koping indikator, shaxs irodaviy sifatleri va subyektiv lokus nazorat xususiyatlari so'rovnmalari faktorizatsiyalari

Shkalalar	Faktorlar	
	1	2
Irodaviy mas'uliyatlilik	0,740	
Jur'atlilik	0,548	
Matonatlilik	0,568	
Qat'iylik		0,576
G'ayratlilik	0,590	
Muammoni yechish	0,745	
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qidirish	0,683	
Muammodan qochish		0,636
Samimiylik (Tanqidiy tafakkur)	0,780	
Eksternal lokus nazorat		0,584
Internal lokus nazorat	0,697	
Samimiylik	0,594	

Jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan o'smirlarda hissiy-irodaviy sifatlarini shakllantirishning psixologik jihatlari mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishi bo'yicha tanlab olingan koping indikator, shaxs irodaviy sifatleri va subyektiv lokus nazorat xususiyatlari so'rovnmalari natijalari nutqida nuqsoni bo'lgan o'smirlarda quyidagicha namoyon bo'ldi (1-jadval). Birinchi faktorga kirgan ta'kidlar: irodaviy mas'uliyatlilik (0.740), jur'atlilik (0.548), matonatlilik (0.568), g'ayratlilik (0.590), muammoni yechish (0.745), ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qidirish (0.683), samimiylik (tanqidiy tafakkur) (0.780), internal lokus nazorat (0.697) va samimiylik (0.594). Ushbu faktorni (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko'ra) shartli ravishda hayotiy jabhalarda mas'uliyatlilik deb nomladik.

Ikkinchi faktordan quyidagi mulohazalar o'rin oldi: qat'iylik (0.576), muammodan qochish (0.636) va eksternal lokus nazorat (0.584). Ushbu faktorni esa (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko'ra), shartli ravishda: o'quv faoliyatida irodaviy beqarorlik shkalasi deb nomladik.

Navbatdagi keltirilgan jadvalda jismoniy rivojlanishda ya'ni nutqida nuqsoni bo'lgan o'smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarini aks ettiruvchi emotsional intellekt va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish so'rovnmalari bo'ychi olingan natijalari qayd etilgan (2-jadval).

Jadval-2

Emotsional intellekt va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish so'rovnmalari faktorizatsiyasi

Shkalalar	Faktorlar	
	1	2
O'z his-tuyg'ularini anglash	0,757	
O'z his-tuyg'ularini boshqarish	0,550	
Boshqalarning his-tuyg'ularini anglash		0,535
Boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish		0,567
Emotsional intellektning ichki shaxsiy jihati	0,587	
Emotsional intellektning shaxslararo jihati		0,748
Emotsional intellektning integral ko'rsatkichi	0,668	
Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish	0,694	
Muloqotda o'zini nazorat qilish		0,725
Ijtimoiylashuvda o'zini nazorat qilish	0,690	

Nutqida nuqsoni bor o'smirlarda hissiy-irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik jihatlariga bag'ishlangan tadqiqot ishida emotsional intellekt va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish muhim sanaladi. Shu jihatdan olib qaralganda, nutqida nuqsoni bor o'smirlarda emotsional intellekt va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish kabi so'rovnomalardan foydalanishni joiz deb topdik. Quyidagi jadvalda nutqida nuqsoni bor o'smirlarning mazkur so'rovnomalarda bo'yicha faktorli analiz yordamida olgan natijalari keltiriladi (2-jadval).

Birinchi faktorga kirgan ta'kidlar: o'z his-tuyg'ularini anglash (0.757), o'z his-tuyg'ularini boshqarish (0.550), emotsional intellektning ichki shaxsiy jihati (0.587), emotsional intellektning integral ko'rsatkichi (0.668), emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish (0.694) va ijtimoiylashuvda o'zini nazorat qilish (0.690). Ushbu faktorni (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko'ra), shartli ravishda: o'z emotsiyalarini ro'yobga chiqarish deb nomladik.

Ikkinchi faktordan quyidagi mulohazalar o'rin oldi: boshqalarning his-tuyg'ularini anglash (0.535), boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish (0.567), emotsional intellektning shaxslararo jihati (0.748) va muloqotda o'zini nazorat qilish (0.725). Ushbu faktorni esa (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko'ra), shartli ravishda: o'z emotsiyalarini nazorat qilish shkalasi deb nomlashni lozim topdik.

Hissiy-irodaviy sifatlarning ortirilgan komponenti sifatida, ontogenezda o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar, tajribalar hamda ixtiyoriy munosabatlarga bo'lgan qobiliyatlar kabilar kiritiladi. Demak, irodaviy sifatlarda bir tomondan asab tizimining tipologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan hayot davomida o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalar bilan chambarchas bog'liqdir. Iroda va irodaviy sifatlarda masalasida, ko'plab fenomenologik tushunchalarni uchratish mumkin.

A.G.Maklakov fikriga ko'ra esa, hissiy-irodaviy sifatlarda "iroda"ning umumiy mazmunidan chiquvchi, maqsadga erishish yo'lida yuzaga keladigan jiddiy qiyinchiliklarni yengish uchun shart bo'lgan umumiy qobiliyatdir[7].

Navbatdagi jadvalda jismoniy rivojlanishda ya'ni nutqida nuqsoni bo'lgan o'smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarni aks ettiruvchi shaxsning ko'p omilli so'rovnomasining o'zaro qiyosiy natijalari keltirilgan (3-jadval).

Jadval-3

Shaxsning ko'p omilli so'rovnomasi faktorizatsiyalari

Shkalalar	Faktorlar	
	1	2
Muloqotga moyillik		0,730
Hissiy barqaror-beqaror	0,783	
Hukmronlikka intilish-tobelik	0,686	
Ijtimoiy yetuklik-onglililik		0,765
Dadillik-tortinchoqlik	0,592	
Ishonuvchanlik-shubhalanish		0,649
O'ziga ishonch-ishonmaslik	0,564	
Mustaqillik-tobelik		0,687
O'zini nazorat qilish-ta'sirchanlik		0,638
Zo'riqish-bo'shshish	0,695	

Amaliy izlanishlar shuni ko'rsatadiki nutqida nuqsoni bor o'smirlarda shaxsning ko'p omilli xususiyatlari bo'yicha so'rovnomalarda ikki faktorga birlashgan (4.6-jadval). Birinchi faktorga kirgan ta'kidlar: hissiy barqaror-beqaror (0.730), hukmronlik intilish-tobelik (0.686), dadillik-tortinchoqlik (0.592), o'ziga ishonch-ishonmaslik (0.564) va zo'riqish-bo'shshish (0.695). Ushbu faktorni (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko'ra), shartli ravishda: ma'lumotlarni saralab talqin qilish deb nomladik.

Ikkinchi faktordan quyidagi mulohazalar o'rin oldi: muloqotga moyillik (0.730), ijtimoiy yetuklik-onglililik (0.765), ishonuvchanlik-shubhalanish (0.649), mustaqillik-tobelik (0.687) va o'zini nazorat qilish-ta'sirchanlik (0.638). Ushbu faktorni esa (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko'ra), shartli ravishda: ijtimoiy shartlanganlik shkalasi deb nomladik.

Keyingi jadvalda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'smirlarning koping indikator, shaxs irodaviy sifatlari va subyektiv lokus nazorat so'rovnomalari faktorizatsiyalari keltirilgan.

Koping indikator, shaxs irodaviy sifatlari va sub'ektiv lokus nazorat xususiyatlari so'rovnmalari faktorizatsiyalari

Shkalalar	Faktorlar	
	1	2
Irodaviy mas'uliyatlilik		0,596
Jur'atlilik		0,538
Matonatlilik		0,759
Qat'iylilik	0,539	
G'ayratlilik	0,565	
Muammoni yechish		0,736
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qidirish	0,685	
Muammodan qochish	0,657	
Samimiylik (Tanqidiy tafakkur)	0,582	
Eksternal lokus nazorat		0,723
Internal lokus nazorat	0,776	
Samimiylik	0,634	

Tadqiqotdan olingan natijalarga ko'ra, jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan ya'ni eshitishda kamchiligi bo'lgan o'smir o'smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarini shakllantirish bilan bog'liq tadqiqot natijalariga ko'ra, ularda faktorli analiz yordamida olingan ko'rsatkichlar 4-jadvalda aks etgan.

Birinchi faktorga kirgan ta'kidlar: qat'iylilik (0.539), g'ayratlilik (0.565), ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qidirish (0.685), muammodan qochish (0.657), samimiylik (tanqidiy tafakkur) (0.582), internal lokus nazorat (0.776) va samimiylik (0.634). Ushbu faktorni (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko'ra), shartli ravishda: hayotiy vaziyatlarda sobitqadamlik deb nomladik.

Ikkinchi faktordan quyidagi mulohazalar o'rin oldi: irodaviy mas'uliyatlilik (0.596), jur'atlilik (0.538), matonatlilik (0.759), muammoni yechish (0.736) va eksternal lokus nazorat (0.723). Ushbu faktorni esa (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko'ra), shartli ravishda: nostandart vaziyatlarda matonatlilik shkalasi deb nomladik.

Hissiy-irodaviy sifatlarning insonning atrof-muhitga bo'lgan munosabatida, maqsadga erishishga qaratilgan ongli harakatlarida, shaxsning ichki maqsad va intilishlarida, hayot davomida uchraydigan turli to'siqlarni yengish bilan bog'liq vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Demak hissiy-irodaviy sifatlarning bu – o'z xatti harakatlarini ongli ravishda boshqarish, aniq maqsadlarni qo'llash hamda ularni amalga oshirishga qaratilgan qobiliyat turidir. Hissiy-irodaviy sifatlarning bilimlarni egallashdagi rolini, o'quvchilar faoliyati bilan bog'lab o'rgangan olim A.L.Venger o'quvchilarning yaxshi o'qishi uchun avvalo, ularda maqsadlilik, o'zini tuta bilish, intizomlilik, qat'iylilik, tashabbuskorlik va mustaqillik kabi sifatlarni shakllantirish lozim. Bundan tashqari E.O.Smirnova hissiy-irodaviy sifatlarning masalasiga to'xtalib o'tar ekan, unga xos o'zboshimchalik va tartibga solish funksiyalarini umumlashtirib, ularni ichki va tashqi faoliyatni nazorat qilishga bo'lgan qobiliyat turlari deb ta'riflaydi. Darhaqiqat, hissiy-irodaviy sifatlarning barqaror, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, ayrim motivlarni o'ziga bo'ysundiradigan ichki nazorat sohasi hisoblanadi. Bunday ishlar keyinchalik, insonning o'z ustida ishlash qobiliyatini yanada takomillashtiradi [8].

Keyingi jadvalda jismoniy rivojlanishda ya'ni eshitishda nuqsoni bo'lgan o'smirlarning hissiy-irodaviy sifatlari aks ettiruvchi emotsional intellekt va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish so'rovnmalari bo'yicha olingan natijalari qayd etilgan (5-jadval).

Emotsional intellekt va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish so'rovnmalari faktorizatsiyasi

Shkalalar	Faktorlar	
	1	2
O'z his-tuyg'ularini anglash	0,608	
O'z his-tuyg'ularini boshqarish		0,637

Boshqalarning his-tuyg'ularini anglash		0,667
Boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish	0,548	
Emotsional intellektning ichki shaxsiy jihati		0,592
Emotsional intellektning shaxslararo jihati	0,745	
Emotsional intellektning integral ko'rsatkichi	0,657	
Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish		0,674
Muloqotda o'zini nazorat qilish		0,597
Ijtimoiylashuvda o'zini nazorat qilish	0,695	

Faktorli analiz mezoniga ko'ra, jismoniy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan ya'ni eshitishda kamchiligi bo'lgan o'smirlarda hissiy-irodaviy sifatlarni shakllanishini aniqlashda emotsional intellekt va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish so'rovnomalardan foydalandik. Quyida ularning ko'rsatkichlarini ikki faktorga birlashgan natijalardan bilish imkoniga ega bo'lamiz (5-jadval).

Birinchi faktorga kirgan ta'kidlar: o'z his-tuyg'ularini anglash (0.608), boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish (0.550), emotsional intellektning shaxslararo jihati (0.745), emotsional intellektning integral ko'rsatkichi (0.657) va ijtimoiylashuvda o'zini nazorat qilish (0.695). Ushbu faktorni (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko'ra), shartli ravishda: o'z emotsiyalarini ro'yobga chiqarish deb nomladik. Ikkinchi faktordan quyidagi mulohazalar o'rin oldi: o'z his-tuyg'ularini boshqarish (0.637), boshqalarning his-tuyg'ularini anglash (0.667), emotsional intellektning ichki shaxsiy jihati (0.592), emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish (0.674) va muloqotda o'zini nazorat qilish (0.597). Ushbu faktorni esa (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko'ra), shartli ravishda: boshqalarning emotsiyalarini idrok etish shkalasi deb nomlashni lozim topdik.

Navbatdagi keltirilgan jadvalda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'smirlarning hissiy-irodaviy sifatlarini aks ettiruvchi shaxsning ko'p omilli so'rovnomasi ko'rsatkichlari qayd etilgan (6-jadval).

6-jadval

Shaxsning ko'p omilli so'rovnomasi faktorizatsiyalari

Shkalalar	Faktorlar	
	1	2
Muloqotga moyillik		0,527
Hissiy barqaror-beqaror		0,735
Hukmronlikka intilish-tobelik	0,667	
Ijtimoiy yetuklik-onglilik	0,656	
Dadillik-tortinchoqlik	0,736	
Ishonuvchanlik-shubhalanish	0,585	
O'ziga ishonch-ishonmaslik		0,645
Mustaqillik-tobelik	0,592	
O'zini nazorat qilish-ta'sirchanlik		0,598
Zo'riqish-bo'shshish	0,661	

Tadqiqotning amaliy natijalari bo'yicha sinaluvchilar ko'rsatkichlari ikki faktorga birlashgan. Birinchi faktorga kirgan ta'kidlar: hukmronlik intilish-tobelik (0.667), ijtimoiy yetuklik-onglilik (0.656), dadillik-tortinchoqlik (0.736), ishonuvchanlik-shubhalanish (0.585), mustaqillik-tobelik (0.592) va zo'riqish-bo'shshish (0.661). Ushbu faktorni (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko'ra), shartli ravishda: boshqalar fikrini tinglay olish qobiliyati deb nomladik.

Ikkinchi faktordan quyidagi mulohazalar o'rin oldi: muloqotga moyillik (0.527), hissiy barqaror-beqaror (0.735), o'ziga ishonch-ishonmaslik (0.645) va o'zini nazorat qilish-ta'sirchanlik (0.598). Ushbu faktorni esa (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko'ra), shartli ravishda: boshqalarga ishonish shkalasi deb nomladik.

Yuqorida tahlil etilgan amaliy tahliliy ma'lumotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, hissiy-irodaviy sifatlari bu shunchaki oddiy xususiyatlar emas balki, ular o'z mazmunida ko'plab psixologik komponentlarni birlashtirgan fenomenologik tushunchadir.

Xulosa qilib aytganda, zaif eshituvchi va nutqida nuqsoni bor o'smir o'zini o'zi tengdoshlari ichida tan oldirishga nisbatan ma'lum darajada irodaga ega, lekin unda o'z shaxsiy imkoniyatlarini aniq tasavvur etish, tushunish uquvi, qaror qabul qilish qobiliyati zaif, xuddi shu boisdan o'z kamchiliklarini oqilona baholashga hozircha qurbi yetmaydi. Hissiy-irodaviy sifatlarni rivojlantirishning eng muhim omili sifatida mustaqillik, irodaviy barqarorlik, nostandart vaziyatlarda matonatlilik alohida ahamiyat kasb etar ekan. Yana shuni ta'kidlash joizki, mustaqillikka intilish, mas'uliyatlilik tuyg'usi maqsadga muvofiq shakllantirilsa u holda, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor o'smirlarda nostandart vaziyatlarda matonatlilik hissi rivojlanadi. Mazkur jarayon ularni tengdoshlari jamoasi bilan hamkorlikda ishlashda ortiqcha vasiylik, g'amxo'rlik qilish xizmatidan xalos etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Артемова Е.Э.Формирование просодики у дошкольников с речевыми нарушениями Монография.– М., МГГУ им. М.А. Шолохова, 2008. – 123 с.
2. Волковская Т.Н., Юсупова Г.В Психологическая помощь дошкольникам с общим недо-развитием речи / Под научной ред. И.Ю. Левченко. –М.: Национальный книжный центр, 2014 – 96 с. (Специальная психология.)
3. Лауткина, С. В. Специфика эмоциональной сферы личности взрослых с интеллектуальной недостаточностью : монография / С. В. Лауткина, Н. А. Курносова. – Витебск : ВГУ имени П. М. Машерова, 2016. – 128С.
4. Левченко И.Ю., Психолого-педагогическая диагностика. учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / Под ред. С.Д. Забрамной и др. М.: Издательский центр «Академия», 2003. 320 с.
5. Кашенко В.П. Педагогическая коррекция: Исправление недостатков характера у детей и подростков: В.П. Кашенко. - 4-е изд., стер. - М.: Издательский центр «Академия», 2006. – 304 с.
6. Крыжановская Л.М., Гончарова О.Л., Кручинова К.С., Махова А.А. Основы психокоррекционной работы с обучающимися с ОВЗ: учеб.пособие для вузов / [Л.М. Крыжановская, О.Л. Гончарова, К.С. Кручинова, А.А. Махова. - М.: Издательство ВЛАДОС, 2018. – 375 с
7. Маклаков А. Г.\ Общая психология. —СПб.: Питер, 2001. — 592 с.
8. 164. Смирнова Е. О. Развитие воли и произвольности у детей дошкольного возраста: Детская психология / Е. О. Смирнова. - М.: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2006. – 366 с.
9. Чиркина Г.В. Методы обследования речи детей Пособие по диагностике речевых нарушений/ Под общ. ред. проф. Г. В. Чиркиной. - 4-е изд., доп. - М.: АРКТИ, 2005. – 240

Qodirova Dilnoza Murtazoyevna

Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya
kafedrası o'qituvchisi

E-mail. dilya_kadirova_9292@mail.ru

BO'LAJAK PSIXOLOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI TADQIQ ETISHNING AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya. Bugungi kunda muhim bo'lgan kommunikativ kompetentlik omillarini tajribaviy tadqiq qilish muqarrarligini ko'rsatishi, buning uchun esa, eng avvalo, amaliyotchi psixologlardagi shaxs tiplari va shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi mutanosiblik va korrelyatsion ko'rsatkichlarni tadqiq qilish talab qilinishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga kompetentlikning xorijda va sharq olimlar tomonidan berilgan nazariy ma'lumotlar ham keltirilgan. Shuningdek, tadqiq etilgan va ilmiy matbuotda e'lon qilingan har bir ko'rsatkich ijtimoiy psixologiya fani istiqbollari oshib berishga xizmat qilganligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetentlik, metodologiya, professional kompetentlik, kategoriya, oliy kompetentlik, motivlashtirilgan qobiliyatlar, kvalimetrik, semantik, ixtisoslashgan ko'nikmalar.

ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕ- ТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПСИХОЛОГОВ

Аннотация. Приводятся данные о том, что экспериментальное исследование важных на сегодняшний день факторов коммуникативной компетентности неизбежно, а для этого, прежде всего, необходимы исследования пропорциональных и корреляционных показателей между типами личности и особенностями личности у практикующих психологов. Одновременно приводятся теоретические данные, предоставленные зарубежными и восточными учеными. Также было высказано мнение, что каждый исследованный и опубликованный в научной прессе показатель служил для того, чтобы превзойти Перспективы науки социальной психологии.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, методология, профессиональная компетентность, категория, высшая компетентность, мотивированные способности, квалиметрические, семантические, специализированные навыки.

PRACTICAL FUNDAMENTALS FOR RESEARCHING THE COMMUNICATIVE COM- PETENCE OF FUTURE PSYCHOLOGISTS

Annotation. There is evidence that an experimental study of the currently important factors of communicative competence is inevitable, and for this, first of all, studies of proportional and correlation indicators between personality types and personality traits in practicing psychologists are necessary. At the same time, theoretical data provided by foreign and Eastern scientists are presented. It was also suggested that each indicator studied and published in the scientific press served to surpass the Prospects of the science of social psychology.

Keywords: communicative competence, methodology, professional competence, category, higher competence, motivated abilities, qualimetric, semantic, specialized skills.

Kirish. Zamonaviy psixologiya fanida amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentligi muammosini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni o'rganar ekanmiz, ulardagi kommunikativ kompetentlik metodologiyasiga dahldor ayrim psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga harakat qildik. Ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kommunikativ kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud.

Jahon va respublikamizdagi psixologik o'quv markazlarida insonni tahlil qilish, uni har tomonlama rivojlantirishda turli xil psixologik usullardan foydalanish tobora jaddalashmoqda. Zero, qadimgi qomusiy olimlarimizning ilmiy asarlarida ham o'qituvchining shaxs sifatida rivojlanishiga oid bir qancha fikrlar uchraydi. Jumladan, Aflotun, Arastu, Kvintilian va boshqa antik davr olimlarining asarlarida o'qituvchi shaxsining asosiy fazilati sifatida ulardagi notiqlik qobiliyatini shakllantirish, mulohaza, ishontirish, isbotlash san'atida ko'zga tashlanadi. O'qituvchi birinchi navbatda o'zidagi notiqlik qobiliyatini shakllantirishi va undan keyin o'quvchilarda shu ko'nikmani o'rgatishi ulardagi hayotiy muvaffaqiyatini belgilab beradi.

So'nggi yillarda kompetentlik muammosi yangicha talqinlarda namoyon bo'lmoqda. Ko'pgina olimlar nafaqat kompetentlik balki professional kompetentlik haqida mutaxassisning kommunikativ mehnat talablariga muvofiqligi ko'rsatkichi sifatida fikr yuritishgan.

Jahon va respublikamizdagi psixologik o'quv markazlarida insonni tahlil qilish, uni har tomonlama rivojlantirishda turli xil psixologik usullardan foydalanish tobora jaddalashmoqda. Zero, qadimgi qomusiy olimlarimizning ilmiy asarlarida ham o'qituvchining shaxs sifatida rivojlanishiga oid bir qancha fikrlar uchraydi. Jumladan, Aflotun, Arastu, Kvintilian va boshqa antik davr olimlarining asarlarida o'qituvchi shaxsining asosiy fazilati sifatida ulardagi notiqlik qobiliyatini shakllantirish, mulohaza, ishontirish, isbotlash san'atida ko'zga tashlanadi. O'qituvchi birinchi navbatda o'zidagi notiqlik qobiliyatini shakllantirishi va undan keyin o'quvchilarda shu ko'nikmani o'rgatishi ulardagi hayotiy muvaffaqiyatini belgilab beradi

Adabiyotlar tahlili. Mashhur psixolog V.I.Baydenko ta'kidlaganidek, so'nggi paytlarda "kompetentlik" atamasi o'qitish sifatining integrativ xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiluvchi va ta'lim jarayoni kategoriyasining natijasi vazifasini bajaradi. U G'arb ta'lim (pedagogik) va kvalimetrik ilmiy-nazariy va amaliy ishlanmalarda qo'llaniladi. Kompetensiya maqsadlarni belgilashning yangi turi ta'lim tizimlarini loyihalashdir. Bu mohiyatan, bozor qiymatiga e'tibor qaratadigan bitiruvchilarning ijtimoiy tayyorgarligini tashqi baholashga baholashning faqat (yoki asosan) akademik normalaridan o'tishni belgilaydi.

Shuningdek, taniqli olim M.A.Xolodnayaning fikricha "kompetentlik" bu - ma'lum bir faoliyat sohasida samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradigan maxsus bilim deb hisoblaydi.

Dj.Raven o'z ilmiy tadqiqotlarida "kompetentlik" atamasiga umumiy holda ta'rif beradi. Uning ta'rifiga ko'ra, kompetentlik – ma'lum bir sohadagi muayyan harakatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos qobiliyat bo'lib, yuqori ixtisoslashgan ko'nikmalarni o'z ishiga oladi. Ixtisoslashgan ko'nikmalar deganda fikrlash usullari, shuningdek, o'z harakatlari uchun javobgarlikni his qilishga aytiladi. Bundan tashqari Dj.Raven (kichkinasi) "Oliy kompetentlik" haqida ham fikr bildiradi. Unga ko'ra "Oliy kompetentlik" qaysi sohada namoyon bo'lishidan qat'iy nazar, insonning yuqori darajaga ega ekanligini, tashabbuskorligi, tashkilotchiligi va o'z maqsadlariga erishish uchun o'z harakatlarining ijtimoiy oqibatlarini baholash hamda tahlil qilishga bo'lgan qobiliyatlarni tushuniladi.

"Oliy kompetentlik" ni barcha turlarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin.

1. Tashabbuskorlik
2. Tashkilotshilik va boshqaruvchanlik qobiliyati
3. Hamkorlik va muloqot

Dj.Raven kompetentlikni bir nechta tarkibiy qismlari mavjudligini ta'kidlaydi. Uning tarkibiy qismlari bir-biridan nisbatan mustaqil bo'lib, kompetensiyalarning o'zaro almashinuvchanlik xislatlariga ega. "Kompetentlik turlari" atamasi ma'lum ma'noda "motivlashtirilgan qobiliyatlar"dan boshqa narsani anglatmaydi, ya'ni, motivlashtirilgan xulq-atvorning kognitiv, ta'sirchan va irodaviy tarkibiy qismlari "tashabbus" kabi atamaga mos keladi.

Mashhur rus pedagog-psixologi O.A.Kozireva o'z ilmiy tadqiqotlarida kommunikativ yuksalish bosqichlari va kommunikativ kompetentlik rivojlanishini qiyoslab o'rgangan. Uning talqinicha, kommunikativ yetuklikning 3 ta bosqichi bo'lib, ularning har biri «*anglanmagan kompetentsizlik* → *anglanilgan kompetentsizlik* → *anglangan kompetentlik*» ko'rinishidagi kommunikativ kompetentlikni namoyon etadi.

N.B.Moskvinaning fikricha "kompetentlik" asosiy xarakterga ega bo'lib, uni mazmuni, inson bilishi va amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan yangi kashfiyotlarni o'zlashtirish bilan bog'laydi.

N.B.Moskvina o'z tadqiqotlarida "Kompetentlik"ni uch jihatini keltirib o'tadi:

- semantik, shu jumladan, tushunishning adekvatligi, ijtimoiy munosabatlarni tushunishni madaniy shakllarini baholay olish;

- amaliy - turli ko'rinishdagi sotsial munosabatlarni adekvat baholay olish, maqsad, vazifa, normalarini malum bir sharoitda kerakli darajada shakllantirish va ijobiy amalga oshirish.

I.A.Zimnyaya "Kompetentlik"ni 3 guruhini keltirib o'tadi:

- o'z-o'ziga shaxs sifatida va hayot faoliyatining subyekti sifatida qarashligi;

- insonning boshqa kishilar bilan o'zaro ta'sir munosabati bilan bog'liqligi;

- inson faoliyati bilan bog'liq kompetensiyalar uning barcha turlari va shakllarida namoyon bo'lishi.

Bizning fikrimizcha, amaliyotchi-psixologlarning kommunikativ tayyorgarligini tashkil etish jarayonida I.A.Zimnyaya asarlari juda muhim sanaladi.

Kompetentlik keng ma'noda qobiliyat bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ko'nikma, malaka va boshqalar. Kompetentli shaxs - yetarli malakaga, bilim va imkoniyatlarga ega shaxs hisoblanadi.

T.V.Zamorskaya talqiniga ko'ra, "amaliyotchi psixologlarning kommunikativ kompetensiyasi" – samarali faoliyatga asos bo'luvchi murakkab psixologik ta'lim, hamda bilim, ko'nikma malakalar hamda shaxsiy fazilatlar tizimini o'z ishiga oladigan sifatlar jamlanmasidir.

V.A.Yadov sotsiologiyada kompetensiya kommunikativ mahoratning atributi sifatida faoliyat yuritishi va o'z ishi uning mohiyati, murakkab aloqalari, undagi munosabatlar, ko'zlangan maqsadlarga erishishning mumkin bo'lgan vositalari va usullari to'g'risida eng puxta bilim sifatida tavsiflanganligini ta'kidlaydi.

Shu munosabat bilan E.F.Zeerning ta'kidlashisha, kompetensiya nafaqat bilim va malakaning mavjudligi, balki, mazkur faoliyatni o'z vaqtida bajarish hamda o'zining kasbiy faoliyatida maksimal foydalana olish bilan belgilanadi.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan olimlar T.G.Braje, S.G.Molshanov va boshqalar professional kompetentlikni atroflicha o'rganib chiqishgan. Shunday qilib, T.G.Braje nafaqat bilim va ko'nikmalar shaxsni kompetentligini belgilaydi, balki mutaxassisning faoliyati motivlari, odamlar bilan munosabatlarining uslubi, umumiy madaniyati, ijodiy salohiyatini rivojlantirish qobiliyati, muhim shaxsiy sifatleri ham alohida ahamiyatga ega ekanligini aytib o'tadi.

V.N.Karandashevaning fikricha, amaliyotchi psixologlarning kasbiy kompetentligi faoliyati davomida o'rganilgan tajriba, ko'nikma hamda malakalarni qamrab oladi. Kasbiy ko'nikmalar-psixologning o'z faoliyatini oson va ishonch bilan bajarishga imkon beruvshi harakatlardir.

Mashhur olimlardan N.S.Pryajnikov va E.Yu.Pryajnikovalar o'z tadqiqotlarida amaliyotchi psixologlarning matematik hamda kasbiy kompetentligini shakllantirishning 7 darajasini ifodalab o'tadi:

g'ayrat-shijoat;

ishonch;

o'z faoliyatidagi malakalardan kelib shiqib, tegishli ma'lumotlarni tahlil qila olish;

ba'zi psixologik muammolarni mustaqil tarzda bartaraf etish;

yuzaga keladigan to'siqlarni yengishda ijodiy yondashish;

nazariy psixologik bilimlarga ega bo'lish.

Shuningdek, L.A.Petrovskaya esa birgalikdagi va boshqaruv faoliyatida, shuningdek, turli xil muloqotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega kommunikatsiya kompetensiyasining maxsus konsepsiyasini ishlab shiqdi. M.I.Lukyanova kommunikativ kompetentlik tarkibida o'qituvchining psixologik-pedagogik kompetentligi tushunchasini belgilaydi, ya'ni pedagogik faoliyatga kommunikativ tayyorgarlik darajasini va ta'lim jarayonida talabalar bilan samarali hamkorlikni hisobga olgan holda insonning muayyan fazilatleri (xususiyatlari) majmuini anglatadi.

Tahlil va natijalar Amaliyotchi psixologlarning kommunikativ kompetentligini o'rganish maqsadida quyidagi omillar orqali olingan statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili

Omillar		3-yilgacha		5-yilgacha	
		N=40		N=50	
		n	%	n	%
«A» omil	Muloqotchan	15	46,4	28	52,9
	Muloqotga kirishishga qiyinaladigan	25	53,6	32	47,1
	Jami	40	100,0	50	100,0
«V» omil	Mantiqiy fikrlaydigan	18	42,9	35	55,9
	Zaif fikrlaydigan	22	57,1	15	44,1
	Jami	40	100,0	50	100,0
«S» omil	Barqaror	15	46,4	30	52,9
	Beqaror	25	53,6	20	47,1
	Jami	40	100,0	50	100,0
«D» omil	Optimizm	25	57,1	22	44,1

	Pessimizm	15	42,9	28	50,0
	Jami	40	100,0	50	94,1
«K» omil	Ijodiy tafakkuri rivojlangan	14	31,4	28	42,9
	Realist	24	68,6	22	39,4
	Jami	40	100,0	50	82,4
«H» omil	O'zini nazorat qila oladigan	23	55,7	26	40,0
	Nazoratda qiyinchilikka uchraydigan	17	44,3	24	54,1
	Jami	40	100,0	50	94,1
«M» omil	O'ziga yo'nalgan	13	30,7	26	57,6
	O'zgalarga yo'nalgan	27	69,3	24	42,4
	Jami	40	100,0	50	100,0
	Jami	40	100	50	100

Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi» metodikasidan olingan natijalar tahliliga ko'ra «A» omil bo'yicha «muloqotchanlik» 3 yilga nisbatan 5 yilgacha 52,9% ni tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, kommunikativ muloqot jarayoniga moslashish yil hisobidan olib qaraganda biroz ko'proq vaqtni talab qiladi. «O'z-o'zidan muloqotga kirishishga qiynalish» omili 3 yilgacha 53,6% ni tashkil qildi. «B» omil bo'yicha « mantiqiy fikrlash» darajasi 3 yilga nisbatan 5 yilda 55,9% ni, «zaif fikrlash darajasi» esa 3 yilgacha mehnat faoliyati davomiyligiga ega bo'lgan psixologlarda 57,1% ni ko'rsatdi. «Mantiqiy fikrlash» qobiliyati psixologlarda yillar mobaynida shakllanishi aniqlandi. Bunga bevosita intellektual jarayonning roli beqiyosdir. «Barqarorlik» va «beqarorlik» omillari bo'yicha ham 5 yilgacha 52,9%, beqarorlik esa 3 yilgacha 53,6% ni tashkil etdi. Bundan ma'lumki, barqaror ijtimoiy munosabatlar 3 yilga nisbatan ko'proq vaqtda shakllanadi. Keyingi mezon, ya'ni, «optimizm» va «pessimizm» omili 3 yilgacha 57,1% ni, «pessimizm» esa 5 yilgacha mehnat amaliyotiga ega bo'lgan psixologlarda 50,0% ni tashkil etdi. Optimizm, ya'ni yuqori kayfiyatda atrofdegilar bilan munosabatga kirishish 3 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan psixologlarda ustun bo'lsa, pessimizm – ya'ni kayfiyatdagi o'zgarishlar, shaxsiy pragmatik kelishmovchiliklar va muloqot jarayonidagi uzilishlar 5 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan psixologlarda yuqori o'rin egallashi aniqlandi.

Xulosa. Amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentligini rivojlanishida matematik usullardan foydalanishning ahamiyatini amaliy jihatdan o'rganish, ijtimoiy psixologik muammo sifatida o'rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy manbalarni tadqiq etish, amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentligiga xizmat qiluvchi omillar haqida batafsilroq mushohadalar yuritish imkonini beradi. Bu imkoniyat esa amaliyotchi psixologlar shaxsini, uning kommunikativ kompetentligini yanada chuqurroq tadqiq qilish uchun zamin yaratadi.

Kasbiy kompetentlikka nisbatan tarixda va bugungi kunda turli xil munozarali fikrlar mavjud bo'lib, bu qarashlar turli manbalarda Sharq va G'arb mutafakkirlari ijodida, ilg'or psixologiya vakillarining ilmiy asarlarida asrlar davomida sayqal topib kelgan.

Bu esa zamonaviy psixologiya sohasida yangi texnologiyalarni qo'llash muammosini dolzarbligini bildiradi. Jahondagi juda ko'plab psixologiya namoyondalari amaliyotchi psixologlarning kasbiy yetukligi borasida qarashlari o'rganilganda, mazkur jarayon shaxsning ijtimoiylashuvi va shakllanishi uchun muhim tadqiqot ekanligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

O'rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili, bugungi kunda muhim bo'lgan kommunikativ kompetentlik omillarini tajribaviy tadqiq qilish muqarrarligini ko'rsatdi. Buning uchun esa, eng avvalo, amaliyotchi psixologlardagi shaxs tiplari va shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi mutanosiblik va korrelyatsion ko'rsatkichlarni tadqiq qilish talab qilinadi. Ayni paytda, tadqiq etilgan va ilmiy matbuotda elon qilingan har bir ko'rsatkich ijtimoiy psixologiya fani istiqbollarini oshib berishga xizmat qiladi.

Amaliyotchi psixologlarning kommunikativ kompetentlik va uning shaxs faoliyatidagi o'rnini o'rganish muammosining mavjudligiga ehtiyoj sezilmoqda. Ushbu muammoni har xil madaniy muhitda, kommunikativ rivojlanish darajasi bilan uzviyligini tahlil qilish esa yangi ilmiy ma'lumotlarni taqdim etishni ta'minlashga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bondorevskaya Y.V., Kulnevich S.V. Psixologiya. 2004. № 10.
2. Blinov V.I. Prakticheskaya podgotovka budущix uchiteley: progmatika, prespektivy. Moskva. IOO. MONRF. 2000
3. Qodirova D.M. (2022). Katta va kichik guruhlardagi o'quvchi shaxsiga individual-psixologik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari.. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 542-547.
4. Qodirova D.M. (2022). Katta va kichik guruhlardagi o'quvchi shaxsiga individual-psixologik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 542-547.

Rasulova Nilufar Tulkunovna
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
katta o'qituvchisi PhD

PSIXOLOGİYADA REPRODUKTIV ONG MUAMMOSINING DINIY VA IJTIMOİY-PSIXOLOGİK TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarda reproduktiv ongni shakllantirishning diniy-psixologik omillari nazariy-metodologik jihatdan tahlil etilgan. Bundan tashqari, maqolada mazkur muammo bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarga bag'ishlangan. Maqolada "reproduktiv ong" shakllanganligining belgilaridan biri bo'lib, uni diniy omillar orqali tadqiq etish, hozirgi zamon yoshlariga xos bo'lgan, ko'plab ijobiy psixologik sifatlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ong, reproduktiv ong, psixologiya, yoshlar, qobiliyat, individ, individuallik, hulq-atvor.

РЕЛИГИОЗНЫЙ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМА РЕПРОДУКТИВНОГО СОЗНАНИЯ В ПСИХОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье теоретически и методологически анализируются религиозно-психологические факторы формирования репродуктивного сознания у молодежи. Кроме того, статья посвящена продолжающимся исследованиям по данной проблеме. В статье анализируются один из признаков формирования «репродуктивного сознания», его исследование через религиозные факторы, многие положительные психологические качества, характерные для современной молодежи.

Ключевые слова: сознание, репродуктивное сознание, психология, молодежь, способность, личность, индивидуальность, поведение.

RELIGIOUS AND SOCIO-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS THE PROBLEM OF REPRODUCTIVE CONSCIOUSNESS IN PSYCHOLOGY

Annotation. This article theoretically and methodologically analyzes the religious and psychological factors in the formation of reproductive consciousness among young people. In addition, the article is devoted to ongoing research on this issue. The article analyzes one of the signs of the formation of "reproductive consciousness", its study through religious factors, many positive psychological qualities that are characteristic of today's youth.

Key words: consciousness, reproductive consciousness, psychology, youth, ability, personality, individuality, behavior.

Ma'lumki, sog'lom diniy e'tiqod va axloqiy qadriyatlar, barkamol shaxslarni tarbiyalashning asosiy shartlaridan biridir. Inson o'z dunyoqarashi, ongi, hayotiy ustanovkalari, namunali xulq-atvori, yuksak intellektual qobiliyatlari va iqtidori bilan, boshqa shaxslardan ajralib turadi. Shu bois, insonning individualligi, uning o'ziga xos xulq-atvor sifatleri, sog'lom dunyoqarashi va onginging tabiati, o'rganilish xarakteriga ko'ra, psixolog mutaxassislarda doim katta qiziqish uyg'otib kelgan. Ayniqsa, insonning axloqiy sifatleri va kelajak taqdirining kamolotiga qaratilgan "reproduktiv ongi" - sog'lom fikr-mulohazalari, hayotiy ustanovkalari, maqsad va istaklari bunga yaqqol misoldir. Bizningcha, insonga xos bo'lgan eng muhim psixologik xususiyatlardan biri bu - o'z-o'zini takomillashtirish, hayotda o'z o'rnini topishga intilish, boshqalarga namuna bo'lish, ezgu amal va hayot yo'li sari harakat qilish kabilardir.

Insonning bunday sifatlariga egaligi "reproduktiv ong" shakllanganligining belgilaridan biri bo'lib, uni diniy omillar orqali tadqiq etish, hozirgi zamon yoshlariga xos bo'lgan, ko'plab ijobiy psixologik sifatlarining aniqlanishiga imkon berishi tabiiydir. I.G.Dubovning so'zlariga ko'ra, inson borki, atrofida yuz berayotgan voqe'likka u yoki bu darajada o'z munosabatini bildiradi. Aynan mana shu munosabat shaxsdagi ong, tafakkur, aql, bilim keyinchalik, hayotiy tajribalarning mahsuli sifatida namoyon bo'ladi¹. Ushbu mulohazaga muvofiq, inson omili har qachongidan ko'ra, bugungi kunda muhim ahamiyat ega omil va uning bunyodkorlikka yo'naltiruvchi kuchidan unumli foydalanish, har bir taraqqiy etayotgan jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Bundan tashqari, hozirgi jamiyatimizning taraqqiyoti va ravnaqi,

¹Дубов И.Г., Хвостов А.А. Моральная детерминация поведения в обыденном сознании больших групп населения // Вопросы психологии. 2000. - № 5.-С.87 - 99.

farovon hayot yo'li ko'proq yoshlar qo'liga bog'liqligi bo'lganligi bois, ularni yoshlikdan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, zamonaviy bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish, mavjud bo'lgan aqliy qobiliyati va ro'yobga chiqarish, davlatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Shunday ekan, yoshlarda sog'lom dunyoqarash, milliy qadriyatlarga asoslangan axloqiy ong shuningdek, diniy e'tiqod va ongni shakllantirish eng asosiy vazifadir. Bizningcha, din – insonning muhim ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi, insonlar o'rtasida birdamlikni ta'minlovchi, hayotiy yaxlitlikni belgilovchi psixologik hodisadir. Ya'ni, diniy bilimlar va ezgu amallar yoshlarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirib, ularning ijobiy sifatlarini saqlab qolgan holda, ijtimoiy hayotning salbiy illatlariga qarshi kurashish motivlarini mustahkamlaydi. S.A.Belorusov mazkur yondoshuvdan kelib chiqib, sog'lom dunyoqarash va reproduktiv ong uchun, dinning quyidagi muhim sifatlarini ajratib o'tadi:

- Din insonga butun umr davomida hamroh bo'luvchi va haqiqatga eltuvchi hodisadir;
- Din omillar ta'sirisiz, inson xulqi va ongini o'ziga xosliklarini to'liq o'rganish mumkin emas;
- Din keng ma'noda – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, u fan, madaniyat va san'at bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, din insonning ishonish obyekti bo'lgan hamda Ollohga ishonishga asoslangan, tasavvufiy g'oyalar yig'indisidir. Darhaqiqat, diniy amallar va urf-odatlar insonni hurfikrlikka, o'z qadriyatlariga sodiqlikka hamda ezgulikka yetaklovchi jarayondir. Tadqiqotchi N.Melonining yozishicha, reproduktiv xulq – atvorga xizmat qiluvchi diniy kompetensiyaning ikki jihati mavjud:

– Sog'lom e'tiqod va faoliyatga turtki beruvchi diniy ehtiyojlar, an'analar va tajribalar;

– Ongning funksional tomoni – diniy munosabatlar, muloqot, faoliyat, ibodat, ro'za tutish va diniy bayramlar sodiqlik va hokazo. Keltirib o'tilgan yondoshuvga muvofiq, diniy e'tiqod barcha ijtimoiy jamoalarda uchraydi, u umuminsoniy hodisadir. Boshqacha aytganda, e'tiqod - bu biror narsani to'liq va so'zsiz qabul qilishda ifodalangan psixologik holatdir. Reproaktiv ong va xulq-atvorni rivojlantirishda dunyoqarash asosiy rol o'ynab, uning psixologik ta'rifi borasida, ko'plab tadqiqotchilarning fikr-mulohazalarini misol qilish mumkin.

Ye.Yu.Korjovanning yozishicha, dunyoqarash – shaxsning ichki dunyosini, ma'naviyati va ijtimoiylashganlik darajasini ko'rsatuvchi, kuchli motivlar majmuidir. Ya'ni u tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum bir qolipda, o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda, jamiyatda munosib o'rin egallashga chorlaydi. Dunyoqarashning bo'lishi ham shaxsning muhim belgisidir¹. Ushbu ta'rifga muvofiq, dunyoqarash odamning tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari haqidagi qarashlari, tasavvurlari va tushunchalari sistemasidir. D.Ya.Raygorodskiyga ko'ra esa, dunyoqarash tashqi olam va inson tafakkurining jarayonlari haqida, muntazam qarashlar tizimini aks ettiradi. Insonning ko'zlagan maqsadi, xatti-harakati dunyoqarashga mos bo'lib, shaxsning asosiy ehtiyojiga aylanganda, keyinchalik esa, dunyoqarash maslak bo'lib qoladi. Muallifning ushbu yondashuviga muvofiq, inson o'z ideallarini anglab, o'z dunyoqarashi va maslaklarini bilib olib, hayotda va jamiyatda tutgan o'rnini aniqlaydi, nimani deb yashayotganligini va ishlayotganligini, o'z faoliyatini qay yo'ldan kamolga yetkaza borishi kerakligini, jamiyatda qanday kishi bo'lib yetishishi kerakligini aniqlab oladi. Reproaktiv ong va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm – bu ijtimoiy ustanovkalaridir. Ya'ni shaxsning atrof muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni, obektlarni, ijtimoiy guruhlarni adekvat idrok etish, qabul qilish va ular bilan mjobiy munosabatlar o'rnatishga qaratilgan hamda ruhiy ichki hozirlik sifatida namoyon bo'luvchi hodisadir. V.V.Loskutovanning aytishicha, diniy ilm va tajriba – insonga yashashdan maqsadni, hayotning mazmunini, bu dunyo va u dunyo masalalariga o'z munosabatini bildirib turadi. U umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib, xulq-atvor qoidasiga aylantiradi. Madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatib, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni saqlab qolish va avloddan-avlodga yetkazish ishiga yordam beradi². Demak, yoshlarning reproduktiv xulqi va axloqiy madaniyatida rivojida, din omilining roli yuqori sanalar ekan.

S.A.Gelmanovning izlanishlariga ko'ra, har bir inson o'z qobiliyatlarini rivojlantirish va shakllantirishning boshlang'ich bosqichida o'rganish, bilim olish, zarur harakatlarni amalga oshirish uchun moslashuvchanlikka ega bo'ladi. Ikkinchi daraja esa, yangi narsalar va asarlar yaratish qobiliyatini

¹Коржова Е. Ю. Духовно-нравственные аспекты исследования жизненного пути личности / Е.Ю. Коржова // Вестник РХГА. - 2010. - №2. - С.251 - 253.

²Лоскутов В.В. К проблеме влияния духовно-религиозного опыта на трансформацию личности [Текст] / В.В. Лоскутов, Иванов М.Д. // Психологические проблемы самореализации личности: под ред. А.А.Крылова, Л.А.Коростылева. - СПб., 1997. – С.157-166

anglatadi¹. Ijodning har qanday turi mashaqqatli mehnat bilan rivojlanadi va shakllanadi. Hech kim qattiq mehnat qilmasa, uning ijodi ahamiyatsiz bo'ladi. Zero, qobiliyat inson qalbining tafakkur, kuchli iroda, matonat, matonat, tezkor tasavvur kabi ko'p jihatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Iqtidorli odam iqtidorli bo'lsa ham ijodiy ishlamas, u o'z qobiliyatini yo'qotadi. R.M.Granovskayaning aytishicha, Insonlar kundalik hayotida nima bo'lishidan qat'i nazar, butun vaqtini yeyish, uxlash va ichishga sarflamaydi. Agar u mehnat bilan shug'ullansa, kundalik ishini, faoliyatini, biznesini tugasa, u o'z qobiliyatini o'ldirmasdan rivojlantiradi va shakllantiradi. Bu hayotiy haqiqatidir. Olimlar va psixologlar inson qobiliyatlarini tahlil qiladilar va tasniflaydilar².

S.M.Kolomies insonning bilish qobiliyatining o'zi quyidagi turlarga bo'linadi: bilimlarni to'plash (o'rganish), bilimni o'zgartirish, xotira (ijodiy, ya'ni ijodiy), bilimlarni qo'llash uchun zarur bo'lgan intellektual qobiliyat³. Biroq, ba'zi qobiliyatlarning belgilari ma'lum bir o'rinni egallaydi. T.A.Marfutenko buni insonning tug'ma anatomik-fiziologik belgisi deb hisoblab, "belgi qobiliyatning birlamchi tabiiy asosi sifatida uzatiladigan asab tizimining xususiyatidir" degan xulosaga kelishadi⁴. Barcha o'g'il-qizlar o'tanasiga, bobo-buvilariga, o'zlari kabi qobiliyatli bo'lmasalar-da, o'ta-onalariga tortiladilar. Umuman olganda, reproduktiv xulq-atvor yoki ong, irsiyat o'lchovi bo'lgan genlar orqali o'tadigan, organizmning xususiyatlarini o'zgartiradigan hodisadir. N.B.Shumakovaga ko'ra, shaxsda quyidagi reproduktiv xarakterdagi sifatlar turi mavjud:

- Ijodiy fikrlash;
- Ijodiy tasavvur;
- Ilg'or usullardan foydalanish.
- Bundan tashqari shaxsda ijodiy tafakkurni va ijodiy tasavvurlarni rivojlantirish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak:
 - Turli sabablarga ko'ra obyektlar, holatlar, hodisalarni tasniflash; sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish;
 - O'zaro munosabatlarni ko'rish va tizimlar orasidagi yangi aloqalarni aniqlash; rivojlanish tizimini ko'rib chiqing;
 - Bashoratli bo'lish; ob'ektning qarama-qarshi belgilarini ajratib ko'rsatish; qarama-qarshiliklarni aniqlash va shakllantirish;
 - Ob'ektlarning makon va vaqtdagi qarama-qarshi xususiyatlarini ajratish;
 - Ijodiy vazifalar ularni hal qilish uchun zarur bo'lgan, aqliy operatsiyalarning murakkabligi va boshqalar;
 - Qarama-qarshiliklarni ko'ra olish qobiliyati. Bundan tashqari, ijodkorlik uchun quyidagi bilish jarayonlarini kerakligi ta'kidlanadi⁵:
 - Zukkolik ;
 - Fahm tezligi;
 - Zehn o'tkirligi ;
 - Tez idrok qilish qobiliyati ;
 - Esda saqlashning intensivligi.

Umuman olganda, reproduktiv xulq-atvor insonning go'zal xulqi va odobi, o'z kelajak taqdiriga bo'lgan ongli maqsad va rejalari uzviy aloqador bo'lganligi bois, uni o'z vaqtida tarbiyalashda diniy tarbiyaning roli o'ta yuqori sanaladi. Bizningcha, sof diniy ta'limotdan xabardor va oilasida to'g'ri tarbiya topgan shaxsda, salbiy illatlarni kuzatilishi notabiiydir. Islom dini insonning nafaqat tashqi hayoti, balki ichki psixologik olamini ham to'g'irlashga alohida etibor bergani bois, tasavvuf va undagi ruhiy tarbiya usulini dastlabki davrdanoq ilgari surgan. Tasavvuf ilmi sohasida yetuk olim sanalgan Mahmud Asad Jo'shon, o'zining "Tasavvuf va nafs tarbiyasi" nomli asarida, daniy tarbiyaning inson hayotidagi roliga quyidagicha tixtalib o'tadi: "Islom dini nafsning yemoq, ichmoq, tanosil, istirohat kabi shar'iy istaklarini halol yo'llar bilan ado etishga buyuradi. Ammo, haddan tashqari xohishlarga, hoyu havaslarga qat'iy

¹ Гильманов С.А. Диагностика качеств творческой индивидуальности педагога: Учеб. пособие. - Тюмень: Изд-во ТГУ, 1998. - С.34.

² Грановская Р.М., Крижанская Ю.С. Творчество и преодоление стереотипов. - СПб.: ОМС, 1994. - С.101

³ Коломиец С.М. Творческие компетенции студентов социально-экономических специальностей: Монография. - М.: Издательство «Перо», 2010. - С.80.

⁴ Марфутенко Т.А. Дефиниция «творческая компетентность» в контексте педагогической деятельности // Вестник университета (Государственный университет управления). - М.: ГУУ, 2012. - №16. - С. 229 - 231.

⁵ Ермолаева-Томина, Л.Б. Психология художественного творчества / Л.Б. Ермолаева-Томина. - М.: Академический проект, 2005. - С.156.

yo'l qo'ymaydi. Masalan, naslning davom etishi uchun uylanishni tashviq etadi. Islom dini bo'ydoq yashashni, bichishni, rohibonat tarki dunyolikni rad etadi. Va salomatlikning davomiyligi uchun yaxshi yeb-ichishni buyuradi. Ammo haromdan topishni, me'yordan oshiq yeyishni vujudga zarar yetkazuvchi moddalar va ichkilikni taqiqlaydi¹. Shu bilan birga, boshqalarga yuk bo'lishni, dangasalikni, kayfu safoga berilishni man etadi. Yirik tasavvufshunos olim N.Komilov tomonidan chop etilgan "Tasavvuf" nomli asarda yozilishicha, nafsning ichki tabiiy instinktlari, istaklari ha deb bajo etilaversa, nafs hakalak otib ketadi, uni tiyib, jilovlab bo'lmay qoladi. Natijada, u insonlarni falokatu haromlarga, zulmu gunohlarga yetaklaydi. Shuning uchun, Qur'oni Karim nafsni aybu nuqsonlardan poklab, intizom ostiga olishni buyuradi va o'z nafsini tarbiyalay olmaganlar keyinchalik, mudhish pushaymonlik iskanjasida qolishlari ta'kidlanadi². Demak, diniy ilm va amallardan yoshlikdan xabardor bo'lish va shu orqali o'z xulq-atvori, xatti-harakatlarini nazorat qilish, barcha aqli raso shaxslar uchun xos bo'lgan sifatlar turkumidan biridir. Tasavvuf asosan inson ichki tuzilishini ifoda etib, unda shaxs o'z-o'zini tarbiyalaydi. Ruhiiy tarbiya ham tasavvuf bo'lib, uni manbalarda "tazkiyatun nafs" nomi bilan keltirgan. Shuningdek, nafsni sayqallash ma'nosida ham qo'llanilgan. Misol uchun tasavvuf ta'limotida, ruhiy tarbiyaning uch bosqichi ajratiladi³:

– Poklanish – bu bosqichda inson o'zini anglab, yomon illatlardan holi bo'lishga intiladi va shu orqali ichki olamining muvozanitini tiklaydi;

– Tiklanish – mazkur bosqichda shaxs, yaxshi fazilatlarini ya'ni maqomotlarni o'ziga singdiradi;

– Xulqlanish – ikki bosqichdan iborat bo'lib, undan so'ng ruhni go'zal xulqlar bilan ziynatlab boriladi. Diniy tajriba va ijtimoiy shart-sharoitlar, shaxsni munosabatlar tizimi sifatida shakllantiradi. V.N.Myasishevning aytishicha, shaxsning tarkibi, uning xulq-atvor sifatleri bilan bog'liq bo'lgan, qadriyatlar tizimi yig'indisi hisoblanadi. Shaxs diniy tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida, shakllanadigan subyektiv munosabatlarning ierarxik va dinamik tizimlarini mujassamlashtiradi⁴. Agarda, reproduktiv ong va xulq atvor – sog'lom fikr yuritish, ezgulik sari intilish bo'lsa, yoshlarni shu ruhda tarbiyalash hamda iymon-e'tiqodini mustahkam qilish hozirgi kunning talablaridan biridir. "Maqomot" – maqom (manzil, bekat) so'zining ko'pligi bo'lib, shaxsging ruhiy-ma'naviy kamolot bosqichlarini anglatadi. Abunasr Sarroj tariqatning quyidagi maqomlarini qayd etgan⁵: tavba, vara', zuhd, faqr, sabr, xavf, rajo, tavakkul, rizo. Ya'ni:

– **Tavba** – qaytish demak, ya'ni kamolotga, oliy axloqiy sifatlarga qaytish. Tavbani bobul avbob – eshiklarning eshigi ham deydilar, chunki tariqatga qadam qo'ygan odamning niyati va mohiyati avvalo shu tavbasida ayonlashadi. Tavbaning haqiqati shuki, inson Xudoga yetishish yo'liga g'ov bo'ladigan jamiki narsalardan qaytishga qasamyod etadi, butun intilishi, tavajjuhini Ollohga qaratadi, avvalgi hayot tarzidan butunlay voz kechadi. Tavba kufrdan, shariat mann etgan nahyi va yomonishlardan qaytash, zamima axloqdan hamida axloqqa qaytish, Haqning g'ayri bo'lgan narsalardan qaytish kabilarni o'z ichiga oladi. Tavbaning mohiyati shuki, o'z nuqsonlarini ko'ra bilish, o'zining ahvolini anglash, qabih ishlar, qabih fe'l va qabih fikrdan qaytish, dunyoning ma'nisizligi, arzimastligini anglab, zulmu adolatsizlikdan qaytishni ham bildiradi. Qo'rquv tavbasi, gunohga iqror bo'lish – oddiy insonlarga xosdir. So'fiylar tavbasi qalb istijobi, ya'ni – uzilish, o'zgarish tavbasidir;

– **Vara'** so'zining ma'nosi parhez, taqvo bo'lib, bulg'anishlardan, ma'naviy zarar keltiradigan shubhalardan saqlanish demakdir. Shibliyning ko'rsatishicha, vara'ning uch ko'rinishi bor: til vara'i, ya'ni tilni bema'ni gaplar uchun ishlatmaslik, g'iybat-tuhmatga berilmaslik; ko'z vara'i – shubhali narsalardan saqlanish, g'aliz shakllarga boqmaslik; qalbvara'i, ya'ni past himmatni tark etish va noxush qiliqlarni qilmaslik. Ko'ngil man etgan jamiki narsalardan parhez qilish, tama'dan saqlanish, mahrumlikdan qo'rqishdan hazar qilish. Hullas, tilga ko'zga, qo'loqqa va oyoqqa band solish;

– **Zuhd** – vara'ning davomi hisoblanadi, bu ham parhez qilish demakdir. Ammo, bunda taom va ichimlikdan saqlanish, halol va haromni ajratishga alohida ahamiyat beriladi. Zuhd so'fiy uchun dunyo va oxirat tarki, dunyo moliga ega bo'laman deb intilmaslikdir. Hadis: Kimki dunyodan parhez etsa, uning qalbi tajalliyot nuri kiradigan joyga aylanadi. Junayd Bag'dodiy so'zi: "Zuhd – qo'lni mulkdan xoli tutish, dilni esa Haqdan o'zga har narsadan pok saqlash demak". Imom G'azzoliy deydi: "Zuhd dunyodan ixtiyoriy ravishda voz kechish va buning uchun qayg'urmaslikdir";

¹Маҳмуд Асад Жўшон «Тасаввуф ва нафс тарбияси» –Т.1998. – С.25.

² Комилов Н. «Тасаввуф» –Т; 2006. – С.43.

³ Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоки. 1-китоб. - Т.: Ёзувчи. 1996. – С.11.

⁴ Мяснишев В. Н. Психология отношений : избранные психологические труды / В. Н. Мяснишев. Москва ; Воронеж : Модэк, 1995. – С.47.

⁵Жўшон М.А. Тасаввуф ва нафс тарбияси. – Т. Чўлпон. 1998. – Б.57 - 60.

– **Faqr** – ma’nosi qashshoqlik, benavolik. So’fiylar nazdida ulug’vor ilohiy mohiyat kasb etish bo’lib, Xudoga bandalikni sidqidildan oliy darajada bajo keltirish, bandalikdan sharaf topish, niyozmandlik va talabgorlikda yo’ldagi tuproq misol nomu nishonasiz bo’lish, Iloh nazdida o’zini zarra, balki zarradan ham kam deb hisoblash. Va shu martabada komillik rutbasini qozonish ham. Barcha narsalar, olamu Ollohga tegishli, insonning vujudi ham o’ziniki emas;

– **Sabr** – toqat, chidam. So’fiylar tilida qiyinchiliklardan shikoyat qilmaslik, ayniqsa, Xudodan boshqaga nola-iltijo qilmaslik. Sabr etuvchi (sobir) o’zini balo girdobiga solib, balolardan qo’rqmaydigan odamdir. Ruhiiy-ma’naviy mushkilliklar yuz berganda, sabr qilgan solik kushoish topadi, yangi manzillarni kashf etadi;

– **Xavf** – qalbning ishonchdan, imon amridan chiqishi, ikkilanish, tahlika. Vaqtinchalik shayton nayrangi ham ko’ngilga xavf-qo’ruv soladi. Solih azobdan emas, balki makrdan, nafs makridan qo’rqadi. Vaholanki, shayton iymoni mustahkam odamdan qo’rqishi kerak;

– **Rajo** – umidvorlik, qalbning kelajakda Mahbub vasliga yetishidan umidvorligi, xavfdan qutulish umidi. Dilning sog’inchi, intiqliklari ham shunga kiradi;

– **Tavakkul** – barcha yaxshi-yomon hodisalar, ishlarni Xudodan deb bilish, kullari Parvardigorga suyanish. Tavakkul ilohiy fayzga e’tiqodli kishining iymonidir. Bu ma’rifat kamolidan keladigan oliymaqomdagi iymondir. Inson juda ko’p narsalarni qila oladi, ammo bu harakatlarning bari Ulug’ Olloh qudrati tufayli, Qudratining namoyon bo’lishi ekanini anglashi shart;

– **Rizo** – qalbdan qabohat-kirlarning ketishi, qazovu qadar hukmiga bo’ysunish, nafs roziligidan chiqib, Haq roziligiga kirishdir. Qazo amriga taslim bo’lgan qalbning sururi. Lohijiy: Rizo – bandaning o’z rizosidan chiqib, Mahbub rizosiga kirishi, ilohiy qismatga zarra e’tiroz qilmasligidir. Solih kishida hech narsadan g’azab, hayajon, gina-qudrat va xafalanish bo’lmaydi. Ushbu tasnif etilgan tasavvufiy xulq amallari, har bir mo’min kishi uchun xos sanalgan ezgu amallar sanalib, unga amal qilish haqqa yetishish va go’zal xulq bilan yashashning asosiy mezonlaridan sanaladi. Insonni yoshlikdan bunday go’zal xulq-atvor bilan tarbiyalash, islom dinining ezgu amallaridan xabardor etish har bir ota-onaning asosiy burchlaridan biridir. Mazkur paragraf yuzasidan tahlil etilgan ma’lumotlarning mazmunidan kelib chiqib, yoshlarda produktiv ongni diniy bilimlar orqali shakllantirish yuzasidan quyidagilarni xulosa qilish mumkin.

1. Reproduktiv ong shakllantirish faqatgina ta’lim - tarbiya usullari orqali emas, diniy bilimlardan xususan, diniy qadriyatlar, urf-odatlar, mustahkam e’tiqod, milliy umuminsoniy qadriyatlar, diniy bag’rikenglik kabilar orqali ham shakllantiriladi.

2. Yoshlarning go’zal xulqqa ega bo’lishi, diniy va dunyoviy bilimlar jihatdan kamol topishi qolaversa, o’z tanlagan sohasi bo’yicha mukammal bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishining asosiy sharti bu – reproduktiv xulq - atvorga, onga ega bo’lishidir.

3. Diniy bilimlar va e’tiqod – reproduktiv ongni shakllantirishning asosiy omillaridan biri bo’lib, unda har bir yoshlar nima yaxshiyu, nima yomon, haq va nohaqlik nima, inson hayotda qanday yashash kerak yoki qanday inson bo’lib yetishishi lozimligini anglashga imkon beruvchi vositalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Лоскутов В.В. К проблеме влияния духовно-религиозного опыта на трансформацию личности [Текст] / В.В. Лоскутов, Иванов М.Д. // Психологические проблемы самореализации личности: под ред. А.А.Крылова, Л.А.Коростылева. - СПб., 1997. – С.157-166
2. Гильманов С.А. Диагностика качеств творческой индивидуальности педагога: Учеб. пособие. - Тюмень: Изд-во ТГУ, 1998. – С.34.
3. Грановская Р.М., Крижанская Ю.С. Творчество и преодоление стереотипов. - СПб.: ОМС, 1994. – С.101
4. Коломиец С.М. Творческие компетенции студентов социально-экономических специальностей: Монография. - М.: Издательство «Перо», 2010. – С.80.
5. Марфутенко Т.А. Дефиниция «творческая компетентность» в контексте педагогической деятельности // Вестник университета (Государственный университет управления). - М.: ГУУ, 2012. - №16. - С. 229 - 231

Sanakulova Aziza Raximovna

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti.

Pedagogika-psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail. azizaraximovna2024@gmail.com

Raximova Nozima Xamroqul qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

E-mail. nozimasr@gmail.com

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR SHAXSINI RIVOJLAN- TIRISHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada "bolaning shaxsiy rivojlanishi" tushunchasining psixologik-pedagogik mezonlari ko'rib chiqilgan. Pedagogika fanida shaxsiyat va shaxsning rivojlanish hodisasi asosiy bo'lganligi sababli, ayni paytda shaxsning mohiyatini obyektiv aniqlash, uni talqin qilish, shuningdek, shaxsiy rivojlanish omillarini aniqlash muammosi bugungi kunda eng qiyin muammolardan biri hisoblanadi. Muallifning fikriga ko'ra, intellektual rivojlanishning hibsiga olingan variantiga ega bo'lgan bolalar sonining o'sishi ushbu toifadagi bolalarni o'rganish, o'qitish va o'qitish muammolarini yanada kuchaytirdi.

Kalit so'zlar: shaxs, bola, rivojlantirish, mazmun va mohiyat, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, rivojlanish, raqamli texnologiyalar, boshqarish, ta'lim texnologiyalar, ta'lim va tarbiya, hamda ijtimoiy munosabatlar.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗ- ВИТИЯ ЛИЧНОСТИ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация. В статье рассматриваются психолого-педагогические критерии понятия «личностное развитие ребенка». Поскольку феномен личности и развития личности является основным фактором в науке педагогики, в то же время проблема объективного определения сущности личности, ее интерпретации, а также определения факторов развития личности является одной из наиболее важных. сложные проблемы сегодняшнего дня. По мнению автора, увеличение количества детей с задержанным вариантом интеллектуального развития обострило проблемы обучения, преподавания и воспитания этой категории детей.

Ключевые слова: человек, ребенок, развитие, содержание и сущность, дошкольные образовательные организации, развитие, цифровые технологии, менеджмент, образовательные технологии, образование и воспитание, социальные отношения.

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL INDIVIDUAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN'S PERSONALITY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Abstract. The article examines the psychological and pedagogical criteria of the concept of "child's personal development". Since the phenomenon of personality and personality development is the main factor in the science of pedagogy, at the same time, the problem of objectively determining the essence of personality, its interpretation, as well as determining the factors of personal development is one of the most difficult problems today. According to the author, the increase in the number of children with an arrested variant of intellectual development has exacerbated the problems of learning, teaching and training of this category of children.

Key words: person, child, development, content and essence, preschool educational organizations, development, digital technologies, management, educational technologies, education and upbringing, and social relations.

Kirish. Xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik ishlarini yo'lga qo'yish va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishlar bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yilning 28 yanvar kuni "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli Farmoni bilan 2022 — 2026 yillarga

mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish bo'yicha keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[1].

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonlarda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan ko'plab o'qitish texnologiyalari va treninglardan keng qo'llanilmoqda. Jumladan: muammoli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, loyiha, keys, ish faoliyatini ifodalovchi turli o'yinlar, treninglar, bahs-munozaralar (nuqtai nazar, tok shoular) ni tashkil qilish va hokazolardir [2].

Butun dunyoni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish barcha sohalarga jadal kirib bormoqda. Shu jumladan ham O'zbekiston respublikasi ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va mexanizmlashtirish bo'yicha Prezidentimiz SH.Mirziyoyev ko'p bora ta'kidlab aytib kelmoqdalar. Bugungi kunda ta'lim sohasini strategik boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish va yo'lga qo'yish bo'yicha keng ko'ramli ishlar yo'lga qo'yilib kelinmoqda[3].

Jamiyatimizning eng yuqori qadriyat - bu inson. Bolaning ta'limiga e'tibor berish, uning qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish, shaxsiy fazilatlarini takomillashtirishga e'tibor berish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Har qanday ta'lim muassasasining o'quv jarayonining asosiy vazifasi - bu to'laqonli shaxsni shakllantirishdir. Pedagogika fanida shaxsiyat va shaxsning rivojlanish hodisasi fundamental deb baholanadi, shu bilan birga, shaxs mohiyatini ob'ektiv aniqlash, uni talqin qilish va shaxsiyat rivojlanish omillarini aniqlash muammosi eng qiyin masalalardan biridir. Shaxsni shakllantirish, uning rivojlanishi va barpo etilishining asoslari maktabgacha ta'lim bosqichida sodir bo'ladi.

Ushbu muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ushbu kontseptsiyaning muhim xususiyatlarini, shuningdek, bolaning shaxsiy rivojlanish jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan bog'liqligi va shartlilikini aniqlashga imkon berdi. Shunday qilib, inson shaxsiyatining asosini uning turli xil harakatlar orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy munosabatlarining umumiyliigi tashkil etadi. Jamiyat nafaqat shaxsiyatning har qanday tashqi muhiti sifatida qaraladi, u obyektiv ravishda ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiradi va u shaxsning asosiy tuzilmalarining shakllanishini belgilaydi. Ushbu masala bo'yicha adabiyotda bolalarni rivojlanish shartlari sifatida quyidagi manbalar aniqlangan: kattalar va tengdoshlarning ta'siri, tan olinishga bo'lgan ehtiyojni qondirish, jinsning o'ziga xosligi va boshqalar. Ushbu masala bilan shug'ullangan olimlarning xulosalariga asos solingan. quyidagi tushunchalarning ierarxik pozitsiyasi to'g'risida: bolaning shaxsiy rivojlanishi uning tarbiya va ta'lim jarayonida hisobga olinishi kerak bo'lgan yoshi va individual xususiyatlarini turkumlash funksiyasini bajaradi [4].

Adabiyotlar tahlili: Bolalarning yoshiga xos xususiyatlari kontseptsiyasiga o'xshab, individuallik va individual xususiyatlar tushunchasi olimlar tomonidan har xil nuqtai nazardan ko'rib chiqilmoqda: O'rganilayotgan muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish bolaning shaxsiy va shaxsiy xususiyatlarining hodisasini tushunish va tushuntirishning murakkabligi aniqladi. Avvalo, bolaning individual xususiyatlari uning asabiy faoliyat turi bilan bog'liq bo'lib, u irsiy shakl bo'lib, shuningdek bolalar tabiatini o'rganadi. Shu bilan birga, pedagogikada individual xususiyatlar tushunchasi bolaning qobiliyati va moyilligi yoki moyilligi (aqliy, jismoniy) kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Olimlarning individual xususiyatlarini o'rganish, umumiy ishlash darajasiga ta'sir qiladigan jismoniy holatga ko'proq e'tibor berishadi. Shuningdek, bolaning hissiy-emotsional sohasiga e'tibor bering: asabiylik, negativizm darajasini, pedagogik ta'sirga ta'sirchanlik darajasini va boshqalarni aniqlang. Bunday holda, maktabgacha yoshdagi bolalarning individual xususiyatlarini o'rganishning asosiy usuli bu muntazam kuzatuvdir.

✓ inson va uning shaxsiyati haqidagi falsafiy takliflar N. Berdyaev, A.F.Losev, I.I kabi olimlarning asarlarida yoritilgan. Rezvitskiy, V.M. Rusalov, V.S. Soloviev va boshqalar;

✓ shaxsning psixologik-pedagogik nazariyasining asoslari va uning rivojlanish jarayoni B.G.ning asarlarida keltirilgan. Ananyev, A.G.Asmolova, L.S. Vygotskiy, E.A. Golubeva va boshqalar.

Natija: Natijada, individual yondashuvni amalga oshirishda o'qituvchiga (shu jumladan maktabgacha ta'lim muassasari o'qituvchisiga) qo'yiladigan talablar quyidagilar:

• o'qituvchi doimiy ravishda temperamentning o'ziga xos xususiyatlarini, shaxsiy xususiyatlarini, tarbiyalanuvchilarining munosabati, didi, odatlarini o'rganishi va bilishi kerak;

• o'qituvchi tashxis qo'yishi va bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini (motivlari, qiziqishlari, qarashlari, shaxsga yo'nalishi, mehnatga munosabati, qadriyatlari va boshqalar) rivojlanishining haqiqiy darajasini bilishi kerak;

• murabbiy har bir tarbiyalanuvchini o'zi uchun mumkin bo'lgan narsalarga va shaxsning izchil rivojlanishini ta'minlash uchun tobora murakkablashib borayotgan muammolarga doimo jalb qilishi kerak;

• o'qituvchi individual faoliyat sifatida o'zlariga tayanishi kerak;

- o'qituvchi mustaqillikni, tashabbuskorlikni rivojlantirishi va yetakchilikni emas, balki muvaffaqiyatga olib boradigan tadbirlarni mohirona tashkil qilishi va yo'naltirishi kerak;
- murabbiy mavjud bo'lgan sharoitga qarab ta'lim taktikasini tezda o'zgartirishi kerak.

Muhokama: Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy rivojlanishi muammosiga bag'ishlangan ko'plab hujjatlarga qaramay, uning individual yosh farqlarining namoyon bo'lishi sifatida biz ularning o'xshashligi va o'ziga xosligini ta'kidlashimiz kerak. Ushbu mualliflar muammoni hal qilishning o'ziga xos yondashuvi bilan birlashtirilgan: bolaning shaxsiy rivojlanish masalalari uning yoshi va individual shaxsiy xususiyatlari prizmasi orqali ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga yuzakilikni ta'kidlash kerak, o'zgarishni sababiy tushuntirishning etishmasligi bolalarning individual xususiyatlarini aks ettiradi. Shaxsning zamonaviy pedagogik nazariyalari to'liq bo'lmagan, bir tomonlama, individual rivojlanish parametrlari, individual variantlarning individual rivojlanishi, farqlanmagan. Ta'lim jarayonida erta yoshdagi bolalarni tarbiyalashga individual yondashuvni qo'llash prinsipi keng tarqalgan bo'lib, juda kam qismi o'quv jarayonining murakkabligini hisobga oladi.

Xulosa: Ushbu maqola natijalari bolalik davrida ijodiy fikrlashni kuchaytirish uchun sabablarning yana bir dalillarini keltiradi, bu erda madaniy muvofiqlik va uning omillarini ko'rish mumkin. Hozirgi bosqichda ekologik muhitning yomonlashuvi, bolalar sonining ko'payishi, shuningdek, oilaning ijtimoiy va tarbiyaviy funksiyalari pastligi maktabgacha yoshdagi bolalarning individual xususiyatlarining xilma-xilligini, turli xil variantlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shaxsiy rivojlanish va turli darajadagi bilim rivojlanishida namoyon bo'ladi. Aqliy rivojlanishi sustlashgan bolalar sonining ko'payishi bu bolalarni o'rganish, o'qitish va tarbiyalash muammolarini yanada kuchaytirdi. Ushbu muammoni hal etish, o'rganilayotgan bolalar guruhlarini rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning psixologik, pedagogik xususiyatlarini aniqlash, ularni tarbiyalashning variatsion tamoyillari, usullari va vositalarini ishlab chiqish bilan bog'liq bir qator muammolarni amalga oshirishni o'z ichiga olishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 6108 - sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli Farmoni.
3. Norboy o'g'li H. F. Raqamli Ta'lim Jarayonini Elektron Muhitda Qurishning Psixologik-Pedagogik Jihatlarini //International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London). – 2024. – T. 1. – C. 56-58.

Olimov Laziz Yarashovich

Buxoro davlat universiteti, Psixologiya va sotsiologiya kafedrası professori
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SUD VA TERGOV FAOLIYATIDA PSIXOLOG KASBIY KOMPETENTLIGINING NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sud va tergov faoliyatida psixolog kasbiy kompetentligining namoyon bo'lishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog'liqligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertizasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsional intellekt, kasbiy faoliyat.

ДЕМОНСТРАЦИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПСИХОЛОГА В СУДЕБНОЙ И СЛЕДСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В данной статье рассматривается исследование проявления профессиональной компетентности психолога в судебно-следственной деятельности и совершенствование ее специфических социально-психологических факторов, выявляя социально-психологические факторы и компоненты, развивающие социально-психологическую компетентность судебного психолога. - судебный психолог, исследующий проявление и развитие коммуникативного, эмоционального и личностного компонентов у эксперта; в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов раскрывается их связь с правовой системой.

Ключевые слова: судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, личность эксперта, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.

DEMONSTRATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF A PSYCHOLOGIST IN FORENSIC AND INVESTIGATIVE ACTIVITIES

Abstract. This article discusses the research of the manifestation of the psychologist's professional competence in judicial and investigative activities and the improvement of its specific socio-psychological factors, identifying the socio-psychological factors and components that develop the socio-psychological competence of the forensic psychologist, the forensic psychologist researching the manifestation and development of communicative, emotional and personality components in the expert; in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists, their relationship with the legal system is revealed.

Key words: forensic psychologist-expert, socio-psychological competence, forensic psychological examination, professional competence, competence, personality of an expert, emotional intelligence, professional activity.

Kirish. "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu qonunda ko'rsatib o'tilgan bunday muhim vazifalarni bajarishda sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy sifatlariga xos bo'gan xususiyatlarni ro'yobga chiqarish, psixokorreksion va rivojlantiruvchi usullar orqali ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish dolzarb muammo sifatida qaraladi.

Sud doimiy ham real voqelikni adekvat aks ettiruvchi u yoki bu shaxslar tomonidan yetkaziladigan ish uchun muhim bo'lgan faktlar haqida ma'lumotlarga to'liq ega bo'la olmaydi. Bu esa turli sabablar va odatda subyektiv sabablar bilan izohlanadi (masalan, qabul qilish sharoitlarning xususiyatlari va

subyektning shaxsiy fazilatlarini, umuman xulq-atvor vaziyatining psixologik spesifikasi bilan). Ushbu sabablarni aniqlash ob'ektiv haqiqatga erishish uchun o'ta muhimdir. Bundan tashqari, bir qator psixologik omillar mavjud bo'lib, ularni bilish sudning ish ko'rish predmetiga to'g'ri huquqiy baho berish uchun zarurdir. Va bunday holatlarni aniqlash uchun psixologiya sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. Odatda bunday bilimlarga psixologik ekspertizani o'tkazadigan mutaxassislar ega bo'ladilar.

Agar psixik sog'lom inson avval kelishib, keyinchalik sudda o'z harakatlarini boshqara olmaganligini (ongli tarzda amalga oshirmaganligi) va ularning mazmunini tushunmaganligini ta'kidlab tursa, chunki bunga qattiq ruhiy iztirob sabab bo'lgan va u hammasini oqilona o'ylab chiqmagan bo'lsa – bu vaziyatda nima qilish kerak? kabi savollarni yechimini topish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi va bu borada bir necha yillik tajribaga ega bo'lgan sud psixolog ekspert(lar)i holatga adekvat baho bera olishadi.

Bunday arzni e'tiborsiz qoldirish mumkinmi yoki sud uni tekshirish chiqishga majburmi? "Ha", – degan taqdirda ham, – qanday dalillar eng samarali bo'lishi mumkin? Aynan ana shu yerda maxsus psixologik bilimlar sud ekspertizasi jarayon shaklida bo'lishi zarurdir.

Psixologik tadqiqotning umumiy usullariga asosan: eksperiment, psixodiagnostika, taxmin qilish, modullashtirish, ta'sir o'tkazish usullarini kiritish mumkin. O'z navbatida, umumiy usullarning har bittasi maxsus usullar majmuidan iborat bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya rivojlanishining zamonaviy ko'rinishlaridan biri bu - sud psixologik ekspertizaning katta imkoniyatlarga ega bo'layotganligi hisoblanadi. Albatta, bu imkoniyatlar chegarasiz degani emas. Bu borada O'zbekistonda yechilmagan muammolar hali juda ham ko'p. Masalan, ayrim ishlarda psixologik sababni aniqlash imkoniyati yetarli emas, ammo shaxsning asosiy sabab chiziqlari ierarxiasini va mazmunini aniqlash real holatdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Sud-psixologik ekspertizalar tergovchining (prokuratura va ichki ishlar tergovchisining) qarori, sudning tegishli ajrimiga asoslanib tayinlanadi, unda ekspertiza komissiyasiga ekspertiza o'tkazilishi lozim bo'lgan shaxs, uning protsessual mavqei ko'rsatilib ekspertizaning mazkur turining tayinlanishi asoslab, ekspertizani o'tkazishga mas'ul bo'lgan tashkilot hamda ekspertlar tomonidan hal qilinishi lozim bo'lgan savollar, shuningdek, ish hujjati yuzasidan tegishli ma'lumotlar taqdim etiladi.

Ekspertiza komissiyasi tomonidan chiqarilgan xulosalar sudning huquqiy vakolatiga muvofiq baholanadi. Bunda ekspertiza xulosasining ilmiy asoslanganligi va ishonchliligi aniqlanadi. Mazkur ekspertiza xulosasini sud asoslangan va ishonchli, deb e'tirof qilgan holda, mazkur hujjat bevosita va bavosita isbotlar (dalillar) manbaiga aylanishi mumkin.

Ma'lumki, har qanday jinoiy ishlari bo'yicha, xususan psixologiyaga oid maxsus bilim va tajribalarni (kompetensiyalarni) talab qiluvchi ekspertizani tayinlash uchun huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi (JPK)ning 172-moddasida keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 173-moddasining (Ekspertiza tayinlash va o'tkazishning shartligi) 5-bandida belgilanganidek, ekspertizani «jabrlanuvchining, guvohning ruhiy va jismoniy holatini hamda ular ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni idrok qilish, esda saqlash va so'roq qilganda ifodalab berish layoqatiga ega ekanliklarini, shuningdek javbrlanuvchining jinoyat protsessi chog'ida o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olish layoqatini» aniqlash zarur bo'lganda tayinlash va o'tkazish shart. Tabiiyki, psixologiyaning tadqiqot predmeti bo'lgan psixik hodisalarni baholash zaruratini belgilab beradi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sud jarayonlarida sud-psixologik ekspertizalar o'tkazish uchun huquqiy asos fuqarolik ishlari bo'yicha sudi sudyasi tomonidan chiqarilgan ajrim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi FPKning 84-moddasida belgilanganidek, ekspertiza maxsus, xususan psixologiya bo'yicha bilimlardan foydalangan holda, aniq tadqiqotni o'tkazish zarurati tug'ilganda tayinlanadi. Bu ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunining "Asosiy tushunchalar" deb nomlangan 3-moddasi ko'ra, sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berish nazarda tutilgan.

Jinoyat ishlari doir jarayonlarda SPE tayinlash uchun belgilangan me'yorlarga asosan, og'ir jinoyat sodir etgan sub'ektning individual-psixologik o'ziga xos xususiyatlarini, uning turg'un motivasion-ma'noviy sabablarini o'rganishda, shuningdek shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat sabablarini baholashda qiyinchiliklar yoki murakkabliklar paydo bo'lganda, sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik uchun tegishli tartibda qonuniy chorasini aniqlash imkoni yo'qligi sababli amalga oshiriladi.

SPEning ahamiyati fuqarolik-huquqiy nizolarni hal qilish jarayonida ham qo'llanilishi mumkin. Bu holatda ekspertizani tayinlash uchun u yoki bu tomonlardan birining psixologik jihatlariga tegishli bo'lgan har qanday aniq ma'lumotlar, masalan, bitim tuzilayotgan vaqtda adashish, aldash yoki zo'ravonlik, ruhiy tazyiq ta'sirida bo'lgan sub'ektning intellektual, bilish qobiliyatining pastligi to'g'risidagi ma'lumotlar sabab bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, ham jinoiy, ham fuqarolik ishlari jarayonlarida SPEni tayinlash uchun sud kompetensiyasiga kiradigan munozarali masalalarning u yoki bu yechimiga tegishli psixologik tushunchalarni, jinoiy ishlar bo'yicha o'tuvchi yoki fuqarolik sud jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar psixikasining turli namoyon bo'lish mexanizmlarini psixologik tomondan baholash zarur deb topilgan har qanday aniq ma'lumotlar sabab bo'lishi mumkinligini qayd etish lozim.

Huquqshunoslik amaliyotida "inson omili" tushunchasi yetakchi o'rinni egallar ekan, sohaga tegishli psixologik nazariya va amaliyot (tajriba)lardan foydalanish odilona qaror qabul qilish va hukm yoki ajrim chiqarish bugungi kunning o'ta muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Afsuski, bugungi kunda sud-psixologik ekspertizalarni tashkil qilish va uni o'tkazish bo'yicha maxsus muassasa yoki markaz tashkil qilinmaganligi boisdan bu ish bilan hududlardagi oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar amalga oshirmoqda. Qolaversa, sud-psixologi-ekspertlarning malakasini oshirish tizimi yo'lga qo'yilmaganligi turli qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotganligini qayd qilish mumkin.

"Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa korxon, muassasa, tashkilot tomonidan sud ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risida Namunaviy Nizom"ning 29-bandiga ko'ra, «Ekspert xulosasi uch qismdan: kirish, tekshirish va xulosalardan (yakunlovchi) iborat bo'ladi».

Sud-psixologik ekspertizasi komissiyasi xulosasi rasmiy yozma hujjat bo'lib, unda, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual va Fuqarolik protsessual kodekslariga muvofiq, sud-psixologik ekspertizasini o'tkazishning qonuniy asoslari va shartlari, ekspert yoki ekspertlar oldida qo'yiladigan masalalar, ular o'tkazgan ekspertlar, shuningdek ekspertiza komissiyasi xulosalari aks ettiriladi. Sud-psixologik ekspertizasining xulosasi jinoyat yoki fuqarolik ishi bo'yicha tegishli tartibda isbot (dalil) hisoblanadi.

Sud-psixologik ekspertizasi komissiyasining xulosasi ekspertizani o'tkazgan barcha ekspertlar tomonidan imzolagan bosma ko'rinishda tuziladi va u mazkur sud-psixologik ekspertizasi o'tkazilgan muassasaning muhri bilan muhrlanadi. Xulosani tuzishning umumiy muddati – ekspert tekshirish yakunlangan va ekspert xulosalar chiqarilgandan (shu jumladan ekspertlar o'rtasidagi kelishmovchilik tufayli ular tomonidan bittadan ko'p xulosa tuzilgan hollarda ham), ta'riflangandan so'ng 15 kundan kechiktirilmaligi lozim. Ekspertiza komissiya tomonidan amalga oshirilganda ekspertiza xulosasi loyihasini tayyorlash, uning matni bo'yicha ekspert komissiyasining boshqa a'zolari bilan kelishish, shuningdek xulosani tuzish majburiyati ekspert komissiyasi a'zolarining biri (kotiblik qilgan) tomonidan tayyorlanadi.

Sud-psixologik ekspertizasi xulosasi quyidagi tartibda rasmiylashtiriladi:

1. Umumiy qism

1.1. Xulosaning kirish qismi.

1.2. Xulosaning kirish qismi quyidagilarni aks ettiradi:

- sud-psixologik ekspertizani o'tkazish sanasi va joyi;
- sud-psixologik ekspertizani o'tkazishning huquqiy asosi;
- sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) to'g'risida ma'lumotlar;
- sud-psixologik ekspertizasi komissiyasi (famiyasi, ismi, sharifi, ma'lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, egallagan lavozimi) va tashkilot to'g'risida tegishli bo'lgan ma'lumotlar;
- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238, 240-moddalarida ko'rsatilganidek, sud eksperti yolg'on guvohlik berish, surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning ruxsatisiz oshkor qilish, shuningdek ekspertning xulosa berishni rad etishi yoki bu ishdan bo'yin tovlashi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi to'g'risida ogohlantirish;
- ekspert yoki ekspert komissiyasi aniqlashi lozim bo'lgan savollar. Ular aniq, sud ajrimida yoki tergov organlarining ekspertiza tayinlash haqidagi qarorida qanday bo'lsa shunday ifodalangan bo'lishi kerak.

Agar savollar noto'g'ri (aniq, qabul qilingan atamalarga muvofiq bo'magan holda va h.k.) ifodalangan bo'lsa, lekin ularning ma'nosi ekspertga tushunarli bo'lsa, ekspert savollarni o'zining maxsus bilimlariga tegishli holda ifodalashi mumkin. Bir necha savol qo'yilgan holda, ekspert ularni qayta turkumlashi, tekshirish maqsadiga muvofiq tartibini ta'minlovchi ketma-ketlikda bayon qilishga haqli.

• Ekspertga sud-psixologik ekspertizani o'tkazish uchun taqdim etilgan ish materiallari va tibbiy hujjatlar;

• Sud-psixologik ekspertizani o'tkazishda ishtirok etgan respondentlar haqidagi rasmiy ma'lumotlar.

1.3. Agar sud-psixologik ekspertizasi qo'shimcha yoki takroriy ravishda o'tkazilayotgan bo'lsa, xulosaning kirish qismida qayd etilishi lozim. Mazkur hollarda oldingi ekspertiza (ekspertizalar) to'g'risida qisqacha ma'lumot – qachon, qayerda va kim tomonidan o'tkazilgani, qanday xulosa (xulosalar) berilganligi, mazkur ekspertizani tayinlash asoslari keltiriladi.

1.4. Agar sud-psixologik ekspertizasi o'tkazish davomida ekspert (ekspertlar) tomonidan tekshirish uchun qo'shimcha materiallar berilishi to'g'risida rasmiy iltimosnoma berilgan bo'lsa, xulosaning kirish qismida mazkur hol va iltimosnomani (iltimosnomalarni) ko'rib chiqish natijalari aks ettirilishi kerak.

2. Diagnostik chora-tadbirlar (tadqiqot) qismi

2.1. Dastlabki bosqichda respondentning tarjimai holini aniqlashga doir usuldan foydalaniladi.

Bu jarayonda respondentning tug'ilganidan to'g'ri paytgacha bo'lgan davrda u bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni aniqlashda xronologik ketma-ketlikka rioya qilish, shuningdek ta'lim jarayonida, oilada, mehnat qilishda, nikohda, ijtimoiy (shu jumladan kriminal) turmush tarzida o'ziga xos faoliyat modeli psixodiagnostik baholanadi.

2.2. Tekshirish ("biografik usul") quyidagilarni aks ettirishi kerak:

- aynan u bilan bog'liq holat yoki hodisalardan oldingi davrda ekspertiza qilinuvchining xulq-atvorini, individual-psixologik (tipologik) xususiyatlari va psixik ahvolini bevosita tavsiflovchi jinoiy yoki fuqarolik ishi materiallaridan olingan ma'lumotlar. Ushbu tekshirish asosan, jabrlanganlar, guvohlar, (davogarlar, javobgarlar) bergan ma'lumotlariga asoslanadi va ekspertiza qilinuvchi kishining umuman yuzaga kelgan vaziyatni anglash qobiliyati doirasida joyda, vaqt davomida yo'nalishini aniqlash imkonini beradi;

- tekshirilayotgan kishining bolalik davri, maktabda o'qishining boshlanishi, o'smirlik yoshi, erta yoshlik davri, katta bo'lgan davridagi hayoti to'g'risida asosiy ma'lumotlar,

- tekshirilayotgan kishi psixologiyasini tekshirishning "biografik usuli"ni shartlab beradi;

- tekshirilayotgan shaxsning sodir bo'lgan hodisadan oldingi davrda insonga taalluqli bo'lgan shaxsning o'ziga xos xususiyatlarining turg'un shaxslilik xususiyatlari;

- u bilan sodir bo'lgan holatda individ to'g'risidagi masalalarni, tekshirilayotgan kishining (psixatrik dispanserda hisobda turgan yoki turmaganligi) ruhiy kasalligi borligi yoki yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlarni, hal qilishni tasdiqlovchi yoki rad qiluvchi omillarni hisobga olgan holda asoslab berilishi kerak. Respondentda psixik buzilish bo'lgan holda, kasallikning rivojlanish va uning kechishini aniq va izchillik bilan aks ettirish, umumlashtiruvchi mulohazaga bormasdan, psixopatologik kechinmalarining o'ziga xos xususiyatlarini qayd qilish zarur. Bunda psixiatrik kasalxonalariga joylashtirish sanalarini keltirish, har bir kasalxonaga yotqizilganda yoki ambulator tartibda shifokor psixiatrlar ko'rigidan o'tgandagi (shu jumladan o'tmishda ambulatoriya yoki shifoxonada qilingan sud-psixiatrik ekspertizalardagi) tashxislarini ko'rsatish, hamda ekspertiza qilinayotgan kishining o'sha davrdagi psixik holatining xarakteristikasini keltirish zarur;

- tekshirilayotgan kishi to'g'risida ma'lumotlar yo'qligida, ijtimoiy muhitda u yoki bu ijtimoiy munosabatlarga kirishgan insonning psixologik o'ziga xos xususiyatlarini diagnostika qilish kerak va bunda uning individual-psixologik tuzilishini hisobga olish lozim;

- boshdan kechirgan somatik va boshqa kasalliklar ularning psixik holatga ko'rsatgan ta'siri;

- mehnat faoliyati to'g'risida nafaqat ish joylari va egallagan lavozimlari, balki imkon bo'lganda mehnat tavsifnomalari, u to'g'risida xizmatdoshlarining fikrlarini keltirish;

- sudlanganlik (agar bo'lsa) to'g'risidagi ma'lumotlarda sodir qilingan huquqbuzarlik to'g'risida qisqacha ma'lumot keltirish kerak, bu, ayniqsa, hozirda sodir qilingan huquqbuzarlik bilan bir turda bo'lganda muhim ahamiyat kasb etadi. Ozodlikdan mahrum qilish joylardan tavsifnomalar, agar bundaylar bo'lsa, keltirish kerak;

- tekshirilayotgan huquqiy vaziyat holatini batafil yoritish lozim.

2.3. U yoki bu ma'lumotga tayanilganda, uning manbasini ko'rsatish, jinoiy yoki fuqarolik ishlaridan foydalangan holda esa betlar va jildlarining tartib raqamlari ko'rsatilishi shart.

2.4. Eksperimental-psixologik tekshirish SPE xulosasining markaziy qismi hisoblanadi, unda ekspertiza qilinuvchi kishining psixik (psixologik) holati, tekshiruv o'tkazish natijasida hosil bo'lgan manzara aniq aks ettirilgan bo'lishi kerak.

Uning tarkibiga quyidagi tarkibiy qismlar kiradi:

- Respondent bilan olib borilgan suhbat mazmunining qisqacha tahlili (tekshirish davriga munosabati bilan bog'liq kechinmalarining so'z orqali ifodalangan tahlili);
- tekshirish davomida tekshirilayotgan kishi xulqining tavsifi, bunda aloqaning o'ziga xos xususiyatlarini baholash ham ko'zda tutiladi (muayyan masofani saqlash, qiziqish darajasi, emotsional indifferentligi va h.k.);

- huquqiy ahamiyatga ega vaziyatda yo'nalishini aniq bilish (orientirovka), sodir bo'layotgan hodisalarga tanqidiy yondashish, tekshirish maqsadini tushunishdagi emotsional holati;

- ekspertiza qilinayotgan kishi tomonidan huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan vaziyatning baholanishi.

2.5. Diagnostik (tashxis) metodikalar yordamida eksperimental-psixologik tekshiruv.

- tekshirish qanday maxsus vositalardan (usullar va metodikalar–uslublar) foydalangan holda o'tkazilganligi ko'rsatiladi, bunda metodikaning psixodiagnostikada qabul qilingan to'liq nomlanishi, metodikaning muallifi, agar metodika modifikatsiya qilingan bo'lsa, modifikatsiyaning muallifi yoki ilmiy manbaga havola qilinishi shart. Bular tergovchi va sud tomonidan ekspert tadqiqot metodikalarini to'liq va ilmiyligiga, uning validililigiga, ularning qo'llanilishi to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilishi uchun muhim;

- ish jarayonining batafsil tavsifi, bunda bosqichlar, natijalarni qayd qilish usul va vositalari, eksperimental metodikalar qo'llanilishi natijasida olingan ma'lumotlar, olingan natijalarning talqini bayon etiladi;

- tekshirilayotgan kishining kognitiv imkoniyatlarini baholash;

- tekshirilayotgan kishining xulq-atvoridagi aksentuatsiya jihatlarining diagnostikasi.

2.6. Ish materiallari va eksperimental-psixologik tekshiruv natijalarining qiyosiy tahlili.

- Psixologik tahlil ham tomonlarning (ish materiallari), ish holatini hisobga olgan holda, bergan guvohlik ma'lumotlari, ham ekspertiza qilinayotgan kishining suhbat davomidagi kechinmalari – "hisobot" vaqtida, huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalardan oldin va keyingi davrlarda, individual-psixologik test natijalariga muvofiq tarzda aks etishi (qiyos qilingan holda) kerak;

- Tekshirish natijalari (ish materiallari, shu jumladan tibbiy hujjatlar va eksperimental testlash) tekshirish sub'ekti xulqiga oid o'ziga xos xususiyatlariga mos psixologik jarayonlarning kechishi fenomenologiyasi mezonlariga bo'lgan talablarga mos kelishi lozim.

3. Asoslovchi qism (xulosalar va asoslash)

3.1. Ekspert komissiyasi oldiga qo'yilgan masalalar bo'yicha tadqiqot natijalarini baholash, xulosalarning asoslanishi va ifodalanishini aks ettiradi.

3.2. Xulosaning asoslovchi (yakuniy) qismi ekspertiza qilinayotgan kishining psixologik holatini baholash, savollarga javoblar va ularning batafsil asoslanishidan iborat.

3.3. Ekspert oldiga qo'yilgan savollardan birontasi ham javobsiz qolmasligi va o'tkazib yuborilishi mumkin emas. Agar ba'zi savollarga ekspert javob berib, boshqalariga javob berish mumkin emasligi to'g'risida ma'lumot berishiga asos mavjud bo'lsa, bu holda yagona xulosa tuzilib, unda ekspert xulosalar bilan bir qatorda, ekspert oldiga qo'yilgan savollarning ba'zilariga javob berish mumkin emasligining sabablari asoslab ko'rsatiladi.

Sud eksperti oldiga qo'yilgan savollarni uning sohaga oid maxsus psixologik bilimlari asosida hal qilib bo'lmazligiga, unga taqdim qilingan tekshirish ob'ektlari va materiallar xulosa chiqarish uchun yaroqsiz va yetarli emasligiga, qo'shimcha materiallar yo'qligi yoki fan va sud-ekspert amaliyoti mazkur savollarga javob berish imkonini bermasligiga ishonch hosil qilganda, u xulosa berish imkoni yo'qligi to'g'risida dalolatnoma tuzib, uni sud ekspertizasini tayinlagan organga taqdim qiladi.

3.4. Xulosa psixologiya fanidan xabari yo'q bo'lgan sud jarayoni ishtirokchilari yoki tergov organi xodimlari uchun tushunarli tilda yozilgan bo'lishi shart. Shu bois xulosada maxsus atamalardan haddan tashqari ko'p foydalanmaslik, alohida hollarda esa maxsus atamalarning mazmuni tushuntirilishi lozim.

3.5. Jinoiy yoki fuqarolik ishi bo'yicha sudlov ishini yuritayotgan sudning yoki tergovning alohida vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha ekspert mulohaza va xulosalarga yo'l qo'yimasligi zarur.

Qayta ekspertiza tayinlangan holda, uning xulosasida oldingi ekspertiza xulosalari bilan farq bo'lsa, ushbu ekspertizalar xulosalarining tahlilini o'tkazish kerak, uning tarkibida differensial diagnostika elementlari bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda xulosada ish uchun ahamiyat kasb etuvchi hamda ekspert tashabbusi bilan belgilangan vaziyatlar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

4. Kompleks sud psixologik-psixiatrik ekspertizalarda ekspert-psixologning roli

4.1. Ekspertlar teng huquqligiga asos soluvchi tamoyil bo'lib hizmat qiladi. Unga ko'ra, psixolog har qanday ekspert singari bir xil protsessual huquq va majburiyatlarga ega, ya'ni masalalarni mohiyatan hal qilishda hech qanday afzalliklardan foydalanmaydi. Ekspertlarning tenghuquqliligi olingan tekshirish natijalari va xulosalarining teng qiymatga egaligini belgilab beradi. Ularning har biri dastlab to'liq hajmda alohida ajratiladi.

4.2. Ekspert-psixologlar bevosita kompleks sud psixologik-psixiatrik ekspertizani o'tkazishga uning tayinlanishi to'g'risidagi qaror yoki ajrimni olganlaridan so'ng darhol kirishadilar. Shu vaqtdan boshlab ular ekspertizani o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishi uchun javobgar bo'ladilar. Shu jumladan jinoiy tartibda ham – xulosa berishni rad qilish yoki atayin yolg'on xulosa berganlik uchun ma'suldirlar.

4.3. Ekspert-psixolog jinoiy yoki fuqarolik ishi materiallari bilan tanishadi, oldiga qo'yilgan masalalarni aniqlaydi, ularning mohiyatini aniqlashtiradi, tekshirishning pirovard maqsadlari va xususiy vazifalarini belgilab oladi, uning umumiy rejasini, alohida operatsiyalarini bajarish ketma-ketligini belgilaydi. Ularga quyidagilar kiradi:

- tekshirish davrining muayyan bosqichi ekspertiza qilinayotgan kishining psixiatr vakolatiga tegishli psixik holatini kvalifikatsiyalash (baholash) to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganishdan iborat (psixik (organik, endogen, ekzogen va b.) hamda psixik kasallik toifasiga kirmaydigan, mehnatga layoqatsizlik bilan shartlangan kasalliklar). Mazkur hal qiluvchi maqsadlarga erishish nafaqat mustaqil ekspertlik ahamiyatiga ega, balki psixologik tabiatga ega bo'lgan qolgan vazifalarni bajarish uchun haqiqiy asosni tashkil qiladi;

- psixiatr tomonidan aniqlangan psixik kasalliklar bilan bog'liq holatlarni hisobga olgan holda, psixolog ekspert o'zining tekshirishini o'tkazadi. Bunda patopsixologik alomatlar majmuini (simtomokompleks) hisobga oladi, ya'ni psixologik tekshirishdan oldin psixiatrik tekshiruv amalga oshirilishi shart;

- psixolog ekspertining tekshiruv qismida (ish vaziyatlari va guvohlar ko'rsatmalari, ish materiallarini tahlil qilish asosida) psixiatriya ma'lumotlarini hisobga olgan holda hamda jinoiy yoki fuqarolik ishlari jarayonining u yoki bu huquqiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan vaziyatida turgan ekspertiza qilinuvchi shaxsni eksperimental-psixologik tekshiruvini amalga oshirishi lozim;

- psixolog ekspert tekshirish pozitsiyasini aniqlab, va olingan natijalarga mos ravishda u yoki bu huquqiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan vaziyatdagi tekshirilayotgan shaxsning emotsional holati (shu jumladan xulq-atvor komponentlari) to'g'risida xulosa chiqaradi.

5. Kompleks sud psixologik-psixiatrik ekspertizalarda psixolog ekspertining xulosasi

5.1. Kompleks sud psixologik-psixiatrik ekspertizada sud psixolog-ekspertining tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish jarayoni quyidagicha tuziladi:

- kirish (kirish qismi), anamnez, jismoniy, nevrologik va psixik holatning tavsifi va ish (jinoiy yoki fuqarolik) materiallarining tahlili psixiatr ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi;

- psixolog ekspertning tekshirish qismi psixologlar tomonidan qo'yilgan masalalar kontekstida, maxsus bilimlarni hisobga olgan holda, amalga oshiriladi. Xulosa asosini tashkil qilgan foydalanilgan usullar va ularni qo'llash natijalari to'liq hajmda keltirilgan bo'lishi kerak. Mazkur talabni buzish ekspertiza xulosasining yetarli darajada asoslanmagan deb hisoblash uchun sabab bo'ladi, chunki qonunchilik foydalanilgan materiallar, qo'llanilgan usullar va o'tkazilgan tekshirishlar haqidagi ma'lumotlarning xulosada to'liq aks ettirilishining muhimligini ta'kidlab o'tadi.

5.2. Kompleks ekspertizada ishtirok etayotgan psixolog-ekspert o'zi o'tkazgan tekshiruvlar tavsifi keltirilgan xulosaning qismini (o'zining xulosalari bilan birga) imzolaydi va buning uchun u javobgar hisoblanadi.

“Davlat sud-ekspertiza muassasi yoki boshqa korxon, muassasa, tashkilot, tomonidan sud ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Namunaviy Nizom”ning 32-bandiga muvofiq, “ekspert xulosalari uning oldiga qo'yilgan masalalarga javob shaklida bayon qilinadi va turli talqinlarga yo'l qo'ymaydigan aniq, tushunarli tilda bayon qilinishi lozim”.

Umuman olganda, sud psixolog ekspertining sudga doir psixologik ekspertizasi yuzasidan vakolatlari to'g'risidagi yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lishi sifatli sudga oid psixologik ekspertizalarni o'tkazish uchun juda muhimdir.

Natijalar

Endi bevosita nazorat tajribadan keyin sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligi va emotsional intellekti o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahliliga o'tamiz.

Besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellekti umumiy ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari (n=41, nazorat tajribadan keyin)

	Shklalar	Emotsional intellekt (N.Xoll metodikasi bo'yicha)				
		Emotsional bilimdonlik	O'z emotsiyasini boshqarish	O'zini-o'zi rag'batlantirish	Empatiya	O'zga insonlarning kechinmalarini sezish
Ijtimoiy-psixologik kompetentlik (Kunitsina metodikasi bo'yicha)	Insonlarni tushunish	0,638**	-0,080	0,304	0,482*	0,639**
	Vaziyatlarni tushunish	0,692**	0,507*	0,263	-0,103	0,706**
	Uddaburonlik	0,220	0,049	0,098	0,203	0,276
	Axloqiy ustanovkalar	0,259	0,604*	0,502	0,703**	0,091
	Muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi	0,572*	-0,036	0,508*	0,402	0,506*
	Emotsional barqarorlik	0,302	-0,123	0,096	0,208	0,341
	Imidj	0,403*	0,635*	0,506*	0,108	0,631*
	Sotsial psixologik kompetentlik	0,603**	0,528*	0,654*	0,100	0,709**
	Verbal kompetentlik	0,489*	-0,032	0,482	0,282	0,509*
	Operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik	0,422	0,573*	0,681**	0,512*	0,444
	Ego kompetentlik	-0,090	0,353*	-0,098	0,622	-0,068
	Kommunikativ kompetentlik	-0,108	0,516*	0,621*	-0,011	-0,091
	Ishonchlilik	-0,101	0,262	0,013	0,746**	-0,101
	Barqaror insoniy munosabatlar	0,009	-0,024	-0,063	0,712**	0,012
	Shaxslilik kommunikativ imkoniyati	0,603*	0,082	0,096	0,701*	0,625*

Izoh: * $r \leq 0,05$, ** $r \leq 0,01$

Olib borilgan trening mashg'uloti natijasida aniqlovchi tajribada qo'lga kiritilgan natijalarning ijobiy tomonga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Nazorat tajribasidan olingan ma'lumotardan ko'rinib turibdiki, sud psixolog ekspertlarining emotsional intellekti bilan ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarining ijobiy shakllanayotganligini belgilovchi bir qancha statistik ahamiyatga ega bo'lgan alomatlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikda o'z aksini topgan. Besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlaridagi bunday ijtimoiy-psixologik imkoniyatning mavjudligi kasbiy faoliyatni to'g'ri tashkil qiluvchi omillardan biri sifatida xizmat qiladi. Natijada sud psixolog ekspertlari ekspertiza jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli nizoli holatlar va o'zaro ziddiyatlarni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo'lishni biladilar.

Yuqoridagi jadvaldan bilishimiz mumkinki, besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan emotsional intellektini o'zaro bog'lovchi jihatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda insonlarni tushunish bilan o'zga insonlarning kechinmalarini sezish ($r=0,639$, $p \leq 0,01$) va emotsional bilimdonlik ($r=0,638$, $p \leq 0,01$) bilan yuqori ijobiy korrelyatsiya bergan bo'lsa, o'z emotsiyasini boshqarish ($r=-0,080$, $p \leq 0,01$) shkalasi bilan salbiy, vaziyatlarni tushunish o'zga insonlarning kechinmalarini sezish ($r=0,706$, $p \leq 0,01$), emotsional bilimdonlik ($r=0,692$, $p \leq 0,01$) bilan yuqori ijobiy, empatiya ($r=-0,103$, $p \leq 0,01$) bilan salbiy, axloqiy ustanovkalar empatiya ($r=0,703$, $p \leq 0,01$) o'z emotsiyasini boshqarish ($r=0,604$, $p \leq 0,05$) bilan yuqori ijobiy, muvaffaqiyatga erishganlik motivatsiyasi emotsional bilimdonlik ($r=0,572$, $p \leq 0,05$) bilan yuqori ijobiy, o'z emotsiyasini boshqarish ($r=-0,036$) bilan salbiy, emotsional barqarorlik o'z emotsiyasini boshqarish ($r=-0,019$) bilan salbiy, verbal kompetentlik o'zga insonlarning kechinmalarini sezish ($r=0,509$, $p \leq 0,05$) bilan yuqori ijobiy, o'z emotsiyasini boshqarish ($r=-0,032$) bilan salbiy, ego kompetentlik, kommunikativ kompetentlik uchta, ishonchlilik va barqaror insoniy munosabatlar ikkita shkala bilan salbiy korrelyatsiya namoyon qilgan bo'sa, uddaburonlik, axloqiy ustanovkalar, imidj, sotsial psixologik kompetentlik, operativ ijtimoiy-psixologik kompetentlik va shaxslilik kommunikativ imkoniyati barcha emotsional intellekt shkalalari bilan ijobiy korrelyatsion bog'liklik kuzatilganligi qo'llanilgan psixotexnikalarning samarali ta'siri ostida

rivojlanganligidan dalolat beradi va bu holat sifati sud psixologik ekspertizalarni amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

Sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirishda kommunikativ kompetentlik, sud psixologik ekspertizasiga doir ijtimoiy-psixologik bilimlar diapazoni va emotsional intellekt ko'rsatkichlarining muhimligiga ko'ra muammolar yechimini izlashda hissiy-irodaviy, kognitiv va kommunikativ motivatsiya imkoniyatlarini takomillashtirishga qaratilgan psixotexnikalarni qo'llash orqali yuqori samaradorlikka erishilganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa

Shaxsning kasbiy rivojlanishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan psixologik xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan psixotexnika, hamda o'quv modulining samaradorligini baholashda aniqlovchi va nazorat tajribalaridan olingan natijalarning tahlillariga asoslanib, qolaversa, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturi va uni sud psixolog ekspertlarining kasbiy faoliyatiga ta'siri natijasini tadqiq qilish bo'yicha quyidagilar aniqlandi:

1. Sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega va ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturida sud psixologik ekspertizasiga doir psixologik vaziyatlar va shaxslararo munosabatlar tizimining ta'sirchan mexanizmlariga alohida e'tibor qaratildi.

2. Kasbiy kompetentlikning rivojlantirish bo'yicha o'quv modulini amalda qo'llash natijasida qator samaradorlikka erishildi, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillariga aloqador bo'lgan kasbiy kompetentlik (kasbiy layoqat)ning o'ziga xos tarzda o'zgarganligini ko'rsatadi. O'quv modulida sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligini ta'minlovchi sohaga oid qonun va qonun osti hujjatlari yuzasidan huquqiy, hamda psixodiagnostik ishlarni amalga qo'llay olishi, sud psixologik ekspertiza xulosasini rasmiylashtirish bo'yicha bilimdonligini oshirishga erishildi.

4. Sud psixologik ekspertisasi ishlarida faoliyat olib boradigan ekspertlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi omillarini namoyon etilishi va rivojlanishi masalasini chuqurroq tahlil qilish uchun kelgusida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning ekspertlik faoliyatiga tayyorlik darajasi bilan bog'liqlik tomonlarini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Golniiz G., Schulz-Wulf G. Rhythmisches psychomotorische Musiktherapie. Yena, 2004.-112 p.
2. Glassman A. H., Shapiro P.A., Depression and the course of coronary artery disease. Am J Psychiatry. 1998. – P. 4-11.
3. Gmott H.G. between Parent and Children. N.Y., 2003. P – 219.
4. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
5. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnosics. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
6. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
7. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
8. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
9. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
10. Olimov L.Y., M.B.Rasulova. O'smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiy psixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.

Kobilova Feruza Tolibovna

Doctorant of the Bukhara Psychology and Foreign Language Institute

THE ROLE OF PSYCHOLOGY AND CULTURE IN TEACHING COMMUNICATIVE SKILLS OF ENGLISH LANGUAGE FOR TEACHERS OF PRIMARY AND PRE SCHOOL TEACHERS

Abstract. Language is a means of expression. We express our feelings, emotions, thoughts, needs, desires etc. in words, symbols and gesture which is considered as language. Language can be defined as verbal, physical, biologically innate, and a basic form of communication. Culture is the characteristics of a particular group of people, defined by everything from language, religion, cuisine, social habits, music and arts. Thus culture finds its expression in language; so, learning a new language without familiarity with its culture remains incomplete. An important question arises here, is it necessary to learn about the culture of the target language to acquire English as a foreign or second language? There are great discussions by many scholars and researchers on this topic for decades. This article aims at defining culture, its relationship with language and what role it plays in teaching and learning English as a foreign or second language. This also shed light on how to teach culture in English language classroom.

Key words: language, culture, English as a foreign language (EFL)

РОЛЬ ПСИХОЛОГИИ И КУЛЬТУРЫ В ОБУЧЕНИИ КОММУНИКАТИВНЫМ НАВЫКАМ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ И ВОСПИТАТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация. Язык – это средство выражения. Мы выражаем наши чувства, эмоции, мысли, потребности, желания и т. д. словами, символами и жестами, которые считаются языком. Язык можно определить как вербальный, физический, биологически врожденный и базовую форму общения. Культура – это характеристики определенной группы людей, определяемые всем: от языка, религии, кухни, социальных привычек, музыки и искусства. Таким образом, культура находит свое выражение в языке; Итак, изучение нового языка без знакомства с его культурой остается незавершенным. Здесь возникает важный вопрос: необходимо ли изучать культуру изучаемого языка, чтобы освоить английский как иностранный или второй язык? Многие ученые и исследователи ведут большие дискуссии по этой теме на протяжении десятилетий. Целью этой статьи является определение культуры, ее взаимоотношений с языком и роли, которую она играет в преподавании и изучении английского языка как иностранного или второго языка. Это также пролило свет на то, как преподавать культуру в классе английского языка.

Ключевые слова: язык, культура, английский как иностранный (EFL).

BOSHLANGICH VA MAKTABGA TANISH O'QITUVCHILARI UCHUN INGLIZ TILINI KOMMUNIKATIV MAKORATLARINI O'QITISHDA PSIXOLOGIYA VA MADANIYATNING O'RNI

Annotatsiya. Til ifoda vositasidir. Biz his-tuyg'ularimiz, his-tuyg'ularimiz, fikrlarimiz, ehtiyojlarimiz, istaklarimiz va boshqalarni ifodalaymiz. d. til hisoblangan so'zlar, belgilar va imo-ishoralar. Tilni og'zaki, jismoniy, biologik tug'ma va asosiy aloqa shakli sifatida aniqlash mumkin. Madaniyat - bu har bir narsa bilan belgilanadigan ma'lum bir guruh odamlarning xususiyatlari: til, din, oshxona, ijtimoiy odatlar, musiqa va san'at. Shunday qilib, madaniyat tilda o'z ifodasini topadi; Shunday qilib, yangi tilni uning madaniyatini bilmasdan o'rganish to'liq bo'lib qolmoqda. Bu erda muhim savol tug'iladi: ingliz tilini xorijiy yoki ikkinchi til sifatida o'rganish uchun maqsadli til madaniyatini o'rganish kerakmi? Ko'pgina olimlar va tadqiqotchilar o'nlab yillar davomida ushbu mavzu bo'yicha keng qamrovli munozaralar olib borishmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi madaniyat, uning til bilan aloqasi va ingliz tilini chet yoki ikkinchi til sifatida o'rgatish va o'rganishdagi rolini aniqlashdir. Shuningdek, u ingliz tili sinfida madaniyatni qanday o'rgatish kerakligiga ham oydinlik kiritadi.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, ingliz tili chet tili sifatida (EFL)

1. Introduction

Currently, English is the most widely spoken language in the world. Due to its spread, starting with the colonization period and continuing with the economic and political power of the U.S.A., it has been used for different purposes around the world such as

education, commerce, tourism, and science. People all around the world continue to learn English to reach their different aims. A critical question arises in terms of English language teaching at this point, that is, whether to teach 'culture' along with English or not.

The question of teaching 'culture' along with English has been discussed by some scholars from the fields of applied linguistics and sociolinguistics for nearly two decades. There are four views regarding the issue. The first one states that 'target language culture

should be taught along with English to acculturate language learners into the cultures of English speaking countries (Byram, 1990; Byram&Flemming, 1998). The second view states that there should not be any teaching of the 'target language culture' together with English in the countries where English is an institutionalized variety (Kachru, 1985, 1986; Kachru& Nelson, 1996; Canagarajah, 1999). Other two views also reject the idea of teaching 'target language culture' along with English. However, while one of the views supports the teaching of 'local culture' in English language teaching (Kramsch& Sullivan, 1996; McKay, 2003), the other view holds the position that English has become a lingua franca and it should be taught in a culture-free context (Alptekin, 2005; Jenkins, 1996, 2000, 2002,2005; Seidlhofer, 2001).

2. Culture

The word culture has many different meanings. For some it refers to an appreciation of good literature, music, art, and food. For a biologist, it is likely to be a colony of bacteria or other microorganisms growing in a nutrient medium in a laboratory Petri dish. However, for anthropologists and other behavioral scientists, culture is the full range of learned human behavior patterns. The term was first used in this way by the pioneer English Anthropologist Edward B. Tylor in his book, *Primitive Culture*, published in 1871. Tylor said that culture is "that complex whole which includes knowledge, belief, art, law, morals, custom, and any other capabilities and habits acquired by man as a member of society." Of course, it is not limited to men. Women possess and create it as well. Since Tylor's time, the concept of culture has become the central focus of anthropology. Culture is a powerful human tool for survival, but it is a fragile phenomenon. It is constantly changing and easily lost because it exists only in our minds. Our written languages, governments, buildings, and other man-made things are merely the products of culture. They are not culture in themselves. For this reason, archaeologists can not dig up culture directly in their excavations. The broken pots and other artifacts of ancient people that they uncover are only material remains that reflect cultural patterns--they are things that were made and used through cultural knowledge and skills. In other words, Culture is the characteristics of a particular group of people, defined by everything from language, religion, cuisine, social habits, music and arts. Cultures are what make countries unique. Each country has different cultural activities and cultural rituals. Culture is more than just material goods, that is things the culture uses and produces. Culture is also the beliefs and values of the people in that culture. Culture also includes the way people think about and understand the world and their own lives. Culture can also vary within a region, society or sub group. A workplace may have a specific culture that sets it apart from similar workplaces. A region of a country may have a different culture than the rest of the country. For example, Canada's east coast Maritime region has a different culture than the rest of Canada, which is expressed by different ways of talking, different types of music, and different types of dances. A family may have a specific set of values, because of this people every time follow their religion to have or find new culture.

3. Importance of environment in language teaching

According to Wei (2005:56), language has a dual character: both as a means of communication and a carrier of culture. Language without culture is unthinkable, so is human culture without language. A particular language is a mirror of a particular culture. Brown (1994:165) describes the relation between language and culture as follows: 'A language is a part of a culture and a culture is a part of a language; the two are intricately interwoven so that one cannot separate the two without losing the significance of either language or culture'. In a word, culture and language are inseparable (cited in Jiang, 2000: 328). When it comes to the realm of teaching and learning, as Gao (2006) presents it, the interdependence of language learning and cultural learning is so evident that one can conclude that language learning is culture learning and consequently, language teaching is cultural teaching (p.59). Gao further states that foreign language teachers should be aware of the place of cultural studies in foreign language classroom and attempt to enhance students' cultural awareness and improve their communication competence. Wang (2008), likewise, asserts that 'foreign language teaching is foreign culture teaching, and foreign language teachers are foreign culture teachers'. According to Tomalin (2008), the international role of the English language and globalization are the two main reasons to teach culture as a fifth language skill, in addition to listening, speaking, reading and writing. 'What the fifth language skill teaches you is the mindset and technique to adapt your use of English to learn about, understand and appreciate the values, ways of doing things and

unique qualities of other cultures. It involves understanding how to use language to accept differences, to be flexible and tolerant of ways of doing things which might be different to yours. It is an attitudinal change that is expressed through the use of language.' Tomalin (2008) further argues that teaching of culture in ELT should include cultural knowledge (knowledge of culture's institution, the big C), cultural values (the 'psyche' of the country, what people think is important), cultural behaviour (knowledge of daily routines and behaviour, the little c), and cultural skills

Methods

Methods of work is the identification and description of the features of teaching English to young children, the definition of methods that allow the development of constructive interaction between teachers and students, as well as the development of lesson plans. [4;58]. The set goal revealed the solution of the following tasks:

1. Consider the specifics of teaching young children a foreign language;
2. Describe the features of early learning of a foreign language;
3. Consider the peculiarities of organizing foreign language classes with young children;
4. Analyze practical recommendations for teaching young children a foreign language;
5. Consider the content of teaching a foreign language;
6. Consider phonetic games for young children as one of the ways to learn a foreign language;
7. Development of guidelines for conducting classes with preschool children.
8. Conduct an experiment with the introduction of guidelines in the educational process.

The subject of the study is the use of guidelines in teaching preschool children

The theoretical significance lies in the fact that this study provides material for further theoretical generalizations, contributes to the development of such theoretical gaps as the interaction of language and thinking, the role of language in explication and formation of a picture of the world.

The practical significance lies in the possibility of using the work in the further study of this topic, as well as in conducting classes on the methods of teaching and upbringing, as well as in conducting foreign language lessons with young children.

The relevance of early learning a foreign language is determined by the needs of society. [6;58]. Teaching a foreign language to children of primary preschool age creates excellent opportunities for mastering a foreign language. Nowadays, a foreign language is a ubiquitous practice based on modern and effective technologies of teaching a foreign language, taking into account a personality oriented methodology, age characteristics of young children [7;60].

The goal of teaching young children a foreign language is to develop interest in learning, knowledge of the world around, relationships and cultures on the basis of mastering a foreign language. [8;222].

Early learning of a foreign language predetermines the following tasks:

1. Formation and development of foreign language phonetic skills (while the vocal apparatus is flexible and the mechanisms of mastering native speech are still functioning, these skills are easy to learn, so it is important to be on time);[9;1618].
2. Development of listening skills (listening comprehension);
3. Development of speaking skills (that is, the formation of a child's idea of a foreign language as a means of communication);
4. Formation and replenishment of the vocabulary [10;27].

It is important to note that the correct organization of teaching a foreign language plays an important role. Optimally organized activity at an early age (visual, constructive, labor, play, and also associated with the implementation of regime elements) should be used in the formation of foreign language skills in children. Each type of activity provides, in turn, great opportunities for mastering specific groups of words, which further provides the formation of oral and speech skills, provides children with the opportunity to communicate at an elementary level using the language being studied and make them feel their own successes [10;94] ...

The main factors affecting the development of the personality of a preschooler.[12].

The main factors are:

1. Heredity is the transmission of certain qualities and abilities from parents to children. The carrier is genes that provide a hereditary program for human development. Some scientists, including N.M. Amosov, P.K. Anokhin., K. Lorentz, can be inherited not only the anatomical and physiological characteristics of the body, but also intellectual, moral qualities, as well as the child's predisposition to aggressiveness and cruelty.[3].

2. Wednesday.

The environment can be considered both the natural conditions, the state system, the material conditions of life, and the immediate objective and human environment of the child. Also, in preschool pedagogy, the concept of "developing environment" is used - a set of pedagogical, psychological and socio-cultural conditions for building the pedagogical process [4;94].

3. Education - efficiency depends on the child's readiness for pedagogical influence.

Until the age of five, the child masters his native language. And the main thing is not only that he thinks in his native language, expresses his thoughts in it, understands others and learns, but in the meaning of the native language for personal development. After all, behind this there is a bottomless, unconscious depth -the child absorbs the native language from the mother's lips, on it - the first words to her, on it - the first words to him, on it - the first emotions and feelings. And in the words of the native language - everything, everything that is for the first time in my life! [15;].

Konstantin Dmitrievich Ushinsky wrote on this occasion: "By assimilating the native language, the child learns a lot of concepts, views on objects, a lot of thoughts, feelings, artistic images, logic and philosophy of language. [16]. Taking language for the organic creation of folk thought and feeling, in which the result is expressed of the spiritual life of peoples, we, of course, will understand why a special character is expressed in the language of each nation ... and the deeper we are in the language of the people, the

deeper we entered its character "[17]. This means that with the native language, the child perceives the peculiarities of national self-awareness, and, forming as a person, by strong, although invisible threads, turns out to be connected with age-old folk traditions and culture [18]. He understands not only speech in all its nuances, in all its meaning, he understands those around him, life itself through the enduring value of community with the people as a native speaker [19]. It is unacceptable to endanger this most important stage in the formation of a personality by premature teaching a foreign language. It should be noted that KD

Ushinsky also suggested starting teaching a second language at the age of seven or eight [2].

So what can you do to make your child willingly learn a foreign language? Young children have a need for play, therefore, a foreign language can be mastered by them only in play [2].

The child has mastered his native language in communication with parents, peers, and he will master a foreign language, not one-on-one with a teacher, but in communication with relatives and peers.

Father in conversation with him uses a foreign language, he plays with peers, or with a group of peers using foreign words and phrases. It is very good if a sister or brother is learning a foreign language. Then there is a motive - to imitate the senior authority.

Then communication in a foreign language is also possible [2]. It is very good if the child looks at children's illustrated books in foreign languages together with his mother and the mother is able to translate what is written in them, explain using words and phrases in these languages. The same goes for transparencies. [3].The child learns that there are English, German, French, Spanish, but there are also English, German, French, Spanish peoples, and there are also children for whom these languages are native, and you can meet and play with these children. In the past decade, it has become a real factor of the computer, when in a computer game, he meets foreign speech [4].

The readiness to learn a foreign language comes by the age of five. The teaching methodology should take into account the age and individual characteristics of the child, as well as his linguistic abilities. Training should be aimed at their development.

Literature.

1. Hughes A. (2003), Testing for Language Teaching. Cambridge. Cambridge University Press.
2. Paul, J.Black (1998), Testing: Friend or Foe? The Theory and Practice of Assessment and Testin. RoutledgeFalmer: London and NY Tylor and Francis Group.
3. Council of Europe. (2001), Common European Framework of Reference for languages: Learning, teaching, assessment. Cambridge University Press, Language Testing Handbook UET team

Muxtorov Erkin Mustafoyevich

Buxoro davlat pedagogika instituti "O'quv ishlari bo'yicha prorektor" psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

VRACH KASBIY MAHORATI DARAJALARINI BAHOLASHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Jamiyatda yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash, barcha mutaxassislarda (xususan vrachlarda) kasbiy malakani darajalash, baholash va rivojlantirishning emperik-psixologik asoslarini ishlab chiqish hamda ijtimoiy taraqqiyot yo'lida ularni ishlatishdan manfaatdorlik ko'lami tizimli shaklda yoritildi.

Shuningdek, tadqiqotimiz davomida amaliyotchi vrachlarning kasbiy mahorati bilan ularning kasbiy motivatsiyasi qachon shakllana boshlagani o'rtasida ham muayyan bog'lanish borligi aniqlandi va bu jadval asosida ko'rsatib berildi.

Psixologiyada mavjud nevrotik reaksiya tushunchasiga to'xtalib, bugungi kunda nevrotik shaxslar bilan ishlashning dolzarbligi yuzasidan nazariy xulosalar keltirildi hamda muvaffaqiyatning har doim ikki tomoni individual (shaxsiy) va hissiy tomonlari haqidagi qarashlar ilmiy tahlillar asosida ochib berildi.

Kalit so'zlar: diledantlik, gipertrofiya, stereotip, motivatsiya, tibbiy personal, rentgenolog, anesteziolog, laborant.

ОЦЕНКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО УРОВНЯ ВРАЧА ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА

Абстрактный. В данной научно-исследовательской работе объем заинтересованности в подготовке кадров с высокой профессиональной квалификацией в обществе, разработке эмпирико-психологических основ нивелирования, оценки и развития профессиональной квалификации всех специалистов (особенно врачей) и их использовании в вопросы социального развития рассматривались систематически.

Также в ходе нашего исследования было установлено, что существует определенная связь между профессиональными навыками практикующих врачей и временем начала формирования их профессиональной мотивации, что показано на основании таблицы.

Затрагивая понятие невротических реакций в психологии, сделаны теоретические выводы относительно актуальности работы с невротическими личностями в наши дни, а также на основе научного анализа выявлены взгляды на индивидуальную (личностную) и эмоциональную стороны успеха.

Ключевые слова: дилетантизм, гипертрофия, стереотип, мотивация, медицинский персонал, врач-рентгенолог, анестезиолог, лаборант.

ASSESS PHYSICIAN PROFESSIONAL LEVELS PSYCHOLOGICAL BASIS

Abstract. In this research work, the scope of interest in the training of personnel with high professional skills in the society, development of empiric-psychological bases of leveling, evaluation and development of professional qualifications of all specialists (especially doctors) and their use in the way of social development was covered in a systematic way.

Also, during our research, it was determined that there is a certain connection between the professional skills of practicing doctors and when their professional motivation began to form, and this was shown on the basis of the table.

Touching on the concept of neurotic reactions in psychology, theoretical conclusions were made regarding the relevance of working with neurotic individuals today, and views about the individual (personal) and emotional sides of success were revealed based on scientific analysis.

Key words: dilettantism, hypertrophy, stereotype, motivation, medical personnel, radiologist, anesthesiologist, laboratory assistant.

Kirish. Kasbiy mahorat turli daraja va bosqichlarda namoyon bo'ladi. Bunday bosqichlar jumlasiga diletantlik (kasbiy bilimlar, uquv va malakalarning yuzakiligi)dan to'qat'iy kasbiy stereotiplar (kasbiy mahoratning gipertrofiyalashuvi)gacha bo'lgan darajalar kiradi.

Kasbiy faoliyatning samaradorligini oshirish har qanday davr, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya va har qanday tamaddun uchun zarur bo'lgan hodisadir. Kasbiy mahoratning o'sishi muammosini hal qilish muvaffaqiyat, faoliyatning muvaffaqiyatligi, muvaffaqiyat vaziyati, kasbiy muvaffaqiyat kabi tushunchalarning psixologik mazmunini aniqlab olish bilan bog'liq. Sanab o'tilgan tushunchalar barcha kasblar, jumladan, vrachlik kasbi uchun ham xosdir.

Metodlar. Tadqiqot jarayonida nazariy-deduktiv, analiz-sintez, komparativistik, komparativistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Natijalar. Mulohaza. Har qanday faoliyatni, jumladan, vrach faoliyatini muayyan mezonlar bilan qiyoslab ko'rilsa, ularni muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz deb baholash mumkin. Bunday mezonlar konkret yoki mavhum, umumiy yoki xususiy bo'lishi mumkin. Oddiy hollarda mezonlar oddiy muqobillardan, masalan, «hal qildi – hal qila olmadi», «uddaladi – uddalay olmadi» kabilardan iborat bo'ladi. Faoliyatning rivojlangan bosqichida mazkur mezonlar differensiyalashadi va murakkablashadi.

Praksiologiyaning asoschisi bo'lgan T. Kotarbinskiy faoliyatning muvaffaqiyatligini foydalilik, aniqlik va mohirlik darajalari kabi mezonlar yordamida belgilaydi. Motivatsiya to'g'risidagi hozirgi zamon nazariyalariga ko'ra har qanday shaxs muvaffaqiyatga intiladi, unga erishishni orzu qiladi va ayni paytda, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqadi va undan qochishga intiladi. Muvaffaqiyatsizlikning zarari shundaki, u jazoga sabab bo'lishi, shaxsning o'ziga beradigan bahosi va ijtimoiy mavqeini pasaytirishi va shular bilan bog'liq salbiy his-tuyg'ularga olib kelishi mumkin. Muvaffaqiyatga esa, odamlar unga erishish ijobiy emotsiyalar, maqtovlar, mukofotlar keltirishi uchun intiladi.

Vrachlar faoliyati motivatsiyasini o'rganish bo'yicha ham mamlakatimizda ba'zi ishlar amalga oshirilgan. Jumladan G.D. Qo'ldoshevaning "Talabalar o'quv motivatsiyasini belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillar" deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasi mazkur mavzuga bag'ishlangan bo'lib, unda tibbiyot oliygohlari talabalarining o'quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyasi tadqiq etilgan. Tibbiyot oliygohlari talabalarining o'quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyasi bilan vrachning o'z kasbiy faoliyatiga nisbatan motivatsiyasi o'rtasida bir qator umumiyliklar bilan birga tafovutlar ham mavjud. Talabaning muvaffaqiyatli o'qishi bilan vrachning kasbiy faoliyatda qo'lga kiritgan yutuqlari o'zaro hamohang bo'lsa ham, talaba faoliyatidagi muvaffaqiyati unga asosan ma'naviy foyda keltiradi, vrachning muvaffaqiyati esa unga ham ma'naviy, ham moddiy foyda keltirishi mumkin.

Amaliyotchi vrachlarning kasbiy mahorati va kasbiy motivatsiyasi shakllana boshlagan davr o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik (n=56)

Vrachlik kasbiga qiziqishning boshlanishi	Kasbiy mahorat darajalari			Jami
	yuqori n=26	o'rta n=18	quyi n=12	
Bolaligingizda "vrach-bemor" o'yini o'ynaganmisiz	8	9	2	26
Qiziqishim boshlang'ich sinflarda paydo bo'lgan	9	4	3	12
Qiziqishim yuqori sinflarda boshlangan	6	3	3	9
Tibbiyot oliygohiga ota-onam(do'stlarim) maslahati bilan kirganman	3	2	4	9

Tadqiqotimiz davomida amaliyotchi vrachlarning kasbiy mahorati bilan ularning kasbiy motivatsiyasi qachon shakllana boshlagani o'rtasida ham muayyan bog'lanish borligi aniqlandi.

Jadvaldan ko'rinadiki, vrachlik mahoratining yuksak darajalariga erishgan vrachlarning ko'pchiligida kasbga qiziqish bolalikda yoki boshlang'ich sinflarda paydo bo'lganini ham e'tirof etish kerak. Shu bilan birga, vrachlik mahoratining yuksak darajalariga erisha olmagan vrachlarning aksariyati tibbiyot oliygohiga ota-onasining maslahati bilan kirgani yoki kasbga qiziqishi yuqori sinflarda boshlangani ham haqiqat ekan.

Muvaffaqiyat har doim ikki tomonga ega. Birinchi tomon, individual, shaxsiy tomon bo'lib, quvonchni his qilish bilan bog'liq. Ikkinchi tomon, boshqalar tomonidan shaxsning yutug'iga berilgan baho bilan bog'liq bo'lib, u atrofda tilarning jamoa yoki guruh a'zosi muvaffaqiyatiga bo'lgan munosabatini ifodalaydi.

Lekin, boshqa jamoalardan farqli ravishda tibbiy jamoalarda vrachning muvaffaqiyati faqat bir shaxsning muvaffaqiyati emas, hech bo'lmaganda, ikki shaxs: vrach va bemorning muvaffaqiyati hisoblanadi. Bundan tashqari, mazkur muvaffaqiyatga yordamchi tibbiy personal: hamshiralalar, rentgenolog, anesteziolog, laborantlar va boshqa bir qator shaxslar ham hissa qo'shgan bo'ladi. Shuning uchun aytilish mumkinki, tibbiyot muassasalarida hasadgo'ylar boshqa muassasalarga nisbatan ancha kam uchrashi tabiiy hol hisoblanishi lozim.

Ijoiy motivatsiya muvaffaqiyatga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, inson uchun ahamiyatli bo'lgan muvaffaqiyatga erisholmaslik shu qadar kuchli, salbiy tuyg'ularni keltirib chiqaradi.

Shaxsning kasbiy muvaffaqiyatga intilishining bir necha mezonlarini ko'rsatish mumkin. Birinchidan, muvaffaqiyat aniq natijalarga qarab baholanishi mumkin. (Bunga ishlab topilgan pul mablag'lari, qilingan ixtirolar, olingan mukofotlar, yaratilgan ne'matlar kabilarni misol qilish mumkin). Vrachning muvaffaqiyati esa, jamiyatdagi eng oliy qadriyat hisoblanadigan inson va uning salomatligi bilan bog'liq. Mamlakatimizda demokratik islohotlarning amalga oshirilishi ayni paytda inson, uning salomatligi qadri ortib borishi bilan uzviy bog'liq tarzda kechmoqda. Bunga keyingi qator yillar davomida mamlakatimizda davlat budjetining yarmidan ortiq qismi ijtimoiy sohalarga sarflanayotgani, tibbiyot sohasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, yuzlab qishloq vrachlik punktlarining qurilishi va ishga tushirilishi kabi misollar asosida ishonch hosil qilish mumkin. Bundan tashqari, 2023-yilning mamlakatimizda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" deb e'lon qilingani ham mazkur fikrni tasdiqlaydi. Chunki "inson qadri" tushunchasi birinchi navbatda "inson salomatligi" tushunchasini ham qamrab oladi.

Ikkinchidan, muvaffaqiyat sarf qilingan kuch va mablag'ga nisbatan baholanishi mumkin. Ayni bir xil muvaffaqiyatga turli mutaxassislar turli darajada kuch va mablag' sarflab erishishi mumkin. Muvaffaqiyatga katta kuch va ko'p vaqt hamda mablag' sarflab erishilsa, bunday muvaffaqiyat unchalik yuqori baholanmasligi mumkin. Bundan ko'rinadiki, muvaffaqiyatning ijobiy bahosi unga erishish uchun sarflangan kuch, vaqt hamda mablag' miqdoriga teskari proporsionaldir. Biroq, vrachning muvaffaqiyati bunday qoidadan istisno deyish mumkin. Chunki, qancha kuch va vaqt sarflamasin, vrachning muvaffaqiyati baribir yuqori baholanadi. Chunki, uning muvaffaqiyati oliy qadriyat bo'lgan insonning salomatligi va uni saqlash bilan bog'liq.

Vrach kasbiy muvaffaqiyatga erishish, ya'ni bemorni muvaffaqiyatli davolash uchun vijdon, hayo, hurmatidan voz kechishi talab etilmaydi (vrachning mansab uchun intilishi bundan mustasno).

Psixologiyada muvaffaqiyatga nisbatan nevrotik reaksiyalar ham tahlil qilinadi. Nevrotik shaxslar soxta maqsadlar, sarob qadriyatlar orqasidan quvar ekan, har doim qayergadir kechikadi. Nevrotik sportchi uchun yonida yugurayotgan odam musobaqadosh emas, dushman hisoblanadi. Shuni ham e'tirof etish kerakki, nevrotik shaxslarning o'zini ayamasdan, oldinga intilishi tufayli jamiyat ham oldinga siljiydi, yangi texnologiyalar, yangi ixtirolar kashf qilinadi.

Muvaffaqiyat vaziyati muvaffaqiyatdan farq qiladi. Mazkur tushuncha muvaffaqiyatni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlar yig'indisidir.

Shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchi uni vaziyatdan yuqoriroqqa ko'tarilishi va ob'ektiv qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun kuch bag'ishlashi mumkin. Psixologiyadan ma'lumki, muvaffaqiyat ham muvaffaqiyatsizlik ham insonda stress holatini keltirib chiqaradi. Lekin, muvaffaqiyat qanchalik qiyinchilik bilan qo'lga kiritilsa ham, u juda kam salbiy iz qoldiradi. U. G. Sele aytganiday, stress keltirib chiqaradi, lekin distressga olib kelmaydi. Insonni muvaffaqiyat keltirgan stress emas, muvaffaqiyatsizlik olib kelgan distress charchatadi va kuchdan ketkazadi. Ayniqsa, muvaffaqiyatga erishay deb turganda, muvaffaqiyatsizlikka uchrash odamga kuchliroq ta'sir qiladi. Bunday holat ruhiy yoki somatik kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Psixologiya fanida kasbiy mahoratning bir necha darajalari farqlanadi. Masalan, M.D. Ustyujnikov kasbiy mahoratning "nominal", "potensial", "istiqbolli", "optimal" darajalarini farqlaydi.

V.A. Bodrov kasbiy mahoratning "dastlabki", "asosiy", "ijodiy" darajalarini farqlaydi.

Xulosa va tavsiyalar. Yuqoridagi nazariy tahlillardan ko'rinib turibdiki, psixologlar tomonidan hanuzgacha vrach kasbiy mahorati atroflicha va to'liq o'rganilmaganligi kuzatildi. Shunday qilib, yuqoridagi tadqiqotlarning tahlili, birinchidan, umumiy tarzda, ilmiy-nazariy jihatdan kasbiy mahoratga tarif berish imkonini bersa, ikkinchidan, tadqiqot maqsadiga mos vrach kasbiy mahoratining psixodlogik mezonlarini ishlab chiqish va uni amaliyotda qo'llash uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Demak, mazkur ilmiy mulohazalarni umumlashtiradigan bo'lsak, bugungi kunda kasbiy mahoratni o'rganilishi va tadqiq etilishi kasbiy psixologiyaning nihoyatda dolzarb yo'nalishlaridan biri ekanligini yana bir bor e'tirof etishimiz mumkin. Mana shu holatdan xulosa qilib aytilish mumkinki, yoshlarni kasbiy



yo'naltirish bo'yicha tadbirlar qanchalik erta o'tkazilsa, ularning kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishish imkoniyati shuncha baland bo'ladi. Ma'lumki, qiziqishlarning ong ostida mavjudligi shaxsni shu yo'nalishda izlanish va mehnat qilishga shunchalik kuchli undaydi. Bunday shaxslarda ko'pincha masalaning moddiy jihati ikkinchi o'ringa o'tib qolishi ham mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Абрамова Г.С., Юдчиц Ю.А. Психология в медицине: Учебное пособие.–М.: “Кафедра-М”, 2008.
2. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – СПб.: Питер, 2010.–512 с.
3. Попов А.С., Кондратьев В.Г. Очерки методологии врачебного мышления. – Л.: “Медицина”, 2002.–С.22-30.
4. Андронов В.П. Профессиональное мышление врача и возможности его формирования. Психологическая наука и образование, 1999. –№2. – С.33
5. Собирова Д.А. Тиббиёт ходимлари касбий компетентлигининг психологик асослари. Монография – Бухоро. “Дурдона” 2020 – 248 б.

Nazarov Azamat

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Din psixologiyasi va pedagogika" kafedrasida dotsenti
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

QAROR QABUL QILISH BOSHQARUV SUBYEKTINING MUHIM KOMPETENSIYASI SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishning tashkiliy va ijtimoiy-psixologik jihatlari aniqlangan. Boshqaruv qarori konsepsiyasining mohiyati, uning asosiy xususiyatlari va amalga oshirish bosqichlari ochib beriladi. Boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish jarayonida menejning shaxsiy fazilatlari va ishbilarmonlik xatti-harakatlari xususiyatlarining ahamiyati asoslari berilgan. Menejning tashkiliy va ijtimoiy-psixologik jihatlari menejning kadrlarni boshqarish mexanizmlari, shaxsning xulq-atvoriga ta'sir etuvchi vositalarning ishlashi, bo'ysunuvchilarning mehnat faoliyatini tartibga solish va tashkil etish to'g'risidagi bilimlarini tashkil etishi isbotlangan.

Kalit so'zlar: shaxs, personal, menejer, shaxsning individual xususiyatlari, menejment, qaror qabul qilish, boshqaruv qarorlari, ongli tanlov, determinizm, indeterminizm.

ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ – ВАЖНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ СУБЪЕКТА УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация. В статье определены организационные и социально-психологические аспекты выработки управленческих решений. Разъясняется суть концепции управленческого решения, его основные особенности и этапы реализации. В процессе выработки управленческих решений излагаются основы важности личных качеств руководителя и особенности делового поведения. Доказано, что организационные и социально-психологические аспекты управления позволяют организовать знание менеджером механизмов управления персоналом, действие средств, влияющих на поведение личности, регулирование и организацию трудовой деятельности подчиненных.

Ключевые слова: личность, персонал, менеджер, индивидуальные особенности личности, принятие решений, управленческие решения, осознанный выбор, детерминизм, индетерминизм.

DECISION MAKING IS AN IMPORTANT COMPETENCY OF A MANAGEMENT SUBJECT

Abstract. The article defines the organizational and socio-psychological aspects of the development of managerial decisions. The essence of the concept of a management solution, its main features and stages of implementation are explained. In the process of developing management decisions, the basics of the importance of the personal qualities of a leader and the features of business behavior are set out. It is proved that the organizational and socio-psychological aspects of management make it possible to organize the manager's knowledge of the personnel management mechanisms, the action of the means that affect the behavior of the individual, the regulation and organization of the labor activity of subordinates.

Key words: personality, staff, manager, individual personality traits, making decisions, conscious choice, determinism, indeterminism.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda ro'y berayotgan ijtimoiy hodisalar insoniyat tafakkurida o'z aksini topadi. Fan ham ijtimoiy ong shakli sifatida o'z zamonasiga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Shu ma'noda hozirgi zamon psixologiya fani rivojida keskin burilishlar sodir bo'lmoqda. Muayyan davrgacha nazariy masalalarga asosiy e'tiborni qaratib kelgan psixologiya bugungi kunda qator amaliy vazifalarni hal etish sari qadam qo'ydi. Bunday vazifalar, oxir oqibat insoniyat manfaati odamlarga qulayliklar yaratish yo'lidagi xayrli ishlarni amalga oshirish bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasining bugungi tarixi demokratik davlatni shakllantirishga asoslangan. Mamlakat ijtimoiy hayotining barcha sohalarida demokratik islohotlarni talab etadigan jarayonda xalqning ana shu muhim jarayonda faol ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida, iqtisodiy munosabatlar, mulkchilikning yangi shakli vujudga kelgan vaqtda boshqaruv tizimini o'z milliy taraqqiyotiga mos ravishda o'zgartirib kelmoqda. "Boshqaruv tizimining samaradorligini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, qarorlarni tayyorlash va qabul qilish sifatini sezilarli darajada oshirish, ularning ijrosi ustidan nazoratning ta'sirchan mexanizmini joriy etish" boshqaruv tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishi deb tan olindi.

Zamonaviy boshqaruvda qarorlarini to'g'ri tayyorlash va qabul qilish ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-psixologik va iqtisodiy hayotning barcha sohalarida boshqaruv samaradorligiga erishish ikoniyatini yaratadi.

Boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayoni yuqori malaka va amaliy ish tajribasini talab qiluvchi mehnat faoliyatining alohida turidir. Odatda, boshqaruv qarorlari qabul qilish biron-bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, ma'lum qoida, aniq harakatlar doirasida amalga oshiriladi.

Davlat boshqaruvi sohasida qaror qabul qilish jarayoni demokratik negizini tadqiq etishning dolzarbligi qator obyektiv sabablar bilan bog'liq:

Birinchidan, respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarda davlatning bosh islohotchilik rolini e'tiborga olgan holda davlat boshqaruvi sohasida qabul qilinayotgan qarorlarni izchil o'rganish - davr talabi ekanligi.

Ikkinchidan, davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan boshqaruv qarorlari qabul qilish bugun hayotiy zaruriyatga aylanmokeda.

Uchinchidan, mustaqillik davrida mamlakatimizda qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlari mohiyatini tahlil etish O'zbekistonda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-psixologik jarayonlarning mazmun-mohiyatini tushunish va istiqbolli yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi.

To'rtinchidan, aholining qarorlar qabul qilish jarayonidan xabardorligi, ular tomonidan nazorat qilinishi, ularning boshqaruvdagi ishtiroki kelgusida hamjamiyat oldida javobgarlik hissini uyg'otishga zamin yaratadi.

Islohotlarni samarali amalga oshirishda dunyo fanlarining yutuqlari, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi bilan bir qatorda milliy boshqaruv an'alaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Xoh strategik islohotlar bo'lsin, xoh kundalik faoliyatda qabul qilinayotgan qarorlar bo'lsin, ularni samarali amalga oshirish, kutilayotgan, aniqrog'i, rejalashtirilayotgan natijalarga aniq va ravshan erishishning zamini ushbu qarorlar tayyorlanayotgan vaqtda ularga e'tiborni talab qiladi. Puxta o'ylangan, vaziyat rivojlanishi oldindan har tomonlama tahlildan utgan holda qabul qilingan qarorlar ko'zlangan natijaga erishishda yo'lning yarmini o'tish desa bo'ladi. Ya'ni, to'g'ri qaror qabul qilish maqsadga erishish imkoniyatini kengaytiradi.

Darhaqiqat, shu o'rinda soxibqiron Amir Temurning so'zlarini eslash o'rinli: «Ishlarimning barini kengash bilan yurgizib, uni bitirishda to'g'ri tadbir qo'llar edim. Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo'llarini mo'ljallab qo'yar edim. Uni to'g'ri tadbir, qat'iy jazm, chinlik-chidamlilik ko'rsatib, ehtiyotkorlik bilan uzoqni ko'rib, ortini o'ylagan holda oxiriga yetkazardim». [1,2]

Ma'lumki, tashkilotni boshqarishning asosiy jihatlaridan biri, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ular ijrosini ta'minlashdir. Boshqaruv qarori tashkilotdagi biron obyektini ko'zlangan maqsadga muvofiq ravishda bir holatdan, ikkinchi holatga keltirish bilan ifodalanadi. Shuning uchun ham boshqaruv qarorlari tashkilotning istiqbolini, taraqqiyotini belgilovchi asosiy ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy omillardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy fan yo'nalishlarida boshqaruvda qaror qabul qilish, qabul qilingan qarorlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etishga harakat qilinmoqda.

Qaror qabul qilish jarayonining psixologik jihatini bilish mavjud bosqichlarni yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi. Gap shundaki, to'g'ri qaror qabul qilish va uni samarali ravishda joriy etish uchun rahbar psixologik jihatdan ham ma'lum amallarga rioya qilishi kerak. Bu tadbirning asosiy mazmuni shundan iboratki, rahbar muammoli vaziyat haqida ma'lumot yig'ar ekan, muammo haqida birlamchi tasavvur - informatsion model yarata boshlaydi. Bu modelning haqiqatga va mavjud vaziyatga qanchalik mosligi olinayotgan ma'lumotning to'la-to'kisligi, har tomonlamaligiga bog'liq.

Demak, yuqorida keltirilgan bu fikrlar birinchi navbatda qarorlar qabul qilishda inson omilining eng ustuvor ekanligini bildirsa, ikkinchidan, har bir insonni o'z ish faoliyatida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni hal etishda muhim qarorlarni qabul qilish orqali o'z ichki imkoniyatini, fikr qilish layoqatini aniqlash va bu borada zarur amallarni bajarish imkoniyatining yaratilishini ham bildiradi. Ta'kidlash mumkinki, mazkur mavzu doirasidagi tadqiqot ishimiz dolzarb ahamiyatga ega.

Boshqarishda qaror qabul qilish modellari, texnologiyalari va uning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hamda «Qarorlar qabul qilish» atamasi ilk bor XX asrning 30-yillarida Amerikalik olimlar Ch. Bernard, E. Stin va boshqalar tomonidan qo'llanilgan. Ular ijtimoiy va tashkiliy jarayonlarni nomarkazlashtirishni ta'riflashda ushbu atamadan foydalanishgan. XX asrning 60-yillarida mazkur nazariya G. Saymon va D. Marchlar tomonidan rivojlantirildi. Hozirgi kunda iqtisod, sotsiologiya, siyosatshunoslik, ijtimoiy psixologiya sohalarida ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish nazariyasi doirasida ushbu nazariyaning turli yo'nalishlari ishlab chiqilmoqda. [1,3,4,9]

Boshqaruv qarorlari qabul qilish masalasi, oqilona va samarali qonunlar qabul qilish hamda boshqa

hujjatlar tayyorlash jarayoni azal-azaldan olimlar e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Davlat boshqaruvi nazariyasining shakllanishiga Aflotun, Kautilya, Shan Yan kabi qadimgi mutafakkirlar ulkan hissa qo'shganlar. Lekin, aslida, ilk bor qarorlar qabul qilishning maxsus nazariyasini ishlab chiqqan mutafakkir – Arastu hisoblanadi. Aynan Arastu qarorlar qabul qilish jarayonini tavsiflovchi kategoriyalar majmuini ifodalab bergan va bu jarayonning nazariy asosini ishlab chiqqan. U o'z tahlilida «mulohazakorlik» (phronesis) va «ongli tanlov» (proairesis) tushunchalaridan kelib chiqqan. Arastu qarashlariga ko'ra, insonning tafakkur qilish qobiliyati ikki xil ko'rinishda: nazariy donishmandlik va amaliy mulohazakorlik shaklida namoyon bo'ladi. Shunga asosan, fundamental fanning asosini nazariy donishmandlik tashkil etsa, tatbiqiy bilimlar amaliy mulohazakorlikka tayanadi.

Ikkinchi asosiy tushuncha - «ongli tanlov» belgilangan maqsadga erishish yo'lini izlayotgan inson faoliyatining ixtiyoriy tabiati va noaniqligini o'zida ifoda etadi. Arastu ta'kidlaganidek, qarorlarda pirovard maqsadgina qamrab olinmaydi, balki, ko'proq shu maqsadni amalga oshirish vositalariga urg'u beriladi. Shunday qilib, Arastuga ko'ra, boshqaruv qarorlari qabul qilish tahliliy-amaliy faoliyat va tatbiqiy fan bo'lib, birinchidan, maqsadga muvofiq vositalarni oqilona va ongli tanlashga yo'naltirilgan; ikkinchidan, noaniqlik, ixtiyoriylik va erkin tanlov sharoitida maqsadga erishishning eng samarali yo'llarini topishga yo'naltiriladi.

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, davlat qarorlarini oqilona va maqsadga muvofiq ravishda qabul qilish masalasi uyg'onish davri mutafakkirlari (N.Makiavelli, J.Boden va boshqalar) va ma'rifatparvarlar (T.Gobbs, B.Spinoza, J.J.Russo va boshqalar) tomonidan izchil o'rganilgan. Jumladan, davlat qarorlarini turlarga ajratib, N.Makiavelli va T.Gobbs hukmdorlarning maslahatchilari va ularning maslahatlari haqida fikr yuritadi. B.Spinoza va J.J.Russo vakillik organlari hamda xalq yig'inlarida ovoz berishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi, J.Boden esa qaror qabul qilishda sotsial sharoitni hisobga olish zaruratiga tuxtaladi. Mazkur mualliflarning fikrlari hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. [11,12,13]

Qaror qabul qilish jarayonini psixologik tahlil etish masalasi, avvalambor, boshqaruvchi yoki ijrochining faoliyatini takomillashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shundan kelib chiqib, mazkur maqsadni amalga oshirish uchun rahbar va xodimga qo'yiladigan talablar, ularni bajarishga moyillik va qaror qabul qilish faoliyatida maqbul yo'lni tanlashni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy-psixologik va shaxs xususiyatlarini o'rganish zarurati tug'iladi.

Jahon fani boshqaruv qarorlari qabul qilish nazariyasi bilan bog'liq nufuzli ilmiy salohiyatga ega. Xususan, V.N. Spisnadelnig "Samarali qarorlar qabul qilish nazariyasi va amaliyoti", O.I.Larichevning qarorlar qabul qilish nazariyasi va uslublari» hamda E.A.Smirnovning «Boshqaruvga oid qarorlar» kitoblarida qaror qabul qilish jarayoniga oid nazariy fikrlar va amaliy ko'rsatmalar salmoqli o'rin egallagan.

A.I.Solovyovning «Siyosatshunoslik, siyosiy nazariya, siyosiy texnologiyalar», V.I.Knorrningning «Boshqaruv nazariyasi, amaliyoti va san'ati», D.P.Zerkin va V.G.Ignatovlarning «Davlat boshqaruvi nazariyasi asoslari», G.V.Pushkarevaning «Siyosiy menejment», mahalliy olimlarimizdan E.G'.G'oziev "Menejment psixologiyasi", I.Maxmudovni "Boshqaruv psixologiyasi", A.Nazarovning "Menejment va marketing psixologiyasi" nomli qo'llanmalarida boshqaruv sohasida boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayonining mohiyati va xususiyatlari ochib berilgan. [1,5,7,8]

Boshqaruv qarorlari esa boshqaruv jarayonida turli masalalar yuzasidan turli darajada xilma-xil mohiyat va mazmunga ega bo'lgan yakuniy xulosadir. Ya'ni boshqaruv qapoplari - rahbar tomonidan qabul qilingan, aniq natijaga erishish maqsadida belgilangan tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan hamda bajarilishi majburiy bo'lgan huquqiy hujjat. Boshqaruv qarorlari qaror, farmon, farmoyish, buyruk; va boshqa hujjatlar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'kidlash mumkinki, boshqaruvchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi rahbarlar shaxsiga xos bo'lgan individual-psixologik xususiyatlar ularning shaxslararo munosabatlar tizimiga, boshqaruvchilik faoliyati samaradorlik darajasining oshishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa. Boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayonining takomillashtirish istiqbollari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Davlat va jamiyat boshqaruvi demokratik tamoyillar, hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida rivojlangani sari boshqaruv qarorlari ushbu qonuniyatlarga mos tarzda ishlab chiqishini taqozo etadi, bu o'z o'rnida boshqaruv samaradorligiga erishish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, boshqaruv qarorlarining o'ziga xos jihatlarni aniqlash, uni takomillashtirish va bu sohada zamonaviy rahbar kadrlar tayyorlash, ularda oqilona boshqaruv qarori qabul qilishga doir ko'nikma va malakani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda quyidagi ijtimoiy-psixologik jihatlarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir, deb o'ylaymiz:

1. Qaror qabul qilish jarayonining psixologik jihatini bilish mavjud bosqichlarni yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi. To'g'ri qaror qabul qilish va uni samarali joriy etish uchun rahbar psixologik jihatdan ham muayyan mezonlarga rioya qilishi kerak.

2. Mamlakatimizning yangilanish bosqichida islohotlarni jadallashtirishga asos bo'la oladigan boshqaruv qarorlari qabul qilish yo'lidagi izlanishlar, tadqiqotlar, ilmiy tekshirish ishlarini (psixologik va pedagogik jihatdan ham ilmiy izlanishlarni) olib borishni yo'lga qo'yish lozim

3. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni nazariy bilimlarni ijodiy tasavvurga va oldindan ko'ra bilish qobiliyati bilan uyg'unlashtirib, tadbqiqiy texnologiyalarni amaliy ko'nikma va malakalar bilan mutanosibiligini ta'minlashni yo'lga qo'yish.

4. Tajriba va kuzatuv natijalarining ko'rsatishicha, boshqaruvchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning bir qismida hissiy omillarga tolerantlikning pastligi, o'ziga ishonmaslik, tez hayajonlanish, asabiylikka moyillik asab tizimi kuchsizlar ham uchrab turishligi kuzatildi. Bundaylarda o'z-o'ziga nisbatan ishonch, ijtimoiy va psixologik faollikni oshirish talab etiladi.

5. Qaror qabul qilish jarayonida o'rganilayotgan obyektlarga nisbatan rahbarlar kreativ ko'nikmalar, ya'ni bilimlarni bevosita borliqdan olish, nostandart vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodlarini tanlay bilishi qabul qilinayotgan qarorning muvaffaqiyatini ta'minlashda ishtirok etadi.

Adabiyotlar

1. Абдурахмонов У.Ф. ва бошқалар. Персонални бошқариш. -Т.: Шарк, 1998.
2. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т.: Шарк 2000, 72-90- бетлар.
3. Бирман Л. А. Управленческие решения. Учеб. пособие. -М.: Дело, 2008.
4. Вертакова Ю.В., Козьева И.А., Кузбожев Э.Н. Управленческие решения: разработка и выбор. - М.: Кнорус, 2009.
5. Ларичев О.И. Теория и методы принятия решений. Учебник. – М.: Логос, 2000.
6. Ломакин А.Л. Управленческие решения. -М.: Форум- Инфра, 2005.
7. Махмудов И. Бошқарув психологияси.-Т.:YUNAKS- PRINT, 2006.
8. Назаров А.С. Менежмент ва маркетинг психологияси.-Т.:Иннавазон-Зиё, 2020.
9. Назаров А. Психологические особенности руководителей, влияющие на принятие управленческих решений //Молодой ученый. – 2019. – №. 44. – С. 298-300.
- 10.Омонов.Б.С. Менежмент асослари ва бошқарув қарорлари. -Т.: ТДАМ, 2006.
- 11.Смирнов Э.А. Управленческие решения. М.: Инфра-М., 2001.
- 12.Цыгичко В.Н. Руководителю о принятии решений. – М.: 2007.
- 13.Kindon J.W. Agendas, Alternatives and Public Copyright, 2014.
- 14.Lasswell H. Power and Personaliti. N.Y., 2009.
- 15.Nazarov A. S. Psychological analysis of levels of administration of management decisions //Вопросы экономики и управления. – №. 3. – С. 1-5. –К.: 2020.

Kudratov Akmaljon Ibodillayevich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti akademik litseyi direktori
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O'SPIRINLARNING MA'NAVY EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA UNING EMPIRIK NATIJALARI

Annotatsiya. Maqolada akademik litsey o'quvchilarida ma'naviy ehtiyojlari shakllanishiga doir empirik ma'lumotlar o'z ifodasini topdi. Shuningdek, ma'naviy ehtiyojlarning tarkib topishining empirik asoslari, sinaluvchilarning eksperimentdan oldingi va eksperimentdan keyingi natijalari solishtirilgan hamda natijalar tahlili yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ehtiyoj, ma'naviy ehtiyoj, shaxs, aktuallashtirish, transformatsiya va boshqalar.

ИЗУЧЕНИЕ ДУХОВНЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ ПОДРОСТКОВ И ЕГО ЭМПИРИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ

Аннотация. В статье представлены эмпирические данные о формировании духовных потребностей учащихся академического лицея. Также сопоставляются эмпирические основы нахождения содержания духовных потребностей, результаты экспериментаторов до и после эксперимента, разъясняется анализ полученных результатов.

Ключевые слова: Потребность, духовная потребность, личность, актуализация, трансформация и др.

STUDY OF THE SPIRITUAL NEEDS OF TEENAGERS AND ITS EMPIRICAL RESULTS

Annotation. The article presents empirical data on the formation of the spiritual needs of students of the academic lyceum. It also compares the empirical foundations for finding the content of spiritual needs, the results of experimenters before and after the experiment, and explains the analysis of the results.

Keywords: Need, spiritual need, personality, actualization, transformation, etc.

Kirish. Shaxsning ma'naviy tarbiyasi, o'z-o'zini takomillashtirish ijtimoiy munosabatlar, g'oyaviy-tarbiyaviy jarayonning mazmuni va yo'naltirilganligiga bog'liq bo'ladi. Bu jarayonda shaxs qaysi tabaqaga mansubligi bilan aniqlanadi. G'arb mafkurasi sharoitida shaxsga majburan yuklangan ma'naviy tarbiyaning tabiati shaxs irodasini sindirish, o'z-o'zini yo'q qilish, boshqalarga nisbatan nafrat, munofiqlikka yo'naltirilgan edi. XIX asr oxirigacha, g'arb psixologlari "Orzular orqasidan quvma, boriga qanoat qil, o'zingni isloh qil, bu esa o'ta muhim ish" aqidasi ilgari surishgan. Bunday yondashuv shaxs ehtiyojlarini qondirishda eng oz miqdordan qanoatlanishga yo'naltirilgan, insonning o'zini esa ijtimoiy yovuzlik va adolatsizlikning sababi deb tan olgan.

Zamonaviy ijtimoiy erkinlikka erishish uchun kurashishga, jamoatchilik, optimizm, o'z kuch va salohiyatiga ishonch, mardlik, jasurlik, o'zini qurbon qilish qobiliyati va boshqa zarur sifatlarni tarbiyalashga yo'naltiradi. Shu bilan birga, shaxs psixologiyasida tarbiyaviy ta'sirning, uning shaxs ehtiyojlari shakllanishidagi rolini e'tibordan chetda qoldirmaydi. Shaxsning ma'naviy kamoloti va uning muhim tarkibiy qismlari bo'lmish – o'zini o'zi anglashi, o'zini o'zi nazorat qilishi, o'zini o'zi baholashi va boshqa jihatlar doim ijtimoiy mazmun bilan to'ldirilgan bo'ladi. Faqat o'z baholarini ijtimoiy "meyorlar" va "talablar" bilan taqqoslagandagina inson o'ziga to'g'ri baho bera oladi. Shaxsning o'ziga o'zi to'g'ri baho berishi tarbiya natijasida shakllanadi va takomillashib boradi.

Umuman shaxsning turmush darajasini o'zgarishi faoliyatning shaxs ehtiyojlarining shakllantiruvchi omil sifatidagi rolining tushunilishida, avvalambor, predmetli, amaliy faoliyatga markaziy e'tibor qaratiladi, vaholanki, ehtiyojlar ushbu faoliyatning tarkibiy qismlari, elementlari hisoblanadi. Ma'naviy faoliyatning mavqeiga muhim rol ajratib, moddiy-amaliy, ishlab chiqarish faoliyatini e'tiborga olmaydigan nemis mumtoz qarashlaridan farqli o'laroq, ehtiyojlarning umuman olgandagi va xususan shaxs ehtiyojlarining moddiy asosini aynan ishlab chiqarishda deb qarash lozim. Faqat predmetli, amaliy faoliyatdagina ehtiyojlarni belgilash, ularning obyektivlashuvi amalga oshiriladi.

Ijtimoiy psixologiyaga xos shaxs ehtiyojlarining moddiy-amaliy faoliyatdan va turmush darajasidan uzilishini yengib o'tish lozim. Aynan shunday uzilish zamonaviy psixologiya va sotsiologiyada ehtiyojlarning mohiyat-mazmunining o'zini ham, ularning rivojlanish jarayonini ham erkin talqin qilishni

keltirib chiqargan holat shaxs turmush darajasi hisoblanadi. Ehtiyojlarning rivojlanishi predmetli-amaliy faoliyatning belgilovchi, hal qiluvchi rolini asoslash ularni o'rganishni tom ma'nodagi ilmiy, materialistik asosga qo'ydi. Shaxs ehtiyojlarining o'zgarish jarayoni avvalambor uning borlig'ining, shaxs hayot faoliyati kechadigan va uning hayot faoliyatining asosini tashkil etadigan obyektiv sharoitlarining o'zgarish jarayonidir.

Zamonaviy psixologiya fanida "ehtiyotlar muammosi" ilmiy tadqiqotlarning markaziy masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan bizning dissertatsion tadqiqotning ushbu muammalardan biriga bag'ishlanganligi bilan ahamiyatlidir. Chunki, ehtiyoj muammosiga yechim topishda xorij va mamlakatimiz psixologiyasining zamonaviy holatini tahlil qilish jiddiy ahamiyat berilishini talab etilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini tadqiq etishning metodologik asoslarini klassik olamdagi tadqiqotchilar shaxs ma'naviy ehtiyojlari holatini, mazmunini, tarkibini, atributlarini, ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv shart-sharoitlarni va subyektiv omillarni mamlakatimiz psixologlaridan E.G'oziyev, A.Safiyev, V.Karimova, A.Jabborov, D.Muxamedova, B.Umarov, X.Ruxiyeva, I.Maxmudov, E.Sattarov, I.Xudoyberdiyev, M.Mamatov, L.Tursunov, X.Alimov, Sh.M Ulug'ova, A.Rasulov va boshqa taniqli olimlar ma'naviy ehtiyojlar ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik faktlarni muammo sifatida tadqiq etishgan.

Hozirgi kunda zamonaviy ijtimoiy psixologiya fanida ehtiyojlarning bir necha o'nlab tasnifi mavjud. Tadqiqotimizning maqsadiga muvofiq ravishda, biz zamonaviy shaxs ehtiyojlarining shakllanishining asosiy yo'nalishlarini belgilash, ajratishda belgilovchi ahamiyatga ega bo'lgan ba'zi tasniflarini ilmiy tahlil etamiz. Ma'lumki, ehtiyojlarning mazmuni, ularning sifat va miqdoriy xarakteristikalari faoliyat asosida, determinatsiya qilinadi, shuning uchun ehtiyojlarni tasniflashning asosiy yo'nalishlaridan biri faoliyatning asosiy turlariga ko'ra tasniflashdan iborat – moddiy-ishlab chiqarish, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy – mehnatga bo'lgan ehtiyoj, ijtimoiy-siyosiy faoliyat ehtiyoji, ma'naviy ehtiyojlarning turli shakllari: axloqiy, estetik, badiiy va hokazo kabi ehtiyojlar ajratib ko'rsatiladi. Biroq bu ehtiyojlarning turli-tumanligi faqat ularni belgilaydigan faoliyat turlari bilan cheklanib qoladi, degan ma'noni bermaydi. Bir ehtiyojning o'zi masalan, axloqiy yoki estetik turli faoliyat – mehnat, ijtimoiy-o'zgartiruvchi, muloqot sohasidagi turlari bilan qondirilishi mumkin. Shu bilan birga, faoliyatning birgina turi masalan, mehnat faoliyati bir emas, bir necha ehtiyojlarni qondirishi mumkin.

Darhaqiqat, ma'naviy ehtiyojlarni o'rganish, transformatsiya qilish tizimini samarali tashkil etish, eng avvalo o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari har tomonlama chuqur tahlil qila olishga bog'liqdir.

Tadqiqot maqsadi. Shu nuqtai nazardan, har bir shaxs bilan alohida ishlash undagi shaxslararo munosabatlarda ma'naviy ehtiyojlarning shakllanishiga daxldor bo'lgan psixologik omillarni o'rganilishi hamda mazkur yo'nalishda tegishli empirik ma'lumotlar yig'ish masalasi tadqiqotning asosiy maqsadi qilib belgilangan.

Ilmiy izlanishning mohiyati. Mazkur izlanishda ushbu muammoga muayyan ilmiy-amaliy oydinliklar kiritish orqali o'spirinlardan olingan empirik ma'lumotlar tahlilini bayon etish ko'zda tutilgan. Chunki ma'naviy ehtiyojlarni o'spirin shaxsining ijtimoiy-psixologik taraqqiyotiga bevosita ta'sirini o'rganish, tahlil qilish va tegishli ilmiy-tavsiyaiy xulosalar chiqarish bilan bog'liqdir.

Tadqiqot obyekti. O'rganilayotgan muammoning mohiyatidan kelib chiqib, tadqiqot ob'yekti sifatida Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti akademik litseyi va Urganch davlat universiteti akademik litseyidan jami 405 nafar (Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti akademik litseyidan 320 nafar va Urganch davlat universiteti akademik litseyidan esa 85 nafar) respondentlar tanlab olindi. Albatta tadqiqot maqsadiga mos empirik ma'lumotlarni yig'ishda universitet va institut rahbariyati, akademik litsey direktorlari hamda akademik litsey amaliyotchi psixologlari yaqindan yordam berdilar.

Shunday ekan, shaxs ma'naviy ehtiyojlari transformatsiyasi jarayonini empirik tadqiq etish orqali muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar qo'lga kiritildi.

Tadqiqot metodi. Dastlab sinaluvchilarda aktualashtirilgan ehtiyojlarni emas, balki ma'lum bir shaxsga xos bo'lgan ehtiyojlarni yoki shaxsiy xususiyatga (xususiyatlarga) aylangan ehtiyojlarni, ehtiyojlar asosida shakllangan shaxsiy moyilliklar darajasini o'rganish maqsadida Yu.M.Orlovning «Shaxs ehtiyojlari shakllanganlik darajasini o'rganish» metodikasidan foydalanildi va tadqiqot natijalari quyidagicha namoyon bo'ldi.

Jadval-1

Y.M.Orlovning «Shaxs ehtiyojlari shakllanganlik darajasini o'rganish» metodikasidan olingan natijalar tahlili (n=405)

Ehtiyojning shakllanganlik darajasi	Sinaluvchilar	n1 n2	O'rtacha	Standart og'ish	t	p
Yuqori daraja shakllanganlik	QarMII akademik litseyi	320	13,36	2,416	1,182	p≤0,05
	UrDU akademik litseyi	85	12,50	2,650		
O'rta darajada shakllanganlik	QarMII akademik litseyi	320	10,0	2,523	1,085	p≤0,01
	UrDU akademik litseyi	85	9,25	2,679		
Past darajada shakllanganlik	QarMII akademik litseyi	320	8,50	2,554	1,014	p≤0,001
	UrDU akademik litseyi	85	7,46	1,998		

Izoh: (* P≤0,05, ** P≤0,01, ***P≤0,001).

Ushbu metodika bo'yicha natijalarini tahlil qilish vaqtida respondentlar guruhlari o'rtasida ishonch darajasidagi farqlar mavjudligi yoki yo'qligiga ham e'tiborni qaratdik.

Empirik natijalarning umumiy tahlili shuni ko'rsatdiki, QarMII akademik litseyi o'quvchilarida ehtiyojlarni shakllanganlik darajasining umumiy o'rtacha qiymati 10,62 ni tashkil etgan bo'lsa, UrDU akademik litseyining o'quvchilarida ehtiyojlarni shakllanganlik darajasining umumiy o'rtacha qiymati esa, 9,73 ni ko'rsatdi. Demak, UrDU akademik litseyining sinaluvchilarida esa, shaxsiy va ma'naviy ehtiyojlarining shakllanganlik ko'rsatkichlari biroz past darajada ($p \leq 0,001$) ekanligi aniqlandi.

Bu shaxs ehtiyojlarining shakllantirishda va transformatsiya qilishda ayrim mezonlar bo'yicha ortda qolayotganligidan dalolat beradi. Demak, ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirish va transformatsiyasiga UrDU akademik litseyida o'quvchilarni birinchi kursga qabul qilishdan boshlab alohida e'tibor qaratish lozimligini anglatadi. Olingan natijalarni chuqur tahlil qilganimizda shaxs ehtiyojlarni rivojlantirish darajasini yuqori kurs sinaluvchilarida normal holatda shakllanayotganligiga ham guvoh bo'ldik. Bu ko'rsatkichlar ikkinchi kurs o'quvchilarida xos ekanligi tadqiqotda o'z isbotini topdi.

Jadval-2

Respondentlarda eksperimentdan oldin va eksperimentdan so'ng "Shaxs ehtiyojlari shakllanganlik darajasini o'rganish" metodikasi bo'yich ko'rsatkichlar (n=405)

Ehtiyojlarning shakllanganlik daradasi	Sinaluvchilar	n	O'rtacha	Standart og'ish	t
Yuqori darajadagi shakllanish	EO	405	12,93	2,530	1,386
	ES	405	16,04	2,353	
O'rta darajadagi shakllanish	EO	405	9,62	2,593	1,507
	ES	405	13,05	2,236	
Past darajadagi shakllanish	EO	405	7,98	2,754	1,203
	ES	405	11,36	2,477	

Xulosa. Akademik litseylar sinaluvchilarining ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan dastur asosida o'tkazilgan eksperiment natijalariga ko'ra respondentlarda ko'rsatkichlar o'zgarishini ko'rishimiz mumkin. Demak, sinaluvchilarda shaxs ehtiyojlari shakllanganlik holati eksperimentdan



avvalgi ko'rsatkichga (10,17%) nisbatan eksperimentdan keyingi natija (13,48%) ortganligini ko'rishimiz mumkin. Bu akademik litsey o'quvchilarida ehtiyojlar transformatsiyasining shakllantirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik psixokorreksion ishlar va shaxs ma'naviy ehtiyojlarini transformatsiyasining ta'minlovchi model yaratilganligi samara berganligidan dalolatdir.

Ehtiyojlarni shakllantirishda ular subyekt xulq atvorining chuqur negizi, asosi ekanligini hisobga olish lozim, shu sababli shaxs ehtiyojlarini o'zgartirish uchun uning borlig'i va ongida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Якобсон П.М. Психологические проблемы мотивации поведения человека.-М.: "Наука" 1999. С 109
2. G'oziev Ye. G'. Umumiy psixologiya. –Т.: 2010. -544 b.
3. Ильин Е.П. Оптимальные характеристики работоспособности человека/Автореф. Докт. Дисс. Л.: 1998. -32 с.
4. Ковалёв В.И. Мотивы поведения и деятельности. –Москва.: "Наука". 1988, -191 с.
5. Леонтьев А.Н. Потребности, мотивы и эмоции. – М.: 1993. -40 с.
6. Леонтьев А.А Потребности, мотивы и создание. М. "Универстет". 1966. 117 с.

UDK:159.9(575.1)

Axmedova Muyassar Xadimatovna

TDPU Umumiy psixologiya kafedrası professori,
psixologiya fanlari doktori

E-mail: muyassaraxmedova1968gmail.com

TIL O'RGANUVCHILARNING NUTQ MEXANIZMIDAGI XATO VA QIYINCHILIKLAR

Annotasiya. So'nggi yillarda psixologiya va tilshunoslik olamida psixologiya, til va nutq faoliyati masalalari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar paydo bo'la boshladi. Chunki axborotning asosiy qismi inson ongiga aynan lingvistik yo'nalish orqali etib boradi. Bu jarayonda ona tili va chet tilidagi nutq faoliyati mexanizmlari o'ziga xos ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ikkinchi tilni o'rganishdagi xatolar va qiyinchiliklar psixolingvistik muammo deb hisoblangan. Va uning tadqiqotlari ilmiy manbalarga asoslanadi.

Kalit so'zlar: xato, artikulyasiya, shaxsiy, aqliy, semantik, morfologik, imlo, fonetik, nutq, til.

ОШИБКИ И ТРУДНОСТИ В ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА КАК ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. В последние годы в мировой психологии и лингвистике стало появляться множество исследований, посвященных вопросам психики, языка и речевой деятельности. Потому что основная масса информации доходит до сознания человека именно через лингвистическое направление. Особое значение в этом процессе имеют механизмы речевой деятельности на родном и иностранном языках. Кроме того, ошибки и трудности в изучении второго языка рассматривались как психолингвистическая проблема. И его исследования основаны на научных источниках.

Ключевые слова: ошибка, артикуляция, личностная, психическая, семантическая, морфологическая, орфографическая, фонетическая, речь, язык.

ERRORS AND DIFFICULTIES IN LEARNING THE SECOND LANGUAGE AS A PSYCHOLINGUISTIC PROBLEM

Resume. In recent years, many studies have begun to appear in world psychology and linguistics on issues of the psyche, language, and speech activity. Because the bulk of information reaches human consciousness through the linguistic direction. Of particular importance in this process are the mechanisms of speech activity in native and foreign languages. Also, errors and difficulties in learning a second language were seen as a psycholinguistic problem. And his research is expressed on the basis of scientific sources.

Keywords: error, articulations, personal, psychic, semantic, morphological, orthographic, phonetic, speech, language.

Kirish. Til kishilik jamiyatining asrlar davomidagi butun tarixiy jarayonida ma'lum bir guruh tomonidan emas, balki butun jamiyat va uning a'zolari tomonidan yaratilgan ijtimoiy hodisadir.

Tilning dunyo miqyosidagi buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni bir-biriga yaqin qilib jiplashtiradi. Shunday ekan, til millatning oliy qadriyati hisoblanadi. Shuni aytish kerakki, til - insoning ma'naviy faoliyatini madaniy boyliklar bilan to'ldiradi. Insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirish insonga o'z ma'naviy dunyosini boyitish imkoniyatini yaratadi[6.50].

Ma'lumki, ona til bilan chet tilini o'rganish jarayonlari o'rtasida farqlarga qaraganda o'xshash jihatlari ko'proq kuzatiladi. Ona tili va chet tilidagi nutqiy faoliyatdagi mexanizmlar bir xil hisoblanadi. Dastlab shuning uchun til o'rganuvchilar nutqiy o'sish, rivojlanishning o'xshash bosqichlarini bosib o'tadilar, o'xshash xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin. Unda keskin farqlar deyarli kuzatilmaydi. Shunisi ham ahamiyatliki, individ, chet tilini o'rganishga "so'zlovchi mavjudot" sifatida kirishadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Amerikalik neo-gumboldtizm oqimining asoschilari E.Sepir va B.Uorf o'zlarining ilmiy izlanishlarida "tilning nisbiylik nazariyasi"ni ishlab chiqdilar. Ushbu nazariyaga ko'ra, dunyoning qarashlari til bilan belgilanadi. Til nafaqat odamning tafakkuri, kognitiv faoliyati, balki madaniyat turini ham belgilaydi. [10.6]. Shuningdek, N.Xomskiy «tug'ma bilimlar» nazariyasi ham nutq mexanizmining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

R.Yakobson yozganidek, «bir til kodidan boshqasiga o'tish mumkin va bu tillarning izomorfligi tufayli amalda sodir bo'ladi: ularning strukturalari asosida bir xil umumiy tamoyillar yotadi»[7.84].

Tilshunoslikda "izomorfizm" so'zlarni qiyoslash asosida tahlil qilish usullaridan biri hisoblanadi. Bunda turli "tillarning qarindoshligini hisobga olmay, ulardagi o'xshashlik (uni "izomorfizm"i deyiladi) va farqlanishlarini aniqlaydi[1.146]", taqqoslaydi.

Boshqa tadqiqotchilar yana shuni ham ta'kidlaydilar, xatolar mexanizmi ham tartib qoidasi jihatdan bola tomonidan tilni egallash va kattalar tomonidan ikkinchi tilni o'rganish jarayoniga aynan o'xshash. Shu bilan birga chet tilini o'rganish ona tilini o'rganishdan farqli jihatlarga ham ega. Jumladan, ona tilini o'rganishda tayyor sxemalar bo'lmaydi, til hodisalarini noma'lum til tizimi bilan solishtirish qiyinlashadi.

Tilni o'zlashtirishda lisoniy va kognitiv etalonlar, ya'ni tilni tushunish faqat bola ongida shakllanadi. Chet tilini o'rganayotganlardan o'z ona tili tizimi va me'yorlari haqidagi tasavvurlarni «o'chirib qo'yish»ga to'g'ri keladi. Aynan shuning uchun kishi chet tilida so'zlashishga o'tayotganida inersiya(ma'lum turdagi farqlovchi belgilarning birikmasi yoki to'plami sifatida ifodalanishi)ga ko'ra o'ziga tanish va odatiy bo'lib qolgan sintaksik strukturalarni va leksik-semantik kategoriyalarga ajratish ko'nikmalarni qo'llaydi. Yana shunisi ham ko'zga tashlanadiki, uning nutqi ona tiliga xos artikulyasion apparat harakatlaridan holi bo'la olmaydi. Mutaxassislar tomonidan chet tillarni o'zlashtirishda quyidagicha xatolar kuzatilishini ta'kidlagan: Fonetik xatolar – so'z yoki intonasion konstruksiyaning fonetik ko'rinishini buzilishi, ya'ni nutq tovushlarini noto'g'ri talaffuz qilinishi natijasida yuzaga keladigan xatolar.

Morfologik xatolar. Bu so'zlarning tuzilishi, o'zgarishi va so'z turkumlarining ifodalanishidagi xatolar hisoblanadi. Ularga til birliklarini bir-biriga moslashtirishda uchraydigan buzilishlar kiradi.

Leksik xatolar. Bunda tilning lug'at boyligi (so'z va iboralar), ularning ma'nosi, ma'noning o'zgarishi, ma'noning ko'chishi, so'zlarning shakl va ma'no munosabatlari, so'zlarning bir ma'noligi va ko'pma'noligi, tilning lug'at tarkibi kabi lug'aviy birliklar bilan bog'liq xususiyatlarda uchraydigan kamchiliklar, xatolar o'rganiladi. Ularda so'zlarni noto'g'ri qo'llash, hamda til me'yorlaridagi va uzusdagi xatolar qo'proq ko'zga tashlanadi.

Sintaksik xatolar. Bunda gapda so'zlarning birikishi, so'z birikmalari, gap va ularning xususiyatlarda uchraydigan xatolar nazarda tutiladi. Ularga so'z birikmalaridagi so'z shakllarini qo'llashdagi va gap tuzilishidagi buzilishlar kiradi[7.85].

Tahlil va natijalar. Chet tilini o'rganish davriga kelganida shaxsda, odatda ona tilini o'rganishdek mustahkam ko'nikmalar shakllanib bo'lgan bo'ladi. Shuning uchun ular yangi til ko'nikmalarini shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunda mavjud ko'nikmalarining ko'chishi sodir bo'ladi. Agar til hodisalari o'xshash bo'lsa ular ijobiy ta'sirga ega bo'ladi. Aks holda ular salbiy bo'ladi. Bunday ko'chish, ya'ni cheti tilini o'rganishda ona tilining salbiy ta'siri interferensiya deb nomlanadi. Shunisi qiziqki, interferensiya ko'pincha, lisoniy hodisalar bir-biridan farqli emas, balki o'xshash bo'lganida ham namoyon bo'ladi.

Ikki lisoniy tizimlarning kontrastiv tahlili, ya'ni tilning leksik, grammatik va so'z yasash aspektlari nuqtai nazardan qiyoslash asosida endilikda sodir bo'ladigan xatolarni bashorat qilish ancha murakkab ish. Bu u yoki bu grammatik hodisaning funksional ahamiyati, qo'llanish chastotasi va uning til tizimidagi o'rnini hisobga olish zarurligi bilan izohlanadi. Xatolarga nisbatan kommunikativ yondashuvda nutq mazmunini tushunishga xalaqit beruvchi va bermaydigan xatolar ham farqlanadi.

Chet tilini o'rgatish jarayonida xatolar asosida yotgan bog'lanish yoki qonuniyatni aniqlab ularni bartaraf etish zarur hisoblanadi. Boshqacha aytganda, tajribali o'qituvchi, chet ellik talabani tinglaganda, avval uni maqtaydi, keyin esa buzilgan til qoidalarini qayta ishlab chiqish uchun bir qator mashqlarni bajarishni taklif etadi. Ikkinchi tilidan foydalanish jarayonida xatolarga yo'l qo'ymaslikning aslo iloji yo'q. Yuzaga keladigan nutqiy xatolarni kontrastiv yondashuv asosida tahlil qilishda quyidagi turlari farqlanadi: ona tilining til o'rganuvchiga ta'siri bilan bog'liq tillararo xatolar, ya'ni so'z yoki jummalarni ko'chishi; til ichidagi xatolar, ular tilni egalalash xususiyatlarini aks ettiradi.

Odamning lisoniy layoqati tug'mami yoki boshqa kognitiv funksiyalardan neyrofiziologik alohidami mazmunidagi savol o'nlab yillardan buyon ko'plab ilmiy sohalar doirasida munozaraviy bo'lib kelmoqda va tilshunoslarning diqqat markazida qolmoqda. So'ngi tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maxsus nutqiy buzilishlarning neyroanatomik korrelyatlari borligini ko'rsatmoqda. Hozirda hatto lisoniy va nutqiy buzilishlarni bevosita eslatuvchi genni identifikatsiyalash imkoniyatiga umid ham paydo bo'lgan.

Bolada u uygʻongan zahoti atrofida nutqni eshitganidek tugʻma lisoniy qobiliyat borligini taxmin qilgan holda N.Xomskiy «tugʻma bilimlar» nazariyasini ilgari surdi.

Mazkur ta'limotga koʻra, bola kattalar tomonidan aytilayotgan jummalarni eshitganida («dastlabki lisoniy ma'lumotlar») tilni lingvistik ta'riflash qoidalari xususida farazlar oʻylab topadi. Keyin esa, ayna shunday farazlar asosida boʻlajak jummalarining lisoniy tarkibini oldindan aniqlay oladi va bu bashoratlarini tuzilayotgan gaplari bilan qiyoslaydi. Oʻzini oqlamagan farazlaridan voz kechadi va ma'qul kelganlarini rivojlantiraveradi.

Bularni barchasini bajara oladigan boʻlish uchun, N.Xomskiy aytganidek, bolada «muayyan turdagi tilni (biror til turini emas, balki odamlarga xos tilni) oʻrganib olishga tugʻma moyillik» hamda konkret tizimni «birlamchi lisoniy ma'lumotlar» bilan taqqoslash qobiliyati yoki «birlamchi lisoniy ma'lumotlar bilan qiyoslanadigan qabul qilinuvchi grammatikani tanlash strategiyasi» boʻlishi kerak[7.34].

Xulosa va takliflar. Shuni ham ta'kidlab oʻtish kerakki, chet tilini oʻrganayotgan kishi, nafaqat yangi qoidalarni (ba'zan xato) qoʻllashi mumkin, balki oʻz ona tilisida oʻxshashi boʻlmagan chet tilining ayrim qoidalarni ishlatmasligi ham mumkin. Boshqacha aytganda, u bir tizimning ikkinchisiga oʻtkazuvchi passiv "translyator" sifatida emas, balki nutqiy fikrlash imkoniyatini namoyon etadi. Xususan, chet tilini umumiy oʻrganish strategiyasi yangi ma'noni oʻzlashtirishni osonlashtirishga qaratilgan ma'lum bilimlar asosida miya qobigʻidagi asosiy psixik jarayonning koʻrinishlaridan biri boʻlishi mumkin.

Odamlarning oʻziga xos lisoniy layoqati hamda mavjud individual tafovutlar chet tilini oʻrganish usullarini aniqlashga yordam beradi. Masalan, Betti Liver kuzatishlariga qaraganda, oʻquvchilar bir-birlaridan qabul qilish qobiliyatlariga qarab farqlanishlari mumkin. Nolingvistik programmashtirish dasturiga koʻra odamlarning koʻrish, eshitish qobiliyati, motorli qabul qilish xususiyatlari turlicha boʻlishi mumkin. Ular ekstravert yoki introvert boʻlishlari, sensorli yoki intuitiv, koʻproq aqlga tayanadigan yoki hissiyotga beriluvchan, baholashga layoqatli yoki ta'sirlanuvchan, oʻtkir zehnlilik boʻlishlari mumkin. Oʻz shaxsiy moyilliklariga qarab ular oʻquv materialini u yoki bu usulda oʻrganishga (oʻqish, eshitish yoki xatti-harakatlar orqali) va chet tilini oʻrganishning u yoki bu xildagi strategiyasiga moyilligi kuzatiladi.

Til oʻzlashtirishdagi nutqiy xatolarni sodir etilishida shaxsning individual xususiyatlari inobatga olinishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, xatolar ustida ishlash va xatolarni tuzatish jarayonlarida ham shaxsiy sifatlar inkor etilmaydi.

Adabiyotlar roʻyxati.

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslikka kirish. Darslik "Sharq" nashryoti. 2010. 176 bet.
2. Абдурахимов Л.Г. Феномен речевой ошибки в психолингвистических исследованиях отечественных и зарубежных ученых // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки 2015. № 11. С. 333-336.
3. Азимов Э.Г., Шукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). М.: Издательство ИКАР. 2009.
4. Axmedova M., Shodieva N., Raxmanova N. Intellectual faoliyatida ichki nutq // Academic research in educational sciences. TMA Conference. 2023. 4. 403-407.
5. Axmedova M.X. Jamiyat taraqqiyotining tildagi oʻzgarishlarga ta'siri // Ilmiy tadqiqot va innovatsiya. Mart 2023.2-tom. 2-son. B. 21-26.
6. Axmedova M.X. Milliy tilning etimologik va psixolingvistik xususiyatlari // Jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yillarida zamonaviy shaxs rivojlanishining psixologik xususiyatlari. Xalqaro ilmiy konferensiya. 2021. 24 noyabr. 49-52.
7. Belyanin V.P. Psixolingvistika. М. 2013.
8. Залевская А.А. Речевая ошибка как инструмент научного исследования. Вопросы психолингвистики. 2009. № 9. Институт языкознания РАН, 2009.
9. Маркова А.К. Психология усвоения языка как средства общения. – М., 2004.
10. Кучменова Ж.М. Эмоциональные концепты в языковой картине мира. Автореф... Нальчик - 2005. С.6.
11. Леонтев А.А. Психолингвистические эдниси и порождение речевого высказывания. – М., 1999. -С.57-58.

AYOLLAR PROFESSIONAL KARYERASINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYIY PSIXOLOGIK TAMOYILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, yurtimiz xotin-qizlarini professional rivojlantirish yo'lida, ularning sifatli ta'lim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bugungi kunda, xotin-qizlarimizning ilmiy salohiyati va malakasini, bir so'z bilan aytganda professional-xizmat karyerasini tizimli shakllantirishni qo'llab-quvvatlash ilmiy jihatdan yoritilgan. Xotin-qizlarning professional karyerasini shakllantirish va ularni kasbiy faoliyati davomida rivojlantirish, xizmat pillapoyalari ko'tarilishini ta'minlash yo'lidagi amaliy ishlar islohotlarga muhtojligi asoslangan.

Kalit so'zlar: Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, oila institutini, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, Oila va xotin-qizlar, Gender tenglik.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КАРЬЕРЫ ЖЕНЩИНЫ

Аннотация. В данной статье на пути профессионального развития женщин нашей страны создаются более благоприятные условия для их качественного образования. Сегодня поддержка научного потенциала и квалификации наших женщин, словом, системное формирование профессиональной служебной карьеры освещается с научной точки зрения. В его основе лежит необходимость реформирования практической работы по формированию профессиональной карьеры женщин и девушек и их развитию в ходе профессиональной деятельности, а также обеспечению их продвижения по служебной лестнице.

Ключевые слова: Поддержка женщин, институт семьи, социально-экономическая жизнь, Семья и женщины, Гендерное равенство.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL PRINCIPLES OF FORMING A WOMAN'S PROFESSIONAL CAREER

Abstract: In this article, on the path of professional development of women in our country, more favorable conditions are created for their quality education. Today, supporting the scientific potential and qualifications of our women, in short, the systematic formation of a professional career, is illuminated from a scientific point of view. It is based on the need to reform practical work on shaping the professional careers of women and girls and their development during professional activities, as well as ensuring their advancement through the ranks.

Key words: Support for women, family institution, socio-economic life, Family and women, Gender equality.

O'zbekistonda bugungi intensiv rivojlanishlar davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlar professional-xizmat karyerasini ahamiyatini oshirish, mamlakatimizning ham ijtimoiy-siyosiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash borasida esa bir qator islohotlar olib borildi.

Birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 25-maydagi PF-3434-son «O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» [1] ikkinchi o'rinda 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» [5] va nihoyat uchinchi bo'lib, 2022-yil 7-martdagi PF-87-son «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» [2] Farmonlar qabul qilinganligi holatning yorqin ifodasi sanaladi. Ushbu Farmonlar bilan xotin-qizlarning respublikamizni siyosiy-ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy va madaniy hayotida faolligini oshirish, turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishi uchun zarur shart-sharoit yaratildi. huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

Bunda PF-87-sonli Farmonni qabul qilinishidan ko'zlangan asosiy maqsad: «Mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish,

ehtiyotmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish» [4; 1-bet] sanaldi.

Bu uchun avvalo, «2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur» [1; 15–27-betlar] qabul qilindi. So'ngra esa «2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dasturni 2022–2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi» tasdiqlanib, ijroga yo'naltirildi.

Shuningdek, yurtimiz xotin-qizlarini professional rivojlantirish yo'lida, ularning sifatli ta'lim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Hattoki, xotin-qizlarimizning ilmiy salohiyati va malakasini, bir so'z bilan aytganda professional-xizmat karyerasini tizimli shakllantirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2022–2023 o'quv-yilidan boshlab 6 ta katta yo'nalishda amaliy harakatlarni joriy etish yo'lga qo'yildi.

1-yo'nalish sifatida «oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan sirtqi va kechki ta'lim shaklida o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'lim kontraktlarini to'lash uchun 7-yil muddatga foizsiz ta'lim kreditlarini moliyalashtirish» [3] belgilandi va Moliya va iqtisodiyot hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari qo'shma qarori asosida grafik ishlab chiqilib, 2022-yil sentyabrdan boshlab Davlat byudjetidan har-yili 1,8 trillion so'm resurs mablag'lari tijorat banklari tomonidan sarflanmoqda.

2-yo'nalish etib «davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash» belgilandi va har-yili Moliya va iqtisodiyot hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari tomonidan kiritiladigan taqdimnomalarga muvofiq, Davlat byudjetidan-yiliga 200 milliard so'm atrofida moliyalashtirililmoqda.

3-yo'nalish bo'yicha «xorijiy oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim dasturlari bo'yicha – 50 nafar, magistratura ta'lim dasturlari bo'yicha – 10 nafar xotin-qizlarga har-yili «El-yurt umidi» jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar ajratish» yo'lga qo'yilib, bu borada ham Moliya va iqtisodiyot vazirligi hamda «El-yurt umidi» jamg'armasining o'zaro kelishuviga ko'ra har-yili Davlat byudjetidan 6 milliard so'm atrofida xarajat qilinmoqda.

4-yo'nalish sifatida «har-yili Oila va xotin-qizlar qo'mitasining tavsiyalariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan 150 nafardan jami 2 100 nafar ijtimoiy ehtiyotmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning ta'lim kontraktlarini...to'lash» [1;3-bet] belgilanib, Vazirlar Mahkamasining tegishli normativ-huquqiy hujjatlari asosida mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan qaytarish shartisiz qoplab berilmoqda.

5-yo'nalishda ham Oila va xotin-qizlar qo'mitasi asosiy rolni bajarib, «mutaxassisligi bo'yicha kamida 5-yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan 500 nafar xotin-qizlarni har-yili Qo'mita tavsiyanomalariga asosan to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yish» [2; 3-bet] belgilandi hamda nomzodlar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilimlarni baholash markazi tomonidan davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga umumiy qabul parametrlaridan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq qabul qilinmoqda.

6-yo'nalish etib, «davlat ilmiy tashkilotlari yoki oliy ta'lim muassasalari doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har-yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratish» belgilandi hamda kvota Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsiyalarni rivojlantirish agentligi tomonidan davlat ilmiy tashkilotlari yoki oliy ta'lim muassasalari kesimida tasdiqlanmoqda.

Mazkur yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar xotin-qizlarimizning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Shuningdek, nafaqat, ularning oila va jamiyatdagi o'rni va mavqeini mustahkamlash, balki professional salohiyatini to'laqonli namoyon etishda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz rivoji, O'zbekiston qizlarining bilimli, har jihatdan barkamol bo'lib ulg'ayishida, jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yuksalishida ushbu yo'nalishlarning hissasi beqiyosdir.

Mazkur yo'nalishda sezilarli siljish 2019-yilda yuz berdi. Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida Gender tenglikni ta'minlash bo'yicha komissiya tuzildi [4]. Uch oy o'tgach (2019-yil 21-iyun) mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bor Oliy Majlis Senati Raisi (lavozim darajasiga ko'ra mamlakatdagi ikkinchi odam) lavozimida Tanzila Narbaeva faoliyat boshladi. Va sentyabr oyida ikkita: muhim qonunlar – «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida» (O'RQ–561-son) [5] va «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida» (O'RQ–562-son) [7] kuchga kirdi.

Xotin-qizlarni avvalo, professional kasb egasi qilib tayyorlash, so'ngra ularni xizmat karyerasini shakllantirish va tizimli ravishda rivojlantirish masalalarining ijtimoiy-psixologik tavsifini berishdan avval, ayrim statistik ma'lumotlarga diqqat qaratish maqsadga muvofiqdir. «2022–2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur»ning yuqorida zikr etilgan 6 ta yo'nalish asosida professional kasb egasi qilib tayyorlashdan tashqari, professional faoliyat sohibasi sifatida ham qo'llab quvvatlash uchun «tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan xotin-qizlarga subsidiya va soliq imtiyozlarini berish» [8] belgilangan edi.

Ehtiyojmand oilalardagi ilmga intilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida xotin-qizlar.uz platformasi orqali 84 104 nafar xotin-qizlarning arizasi elektron qabul qilindi, ulardan 35 689 nafariga tavsiyanoma berildi. Test natijalariga ko'ra 1982 nafar ehtiyojmand oila xotin-qizlari oliy ta'lim muassasalariga davlat granti asosida talabalikka qabul qilindi.

Mutaxassisligi bo'yicha kamida besh-yil mehnat stajiga ega bo'lgan, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan 29 531 nafar xotin-qizlardan arizalar elektron tizim orqali qabul qilindi, ulardan 28 664 nafariga tavsiyanoma berildi.

Umuman olganda, xotin-qizlarning professional karyerasini shakllantirish uchun qo'yilgan qadamlar ijobiy sanalsa-da, lekin ularni kasbiy faoliyati davomida rivojlantirish va xizmat pillapoyalarida ko'tarilishini ta'minlash yo'lidagi amaliy ishlar islohotlarga muhtojligi ko'rinib turibdi. Buning uchun quyidagi: ta'lim olishdan keyingi bosqich(lar)dagi xotin-qizlarimizni, avvalo, ishga joylashishini ta'minlash, ya'ni munosib ish o'rinlarini yaratish, so'ngra kasbiy o'sishlari yo'lida individual va (yoki) professional qobiliyatlarni qo'llab-quvvatlash nihoyatda dolzarb masalalar sanaladi.

S.V. Mityunina o'z tadqiqotlarida, mutaxassisning professional rivojlanishini: «tashkiliy», «shaxsiy» va «ijtimoiy» kabi uchta jihatga ajratib o'rgangan.

1. Tashkiliy jihat kontekstida karyeraga – tashkilotda u yoki bu xodimni rivojlantirish va rag'batlantirishning yo'nalishi sifatida qaralgan. Vektorlar yordamida karyera maydoni tavsiflanib, kasbiy rivojlanish yo'nalishlari ajratilgan. Xususan, lavozimi vektori – xizmat pillapoyalari orqali, professionallik – malaka toifalari yordamida, maqom – martaba darajalari bilan, maosh – mukofotlar ko'lami bo'yicha baholanishi asoslangan.

2. Shaxsiy jihat kontekstida karyera – kasb (lavozim) egasini shaxs nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni o'z ichiga qamrab oladi. Jumladan, karyera har bir mutaxassisning ish tajribasi va kasbiy faoliyati kontekstida individual ongli pozitsiyasi va xatti-harakatlari hamda o'z professional taraqqiyoti haqidagi tasavvurlari sifatida dalillangan.

3. Ijtimoiy jihat kontekstida karyera – jamiyat nuqtai nazaridan kelib chiqib, lavozim, toifa, nufuz va hokimiyat darajalari egallashda jamiyat yoki tashkilotda tan olingan qadriyatlar, imtiyozlarni «o'zlashtirish» jarayoni sifatida tushuntirilgan [9; 13–14-betlar].

Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida ushbu toifalarning har biriga mos keluvchi karyera yo'nalishida professional rivojlanib kelayotganlar mavjud.

Professional karyera bosqichlari

Karyera bosqichi	Karyera bosqichi nomi	Karyera yoshi	Karyeraga erishish samaradorligi
1-bosqich	O'qitish	17-25 yosh	O'qish, amaliy izlanish va turli darajadagi ishlarga moslashish (shuningdek, professional karyeraning boshlanishi)
2-bosqich	Shakllantirish	26-30 yosh	Malakani shakllantirish va kompetensiyalarni egalash
3-bosqich	Lavozimga ko'tarilish	31-45 yosh	Professionalizm va hayot strategiyalar o'zgarishining asosi sifatida baholanadigan top kompetensiyalarni shakllantirish va kompetentli bo'lish
4-bosqich	Professionalizm	46-50 yosh	Bosh professional hayotiy maqsadlarni amalga oshirishning cho'qqisiga erishish
5-bosqich	Professional karyerani tugatishga tayyorgarlik	51-60 yosh	Ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarishni kengaytirish, professional yukni bosqichma-bosqich kamaytirish, psixologik tayyorgarlik va faol ishlamaydigan faoliyatga o'tish tizimini ishlab chiqish
6-bosqich	Professional faoliyatni yakunlash	61-65 yosh	Faol ishlamaydigan faoliyatga bosqichma-bosqich o'tish, professional faoliyatda ishtirok etishni

			davom ettirish, profilaktika va sog'liqni saqlashga e'tibor
7-bosqich	Ishlamaydigan faoliyat	66 yosh va undan katta	Sog'liqni saqlash, oila, turli sabablar va ishlamaydigan faoliyat turlari, yolg'izlik bilan kurashish

1-omil (1.3-jadvalga qarang). Professional karyera bosqichlari haqidagi fikr yuritganimizda, u umumiylik xususiyatiga ko'ra, «o'qitish → shakllantirish → lavozimga ko'tarilish → professionalizm → professional karyerani tugatishga tayyorgarlik → professional faoliyatni yakunlash → ishlamaydigan faoliyat» karyera ko'rinishidagi 7 bosqichni tashkil etishini ko'rish mumkin.

Bunda karyera yoshi 17 yoshdan boshlanib 66 yoshgacha davom etadi hamda 66 yoshdan so'ng karyeraga erishish samaradorligini har bir shaxs o'z sog'ligini saqlash, oilasini bahamjihatligini ta'minlash va hatto yolg'izlik bilan kurashish yo'lida jonbozlik ko'rsatib, karyeraning xususiylik jihatlarini namoyon qiladi.

Hozirgi vaqtda mehnat bozori juda xilma-xil bo'lib, ish izlovchilar uchun kompaniyalar o'zlaridagi keng qamrovli bo'sh ish o'rinlari tanlovini taklif etishmoqda. Yaqin o'tmishga nisbatan aksincha ravishda hozirgi kunda potensial ish beruvchilar mehnat bozorida yuqori malakali mutaxassislar uchun kurashishmoqda.

Lekin, karyeraga erishish bosqichlari hamisha ham professional rivojlanish bosqichlari bilan bog'liq bo'lavermaydi. Shu o'rinda, biz, professionalning rivojlanish fazalari haqida qisqacha ilmiy mushohada yuritamiz. Sababi, o'sish harakati bosqichida turgan shaxs (mutaxassis) boshqa kasb doirasida, hali yuqori darajadagi professional sifatida shakllanmagan bo'lishi mumkin. Shuning uchun karyera bosqichlari (shaxs taraqqiyotning o'tish davri) va professionalning rivojlanish fazalari (faoliyatni o'zlashtirish davri)ni bir-biridan farqlash o'ta muhim sanaladi.

John L. Holland bo'yicha «RIASEC – shaxs tipologiyalari konsepsiyasi»

№	Shaxs tiplari	Faoliyat mazmuni	Professional orentatsiya
1.	Realistik (<i>Realistic</i>)	Asbob-uskunalar va mexanizmlarni boshqarishga yo'nalganlik	Ijtimoiy kuch bilan bog'liq mashg'ulotlarga nisbatan moyillik
Mos keladigan kasblar		Mexanik, elektrik, muhandis, oshpaz va boshq.	
2.	Izlanuvchi (<i>Investigative</i>)	Izlanuvchanlikka yo'nalganlik	Fikrlash, tashkiliy faollik bilan bog'liq karyeraga moyillik
Mos keladigan kasblar		Botanik, faylasuf, fizik, dasturchi va boshq.	
3.	Artistik (<i>Artistic</i>)	O'zini ko'rsatish va o'z his-tuyg'ularini namoyon etishga yo'nalganlik	Fikrni, emotsiyalarini ifodalash, san'atkorlikka moyillik
Mos keladigan kasblar		Rassomlar, musiqachilar, reklama yaratuvchilar va boshq.	
4.	Ijtimoiy (<i>Social</i>)	Odamlar bilan birgalikda harakatlanishga yo'nalganlik	Intellectual yoki jismoniydan ko'ra ko'proq shaxslararo muomalaga moyillik
Mos keladigan kasblar		Shifokor, o'qituvchi, davlat fuqarolik xizmatchisi va boshq.	
5.	Tadbirkor (<i>Enterprising</i>)	Odamlarga ta'sir qilishga yo'nalganlik	Boshqalarga ta'sir o'tkazish bilan bog'liq faoliyatga moyillik
Mos keladigan kasblar		Menejer, jurnalist, blogir, advokat va boshq.	
6.	Konvensional (<i>Conventional</i>)	Axborotlar va ko'rsatkichlarni boshqarishga yo'nalganlik	Tashkiliy, tartibga solingan faoliyatga moyillik
Mos keladigan kasblar		Notarius, bankir, buxgalter, patentshunos va boshq.	
Izoh: Xorijlik va O'zbekistonlik olimlar tadqiqotlari asosida muallif yondashuvi			

2-omil. Shaxs professional orientatsiyasi – bu uning nisbatan moyil bo'lgan qadriyatlarini, motivlari va ehtiyojlari majmuasi bo'lib, u orqali tanlangan faoliyatga xos karyera ko'rinishlarini shaxs tipologiyasiga monand aniqlash imkoniyatiga ega bo'linadi (1.4-jadvalga qarang). Demak, tanlangan faoliyat sohasiga doir shaxs xususiyatlarini baholash hamda boshlang'ich kasbiy faoliyat yo'lida inson shaxsi tipini aniqlash muhim ahamiyat kasb etar ekan.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni tasdiqlash maqsadida, J.L. Hollandning taklif etgan «RIASEC – shaxs tipologiyalari konsepsiyasi»ni [7] o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. J.L. Hollandning RIASEC konsepsiyasi bo'yicha hamisha yagona tip ustunlik qilsa-da, aslida, inson bir vaqtning o'zida ikki

va undan ortiq tiplar strategiyasidan foydalanishi yoki ularga bo'ysinishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ayrim shaxslar bittadan ortiq orientatsiyaga ega bo'lishlari ham mumkin. Ustuvor (peshqadam) yo'nalish (faoliyat doirasidagi sektorlar) va ikkinchi (uchinchi) darajali yo'nalish qanchalik bir-biriga yaqin bo'lsa, shaxs tipi ham shunchalik yaqin bo'ladi. Agar ustuvor va boshqa turdagi yo'nalganlik bir-biridan qanchalik uzoq bo'lsa, karyerani tanlash shunchalik qiyin kechadi.

Bizningcha esa, shaxs tipologiyasi u yoki bu faoliyat mazmunini ifodalovchi orientatsiyalar mohiyati bilan qanchalik o'zaro muvofiq kelsa, professional karyerani tanlash va (yoki) rejalashtirish bilan bog'liq muammolar shuncha kam bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 maydagi PF-3434-sonli «O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Farmon // <https://lex.uz/docs/-214651>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi PF-5325-sonli «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmon // <https://lex.uz/docs/-3546742>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi PF-87-sonli «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmon // <https://lex.uz/docs/-5899498>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi PF-87-sonli «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5899498>

5. «2022–2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha milliy dastur» // <https://lex.uz/docs/-5899498>

6. «2022–2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi PF-87-sonli «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5899498>

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5841063>

9. Митюнина С.В. Модели профессиональной карьеры личности. дис. ... канд. социол. наук. – Нижний Новгород: Нижегородского гос. ун-та им. Н.И. Лобачевского, 2006. – 168 с.

10. Турецкая Г.В. (2021). Деловая активность женщин и семья. Социальная исследования, 2, 68–69

11. Davronova F.R. (2020). Jamiyat faoliyatida ayol va uning ijtimoiy maqomi. Konsensus xalqaro jurnali, Vol. 1, (3), 68–82. <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0788-2020-3-8>

Polvanova Dilrabo Tagaymuratovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

YOSHLARNING AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGIGA KIBERBULLING TAHDIDLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarning axborot-psixologik xavfsizligiga kiberbullingning tahdid solish shakllari tavsiflangan, kiberbullingni yuzaga keltiruvchi sabablar, kiberbullingni an'anaviy zo'ravonlikdan farqlovchi xususiyatlar, ularning o'zaro bog'liqligi, hodisa ishtirokchilarining psixologik tavsifa va kiberbulling oqibatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kiberbulling, deviant hulq, fleyming, trolling, bo'hton, tuhmat, kiberstalking, seksting, griferstvo, sirlarni oshkor qilish, ketfishing, dissing, freyping

CYBERBULLING ON THE INFORMATIONAL AND PSYCHOLOGICAL SECURITY OF YOUTH THREATS

Annotation. This article describes forms of cyberbullying that pose a threat to information and psychological security, the causes of cyberbullying, the features that distinguish the quality of cyberbullying from traditional violence, their interdependence, the psychological state of the participants in the incident and the consequences of cyberbullying.

Keywords: cyberbullying, deviant behavior, flaming, trolling, defamation, slander, cyberstalking, sexting, griffing, divulging secrets, catfishing, dissing, fraping

КИБЕРБУЛЛИНГ НА ИНФОРМАЦИОННОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ МОЛОДЕЖИ УГРОЗЫ

Аннотация. В данной статье описаны формы кибербуллинга, представляющие угрозу информационно-психологической безопасности, причины возникновения кибербуллинга, особенности, отличающие качество кибербуллинга от традиционного насилия, их взаимозависимость, психологическое состояние участников инцидента и последствия кибербуллинга.

Ключевые слова: кибербуллинг, девиантное поведение, флейминг, троллинг, клевета, киберсталкинг, секстинг, гриффинг, разглашение секретов, кетфишинг, диссинг, фрейпинг.

Internet texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan XXI asrda insoniyat va jamiyat uchun ko'p qulayliklar yuzaga keldi. Ammo, shu qatorda insoniyatning ruhiy holatiga, sog'ligiga xavf tug'diruvchi axborotlarning ko'paydi. Ayni paytda shaxs ongiga yo'naltirilgan axborotlar oqimi keskin ortib bormoqda. Yosh avlod vakillari internetdan faol foydalanmoqda va ularning axborot-psixologik xavfsizligi tahdidlardan himoyalanganmi degan savolni yuzaga chiqqan.

V. Leviskiyga ko'ra shaxsning axborot-psixologik xavfsizligi-psixikaning ong va ongsizlik sohasini, odamning irodasi va istagiga qarshi tarzda, xulqi va psixologik xususiyatlarini o'zgartiruvchi ta'sirlardan, turli zararli axborotlardan aniq himoyalanganlik holatidir deb ta'kidlaydi. O'zbekiston yoshlarining axborot psixologik xavfsizligini ta'minlash maqsadida turli chora-tadbirlar ko'rilmogda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning sog'ligiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soladi. Maktabda bolalar va o'smirlar o'rtasidagi zo'ravonliklar, kamsitishlar, uyaltirish, ustidan kulish, haqorat qilish kabi holatlarga pedagoglar va psixologlar doimiy ravishda duch keladilar. Bu muammo jahon psixologiya fanida bulling atamasi bilan o'rganiladi. Shu qatorda ta'lim tizimida ushbu muammoni yangi deb bo'lmaydi.

Biz XXI asr-axborot texnologiyalari asrida yashar ekanmiz, bizning asrimizga tegishli psixologik jarohatlash usuli kiberbulling (ing. bull - buqa so'ziga ma'nodosh tegajoqlik qilish, jahlini chiqarmoq ma'nosini bildiradi) muammosiga duch kelmoqdamiz. O'smirlar o'rtasida kiberbulling hodisalarining yuzaga kelishi va salbiy holatlari oqibatlari yildan-yilga tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligi va tadqiq etilayotgani kuzatilmoqda. Ilmiy tadqiqotimiz natijasiga ko'ra, kiberbulling hodisasiga quyidagicha ta'rif berdik: - Internet yoki raqamli texnologiyalar orqali boshqa bir shaxs ongiga qasddan va takroriy tarzda ta'sir ko'rsatish (qo'rquvga solish, kamsitish, nafratlanarli takliflarni bildirish, tahdid, shantaj, tuhmat va xklar) kiberbulling sifatida baholanadi.

Ushbu muammosi birinchilardan bo'lib, AQShda 1997 yilda o'rganila boshlangan. Bu paytda AQShning atigi 4 ta shtatida maktabdagi zo'rvonliklarga qarshi rasmiy harakatlar boshlangan edi. 1999-yilda Kolubayn maktabidagi ommaviy qotillikning ro'y berishi, ya'ni yuqori sinf o'quvchilari Xarris va Kliboldning 37 ta o'quvchini yaralashi va 13 o'quvchi vafot etadi. Politsiya xodimlarining o'rganish natijasida aniqlanadiki, o'smirlar jumladan, Xarris maktabda doimiy xo'rlash va haqoratlar uchragan, hattoki u o'zining ijtimoiy saytida ko'plab kamsitishlar va jismoniy zo'rvonlik haqidagi tahdidlarni qabul qilgan. Aynan shu joydan uning jamiyatga qarshi nafrati paydo bo'lgan va oshib borgan. Xarris o'z kundaligida uni o'rab turganlarga, jamiyatga qarshi urush e'lon qilganini yozgan. Ushbu voqeadan so'ng Amerika psixologlari Assosiatiasida Kiberbulling muammosiga bag'ishlangan jurnalning maxsus soni chop etiladi.

Bolaga yordam xalqaro liniyasi (Child Helpline International) 2013 yilda Yevroparlamentga kiberbulling murojatlarning 7% ni tashkil etganini o'z dokladida ko'rsatib o'tgan. EU Kids Online II Internetni rivojlantirish fondi proektida ishtirok etgan Rossiyalik olimlar 10% bolalar o'smirlar davrida kiberbullingdan jabrlanganligini qayd etganlar. Bu va boshqa tadqiqotlar kiberbullingning sezilarli darajada tarqalayotganini va unda o'smirlarning ishtiroki oshib borayotganligini bildiradi. 2015-yilga kelib Bolaga yordam xalqaro liniyasi (Child Helpline International) kiberbulling hodisasida jabrlangan bolalarning 16000 dan ziyod yordam so'rab qilgan murojatlarni qayd etgan.

Kiberbullingning asosiy jihati shundaki, muloqot jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalar orqali yolg'on ma'lumotlarni tarqatish, kamsitish va ajratib qo'yish bilan jabrlanuvchiga ta'sir ko'rsatiladi. Hatto yakka shaxslar ham kimningdir hayotini yetarlicha zaharlashi, uni har kuni qo'rquvda yashashga mahkum qilishi mumkin.

Kiberbulling odatda jabrlanuvchiga tahdid qilingan xabarlarini yuborish, kamsituvchi fotosuratlar va videolarni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish yoki yasama, yolg'on ma'lumotlarga ega soxta veb-saytlarni yaratishda namoyon bo'ladi. Kiberbulling oqibati qanday tugashi har doim ham ma'lum emas.

Kiberbulling muammosining dolzarbligi shundaki, o'rganilayotgan mavzu mutlaqo yangi tadqiqotlar sohasi bo'lib, terminologik tizim qat'iy shakllanmagan. Ba'zi mutaxassislar kiberbulling faqat bolalar va o'smirlar o'rtasida bo'lishi mumkin, deb hisoblaydilar. Qachonki bu bilan kattalar shug'ullanishsa, "kiber xarassment" (cyber harassment) yoki "kiberstalking" (cyberstalking) deb atashmoqda. (Aftab, 2011). Boshqa mutaxassislar esa quyidagi terminlarni ma'qul ko'radilar: "netsivilizovannost` onlayn", "onlayn madaniyatsizlik" (incivility online) yoki "kibernetsivilizovannost", "kibermadaniyatsizlik" (cyber incivility) (Giumenti et al., 2012). Ba'zi psixologlar "kiberstalking"ni kiberbulling bir turi sifatida ko'rsatadilar.

Ushbu tadqiqotlarda insondagi agressiv xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi omillar, shaxs xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan sabablar, hodisalarni bulling yoki kiberbulling ekanligi oydinlashtiruvchi ma'lumotlar, bulling va kiberbullingning klassifikatsiyasi, bullingni amalga oshirishdagi gender tafovutlar tadqiq etilgan.

Jumladan, agressiv xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi quyidagi omillar sifatida quyidagilar sanab o'tilgan: oiladagi muhit, tarbiya, agressiv xulq-atvor namunalari, jumladan, televideniya orqali namoyish etilayotgan jangari film syujetlari, kompyuter o'yinlari, emotsional bosim, frustratsion holatlar va boshqalar.

Uzoq muddatli tadqiqotlar, ya'ni longityud usulidagi izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bolalik davrida shakllantirilgan agressiv xulq-atvor xarakter xususiyati sifatida ontogenezning keyingi bosqichlarida ham saqlanib qoladi. Maktabdagi bulling va kiberbulling holatida o'smir o'z tengdoshlari bilan munosabatda kuchaygan agressiyasini namoyon etadi. O'zini tasdiqlash maqsadida kuchsizroq tengdoshiga nisbatan jismoniy yoki ruhiy bosim o'tkazish, zarar yetkazish maqsadidagi negativ hulqni ko'rishimiz mumkin.

Mualliflar Kiberbullingning yuzaga kelishini 8 ta sababini ajratib ko'rsatishadi.

- "**ustunlikka intilish**" - bu insonning asosiy ehtiyoji bo'lib, balki o'smirlar internetda kimnidir kamsitish, xo'rlash orqali o'zining "ustunligi"ni tasdiqlamoqchi bo'ladi;

- "**subyektiv tarzda nomukammallikni his qilish**" - tushkunlik holatini, zaifligini his qilish kechinmasi tufayli;

- "**Hasad**" - boshqalarning farovonligini ko'ra olmaslik hissi.(bir kishidagi narsa (obro', mavqe) yo'q bo'lishini va unga o'zi ega bo'lishni istagani uchun);

- "**qasos**" - yetkazgan zulmi, haqorati uchun qasos olish maqsadida;

- "**shunchaki ermak uchun**" - amalga oshirayotgan harakatlaridan zavqlanish;

- "**konformizm**" - guruhning ta'siri ostida fikrining o'zgarishi sababli;

- "**oilaviy munosabatlardagi muammo**";

- **“empatiyaning past daraja rivojlanganligi”** – ya’ni diqqatining faqat o’ziga va o’z tashvishlariga qaratilganligi sababli.

Bugungi kunda kiberbullingning quyidagi turlari ajratib ko’rsatiladi:

- **fleyming** – “shunchaki bahs uchun bahslashish”, ko’p foydalanuvchilar ega ijtimoiy tarmoqda xabarlarini almashish jarayoni. (chatlar, internet- forumlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar);

- **trolling** – konfliktni chuqurlashtirish maqsadida, odamlar reaksiya bildirishlari uchun provokatsion xabarlarini va kommentariyalarni joylashtirish

- **bo’hton, tuhmat** – birovni ayblash yoki qoralash maqsadida o’ylab chiqarilgan asossiz da’voni, ma’lumotlarni, shaxsning obro’siga putur yetkazish maqsadida tarqatilishi.

- **kiberstalking** – Internet orqali ta’qib qilish, xiralik, shilqimlik, holi joniga qo’ymaslik holati;

- **seksting** – intim xarakterdagi fotosuratlar va videolarni jo’natish va tarqatish;

- **griferstvo** – video o’yinlarda ma’naviy yoki moddiy zarar keltirish;

- **sirlarni oshkor qilish** – shaxsning ochiq e’lon qilishni istamaydigan, shaxsiy ma’lumotlarini hammaga, halqqa internet orqali oshkor qilish, e’lon qilish;

- **o’zini birovning nomi bilan ko’rsatish** – birovlarni qo’lga tushurish, ziyon keltirish maqsadida, o’zini yashirish va soxta profillarni yaratish

- **ketfishing** – nobob, nomuvofiq kontentni yaratish maqsadida, shaxsiy fotosuratlar va ma’lumotlarini o’g’irlash orqali jabrlanuvchining profilini qayta tiklash,

- **dissing** – jabrlanuvchini (yoki jabrdiydani) qoralovchi informatsiyalarni onlayn tarzda eshittirish yoki ko’rsatuv qilish;

- **freyping** – ta’qib qiluvchi tomonidan boshqa birovning yozishmalarini nazoratga olish, jabrlanuvchining nomidan nomaqbul kontentlarga xat-xabarlar jo’natish.

Bulling va kiberbullingda gender tafovutlar quyidagilarda ko’rinadi:

- O’g’il bolalar tez-tez jismoniy tahdid va xatti-harakatlardan foydalanishadi, qizlar esa og’zaki munosabatlarda tahqirlash bilan shug’ullanishadi.

- Kiberbullingda o’g’il bolalar odatda “seksting” (jinsiy xarakterga ega xabarlar yuborish) yoki jismoniy zarar yetkazish bilan tahdid qiladigan xabarlar bilan qo’rqitadilar. Boshqa tomondan, qizlar yolg’on va mish-mishlarni tarqatish, sizning sirlaringizni fosh qilish yoki sizni ijtimoiy media guruhlari, elektron pochta xabarlari, do’stlar ro’yxati va shunga o’xshash narsalardan chiqarib yuborish orqali qo’rqitadi.

Kiberbulling 21 asr, Axborotlar asrining yangi muammosi bo’lib, bulling va kiberbulling hodisasining bog’liqligi, o’ziga xos jihatlari, ishtirokchilarning psixologik holati va oqibatlari quyidagi holatlarda ko’rinadi:

- Bugungi kunda insoniyat uchrashi mumkin bo’lgan, zo’ravonlik, ruhiy bosim o’tkazish kabi bulling holatlari boshqa shaklga transformatsiya bo’lib, jonli real voqelikdan vertual shaklga o’tib borayotganligi hamda vertual voqelikdagi istalgan jarayonni u shaxsiy adovat, jamiyatga qarshi harakat davlat siyosatiga qarshi tahdidni real voqelikka osonlikcha ko’chirish mumkinligi, chegaraning yo’qligida;

- Ilgari mavjud bo’lgan ruhiy bosim o’tkazish, jismoniy zo’ravonlik tahdid qilish, qo’rqitish kabi muammolarning bugungi kunda virtual olamda davom etayotganligida.

Yuqorida ta’kidlanganidek, kimdir internetdan, elektron pochta xabarlari, matnli xabarlar yoki ijtimoiy media kabi raqamli texnologiyalardan foydalangan holda sizni tahqirlashi, tahdid qilishi orqali kiberbulling xodisasi sodir bo’ladi.

An’anaviy tahqirlashdan farqli o’laroq, kiberbulling yuzma-yuz aloqa qilishni talab qilmaydi va bir vaqtning o’zida faqat bir nechta guvohlar bilan cheklanib qolmaydi. Shuningdek, buni amalga oshirish undan jismoniy kuch talab qilmaydi. Kiberbulling har turli shaklda va hajmda bo’ladi, Internetga ulangan yoki mobil telefonga ega bo’lgan har bir kishi biron kimsaga nisbatan kiberbullingni amalga oshira oladi.

Kiberhujumlar sizni kuniga 24 soat, haftada yetti kun azoblashi mumkin. Haqoratlash har qanday joyda ta’qib qilishi mumkin, hatto o’z uyingizda ham siz o’zingizni xavfsiz his qilmasligingiz mumkin. Bir necha marta bosish bilan yuzlab va hatto minglab odamlar onlayn tahqirlanishni guvohi bo’lishlari mumkin. Bolalar va o’spirinlarning kiberbullingdan foydalanadigan usullari ular foydalana oladigan texnologiyalar kabi xilma-xil bo’lishi mumkin. Ular elektron pochta, matn, ijtimoiy media yoki messengerlar orqali tahdid yoki haqoratli xabarlarini yuborish, elektron pochta qayd yozuvingizga kirish, sizni xafa qilish va tahqirlash uchun onlayn identifikatorni o’g’irlashgacha bo’lishi mumkin. Kiberbullingda shaxsga yo’naltirilgan veb-sayt yoki ijtimoiy media sahifasini yaratishlari mumkin.¹

¹ Lawrence Robinson and Jeanne Segal, Ph.D. Bullying and Cyberbullying Last updated: June 2019.

Shuningdek, kiberbullingda o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega ishtirokchilar qatnashadilar.

Psixologlar kiberbulling ishtirokchilarini xususiyatlariga ko'ra uchta guruhga ajratadilar: ta'qib etuvchi, jabrlanuvchi va kuzatuvchilar.

Ta'qib qiluvchilar - impul'siy, o'zi g'ayratli bo'lmagan, ammo o'zini dadil ko'rsatishni istaydigan, yetakchilik xususiyatlariga ega, tajovuzkor xatti-harakatni namoyish eta oladigan, atrofida gilarining kechinmalarni his qilmaydiganlar o'smirlar.

Jabrlanuvchilar - uyatchan, xavotirli, ko'z yoshlariga moyil, muloqotga kirishishga qiynaladigan o'smirlar.

Kuzatuvchilarga kelsak, ular qo'rquvni qisman his qiluvchi, yordamga muhtoj va shu bilan birga ta'qib qiluvchini qo'llab-quvvatlaydiganlardir.¹

Kiberbullingdan jabrlangan shaxslarda, quyidagi psixologik oqibatlar ajratib ko'rsatilgan. O'z "Men"iga bo'lgan ishonchning pasayishi, o'zini anglashning pasayishi, tushkunlik, tajovuzkor xatti-harakatlar, tashvish, ishonchsizlik, tez-tez kayfiyat o'zgarishi, qo'rquv, o'z joniga qasd qilish va boshqa tendensiyalar.

Kiberbulling qurbonlari psixologik yordamga muhtoj bo'lgan eng zaif guruhlardir. Ammo shuni ham ta'kidlash kerakki, kiberbulling oqibatida nafaqat jabrlanuvchi, balki ta'qib qiluvchilar va kuzatuvchilar ham jabr ko'rishi mumkin. Ta'qib qiluvchilar o'z xatti-harakatlarining psixologik oqibatlaridan aziyat chekishlari mumkin. Kamolotga yetgach, ular yolg'iz qolishlari ehtimol, chunki boshqalarni tahqirlash, uning o'z-o'zini yuqori baholashi, nartsissizm, agressiya, avtoritarizm, kinizm, ijtimoiy moslashuv bilan bog'liq muammolarni rivojlantiradi.

Kiberbulling guvohlariga kelsak, ular vaqt o'tishi bilan, hatto balog'at yoshida ham ular hissiy xafagarchilik, asabiylashish, o'ziga ishonchsizlik va hokazolarni boshdan kechirishlari mumkin.²

Jismoniy zo'ravonlikdan farqli o'laroq, psixologik ta'qib, zo'ravonlikning ta'siri uzoq muddatli bo'lishi va alal-oqibat insonning ruhiy salomatligiga salbiy ta'siri o'tkazish ehtimoli katta.

Yuqoridagilarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, Internet tarmog'ining vujudga kelishi va rivojlanishi natijasida bulling va kiberbulling hodisasi birinchilardan bo'lib, G'arb davlatlarida ilmiy tadqiq etilgan va O'zbekiston hududida ham ushbu muammoni to'liq tadqiq etish, kiberbulling va uning namoyon bo'lish shakllarini o'rganish, terminologiyasini shakllantirish va kiberbulling hodisalarining statistikasini olib borish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

O'zbekistonda Internet tarmog'idan yoshlarning faol foydalanish imkoniyati mavjudligini hisobga olib, bulling va kiberbullingning salbiy oqibatlarini oldini olish maqsadida ota-onalar, o'qituvchilar va o'quvchilarning internetdan foydalanish kompetentsiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Internetda xavfsiz muloqot qilish ko'nikma va malakasini o'smir o'quvchilarga maktab darsliklari orqali berib borish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasidan xulosa qilish mumkinki, kiberbulling hodisasining yuzaga kelish sabablari, namoyon bo'lish shakllari turfa xildir. Shu sababdan agressiv hulq-atvorni yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish maqsadida, oiladagi psixologik muhitni, salbiy emotsional bosimning yosh avlodga ta'sirini o'rganish, ta'lim muassasalaridagi ta'lim tarbiya jarayonidagi loqaydliklar va ommaviy axborot vositalarida namoyish etilayotgan jangari film syujetlari, internet tarmog'idagi shavqatsizlikni targ'ib etuvchi kompyuter o'yinlarining ta'sirlarini keng jamoatchilikka to'g'ri talqin qilgan holda yetkazish muhim.

Mintaqamizdagi yoshlarda bulling va kiberbullingga duch kelish holatlarini o'rganish, diagnostika qilish va oqibatlarini bartaraf etish yosh avlodda elektron vositalar va internet orqali muloqot qilish madaniyatini oshirish, o'z huquq va burchlarini teran anglash, umuman internet tizimidan foydalanuvchilarining muloqot qilish kompetentsiyasini yanada takomillashtirib borish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pellegrini A. D., Bartini M., Brooks F. School bullies, victims, and aggressive victims: Factors relating to group affiliation and victimization in early adolescence. *Journal of Educational Psychology*, 1999, V. 91 (2), pp. 216–224.

¹ Pellegrini A. D., Bartini M., Brooks F. School bullies, victims, and aggressive victims: Factors relating to group affiliation and victimization in early adolescence. *Journal of Educational Psychology*, 1999, V. 91 (2), pp. 216–224.

² Макарова, Е. А. Психологические особенности кибербуллинга как формы интернет-преступления / Е. А. Макарова // Российский психологический журнал. – 2016. – Т. 13. – № 3. – С. 293-311.



2. Е. А. Макарова, Э.Л. Макарова Психологические особенности кибербуллинга как формы интернет-преступления Российский психологический журнал • 2016 том 13 № 3 293-311ст
3. Lawrence Robinson and Jeanne Segal, Ph.D. *Bullying and Cyberbullying* Last updated: June 2019.
4. И.В. Волкова Характеристики подросткового буллинга и его определение. «Вестник Мининского университета» 2016 – № 2
5. Бенгина Э.А. Гришаева С.А. Кибербуллинг как новая форма угрозы психологическому здоровью личности подростка современные тенденции в психологии
6. Баранов.А.А. Психологический анализ причин подросткового кибербуллинга. [Электронный ресурс] / А. А. Баранов, С. В. Рожина. – Режим доступа:
7. Макарова, Э. А. Психологические особенности кибербуллинга как формы интернет-преступления / Э. А. Макарова // Российский психологический журнал. – 2016. – Т. 13. – № 3. – С. 293-311.
8. Козонина, А. Кибербуллинг: как устроена травля в интернете и почему с ней надо бороться [*Kiberbulling: how the bullying on the Internet and why we must fight with it*]. Available at: <http://www.furfur.me/furfur/changes/changes/218033-bul> (accessed 10.02.2018).
9. Belsey B. *Cyberbullying: An Emerging Threat to the «Always On» Generation* URL: http://www.cyberbullying.ca/pdf/Cyberbullying_Article_by_Bill_Belsey.pdf.
10. А.А.Баранов, С.В.Рожина. Копинг-стратегии подростка в ситуации кибербуллинга / Вестник Удмуртского университета. – 2016. –Т. 13 – вып 2
11. Olweus D. *Bullying in schools: what we know and what we can do* . Oxford, UK: Blackwell, 1993.
12. Child Helpline International. *Voices of children and young people: heard and unheard*. 2015 Data from Child Helplines in Europe. Amsterdam, 2016 [Electronic resource]. Available at: http://orgchi-tukhnakal.savviihq.com/wpcontent/uploads/2017/05/voices_of_children_and_young_people_-_eu-rope.pdf (accessed: 03.07.2017).
13. Э.Н. Волкова¹, И.В. Волкова¹ “Кибербуллинг как способ социального реагирования подростков на ситуацию буллинга”

Shukurova Gulnoz Muhammadovna

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar mustaqil tadqiqotchisi

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR TAFAKKURINI SHAKLLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Jahonda jamiyat ravnaqi ko'p jihatdan uning intellektual imkoniyatlari bilan belgilanadi. Chunki, ilmiy salohiyati yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg'or bo'ladi. Davlatlarning tarixiy rivojlanishida yoshlarga bo'lgan e'tibor muhim o'rin egallaydi. Hozirgi kunda zamonaviy Davlat ta'lim standartlarida talabalarni kreativ, tanqidiy fikrlaydigan, ta'lim jarayonidagi yuzaga keladigan muammolarga aniq yechim topa oladigan qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, bugungi kunda ilm-fan va texnologiyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi sharoitida uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari, jumladan, oliy ta'limning samaradorlik, natijadorlik va sifatini ta'minlashda ta'lim oluvchilarning kreativlik, mantiqiylik, mazmundorlik, ijodiy qobiliyatlarining rivojlanganlik darajalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: tafakkur, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, qiziquvchanlik, psixologik rivojlanish, qobiliyat, stereotip, pedagogik improvizatsiya.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. Процветание общества в мире во многом определяется его интеллектуальными возможностями. Потому что страна с высоким уровнем научного потенциала постоянно развивается во всех областях. Важное место в историческом развитии государств занимает акцент на молодежь. В настоящее время, в современных государственных образовательных стандартах, становится важным воспитывать у учащихся креативность, критическое мышление, умение находить четкое решение проблем, возникающих в образовательном процессе. Кроме того, сегодня, в условиях стремительного развития науки и техники, особое значение придается уровню развития креативности, логики, содержания, творческих способностей тех, кто получает образование на всех этапах непрерывного образования, включая обеспечение эффективности, продуктивности и качества высшего образования.

Ключевые слова: мышление, креативность, критическое мышление, любознательность, психологическое развитие, способности, стереотип, педагогическая импровизация.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF THE FORMATION OF STUDENTS' THINKING OF PRIMARY SCHOOL AGE

Annotation. The prosperity of a society in the world is largely determined by its intellectual capabilities. Because a country with a high level of scientific potential is constantly developing in all areas. An important place in the historical development of states is the emphasis on youth. Currently, in modern state educational standards, it is becoming important to educate students in creativity, critical thinking, the ability to find a clear solution to problems arising in the educational process. In addition, today, in the conditions of rapid development of science and technology, special importance is attached to the level of development of creativity, logic, content, creative abilities of those who receive education at all stages of continuing education, including ensuring the effectiveness, productivity and quality of higher education.

Key words: thinking, creativity, critical thinking, curiosity, psychological development, abilities, stereotype, pedagogical improvisation.

Kirish. Jahonda bolalarni o'quv jarayoniga innovatsion tayyorlashga oid bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Bolani ta'limga har tomonlama mukammal tarzda tayyorlash, ta'lim va amaliyot orasidagi bog'liqlikni bartaraf etish yo'lida «Tajriba asosida ta'lim olish» (Experimental learning) g'oyasi ustuvor bo'lib qolmoqda. Ushbu jarayon har tomonlama tafakkuri boy, intellekti yuqori bolalarni maktabga tayyorlashni talab etmoqda. Buning uchun bolalarni maktabga tayyorlashni o'ziga xos psixologik jihatlariga e'tibor berish, bu jarayonni rivojlantirish orqali ularni maktabga tayyorlash dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jamiyatni insonparvarlashtirish XXI asrning kun tartibidagi masalasidir. Hozirgi kunda ham taraqqiyot bosqichida bu tendensiya inson omilining belgilovchi o'rni bilan namoyon bo'ladiki, bu borada ijodkorlik uning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. «Gap subyektning ijodiy ongi haqida

ketmoqda, chunki ongning ijodiy va transformatsion funksiyalari uning asosiy ma'nosi va qiziqishlarini tashkil etadi»[7]. Jamiyatdagi o'zgarishlarga javoban ta'lim tizimi ham o'zgarib bormoqda. Agar ilgari o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish bo'lgan bo'lsa, tez o'zgaruvchan dunyoda o'zini-o'zi aniqlashga qodir insonni har tomonlama rivojlantirish haqidagi masala kun tartibiga qo'yiladi. L.V.Zankovning ta'kidlashicha, ta'lim jarayoni tarkibidan mustaqil, noan'anaviy, kreativ kamchiliklarni hal qila oladigan, atrof-muhitni o'zgartira oladigan odamga joy berish kerak. Ta'lim tizimidagi o'quvchilarni o'zgarishi, shaxs uchun muhim bo'lgan ta'limga bo'lgan ehtiyoj, ularning umumiy psixologik rivojlanishi ta'lim g'oyalari ilgari surishga olib keldi. Bu esa rivojlantiruvchi ta'lim tizimining yaratilishida o'z aksini topgan (V.V. Davidov, L.V.Zankov, D.B.Elkonin).

Metodologiy. Respublikamiz olimlaridan bolalarning shakllanishi hamda ularning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan psixologik xususiyatlari muammosi G.B.Davletshin, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, B.R.Qodirov, B.M.Umarov, N.S.Safayev, E.G'.G'oziyevlar tadqiqotlarida o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan G.M.Andreeva, D.B.Elkonin, B.K.Lisin, L.S.Obuxova, S.B.Malanova, A.A.Orlov, A.N.Leontov, I.V.Dubrovina, L.S.Vigotskiy bolalarning yosh psixologiyasi va ularni shaxs kamolotidagi o'rni va ahamiyatini tadqiq etganlar.

Xorij olimlari M.Bingham, J.Edmondson, J.R.Nuttin, Y.Peng, A.S.Waterman, J.Turner, S.Stryker, M.Rokeach, K.R.Rogers, G.Hofstede va boshqa olimlar bolalarni maktabga tayyorlashning turli psixologik jihatlarini o'rgananganlar.

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarida belgilangan ko'rsatkichlarga erishish 6-7 yoshdagi bolalarni maktabga to'la to'kis tayyorlashga, maktabda beriladigan ta'limni mukammal o'zlashtirishga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun xizmat qiladigan barkamol inson bo'lib etishishlariga zamin hozirlaydi.

Ta'lim oluvchilarda o'quv motivlari va kompetensiyalarning rivojlantirish B.Verspagen, N.N.Batryumova, I.V.Karzanova, W.Miller, mamlakatimiz olimlaridan D.G.Muxammedova, I.G'.Abdullayeva, SH.S.Qushoqov, A.I.Saitqosimov, SH.T.Kubayeva, G.G.Azizova kabi olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Ijtimoiy munosabatlar nazariyasini yetakchi vakili R.Mertonning ta'kidlashicha, maktabga tayyorlashning innovatsion g'oyalarni, deviant xulqning namunasi sanaladi. Bunda muallif ta'lim berishning institutsional (bazaning zamirida vujudga keladigan) asoslarini ishlab chiqishda mavjud bulgan me'yor va mezonlarni (aniq harakatlar ketma-ketligi, aloqadorlik va boshqalarni) inkor etib, ulardan voz kechib, iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan munosabat bildirgan

G.I.Gerasimov va L.V.Ilyuxinaning ta'kidlashicha, innovatsiya bu shaxsda ifodalangan ijodiy (kreativ) salohiyatni maqsadli namoyon qilish hisoblanib, uning faoliyat sifatidagi o'ziga xosligi shaxsning ma'lum tipini belgilab beradi [45]. Agarda, bolani maktabga tayyorlash tizimida innovatsiyalarning qo'llashni e'tiborga olsak, bola shaxs tipologiyasini sohaviy kurinishda klassifikatsiyasini amalga oshirish mumkin buladi. G.I.Gerasimov va L.V.Ilyuxinaning fikrini S.Knowles Malcolm, F.Holton Elwood, A.Swanson Richardlar ham davom ettirib, bugungi kunda shunday bolalarni maktabga tayyorlash zarurki, ular har qanday holatda ham o'zlarining bilimlarini amaliyotda nafaqat qo'llab, balki uni rivojlantira olishga ham erishsinlar, degan fikrni ta'kidlaydilar.

K.Rodjersning fikricha, agarda insonga genetik layoqati uchun shart-sharoit yaratib berilsa, u takomillashishga erishadi. Bu esa, o'z navbatida bolaning kelajakda ham shaxsiy ham kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatli kechishini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin ekan.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkurini shakllanishining asosiy komponentlari quyidagilarda aks etadi:

ijtimoiy tasavvurlarni o'zgarishi natijasida o'zi va o'z qiziqishlariga bo'lgan munosabatning o'zgarishi;

yangi bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqni oshishi;

orzu va istaklarni yuqori darajaga ko'tarilishi.

Bolalarni maktabga tayyorlashni aniqlashda ularga darajaviy yondoshib amaliyot davomida psixologik jarayon sifatida inobatga olinishi lozim bo'lgan vazifalar:

- ta'lim jarayonida bolaning innovatsion faoliyatga tayyorlash davomida o'zgarishlarni belgilab olish;

- maktabga tayyorlash uchun optimal uslublarni aniqlab olish;

- ilmiy-psixologik modellashtirish;

- o'quvchilarni rag'batlantirish.

Ushbu vazifalarni echish o'z o'rnida bolalarni maktabga innovatsion tayyorlash uchun muhim va ahamiyatli hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkurini shakllanishdan asosiy maqsad, ulardagi kreativlikni rivojlantirib, tafakkur tarzini takomillashtirib, maktab bilan bog'liq ijtimoiy tasavvurlarni adekvat shakllantirishdan iborat. Buning uchun esa avvalo, bolalardagi ijtimoiy identifikatsiyani shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu vazifani amalga oshirishda bolalarning maktab hayoti to'g'risidagi tasavvurlarini oshirish, ijodiy tafakkurlarini shakllantirish, ulardagi «men» ni rivojlantirish, innovatsion ongning xulq tarzida namoyon bo'lishiga erishish lozim bo'ladi. Yuqoridagilarni hisobga olib bolalarni maktabga tayyorlashning innovatsion optimal modellarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish zarurati paydo bo'ldi.

Xulosa. Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar, bugungi kunda kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkurini shakllanish muammosi, o'zining nazariy-metodologik bazasiga ega ekanligini ko'rsatsa-da, aynan mavzu doirasidagi tadqiqotlarning yetarli emasligi va dolzarbligini ko'rsatmoqda. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkurini shakllanish mexanizmlarini tadqiq qilishni psixologik muammo sifatida o'rganish, ijtimoiy identifikatsiya, ijtimoiy persepsiya, ijtimoiy refleksiya, altruizm, ijtimoiy adaptatsiya kabi kasbiy faoliyatga xizmat qiluvchi omillar haqida batafsilroq ilmiy xulosalar yuritish imkonini beradi. Shuningdek, o'rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili bugungi kunda kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkurini shakllanish mexanizmlari bilan bog'liq ilmiy manbalarning nihoyatda taqchilligini ko'rsatmoqda. Bu esa, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkurini tadqiq etish mexanizmlari orasidagi korrelyasion munosabatlar tizimini tadqiq qilishni taqozo etadi.

Adabiyotlar

1. Айзенк Г.Ю. Понятие и определение интеллекта// Вопросы психологии. – М.: 1995, – № 1. – С. 111-129.
2. Айзенк Г.Ю. Интеллект: новый взгляд// Вопросы психологии. – М.: 1995. – № 1. – С. 111–131.
3. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта // Психология мышления / Под ред. А.М. Матюшкина. – М.: 1965. – С 433 -456.
4. Дружинин В.Н. Психологическая диагностика способностей: теоретические основы: в 2 ч. – Саратов : Изд-во Саратов. ун-та, 1990 – Ч.1 –137 с; Ч. 2-С. 139-292.
5. Rogers, C. Towards a theory of creativity // ETS: A Review of General Semantics. 1954. 11 P. 249-260.
6. Sternberg R.J. Creativity for the new Millennium. «-», 2001.
7. Ғозиев Э.Ғ. Усмонова Ш. Интеллект психологияси. – Т.: ТошДУ, Университет, 1996, – 48 б.
8. Ғозиев Э.Ғ. Онтогенез психологияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 2010, – 360 б.

G'aybullayev A'zam Ahadovich
Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi
E-mail: azamgaybullayev21@gmail.com

ZAMONAVIY OILALARDA YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy oilalarda yoshlarni milliy qadriyatlar vositasida tarbiyalashning psixologik xususiyatlari, yoshlarni milliy va oilaviy qadriyat haqidagi tasavvurlari, oilada farzand tarbiyasiga bo'lgan munosabatlar, ota-onalarning farzand tarbiyasi metodlarini bilish darajasi kabi masalalar bo'yicha empirik ma'lumotlar bilan tanishishi mumkin.

Tayanch tushunchalar: zamonaviy oila, milliy qadriyat, oilaviy qadriyat, milliy tarbiya, fazilat, xususiyat.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ ЧЕРЕЗ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ В СОВРЕМЕННЫХ СЕМЬЯХ

Аннотация. В данной статье можно ознакомиться с эмпирическими данными по таким вопросам, как психологические особенности воспитания молодежи в современных семьях с помощью национальных ценностей, представления молодежи о национальных и семейных ценностях, отношении к воспитанию детей в семье, уровень знаний родителей о методах воспитания детей.

Основные понятия: современная семья, национальная ценность, семейная ценность, национальное воспитание, добродетель, характер.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF EDUCATION OF YOUTH THROUGH NATIONAL VALUES IN MODERN FAMILIES

Annotation. In this article you can familiarize yourself with empirical data on such issues as the psychological characteristics of raising young people in modern families with the help of national values, young people's ideas about national and family values, and attitudes towards raising children in the family, level of knowledge of parents about methods of raising children.

Basic concepts: modern family, national value, family value, national education, virtue, character.

Bugun Yangi O'zbekistonda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda[6].

Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina o'zi milliy qadriyatlaiga ega odobli, axloqiy fazilatli barkamol avlod, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi[7].

Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarni milliy qadriyatlarga oshna qilish birinchi navbatda milliy tarbiya vositasida, uning xulq-atvorini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Yoshlarni milliy qadriyatga asoslangan zamonaviy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini o'rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi[7].

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, milliy qadriyatga aylanishi kerak bo'lgan milliy fazilatlar, jumladan Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ayrim o'quvchi-yoshlarda milliy qadriyatlar haqida yetarlicha tasavvur shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda[8].

Shu munosabat bilan bugungi globalashuvning shiddatli va axboriy sharoitida yoshlarni milliy qadriyatlarga asoslangan milliy tarbiyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq qilish orqali oilaviy va milliy qadriyatlarining tayanch fazilatlarini shakllantirish, mazkur fazilatlarga ularni odatlantirish, tarbiyada tushuntirish, ko'rsatish, o'rgatish, namuna bo'lish kabi ta'sirsan usullarni isloh qilish va shu orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi[9].

Oilada milliy qadriyat va oilaviy qadriyatlarga qaratilgan tarbiya haqida gap ketganda beixtiyor taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" [1] degan chuqur ma'noli so'zlari inson e'tiborini tortadi.

Ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida ma'naviy tanazzulning asosiy omillari bo'yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma'lumotlar asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e'tiborsizdek tuyuladigan, lekin oqibati tanazzulga, johillikka olib boradigan bir omil, ya'ni oilada farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik illati millatning ma'naviy tannazulining asosi desak hecham mubolag'a bo'lmaydi.

Xo'sh nega bugun ota-onalar oilaviy qadriyatlarga e'tiborsiz? Yoshlar milliy qadriyatlarni qanchalik darajada bilishadi? Ota-onalar farzand tarbiyalash metodlarini biladimi? Mazkur savollar bizni masala yuzasidan hamma uchun bir tildagi optimal yechim topish vazifasini qo'ymoqda. Bugun butun dunyoda inson kapitali uchun kurash, eng katta sarmoya farzandni yaxshi bilimli bo'lishiga, tarbiyasiga tikilayotgan bir vaqtda bizda farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik illat va tahdidi kuchayib bormoqda.

Milliy va oilaviy qadriyatlarga e'tiborsizlik illati bir qator qarorlarda jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-sonli [2], 2019 yil 3-maydagi PQ- 4307-sonli[3], 2021 yil 26 martdagi PQ- 5040-sonli Qarorlari[4] va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31-dekabrda 1059-sonli[5] qarorida ichki tahdid sifatida qayd qilinib, mazkur tahdidlarni yuzaga keltiruvchi pedagogik, psixologik omillar bo'yicha tadqiqotlar olib borish, mazkur tahdidlarga nisbatan psixologik-g'oyaviy kurash olib borish vazifasi qo'yildi.

Yuqoridagi masalani nechog'lik xavotirli va dolzarbligi to'g'risidagi mulohazalarni asoslashda biz tomonimizdan bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish, baholash, ustuvor yo'nalishlarni aniqlab, ularning aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish va zarur maqsadli va manzilli psixologik tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan milliy qadriyatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari mavzusi bo'yicha joylarda tekshiriluvchilar bilan suhbat, ekspert-interv`yu, so'rovlar (ijtimoiy-psixologik), kuzatish, kontent tahlil, modellashirish, matematik statistika (spss dasturi), gipotetik- deduktsiya, vizualizatsiya, longityud monitoring va ma'naviy marketing kabi metodlar orqali o'rganishlar olib borildi va quyidagicha empirik natijalar qayd qilindi (1-jadval).

Jadval-1

Respondentlar orasida "Qadriyat deganda nimani tushunasiz degan savolga" quyidagicha empirik ko'rsatkichlarni qo'lga kiritdik n=50

№	Javoblar	N=50	%
1	Milliy urf odat, an'ana hamda milliy bayramlar	29	58%
2	kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, g'amxo'rlik, o'zaro ishonch	3	6%
3	milliy madaniy qadriyatlar, axloqiy qadriyatlar	7	14%
4	Insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan tinchlik, adolat, o'zaro hurmat, birdamlik, urf odat, a'nana, Madaniy va ma'naviy boyliklar	11	22%
Jami:		50	100%

Demak yuqoridagi ko'rsatkichlardan ma'lumki yoshlarni qadriyat haqidagi bilimlari mavjud, biroq mazkur qadriyat hali kompetentsiya darajasiga aylanmayapti, ya'ni yoshlar qadriyat nima ekanligi haqidagi bilimga ega, biroq uni hayotga tatbiq qilishida ma'lum bir sun'iy to'siqlar bor. Biz navbatdagi tadqiqotlarimizda aynan shu masalani o'rganishni maqsad qildik.

Biz tadqiqotimiz davomida yoshlar orasida oilaviy qadriyatlarga munosabatini ham o'rgandik va quyidagicha empirik ko'rsatkichlarni qo'lga kiritdik (2-jadval).

Jadval-2

Respondetlarga "Oilaviy qadriyatga nimalarni kiritasiz" deb berilgan savolga quyidagicha javoblar oldik n=50

№	Javoblar	N=50	%
1	Oila davrasida nishonlanadigan bayramlar, an'analar	3	6%
2	Ota-onaga hurmat, farzandlarga mehr shavqat, oilada otaning mavqei ustunligi	27	54%
3	ovqatlanish odobi, ovqatga kattalar birinchi bo'lib qo'l uzatishi, ovqatlanib bo'lgach kattalar tomonidan duo qilinishi	9	18%
4	ota bobolardan meros bo'lib qolgan barcha axloqiy me'yorlar, qariyalarni qadrlash, o'zaro ishonch, burch va mas'uliyat, tarbiya	8	16%
5	er va xotinning teng huquqliligi, tinchlik-totuvlik, ahillik	3	6%
Jami:		50	100%

Tadqiqotimiz davomida yoshlarda qadriyat degan savolga javoblar oldik va yoshlarni qadriyat va milliy qadriyat orasidagi farqni bilish darajasini o'rganishga ham kirishdik(3-jadval).

Jadval-3

Respondentlar orasida "Milliy qadriyat deganda nimani tushunasiz" degan savolga quyidagicha javob oldik n=50

№	Javoblar	N=50	%
1	Navro'z mustaqillik bayramlari, Ro'za va Qurbon hayiti	18	36%
2	Ota-bobolardan meros bo'lib kelayotgan milliy urf-odat, an'ana marosimlar	20	40%
3	Ahillik, mehmondo'stlik, bag'rikenglik	10	20%
4	Milliy libos va milliy taomlar, tarixiy madaniy yodgorliklar	2	4%
Jami:		50	100%

Biz tadqiqotimiz davomida yoshlar orasidagi milliy qadriyatlarni eskilik sarqitiga qaratilgan targ'ibotlarni olib borayotgan buzg'unchi "ommaviy madaniyat" haqidagi tasavvurlarini ham tekshirib ko'rdik va quyidagicha empirik ma'lumotlarni qo'lga kiritdik (4-jadval).

Jadval-4

Yoshlar orasida "Ommaviy madaniyat" deganda qanday madaniyatni tushunasiz deb berilgan savolga quyidagicha javoblarini qo'lga kiritdik n=50

№	Javoblar	N=50	%
1	Barcha xalqlarga tegishli va qulay bo'lgan madaniyat	5	10%
2	Har bir millatga mos bo'lmagan buzg'unchi odatlar, kiyinish	7	14%

3	G'arb madaniyatining OAVlar orqali kirib kelishi	6	12%
4	Ommaviy tartibda nishonlanadigan bayramlar	32	64%
Jami:		50	100%

Biz yoshlar orasida milliy qadriyat bilan birga zamonaviy qadriyat tushunchalari haqidagi tasavvurlarini ham baholadik va quyidagicha empirik ko'rsatkichlarni qo'lga kiritdik (5-jadval).

Jadval-5

Respondentlar orasida "Zamonaviy qadriyat" deganda nimani tushunasiz deb berilgan savolga quyidagicha javoblarini qo'lga kiritdik n=50


№	Javoblar	N=50	%
1	Yoshlarni sportga yo'naltirish, sayoxat	5	10%
2	ta'lim tizimi yutuqlari, ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri va oqilona foydalanish	7	14%
3	Oilaviy hamjihatlik hamda shaxslararo munosabatlardagi samimiylik	3	6%
4	Sharq va g'arb qadriyatlarining uyg'unlashuvi	2	4%
5	Savolga javob berolmagan	33	66%
Jami:		50	100%

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan ma'lum bo'ldiki, yoshlar "ommaviy madaniyatni" buzg'unchilik xususiyatini yetarlicha anglamayapti. Ya'ni respondentlarning 66% i mazkur savolga javob berolmaganligi yuqoridagi fikrlarimizni to'lqonli ilmiy asoslaydi.

Biz tadqiqotimiz davomida yoshlarni oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik tahdididan xabardorlik darajalarini ham o'rgandik va quyidagicha empirik ko'rsatkichlarni qo'lga kiritdik (1-rasm)

1-rasm


Respondentlar orasida oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik tahdididan xabardorlik darajasi bo'yicha o'rganishlarning empirik natijalari



Oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik tahdidi yoshlar orasida boshqa tahdidlarga nisbatan xabardorligi pastligi bo'yicha 55% ya'ni salbiy ko'rsatkichga ega. Bu aholining oilada yoshlar

tarbiyasi, milliy tarbiya bilan bog'liq ishlarda sustkashliklar ko'p ekanligini, yoki tarbiya masalasiga past munosabatda ekanligini ko'rsatadi. Bu illatning salbiy oqibatlaridan ko'pchilik bexabar.

Milliy tarbiyaning shakllanishida milliy qadriyatlarining o'rnini ham alohida o'ziga xos asosli psixologik omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham biz mazkur masala bo'yicha ham o'rganishlarni amalga oshirdik (2-rasm).



2-rasm. Respondentlar orasida milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik tahdididan xabardorlik darajasi bo'yicha o'rganishlarning empirik natijalari

Masala yuzasidan o'rganishlar, ya'ni aksariyat respondentlarning fikricha yosh ota-onalar o'z farzandlariga milliy qadriyatlarni o'rgatmayapti, shu sababli yoshlarimiz milliy qadriyatlarni hurmat qilmayapti, aksincha, "ommaviy madaniyat"ga zamonaviy madaniyat deb taqlid qilish kabi salbiy jihatlardan ko'payib bormoqda deb ta'kidlandi.

Demak, oilada milliy va oilaviy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan tarbiya ishlarini kuchaytirish lozim. Tarbiya masalalariga e'tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko'ngilsizliklar ham, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar ham barchamizni ogohlikka da'vat qilmog'i lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, oilada milliy va oilaviy qadriyatlarga hurmat fazilatini shakllantirish, shuningdek farzand tarbiyasi - oila baxti, farzandlarning tarbiyasi yetuk inson bo'lib yetishidagi ota-onaning sa'y harakati hisoblanadi. Oiladagi qadriyatlar tarbiyasi farzandning kelajakda kim bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko'radi, bo'lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko'ra kamol topib boradi.

Farzandlarimizni ilm-fan va ta'lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o'z o'rnida milliy qadriyatlarga yo'g'rilgan tarbiya esa milliy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi <https://www.xabar.uz/talim/shavkat-mirziyoyev-maktablarda-qanday>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli <https://lex.uz/docs/3360950>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son Qarori <https://lex.uz/docs/4320700>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040 qarori. <https://lex.uz/docs/5344692>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sonli qarori



6. Jabborov X.X. "O'smirda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari". Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. JIF 2021: 5.423.

7. Жабборов Хазрат Хусенович. Психологические особенности идеологического влияния "массовой культуры" на человеческий разум. СОЦИАЛЬНЫЙ ПСИХОЛОГ журнал для психологов. Основан в 2000 году в Ярославль. 2016 №2 (32). -С. 56-66.

8. Jabborov Hazrat Xusenovich. The influence of psychological protective mechanisms in the formation of the ideological immunity in adolescents. European journal of psychological research vol. 4 No.1, 2017 ISSN 2057-4794.

9. Jabborov Kh.Kh.. The study of the problem of national education by eastern thinkers. International Journal of Pedagogics (ISSN – 2771-2281) VOLUME 03 ISSUE 02 Pages: 14-20 SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 705) (2022: 5. 705) (2023:6.676) OCLC – 1121105677/

Yuldashev Sanjar Ro‘zimiradovich
Toshkent davlat pedagogika universiteti
Amaliy psixologiya kafedrasida dotsenti

TERGOV VA SUD JARAYONLARIDA ODAM SAVDOSIGA OID JINOYAT ISHLARINI KO‘RIB CHIQUISH JARAYONIDA JABRLANUVCHINING ISHTIROKIGA PSIXOLOGIK HAMROHLIK QILISH

Annotatsiya. Maqolada odam savdosi muammosi, odam savdosi jabrlanuvchilari portreti va ruhiy holatlari tavsiflangan, odam savdosi qurboniga oid jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish va sud jarayonlarida jabrlanuvchiga psixologik xizmat ko‘rsatishdagi yondashuv, tergov va sud jarayonlarida jabrlanuvchiga psixologik hamrohlik qilish masalalari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: «ODAM SAVDOSI» psixologik qo‘rquv, ijtimoiy qo‘rquv, huquqiy qo‘rquv, «Stokgolm» sindromi.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДДЕРЖКА УЧАСТИЯ ЖЕРТВОВ В РАССЛЕДОВАНИИ И СУДЕБНОМ ПРОЦЕССЕ УГОЛОВНЫХ ДЕЛ О ТОРГОВЛЕ ЛЮДЬМИ

Аннотация. В статье описана проблема торговли людьми, портрет и психическое состояние жертв торговли людьми, подход к рассмотрению уголовных дел, связанных с жертвой торговли людьми, а также оказание психологической помощи жертве в ходе судебного разбирательства, психологическая поддержка потерпевшего в ходе следствия и судебного разбирательства.

Ключевые слова: «ТОРГОВЛЯ ЛЮДЬМИ» психологический страх, социальный страх, юридический страх, «стокгольмский» синдром.

PSYCHOLOGICAL SUPPORT FOR THE VICTIM'S PARTICIPATION IN THE INVESTIGATION AND COURT PROCESSES OF HUMAN TRAFFICKING CRIMINAL CASES

Annotatsiya. The article describes the problem of human trafficking, the portrait and mental state of its victims, the approach to handling criminal cases related to human trafficking, and the provision of psychological assistance to the victims during the trial. It also covers the psychological support given to the victims during both the investigation and the trial.

Key words: «HUMAN TRAFFICKING» psychological fear, social fear, legal fear, "Stockholm" syndrome.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha bo‘lgan dunyo mamlakatlarining barchasida “odam savdosi” jabrlanuvchilarini uchratish mumkin. Odatda “odam savdosi” deyilganda, moddiy manfaat maqsadida majburiy mehnat uchun ushlab turilgan shaxslar tushuniladi. “Odam savdosi” zamonaviy dunyodagi qullikning bir shakli, inson huquqlarining buzilishi, ham shaxsga, ham davlatga qarshi jinoyat hisoblanadi. Bu jinoyatdan eng ko‘p jabrlanganlar sifatida ayollar va bolalar ko‘rsatiladi. Odam savdosi ko‘pchilik tadqiqotchilar nuqtai nazaridan o‘rganib borilmoqda, ogohlikka chaqirilmoqda, butun dunyoda “odam savdo”siga qarshi qonunlarning mavjudligiga qaramasdan, yiliga millionlab odamlar ushbu jinoyatning qurboniga aylanadilar.

«Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining maqsadi odam savdosiga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Odam savdosi — kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud majburlashning boshqa shakllaridan foydalanish, o‘g‘irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste‘mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun to‘lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og‘dirib olish yo‘li bilan odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishdir. Odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning o‘zga shakllarini, majburiy mehnatni yoki xizmatlarni, qullikni yoxud qullikka o‘xshash odatlarni, erksizlik holatini yoxud inson a‘zolarini va (yoki) to‘qimalarini olishni anglatadi¹.

¹«Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-633-son Qonuni 17.08.2020 yil.

Bugungi kunda odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar jabrlanuvchilarni yollash va mijozlarni jalb qilish uchun internet platformalaridan, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn-do'konlar va boshqa veb-sahifalardan mohirlik bilan tuzoq sifatida foydalanadilar. Insonlar ushbu jinoyat tuzog'iga turli motivlarga ko'ra tushadilar. Chunonchi, har bir insonda orzu va istaklar mavjud. Jumladan, yaxshi, serdaromad ish topish, oilani boqish uy-joyli bo'lish kabi ezgu niyatlar istagida bo'lgan insonlarning odam savdosi qurboniga aylanishi ayanchlidir. Boshqa bir holatlarda jangovor harakatlar olib borilayotgan joylarni tark etish, yashash joyidagi ijtimoiy normalar, an'ana va odatlardan qochish, oilaviy zo'ravonlik yoki shavqatsiz munosabatlardan qochish maqsadida, o'zi va yaqinlari uchun xavfsiz joy topish kabi motivlar bilan ushbu jinoyat tuzog'iga tushib qoladilar.

Jabrlangan fuqarolarda ushbu muhitni tark etish, ozodlikka intilish, joyni tark etishda katta qo'rquvlar paydo bo'ladi. Jumladan;

Psixologik qo'rquv - jinoyatchilar tutqinligi va nazoratida ko'p muddatda bo'lgan, ularning jismoniy, shahvoniy va ruhiy zo'ravonligi, tahdid va shantaj harakatlari qo'llanilgan fuqarolarda yuzaga keladi.

Ijtimoiy qo'rquv - Mentalitet, milliy g'urur, oila sha'ni kabi sharqona fazilatlarini shakllantirib beradigan etnik stereotip va ustanovkalar ularda doimo ushbu qo'rquv signallarini ushlab turadi.

Huquqiy qo'rquv - Davlat chegarasini noqonuniy kesib o'tish, odam savdogarlari tomonidan jinoiy faoliyatga jalb qilingan jabrlanuvchilarda jinoiy javobgarlikka tortilishdan qo'rqish oqibatida yuzaga keladi.

Darhaqiqat, ushbu qismatdan qochib qutulgan jabrlanuvchilarning 41 foizigina o'z tashabbusi bilan sudga murojaat qiladilar. Bu esa, "Odam savdosi"ga qarshi kurash borasida olib borilayotgan ishlarning samaradorligi yuqori emasligidan dalolat beradi. Davlat bunday jinoyatlarning jazosiz qolishiga yoki loqayd munosabatda bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Buning uchun ekspluatatsiyaga, odam savdosiga yordam beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muammolarga yechim topish kerak. Jabrlanuvchilarni identifikatsiyalash, qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish va tashkilotchilarni jazosiz qolishga barham berish siyosati davom ettirilishi va milliy resurslarni boshqarish nuqtai nazaridan o'zgarishlar qila bilishimiz zarur. Jumladan, jabrlanuvchining *tergov jarayonidagi ishtiroki quyidagi tartibda ko'rib chiqiladi:*

1. Protsessual tadbirlar
2. Jinoyat to'g'risida xabar berish, arizani imzolash.
3. Odam savdosini sodir etgan shaxs/shaxslar to'g'risida batafsil ma'lumot taqdim etish.
4. Tergovchi tomonidan o'tkazilayotgan so'roqda ishtirok etish, jinoyat jabrlanuvchisi protsessual maqomini olish uchun chiqarilgan qarorga imzo qo'yish.
5. Jabrlanuvchi sifatida boshidan o'tgan barcha voqealarni to'liq aytib berish.
6. Odam savdosini sodir etgan shaxs bilan jabrlanuvchini "yuzlashtirish" tadbiri.

Ushbu tadbir ishtirokchilari jabrlanuvchilarga psixologik yordam ko'rsatishni ta'minlanishi zarur. Zero, "odam savdosi" jabrlanuvchilarida quyidagi psixologik muammolar kuzatiladi:

- PTSR natijasida intellektual faollik va o'z-o'ziga bahoning pasayganligi, depersonalizatsiya, hayotga qiziqishining susayganligi;
- Jinoyatchidan qo'rqish, uning shantaj va tahdidlarini eslash, "Stokgolm" sindromi;
- Irodaviy faollikning sustligi, harakatsizlik, ichki sabotaj, mentalitet bilan bog'liq ijtimoiy va gender stereotiplar, ishonchsizlik sindromi;
- Uyatchanlik kompleksi, huquqiy qo'rquv, diqqatini jamlay olmaslik, xotirasidagi buzilishlar;
- Qo'rquv, vahima, travmatik assotsiatsiyalarning tiklanishi.

Psixolog tergov jarayonlarida odam savdosiga oid jinoyat ishlarini ko'rib chiqish jarayonida jabrlanuvchining ishtirokiga psixologik hamrohlik qilishda yuqorida keltirilgan ruhiy holatlarda psixologik yordam ko'rsatishni amalga oshirib borishi zarur.

Sud jarayonida odam savdosiga oid jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda jabrlanuvchining sud protsessiga nisbatan ishonchsizlik, adolatsizlik munosabati yuzaga kelishi mumkin. Shu qatorda sud zalidagi ijtimoiy qo'rquvlar (odamning ko'pligi, OAV va b.) holatni murakkablashtirishi mumkin. Psixolog har qanday holatda jabrlanuvchini professional darajada qo'llab-quvvatlashi muhim.

Sud jarayonida jabrlanuvchining jinoyatchiga nisbatan munosabatida quyidagilarni kuzatamiz:

- Psixologik qo'rquv;
- PTSR oqibatlari;
- «Stokgolm» sindromi.

Tergov va sud jarayonlarida odam savdosi jabrlanuvchisiga psixologik hamrohlik qilishga yondashuvlar:

➤ **Inqiroz konsultatsiyasi-** Jabrlanuvchi o'zini xavfsiz his qilishi va uni qanoatlantirilmagan ehtiyojlarini aniqlash uchun.

➤ **Art-terapiya-** Badiiy tafakkur rezervi yordamida travmatik assotsiatsiyalar ustida ishlash.

➤ **Kognitiv terapiya-** O'ziga, jinoyatchiga va sud jarayoniga oid tafakkur xatolarini korreksiya qilish uchun.

➤ **Geshtalt-terapiya-** Jabrlanuvchining jinoyatchi bilan protsessual uchrashuvini modellashtirish uchun.

Jabrlanuvchilar bilan inqiroz davrida konsultatsiya o'tkazish davomida juda muhim.

➤ O'zini boricha (to'lig'icha) qabul qilishini ta'minlash;

➤ Tergov va sud jarayonida o'z huquqlarini tiklash uchun aniq harakatlar rejasini tuzishda yordam berish;

➤ asosiy muammolarni aniqlashga yordam berish;

➤ Xavfsizlik rejasini tuzishga ko'maklashish;

➤ qo'llab-quvvatlash tizimlarini safarbar etishga yordam berish;

➤ sog'ayish (ruhiy salomatligi tiklanishi) uchun vaqt kerakligini tushunishga yordam berish;

➤ jabrlanuvchi shaxsiyatining kuchli tomonlarini aniqlash va mustahkamlash.

Tergov va sud jarayonlarida odam savdosiga oid jinoyat ishlarini ko'rib chiqish jarayonida jabrlanuvchining ishtirokiga psixologik hamrohlik qilishda, jabrlanuvchilar bilan art-terapiya mashqlarini o'tkazib borish yaxshi samara beradi. Jumladan, quyidagi terapiya mashqlaridan foydalanish mumkin.

Emotsional art-konstruktor- hissiy sohani rivojlantirish uchun turli yosh davridagi odamlarda diagnostika, psixokorreksiya kabi amaliy texnologiyalarni o'z ichiga olgan badiiy terapevtik kompleks hisoblanadi.

Mak – terapiya-Metaforik assotsiativ kartalar (MAK) - bu maxsus art-terapiya vositasi bo'lib, proektiv texnikaning tamoyillari va postulatlariga asoslanadi. MAK terapiyaning boshqa art-terapiya usullariga nisbatan afzalligi shundaki, ular qat'iy bir ma'noga ega emas

Tasviriy terapiya- Art-terapiya: "art" ingliz tilidan olingan bo'lib, art – bu sanat, terapiya – davolash manolarini anglatadi. Tasviriy-terapiya usuli og'ir hissiyotli bemorlarni davolash usuli sifatida taklif qilingan. Odam savdosi jinoyatining jabrlanuvchilarini ushbu turkumga kiradilar. Biroq hozirgi kunda tasviriy-terapiyani qo'llash ko'lami kengayib bormoqda. Bu mijozning psixologik muammolarini hal qilish uchun ijodiy faoliyatdan foydalaniladigan psixoterapiya usulidir. Uning turlari juda ko'p. Ranglar terapiyasidan tortib kitob terapiyasigacha, musiqa terapiyasidan tortib raqs terapiyasigacha davom ettirish mumkin. Ushbu usul samarali ta'sir o'tkazish vositasi hisoblanadi va mijozning ichki olamga chuqurroq murojaat qilish, uning fikrlari, his-tuyg'ularini so'zsiz aks ettirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Tasviriy-terapiyaning asosiy tamoyillaridan biri – xoh sog'lom, xoh imkoniyati cheklangan bola, xoh kattalar bo'lsin, ularning ichki kechinma, hissiyotlarini tasvirlash imkonini berish va shu orqali ularni hayotga birmuncha muvaffaqiyatli moslashtirishdan iboratdir.

Qum terapiyasi - mijozning ichki "men"i bilan muloqot qilish, ichki psixologik ziddiyatlarni hal qilish va yaxlitlikka erishishning qulay usuli sanaladi. Amalda qum terapiyasidan foydalanish insonning chuqur, ba'zan ongsiz tajribalarini ramziy darajada yetkazish imkonini beradi. Bu fantaziyalar va ijod erkinligi mamnuniyat bilan qabul qilinganda va insonga o'zini ozod qilish, o'z stereotiplaridan tashqariga chiqish, muammoli vaziyatlarni hal qilishning boshqa usullarini ko'rishga yordam beradi. Qum terapiyasi orqali quyidagi natijalarga kelish mumkin:

✓ ichki zo'riqishni bartaraf etish;

✓ o'z-o'ziga ishonchni oshirish;

✓ rivojlanish va o'zini o'zi anglash istagini yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, qum terapiyasi mijozning o'zi yechim topishiga olib keladi. Psixologiyada bu usul insayt yoki to'satdan tushunchasi bilan izohlab ketiladi. Mijoz zo'riqish vaziyatida o'zi nima qila olishini tushunish darajasiga olib chiqiladi.

Ertak terapiyasini- xulq-atvorni to'g'rilash, psixologik og'ishlarning oldini olish, psixologik yordam berish va boshqa sohasidagi muammolarni hal qilish uchun foydalanish mumkin bo'lgan psixologik usul sifatida qo'llash mumkin.

Niqob terapiyasi- odam savdosi jabrlanuvchilarining ichki chuqur holatini yuzaga chiqarishda samarali psixologik ish usuli bo'lib, insonning psixologik holati, kayfiyati va sog'lig'i, odamning yuziga va yuz ifodalariga orqali prognoz qilinadi. Ushbu terapiya usuli yordamida, mijoz o'z holatini niqob orqali proeksionalashi mumkin.

Geshtalt-terapiya- Amerikalik psixolog Fridrix Perlz tomonidan yaratilgan usul bo'lib, (tarjimada "timsol", "shakl", "fon") bu inson ongining tarqalishiga yordam beradigan va buning asosida hayotda ichki yaxlitlik, to'laqonlilik va mazmunli bo'lish, *atrofdagi* odamlar va tashqi dunyo bilan aloqani yaxshilash psixoterapiya usuli. Odam savdosi jabrlanuvchilarining ma'nosi jihatidan turlicha va qarama-qarshi bo'lgan his-tuyg'ularni uyg'unlashtirishga intilish, diqqat va e'tiborni rivojlantrish va o'zini o'zi bir butunlik sifatida his etish, shu jumladan tashqi (tanasi) va ichki hissiyotlarni birlashtirishda yordam beradi.¹ Jabrlanuvchilarning travmatik kechinmalarni takroriy his qilish orqali emotsiyalarni anglash hamda munosib xulqqa o'rgatish uchun quyidagi texnikalardan foydalanish tavsiya etiladi:

- "Maktub" texnikasi
- "Telefon orqali so'zlashuv" texnikasi
- "Bo'sh stul" texnikasi
- "Vaqtni ortga qaytarish". Ushbu usullar jabrlanuvchida emotsional intellektning oshishiga xizmat qiladi.

Odam savdosiga oid jinoyat ishlarini ko'rib chiqish jarayonida jabrlanuvchilar qatorida bolalarning borligi jiddiy ijtimoiy-psixologik oqibat sanaladi. Bunday holatlarda bolalar bilan suhbat o'tkazish uchun quyidagi mavzularda ish olib borish maqsadga muvofiq. Jumladan:

- ✓ tanaga qaysi teginishlar mumkinligi, bu paytda nima qilish kerakligi (misollar bilan)
- ✓ kimning unga teginishi mumkinligi va kimning teginishga umuman haqqi yo'qligi;
- ✓ yomon teginishlar unga tanish va yaqin bo'lgan kishilar tomonidan ham sodir etilishi mumkinligi, bu paytda qanday harakatlar sodir etish kerakligi;
- ✓ unga tushunarsiz, g'alati, g'ayrioddiy harakatlar va hodisalarni ko'rsa va sezsa ota-onasi (vasiy, homiy, pedagog va b.)ga darhol aytish kerakligi.

Kognitiv terapiya – insondagi fikrlar, ustanovkalar, qarashlar, yondashuvlar va h.k.larni o'zgartirishga yo'naltirilgan ilmiy maktabdir².

Kognitsiyalar insonga psixologik travma yetkazadi va uning sarosima xurujlariga, qo'rquv, depressiya va boshqa nerv buzilishlariga olib keladi.

Jabrlanuvchilarda o'zini, atrofdagilarni, xususan odam savdogarlari, hamda huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlariga nisbatan oldidan shakllangan **tafakkur xatolari / ya'ni kognitiv buzilishlar** mavjud bo'ladi. Jumladan, quyidagi kognitiv xatolarni ko'rish mumkin:

- ❖ Imkoniyatdan tashqari talab quyish
- ❖ O'ylab topish
- ❖ Fojia deb bilish
- ❖ Muqarrar deb bilish
- ❖ Yorliq (tashxis) quyish
- ❖ Bashorat qilish
- ❖ Bir yoqlamali saralash

Kognitiv xatolarni bartaraf etishda psixologik amaliyotda samaradorligi yuqori bo'lgan "AVS" texnikasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

- ❖ A – hodisa (nima bo'ldi?)
- ❖ V – bo'shliq (kognitsiyalar)
- ❖ S – reaksiya (Nimalarni sezyapsiz?)

A – hodisa, voqea

V – fikriy bo'shliq (aslida fikr, ustanovka, stereotip, yondashuv, baholar mavjud bo'ladi)

S – reaksiyalar (S1 – emotsional reaksiya, S2-fiziologik reaksiya, S3 – xulqiy reaksiya).

Yuqoridagi texnikani qo'llashni quyidagi namuna asosida ko'rib chiqishimiz mumkin. **Masalan:**

Odam savdosi jabrlanuvchisi, ayol, shahvoniy ekspluatatsiya qilingan.

A – meni jinoyatchilar majburan shahvoniy xizmatlarga jalb qildi.

V – (bo'shliq)

S1 – mening miyam umuman chalg'ib qolgan va hech narsaga kuchim yo'q (tushkunlik, apatiya, depressiya), allaqachon har tomonlama hayotim buzilib bo'lgan (PTSR).

S2 – qaltiroq, uyqusizlik, qon bosimining oshishi

¹ Serge Ginger. La Gestalt. Lart du contact. Nouvelle approche optimiste des rapports humains //Серж Генгер. Гештальт: искусство контакта. Новый оптимистический подход к человеческим отношениям 1995. 227 стр.

² Лихи Роберт. Преодоление сопротивления в когнитивной терапии. – СПб.: Питер, 2021.– 352 с.: ил. – (Серия "Когнитивно-поведенческая психотерапия").

S3 – qo‘limdan hech narsa kelmaydi (harakatsizlik) va vaziyatni unutish uchun har kuni alkogol ichaman (alkogolizm).

Tabiiy ravishda “odam savdosi” jabrlanuvchisida ustanovkalarni kuzatamiz. Jumladan, undagi “V”, ya’ni fikr/ustanovkalar;

- ✓ *Meni onam qarg‘agani uchun endi hech qachon baxtli bo‘lmayman.*
- ✓ *Mening hayotim tamom bo‘ldi.*
- ✓ *Mening qo‘limdan hech narsa kelmaydi.*
- ✓ *Men baxtsizman va peshonam sho‘r.*

Ushbu fikr va ustanovkalarda qanday tafakkur xatolari mavjud? Qanday qilib ushbu fikrlarning xato ekanligini tushuntiramiz? Ustanovkalar tahlilidan so‘ng, ushbu kognitiv ustanovkalarning qanday yuzaga kelganligi tahlil etiladi. Jabrlanuvchining emotsional holatini transformatsiya qilish jarayonida quyidagi sxema bo‘yicha voqea/hodisani tahlil qilish mumkin. Jumladan:

Hodisa → **Kognitsiya** → **Oqibat** → **Kognitiv xato** → **Raddiya (pozitiv ustanovka)** → **Natija.**

Masalan: **Hodisa** → *meni jinoyatchilar majburan shahvoniy xizmatlarga jalb qildi.*

Kognitsiyalar → *Meni onam qarg‘agani uchun endi hech qachon baxtli bo‘lmayman; Mening hayotim tamom bo‘ldi; Mening qo‘limdan hech narsa kelmaydi; Men baxtsizman va peshonam sho‘r.*

Kognitiv xato → *Bashorat qilish, fojealashtirish, o‘z-o‘ziga “yorliq” yopishtirish.*

Oqibat → *tushkunlik, apatiya, depressiya, PTSR.*

Raddiya → *Onam hissiyotga va jamiyatdagi stereotiplarga berilib, ongsiz ravishda menga gapirib yubordi, aslida mening onam har qanday ona singari meni yaxshi ko‘radi, hayotimda kutilmaganda inqiroz yuzaga keldi, biroq men tirikman va buni yengib o‘ta olaman.*

Natija → *Kayfiyatim ko‘tarildi, tiklanish va kurashish uchun energiya olyapman, kelajak uchun intilaman.*

Odam savdosi jabrlanuvchilarida nafaqat ularning huquqlarini, balki, ruhiy holatini sog‘lomlashtirish, barqaror hissiy holatni tiklash, o‘z hayotini qaytadan boshlash, o‘z kelajagi uchun qayg‘urishga, qayta jabrlanmaslikka o‘rgatish orqali jamiyat muhitini sog‘lomlashtirishga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. «Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-633-son Qonuni 17.08.2020 yil.
2. Роберт Л. Преодоление сопротивления в когнитивной терапии. – СПб.: Питер, 2021.– 352 с.: ил. – (Серия “Когнитивно-поведенческая психотерапия”).
3. Serge Ginger. La Gestalt. Lart du contact. Nouvelle approche optimiste des rapports humanis //Серж Генгер. Гештальт: искусство контакта. Новый оптимистический подход к человеческим отношениям 1995. 227 стр.

Kamolova Ferangiz Bahodirovna

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

O'SMIR SHAXSI RIVOJLANISHIDA AXLOQIY NORMALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI AMALIY JIHATLARI

Annotatsiya. O'smir shaxsi rivojlanishida axloqiy normalarning o'rni muammosining psixologik jihatlarini, ayniqsa yoshlar va o'smirlar ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishining psixologik jihatlarini o'rganish naqadar muhimligi va ayni paytda mazkur muammo bo'yicha maxsus o'tkazilgan tadqiqotlarning yo'qligi ham mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Bizning jamiyatimizga yot bo'lgan kuchlar: terroristlar, diniy aqidaparastlar va boshqa buzg'unchi g'oyalarni tashuvchilar asosiy e'tiborni o'smirlar va yoshlarni o'z tomonlariga ag'darib olishga harakat qilmoqdalar. Sababi ma'naviyatga qilingan tahdid mamlakatni inqirozga olib kelishini mumkinligini ular juda yaxshi anglashadi. Yoshlarni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta'lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga yetishi mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining kaliti hisoblanadi. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va muvaffaqiyat asosidir. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir.

Kalit so'zlar: o'smir, axloqiy normalar, etnopsixologiya, estetik, siyosiy, qadriyat, inqiroz, e'tiqod.

ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК НРАВСТВЕННЫХ НОРМ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. Насколько важно изучение психологических аспектов проблемы роли нравственных норм в развитии личности подростка, особенно психологических аспектов становления и развития духовности молодежи и подростков, и в то же время, Отсутствие специальных исследований по данной проблеме показывает актуальность темы.

Чуждые нашему обществу силы: террористы, религиозные фанатики и носители других деструктивных идей пытаются переманить подростков и молодежь на свою сторону. Причина в том, что они прекрасно понимают, что угроза духовности может привести к кризису в стране. Залогом экономического и политического развития страны является воспитание высоконравственной и дисциплинированной молодежи, ее качественное образование и воспитание в духе патриотизма. Это основа социальной стабильности и успеха. Сегодня проблемы образования молодежи являются общей проблемой практически для всех стран.

Ключевые слова: Подросток, моральные нормы, этнопсихология, эстетика, политика, ценности, кризис, вера.

PRACTICAL ASPECTS OF PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MORAL NORMS IN ADOLESCENT PERSONAL DEVELOPMENT

Abstract. How important it is to study the psychological aspects of the problem of the role of moral norms in the development of the adolescent personality, especially the psychological aspects of the formation and development of the spirituality of young people and adolescents, and at the same time, the lack of special research on this problem shows the relevance of the topic.

Forces alien to our society: terrorists, religious fanatics and carriers of other destructive ideas are trying to turn teenagers and young people to their side. The reason is that they understand very well that a threat to spirituality can lead to a crisis in the country. The key to the country's economic and political development is to bring up young people with high morals and discipline, their quality education and growing up in the spirit of patriotism. This is the basis of social stability and success. Today, the problems of youth education are a common issue for almost all countries.

Key words: Adolescent, moral norms, ethnopsychology, aesthetic, political, value, crisis, faith.

Kirish. Mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati ma'naviy barkamol, ruhan yetuk shaxslar jamiyati bo'lishi ham mavzuning dolzarbligini ko'rsatadigan omillardan biridir.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olish. Shu munosabat bilan O'zbekiston globallashuv va axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda

yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat - BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi. Bizning nazarimizda, mazkur hujjatni imzolaydigan davlatlar ushbu sohani o'z ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim hayotiy ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarish bo'yicha qat'iy majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi kerak". Hammamizga ma'lumki, 2018-yil 12-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi sessiyasida O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" to'g'risidagi rezolyusiya bir ovozdan qabul qilindi. Biz ana shu ikki omil yoshlar tarbiyasi masalalariga bevosita bog'liq bo'lgani uchun ularni aytib o'tmoqdamiz.

Shuning uchun o'smirlarni zo'ravon va tajovuzkor kuchlarning qo'liga berib qo'ymaslik vazifasi ham ularning ma'naviyati shakllanishiga, bu jarayonning psixologik jihatlarini tadqiq etishga birinchi darajali vazifa sifatida yondashishni taqozo etadi.

O'smir shaxsi rivojlanishida axloqiy normalarning o'rni muammosining psixologik jihatlarini, ayniqsa yoshlar va o'smirlar ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishining psixologik jihatlarini o'rganish naqadar muhimligi va ayni paytda mazkur muammo bo'yicha maxsus o'tkazilgan tadqiqotlarning yo'qligi ham mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi **metodlaridan foydalaniladi:**

O'smir shaxsi rivojlanishida axloqiy normalarning o'rni o'rganish bo'yicha psixologik eksperimentlar o'tkazish;

- Kuzatish metodi (o'smirlarning xulq - atvori, o'zaro munosabatlari tadriji bo'yicha kundalik yuritish);

- Og'zaki va yozma so'rovlar o'tkazish;

- shaxsning individual psixologik xususiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan metodikalar (M.Rokich va Ye.Fontalovanning "qadriyatlarga yo'naltirilganlik"ni o'rganish metodikalari);

- Eksperiment natijalarini sifat va miqdoriy jihatdan tahlil qilish.

Mamlakatimiz psixologlari tomonidan ham o'smir shaxsi rivojlanishida axloqiy normalarning mohiyatini, ma'naviy tarbiya tuzilmasi, vositalari va shakllarini ishlab chiqishda muayyan hissa qo'shildi. Bu sohada G.B.Shoumarov, V.M.Karimova, E.G.G'oziyev, R.I.Sunnatova, Sh.R.Baratovlarning ishlarini alohida ta'kidlash zarur. Ayni paytda, bu sohada psixolog - olimlarimiz tomondan amalga oshirilgan tadqiqot ishlarni tanqidiy tahlil qilish mamlakatimiz psixologiyasi mazkur yo'nalishda yanada kengroq doirada ilmiy izlanishlar olib borilishi lozimligini ko'rsatadi. Ma'naviyat va axloqiy norma muammosi mamlakatimiz psixologlari, faylasuflari, sotsiologlari, tarixchilari, madaniyatshunoslari, pedagoglari tomonidan intensiv tadqiq etilayotgan bir paytda mazkur mavzuga bag'ishlab psixologlarimiz tomonidan yaratilgan ishlar barmoq bilan sanarli darajada oz. Milliy tarbiyaning psixologik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar esa yo'q darajada.

Mazkur muammoning psixologik jihatlarini, avvalo, shunda ko'rinadiki, hanuzgacha shaxsning axloqiy rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadigan psixologik omillar atroflicha tadqiq etilmagan. Psixologiyamizda o'smir shaxsi rivojlanishida axloqiy normalar tuzilmasi, ma'naviyat va psixikaning aloqadorligi masalalari ishlab chiqilmagan, bu sohaga oid terminologiyada ham noaniqlik va mavhumlik mavjud.

Buyuk nemis faylasuflaridan yana biri I.Kant ma'naviyatni o'zini o'zi anglash sifatida cheklab izohlamagan. Uning talqinida ma'naviyat "Insonni harakatlantiruvchi, jonlantiruvchi" tamoyildir. O'zining "Sof aqlni tanqid" asarida ma'naviyat haqida shunday yozadi: "Ichki tuyg'uning predmeti sifatida bu unsur nomoddiylik tushunchasini beradi; oddiy unsur sifatida mustahkamlik, butunlikni anglatadi; intellektual unsur sifatida shaxsni anglatadi; bularning barchasi birikib ma'naviyat tushunchasini vujudga keltiradi".

Inson rivojlanishidagi eng muhim davrlardan biri o'smirlik davri hisoblanadi. 17-18-asrlargacha G'arbda ham, Sharqda ham o'smirlik davri inson rivojlanishidagi alohida davr hisoblanmas edi. Bolalik davri individning jinsiy yetilishi bilan tugallanar va endi u kattalar dunyosiga kirar edi. Hozirgi davrda esa akseleratsiya jarayoni tufayli jinsiy yetilish o'tmishdagiga qaraganda birmuncha avval, psixik va ijtimoiy yetilish birmuncha kechroq yuz bergani tufayli bolalik va yetuklik o'rtasidagi oraliq ancha uzaydi.

O'smirlik davriga jinsiy yetilish bilan yetuklik davri orasidagi oraliq davri sifatida qarash Yangi davrda yuz berdi. Bugungi kunda psixologiya fanida o'smirlik davriga bag'ishlangan ko'plab nazariyalar mavjud. Bu nazariyalar bir-biridan jiddiy farqlansa va bir biriga zid keladigan nuqtalari ko'p bo'lsa ham, o'smirlik inson rivojlanishida alohida va muhim davr ekaniga ulardan hech biri shubha qilmaydi.

O'smirlik davriga yangi ijtimoiy hodisa sifatida birinchi bo'lib e'tibor qaratgan olim J.J.Russo edi. Russo bu davr inson hayotida qanchalik muxim psixologik ahamiyatga ega ekaniga e'tibor berdi. U bu

davri "Insoning ikkinchi tug'ilishi" deb atadi. Bunday deyishiga sabab insonning ijtimoiy xayotga kirib kelishi shu davr bilan bog'liqligida edi. Russo o'smirlik davri to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishiga katta ta'sir o'tkazgan bo'lsa ham bu davr haqidagi atroflicha ilmiy ishlanmalar Z.Xollning ikki jildidan iborat fundamental asari etilish, uning psixologiyasi, shuningdek, fiziologiya, antropologiya, sotsiologiya, seks, jinoyatchilik, din va ta'lim bilan bog'liqligi" nomli asarida keltiriladi. Bu asar 1904-yilda nashr qilinib, keyinchalik boshqa tillarga tarjima qilindi va ko'p marta qayta nashr etildi. Asar jahondagi psixologlarning ko'pchiligi tomonidan qimmatli asar sifatida e'tirof etildi. Shuning uchun Z.Xollni o'smirlik mohiyatining atroflicha nazariyasini yaratgan olim sifatida e'tirof etiladi. U o'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlarini turli fanlar nuqtai nazaridan izohlaydigan konsepsiya yaratdi va bu davr bilan bog'langan muammolar doirasini belgilashda o'zga davrga nisbatan juda ilgari ketdi. O'smirlik davrining mazmuni Z.Xoll tomonidan o'zini - o'zi anglashdagi tanglik (krizis) davri deb ataldi. Uning fikricha, bunday tanglikni yengib o'tgan odam individallik xususiyatiga ega bo'ladi.

Rivojlanishdagi o'smirlik fenomeniga izoh berar ekan Z.Xoll E.Gekkel tomonidan taklif etilgan "Biogenetik qonun" g'oyasiga ya'ni, ontogenez individlarning rivojlanishida tur evolyusiyasining takrorlanishi haqidagi g'oyaga murojaat qildi. E.Gekkelning biogenez nazariyasiga mos ravishda Z.Xoll o'zining sotsiogenez nazariyasini yaratdi. Bu nazariyaga ko'ra o'smirlik davri insoniyat tarixidagi romantizm davriga mos boskich, ya'ni, bolalik (ovchilik, termachilik) davri bilan yetuklik (sivilizatsiya rivojlangan davr) o'rtasidagi oraliq bosqich sifatida talqin qilindi. Keyinroq o'smirlik davri bilan shug'ullangan olimlar rivojlanishning sotsiologik modelini inkor qilib uning o'rniga evolyusion modelni taklif qilishdi.

Z.Xoll nazariyasidan hozirgi davr psixologiyasiga o'tgan xulosalar o'smirlik davrining oraliq o'tish davri ekani haqidagi tasavvurlardir. Keyinchalik psixologiya fanida bu davr haqida vujudga kelgan emotsional beqarorlik, konfliktlilik, tarbiyasi qiyinlik va h.k. tavsiflar aynan ana shu tasavvurlar bilan bog'lidir. Mazkur davrning ijobiy tavsifi ya'ni "o'zini o'zi anglashning o'sishi" (Russo) va "individuellik tuyg'usi" (Xoll) kabilarni empirik psixologiya bir chetga surib qo'ydi va uzoq davrlar mobaynida o'smirlik davri rivojlanishdagi tanglik davri sifatida mazkur davrning salbiy jihatiga asoslanib talqin etildi.

O'smirlikdagi tanglikning nazariy modellari G'arb psixologiyasining barcha yetakchi oqimlari tomonidan taqdim etilgan. Bunday modellarni Z.Freydning psixoanalitik nazariyasida, K.Levinning geshtalt- psixologiyasida, R.Benediktning bixevioristik ta'limotida uchratish mumkin. Bu oqimlar o'rtasidagi tavofutlar katta va ziddiyatlar kuchli bo'lishiga qaramasdan ularning bari umr davrlari psixologiyasini, jumladan, o'smirlik psixologiyasini ontogenetik taraqqiyotning umumiy modelidan kelib chiqadi. Bu modelda intellektual va ma'naviy rivojlanish muayyan o'rin tutsa ham asosiy e'tibor ularga qaratilmaydi. Shuning uchun bu oqimlarda o'smirlik davrida ma'naviy shakllanish xususiyatlarini o'rganishga yondashuvni alohida yoritib o'tish zarurati yo'q.

O'smirlarda ma'naviy ehtiyojlarning shakllanganini aniqlash ma'naviy tarbiyaning samaradorligini oshirishda muhim omillardan hisoblanadi. Shuni hisobga olib, yoshlarning ma'naviy ehtiyojlarini aniqlash maqsadida, quyidagi vazifalar qo'yildi: 1) O'smirlar ehtiyojlarining xususiyatlarini, ularning ma'naviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlarini, ma'naviy taraqqiyotning muhim ko'rsatkichi bo'lgan o'zini o'zi tarbiyalash va takomillashtirishga tayyorligini aniqlash. 2) o'quv dasturlari va darsliklarning davlat ta'lim standartiga qay darajada mosligini tahlil qilish, bunda ijtimoiy - gumanitar fanlarni o'rganish jarayonida o'smirlarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish.

Belgilangan vazifalardan birinchisini amalga oshirishda bir qator psixologik tashxis metodikalaridan foydalanildi. Bu metodikalarni tanlashda o'smirlarda ma'naviy ehtiyojlar shakllangani ko'rsatkichlari hisobga olindi. Metodikalar majmuasi 3 guruhdan iborat bo'ldi. Ulardan birinchisi suhbat, anketa so'rovi, insho yozishdan iborat. Ularning maqsadi o'smirlardagi ma'naviyat shakllangani darajasi to'raligi, tizimlilikini aniqlashga qaratildi. Bu metodikalar ma'naviyat shakllanishining kognitiv jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Metodikalarning 2-guruhi anketa so'rovi hamda yetakchi ehtiyojlarni aniqlash usulidan iborat bo'lib, ular o'smirlardagi baholash qobiliyati qay darajada shakllanganini aniqlashga xizmat qiladi. Bu metodikalar, shuningdek, o'smirlarning ma'naviy ehtiyojlari xususiyatlarini o'rganish, ularning o'smir qadriyatlarini tizimiga kirgan yoki kirmaganini aniqlashda yordam beradi.

Metodikalarning uchinchi guruhi anketa so'rovi, insho, Tara Sinklarning metodikalaridan iborat bo'lib, ular o'smirlarning o'z bilim va munosabatlarini muayyan hatti - harakatlarda qo'llash ko'nikmasi shakllanganini aniqlashga yo'naltiriladi.

Har bir metodikalar guruhining o'z xususiyatlari mavjud. Metodikalarning birinchi guruhi o'smirning ma'naviyat to'g'risidagi bilimlari qay darajada to'liqligi va tizimlilikini aniqlashga

yo'naltirilgan. O'smirlarga quyida keltiriladigan javob variantlaridan birini tanlash topshiriladi: Ma'naviyat bu-axloq, diniy e'tiqod, insonparvarlik, g'oyaviylik, bilimdonlik, madaniyatlilik kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

O'smirlardan yana hozirgi insonlarga ma'naviyat nuqtai nazaridan nima yetishmaydi degan savolga javob topish ham so'raladi. Bu savolga quyidagi javob variantlari keltiriladi, tarbiya, ichki madaniyat, halollik, insonparvarlik, ma'lumotlilik, yaxshilik o'smirlarga "hozirgi ma'naviyat" mavzuida insho yozish ham topshiriladi. Tajriba ko'rsatishicha, ba'zi o'smirlar ma'naviyat bu insonning vijdoni, ruhiy holati yoki ichki dunyosi deb ta'rif berishadi. O'smirlarning ko'pchiligi bu tushunchaga ta'rif berishda qiynalishadi. Ma'naviyat bu - axloq, madaniyat yoki insonparvarlik degan javoblar ko'proq uchraydi.

O'smirlarning ozchiligi bu tushunchani ma'naiy rivojlangan shaxs uchun xos hisoblanadigan halollik, insoniylik, yaxshilik kabi tushunchalar bilan bog'lashadi.

O'tkazilgan tajribalar jarayonida aksariyat o'smirlar bu tushunchani to'g'ri baholay olmasligi ma'lum bo'ldi. Bunday xolning sabablari bir nechta. Shulardan biri darsliklarda ma'naviyatni tushuntirishda ma'rifiy yondashuvlar ustuvorligida, ya'ni ma'naviyat fanini o'qitishda uni boshqa fanlardan farqlovchi xususiyatlar yetarli darajada hisobga olinmaganida. Matematika, fizika, botanika, biologiya kabi aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda ma'rifiy yondashuv bilan cheklanish, ya'ni o'quvchilarga bilim berish bilan cheklanish mumkin. "Milliy g'oya", "Ma'naviyat asoslari" singari fanlarni boshqa aniq va tabiiy fanlarni o'qitishdan farqi shundaki, ularni o'qitish jarayonida o'quvchilarda tushunchalarni shakllantirishdan tashqari chuqur e'tiqodni shakllantirish ham talab etiladi.


Eksperiment jarayonida o'smirlarda haqiqat, yaxshilik va go'zallik haqida muayyan tushunchalar borligi aniqlandi. Lekin o'smirlarning aksariyatida bu tushunchalar ibtidoiy xolatda bo'lib ularda to'lalilik, izchillik, tizimlilik yetishmaydi.

Metodikalarni qo'llash jarayonida o'smirlarning javoblariga asosanib ularning ma'naviyat haqidagi bilimlarini uch darajaga bo'lib ifodalash mumkin. Bu darajalar quyi, o'rta va yuqori darajadan iborat. Bilimlarning yuqori darajasi ma'naviyat haqida to'la va aniq tasavvurlar mavjudligini, bu tasavvurlarda ma'naviyatning barcha muhim belgilari aks etishini nazarda tutadi. O'rta daraja o'smirlar ma'naviyatning asosiy belgilari to'g'risida tasavvurga egaligini, lekin ma'naviyatning mohiyati bu tasavvurlarda to'la ochilmasligini ifodalaydi. Quyi daraja esa o'smirlarning mazkur kategoriya to'g'risida tasavvurlari juda elementar ekanini, ularda bu kategoriyaning faqat 1-2 belgisi to'g'risida tushunchalar mavjudligini ifodalaydi.

Olingan natijalarga ko'ra baholash komponentining shakllangani 3 darajaga bo'lindi. Quyi daraja ma'naviy ehtiyojlarga qiziqishning cheklangani bilan xarakterlanadi. O'rta daraja esa ma'naviy ehtiyojlar barqaror ekanligi, lekin ularda tizimlilik yetishmasligini ko'rsatadi. Yuqori daraja esa ma'naviy ehtiyojlar barqarorligi va tizimliliigi tarzida namoyon bo'lishini ifodalaydi.

2 - jadval Eksperiment boshlanishida o'smirlarning ma'naviy ehtiyojlari shakllanganlik darajasi (%)

Darajalar	eksperimental guruh %	Nazorat guruhi %
Yuqori	3	3
O'rta	29	31
Quyi	68	67



Ekspiriment yakunida o'smirlarning ma'naviy ehtiyojlari shakllanganlik darajasi (%)

Darajalar	Esperimental guruh %	Nazorat guruhi %
Yuqori	5	3
O'rta	48	34
Quyi	47	63

Olingan natijalar o'smirlarning ko'pchiligida baholash komponentining quyi darajada ekanligi, mazkur sifatning intellektual, kognitiv jihatlari yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat berdi. Ekspiriment yakunida bu ko'rsatkichlar sezilarli ravishda o'zgardi. Bu haqda tadqiqotimizning 3 - bobida batafsilroq ma'lumot keltiriladi. Tartibga solish komponentini aniqlash uchun metodikalarning uchinchi guruhi qo'llandi. Bu guruh quyidagidan iborat: o'smirlarga quyidagi savollarga javob berish taklif qilindi:

Sizning fikringiz va xatti - harakatlaringiz o'rtasida ko'pincha tafovut mavjud bo'ladimi? Buning sababi nimada?

Harakatlaringiz, hisobotlaringizda emotsionallik ustuvormi yoki intellektuallik? Javoblarni yozma ravishda keltiring.

"Mening faxrlanadigan ishim", "Takrorlashni istamaydigan ishim" mavzularida kichik insho yozish taklif qilindi.

Berilgan mavzular bo'yicha o'smirlarning yozgan insholarida ko'pincha odamlarga ko'maklashish, hamdardlik, yaxshilik, do'stlik va sevgi bilan bog'liq harakatlar eng muhim harakatlar hisoblanadi.

O'smirlar u yoki bu vaziyatda amalga oshirgan xatti - harakatlarini tanqidiy tahlil qilib, ularning sababi va oqibatlarini o'rganishga harakat qilishadi. Bajarilgan tahlil va o'rganishlardan o'zlariga tegishli xulosalar chiqarishadi.

Savollarga berilgan javoblar hamda insholarning tahlili tartibga solish komponentining uch darajasi mavjudligini ko'rsatdi: yuqori, o'rta va quyi. Yuqori ko'rsatkich o'smir xulq - atvorida axloqiy sifatning barqarorligini va ustuvorligini ko'rsatadi. O'rta darajada axloqiy sifatlar barqaror bo'lmaydi. Quyi darajada xulq-atvor axloqiy me'yorlarga mos kelmaydi.

Javoblar va insholar tahlili o'smirlarning aksariyatida tartibga solish komponenti quyi va o'rta darajadan iborat ekanligini ko'rsatmoqda. Javoblar va insholar natijalariga ko'ra mazkur sifatning shakllanganlik darajasiga asoslanib o'smirlar uch guruhga bo'lindi.

O'tkazilgan tashxislar o'smirlarning ko'pchiligida ma'naviy ehtiyojlar yetarli darajada shakllanmaganidan dalolat berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: 1994.-312 b.
2. Qodirova A.T. "O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi", p.f.n olish uchun avtoreferat. Toshkent-2007.
3. Клесина И.С. Гендерная социализация: Учебное пособие.-СПб.: изд-во РГПУ им.Герсена.,1998.-98 с.
4. Клейберг Ю.А.Психология девиантного поведения: Учеб.пособие для вузов.-М. Гуманит.изд.центр ВЛАДОС, 2001.-528 с.
5. Кримский СБ. Контуры духовности: новые контексты индивидуальности // Вопросы философии. - 1992. № 12. -С. 4-12.
6. Левада Ю.А.Лекции по социализации. №2. Информационный бюллетень научного совета № 6 (21).- М., 1999.-316 с.

Kudratova Lola Ravshanovna

Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti "Amaliy psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi, "Salam school" Xalqaro nodavlat ta'lim muassasasi psixologi

UYUSHMAGAN YOSHLAR IJTIMOY PSIXOLOGIK PORTRETINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar hamda uyushmagan yoshlar tushunchalari izohlangan. Shuningdek, uyushmagan yoshlar bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik asoslari ham tadqiq etilgan, ayrim maslahat va tavsiyalar taqdim etilgan. Har qanday vaziyatda ham, yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik g'oyalari sodiqlik, milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish va rivojlantirish, turli mafkuraviy tahdidlardan asrash davr talabi bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kibermakon, yoshlar, uyushmagan yoshlar, ijtimoiy faollik, ommaviy madaniyat, fuqarolik pozitsiya.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE SOCIAL PSYCHOLOGICAL PORTRAIT OF UNSOCIALIZED YOUTHS

Annotation. This article explains the concepts of youth and non-organized youth. Also, the socio-psychological basis of working with unorganized youth has been researched, and some tips and recommendations have been presented. It can be said that in any situation, protecting the rights, freedoms and legal interests of young people, educating them in the spirit of respect for national and universal values, loyalty to the ideas of independence in the mind and heart, awareness of national identity, love for the Motherland and involvement in its destiny, selflessness the determination and development of the feeling, protection from various ideological threats serves as a requirement of the time.

Key words: Cyberspace, youth, unorganized youth, social activism, mass culture, civil position.

ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ПОРТРЕТА НЕСОЦИАЛИЗОВАННОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. В этой статье объясняются понятия молодежи и неорганизованной молодежи. Также исследованы социально-психологические основы работы с неорганизованной молодежью, даны некоторые советы и рекомендации. Можно сказать, что в любой ситуации, защищая права, свободы и законные интересы молодежи, воспитывая ее в духе уважения к национальным и общечеловеческим ценностям, верности идеям независимости в уме и сердце, осознание национальной идентичности, любовь к Родине и сопричастность к ее судьбе, самоотверженность, решимость и развитие чувства, защита от различных идеологических угроз служат требованием времени.

Ключевые слова: Кибберпространство, молодежь, неорганизованная молодежь, социальный активизм, массовая культура, гражданская позиция.

Kirish Inson shaxsini, uning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish milliy istiqloq mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat, mustaqil vatanimizga mexr-muhabbat ruhida tarbiyalash barchamizning oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir. Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar qatorida uyushmagan yoshlar bilan ishlash, bu qatlamini o'rganish, ularni birlashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib turibdi. Mustaqil O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh qilish, yoshlarning fikr-mulohazalari va takliflarini inobatga olgan holda yangi islohotlarni amalga oshirish asosiy vazifalardan biri hisoblanib kelinmoqda. Respublika Prezidentti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...yosh avlodimizning fuqarolik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirish, uni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash, ularning bandligini ta'minlash, hayotga o'z o'rnini topishi, jamiyatning munosib a'zolariga aylanishi, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash muammosi shu kunning o'ta dolzarb ijtimoiy muammosi hisoblanadi"[1].

Metodlar. Bugun mamlakatimiz aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etib, ular ulkan buniyodkorlik manbai hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekiston yoshlar ittifoqining tashkil etilishi va 30-iyun - Yoshlar kuni deb e'lon qilinishi ularning hayotida alohida ahamiyatga ega bo'ldi deyish mumkin[2]. Yuqoridagi islohotlarning asosiy maqsadi zamonaviy, bilimli, ma'naviy va intellektual rivojlangan, g'ayratli, aql-idrok, o'z xulq-atvori bilan namuna bo'ladigan, tashqi tahdidlarga, soxta ommaviy madaniyatga dosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Buning uchun O'zbekiston yoshlar ittifoqi zimmasiga 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yoshlar faolligini oshirish bo'yicha bir qator yangi, muhim vazifalar ham yuklandi. Huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish, faol, g'ayratli, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, mustahkam hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega, bor kuch-g'ayratini ishga solishga qodir yoshlar safini kengaytirish; bilim va salohiyatni inson manfaatlarini yo'lida o'z zimmasiga olish, mamlakat kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi mardonalik hamda jasurlik ko'rsata oladigan insonlar tarbiyalash davr talabi bo'lib kelmoqda. Aytish mumkinki, yoshlarda ilmiy va badiiy adabiyotlarni, jumladan, elektron kitoblarni o'qishga qiziqishini yanada oshirish, uning huquqiy darajasini oshirish orqali turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm, "ommaviy madaniyat" va boshqa bizga yot g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish, ekologik, tibbiy madaniyat va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini rivojlantirish ham mumkin. Davlatimiz yosh oilalar, imkoniyati cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha manzilli ishlarni tashkil etish, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy sharoitlar yaratish ustida ko'plab loyihalar ustida faoliyat olib bormoqda. Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida yoshlarni, ayniqsa, ularning uyushmagan qismini sport va jismoniy tarbiya, ijodiy to'garaklar, turli o'quv kurslariga, jumladan, chet tillarini o'rganishga keng jalb etish mumkin. Bugungi kunda yaratigan ko'plab imkoniyatlardan oqilona foydalanib, el-yurt rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan yoshlar anchagina.

Afsuski, vaziyatdan teskarisiga foydalanib, turli yot g'oyalar va "ommaviy madaniyat" ostida birlashib, jamiyatning og'riqli nuqtasiga aylanib qolayotgan yoshlar ham mavjud [4]. Aynan uyushmagan yoshlar muammosi butun dunyo aholisi orasida muammoli bo'lib qolmoqda. Mamlakat kelajagini yoshlar belgilaydi, deymiz, pirovardida, farzandlarimizni qanday voyaga yetkazishimiz bevosita yurtimiz, xalqimiz kelajagiga ham bog'liq. Bu muhim masala, har qanday vaqtda yoshlardan umidlar baland bo'lishini ko'rsatib kelgan. Yoshlar ma'naviy-ijtimoiy-psixologik sog'lom bo'lib voyaga yetmasa, yurt kelajagi haqida qayg'urish ham qiyin. Shu bois mazkur holat jiddiy ijtimoiy muammo sifatida muhokama qilinayotgan uyushmagan yoshlar muammosining asosiy omillari, sabablari puxta o'rganilishi kerak.

Uyushmagan yoshlarni shaxslar, oilalar, maktablar va ijtimoiy muhitlar va turli xil statistik ma'lumotlar, psixologik nuqtai nazaridan o'rganish juda muhim. Yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, haqiqiy vaziyatni tahlil qilish orqali uy, maktab, jamiyat va davlat bilan bog'liq boshqa ko'plab masalalar ham o'z yechimini topishi mumkin. Biz keng qamrovli va tizimli chora-tadbirlarni o'rganib chiqar ekanmiz, nazariy asos sifatida biz voyaga etmaganlar jinoyati tushunchasi va turlarini va voyaga etmaganlar jinoyatchiligining xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Shunga asoslanib, biz psixologik va sotsiologik nuqtai nazardan tegishli nazariyalarni ham ko'rib chiqishimiz mumkin bo'ladi va muvofiq profilaktika choralari taqdim eta olamiz [3]. 2002 yildan beri yolg'iz jinoyatchilarning soni sheriklar va huquqbuzarliklar darajasidan oshib ketgan. Xususan, 14 yoshgacha bo'lganlar va 14 yoshdan 18-19 yoshgacha bo'lgan uyushmagan yoshlar aksariyatini tashkil etadi. Biroq, takroriy jinoyatlar soni ortib bormoqda va yoshlar orasida kiberjinoyat kabi yangi turdagi jinoyatlar sodir bo'lmoqda.

Bugungi yoshlarning kibermakondagi ongi va xatti-harakatlarini o'rganish, ularning shaxsiyatini shakllantirishga bo'lgan munosabatni faolroq va bevosita namoyon qiladi. Biz yaxlit ta'lim nazariyasini, ta'limda yangi paradigmani taklif qilish vaqti keldi. Shu sababli, endi o'smirlar o'rtasida kibermakonda ijobiy identifikatsiyani shakllantirishga qaratilgan ishlarni ko'proq amalga oshirish talab etiladi. Uyushmagan yoshlarning kibermakondagi xatti-harakatlari qanday degan savolni oldinga tashlasak, yoshlarning ijobiy identifikatorlarini shakllantirish uchun virtual hamjamiyatlar nimani anglatayotganini ham ko'rib chiqish ham kerak. O'smirlik - bu o'z-o'zini kashf qilish davri, ammo ular uchun boshqalar ularning shaxsiyatini o'rganish qiyin[5]. Yoshlar nazarida kattalarjuda cheklovchi va tartibga soluvchi tizimdek go'yo. Kibermakon yoshlar uchun muqobil makondir. Bular kibermakonning deyarli cheksiz erkinligida tashqi qiyofasini o'zgartiradilar. Turli xil jazolarga duchor bo'lishdan uzoqlashishga imkondek tuyuladi. Uyushmagan yoshlar o'zlarining mavjudligini turli tajribalar va ishtirok etish orqali tasdiqlashga urinadilar. Haqiqiy dunyoda ularni cheklaydigan hamma narsa endi kibermakonda ahamiyatsiz.

Kibermakonning ochiqqligi yoshlarga o'ziga xoslik bilan tajriba o'tkazish imkonini beradi. Shuning uchun, haqiqatda o'zini to'g'ri tushuna olmagan o'smirlar uchun kibermakon nafaqat hozir kimligingiz, balki siz izlamoqchi bo'lgan yangi shakl haqida ham sizni qiziqtirishga qodir. Bu odatlarni o'rganish mumkin bo'lgan tajribalar uchun joy sifatida internet yordamga keladi. Biroq, yoshlarning kibermakondagi eksperimental xatti-harakatlari ijobiy ta'sir ko'rsatishi doim ham tasdiqlanavermaydi. Bu degani, qachonki yoshlar kibermakonda o'z o'rnini to'g'ri tanlasagina, ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa va tavsiyalar Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, intellektual jihatdan kamol topishi va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha juda ko'p ilmiy izlanishlar olib borish, bu mavzuni hali ko'p o'rganish kerak. Shu bilan bir qatorda huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan yoshlar bilan tizimli ishlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko'maklashish ham juda muhim. Asr talabi bo'lgan internet va kibermakonda to'g'ri harakat qilishda uyushmagan yoshlar uchun katta ta'sir manbaini yaratish, ularni ijtimoiy-psixologik qo'llab quvvatlash chora tadbirlarini kuchaytirish muammoni yechish yo'lida foydali bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi ma'ruzasidan
2. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. www.lex.uz
3. Кирницкий В.В. Проблема формирования патриотических ценностей в массовом сознании российской молодежи: диссертация... кандидата философских наук. - Москва, 2016. - 176 с
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Тартибот–Шукр / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. Ўз. Рес. ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т., 2008. – 608 б.
5. Кафарова Д.М. Криминологический анализ и профилактика общественно опасных деяний подростков, не достигших возраста уголовной ответственности: автореф....дис. канд. юрид. наук. – М., 2009. – С. 15.

OʻZBEK VA QIRGʻIZ QIZLARIDA OILAGA ADAPTATSIYA MEZONI SIFATIDA EGILUVCHANLIK VA UYUSHGANLIK JIHATLARINING NAMOYON BOʻLISHI

Annotasiya. Ushbu maqolada oʻzbek va qirgʻiz oilalardagi «oilaviy uyushganlik»ni ifodalashiga koʻra «oilaviy munosabatlar chegarasi», «qiziqishlar va boʻsh vaqt», «umumiy doʻstlar» mezonlarining qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ustuvor ekanligi tufayli etnik stereotiplarning differensial taʼsiri dalillangan.

Kalit soʻzlar: etnik stereotip, ustanovka, kognitiv, ruhiy-emotsional, psixosemantik, antropologik, emotsional-ekspressiv, "goʻzallik effekti".

ПРОЯВЛЕНИЕ АСПЕКТОВ ГИБКОСТИ И ОРГАНИЗОВАННОСТИ КАК КРИТЕРИЙ СЕМЕЙНОЙ АДАПТАЦИИ У УЗБЕКСКИХ И КИРГИЗСКИХ ДЕВУШЕК

Аннотация. В данной статье обоснованы доказательства дифференцированного влияния этнических стереотипов и взаимосвязь с критериями "границы семейных отношений", "интересы и досуг", "общие друзья", являющиеся приоритетными при подготовке девочек к семейной жизни в узбекских и киргизских семьях

Ключевые слова: этнический стереотип, установка, когнитивный, психоэмоциональный, психосемантический, антропологический, эмоционально-экспрессивный, "эффект красоты".

MANIFESTATION OF ASPECTS OF FLEXIBILITY AND ORGANIZATION AS A CRITERION FOR ADAPTATION TO THE FAMILY IN UZBEK AND KYRGYZ GIRLS

Abstract. This article provides evidence of the differential influence of ethnic stereotypes due to the fact that the criteria for "family relationships border", "interests and leisure", "common friends" are priority in preparing girls for family life, according to the expression of "family unionism" in Uzbek and Kyrgyz families.

Key words: ethnic stereotype, ustanovka, cognitive, spiritual-emotional, psychosemantic, anthropological, emotional-expressive, "beauty effect".

Jahonda inson hayotida muhim oʻrin tutuvchi oila-nikoh, oilaviy qadriyatlar, oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit bilan nizolarning kelib chiqishi masalalari ilmiy jamoatchilik diqqat markazidagi eng dolzarb mavzulardandir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 47/237 Rezolyutsiyasi bilan 1993-yilda har yili 15-mayni «Xalqaro oila kuni» sifatida nishonlash eʼlon qilinganligi¹ oilaning dunyo miqyosida beqiyos va boqiy ijtimoiy tuzilma ekanligi, oilaning barbod boʻlishi xolatlarining qayd etilish darajasi ortib borayotgan sharoitda oila institutini mustahkamlash uchun azaliy boʻlgan masala oilaga tayyorlashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalar fenomenini alohida amaliy, konstruktiv hamda yangicha yondashuv orqali yechimlarini topishni davr taqazo etmoqda.

Respublikamizda soʻnggi yillarda yoshlarni maʼnaviy-psixologik jihatdan yuksaltirish, oilada qizlarning maʼnaviy-axloqiy va ruhiy olamini shakllantirish va rivojlantirishga ulkan ahamiyat berilgan boʻlib, mazkur muammoning zarur xuquqiy-meʼyoriy asoslari yaratildi. «Oila institutini mustahkamlash boʻyicha, eng avvalo, «Sogʻlom oila – sogʻlom jamiyat» gʻoyasini hayotga tatbiq etishga yoʻnaltirilgan yagona davlat siyosatini yuritish...»², «...Oila qanchalik mustahkam boʻlsa, jamiyat ham shunchalik barqaror boʻladi»³ tamoyiliga asoslanib, qizlarni oilaga tayyorlash ishlarini amalga oshirish hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni olib borishning imkoniyatlari yaratildi.

¹ <http://rspc-samara.narod.ru/schoolpsych.html>

² Oʻzbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vazirligi toʻgʻrisida Nizom. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 apreldagi 228-son qaroriga 1-ilova.

³ <https://daryo.uz> 26.12.2020

Respublikamizda o'zbek va qirg'iz qizlarini oilaga tayyorlashda etnik stereotiplar va ustanovkalari masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlar salmog'i kam bo'lsa-da, psixolog olimlardan D.U.Abdullaeva, R.M.Abdullaeva, H.Abdusamatov, F.A.Akramova, R.N.Alimardonova, Z.B.Bilolova, R.Dushanov, U.R.Ibadullaeva, V.M.Karimova, A.E.Kadirova, X.K.Karimov, N.X.Lutfullaeva, Sh.Murotova, G.Niyazmetova, B.Sh.Norbekova, Z.A.Rasulova, F.R.Ro'ziqulov, A.T.Ro'ziqulova, R.S.Samarov, N.A.Sog'inov, B.M.Umarov, M.A.Utepbergenov, M.X.Fayzieva, R.N.Xikmatullaeva, U.D.Qodirov, O'.B.Shamsiev, G'.B.Shoumarov, G.X.Yunusova, G.T.Yadgarova, O.E.Eshmurodov va boshqalar tomonidan turmush qurgan va qurmagan yoshlarning oilaviy munosabatlarga nisbatan ustanovkalari va tayyorligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan, lekin o'zbek va qirg'iz qizlarini oilaga tayyorlashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalari alohida psixologik muammo sifatida o'rganilmagan.

Qur'oni Karim, Hadis kabi muqaddas manbalarda nikoh, oilaviy hayot hamda nikoh qurish borasida, yigit-qizlarimizni nikoh-oila munosabatlariga ruhan va ma'nan tayyor qilib borish, uyda oila vakillari tomonidan o'zaro mas'uliyat va yumushlarni bajarishlari, oila mo'tabar va aziz ekanligi to'grisidagi nodir manbalar keltirib o'tilgan.

Islom dinining noyob manbasi Qur'on – tabarruk asar hisoblanib, ushbu kitobdagi ko'plab sura va oyatlar nikohdagi er-xotin orasidagi o'zaro muomala, uy-ro'zg'or tutish, nikoh talablari, qiz hamda o'g'il farzandlarning oilaga tayyorlash masalalari, bolalar ta'limi, axloq-odobi, ajrashishda qanday ish tutish kabi kerakli va manfaatli fikrlar, nasihatlar keltiriladi. Ushbu tabarruk kitoblarning ayni zaruriy va foydali tomoni insonlarda oliy tuyg'u va xislatlarni tarkib toptirishga xizmat qilishi hisoblanib, jumladan ota-onalarga, ilm olishga munosabat, sabr bardosh, shukronalikka da'vat, o'zaro mehr, mehmondo'stlik, vafo va sadoqat, kamtarlik, samimiyat, rostgo'ylik va boshqa chin insoniylik xislatlarining asosiy o'ringa qo'yilishi barcha insoniyat uchun bebaho umuminsoniy ma'naviy boyluk tizimini tashkil qilgan hamda odamlar orasidagi tortishuvlar, oilaviy kelishmovchilik, nizolarni hal etishda dasturilamal bo'lib xizmat qilgan. Xadislar bamisoli axloq kodeksiga assotsiatsiya qilingan. Qur'on va Xadis muqaddas manbalar sifatida ota-onalarni qadrlash, ehtirom va qayg'urish, bola odobi va xulqini va nikohga vafo, turmushga mas'uliyatliklik jihatlariga o'ziga xos yondashilgan, halollik ila odamzot nasabini bardavomligini ta'minlash zarur ish ekanligi ta'kidlangan, ayniqsa turmushni nikoh ustida qurmoqlikka ahamiyat qaratilib, nikohni insoniy aloqalarning eng muhimi etib yuksak qadrlangan.

Oila mustahkamligi shu maskanning tayanchi hisoblanmish nikoh oldi omillari jihatlariga, ushbu xususiyatlarning nechog'lik kuchli va barqaror ekanligiga aloqadordir. Sababi, oila qurish motivlari asosli va mustahkam bo'lsa, oila quruvchilarga yengillik, mamnunlik, xotirjamlik, qalb sokinligini ta'minlaydi.

Bizning fikrimizcha, bir madaniy-ma'naviy muhitda ideal hisoblangan oilaviy munosabatlar boshqa bir madaniy muhitda unday sifatga ega bo'lmasligi mumkin. Masalan, ota-onasining roziligisiz turmush qurish qadriyat sifatida sharq madaniy muhitda qabul qilinmaydi, lekin ayrim G'arb mamlakatlarida bu xolatga juda normal holat deb qarash xos. Jumladan, ideal va normal oila formulasiga tushadigan qadriyatlar milliy-madaniy o'ziga xoslikka, etnopsixologik qonun-qoidalarga ega va shunga tayanadi.

Oila avvalo ona va bola munosabatlaridan tuziladi. Bu er va xotin orasidagi o'zaro munosabatni o'zigana emas¹. Shunday qilib, aytish mumkinki, oila va nikoh sotsiologiyasi bu-alohida fan. Ushbu fanning negiziga oilaviy munosabatlarning umum va yakka holdagi sifat va miqdor, dinamik va statistik o'suvchanlik va o'zgarishlarni ifodalovchi nazariyalar tarkibi sotsial turmushning shakllari kabilar bilan aloqadorligi, nikoh va oila masalalari tashkil etadi. Oila sotsiologiyasining shakllanishi va rivojlanishi uzoq davom etib, ko'p tomonli jarayon bo'lib, u turli qarashlar, fikrlar, ma'lumotlar buyuk mutafakkirlar tomonidan o'z davrida qayta-qayta ishlanishiga asos solgan:

Oila va nikoh sotsiologiyasida qo'yidagi ikki asosiy yo'nalish mavjud:

*oila va nikoh tarixi;

* zamonaviy oila va nikoh.

Barcha oilalar – oila masalalari va munosabatlari yig'indisi hisoblangani uchun, mazkur majmuada turfa tushunmovchiliklar, insonlararo nizolar, muammolarni mavjudligi ruhshunos olimlar tarafidan uzoq yillar davomida tasdiqlangan. Shunday bo'lsa-da, olimlar o'zaro munosabatlar barqaror bo'lgan oila mavjudligidan kelib chiqib, oilaga shunday ta'rif beradilar. Rossiyalik olim V.N.Drujinin² fikricha,

¹ <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-228998-1.html>

² Дружинин В.Н. Психология семьи: 3-е изд. – СПб.: Питер, 2008 – 176 с. (С. 12)

me'yordagi oila - "turmush to'kinligi, kishilarning sotsial himoyasi va o'sishi, bolalarning bo'lsa, sotsializatsiyasi prosessida ma'naviy-ruhiy va fiziologik kamoloti norma asosida tashkil etilishi"¹dir.

Ma'lumki, nikoh va oila masalalari jamiyatning iqtisodiy, ma'naviy va madaniy munosabatlaridan boshqa, o'zaro muloqat, oiladagi psixologik konfliktlarni ham belgilaydi. Jamiyat oila munosabatlarini o'rnatish va shaxsni tarbiyalash orqali ular o'rtasidagi ahillikni mustahkamlashga ko'maklashadi. Bu munosabatlarni shakllantirish oila hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, oilani rivojlanish jarayonini ongli ravishda boshqarishni ta'minlaydi.

Tadqiqotimizda "Oilaviy munosabatlarning egiluvchanligi va uyushganligini diagnostika qilish" deb nomlangan metodikadan foydalandik. Mazkur metodika orqali respondentlarning, ya'ni Farg'ona va Andijon hamda o'zbek va qirg'iz qizlarining oilaviy uyushganlik va o'zaro munosabatlardagi egiluvchanligini tadqiq etdik.

Jadvallarda shartli ravishda hududlarni quyidagicha belgiladik:

1 – Farg'ona;

2 – Andijon.

Tadqiqotdan olingan natijalarning statistik tahlillarini 3.1.-jadvalda ko'rsatib berdik.

Mazkur 3.10.-jadvalda ko'rinib turganidek, oilaviy uyushganliklik shkalasi bo'yicha hududlar bo'yicha taqqoslab ko'ringanda "hissiy yaqinlik" (-1,04), "qarorlar qabul qilish" (-1,19), "birgalikdagi vaqt" (-0,71), "qiziqishlar va bo'sh vaqt" (-1,18) kabi mezonlari bo'yicha har ikki: farg'onalik qizlarda ham andijonlik qizlarda ham ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Bunga sabab, har ikki viloyat asosiy aholisining bir-birlariga yaqin hududda istiqomat qilishliklari, madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan yaqinligi, xarakter xususiyatlarida ham bir-birlari xususiyatlarini to'ldirilish holatlari bo'lishi mumkin.

Jadval-1

"Oilaviy uyushganlik" bo'yicha hududlarning natijalarning tahlili. n=529

Oilaviy uyushganliklik bo'yicha shkalalar	Hu-dud	O'rta arifmetik qiymat	Dispersiya	Respon-dentlar soni	t
Hissiy yaqinlik	1	12,58	3,50	361	-1,04
	2	12,76	2,60	168	
Oilaviy munosabat chegarasi	1	8,55	2,32	361	2,28*
	2	8,24	1,85	168	
Qarorlar qabul qilish	1	3,73	1,41	361	-1,19
	2	3,86	1,18	168	
Birgalikdagi vaqt	1	4,06	1,14	361	-0,71
	2	4,13	1,10	168	
Umumiy do'stlar	1	3,66	1,23	361	-3,14**
	2	3,97	0,78	168	
Qiziqishlar va bo'sh vaqt	1	7,43	3,41	361	-1,18
	2	7,63	3,44	168	

Izoh: *p<0,05; ** p<0,01, Farg'ona – 1; Andijon – 2.

Farg'ona hududida yashovchi qizlarda oilaviy uyushganliklik shkalasi bo'yicha oilaviy munosabat chegarasi shkalasi andijonlik qizlarga nisbatan bo'yicha o'rtacha arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi t=2,28; p<0,05. Bunga Farg'onalik qizlarning oilalarida har bir oila a'zolari oiladagi rollarini to'g'ri taqsimlanganligi hamda ham ijtimoiy rollar ham jinsiy rollar teng taqsimlanganligi ahamiyatli ekanligi aniqlandi.

Demak Farg'onalik qizlarning oilalarida har bir inson o'zini rollarini to'g'ri tanlanganliklari hamda ushbu rollarda o'zlarini xotirjam his qilishliklari aniqlandi.

Jadval-2

**“Munosabatlarning egiluvchanligi (oilaviy adaptatsiya)” bo‘yicha hududlarning natijalari
n=529**

“Munosabatlarning egiluvchanligi (oilaviy adaptatsiya)”	Hu-dud	O‘rta arifmetik qiymat	Dispersiya	Respondentlar soni	t
Liderlik	1	7,2	2,97	361	-1,91
	2	7,5	2,6	168	
Nazorat	1	6,9	3,1	361	-1,41
	2	7,1	2,6	168	
Oiladagi intizom	1	6,7	2,9	361	-1,31
	2	6,9	2,2	168	
Oilaviy rollar	1	9,5	7,97	361	2,62**
	2	8,8	8,8	168	
Oiladagi qoidalar	1	3,01	0,97	361	-2,08*
	2	3,2	0,8	361	
	2	7,5	2,6	168	

Izoh: *p<0,05; ** p<0,01, Farg‘ona – 1; Andijon – 2.

Navbatdagi 2.-jadvalda ko‘rinib turibdiki, munosabatlarning egiluvchanligi (oilaviy adaptatsiya) shkalasi bo‘yicha “liderlik” t=-1,91, “nazorat” t=-1,41, “oiladagi intizom” t=-1,31 aniqlash mezonlari bo‘yicha o‘rtacha arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi. Bunga ko‘ra, andijonlik va farg‘onalik qizlarda oiladagi liderlik, oila a‘zolarining kattalar tomonida nazoratga qo‘yilganligi hamda oiladagi stereotiplarni saqlab qolingani har ikki hududlarda namoyon bo‘lishi aniqlandi.

Jadval-3

“Oilaviy uyushganlik” bo‘yicha guruhlar bo‘yicha natijalarning tahlili. n=529

Oilaviy uyushganlik				
	1		2	
	O‘zbek	Qirg‘iz	O‘zbek	Qirg‘iz
O‘rtacha	40,6	39,4	34,1	32,2
Dispersiya	23,8	19,5	31,2	25,3
n	340	189	340	189
t-statistika	2,8**		3,8***	

*p<0,05; ** p<0,01; ***p<0,001 Farg‘ona – 1; Andijon – 2.

Navbatdagi 3.-jadval bo‘yicha o‘zbek va qirg‘iz millat qizlarida “oilaviy uyushganlik” shkalasi bo‘yicha har ikkala guruhlarda o‘rtacha arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi t=2,8: t=3,8: p<0,05. Demak, o‘zbek qizlari oilaviy uyushganlik bo‘yicha qirg‘iz qizlaridan ustun ekanliklari kuzatildi. Unga ko‘ra o‘zbek qizlari qirg‘iz qizlariga nisbatan oila a‘zolarining bir-birlari bilan samimiy munosabatning bo‘lishligini xohlashlari, ularga faqatgina oilaviy masalalarni emas, shuningdek shaxsiy muammolarni ham hamkorlikda yechish, qizlarning ham ba‘zi muammolari va ularni jismoniy, ruhiy, tarbiyaviy, ma‘naviy birligi va dahlsizligini ta‘minlashlari, shuningdek, qizlarning insoniy qadr-qimmatini hurmat qilinishini istashlari aniqlandi.

Yuqoridagi 3.13-jadvalda ko‘rinib turibdiki, o‘zbek va qirg‘iz millat qizlarida oilaviy uyushganlik shkalasi bo‘yicha har ikkala guruhlarda “hissiy yaqinlik”, “qiziqishlar va bo‘sh vaqt” aniqlash mezonlari bo‘yicha o‘rtacha arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi t=1,59: t=2,26: p<0,05. Unga ko‘ra o‘zbek qizlari qirg‘iz qizlaridan ushbu mezonlar bo‘yicha ustunlik kuzatildi.

“Oilaviy uyushganlik” bo‘yicha guruhlar bo‘yicha natijalarning o‘rtacha tahlili. n=529

“Oilaviy uyushganlik”	Guruhlar	O‘rtacha	Dispersiya	n	t-statistika
Hissiy yaqinlik	O‘zbek	12,73	3,12	340	1,59
	Qirg‘iz	12,47	3,36	189	
Oilaviy munosabat chegarasi	O‘zbek	8,64	1,94	340	4,01***
	Qirg‘iz	8,11	2,47	189	
Qarorlar qabul qilish	O‘zbek	3,74	1,41	340	-0,82
	Qirg‘iz	3,83	1,22	189	
Birgalikdagi vaqt	O‘zbek	4,10	1,11	340	0,57
	Qirg‘iz	4,05	1,15	189	
Umumiy do‘stlar	O‘zbek	3,78	1,09	340	0,52
	Qirg‘iz	3,73	1,14	189	
Qiziqishlar va bo‘sh vaqt	O‘zbek	7,63	3,39	340	2,26*
	Qirg‘iz	7,25	3,42	189	

*p<0,05; ** p<0,01; ***p<0,001

Bunga sabab esa o‘zbek qizlarida oila a‘zolarining bir-birlariga suyanishlari, har bir ishda ko‘maklashishlari, o‘zaro munosabatlarning yaqinligi, o‘z fikrlarini ochiq bildirishlari, oila a‘zolarining birdamligi, samimiyligi, mehmondo‘stligi, axloqiy fazilatlarining yaqqol namoyon bo‘lishligi uchun oilaning barcha a‘zolari birgalikda vaqt o‘tkazish bilan birga mehmondorchilik, bayramlarda birgalikda vaqt o‘tkazishlari, hamda ota-onalarga farzandlarining ehtiyoj va istaklarini bilishga, shaxsiyati qanday shakllanayotganini kuzatib borishga yaxshi imkoniyat bo‘lishligi, o‘z o‘rnida bolalarda ham ota-onalari qanaqa inson ekanini ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarini ham bilib olishlariga imkon yaratilishi, oila har bir a‘zosining vazifalarini to‘la bajarishlari, oilaviy turmush tarzini to‘g‘ri shakllantirishlari, oila a‘zolarining xulq-atvori, dunyoqarashi, mafkurasini, oilaviy hayotning davomiyligini ta‘minlab berishligi sabab bo‘lishi mumkinligi yoritilgan.

Shuningdek, oilaviy uyushganlik shkalasi bo‘yicha “birgalikdagi vaqt”, “umumiy do‘stlar”, “qarorlar qabul qilish” mezonlari bo‘yicha o‘rtacha arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi $t=-0,82$, $t=0,57$, $t=0,52$. $p<0,05$. Demak, ushbu aniqlash mezonlari bo‘yicha har ikki guruh vakillarida deyarli farq aniqlanmadi. Bunga esa har ikki millat oila vakillarida bir-birlariga nisbatan o‘zaro mas‘uliyat, javobgarlik xissining ustivorligini, o‘z oila a‘zolarini yaqin munosabatda bo‘lishlarini istashlari, bo‘sh vaqtlarini hamda barcha qadrli kunlarida birgalikda vaqt o‘tkazishlarini istashlari, oilada muammolarni, nizolarni bartaraf etishda, yuzaga keladigan ko‘ngilsiz holatlarni oldini olishda birgalikda qaror qabul qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Demak, har ikki guruh qizlarida ushbu mezonlar bo‘yicha unchalik ahamiyatli farq mavjud emasligi, bu esa har ikki oilada tarbiyalanayotgan qizlarining tasavvurida bolalarning individual va yosh xususiyatlariga ko‘proq e‘tiborli ekanliklari, ular farzandlaridagi yoshga bog‘liq o‘zgarishlarni yaqqolroq tasavvur qilishliklari yuqori bo‘lishligi, oila a‘zolarining har bir a‘zosi qaysidir xatolariga javob berishda uni kattalar bilan maslahatlashib, o‘zaro sog‘lom muhitni oilada hukmronlik qilinishi istaklarini mavjudligi, oiladagi munosabatlarda o‘zini tutishlari uchun oilaviy qadriyatlarini bilishlari, urf-odatlarini qadrlashlari o‘z oilasining shajarasini bilishliklari, oiladagi qonun-qoidalarga har qanday vaziyatda moslashishlari aniqlandi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, “Oilaviy munosabatlarning egiluvchanligi va uyushganligini diagnostika qilish” bo‘yicha har ikki guruh qizlarining oilaga tayyorlash to‘g‘risidagi tasavvurlari tarkibida oila-nikoh munosabatlari muayyan ma‘noda o‘zgacha mazmunda shakllangan bo‘lib, bu psixologik ustanovkalar oilaning ijtimoiy maqomiga bevosita bog‘liqdir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 fevraldagi «2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish kontseptsiyasini tadiqlash to'g'risida»gi PQ- 4190 - son qarori/Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.02.2019 y., 07/19/4190/2614-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» PF-60-sonli Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 fevraldagi «2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish kontseptsiyasini tadiqlash to'g'risida»gi PQ- 4190 - son qarori/Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.02.2019 y., 07/19/4190/2614-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» PF-60-sonli Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son
5. Akramova F.A. Oilada shaxslararo munosabatlarning oila mustahkamligiga ta'siri masalalari: Monografiya – T.: “Lesson-press” nashriyoti, 2021. – 124 b.
6. Akramova F.A., Abdullaeva R.M. Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari. T.: “Shams ASA”, 2002, 26 b.
7. Akramova F.A., Abdullaeva R.M. Oilaviy hayotga oid psixologik tavsiyalar. T.: “Shams ASA”, 2003, 40 b.

Селюгина Ксения Вячеславовна

Аспирант кафедры социальной психологии
Бишкекский государственный университет им. Карасаева,
Бишкек, Республика Кыргызстан
E-mail. kesfis@gmail.com

ОСОБЕННОСТИ ПОЛОРОЛЕВОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ РЕЛОКАНТОВ ИЗ РОССИИ

Аннотация. В статье рассмотрены особенности влияния стресса вызванного иммиграцией на восприятие своих гендерных ролей у мужчин и женщин релокантов из России. Особое место уделено психосоматическим проявлениям гендерных проблем предположительно связанных с мотивами переезда в другую страну. Эмпирической основой являлось качественное исследование проведенное автором на тему "я-концепции" релокантов из Российской Федерации. Методологической основой выступали психоаналитические теории посвященные психосоматике, поло-ролевому развитию, иммиграции и процессу горевания. В результате анализа полученных данных было сделано предположение, что мужчины- релоканты страдают от ослабления мужской идентичности, которое проявляется символически как в соматических симптомах так и при анализе "я-концепции". Женщины релоканты наоборот демонстрируют позитивное отношение к своей гендерной идентичности при наличии большого количества психосоматических проблем гинекологического спектра, в частности аменореи. Автор статьи предполагает, что одной из нескольких причин может быть динамика интерсубъективного взаимодействия внутри пары где мужчина частично отказывается от маскулинной роли.

Ключевые слова: релоканты, я-концепция, полоролевая идентичность, психоанализ

GENDER-ROLE IDENTITY FEATURES OF RELOCANTS FROM RUSSIA

Abstract. The article examines the impact of immigration-induced stress on the perception of gender roles among male and female relocants from Russia. Special attention is given to the psychosomatic manifestations of gender issues that are presumably related to the motives for moving to another country. The empirical basis is a qualitative study conducted by the author on the "self-concept" of relocants from the Russian Federation. The methodological foundation is based on psychoanalytic theories dedicated to psychosomatics, gender-role development, immigration, and the grieving process. As a result of the data analysis, it was suggested that male relocants suffer from a weakening of male identity, which is symbolically manifested both in somatic symptoms and in the analysis of the "self-concept." Female relocants, on the other hand, demonstrate a positive attitude toward their gender identity despite a significant number of psychosomatic problems in the gynecological spectrum, particularly amenorrhea. The author of the article suggests that one of the possible reasons could be the dynamics of intersubjective interaction within the couple, where the man partially renounces the masculine role.

Keywords: relocants, self-concept, gender-role identity, psychoanalysis

Введение Влияние стрессовых факторов на соматическое состояние индивида является широко представленной темой как в психоаналитической так и научной литературе посвященной психофизиологическим аспектам стрессовых состояний ([18],[22],[21],[5]). Физические и психосоциальные угрозы запускают управляемые мозгом мультисистемные реакции на стресс, которые способны временно сделать организм более приспособленным к противостоанию надвигающимся требованиям: наблюдается увеличение возбуждения гипоталамуса и гипофиза; когнитивные и мотивационные ресурсы сосредоточены на вызове, настроение человека меняется в сторону повышенной бдительности и тревоги в ожидании опасности. Параллельно эндокринная и вегетативная системы управляют аварийными паттернами висцеральной активности и регулируют воспалительную реакцию. Адаптивные в краткосрочной перспективе, чрезмерные и/или затяжные реакции на стресс могут иметь долгосрочные неадаптивные последствия с прогрессирующим и кумулятивным воздействием "износа" на физиологические системы, участвующие в аллостазе (аллостатическая нагрузка и перегрузка), которые со временем отрицательно сказываются на соматическом состоянии. Чтобы успокоить тревогу и депрессивные симптомы, связанные со стрессом, люди могут предаваться деструктивному поведению (курению, компульсивному употреблению алкоголя и еды,

приему наркотиков и социальной изоляции), что еще больше усугубляет социальную стигматизацию, дестабилизацию самооценки и аллостатическую нагрузку/перегрузку. То есть, длительная стрессовая ситуация ведет к дистрессу. В первую очередь стрессоры и связанные с ними адаптивные процессы влияют на иммунную систему человека, то есть имплицитно оказывают влияние на весь организм.

В свою очередь, в психоаналитической традиции психосоматические проявления связывали больше не с самим стрессом, а с травмой которая возникла из-за внутренних или внешних стрессовых событий и которая являлась запредельной для символического представления и эмоциональной психологической переработки. Magnenat, L. [14] анализируя вклад У. Биона в теорию психоаналитической психосоматики рассматривает психосоматические состояния как результат примитивной катастрофы постигшей младенца при столкновении с чрезмерно травмирующим объектом и неспособности эффективно защититься от его влияния. В результате место "мечтающей" психосоматической груди занимает "алекситимическая грудь". Которая вместо символизирующей связывающей функции разрушает связи место которых занимает соматические симптомы. Примером алекситимической груди может служить нарциссическая мать которая не способна "мечтать" о ребенке как об отдельном объекте и приписывающая ему те реакции и черты которые не относятся к ребенку как к таковому. Это вызывает недостаток "мечтательности" как о себе так и о других и является одной из причин алекситимии при соматических заболеваниях. Vartzopoulos, I., & Veratis, S. [23] в своем анализе значения телесных проявлений в процессе психоаналитической терапии руководствуется представлением о соматических состояниях как о не-символическом выражении внутри-психического конфликта. Похожей точки зрения придерживается Макдугалл Д. [26]. Она предполагала, что опасный и дезорганизирующий внутренний объект препятствует консолидации ментальной и чувственной сферы. Это расщепление автор сравнила с истерией, динамика которой разворачивается на архаическом уровне. Фоаги П. и Таргет М. [11] связывают соматические состояния с качеством объекта. Телесные проявления могут демонстрировать присутствие во внутриспсихическом пространстве дезорганизирующего объекта, а болезнь или самоповреждение могут быть результатом попытки конкретным, а не символическим образом избавиться от такого объекта.

Основатели Парижской психосоматической школы (Марти П. и де М'Узан М. [15], Марти П. [16], Смаджа [31]) придерживались мнения, что болезни и различные психосоматические состояния результат неудавшейся ментализации, когда импульсы и инстинктивное напряжение не символизируется, а выражается конкретным телесным образом. Происходящее в теле не имеет прямого доступа к ментальному аппарату, а разыгрывается на примитивно-конкретном уровне. Стресс может быть связан с травмой в которой символизация аффектов становится затрудненной, что в конечном итоге приводит в соматическому разрешению возникшего возбуждения.

Эмиграция, смена страны проживания представляет собой длительный стресс на фоне которого мигрант находится в состоянии горевания по потерянной родине и одновременно переживает потерю прошлой идентичности. Хосеба Ахотеги [2] анализируя психическое состояние в котором находится эмигрант, предложил обозначить синдромокомплекс свойственный мигрантам как "Синдром Улисса" или "синдром Одиссея". Предполагается, что мигрант вынужден сталкиваться с огромным количеством стрессоров, которые продолжают действовать достаточно длительный период вызывая специфический для этой ситуации дистресс. В результате у мигранта зачастую теряется способность к символическому мышлению и все внутриспсихические переживания отражаются в таких симптомах как:

1. Общее нервное напряжение включающее бессонницу, нервозность, сильную тревогу, навязчивые мысли и агрессию;
2. Мигрень, головная боль вызванная напряжением, остеоартрит;
3. Деперсонализация, спутанность сознания;
4. Анорексия
5. Депрессивные симптомы, которые включают в себя плач и грусть, но исключают апатию, чувство вины и мысли о смерти;

Хосеба Ахотеги [2] предполагает, что психологическое состояние мигранта связано с несколькими основными стрессорами:

1. Одиночество, вынужденная разлука с друзьями, близкими и если смотреть шире с родной культурой;

2. Чувство отчаянья и неудачи в ситуации резкого падения доходов (при этом эмиграция обычно предполагает большое количество затрат) без возможности быстро улучшить свое положение;

3. Страх. Ситуация переезда в другую страну и нахождение в другой стране на основаниях иностранного гражданина зачастую заставляет заставляя мигрантов чувствовать себя беспомощными и уязвимым.

Помимо стрессов связанных со сменой культуры, мигрант переживает траур по потерянной родине. Миграция лишает индивида "удерживающей среды" которая связана с родной культурой, социальными связями и чувством безопасности. Переживание горя оказывает значительное влияние на соматическое состояние индивида. Исследование Espinosa и J, Evans WN. [9] указывает на повышенный риск обширной соматизации и смертности у людей которые переживают горе. Annina Seiler [20] в своем обзоре статей посвященных связи горя и заболеваемостью, указывает на большое количество репрезентативных исследований доказывающих взаимозависимость между сильными воспалительными процессами связанными с реакцией на психологический стресс иммунной системы и пережитым горем. В классической статье Гарза-Гуэрреро А.[12] посвященной переживанию "культурного шока" и горя у мигрантов автор предполагает наличие нескольких основных стадий процесса формирования новой идентичности мигранта через процесс горевания. Наиболее болезненно переживается первый этап - "столкновение культур". Этот этап первого знакомства с новой культурой, на котором мигрант наиболее остро чувствует потерю части собственной идентичности. Аффективный фон мигранта сопровождается печалью, острым неприятием чужой и идеализацией покинутой культуры, ностальгией, потерю ясности и согласованности собственной идентичности. По нашему мнению, горевание на данном этапе сопоставимо горю после утраты. Волкан В. [25] указывает на то, что в периоде переживания острого горя индивиду свойственно отрицание потери (которое достаточно быстро уступает реальности), острые аффекты тоски и душевной боли, расщепление (одна часть индивида знает об утрате, а другая как бы отрицает ее), желание изменить ход событий, тревогу и гнев. В этот период обостряется чувство ностальгии, которое заключается в фантазировании о идеализированной и утраченной родине. Родной дом все больше начинает приобретать черты не реального дома, а заботящихся родительских фигур раннего детства. Ностальгия предполагает депрессивный аффект, уход в себя, склонность к самоанализу и постоянные разговоры о доме. Автор выделяет нормальную ностальгию, которая имеет корни во временной капитуляции перед сепарацией от родительских фигур, в потребности во временном, полу-сновидческом мечтании о возобновлении хороших детско-родительских отношений. Патологическая ностальгия предполагает компульсивные мысли или действия либо направленные на попытки возвращения в идеализированный дом, либо наоборот фобическое избегание любых фантазий о возвращении утраченного.

Фактор В: максимально высокий уровень — 1 чел. (6,6%), преобладание выраженности фактора — 4 чел. (26,6 %), средний уровень — 9 чел. (60,1 %) и низкий уровень — 1 чел. (6,6 %).

Фактор С: максимально высокий уровень выявлен у 4 чел. (26,6%), преобладающая выраженность фактора — 6 чел. (40 %), средний уровень — 4 чел. (26,6 %) и низкий уровень — 1 чел. (6,6 %).

Фактор Д: максимально высокий уровень не выявлен, преобладающая выраженность фактора — 6 чел. (40 %), средний уровень — 9 чел. (60,1 %) и низкий уровень не выявлен.

Фактор К: максимально высокий уровень выявлен у 4 чел. (26,6%), преобладающая выраженность фактора — 4 чел. (26,6 %), средний уровень — 7 чел. (46,8 %) и низкий уровень не выявлен.

Фактор М: максимально высокий уровень выявлен у 3 чел. (20%), преобладающая выраженность фактора — 4 чел. (26,6 %), средний уровень — 8 чел. (53,4 %) и низкий уровень не выявлен.

Фактор Н: максимально высокий уровень выявлен у 3 чел. (20%), преобладающая выраженность фактора — 8 чел. (53,4 %), средний уровень — 4 чел. (26,6 %) и низкий уровень не выявлен.

В экспериментальной группе выявлены следующие показатели коммуникативно-социальной компетентности (табл. 4).

Таблица 4

Количественные и процентные показатели студентов с различным уровнем выраженности КСК в экспериментальной группе

факторы	Уровень КСК				
	мах уровень	Преобл. выраженность фактора	Средний уровень	Низкий уровень	
А	Чел.	3	5	6	2
	%	18,7	31,2	37,5	12,5
В	Чел.	4	4	8	0
	%	25	25	50	0
С	Чел.	2	8	6	0
	%	12,5	50	37,5	0
Д	Чел.	2	7	6	1
	%	12,5	43,7	37,5	6,3
К	Чел.	1	5	7	3
	%	6,3	31,2	43,7	18,7
М	Чел.	3	7	6	0
	%	18,7	43,7	37,5	0
Н	Чел.	3	6	6	1
	%	18,7	37,5	37,5	6,3

Фактор А: максимально высокий уровень — 3 чел. (18,7%), преобладающая выраженность фактора — 5 чел. (31,2 %), средний уровень — 6 чел. (37,5 %) и низкий уровень — 2 чел. (12,5 %).

Фактор В: максимально высокий уровень — 4 чел. (25 %), преобладание выраженности фактора — 4 чел. (25%), средний уровень — 8 чел. (50 %) и низкий уровень не выявлен.

Фактор С: максимально высокий уровень выявлен у 2 чел. (12,5%), преобладающая выраженность фактора — 8 чел. (50 %), средний уровень — 6 чел. (37,5 %) и низкий уровень не выявлен.

Фактор Д: максимально высокий уровень — 2 чел. (12,5%) преобладающая выраженность фактора — 7 чел. (43,7 %), средний уровень — 6 чел. (37,5 %) и низкий уровень — 1 чел. (6,3 %).

Фактор К: максимально высокий уровень выявлен у 1 чел. (6,3%), преобладающая выраженность фактора — 5 чел. (31,2 %), средний уровень — 7 чел. (43,7 %) и низкий уровень — 3 чел. (18,7 %).

Фактор М: максимально высокий уровень выявлен у 3 чел. (18,7%), преобладающая выраженность фактора — 7 чел. (43,7 %), средний уровень — 6 чел. (37,5 %) и низкий уровень не выявлен.

Фактор Н: максимально высокий уровень выявлен у 3 чел. (18,7%), преобладающая выраженность фактора — 6 чел. (37,5 %), средний уровень — 6 чел. (37,5 %) и низкий уровень — 1 чел. (6,3 %).

Преобладающее большинство студентов контрольной и экспериментальной групп обладают средним уровнем развития КСК по фактору А. Это означает, что студенты в целом не обладают легкостью и открытостью в общении. Открытыми, легкими, стремящимися к общению как в контрольной, так и в экспериментальной группе обладает значительно меньший процент студентов. Необходимо отметить, что среди студентов есть и такие, которых можно назвать необщительными, замкнутыми (их тоже небольшой процент).

Таким образом, на первом этапе исследования проведена диагностика коммуникативной компетентности студентов-психологов контрольной и экспериментальной группы.

На втором этапе исследования была разработана программа социально-психологического тренинга по развитию навыков коммуникативных умений для экспериментальной группы.

Программа тренинга включала разнообразные разогревающие упражнения; моделирование ситуаций в ролевых играх; упражнения в парах, группах; групповые дискуссии и т.п.

После проведения тренинговых занятий была проведена повторная диагностика коммуникативной компетентности в контрольной и экспериментальной группах.

Изменение процентного соотношения студентов контрольной группы с различными оценками коммуникативных и организаторских способностей, выявленных в первом и повторном исследовании, т.е. до и после тренинговых занятий представлено на рис. 1.

Пока в экспериментальной группе проводился тренинг коммуникативной компетентности, в контрольной группе произошли некоторые изменения показателей коммуникативных и организаторских способностей. Если в первом исследовании оценка 5 была у 13,4%, то во втором у 6,8% студентов. За счет этого увеличилась группа студентов с оценкой 4 (с 20% до 26,6%). В первом и втором исследовании выявлен одинаковый процент студентов с оценкой 3 (по 26,6 %). За счет уменьшения студентов с оценкой 1 (с 20 % до 13,4%), увеличилась группа студентов с оценкой 2 (с 20 % до 26,6 %).





Рис.1. Результаты контрольной группы по тесту-опроснику КОС до и после тренинга

Таким образом, изменения, произошедшие в контрольной группе, нельзя назвать положительными.

Процент испытуемых экспериментальной группы с различными оценками коммуникативных и организаторских способностей до и после тренинга представлен на рис. 2.

Рис.2. Результаты экспериментальной группы по тесту-опроснику КОС до и после тренинга



До тренинга в экспериментальной группе были выявлены студенты со всем разнообразием оценок коммуникативных и организаторских способностей (оценка 1 — 12,5%, оценка 2 — 31,5%, оценка 3 — 18,6%, оценка 4 — 18,6%, оценка 5 — 18,6%), но самый большой процент студентов имел оценку 2 (31,5%). После тренинга студентов с оценкой 2 осталось всего 6%, а студентов с оценкой 1 не осталось совсем. После тренинга оценка 3 была выявлена у 37,5% студентов, оценка 4 — 31,5% и оценка 5 — 25%.

Таким образом, сравнение результатов диагностики по методике КОС до и после тренинга позволяет говорить о том, что коммуникативные и организаторские способности студентов после тренинга оказались на более высоком уровне в сравнении с тем, что было до тренинга.

Тест коммуникативных умений предусматривает рассмотрение не только преобладающей характеристики в общении (зависимость, агрессивность или компетентность), но и по ответам испытуемых можно составить качественную характеристику коммуникативных умений.

Так в ходе качественного анализа результатов диагностики было выявлено, что практически по всем коммуникативным умениям, выделенным автором методики, показатели стали значительно выше.

Выше оказались результаты, отражающие умение оказывать и принимать знаки внимания (комплименты, умение обратиться к сверстнику с просьбой, умение ответить отказом на чужую просьбу, сказать "нет", умение самому оказать сочувствие, поддержку, умение самому принимать сочувствие и поддержку со стороны сверстников, умение вступить в контакт с другим человеком, контактность. Более соответствующие адекватному поведению получены ответы по пунктам: реагирование на справедливую и несправедливую критику, на задевающее, провоцирующее поведение со стороны собеседника, на попытку вступить с тобой в контакт.


Сравнение показателей КСК в экспериментальной группе до и после тренинга (рис.3) выявило следующие изменения: увеличился процент студентов с максимально высоким уровнем по фактору А (с 18,8% до 31,2%), увеличился процент с преобладанием выраженности фактора А (с 31,2% до 37,5%), снизился процент студентов со средним уровнем (с 37,5% до 31,2%) и с 12,5 до 0 упал процент студентов с низким уровнем выраженности фактора А. Таким образом, показатели говорят о том, что студенты экспериментальной группы стали более общительными, более доверительными и открытыми в общении.

В контрольной группе изменений по фактору А методики КСК не выявлено.

Проведенное экспериментальное исследование влияния тренинга на развитие коммуникативной компетентности студентов-психологов позволило сделать следующие выводы:

1. Сравнение изменений по методике КОС показало, что в контрольной группе за то время, пока в экспериментальной группе проводился тренинг, показатели коммуникативных и организаторских способностей стали чуть ниже, но статистически снижение показателей не доказано. В отличие от этого, в экспериментальной группе в результате проведения тренинга процент испытуемых с высоким уровнем развития коммуникативных и организаторских способностей значительно увеличился, и достоверность этих изменений доказана статистически.

Рис. 3. Уровень развития КСК по фактору А до и после тренинга в экспериментальной группе



2. По тесту коммуникативных умений в контрольной группе выявлены изменения в снижении процента испытуемых с преобладанием компетентности в общении и увеличение процента испытуемых с зависимым характером общения, но статистически доказано только снижение уровня компетентности в общении. В отличие от этого в экспериментальной группе в результате тренинга повысился процент студентов с преобладанием компетентности в общении, снизился процент зависимости и агрессивности, но статистическая достоверность изменений не доказана.

3. По методике КСК в контрольной группе произошло незначительное снижение уровня логичности, внимательности, эмоциональной стабильности в общении. Достоверность изменений невелика, потому что статистически не доказана. В экспериментальной группе увеличился процент студентов, стремящихся к общению, проявляющих инициативу в общении, опирающихся на свое мнение, не боящихся его высказывать, увеличилась эмоциональная стабильность в общении, внимательность по отношению к собеседнику, логичность. Положительные изменения в увеличении уровня стремления к общению доказаны статистически.

4. Благодаря полученным данным можно говорить о том, что разработанный и проведенный тренинг коммуникативной компетентности оказал положительное влияние на развитие коммуникативной компетентности студентов-психологов.

На основании полученных результатов исследования для студентов-психологов были разработаны рекомендации по развитию коммуникативной компетентности, выполнение которых поможет студентам — психологам развить коммуникативные умения.

Список использованной литературы.

1. Аврамцев, В.В. Профессиональное общение в деятельности юриста /В.В. Аврамцев. - Н. Новгород, 2000. -77 с.
2. Андреева Г.М. Социальная психология: учебник для высших учебных заведений / Андреева Г. М. – М.: Аспект Пресс, 2017. - 363 с.
3. Давыдова, А.М. Теоретический анализ структуры коммуникативной компетентности // Психологические науки: теория и практика: материалы III Междунар. науч. конф. (г. Москва, июнь 2015 г.). — Москва: Буки-Веди, 2015. —С. 34-37. — URL: <https://moluch.ru/conf/psy/archive/158/7421/>
4. Криволапова Н. М. Коммуникативная компетентность личности // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2014. – Т. 30. – С. 36–40. – URL: <http://e-koncept.ru/2014/55327.htm>.
5. Кочюнас Р. Жуков Ю.М. Социально-психологический тренинг: проблемы и перспективы. // Вопросы психологии. – 1983. - № 7
6. Махова, А.С. Коммуникативная компетентность: особенности понятия и формирования / А.С. Махова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. —2023. № 5 (452). — С. 269-271. — URL: <https://moluch.ru/archive/452/99666/>

Eshmanov Otabek Baxriddin o'g'li

Samarqand davlat universiteti psixologiya kafedrasida o'qituvchisi, erkin tadqiqotchi

O'SMIR SPORTCHILARNING STRESS HOLATIGA BARQARORLIK DARAJASINI O'RGANISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'smir sportchilarning faoliyatida yuzaga keladigan stressogen vaziyat va holatlarda stressga barqarorligini o'rganish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari yoritilgan.

Kalit so'z. O'smir sportchilar, stress, stressga barqarorlik, daraja.

ИЗУЧЕНИЕ УРОВНЯ УСТОЙЧИВОСТИ СПОРТСМЕНОВ ПОДРОСТКОВ К СОСТОЯНИЮ СТРЕССА

Аннотация. В данной статье освещены результаты научных исследований, проведенных по изучению стрессоустойчивости в стрессовых ситуациях и ситуациях спортсменом-подростков.

Ключевое слово. Подростки-спортсмены, стресс, стрессоустойчивость, уровень.

STUDYING THE STABILITY LEVEL OF TEENAGE ATHLETES TO THE STATE OF STRESS

Annotation. This article highlights the results of scientific research conducted on the study of stress resistance in stressful situations and situations of teenage athletes.

Keyword. Teenage athletes, stress, stress resistance, level.

Hozirgi globalashuv jarayonida jamiyatimiz oldida turgan ulkan muammolardan biri bo'lgan stress va shaxsning stressga barqarorlik muammosi deb e'tirof etilmoqda. Mazkur muammoning psixologiyada tadqiq etilishi XX-asr boshlarida ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o'rganilib kelingan va hozirga kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan muammolardan biri sanaladi. Aytish joizki, o'z davrida ko'pgina xorij va rus psixologlari ushbu muammo yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishgan va bu borada o'zlarining ilmiy talqinlarini bildirishgan. Jumladan, B.X.Vardanyan [4] stressing individual ifodalanishiga va ko'rinishlariga urg'u berib, insonning favqulotda vaziyatdagi rolini psixologik ustanovkalar bilan bog'liq deb hisoblaydi. V.A.Bodrov[3] esa mavjud stressni keltirib chiqaruvchi omillarni guruhlashni taklif qiladi va ularni to'rt guruhga ajratadi. Uning fikriga ko'ra, har qanday stress fiziologik jarayon bo'lib, u fiziologik reaksiyalar orqali kechadi va unda hissiy reaksiyalar ham mavjud bo'ladi. Mazkur fikrdan kelib chiqadigan bo'lsak, stressing fiziologik va hissiy reaksiyalarini boshqarish uchun shaxsda stressga barqarorlik xususiyati mavjud bo'lishi lozim. Shaxsning stressga barqarorligi uning o'z hissiyotini boshqarish, uni nazorat qilish va o'zini qiyin vaziyatlarda tutib tura olishi asosida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengib o'tish ko'nikmasi hisoblanadi.

Mustaqil hamdo'stlik davlatlar olimlari tomonidan ham mazkur masala yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan. Jumladan, N.N.Danilova shaxsning stressga barqarorligi borasida quyidagi fikrni bildiradi: "Og'ir zo'riqishlarni ko'p boshdan o'tkazish va qiyin, murakkab vaziyatlarda o'ziga xos hamda real, adekvat yechim topish qobiliyati"[5]. A.A.Baranov esa stressga barqarorlikni "Stressga barqarorlik psixik barqarorlikning bir ko'rinishi bo'lib, turli omillar ta'sirida namoyon bo'ladi" deb ta'riflaydi [2].

Shuningdek, V.Subbatin stressga barqarorlik masalasida fikr yuritar ekan, o'z tadqiqot natijalariga asoslanib, stressga barqarorlikni anglashda uning hissiy va psixologik barqarorlik, frustrasion tolerantlik kabi omillarini ham e'tiborga olish lozimligini ta'kidlaydi [8].

V.L.Marishuk esa shaxsning stressga barqarorligini murakkab faoliyat jarayonida yuzaga keladigan hissiy qo'zg'alishini nazorat qilish va uni yengib o'tish sifatida baholaydi [7].

Sport faoliyatida, ayniqsa sport musobaqalari jarayonida stressogen vaziyatlarning ko'plab sodir bo'lishi sportchilar faoliyatida tabiiy jarayon bo'lib, musobaqalarning keskinligi, sportchilarning his-hayajonlari va sport kurashishning jozibasi ushbu vaziyatlar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonda sportchilarning nafaqat jismoniy, taktik-texnik tayyorgarligi, shuningdek psixologik holati muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz tadqiqotimizda o'smir sportchilarning stressga barqarorligini o'rganishga harakat qildik, o'z oldimizga qo'ygan vazifani amalga oshirish maqsadida tadqiqot jarayonida N.V.Kersheva va N.V.Ryabchikovalar tomonidan tavsiya etilgan "Shaxsning stressga barqarorligini aniqlash" metodikasidan

foydalandik. Mazkur metodika shaxsning stressga barqarorlik darajasini aniqlash imkonini beradi, shuningdek ushbu metodika O'zbekiston sharoitida amaliy tajribadan o'tgan bo'lib, bir qancha o'zbek psixologlari tomonidan qo'llanilgan metodika hisoblanadi.

Ushbu metodika asosida olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Jadval-1

O'smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasi dispersion tahlili (ANOVA) natijalari.

Shkala	Sport turlari						F	Ishonch darajasi (Sig.)
	Yunon - rum		Milliy kurash		Dzyudo			
	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	O'rtacha qiymat	Standart og'ish		
Stressga barqarorlik	33,3	6,81	32,6	6,46	32,0	4,72	,637	,530

O'smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasining tadqiqot natijalarini tahlil qilishda asosan ularning ko'rsatkichlarini o'rtacha qiymati asosida izohlashga urg'u berdik. Chunki shaxsning kundalik ijtimoiy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan stressogen vaziyatlarda stressga stressga barqarorlik darajasi katta fozni tashkil etmasligi mumkin, biroq sport mashg'ulotlari bilan muntazam shu'g'ullanish jarayoni sportchilarning stressga bardoshlilik qobiliyatini ijobiy jihatdan namoyon bo'lishiga yordam beradi, chunki sport mashg'ulotlari davridagi psixologik bosimga bardosh berish, musobaqa vaqtida yuzaga keladigan qiyin, murakkab vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish va vaziyatni o'z tomoniga og'dirib olish xususiyatlari mashg'ulotlar jarayonida shakillanadi.

O'smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, yunon-rum kurashi, milliy kurash va dzyudo kurashi bilan shug'ullanadigan o'quvchilarda stressga barqarorlik darajasi o'rtadan baland natijani ko'rsatmoqda, barcha kurash turlari ko'rsatkichlarida katta farq kuzatilmadi (1-jadvalga qarang). Shu o'rinda ta'kidlash joizki, natijalarning darajasi maskur kurash turlarining o'ziga xos xususiyati bilan bevosita bog'liqligi bilan izohlanadi, chunki o'smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasini bu ko'rsatkichi ularning ayniqsa sport musobaqalari jarayonida muvoffaqiyatga erishishlarida katta ahamiyatga ega bo'ladi, ya'ni o'smir sportchilar bo'lajak musobaqaga nafaqat jismoniy, shuningdek psixologik jihatdan ham tayyor bo'lishlari lozim bo'ladi. Sport musobaqasi jarayonida sportchilar kuchli stress holatidan chiqa olishlari, kurash vaqtidagi kuchli psixologik bosimga bardosh bera olishlari uchun ulardan irodaviy sifatlar talab qilinadi, ular nafaqat o'z kuchlariga ishonishlari, o'zlariga real baho bera olishlari, musobaqa va raqib bilan kurashish jarayonida yuzaga keladigan qaltis vaziyat, holatlarga tayyor turishlari hamda o'sha vaziyatlarga to'g'ri baho bera olishlari, qisqa vaqt ichida real, adekvat qaror qabul qilishlari ham lozim bo'ladi, bu esa sportchilardan atrofidagi stressogen holatlar, bosimlarga bo'lgan munosabatiga, ularni qabul qilishi va tekor tahlil qilishiga bog'liq bo'ladi. U borada R.A.Abdurasulov o'zining ilmiy izlanishlari asosida quyidagi mulohazalarni bildiradi: "Sportchi raqib bilan keskin jang vaziyatida psixik zo'riqish, stress va mashg'ulotlarda o'rgangan harakatlarini xato qilish orqali yo'qotish xavfi xolatida qaror qabul qilishiga to'g'ri keladi. Musobaqa bellashuvlarining turli bosqichlarida taktik usullarning bahosi ham turlicha bo'ladi. Masalan, basketbolchi o'zining maydoni tomonida to'pni raqibidan tortib olishi va tezda raqib tomon himoyasini yorib o'tishga qaror qilishi mumkin. Bu esa xatarli harakat bo'lib, raqiblari undan to'pni olib qo'yishlari mumkin. Bu qarorni faqat raqibdan katta farq bilan oldinda borayotgan paytda qabul qilish mumkin: "Bu holatda kuchli hissiy ta'sirlanish holati qaror qabul qilish jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Yetarlicha psixik barqaror bo'lmagan sportchi vaziyatni noto'g'ri baholashi, asoslanmagan qaror qabul qilishim mumkin" [1].

Aytish joizki, sport o'yinlarida noto'g'ri qabul qilingan qarorni o'yin jarayonida to'g'rilash mumkin, lekin kurash turlarida uning natijasi ayanchli bo'lishi, bu sportchini mag'lub bo'lishi bilan yakunlanishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Bunga misol qilib o'zbek boks afsonasiga aylangan Rufat Risqievning sport faoliyatini yoki o'zbek futboli "Maradona" si deb tan olingan Mirjalol Qosimovni keltirish mumkin. Kurash turlarining o'ziga xos jihatlari sportchilardan yuqori psixologik tayyorgarlikni talab qiladi, chunki musobaqa jarayoni keskin holatda bo'lishi, kuchli psixologik bosim ostida o'tishi, xar bir daqiqa va soniyalar muhim ahamiyat kasb etishi, sportchining irodaviy sifatleri va aqliy salohiyati bilan bog'liq bo'ladi. Bunday jarayonda o'ziga ishonchi kuchli bo'lgan, kuchli bosim va stressga qarshi tura oladigan o'z imkoniyatlari bilan raqib imkoniyatini to'g'ri baholay oladigan sportchi muvoffaqiyatga erishadi.

Tadqiqotimiz jarayonida stressga barqarorlik bo'yicha olingan natijalar bilan koping-kurash indikatorini natijalarining o'zaro korrelyatsion aloqadorligini ham tahlil qildik, uning natijalari quyidagi 1-jadvalda o'z aksini topgan.

Jadval-2

O'smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasining koping-kurash indikatorini bilan korrelyatsion aloqadorligi natijalari

No	Shkala	Muammoni hal etish strategiyasi	Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni izlash strategiyasi	Muammodan qochish strategiyasi
1	Stressga barqarorlik darajasi	,340**	,029	,067

Izoh: ** - $p \leq 0,01$

O'tkazilgan tadqiqot natijalari o'smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasi bilan koping-kurash indikatorini bo'lgan muammoni hal qilish shkalasi o'rtasida ijobiy korrelyatsion bog'liqlikda namoyon bo'lmoqda. O'smir sportchilardagi stressga barqarorlik darajasini o'rtadan yuqori natija (2-jadvalga qarang) ko'rsatgani shundan dalolat beradiki, har ushala kurash turlari bilan shug'ullanuvchilarda nafaqat mashg'ulot va musobaqa jarayonida, balki kundalik ijtimoiy hayotda ham o'ziga va kuchiga ishonch, yuzaga keladigan har qanday vaziyatda o'zini yo'qotmaslik, voqea-xodisalarga real baho berish, qaror chiqarishdan oldin sabablarini o'rganish va tahlil qilish, vaziyatni o'z tomoniga yo'naltira olish, ko'rsatilayotgan ta'sirlarga bosiqlik bilan javob qaytarish, yuzaga kelgan vaziyatlardan to'g'ri xulosa chiqarish, muammoni ijobiy hal qilishga harakat qilishda o'zlaridagi bor imkoniyat va resurslaridan foydalanisharida namoyon bo'ladi. Shuningdek, o'smir sportchilar stressga barqarorlik darajasining ko'rsatgan natijalari har qanday holatlarga tabiiy holat sifatida qabul qilishlari bilan xarakterlidir.

O'smir sportchilarning stressga barqarorlik natijasining boshqalarning qo'llab-quvvatlashga muxtojlik shkalasi bilan korrelyatsion aloqadorligi ham musbat bog'liqlikni ko'rsatmaqda. Bu holat o'smir sportchilarning faol hулq-atvor strategiyasi bo'lib, ular yuzaga kelgan har qanday muammoni (mashg'ulotlarda, o'zaro munosabatlarda yoki xayotiy faoliyatda) samarali hal qilish uchun atrof-dagilardan, ya'ni oila a'zolari, do'stlari, murabbiylari, o'qituvchilaridan yordam so'rashlari hamda o'zini qo'llab-quvvatlashini, uni hissiy kechinmalarini to'g'ri tushunishlarini kutadi, yaqin odamlariga o'zida sodir bo'layotgan holatni, ichki his-tuyg'ulari haqida gaplashishni istaydi va ulardan maslahat olishga, vaziyatga munosabat bildirishlarini so'raydi va shular asosida muammoga yondoshadi, muammoni hal qilishga harakat qiladi.

Stressga barqarorlik darajasining o'rtadan yuqori ko'rsatkichi bilan muammodan kechish strategiyasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik shundan dalolat beradiki, o'smir sportchilarning bunday vaziyatlarda o'zini nazorat qila olish, yuzaga kelgan vaziyatlarni tabiiy hol sifatida qarshi olish, sport mashg'ulotlariga ko'proq e'tibor qaratishi, o'rtoqlari bilan ko'ngil hushlik qilishi, yolg'iz bo'lishga harakat qilishi orqali muammoni tabiiy yo'l bilan hal etilishiga, vaqtni o'zi bu muammoni hal qilishiga ishonishlari, yoki bu insonning passiv xулq-atvor strategiyasi bo'lib, bunday vaziyatda inson muammoni hal etishdan, uni o'rab turgan atrof-muhitdan va real voqelikdan qochishga harakat qilishi bilan izohlanadi. Osmir sportchilar bilan o'tkazilgan suhbat jarayonida ham yuqoridagi fikrlarni tadiqladi, ular stressdan xalos bo'lishda ko'proq mashg'ulotlardan, o'rtoqlari, oila davrasida bo'lishga harakat qilishlarini ta'kidladilar.

Shu o'rinda P.B.Zilbermanning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joiz, uning fikricha stressga barqarorlik – bu shaxsning integrativ xususiyati hisoblanadi va shaxs psixik faoliyatining hissiy, irodaviy, aqliy va motivatsion komponentlarining o'zaro bog'liqligida namoyon bo'ladi va hissiy xolatlarda maqsadga erishishning optimal yo'lini tanlash imkonini yaratadi [6]. Shuningdek, D.Amirxan, R.Lazargus, O.Sirotkin va boshqalar stressga barqarorlikni stressni yingib o'tishga yordam beruvchi va psixologik himoya mexanizmi sifatida yondoshadilar. Ularning fikriga ko'ra, ushbu mexanizm shaxsning kognitiv, hissiy va xулq-atvor sohasidagi bardoshlilik, o'zini nazorat qilish, qo'llab-quvvatlashni izlash, muammodan qochish, muammoni ijobiy baholash kabi koping-kurash mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, koping-kurash muammoni yechish, qullab-quvvatlashni izlash va muammodan qochish sifatida ham ifodalanadi.



Adabiyotlar

1. Abdurasulov R.A. Sport mashg'ulotlarining o'quvchi - sportchilar shaxsini shakillanishidagi roli (Yakkakurash turlari misolida). Psixol. fan.dok. diss.avtoref. –T. 2018.
2. Баранов А.А. Стрессоустойчивость в структуре личности и деятельности учителей высокого и низкого профессионального мастерства: Дисс.... канд. психол. наук: - СПб.1992. -161 с.
3. Бодров В.А. Психологический стресс: развитие учения и современное состояние проблемы. - М.: 2006. с. 68-72
4. Варданян Б.Х. Механизмы регуляции эмоциональной устойчивости //Категории, принципы и методы психологии. Психические процессы. – М., 2003. -С. 102-114
5. Данилова Н. Н. Психофизиологическая диагностика функциональных состояний: учеб. пособие. – М.: Изд-во МГУ, 1992. -342 с.
6. Зилберман П.Б. Эмоциональная устойчивость оператора.//Очерки психологии труда оператора. - М.: Наука, 1974. -С. 138-172.
7. Марищук В.Л. Перераспределение функциональных резервов в организме спортсмена как показатель стресса. //Стресс и тревога в спорте. - М. 1994. - С. 58-73.
8. Субботин С.В. Устойчивость к психическому стрессу как характеристики мета индивидуальности учителя. Дис. ... канд. психол. наук: - Перм, 1992. - 152 с.

Kozimova Nigora Abduqahorovna
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

OLIV TA'LIMDA TAHSIL OLADIGAN TALABALARINING O'QUV FAOLIYATIGA MOSLASHUVI

Anotatsiya. Ushbu maqolada Oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalarning moslashuvi, jamiyat a'zosi sifatida shakllanishi hamda xorijiy va rus olimlari tomonidan katta to'plangan tadqiqotlar bazasi bilan boyitilgan holatda fikr-mulohazalar keltirilgan. Bundan tashqari talabalarning oliy ta'limdagi moslashishi orqali turli individual xususiyatlari ham ochib berilgandir. Shuningdek, talabalarning motivatsiyasi va bu motivatsion yondashuv asosida o'quv faoliyatiga kirishuvi hamda psixologik holatlardagi vaziyatlari to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: ommaviy idrok, stereotip, reaktiv xulq-atvor, operant xatti-harakat, konseptual xulq-atvor, kognitiv ta'lim, assimilyatsiya, akkomodatsiya, gomeostaz hodisalar, intellektual faoliyat.

АДАПТАЦИЯ СТУДЕНТОВ ОБУЧАЮЩИХСЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕ- НИЯХ К ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В данной статье представлена адаптация студентов, обучающихся в высших учебных заведениях, их становление как члена общества, а также мнение, обогащенное большой базой исследований, собранной зарубежными и российскими учеными. Кроме того, через адаптацию в вузе выявляются различные индивидуальные особенности студентов. Также предоставляется информация о мотивации студентов и их вступлении в учебную деятельность на основе данного мотивационного подхода, а также об их психологических ситуациях.

Ключевые слова: массовое восприятие, стереотип, реактивное поведение, оперантное поведение, концептуальное поведение, когнитивное образование, ассимиляция, аккомодация, явления гомеостаза, интеллектуальная деятельность.

ADAPTATION OF STUDENTS STUDYING IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITU- TIONS TO EDUCATIONAL ACTIVITIES

Abstract. In this article, the adaptation of students studying in higher education, their formation as a member of society, and the opinion enriched by a large base of researches collected by foreign and Russian scientists are presented. In addition, various individual characteristics of students are revealed through adaptation in higher education. Also, information is provided about the motivation of students and their entry into educational activities based on this motivational approach, as well as their psychological situations.

Key words: mass perception, stereotype, reactive behavior, operant behavior, conceptual behavior, cognitive education, assimilation, accommodation, homeostasis phenomena, intellectual activity.

Kirish. Oliy ta'limda o'qish davri inson hayotidagi eng muhim davrlardan biridir. Bu vaqtda yosh shaxsning shaxs, kasb egasi, jamiyat a'zosi sifatida shakllanishi sodir bo'ladi, bu esa ta'lim faoliyati va ijtimoiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqdir. Bu davr bir qator o'ziga xos jarayonlar bilan tavsiflanadi: kasbiy o'zini o'zi belgilash, kasbiy muhim fazilatlarni rivojlantirish, shaxsiy ma'nolar va qiymat yo'nalishlari tizimini shakllantirish, ta'lim sharoitlari va atrof-muhitga moslashishdir. Shu bilan birga, moslashish boshqa jarayonlarning paydo bo'lishi uchun shartdir. Talabalarning moslashuvi uning kasbiy tayyorgarligi va ijtimoiy rivojlanishi samaradorligini oshirish omilidir. Jamiyatning tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoji doimiy bo'lib, bu ta'lim sohasidagi jadal islohotlar sharoitida psixologlar, ta'lim rahbarlarining e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda. Talabalarning moslashuvi va oliy ta'lim muhiti o'rtasidagi o'zaro ta'sirga e'tibor kuchayib bormoqda, chunki moslashish jarayoniga atrof-muhit sharoitlarini baholash ta'sir qiladi. Bu masalani o'rganish talaba ongida shakllanadigan obrazni boshqarish orqali moslashish jarayonini boshqarish istiqbollari ochadi. Amaldagi texnologiyalar cheklangan auditoriya (ma'ruzalar, treninglar, seminarlar) bilan ishlashga qaratilgan bo'lib, atrof-muhitni baholashning o'zgarishi ommaviy idrokga ta'sir qiladi, bu moddiy va vaqt resurslarini tejaydi. Bundan tashqari, atrof-muhitni baholash yaratilgan stereotiplarning barqarorligi tufayli moslashish samaradorligini oshirish uchun foydalaniladigan aloqa texnologiyalariga qaraganda uzoq muddatli ta'sirga ega.

Shunday qilib, oliy ta'limda talabanning moslashuvi muammosini ishlab chiqish psixologiya fanining dolzarb vazifalaridan biriga aylanadi.

Inson hayoti - bu doimiy ravishda o'zgaruvchan muhit sharoitlariga doimiy moslashish, bu muayyan maqsadlarga erishishga qaratilgan xatti-harakatlarning yangi shakllarini ishlab chiqishdan iboratdir. Inson hayotida o'rganish turli darajalarda bo'lishi mumkin:

1. Reaktiv xulq-atvorni rivojlantirish;
2. Operant xatti-harakati;
3. Kognitiv ta'lim;
4. Konseptual xulq-atvor.

Talabalik davrida kognitiv ta'limning turli shakllari eng ko'p ifodalangan. Hozirgi kunda oliy ta'limning birinchi kurs talabalarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi muammosi nihoyatda dolzarb bo'lib qolmoqda. Uning mohiyati insonning atrof-dagi voqelik bilan o'zaro munosabatlarining psixologik, kommunikativ, ishlab chiqarish, huquqiy xususiyatlari bilan belgilanadi. Butun dunyo olimlari moslashish muammosini turli vaqtlarda o'rganishgan. Hozirgi vaqtda xorijiy va rus olimlari tomonidan katta to'plangan tadqiqotlar bazasi mavjud. Bu shaxsni moslashtirishdagi ijtimoiy-psixologik ishlarga bag'ishlangan.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Dastlab biologiya fanlarida individlarning hayvon va o'simlik dunyosidagi adaptiv xulq-atvori hodisasi va mexanizmlarini, hayotning turli shakllari evolyutsiyasini tavsiflash uchun "moslashish" atamasi keng qo'llanila boshlandi; organizm va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonlarining xarakteristikasi sifatida. Shu bilan birga, moslashish gomeostaz hodisalari, stressli vaziyatlar nuqtai nazaridan, atrof-muhit o'rtasidagi muvozanatni saqlash sifatida qaralgan.

Gomeostaza tushunchasi organizmning ichki muhitining doimiyligi, hayotning zaruriy sharti sifatida psixologiyaga muvaffaqiyatli o'tdi.

J.Piaje insonning atrof-muhit sharoitlariga moslashishiga hissa qo'shadigan ikkita asosiy moslashish mexanizmini tasvirlab berdi:

1. Assimilyatsiya
2. Akkomodatsiya.

Assimilyatsiya qilish orqali muallif atrof-muhit omillarini o'zining allaqachon shakllangan kognitiv tuzilmalariga kiritishga qaratilgan shaxsning harakatlarining umumiyligini tushundi.

Akkomodatsiya - bu subyektga atrof-muhit ta'sirining qarama-qarshi jarayoni, u o'z faoliyatini allaqachon shakllangan kognitiv tuzilmalarni o'zgartirishga yo'naltiradi. Shunga asosan, J.Piaje adaptatsiya - shaxsning intellektual faoliyatining ushbu ikki vektorining teng nisbati sifatida belgilaydi. Vaqt o'tishi bilan psixologiyada adaptatsiya tushunchasi bixeviorizm, neobehevizm, psixozanaliz, gumanistik, kognitiv psixologiya, mehnat psixologiyasi ta'sirida rivojlandi.

Moslashuvning tayyorgarlik bosqichi, bu asosan bo'lajak faoliyatning mavzusi va ijtimoiy shartlari to'g'risida tegishli ma'lumotlarni to'plashdan iborat. Shaxsning individual psixologik xususiyatlariga va motivatsion sohasiga qarab, bu bosqich faol maqsadli yoki passiv shaklda davom etishi mumkin. Ruhiiy stressni boshlash bosqichi tayyorgarlik harakatlarining (hodisalarning) neyropsik tajribasi holati va kasbiy faoliyatning yangi sharoitlariga dastlabki kirish bilan bog'liq. Bu vaqtda insonning aqliy va psixofiziologik resurslarining ichki safarbarligi mavjud bo'lib, yangi sharoitlarda ishlash uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Moslashuvning keyingi bosqichi - bu o'tkir ruhiy reaksiyalar bosqichi bo'lib, unda adaptant ob'ektiv va ijtimoiy muhitning o'zgargan omillarining ta'sirini his qila boshlaydi. Moslashish jarayonining ushbu bosqichi uchun xarakterli xususiyat - bu konstruktiv (masalan, ehtiyojni qondirish yo'lini adekvat almashtirish, vaziyatni qayta baholash) yoki halokatli reaksiyalarni (tajovuzkorlik yoki vaziyatdan qochish) keltirib chiqaradigan umidsizlik holati tajribasi. Moslashuv jarayoni qulay rivojlangan taqdirda, yakuniy ruhiy stress bosqichi boshlanadi, bu inson psixikasining oldingi faoliyat usullarini, yaqinlashib kelayotgan xatti-harakatlar bilan bog'liq odatiy xatti-harakatlarni amalga oshirishga tayyorlanishi bilan tavsiflanadi. odatiy hayotga qaytish. O'tkir aqliy chiqish reaksiyalari bosqichi deb ataladigan moslashish jarayonining yakuniy bosqichi allaqachon tanish muhitga kirish va kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan hissiy va xulq-atvor reaksiyalari majmuasidan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, fanda talabalarning moslashuvi va oliy ta'lim qiyofasi o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, bunday munosabatlarning qonuniyatlari ta'kidlanmagan. Biroq, ko'plab tadqiqotlar bilvosita bu haqiqatga ishora qiladi. Tasvir-taqdimlash tartibiga solish vazifasini bajaradi. Insonning voqelikka munosabati tizimi xulq-atvor dinamikasini tartibga soluvchi va shaxs mazmunini belgilovchi omildir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, faoliyatga munosabat tizimi moslashuv sifatini shakllanti-

radi. O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan munosabati tizimi boshqa odamlarga, jamoat burchiga, faoliyatga, o'ziga va ijtimoiy hodisalarga munosabatni o'z ichiga oladi. Faoliyatga munosabat, V.A.Zobkovning fikricha, moslashuv shaxsni ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritish usulidir. Munosabatning mazmuniy xususiyatlari motivatsiya, o'zini o'zi qadrlash, shaxsiy fazilatlar kiradi.

Motivatsiya - bu insonning xulq-atvori va faoliyatini belgilovchi turli omillar tizimi hisoblanadi. U motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, intilishlar, munosabatlar, his-tuyg'ular, me'yorlar, qadriyatlarini o'z ichiga oladi. E.P.Ilinning ta'kidlashicha, motivatsiya va motivlar doimo ichki shartli bo'ladi, lekin ular tashqi omillar va rag'batlar bilan rag'batlantirilishi mumkin. Oliy ta'lim imidjining ma'lum xususiyatlari oliy ta'limni, fakultetni, kasbiy tayyorgarlik yo'nalishini tanlashda, o'rganishga bo'lgan intilishda (tashqi va ichki) turtki bo'lib, ta'lim faoliyatidagi faollikka ta'sir qiladi.

E.P.Ilyin quyidagi ta'lim motivlarini qayd etdi:

-talabalar yaxshi yoki yomonroq o'qishlari mumkin, chunki ular kasbni xohlaydilar yoki xohlamaydilar (kasbiy motivatsiya);


-yangi bilimlarni egallash va bilish jarayonining o'zidan qoniqish (kognitiv motivatsiya);

-o'zini tasdiqlaydi va kelajakda umuman jamiyatda va ma'lum bir bevosita ijtimoiy muhitda ma'lum bir pozitsiyani egallaydi (ijtimoiy va shaxsiy obro'-e'tibor motivatsiyasi). A.K.Markova ta'kidlaydiki, o'quv motivi bir qator o'zaro ta'sir qiluvchi motivlardan iborat bo'lib, motivlar, ular o'rtasidagi munosabatlarni murakkablashtirish, shuningdek, ta'limga bo'lgan munosabat tufayli motivatsiya tuzilishi doimiy ravishda murakkablashadi .

Motivatsion sohaning shakllanishi, irodaviy fazilatlarining mavjudligi, stressga chidamlilik va psixologik haddan tashqari yuklanish faoliyatni amalga oshirishga tayyorlikni oshirish vositasi bo'lgan oldindan belgilanishni tashkil qiladi. Faoliyatning yuqori darajasiga erishish hissiyotlar, tasvir namoyonlari shaklida mustahkam psixologik asosga ega bo'lishi kerak.

Talabaning ehtiyojlari, qiziqishlari, e'tiqodlari, ideallarini aks ettiruvchi kasbga, oliy ta'limga va fakultetga bo'lgan munosabat kasbiy tayyorgarlikning muvaffaqiyati bilan bog'liq bo'lgan juda muhim (va ma'lum sharoitlarda hal qiluvchi) omildir. Tasvir kristallangan va ijobiy mustahkamlash mexanizmi bilan ma'lum darajada chizilgan.

E.Nesset ta'lim muvaffaqiyati talabalarining oliy ta'limga sodiqligiga bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida uning imidji (obro'si, atrof-muhitni idrok etish) bilan bog'liqdir. Tashkilot imidji va uning a'zolarining samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni X.Ibarra ham ta'kidlaydi. Sadoqat oliy ta'limning yangi talabalarni jalb qilish va mavjud talabalarni saqlab qolish qobiliyati, shuningdek, tashqi auditoriya bilan aloqani saqlab turish qobiliyati bilan bog'liqdir.



Oliy ta'lim qiyofasi talabalar uchun ijtimoiy-psixologik ta'sir vositasidir. Shuning uchun o'quvchilarning moslashuvini to'g'rilash, buyruq-ma'muriy usullar bilan teng harakat qilish vositasi bo'lishi mumkin.

Inson atrof-muhitni nafaqat biologik maqsadga muvofiq, balki aks ettirishga o'rgatilgan tarzda ham aks ettiradi. Va ular unga atrof-muhitni nafaqat jamiyat nuqtai nazaridan, balki birinchi navbatda o'z ehtiyojlari nuqtai nazaridan aks ettirishga o'rgatishdi. Ta'limning asosiy vazifasi narsalarning utilitar ma'nosini ochib berish bo'lib qoladi: ular nima uchun, ular nimaga xizmat qiladi, ulardan nima qilish yoki olish mumkin. Genetik kognitiv va operativ tasvirlar ikkita mutlaqo boshqa aqliy funktsiya bilan bog'liq.

Moslashuv murakkab, ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u talabalarning allaqachon mavjud bo'lgan bilim va ko'nikmalarini o'z ichiga oladi va ularni oliy ta'lim muassasasining yangi sharoitida amalga oshirish uchun yangi maqsadlarga muvofiqlashtiradi. Universitetning birinchi kurs talabalarining o'qishdagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan ular hayotning ichki va tashqi sharoitlariga qanday moslasha olganiga bog'liq. Moslashuv jarayonida talabalar individual xususiyati, psixofizik va psixologik xususiyatlarida o'zgarishlarga uchraydi. Bu bosqichda talaba yangi muloqot muhitiga kiradi. Muloqot jarayonida shaxs muayyan xulq-atvor xususiyatlariga, xususan, ijtimoiy talablarga, professor-o'qituvchilar tomonidan nazoratga va tengdoshlar bilan muloqotga moslashadi. O'z navbatida, muloqot shaxsning moslashuvining yetakchi omillaridan biridir. U yerdan talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish tengdoshlari va o'qituvchilari bilan muloqotni optimallashtirishga kirishadi.

Talabalarning moslashuviga ta'sir etuvchi omillarga

- psixologik,
- pedagogik va
- sotsiologik

1)Psixologik omillarga quyidagilar kiradi: intellekt, guruhdagi mavqei, shaxsiy moslashuvchan salohiyati.

2) Pedagogik omillarga quyidagilar kiradi: pedagogik mahorat darajasi o'qituvchi tomonidan o'quv muhitini tashkil etish.

3)Sotsiologik omillarga quyidagilar kiradi: yoshi, o'quvchining ijtimoiy kelib chiqishi.

Erikson ta'kidlaganidek, o'smirlik bir qator ijtimoiy va individual shaxsiy tanlovlar, o'ziga xosliklar va o'zini o'zi belgilashdan iborat bo'lgan shaxsiyat inqirozi atrofida quriladi. Oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri bu muhim masalani yechishning asosiy algoritmini ishlab chiqishdan iborat. Maktabni endigina tugatmagan odam o'z e'tiqodi va oliy ta'limdagi mutlaqo yangi talablar o'rtasidagi ziddiyatni qanday yengib chiqishi mumkinligi masalasini hal qilish kerak. Shunday qilib, shubhasiz, birinchi kurs talabalarini psixologik bilimga ega mutaxassislarning yordamiga muhtoj. Bizningcha, bunday yordam universitetning maxsus psixologik xizmati orqali amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, birinchi kurs talabalarini oliy maktabda muvaffaqiyatli ijtimoiy-psixologik moslashuvi uchun psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash murakkab jarayon bo'lib, u deyarli butun talaba muhitini o'z ichiga oladi:

1. O'quv motivatsiyasini oshirish;
2. Shaxsning individual psixologik xususiyatlarini o'rganish;
3. Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish;
4. Emotsional holatlar bilan bog'liq holda o'z-o'zini tartibga solish ko'nikmalarini takomillashtirish;
5. Jamoa qurishni kuchaytirish.

Shuni ta'kidlash kerakki, birinchi kurs talabalarining moslashuv jarayonining natijasi shaxsning moslashish darajasidir. Shaxsning moslashuvining quyidagi shakllari mavjud:

1. Ichki moslashuv, bunda funksional tuzilmalar yashash muhiti va yoshlarning hayotiy faoliyati o'zgarishiga qarab qayta tuziladi.

2. Tashqi moslashuvchanlik, bu davrda birinchi kurs talabalarining shaxsiyatlarini mustaqil bo'lishni qayta tashkil eta olmaydi.

3. Aralash moslashish, bunda birinchi kurs talabalarining shaxsiyati atrof-muhitga moslashish uchun qayta tuzilgandir.

Erix Frommning fikricha, inson nomaqbul ijtimoiy hodisalarga moslasha oladi, bunday moslashish esa «shaxsning intellektual va axloqiy fazilatlarini pasaytiradi». Shaxsning disadaptatsiyasiga alohida e'tibor berilishi kerak, bu o'quvchilarning o'ziga xos intrapsixik jarayoni va xatti-harakati bo'lib, qiyinchiliklar va yoqimsiz tajribalarni keltirib chiqaradi. Oliy maktabda talabalarning disadaptatsiyasi quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: obyektiv, o'quvchilarning ijtimoiy sohadagi xatti-harakatlarining o'zgarishini, shuningdek, uning ijtimoiy funktsiyalarining nomuvofiqligini nazarda tutuvchi; sub'ektiv, psixo-emotsional siljishlar bilan bog'liq. Talabalarning psixologik moslashuvi turli xil hodisa bo'lib, u

rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi, shaxsiyatning o'zgarishini, aqliy faoliyatdagi o'zgarishlarni, me'yorlarni, qadriyatlarni, jamiyatning barcha sohalarida o'z ichiga oladiluyutu

Natijalar tahlili. Xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar tahlili asosida universitet talabalari uchun uchta asosiy moslashuv mezonlari mavjud: qiymat yo'nalishlarining etukligi, kognitiv mustaqillikning etukligi va kommunikativ qobiliyatlarning etukligi. Oliy o'quv yurtlari talabalarining moslashuv jarayonida duch keladigan, ish qobiliyatining pasayishiga va muloqotda qiyinchiliklarga olib keladigan asosiy qiyinchiliklar quyidagilardir: - kelajak kasbini tanlashda motivatsion noaniqlik; - eski stereotiplarni buzish; - sobiq maktab jamoasi tomonidan ma'naviy yordamning etishmasligi; - emotsional holatni o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarining rivojlanmaganligi; - kundalik hayotga g'amxo'rlik qilish kerak; - individual ishlarni ratsionalizatsiya qilish va optimallashtirish ko'nikmalarining etishmasligi. Bu jarayon talabalarni ularga e'tiborni qaratishga undaydi, chunki muvaffaqiyatli moslashish ularga stress kabi salbiy oqibatlardan xalos bo'lishga yordam beradi.

Oliy ta'limda tehsil oladigan talabalarining 75% moslashishning yuqori darajasini ko'rsatadigan eng katta adaptiv effekt faol va bir vaqtning o'zida o'z-o'zini o'zgartirishga va tashqi muhitni o'zgartirishga qaratilgan strategiyalar tizimini qo'llash orqali ta'minlanadi. O'rtacha 50% natija birinchi kurs talabalarining ta'lim sohasiga tashqi moslashuvi bilan bog'liq bo'lib, bu talabalarda ichki o'zgarishlarga yordam bermaydi va ularning xatti-harakatlarining muqobil modellari. Birinchi kurs talabalarini uchun moslashuvning ikkita modeli mavjud: 1. 1-model - tashqi va shaxs ichidagi o'zgarishlarni kutish. 2. 2-model talabaning atrof-muhitni tark etishi. Birinchi kurs talabalarining moslashish darajasining pastligi, moslashishning aniq salbiy ta'siri tufayli, qoida tariqasida, ularning atrof-muhit bilan aloqa qilishdan bosh tortishi va ichki dunyosiga botishda namoyon bo'ladi. Pavlenokning fikriga ko'ra, muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari - bu shaxsning atrof-muhitdagi yuqori ijtimoiy mavqei, uning ushbu muhitdan umuman psixologik qoniqishi va uning eng muhim elementlari. Olim ta'kidlaganidek, past ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari shaxsning boshqa ijtimoiy muhitga o'tishi, anomiya va deviant xatti-harakatlaridir

Xulosa qilib aytganda psixologik moslashuv davrida shaxsning rivojlanishi tegishli atrof-muhit sharoitlari bilan belgilanadi. Shunday qilib, psixologik moslashuv ko'rsatkichi o'quvchi shaxsining psixologik qulayligi bo'lib, u ijobiy va salbiy his-tuyg'ularning muvozanatidir. Oliy o'quv yurtlarida talabalarni samarali o'qitishning muhim jihati oliy maktabda o'qitishning yangi xususiyatlarini ishlab chiqish, shuningdek, ichki noqulayliklarni bartaraf etishdir. Psixologik moslashuvni ko'rib chiqish shaxs va atrof-muhit o'rtasidagi ikki tomonlama o'zaro ta'sir bilan bog'liq bo'lgan bir qator xususiyatlarni o'rganishni o'z ichiga oladi, bu stereotip reaksiyalar sifatida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ananyev, B.G., 1977. On the problems of modern human science. Moscow: Nauka Publ.
2. Dukhina, T.N., Tarasova, S.I., Taranova, E.V., Zorina, E.B., Chudnova, O.A., 2015. Problematization of social-and-ecological aspects in adaptation of the forced migrants in Stavropol krai. Asian Social Science, 11(8), 27-132 Erikson, E., 1993.
3. Абакумова, Н. Н. Организация среды профессионального самоопределения: предпрофильная подготовка и профильное обучение [Текст] / Н. Н. Абакумова // Вестник Томского государственного университета. – 2007. – № 296. – С. 194–199

Abdullayeva Shoira Xamidovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori

PEDAGOG SHAXSIGA QO‘YILADIGAN TALABLARGA YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Maqolada pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talablarga turlicha yondashuvlar talqin qilingan. Ta‘lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlarga qo‘yiladigan talablar, pedagog shaxsi va kasbiy xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha mamlakatimiz va xorij olimlari tadqiqotlari muhokama etilgan. Pedagogik faoliyatda talab etiladigan pedagogik kompetentlik komponentlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: pedagog, shaxs, pedagogik faoliyat, kasbiy bilimlar, pedagogik qobiliyatlar, kasbiy muhim sifatlar, yondashuvlar.

ПОДХОДЫ К ТРЕБОВАНИЯМ ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫМ К ЛИЧНОСТИ ПЕДАГОГА

Аннотация. В статье приводятся различные подходы к требованиям, предъявляемым к личности педагога. Обсуждаются исследования отечественных и зарубежных ученых по изучению требований, предъявляемых к педагогам в системе образования, особенностей личности и профессиональной деятельности педагога. Проанализированы компоненты педагогической компетентности, которые востребованы в педагогической деятельности.

Ключевые слова: педагог, личность, педагогическая деятельность, профессиональные знания, педагогические способности, профессионально важные качества, подходы.

APPROACHES TO THE REQUIREMENTS TO THE PERSONALITY OF A TEACHER

Abstract. The article presents different approaches to the requirements of the individual teacher. Discussed the study of domestic and foreign scientists to study the requirements for teachers in the education system, the characteristics of the person and professional work of the teacher. Analyzed components of pedagogical competencies that are in demand in the educational activities.

Keywords: teacher, personality, educational activities, professional knowledge, teaching skills, professional qualities, approaches.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta‘limni rivojlantirish umummilliy dasturi doirasida o‘quv yurtlarini zamon talabiga mos ravishda modernizatsiya qilish, ta‘limning mazmun-mohiyatini o‘zgartirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Ma‘lumki, oldingi ta‘lim ko‘proq akademik bilimlar berishga qaratilgan bo‘lsa, hozir unib-o‘qib kelayotgan yoshlarning chuqur nazariy bilimlarga ega bo‘lishi bilan birgalikda, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ta‘limning takomillashuv jarayoni shahdam odimlamoqda. Ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning bilim saviyasi, malakasi hamda islohotlarni amalga oshirishga tayyorgarlik darajasiga ham bevosita bog‘liq. Shu bois barcha ta‘lim muassasalari pedagog xodimlari doimiy ravishda o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini yangilab borishlari uchun bugun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Pedagogik faoliyat pedagogning ta‘lim oluvchiga tarbiyalash va ta‘lim berishdan iborat ta‘sir ko‘rsatishi bo‘lib, uning shaxslilik, intellektual va faoliyatli rivojlanishiga yo‘naltirilgan hamda bir vaqtning o‘zida uning o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘zini o‘zi takomillashtirish asosi hamdir. Mazkur faoliyat sivilizatsiya tarixida madaniyatning yuzaga kelishi bilan, ya‘ni ishlab chiqarish malakalari va ijtimoiy xulq-atvor normalarini yaratish, saqlash va avlodlarga yetkazish vazifasi bilan birga paydo bo‘ldi. Dj. Bruner fikricha, insoniyat yosh avlodni o‘qitishning faqat uchta asosiy usulini biladi: oliy primatlarda o‘yin jarayonida ko‘nikma komponentlari tarkibini ishlab chiqish, tuzem xalqlarda kontekstda o‘qitish va bevosita amaliyotdan ajratilgan maktab metodi. Asta-sekin jamiyat rivojlanishi bilan birinchi sinflar, maktablar, gimnaziyalar ochila boshladi. Turli mamlakatlarda turli bosqichlarda o‘qitish mazmuni, maqsadlarida juda muhim o‘zgarishlar yuz berishga qaramasdan, maktab ijtimoiy institut sifatida qoldi, uning asosiy vazifasi – ijtimoiy-madaniy tajribani o‘qituvchilar va pedagoglar pedagogik faoliyati vositasida avlodan-avlodga yetkazishdir. Biz boshdan kechirayotgan bugungi o‘zgarishlar davri aynan iste‘dodli va iqtidorli, zexni o‘tkir, muloxazali, yangidan yangi kashfiyotlarga qodir insonlari tarbiyalashni talab qilmoqda va ikkinchi tomondan mustaqillikni o‘zi tub ma‘noda ana shunday barkamol avlodni tarbiyalash uchun shart-sharoitlarni yaratib berdi.

So‘nggi yillarda pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talablar uning kasb malakasi, kasbiy mahorati, kasbiy tayyorgarligi, o‘z kasbining barcha jihatlarini har tomonlama to‘liq va puxta egallagan ustasiga

xos sifatleri darajasini oshirib borishni taqozo etadi. Shu o' rinda ta'kidlash joizki, kasb malakasi, kasbiy mahorat, kasbiy tayyorgarlik darajasi, kasb ustasi kabi tushunchalarning xar biriga psixologik ta'rif va izoh keltirilgan. Mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyati bir-biriga juda yaqin va umumiy o' zakka ega ekanligini hisobga olgan holda ularni umumlashtirib ifodalovchi tushuncha sifatida professionalizm deb nomlash maqsadga muvofiqligi juda ko' p mualliflar tomonidan e'tirof etiladi. Pedagog professionalizmi darajasi ko' rsatkichlari uning kasbiy bilim, malaka va ko' nimalari darajasi bilan belgilanadi. Ulardan har biri quyidagicha tarkibiy tuzilishga ega:

O'qituvchining kasbiy bilimlari: ixtisoslik fani nazariyasi, ixtisoslik fanini o' qitish metodologiyasi, pedagogik va psixologik texnologiyalar, pedagogik psixologiya, axborot-kommunikasion texnologiyalar, milliy g'oya va ma'naviyat asoslari, o' quvchilarni milliy mustaqillik g'oyalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodologiyasi, me'yoriy xuquqiy hujjatlar, iqtisodiy, huquqiy va moliyaviy masalalar va x.k. Pedagogning kasbiy ko' nimalariga o' qitish va tarbiyalash maxorati, o' quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta'minlaydigan shaxsiy sifatleri, ta'lim olayotganlarning bilimlarini xolisona nazorat qilish hamda baholash mahorati va boshqalar kiradi. Pedagog kasbiy malakalari qatoriga bir qator mualliflar o' quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va takomillashtirish, kabinetlarni jihozlash, o' qitishning zamonaviy, interfaol usullarini qo' llash va x.k.larni kiritadilar.

Sharqning buyuk allomasi Abu Rayhon Beruniy yoshlarni o' qitish uchun o' qituvchi tanlashni birinchi va asosiy o' ringa qo' yadi. Uning fikricha, pedagog xushmuomala, rostgo' y, o' z fanini yaxshi biladigan pokiza, toza, ozoda yuradigan va hammaga namuna bo' ladigan bo' lishi kerak. Bu adolatli va to' g'ri talabdir. Beruniy ta'lim-tarbiyaga o' quvchilarning diqqatini jalb qilish, mashg'ulotlar davomida talabalar zerikib qolmasliklari uchun ta'lim olishning turli yo' llari, shakl va metodlari ustida to' xtalib o' tgan. Uning ta'kidlashicha "bizning maqsadimiz o' quvchini toliqtirib qo' ymaslikdir, xadeb bir narsani takrorlash zerikarli bo' ladi, materialga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi. Agar o' quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o' tib ketsa, u xuddi turli-tuman bog' -rog' larda sayr qilib yurgandek bo' ladi. Kishi ularning hammasini ko' rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag' ishlaydi, deb bejiz aytilmagan". Beruniy bilimlar ustozlar tomonidan o' rgatiladi, deb biladi. U nazariy bilimlarni talabalarga singdirish usullari haqida to' xtalib, muallim o' z ishiga asosan qiziqarli suhbat usuli bilan yondashib, shogirdning fanga, kasbga, o' rganilayotgan ilmga havasini uyg' ota olishini, ta'limning asosiy vazifalaridan biri deb biladi.

Abu Ali ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda o' qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, talabaga bilim berish o' qituvchining mas'uliyatli vazifasidir. Uning fikricha, o' qituvchi muomalada bosiq va jiddiy, talaba xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati va shaxs sifatidagi xususiyatlarini bilishi, fanga qiziqтира olishi zarur, asab-ruhiy tizimi beqaror inson uning fikricha, o' qituvchi bo' la olmaydi.

Shuningdek, Sharq mutafakkirlaridan Alisher Navoiy, imom G'azzoliy, Umar Xayyom, Abduholik G'ijduvoni, Maxmudxo' ja Behbudiy, Abdulla Avloniyalar pedagogik faoliyatga yuqori baho berib, ta'lim va tarbiya beruvchi inson shaxsiga qo' yiladigan talablar haqida o' z fikr-mulohazalarini ilgari surganlar.

O'zbekistonlik olimlardan E.G'.G'oziyev, M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G'.B.Shoumarov, A.Jabborov, N.F.Haydarov, A.I.Rasulov va boshqalar ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlarga qo' yiladigan talablar, pedagog shaxsi va kasbiy xususiyatlari haqida o' z tadqiqotlarini olib borganlar va ilmiy xulosalarini bayon keltirganlar. Pedagog shaxsi va kasbga oid nazariy va metodologik masalalarni ishlab chiqishda rossiyalik mualliflar P.F.Kapterov, F.N.Gonobolin, E.A.Karandashev, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slastyonin, S.V. Kondratyeva, V.A.Kruteskiy, Yu.N.Kulyutkin, A.I. IIIyerbakov, A.K.Markova, L.M.Mitina ishlarini aytib o' tish mumkin.

F.Haydarov, N.X.Xalilova o' qituvchining eng muhim shaxsiy sifatleri ichida quyidagilarni e'tirof etadilar: ijtimoiy javobgarlikni his etish, oliyjanoblik, aql-farosat, ma'naviy poklik va ma'rifat bo' yicha yuksak maqsadlarga mos kelishi, sabr-toqatlilik, matonatlik, o' zini o' zi doimiy rivojlantirish va takomillashtirish va h.k.[10].

V.A.Kan-Kalik fikricha, o' qituvchining individual sifatleri bir vaqtning o' zida ikki darajali talablarga javob berishi kerak. Birinchi darajadagi talablarga o' qituvchiga kasb egasi sifatidagi talablar qo' yilishi kiradi. Ular ijtimoiy formasiyalar, o' quv muassasalari, o' quv predmetiga bog' liq

emas. Mazkur talablarga har qanday o' qituvchi, u qanday o' quv muassasasida, qaysi fandan mehnat qilmasin javob bera olishi kerak.

N.V.Kuzmina, A.I.IIIyerbakovlarning ta'kidlashlaricha, o' qituvchida o' zini o' zi baholash ad-ekvatligi, xavotirlanishning ma'lum optimumi bo' lishi zarur va ular pedagogning intellektual faolligi, maqsadga yo' nalganligi, tirishqoqligi, mehnatsevarligi, kamtarinligini ta'minlaydi. Ayniqsa pedagogdagi

o' quvchilar psixik holatlarini tushuna olish, empatiya, ijtimoiy o' zaro ta'sirga bo' lgan ehtiyojning mavjud bo' lishi juda muhimdir. Tadqiqotchilar tomonidan pedagogik takt masalasiga alohida o' rin beriladi. Unda pedagogning umumiy madaniyati va yuqori professionalizmi namoyon bo' lishi ta'kidlanadi[7].

F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlar strukturasi kiruvchi quyidagi jabhalarni keltiradi: o' quv materialini hamma uchun tushunarli qila olish, o' quvchilarga pedagogik-irodaviy ta'sir ko' rsatish, o' quvchilar jamoasini tashkil eta olish, talabalarga nisbatan mehrli bo' lish, pedagogik takt, nutq mazmunligi va yorqinligi, o' quv predmetini hayot bilan bog'lay olish qobiliyati, kuzatuvchanlik, pedagogik talabchanlik va x.k. Pedagogik qobiliyat - bu qobiliyat turlaridan biri kishning pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi. Didaktik qobiliyatlar - bu bolalarga o'quv materiallarni aniq va ravshan tushuntirib, oson-qilib yetkazib berish, bolalarda fanga qiziqish uyg'otib, ularda mustaqil fikrlashni uyg'ota oladigan qobiliyatlardir[4].

Didaktik qobiliyatlarga ega bo'lgan o' qituvchi zarurat tug'ilganda qiyin o'quv materiallarni osonroq, murakkabrog'ini soddaroq, tushunishi qiyin bo' lganini tushunarliroq qilib o'quvchilarga moslashtirib bera oladi. Perseptiv qobiliyatlar - bu talabaning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o' quvchi shaxsining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir. Ikkinchi darajadagi talablar o' qituvchidan pedagogik faoliyat uchun shaxs sifatida tayyor bo' lishni talab etadi. Tayyorgarlik deganda keng va professional tizimli kompetentlik, qat'iyatlilik, ijtimoiy-ahamiyatli yo' nalganlik, shuningdek kommunikativ va didaktik ehtiyojlar, muomalaga ehtiyoj, tajriba almashishga bo' lgan ehtiyojlar mavjudligi taqozo etiladi.

A.K.Markova[8] kasbiy kompetentlikka asos qilib pedagog mehnati psixologiyasini qabul qilishni taklif etadi. A.K.Markova tomonidan ilgari surilgan kasbiy faoliyat modeli o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- mehnat jarayoni va natijasi;
- samaradorligi va samarasizligi, turli sharoitlarda o' ziga xosligi;

Kasbiy kompetentlik deganda pedagogning shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda yetarlicha yuqori darajada pedagogik faoliyat, pedagogik muomala amalga oshiriladi, o' quvchilarning ta'lim olishi va tarbiyalanishi borasida yaxshi natijalarga erishishda aks etuvchi pedagog shaxsi yuzaga chiqadi. Bunda pedagogning kompetentligi haqqoniy mehnatda bir tomondan uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlari mutanosibli bilan aniqlanadi. E.G'.G'oziyev fikricha ideal pedagogda takt boshqani tushuna olish malakasi xushmuomalalik, muloqotmandlik kasbiy sifatlardan ham ko'ra ko'proq ahamiyatga egadir.Dunyoqarashning kengligi, har tomonlama bilimga ega bo' lish va yondosh fanlardan yaxshi xabardor bo' lish, mashg'ulotlarni o' tkaza olish malakasi oliy quv yurti o' qituvchisining eng muxim kasbiy sifatlardan biridir. Kasbiy mahorat, talabalar bilan individual ish olib borish malakasi, qo'rqitish va baqirish bilan emas, mantiq bilan ishontira olish ham muhim xislatlardandir[9].

Shunday qilib, o'qituvchi kasbiga qo'yiladigan talablar borasida olib borilgan tadqiqotlar, bildirilgan fikrlar va ilgari surilgan g'oyalar doirasi juda xilma-xil bo' lib, zamon talabi o' zgarishi bilan o' zgarib boradi.

Adabiyotlar

1. Бируни, Абу Рейхан. Определение границ расстояний между населенными пунктами (Геодезия) / Исслед., пер. с араб. и примеч. П. Г. Булгакова // Избр. Произведения. Т. III. Ташкент: Фан, 1996. 362 с.
2. Бодалев А.А Личность и общение. – М., 1995. – 328с.
3. Вачков И.В. Психологические условия развития профессионального самосознания учителя (на материале специальных тренингов групп). Автореф. дисс...канд.психол.наук. – М., 1995. – 19с.
4. Гоноболин Ф.Н. Книга об учителе. – М., 2005. – 260с.
5. Зеер Э.Ф. Психология профессии. – Екатеринбург: Изд-во Урал. Гос. Проф - пед. ун-та, 2000. С.87
6. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – Ростов-на-Дону: Учитель, 1996. – Б. 121.
7. Кузьмина Н.В. Способность, одаренность, талант учителя. – Л., 1985. – 32с
8. Маркова А.К. Психология труда учителя. – М., 1993. – 192с.
9. G'oziyev E.G'. Oliy maktab psixologiyasi. -T. 2006. – B.56
10. Haydarov F.I., Xalilova N.N. Psixologiya o' qitish metodikasi. -T. 2006., -S. 18-19.

Shirinov Anvar Qanoatovich

Associate professor of chair of the "Jurisprudence and socio-political sciences"
at the Bukhara state university, PhD in philosophy

HUMAN DEVELOPMENT AND SOCIAL WORK AS PER PSYCHOLOGICAL ISSUES

Abstract. Human psychological development across the lifespan, theories of personality development, cultural and environmental influences, human behavior including developmental crises, disability, exceptional behavior, and addictive behavior.

Keywords: human development, psychological development, healthcare, social services, person-centered therapy, social phenomenon

ЧЕЛОВЕЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И СОЦИАЛЬНАЯ РАБОТА ПО ПСИХОЛОГИЧЕСКИМ ВОПРОСАМ

Аннотация. Психологическое развитие человека на протяжении всей жизни, теории развития личности, влияние культуры и окружающей среды, поведение человека, включая кризисы развития, людей с ограниченными возможностями, исключительное поведение и аддиктивное поведение.

Ключевые слова: развитие человека, психологическое развитие, здравоохранение, социальные услуги, личностно-ориентированная терапия, социальный феномен.

INSON TARAQQIYOTI VA PSIXOLOGIK MASALALAR BO'YICHA IJTIMOY ISH

Annotatsiya. Insonning hayot davomida psixologik rivojlanishi, shaxsni rivojlantirish nazariyalari, madaniyat va atrof-muhitning ta'siri, inson xulq-atvori, shu jumladan rivojlanish inqirozlari, nogironlar, g'ayrioddiy xatti-harakatlar va addiktiv xulq-atvor.

Kalit so'zlar: inson taraqqiyoti, psixologik rivojlanish, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar, shaxsga yo'naltirilgan terapiya, ijtimoiy hodisa.

Introduction. The term social services is most commonly used term, by government services) and in most languages, but its scope of definition may overlap depending on the languages and countries that of social protection, social action or social assistance. Although social services were born in most of the countries concerned in the same historical movement as health coverage, their contemporary missions do not generally include the reimbursement of health care, occupational accidents and / or retirement pensions, more often referred to as social security and provided by dedicated organizations. Here too, there are cross-references of terms depending on the country.

Hikikomori, or "social withdrawal", is a mental illness affecting mainly Japanese adolescents and young adults (Teo, 2010). This disease pushes sufferers to isolate themselves completely from the world: they lock themselves in a room in the house (often the bedroom) and refuse any visit or exit for months, or even years. These people neglect their food and body hygiene needs and play video games the majority of the time. In addition, some patients are prone to big tantrums. This psychological suffering is often the result of academic or social pressure, unfulfilled successes; some subjects have experienced rejection, harassment or bullying (Toivonen, Norasakkunkit et Uchida, 2011). Despite the similarities with certain diseases classified in the DSM such as depression, agoraphobia or obsessive-compulsive disorders, some researchers have demonstrated its unique cultural character (Kato et al., 2011a).

More than eight million people in England are taking antidepressants, for depression, anxiety, obsessive-compulsive disorder and other conditions - a million more than five years ago [1]. In 2003, the Japanese ministry of health and employment issued a 141-page manual describing this phenomenon and indicating the procedure to follow with people affected (Ministry of Health, Labour & Welfare, 2003). This document highlights five main diagnostic criteria, namely: 1. a centralized lifestyle at home; 2. no interest or motivation for school or work; 3. the persistence of symptoms beyond six months; the exclusion of schizophrenia, mental retardation or any other mental illness; 5 among people who have no interest or motivation for school or work, those now social relationships are excluded Some specialists agree that the most affected people are men, often seniors from families with average socioeconomic status. Despite its greater presence in Japan, some cases have been recorded in Spain, Italy, France and South Korea (Kato et al., 2011b).

Methods. There are more than 400 forms of psychotherapy (Kazdin, 2011). Indeed, when we are interested in the treatments of psychological distress, it is surprising to note the number of studies that contradict each other. This can partly be explained by the lack of consensus about the causes of mental disorders. Thus, not all psychotherapies have the same objectives. In the framework of this chapter, three of them are presented. Psychoanalytic therapies, person-centered therapy (humanistic) and cognitive behavioral therapy constitute the three bases from which several other types of psychotherapy have developed. A combination of these therapies is then presented, eclecticism, which responds to a biopsychosocial conception of the intervention. Contrary to what some believe, people who undertake psychotherapy are neither weak nor crazy. Most do it to find ways to manage their stress, reduce their distress or to live better every day. Carrying out such an approach is a sign that the person is in contact with his needs and has the will to meet them [2, 212].

Through a set of methods, we try to allow the person to make contact with their repressed childhood traumas, as well as with the unconscious conflicts between their identities, their ego and their superego. Freud said that what is not understood will be repeated (Cordón, 2012). Psychoanalysts believe that words replace ailments, that is, psychological and physical ailments are sensitive to speech. This is also the central idea of psychotherapy: we emphasize listening to suffering during a meeting on neutral ground. We're trying to make sense of the troubles. It is in order to help the psychoanalyst to be able to welcome this evil of life in his client that he must himself have done a psychoanalysis. In this way, it is believed that he will be able to remain more neutral and empathetic in the face of the sufferings of others.

Among the methods used in psychoanalysis, free association is at the forefront. In a state of relaxation favored by the couch and the absence of eye contact with the psychoanalyst, the client says whatever comes to mind, trying to put aside his shame and doubts. No thought should be blocked. By a relaxation of conscious control, we seek to facilitate the expression of unconscious contents [3].

Today, several psychologists are inspired by psychoanalysis, without applying it strictly. They favor the psychodynamic approach which does not require the client to lie down on a couch without being able to look at his therapist, and this, several times a week and over a long period of time. It also places less emphasis on the role of the unconscious and childhood. In this context, the therapist is more directive and does not wait for the unconscious contents to gradually manifest themselves (Zuckerman, 2011).

Person-centered therapy. The humanistic psychologist Carl R. Rogers (1980), rather than seeking to treat, heal or change a person, wanted to offer him a relationship that he could use to support his personal development. Here, the goal of the psychologist is to allow the person to find the path to the realization of his full potential.

The first, unconditional positive consideration, ensures that the therapist recognizes to all his clients, even those who are aggressive or not admirable, an inherent value since they are above all human. He trusts them and is convinced that they have the answers to their difficulties. By this attitude, the psychologist reduces the risks that the client will be defensive by feeling the need to protect his personal esteem.

The second attitude is that of empathic understanding. The therapist tries to perceive the world according to his client's frame of reference, leaving aside his own values and listening carefully to him. The therapist reformulates the ideas and redoes the feelings expressed, helping his client to reach deeper and true feelings. The decoding of verbal and non-verbal language facilitates this empathic understanding. Psychologists are unable to read the thoughts of their clients, although sometimes they can give the impression of it. In fact, no paranormal skills are involved. Rather, it is about listening and understanding skills developed over years of study (during internships in particular) and practice [4, 234].

The third fundamental attitude that the humanistic psychologist must demonstrate is authenticity. He must be aware of his feelings and thoughts, which allows him to share them with people. This transparency on the part of the therapist also helps to reduce the defensive reactions of clients who will be more motivated to be open themselves. The purpose of the humanistic framework is to establish a climate of trust through which the person will regain contact with his fundamentally good nature which seeks to flourish.

Cognitive behavioral therapy. Cognitive behavioral therapy (CBT) is a combination of elements coming mainly from behaviorism (behavioral component) and cognitive psychology. This approach is very popular currently in Quebec. She conceives psychological disorders as acquired phenomena. The goal of CBT is to direct the client so that he can make new learnings leading him towards a better mental balance. We can compare this approach to a form of reprogramming of mental processes in order to modify the person's behaviors. The behavioral aspect of cognitive behavioral therapy. In behavioral therapy, attention is paid to the problematic behavior rather than to its underlying causes. The objectives pursued are clearly

defined in terms of precise actions in order to be able to evaluate, over the course of treatment, the observable and measurable achievement. To achieve this, the principles of classical and operating packaging are applied, among other things.

Systematic desensitization is a gradual process. Clients learn to tolerate increasingly disturbing stimuli, while anxiety is counteracted by a state of deep relaxation. For example, for an individual with a phobia of injections, the targeted behavior could be to show himself capable of being pricked by a doctor or nurse. At his behavioral therapist's, he lies down on a couch.

If these fundamental capacities are not realized, many choices are simply not available and many opportunities remain inaccessible. However, the field of human development extends beyond: the essential areas of choice, to which people attach great importance, range from political, economic and social opportunities to be creative and productive, to the appreciation of self-esteem, emancipation and a sense of belonging to a community. Human development is a holistic concept, as it puts individuals at the center of all aspects of the development process. It shouldn't be confused with the human development measures (HDI index) which is limited to the measurement of the 3 aforementioned capacities.

The human Development index (HDI) corresponds to a composite index calculated each year by the UNDP in order to assess the level of development of countries based not on strictly economic data, but on the quality of life of their nationals.

The HDI integrates three factors:

life expectancy at birth, because it is significant of the future living conditions of individuals (food, housing, drinking water ...) and their access to medicine;
the level of education, which determines the professional and social autonomy of the individual;
the gross national income per capita, revealing the standard of living of individuals and thus their access to culture, goods and services, transport...

The HDI is presented in the form of a number located between zero and one, the latter digit symbolizing the highest level. This indicator created in 1990 is now preferred to per capita income, which today appears to be too reductive to assess the level of development. The importance given to the HDI is based on the idea that the freedom of men and women depends on human development. Four other indices have been created to refine the perception of the level of development:

- the gender development index (GDI), which makes it possible to compare the HDI of women and men;
- the gender inequality index (GII), which focuses on women's empowerment ; the inequality-adjusted HDI (IDHI), the calculation of which takes into account the extent of inequalities;
- the multidimensional poverty index (MPI), which makes it possible to measure different aspects of poverty excluding income.

The cognitive aspect of cognitive behavioral therapy. Cognitive therapists such as Albert Ellis and Aaron Beck believe that it is inadequate thoughts that lead to problematic behaviors and emotions (Wright, Thase and Beck, 2011; Ellis and Ellis, 2011). Thus, we are not trying to change or control the emotions or behaviors themselves, but rather the distortions of reality that cause them. The cognitive therapist pushes his clients to find out their irrational beliefs. Among the recent additions to cognitive behavioral therapy, we note contextualism (Jacobson, 1997). It states that the explanations for psychological disorders are not found inside the person, but rather in the interactions they have with their environment. The causes are thus multiple and interact with each other (Dionne, 2009). Psychologists working with this in mind place more emphasis on the relationship that the client has with his symptoms rather than wanting to change them directly. The practice of mindfulness meditation, or Mind fullness Based Stress Reduction (Segal et al., 2006). By this technique, we do not aim at modifying the content of ideas, but rather at observing them in order to consider them for what they are: perceptions rather than an exact reflection of reality (Larouche, 2009). We encourage a distancing from the content of the thoughts so that they have less hold on the person [5].

Professional exhaustion is associated with symptoms of discouragement and great fatigue leading to the inability to cope with professional demands. The term burnout first appeared in 1969 in an article by Harold B. Bradley. Since then, several researchers have observed and documented this phenomenon specific to the workplace.

People with an external locus of control feel powerless to change their personal situation and are less likely to make positive changes such as following a treatment program. Conversely, a person with an internal locus of control who has a health problem is more likely to make changes (for example, exercise, quit smoking, change jobs, etc.) and recover quickly (Rotter, 1990). However, when the place of internal

control is extreme, people feel greater distress due to their tendency to take credit for their failures and blame themselves (Spector and O'Connell, 1994, in Rascle and Irachabal, 2001). As Ellis points out, it is irrational to believe that we can control everything.

Adapting to stress

- Emotion-based adaptation includes emotional and cognitive means to modify the interpretation of a stressful situation to reduce negative emotions;
- Problem-oriented coping involves ways to deal directly with the stressful situation, including the use of problem-solving techniques to control or eliminate such a situation.

Resources to deal with stressors. Physical activity and health (good diet, adequate sleep and exercise). Relaxation (relaxation, deep breathing, yoga, meditation); Perceived social support (friendship, exchanges, self-help groups); Social skills (ease of expressing oneself); Humor; Material resources (money increases the options for adapting to stresses); Psychological resilience (linked to commitment, a perception of control and challenge to bounce back from stressors); The place of internal control (gives the impression that efforts and abilities have a greater impact on one's life than chance or fate) [6, 23]

At the same time, consciousness is one of the most predominant topics in psychology. It distinguishes the human from other animals, because it is she who gives him the impression of knowing that there is, who he is and what he desires. Consciousness even allows us to be aware that we are aware and act on our conscience! Feeling the warm breeze on her skin, feeling realizing that we are in love, remembering a missing loved one, discovering a new country, inventing a melody, all these experiences become extraordinary because that we are aware of it. Yet, while it is at the heart of the human experience, the consciousness remains difficult to study for three main reasons: it cannot be observed directly, it is influenced by several other actors and the perception that we have of it is very subjective. In fact and, it is "hidden" inside each one and directs its era from one person to another, and even from one moment to another in the same person. Unlike with very acutely observable and measurable behaviors, consciousness is a process intimate.

Conclusion. The notion of development has long remained perceived in simple terms of growth economic and quantitative (GNP or GDP, capital and trade flows, capacities investment). Promoted by the World Bank, the notion of "human development" complements this approach by taking into account their real impacts on the lives of populations : level of health, life expectancy, education levels. To account for this, indicators composites have been proposed: for example, the human development index (HDI) calculated every year since 1990 by the United Nations Development Programme allows international comparisons over time and classifications of which can depending on the allocation of certain aids.

References

1. Philippa Roxby,. Antidepressant withdrawal affects one in six people. <https://www.bbc.com/news/articles/c3ggv7zvzw3o>. Accessed 06.06.2024
2. Psychologie en direct. Karen Huffman. Adaptation Luce Marinier, Alain Huot, Sébastien Bureau. Modulo Québec. 4^e edition, 2014. –P. 380;
3. Gervais, L.-M. (2013). Des cégépiens pas comme les autres – Écrire pour se faire des amis, Le Devoir (5 décembre), [En ligne], www.ledevoir.com/societe/education/394396/ecrire-pour-se-faire-desamis (Consulté le 24 mars 2014);
4. Miltenberger, R.G. (2012). Behavior Modification: Principles and Procedures, 5^e éd., Belmont, CA, Wadsworth, 2012. –P.554.;
5. Moitra, E. et al. (2011). «Occupational impairment and social anxiety disorder in a sample of primary care patients», Journal of Affective Disorders, vol. 130, no 1-2, –P. 209-212.
6. Baddeley, A., M. W. Eysenck et M. C. Anderson. Memory, London, Psychology Press, 2009. –P. 464 p.

Narzulloeva Salomatbonu Sunnatulloeyva
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti tadqiqotchisi

HAMSHIRALARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola bugungi kunda hamshiralarda kasbiy kompetentlik omillarini shakllantirish va tadqiq etilishi ijtimoiy psixologiyaning nihoyatda dolzarb yo'nalishlaridan bir ekanligini e'tirof etilgan. Zamonaviy psixologiyada ijtimoiy ob'ekt hakidagi bilimlar yig'indisi va ularning shakllanganlik darajasi kasbiy kompetentlik shakllanganligining muhim shartlari ko'rib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Sotsial-pertseptiv kompetentlik, sotsial-psixologik kompetentlik, autopsixologik kompetentlik, psixologik-pedagogik kompetentlik, kommunikativ kompetentlik

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ МЕДСЕСТРЫ

Аннотация. В данной статье признается, что формирование и исследование факторов профессиональной компетентности медицинской сестры является сегодня одним из наиболее актуальных направлений социальной психологии. В современной психологии сумма знаний о социальном объекте и уровень их сформированности считаются важными условиями формирования профессиональной компетентности.

Ключевые слова: Социально-перцептивная компетентность, социально-психологическая компетентность, самопсихологическая компетентность, психолого-педагогическая компетентность, коммуникативная компетентность.

FEATURES OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF A NURSE

Abstract. This article acknowledges that the formation and study of factors of professional competence of a nurse is one of the most relevant areas of social psychology today. In modern psychology, the amount of knowledge about a social object and the level of its formation are considered important conditions for the formation of professional competence.

Keywords: Social-perceptual competence, social-psychological competence, self-psychological competence, psychological-pedagogical competence, communicative competence.

Buyuk qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino dunyoda birinchilardan bo'lib tibbiyot va psixologiya faning o'zaro bog'liqligini asoslab ushbu fanlar integratsiyasidan foydalanib, ko'plab yangiliklar yaratgan olim hisoblanadi. Ibn Sino kasalliklarni davolashda tabibni kasbiy layoqatini, tibbiyot xodimlarini dientologiyasini ta'siri va ahamiyatini alohida belgilab beradi. U o'z amaliyotida kasalliklarni davolashda nafaqat kasallik tarixiga, balki kasallikni davolashda tabibning kasbiy-ruxiy jihatlarini ham yuksak qadrlagan. Biz Ibn Sinoni psixosomatik tibbiyotning asoschisi, deb bemalol ayta olamiz. Shubhasiz, Ibn Sinogacha bo'lgan davrda Aristotel, Platon, Gippokrat kabi mutafakkirlar tomonidan ham bemor va tabib, tabibning layoqati, psixologik xususiyatlari orasidagi bog'liqliklar o'rganilgan. Biroq, Ibn Sino bemor ruhiyati va tibbiyot xodimining psixologik o'zaro uyg'unligini o'rgangan va amaliyotga keng qo'llagan buyuk olim hisoblanadi. U kasalliklar ustida olib borgan kuzatuvlari asosida tibbiyot xodimi va psixologiya orasidagi uzviy bog'liqlikni umrining oxirigacha isbotlab keldi. Buyuk mutaffakkir Abu Ali Ibn Sinoning (865-925) "Tib qonunlari" asarida davolashni turli xil vositalari bilan birgalikda, bemor ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishning psixologik usullari va ahamiyati shuningdek, tibbiyot xodimlari kasbiy deontologiyasiga ham keng o'rin berilgan. Ibn Sino bemorlar bilan muloqotda ijtimoiy-psixologik tomonlarga katta e'tibor qaratib, bu jarayonda tibbiyot xodimlarini kasbiy etiketi, kasbiy mahorati, emotsional intellekti, kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Shuningdek, o'z davrining mashhur mutaffakkirlari Abu Bakr ar-Roziy (865-925, Ismoil Jurjoniy, Masixiy Al Karvakiy, Chag'miniy kabi tabiblar ham kasallikni davolashda tibbiyot xodimlarining kasbiy mahorati va ijtimoiy-psixologik jihatlarini muhim ekanligini ta'kidlab o'tganlar.

Kasbiy kompetentlikni funktsiyalari va komponentlarini D.Goulman, D.Mayers, K.Rodgers, J.Piaje, D.Veksler, G.Ayzenk, L.F.Baxman, A.Palmer, Yan Van Ek kabi xorij olimlari tadqiq qilganlar [81:320 b], [19;111-129 b]. Nazariy tahlillardan ko'rish mumkinki, kasbiy kompetentlikni tarkibiy qismlari va uning faoliyat doirasida o'rganilishi A.A. Bodalev, A.A.Derkach, N.I.Shevandrin, V.Shtern,

E.S.Mixaylova, N.V. Kuzmina, N.D. Lakosina, T. V Kudryavtsev, A.K.Markova, N.V.Bachmanova, V.G.Bogin, V.A.Slastenin kabi olimlarning tadqiqot obe'ktiga aylantirilgan [41:440c], [134:512 c], [136:333 c], [90:124 c], [73:251-253 c], [78:272 c], [84:692-695 c], [115:576 c],

N.V. Kuzmina tibbiyot xodimlari kasbiy kompetentligini quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatadi [73:251-253 c].

1. Sotsial-pertseptiv kompetentlik
2. Sotsial-psixologik kompetentlik
3. Autopsixologik kompetentlik
4. Psixologik-pedagogik kompetentlik
5. Kommunikativ kompetentlik

A.Yu.Makoeva esa tibbiyot xodimlaridagi psixologik kompetentlikni quyidagi komponentlarga ajratadi [84:692-695 c].

1. Kognitiv kompetentlik
2. Kommunikativ kompetentlik
3. Intellektual kompetentlik
4. Sotsial kompetentlik
5. Autopsixologik kompetentlik

Kognitiv kompetentlik – bu tibbiyot xodimlari kasbiy faoliyati jarayonida uchraydigan psixologik to'siqlarni engib o'tish, faoliyat jarayonida kasbiy vazifalarni to'g'ri hal eta olish, muammoli vaziyatlardan turli xil psixologik usullar yordamida chiqib keta olish, vaziyatni to'g'ri baholay olish va axborotlarni sintez qila olish qobiliyati .

Kommunikativ kompetentlik – tibbiyot xodimlari psixologik kompetentligini asosini tashkil qiluvchi, shaxslararo munosabatda muhim omil sanaluvchi, atrofda qilarni ijobiy munosabatini shakllantiradigan, o'z fikrini boshqalarga ma'noli va asosli tushuntirib bera olish va o'zaro muloqotni to'g'ri tashkil qila olish qobiliyati.

Intellektual kompetentlik – katta hajmdagi bilimlar zahirasi va muammoli vaziyatda tafakkurga tayanib muammoni tug'ri hal qila olish qobiliyati. Tibbiyot xodimlarida shaxs psixologiyasi, muloqot psixologiyasi, va psixologiyaning boshqa sohalari bo'yicha etarlicha bilimlar bazasi shakllangan bo'lishi lozim, hamda bu bilimlardan bemorlari va atrofda qilari bilan muloqot jarayonida to'g'ri foydalana olishi zarur.

Sotsial kompetentlik – tibbiyot xodimlarini sotsial adaptatsiyasi yuqori darajada shakllanganligi, ularni ijtimoiy hayotda o'zini to'la ijobiy namoyon qila olishi va shaxsiy avtoritetini muvaffaqiyatli o'rnatish qobiliyati.

Autopsixologik kompetentlik – o'z hatti-harakatlarini to'g'ri boshqara olish, o'z shaxsiy xususiyatlarini adekvat baholay olishi, o'z-o'ziga baho va o'z-o'zini tartibga solish qobiliyati.

Yu.M.Jukov o'z tadqiqotlarida tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirish uchun kommunikativ kompetentlikni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Kommunikativ kompetentlik – bu psixologik o'zaro aloqalar doirasidagi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladigan muloqot qobiliyatidir. U kommunikativ qobiliyatlarning bir necha guruhlariga bo'ladi.

1. Kishinig boshqa kishini bilishi. Bu qobiliyatlar guruhida kishiga shaxs sifatida, shaxsning aloxida qiyofasi, motivi va xatti-xarakteriga baho berishi, kishining tashqi ko'rinishi, xulqi va ichki dunyosi nisbatiga baho berishni,.. savlati,.. imo-ishora, mimika, pantomimikasini «o'qiy» olishi qamrab olinadi.

2. Kishining o'z-o'zini bilish. U o'z bilimini, qobiliyatlarini o'z xarakteri va o'z shaxsining boshqa qirralarini hamda tashqaridan va uning atrofida qililar unga nisbatan qanday baxo berishi lozim bo'lsa, shunday baho berishni ko'zda tutadi.

3. Muloqot vaziyatini to'g'ri baholay olish. Bu vaziyatni kuzatish, uning ko'proq axborot beradigan belgilarini tanlash va unga diqqatni jalb qilish; yuzaga kelgan vaziyatning sotsial va psixologik mundarijasini to'g'ri idrok etish va baholash qobiliyatidir.

4.Sotsial kompetentlik – bo'lajak tibbiyot hamshiralari ijtimoiy adaptatsiyasi yuqori darajada shakllanganligi, ularni ijtimoiy hayotda o'zini to'la ijobiy namoyon qila olishi va shaxsiy avtoritetini muvaffaqiyatli o'rnatish qobiliyati.

5. Autopsixologik kompetentlik – shaxsning o'z hatti-harakatlarini to'g'ri boshqara olish, o'z shaxsiy xususiyatlarini adekvat baholay olishi, o'z-o'ziga baho va o'z-o'zini tartibga solish qobiliyati.

Andreeva G.M. o'z ilmiy qarashlarida "kompetentlik" atamasini o'qitishning va ta'lim jarayonining natijasi sifatida belgilaydi. Shuningdek, kompetentlikni maqsadlarni belgilashning yangi turi va ta'lim tizimlarini loyihalashi ekanligini ta'kidlaydi. Qisqacha qilib aytganda, ta'limni uzoq muddatli va keng bir

ko'rinishi, shuningdek, ta'lim modeli — ta'lim turini hayot orqali o'zgartirish deya ta'riflaydi [24:78-86 c].

“Kompetentlik” terminini xorij olimlaridan D. Veksler, J.Piaje oldiga qo'yilgan maqsadga bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi deya baholaydilar.

L. Terstoun, M.Kaplan bu tushunchani faoliyatga osongina eltuvchi xatti-harakatlar jamlanmasi sifatida qaraydilar [125:230 c].

Spenser, M.Vorberg, S.P.Destra, A.A Dunyushin tadqiqotlarida “kompetentlik” ni layoqat hamda kognitiv bilimlar integratsiyasi ekanligini asoslashga harakat qilishgan [120:371 c], [55:192 c],

“Kasbiy kompetentlik” tushunchasi ko'plab psixolog olimlar uslubchilar (Makoeva A.Yu., E.F.Zeer, N.V Kuzmina, A.K.Markova, V.A.Slastenin va hokazo) o'z ilmiy ishlarida tahlil qilishgan [84:692-695 c], [62:23-29 c], [73:251-253 c], [83:144 c], [115:576 c].

Ma'lumki, hamshiralarni kasbiy kompetentlik omillarini shakllantirish bugungi kunda ijtimoiy psixologiya oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. A.K.Ocnitskiyning ilmiy tadqiqotlarida tibbiyot hamshiralari kasbiy kompetentligini shakllanish modeli quyidagilarni o'z ichiga oladi [97:264 c]:

- Kasbiy tushuncha va bilimlarni shakllantirish bocqichi:
- Diagnostik, korreksion, bocqich;
- Faoliyat jarayonida psixologik-pedagogik yordam;
- Kasbiy kompetentsiyalarni tarkibiy qicmlarini shakllantirish;
- Motivatsion, kognitiv, xulqiy, hissiy, cohani rivojlantirish;
- Kasbiy etiketni rivojlantirish omillari;
- Kasbiy kompetentlik haqidagi tasavvurlarni shakllanganligi;
- Akademik bilimlarni rivojlantirish;
- Kasbiy kompetentlik dinamikasi darajalari;
- Kasbiy kompetentlik omillarini shakllanganligi.

Hamshiralarni kasbiy kompetentlik omillarini rivojlantiruvchi ijtimoiy – psixologik dactur quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Kasbiy kompetentlik darajacini diagnostika qilish;
2. Tibbiyot hamshiralarni hissiy, xulqiy, individual xususiyatlarni shakllantirish;

2. Hamshiralarda kasbiy kompetentlik omillarini shakllantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish hamda samaradorligini baholash.

V.N.Vvedenkiyning xulolariga ko'ra, tibbiyot hamshiralari kasbiy kompetentlik omillarini shakllantirish quyidagi yondashuvlar acocida amalga oshiriladi [46:31-38 c]:

- Ijtimoiy-psixologik yondashuv;
- Etnopsixologik yondashuv;
- Etnik yondashuv;
- Xulqiy – ma'naviy yondashuv.

Yuqorida qayd etilgan yondashuvlar hamshiralarning kasbiy kompetentlik omillarini rivojlantirishning psixologik chora-tadbirlariga bag'ishlangan bo'lib, ular orqali kasbiy kompetentlik komponentlari baholanadi.

Yuqoridagi ilmiy tahlillarimizdan ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz psixologlari tomonidan hanuzgacha kasbiy kompetentlikni muayyan kasbiy faoliyatga yoki xususan, bo'lajak tibbiyot hamshiralari misolida atroflicha va to'liq o'rganilmaganligi kuzatildi. Bu esa bugungi bo'lajak tibbiyot hamshiralari faoliyati misolida uning kasbiy kompetentlikka daxldor bulgan imkoniyatlari ko'lamini aniq belgilab olishni taqozo etadi. Shunday qilib, yuqoridagi tadqiqot yo'nalishlarining tahlili birinchidan umumiy tarzda, ilmiy-nazariy jihatdan kasbiy kompetentlikka tarif berish imkonini bersa, ikkinchidan tadqiqot maqsadiga mos bo'lajak tibbiyot hamshiralari kasbiy kompetentlik mezonlarini ishlab chiqish va uni amaliyotda qo'llash uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Aytish mumkinki, barcha nazariy-metodologik asoslar bugungi kunda bo'lajak tibbiyot hamshiralari kasbiy kompetentlik haqidagi tasavvurlarni shakllantirish uchun ma'lum darajadagi ilmiy tadqiqotlarni olib borishda tegishli ilmiy oydinliklar kiritish imkonini beradi.

Shunday qilib, yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqadigan bo'lsak hamshiralarni kasbiy kompetentligi shakllantirish jarayoni o'zining maqsadi va mohiyatiga ko'ra keng qamrovli bo'lishi bilan birga har bir faoliyat doirasida uni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda, tibbiyot hamshiralari kasbiy kompetentlik omillarini tadqiq qilinishi esa faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biridir.

Shu ma'noda hamshiralarda kasbiy kompetentlik omillarini tadqiq etilishida quyidagi ilmiy-amaliy vazifalarni amalga oshirish lozim deb o'ylaymiz:

1. Tibbiyot hamshiralarida kasbiy kompetentlikni shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni belgilash va tadqiq qilish.

2. Kasbiy kompetentlik va shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi mutanosiblikning qay darajada namoyon etilayotganligini tahlil qilish.

3. Tibbiyot hamshiralari sotsial-psixologik xususiyatlar va kasbiy kompetentligi uyg'unligini ta'minlovchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion munosabatlarni empirik jihatdan tahlil qilib, tegishli xulosalarni shakllantirishga e'tiborni qaratish.

4. Tibbiyot hamshiralarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va uni amaliyotda qo'llash masalasiga jiddiy yondashish.

Bugungi kunda tibbiyot hamshiralarida kasbiy kompetentlik omillarini rivojlantirish uchun quyidagi ishlarning amalga oshirishi qat'iy nazorat qilinadi:

1. Maxsus seminar-treninglar tashkil qilib, unda zrtta bo'g'in tibbiyot hamshiralari kasbiy kompetentlik omillarini shakllantirishga oid chiqishlarini tashkil qilish.

2. Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan hamshiralarni tayorlaydigan texnikumlar va maxsus o'quv kurslarida hamshiralarni kasbiy mahorati bilan bog'liq psixologik tadbirlarni izchil yo'lga qo'yish hamda ularni kasbiy kompetentligini psixologik jihatlari bilan bog'liq ma'lumotlar monitoringini yo'lga qo'yish.

3. Tibbiyot hamshiralarini kasbiy diontologiyasiga oid ma'lumotlarni beri borishni faoliyat jarayoniga kirmasdan qo'zg'atish tizimli amalga oshirib borish.

Demak, mazkur ilmiy mulohazalarni umumlashtiradigan bo'lsak, bugungi kunda hamshiralarda kasbiy kompetentlik omillarini shakllantirish va tadqiq etilishi ijtimoiy psixologiyaning nihoyatda dolzarb yo'nalishlaridan bir ekanligini yana bir bor e'tirof etishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo'lsak, tadqiqotimizni navbatdagi bosqichida tibbiyot hamshiralarning kasbiy kompetentlik omillarini ilmiy-metodologik bazasiga e'tibor qaratishni va shu asnosida tegishli yo'nalishlarni belgilab olishni lozim topdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари. 3-жилд. (Тузувчи У.Каримов). – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1992. – 315 б.

2. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 224 б.

3. Абу Райхон Беруний. Ҳикматлар. (Тўпловчи А. Ирисов). – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1973. – 103 б.

4. Абрамова Г.С. Юдчиц Ю.А. Психология в медицине – М.: Кафедра – М, 1998. - 222 с.

5. Абдуллаева Ш.Х. Педагог профессионал компетентлигини шакллантиришнинг ижтимоий-психологик механизмлари. Психол.ф.д. диссертацияси автореферати. - Т.: 2019 й. - Б. 36-49.

6. Абрамова Г.С. Практическая психология. - Екатеринбург, 1998. - 365 с.

7. Агабеков С.И. Анализ спроса на инновационный человеческий капитал // Социологические исследования, №11, 2001. –С. 56-60.

8. Адольф В.А. Профессиональная компетентность современного учителя. Монография. - Красноярск, 1998. - 310 с.

9. Агавелян П.О. Социально-перцептивные особенности в профессиональной деятельности учителя специальной школы/ Монография исследование.Новосибирск: НИПК и ПРО, 1999.– 408с.

10. Айзенк Г.Ю. Понятие и определение интеллекта// Вопросы психологии. – М.: 1995. – № 1. – С. 111-129.

11. Айзенк Г.Ю. Интеллект: новый взгляд// Вопросы психологии. – М.: 1995.– № 1. – С. 111–131.

Shonazarov Asror Maxmaisoyevich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Psixologiya kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
[E-mail:shonazarasror@gmail.com](mailto:shonazarasror@gmail.com)

MAXSUS IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISH VA ULARNI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotsiya. Ushbu ilmiy maqolada maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini boshqarish va ularni samaradorligini oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ochib berish nazarda tutilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda hal etilishi lozim bo'lgan ustuvor masalalardan biri bu rahbarlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tizimli tahlil asosida ilmiy, nazariy va amaliy tomondan keng qamrovli yoritib berishga qaratilgan xulosalar, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: maxsus iqtisodiy zonalar, boshqaruv, ishbilarmonlik muhiti, samaradorlik, faoliyat, maqsad, tizim tahlili, talab va taklif, xorijiy tajriba.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН И ПОВЫШЕНИЯ ИХ ЭФФЕКТИВНОСТИ

Аннотация. В данной научной статье призвано раскрыть социально-психологические особенности управления деятельностью особых экономических зон и повышения их эффективности, а одним из приоритетных вопросов, которые необходимо решить в этом направлении, являются социально-психологические особенности руководителей, основанных на На основе систематического анализа научных, теоретических и Выводов разработаны предложения и рекомендации, направленные на всесторонний охват с практической стороны.

Ключевые слова: Особые экономические зоны, управление, бизнес-среда, эффективность, деятельность, цель, системный анализ, спрос и предложение, зарубежный опыт.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MANAGING THE ACTIVITY OF SPECIAL ECONOMIC ZONES AND INCREASE THEIR EFFICIENCY

Annotation. In this scientific article, it is intended to reveal the socio-psychological features of managing the activities of special economic zones and increasing their efficiency, and one of the priority issues that should be resolved in this direction is the socio-psychological features of leaders based on a systematic analysis of scientific, theoretical and Conclusions, proposals and recommendations aimed at comprehensive coverage from the practical side have been developed.

Key words: Special economic zones, management, business environment, efficiency, activity, purpose, systematic analysis, supply and demand, experience.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida taraqqiy etib bormoqda. Aniq qilib aytadigan bo'lsak, xalqaro miqyosda o'zining obro'siga ega bo'lgan davlatlar qatoridan joy olgan. Mustaqil davlat sifatida yurtimiz rivojlanayotgan davlatlar qatorida o'zining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, harbiy, diplomatik va boshqa ko'plab yo'nalishlarda izchil rivojlanmoqda. Rivojlanish deganda biz ma'lum bir davlat, jamiyat, insoniyat, xalq yoki shaxsni tushunamiz.

Shu o'rinda rivojlanayotgan davlat tushunchasiga izoh berib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lar edi albatta.

Rivojlanayotgan davlat - bu boshqa mamlakatlarga nisbatan kamroq rivojlangan sa'noat ba'zasi va inson taraqqiyoti indeksi (HRI) pastroq bo'lgan suveren davlat [1].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohatlardan ko'zlangan asosiy maqsad bu inson qadrini ulug'lash, xalq farovonligini yuksaltirish, insonlarning turmush tarzini yanada yaxshilash, yoshlarni o'z vaqtida to'g'ri ta'lim-tarbiya olishlari uchun keng imkoniyatlar va shart-sharoitlarni yaratish, shahar hamda qishloq joylarni rivojlanishini samarali yo'lga qo'yish, qulay va sog'lom ishbilarmonlik muhitini yaratish kabilardan iboratdir.

Zero, har qanday sohani rivojlanib, taraqqiy etishi bu sog'lom ruhiy va ijtimoiy raqobatbardosh muhit ta'sirida amalga oshiriladi. Agarda har qanday korxonalar, tashkilot, muassasa, xizmat ko'rsatish sohasi hamda maxsus iqtisodiy zonalar rivojlanishi uchun sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit yaratilmasa ularning har qanday rivojlanishi o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Maxsus iqtisodiy zonalarining faoliyat ko'rsatishini va ularni rivojlantirishni tashkil etish sohasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi "**Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risidagi**" O'RBQ604-sonli Qonuni bilan tartibga solinadi.

Maxsus iqtisodiy zona – tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo'lgan hudud.

Maxsus iqtisodiy zonalar quyidagi turda tashkil etilishi mumkin:

- ✓ erkin iqtisodiy zonalar;
- ✓ maxsus ilmiy-texnologik zonalar;
- ✓ turistik-rekreatsion zonalar;
- ✓ erkin savdo zonalar;
- ✓ maxsus sanoat zonalar.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalar o'ziga xos rivojlanish xususiyatlariga egaligi bilan bir qatorda samarali boshqaruvga ham muhtojlik sezadi.

Ma'lumki, maxsus iqtisodiy zonalar mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etish, uni diversifikatsiya qilish va innovatsion rivojlantirishda eng samarali vositalaridan biridir. Maxsus iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi ishlab chiqarish, yuqori texnologiyali sanoat, muhandislik, transport va boshqa yo'nalishlar, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish, turizm hamda dam olish sohaslarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida aholini ish bilan bandligini ta'minlash bilan bir qatorda mamlakatni rivojlanishiga o'z hissasini qo'shishga ham xizmat qiladi. Shu bois, mamlakat iqtisodiyotini yanada taraqqiy ettirishni istagan har qanday davlat ayni yo'nalishdagi islohotlarni muntazam ravishda chuqurlashtirib boradi. Ayniqsa, sohaga doir qonunchilikni mustahkamlash bu boradagi muhim vazifalardan sanaladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yilda O'zbekiston sanoat zonalarida 800 dan ortiq yangi loyiha ishga tushiriladi 2024 yilda sanoat zonalarida 841 ta loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan. Ma'lum qilinishicha, 2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, mamlakatda 766 ta sanoat zonasi, jumladan, 24 ta maxsus iqtisodiy zona, 532 ta kichik sanoat zonasi, 210 ta yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalar tashkil etildi. Mazkur ob'ektlarning bosh rejalariga muvofiq investitsiya loyihalari uchun umumiy maydoni 11 ming 952,1 gektar yer ajratilgan.«Sanoat zonalarida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami yildan yilga kengaymoqda. 2024 yilda sanoat zonalarida 841 ta loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan. Bu 2023 yildagi ko'rsatkichdan (965 ta loyiha) 124 taga kam bo'lsa-da, bu o'zgarish yangi tashkil etilgan ishlab chiqarish quvvatlarining yiriklashishi va ish o'rinlari sonining ancha ko'payishi bilan bog'liq. Masalan, sanoat zonalarida 2023 yilda amalga oshirilgan loyihalarning umumiy qiymati 9,7 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda ushbu maqsadlar uchun 13,3 trillion so'm jalb etiladi», — deyiladi maqolada [2].

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, aholini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi davlat va jamiyat taraqqiyotining asosini sog'lom raqobatbardoshlik muhiti va yaratilgan shart-sharoitlar tashkil etadi.

Rivojlanish yo'lidan borayotgan O'zbekiston davlati o'zining 2030 yillargacha mo'ljallangan yo'l xaritasiga ega bo'lgan mamlakat sifatida qaraladi. Bunday boshqaruv tizimini takomillashtirish, rahbar (yosh) kadrlarni tanlash, tayyorlash, malakasini oshirish, ularning bilim saviyalarini yanada yuqori bo'lishi bilan bog'liq shart-sharoitlarni yaratish masalasi taraqqiyotning muhim omiliga aylanib bormoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning oqilona siyosat yuritishlarida ham o'z aksini topadi. Maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirish masalasi kunning nechog'lik dolzarb muammosi ekanligini e'tirof etmoqda.

XXI asrning yuksak axborot texnologiyalari va intellektual saviyaning keskin oshishi asri bo'lishi bilan bir qatorda globallashtirish va axborot asri ham deb qaralmoqda. Bunday sharoitida yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan asrash, ularni tadbirkorlikga o'rgatish davlat va jamiyat talablariga moslashtirish, ishlab chiqarish hajmini hamda sifatlilik darajasini oshirish, sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish bugungi kunda hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ushbu dolzarb masalalarni hal etish, maxsus iqtisodiy zonalarini faoliyatini boshqarish va ularni yanada samarali faoliyat yuritishlarini ta'minlashga qaratilgan takliflar, tavsiyalar va xulosalar ishlab chiqib ularni amaliy ahamiyatini oshirish tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalaridan hisoblanadi. Belgilab olingan maqsad asosida maxsus iqtisodiy zonalarini faoliyatini tizimli tahlil qilish orqali keng qamrovli boshqaruv motivlarini ishlab chiqish kelgusida ushbu sohani yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu holat insoniy munosabatlar sohasida ham islohatlar yuz berishi, intellektual saviyasi yuqori kishilar bilan muomalada bo'lishning va ularga samarali ta'sir ko'rsatishning nozik hamda o'ziga xos usullarini tanlash lozimligini taqozo etadi. Bu masalaga O'zbekiston misolida nazar tashlaydigan bo'lsak, muomila madaniyati an'analari, milliy qadriyatlarimiz,

mentaletimizning o'ziga xos, nodir qirralarini jahon sivilizatsiyasining ta'sirlaridan, umuminsoniy qadriyatlardan holi bo'lmagan boshqaruvchilar qatlamini shakllantirish, ularning faoliyati orqali adolat, insoniylik va demokratiyaning asoslarini fuqarolar ongi va faoliyatiga singdirish davr talabi ekanligini idrok etamiz.

Rahbar kadrlarni psixologik baholash, ularga zarur bo'lgan xislatlar majmuasini ishlab chiqish, boshqaruv lavozimlariga munosib nomzodlarni to'g'ri tanlash masalalarini o'rganish an'anasi ijtimoiy psixologiya sohasi tajribalarida ko'rinadi. Bu sohada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning jiddiyliги hamda dolzarbligi-boshqaruv psixologiyasi deb ataluvchi mustaqil yo'nalishning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Rahbar shaxsi boshqaruv faoliyatining asosiy bo'g'ini (ob'yekti) sifatida qator- iqtisodiy, menejment, marketing, mehnat sotsiologiyasi va boshqa fanlarning predmetlaridan biri hisoblanib, uning turli qirralirini ham o'ziga uslublar yordamida o'rganadi. Lekin bu izlanishlarning deyarli hammasi tushuntiruvchi va modellashtiruvchi-ifoda kasb etganligi bois, ijtimoiy-psixologik tamoillarga asoslangan holda rahbar shaxsini tanlash, saralash, uning faoliyatini o'zgartirish va zarur bo'lgan talablarga moslashtirish (korreksiyalash) jarayonini yetarlicha yoritib bera olmayapti. Bunga sabab bo'ladigan asosiy kamchiliklardan biri-soha yuzasidan rahbar psixologiyasini o'rganish borasida respublikadagi olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarning tarqoqlikda amalga oshirilayotganidir. Bu esa o'z navbatida, zamonimiz talabga mos keluvchi, rahbarlik motivatsiyasiga moyil munosib nomzodlar zaxirasini shakllantirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Rahbarlikga nomzodlardagi mavjud qobilyatlarni diagnostika qilish esa, bu masalaga kompleks yondashuvni talab qiladi. Qolaversa, hududiy, milliy, etnopsixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mos standartlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish ham davr talabidir.

Rahbarlik faoliyati motivatsiyasini ijtimoiy-psixologik baholash, boshqaruvning psixologik standartlarini yaratish borasidagi tadqiqotlar O'zbekiston sharoitida mutlaqo yangi bo'lib, uning natijalari ijtimoiy fanlar, xususan, boshqaruv amaliyotiga o'zining munosib ulushini qo'shadi.

Ishlab chiqilgan va ilmiy asosga ega bo'lgan bunday mazmundagi standartlar, tadqiqotlarni o'ziga xosligi shundan iboratki, baholash mezonlari, taklif etiladigan diagnostik usullar mahalliy sharoitda faqat ma'muriy emas, balki xo'jalik boshqaruvi organlarida kadrlar tanlashning izchil yo'lga qo'yishilishini ham ta'minlab beradi.

Mazkur yo'nalishda kompleks tarzda empirik ilmiy-tadqiqot o'tkazish uchun demokratik tamoyillarga asoslangan fuqarolik jamiyatida, mahalliy aholining rahbarlarga bo'lgan talablarini o'rganish, maxsus iqtisodiy zonalar boshqaruvidagi muammolarni o'rganib chiqib samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish boshqaruvning etnopsixologik xususiyatlarini hisobga olish va joylarda o'tkazilgan sotsiologik hamda ijtimoiy-psixologik so'rovlar tahlillari asosiy material sifatida xizmat qiladi. Ularning miqdori va hajmi keng qamrovli bo'lib, olingan aniq statistik natijalar hamda ma'lumotlarni qayta ishlash uslublari tadqiqot jarayonida qayd etiladi va belgilab boriladi.

Shu o'rinda savol tug'iladi maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirish uchun qaysi rivojlangan davlat andozalari namuna bo'la oladi? Maxsus iqtisodiy zonalarini boshqarish va ularni rivojlantirishning siri nimada?

Olib berilgan ilmiy tahlillarga natijasiga ko'ra maxsus iqtisodiy zonalarini keng rivojlantira olgan yetakchi davlatlardan biri bu albatta Xitoy davlati hisoblanadi. Xitoy davlati tomonidan ishlab chiqilgan maxsulotlar, bugungi kunda dunyo bozorini qamrab olishga erishdi. Xitoydagi maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) xorijiy investitsiyalar va texnologiyalarni imtiyozlar orqali jalb qilib, "iqtisodiy o'sish" o'choqlarini barpo qilish uchun mo'ljallangan.

Xitoy maxsus iqtisodiy zonalarida YIMning 22 foizi yaratiladi. Mamlakatga kirib kelayotgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 45 foizi va eksportning 60 foizi aynan maxsus iqtisodiy zonalarining ulushiga to'g'ri keladi.

Xitoyda maxsus iqtisodiy zonalar dastlab Tinch okeanining sohilbo'yi hududlarida, so'ngra Yanszi va Xuanxe kabi daryolarning havzalari yaqinida rivojlantirila boshlandi va dunyo iqtisodiyoti tarixiga "T — shaklidagi strategiya" nomi bilan kirdi.

Ushbu strategiyaning amalga oshirilishi natijasida 2035-yilga borib, YIM ning aholi jon boshiga ulushini 30 ming dollariga yetkazish mo'ljallangan.

Xitoyda maxsus iqtisodiy zonalarining jadal rivojlanishi siri nimada?

1984-yildan dastlab dengiz sohillari yaqinida joylashgan 15 ta shahar hamda 4 ta yirik shaharda, 2020-yildan boshlab esa mamlakatning barcha yirik va o'rtacha kattalikdagi shaharlarida 15 ta erkin savdo zonasi, 32 ta makroiqtisodiy va texnologik rivojlanish zonasi, 53 ta yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirish zonasi tashkil etildi.

Natijada bu maxsus iqtisodiy zonalari iqtisodiy rivojlanish sur'atini tezlashtiruvchi "akselerator" rolini o'ynay boshladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Xitoyda maxsus iqtisodiy zonalarining jadal rivojlanishiga quyidagi omillar turtki bo'lgani aniqlandi:

Maxsus iqtisodiy zonalar direksiyasiga Markaziy hukumatning roziligisiz infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha mustaqil qarorlarni qabul qilishga ruxsat berildi.

Bu yerdagi korxonalar o'zlarining investitsiya, innovatsiya, ishlab chiqarish va marketing qarorlarining katta qismini mustaqil qabul qiladi.

Maxsus iqtisodiy zonalar xorijiy investitsiyalar uchun maxsus soliq imtiyozlari berilgan va ularning mahsulotlari asosan eksportga yo'naltirilgan.

Maxsus iqtisodiy zonalarda iqtisodiy faoliyat asosan bozor tamoyillari asosida boshqariladi va ularga xalqaro savdoda katta mustaqillik berilgan.

2019 – 2020-yillarda Xitoyda 24 ta yangi transchegaraviy elektron-tijorat zonalari (New Cross-Border E-Commerce Zones) ochildi.

Xitoydagi maxsus iqtisodiy zonalar asosan yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan.

Ushbu omillarni inobatga olgan holda, O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirishda mahalliy hokimiyat organlariga savdo, investitsiyalar, innovatsiyalar va infratuzilma masalalari bo'yicha mustaqil qarorlarni qabul qilish vakolatini, shuningdek, soliq va bojxona imtiyozlarini berish hamda hududlararo tizimli joylashtirish kabi jihatlariga e'tibor qaratishni tavsiya etish mumkin.

Olingan tadqiqot natijalaridan va yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalarini boshqarish va ularni faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga qaratilgan quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Boshqaruvning ilmiy, nazariy va amaliy asoslarini yaratishga erishish.
2. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini boshqarishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish.
3. Maxsus iqtisodiy zonalarda faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlarning mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan ijobiy xarakterdagi g'oyalar yaratish.
4. Talab va taklif asosida ishlab chiqarishning sifatini oshirish orqali sog'lom raqobatbardosh ijtimoiy-psixologik muhit yaratish.
5. Boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan ongli munosabatni shakllantirish.
6. Maxsus iqtisodiy zonalarining boshqaruv sub'yektlariga xos kreativlikni rivojlantirish orqali sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratishni yo'lga qo'yish.
7. Boshqaruv jarayonini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni ishlab chiqish.
8. Tizimli tahlil asosida maxsus iqtisodiy zonalarining raqobatga bardoshlilik darajasini o'rganish va ishchi xodimlarning ishchanlik qobiliyatiga qarab faoliyat turlariga yo'naltirish.
9. Maxsus iqtisodiy zonalarining boshqaruv faoliyatini samaradorligini oshirishga qaratilgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish.
10. Boshqaruv jarayonlarini tashkil etishda rivojlangan davlatlarning tajribalaridan foydalanishni yo'lga qo'yish orqali ish unumdorligini oshirish.

Yuqorida keltirib o'tilgan taklif va tavsiyalardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, maxsus iqtisodiy zonalarining faoliyatini boshqarish va samaradorligini oshirish kechiktirib bo'lmaydigan iqtisodiy, siyosiy hamda ijtimoiy-psixologik munosabatlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Hozirgi zamonda iqtisodiy integratsiya jarayonlarining ahamiyatini ochib berishi mumkin bo'lgan ob'yekt bu albatta maxsus iqtisodiy zonalar hisoblanadi. Ushbu yo'nalishning samaradorligini belgilab beruvchi ijtimoiy-psixologik faoliyat bu boshqaruv faoliyati hisoblanadi. Shuning uchun ham to'g'ri va oqilona boshqaruv har qanday taraqqiyotning mazmundorligini belgilab beradi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. O' Sullivan, Arthur. *Economics: Principles in Action*. Upper Saddle River, New Jersey: Pearson Prentice Hall, 2003 – 471 bet. ISBN 978-0-13-063085-8.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyev Farmoni, 09.01.2024 yildagi PF-8-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. <https://stat.edu.uz/>, lex.uz.

4. A.M.Shonazarov. Kasb psixologiyasi. "O'quv qo'llanma" – Samarqand. SamDU Nashr-matbaa markazi, 2023 yil, 337 bet.
5. A.M.Shonazarov. Yangi O'zbekistonda umumta'lim tizimi rahbarlarining barqaror faoliyatini ta'minlashning psixologik asoslari. Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning sinergetik muammolari mavzusidagi respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari (2023-yil 20-noyabr).
6. Akademik X.I.Ibraimov, A.M.Shonazarov. SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF COMPETENT GENERAL EDUCATION SYSTEM LEADERS. «Science and innovation» xalqaro ilmiy jurnali Volume 2 Issue 12 Science and innovation international scientific journal volume 2 ISSUE 12 DECEMBER 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 |SCIENTISTS.UZ <https://doi.org/10.5281/zenodo.10364266>. 319-323.
7. A.M.Shonazarov. Ta'lim tizimi rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini shakllanishiga oid nazariy-metodologik yondashuvlar. ZAMONAVIY TA'LIM ILMIY-AMALIY JURNAL. №9 (130) 2023. ISSN 2181-6514.WWW.ITM.UZ. DOI: 10.34920/SO/VOL. 2023. ISSUE. 9.5
8. A.M.Shonazarov. Rahbar xodimning pedagoglar jamoasini boshqarishning psixologik xususiyatlari. Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №37 (том 4) (апрель, 2023). Дата выхода в свет:
9. A.M.Shonazarov. Zamonaviy rahbar kadrlarini tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. ISSN 2181-6883 "PEDAGOGIK MAHORAT" Ilmiy-nazariy va metodik jurnal № 10, SON (2023-yil, noyabr). 97-102 betlar.
10. A.M.Shonazarov. DEVELOPMENT OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL COMPETENCE OF SCHOOL PRINCIPALS OF THE GENERAL SECONDARY EDUCATION SYSTE. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2| ISSN: 2181-3337 «Science and innovation» xalqaro ilmiy jurnali. Volume 1 Issue 8 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7424124>.
11. A.M.Shonazarov. SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF COMPETENT GENERAL EDUCATION SYSTEM LEADERS. CIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 12DECEMBER2023UIF-2022: 8.2 ISSN: 2181-3337 SCIENTISTS.UZ <https://doi.org/10.5281/zenodo.1036426>. «Science and innovation» xalqaro ilmiy jurnali Volume 2 Issue 12.
12. A.M.Shonazarov. SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF HEADS OF THE GENERAL EDUCATION SYSTEM WITH MODERN COMPETENCE. International Journal of Engineering Mathematics: Theory and Application (Online) 1687-6156 <http://iejemta.com/> VOLUME 5 ISSUE 3. 2023 y.
13. A.M.Shonazarov. Umumta'lim tizimi rahbarlarining kasbiy-axloqiy kompetentligi. ISSN 2181-5291 "PSIXOLOGIYA" ILMIY JURNAL. (2023 yil, 26 dekabr) № 4, SON. 162-167 betlar. www.buxdu.uz.
14. A.M.Shonazarov. Rahbar shaxsi va uning ijtimoiy-psixologik kompetentligini o'rganish muammolari. MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN TO'PLAMI. 2023-yil 24-25 noyabr.

UDK: 355.1:151:17.022.01.(575.1)

Ravshanov Lochinbek Urinovich

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy okrug huzuridagi
"Ilmiy tadqiqot" ilmiy-amaliy va uslubiy markaz boshlig'i,
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, podpolkovnik

KOMANDIRLARDA IJOBİY IMIJNI SHAKLLANTIRISH IJTIMOIY-PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqola komandirlarda ijobiy imijni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, u mudofaa tizimidagi harbiylarning kasbiy, ilmiy, psixologik tayyorgarligi kabilarni tadqiq etishni nazarda tutadi. Maqola mazmunida harbiy xizmatchi imijining axloqiy, ma'naviy, emotsional, ijtimoiy-psixologik komponentlari ham konseptual asosda tahlil etilgan. Shuningdek, imijning komandir faoliyatidagi roli, harbiy rol, harbiy unvon, psixologik imij va shaxs tushunchalari ham ushbu tadqiqot mazmunidan chetda qolmagan.

Kalit so'zlar: komandir, harbiy xizmatchi, harbiy qism, harbiy intizom, harbiy imij, imijeologiya, ijtimoiy-psixologik imij, harbiy rol, harbiy unvon, harbiy professional, harbiy psixolog, harbiy faoliyat, kasbiy fidoiylik.

ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛОЖИТЕЛЬНОГО ИМИДЖА У КОМАНДИРОВ КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН

Аннотация. Данная статья посвящена социально-психологическим характеристикам имиджа командира, систему военнослужащих обороны включает в себя профессиональной, научной, психологической подготовки. Смысл статьи раскрывает концептуальные основы поведенческого, духовного, эмоционального, и социально-психологического компонентов имиджа военнослужащих. В связи с этим, роль имидж в деятельности военнослужащего, военная роль, военное звание, психологический имидж, и понятие личности также не осталось в стороне от исследования.

Ключевые слова: командир, военнослужащий, военная часть, военный устав, военный имидж, имиджеология, социально-психологический имидж, военная роль, военное звание, военный профессионал, военный психолог, военная деятельность, профессиональный патриотизм.

FORMATION OF A POSITIVE IMAGE IN COMMANDERS AS A SOCIO-PSYCHOLOGICAL PHENOMENON

Annotation. The provided article devoted the social-psychological characteristics of image of military servant, it includes the system of defense, professional, scientific, psychological preparation. The meaning of given article illustrates the conceptual foundations of behavioral, spiritual, emotional, and social-psychological components of image of military servants. That is why, the role of image in activity of military servants, military role, military rank, psychological image, as well as the notion of person also did not stay out of research.

Key words: Commander, military servant, military part, military regulations, military image, social-psychological image, military role, military rank, military professional, military psychologist, military activity, professional patriotism.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tomonidan o'z sarhadlari daxlsizligini, hududiy yaxlitligini, fuqarolarning tinchligini va osuda hayotini ishonchli himoya qilishga qodir, zamonaviy qurol-aslaha va texnika bilan ta'minlangan, o'z kasbining yetuk mutaxassisi, harbiy professional va bugungi kun talablariga to'liq javob beradigan, ekstremal vaziyatda vujudga keladigan har qanday qurolli to'qnashuvlarni oldini oladigan harbiy kadrlarni tayyorlash bo'yicha maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan, yurtimizda so'nggi yillarda milliy armiyamizni izchillik bilan isloh qilish va rivojlantirish, davlatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash hamda harbiy kadrlarni tayyorlash borasiga keng e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmonida «...davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish» chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Bu esa, psixologiya

sohasi mutaxassislarini komandirlar imijining ijtimoiy-psixologik jihatlarini asoslash hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish bo'yicha yangi yechimlar topishga undaydi.

Olib borilayotgan tadqiqotlar avvalo, nazariy va amaliy faoliyat jarayonlarida imijni shakllantirish muammosining paydo bo'lishi va taraqqiyoti bosqichlarini belgilashimiz muhim bo'ladi. Bunda falsafa, psixologiya, pedagogika va mavzuga oid qator tadqiqot ishlaridagi mavjud manbalarni atroflicha tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, biz tadqiqotimizda imij fenomeni va uning ta'rifi, imijning psixologik komponentlari, uni shakllanish rivojida ijtimoiy-psixologik, sotsiologik, madaniy-tarixiy va ilmiy-nazariy asoslarini xronologik tizimda tahlil etishga e'tibor qaratish zarur.

Tadqiqotlarda qaysi vaqtda imijni yaratishga zaruriyat paydo bo'lganini taxmin qilishning imkoni yo'q. Aynan qaysi bir mamlakatda ilk bora unga ehtiyoj tug'ilganini va uning asoschisi kim ekanligini aytilish ham mushkul. Imijni shakllantirishning ibtidoiy ko'rinishlarini dastlabki jamoaviylik tuzumi bosqichida paydo bo'la boshlagan, degan farazni ilgari surishimiz mumkin. Imijologiya zaruriyat sabab shakllantirilgan qiyofa va joziba yordamida insonlarni ishontrish, ta'sir o'tkazish, ularning hayot tarzini o'zgartirishga asoslanadi. "Imij" XX asrning favqulodda hodisasi, biroq uning tub ildizi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Jamoatchilik fikriga ta'sir etish vositasi sifatida hali ta'riflanmagan termin qadimgi zamonlardayoq faoliyatda mavjud bo'lgan.

Imij fenomeni bo'yicha dastlabki mutaxassis sifatida hukmdor Moiseyning yordamchisi ruhoniy Aaron (miloddan avvalgi 1445 yil) tomonidan e'tirof etiladi. Moiseyning duduqlanishi sababli uning o'rniga xalq oldida Aaron gapirishga majbur bo'lgan. Shu sabab ham uni xukmdorning og'zi va bashoratchisi deb atashgan[1,47].

"Imij" tushunchasi asrlar davomida shakllanib, taraqqiy etib bordi. Antik davrning mashhur mutafakkiri Aristotelning (miloddan avvalgi 384-322 yillar) ta'biricha, auditoriyaning xayrixohligi va mayliga erishibgina, ularni ishontrish mumkin[2,78]. Qadimgi Rimning davlat va siyosiy arbobi, ajoyib notiq Sitseron (miloddan avvalgi 106-43 yillar) ommaning psixologiyasi, qiziqishlari va didini o'rganish muhim ekanligiga urg'u bergan. Uning fikricha, notiqning vazifasi tinglovchilarni estetik ko'nglini olish, ularning axloqi va irodasiga ta'sir o'tkazishdir. Siyosiy arbob va sarkarda Yu.Sezar (miloddan avvalgi 102-44 yillar) ommaga ta'sir ko'rsatuvchi yorqin mahorat egasi edi. U harbiy janglar oldidan o'z murojaatlari va sahna ko'rinishlari yordamida xalqning qo'llab-quvvatlashiga erishgan.

Insoniyat tarixi shuni isbotlaydiki, imijni shakllantirish asrlar davomida o'z samarasini berib kelayotgan turli xil usul, uslub va omillarni o'z ichiga qamrab oladi. Notiqlik mahoratidan tashqari ramzlar, imijning har xil atributlari (kiyim, hidlar, bezak, imo-ishora, mimika va boshqalar). Tarixiy manbalarga asoslanib shuni aytilishimiz mumkinki, jamoatchilikka ta'sir etish asoslari janglarga tayyorgarlik ko'rish, siyosiy saylovlar jarayonida, mahsulotni savdoga olib chiqish, mablag' yig'ish, odamlar va hodisalarni ommalashtirishda keng qo'llanilgan.

Siyosatshunos olim N.Makiavelli (1469-1527 yillar) imijning ilk nazariyachilardan biri hisoblanib, yuqori darajadagi "imij tuyg'usi" yoki yuksak "imij tafakkuri" unga xos bo'lgan. Bunday tafakkurning ahamiyatli tomoni shaxslararo makonda mulohaza qilish va ta'sir ko'rsatish, atrofda gilarning harakatini taxmin qilish, odamlar bilan iliq munosabatlarni o'rnatishni uddalashdan iborat edi[3,35].

Bu davrda imijmeyking professional faoliyat turi sifatida qonunlar, qadriyatlar va jamiyatning ehtiyoji bilan o'zaro bog'liqligi, shuningdek, imijni idrok qilishga tayyorgarlik orqali paydo bo'ldi. Bu faoliyat AQSHda professional soha tariqasida shakllantirilib, rasmiylashtirildi.

"Imij" tushunchasi XX asr boshida AQSHda paydo bo'lgan. Bu davrda mamlakatda yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz oqibatida jamiyatda mamlakat obrazi salbiy ko'rinishga ega bo'lib borishi uning xalqaro maydondagi biznes harakatiga halaqit bera boshlaydi. Dastlabki "Imijmeyker"larga dunyo madaniyatini zabt etish va jahonda andoza bo'la oladigan mamlakatning ijobiy imijini yaratish vazifasi yuklatiladi. Mamlakat prezidenti va birinchi xonimining imij andozasi ishlab chiqilgan. Ayni shu paytlarda "amerikacha hayot tarzi" tushunchasining paydo bo'lishi, imijmeykerlarda "butun dunyoni egallash" falsafasini yuzaga keltirgan va shaxsning imijini shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan. "Imij" termini dastlab ishlab chiqarish sohasida iste'molchilarga psixologik ta'sir o'tkazish vositasi sifatida, tijorat reklamalarida mahsulotlarni farqlashda faydalanilganligi sabab yetarlicha tor ma'no-mazmunga ega bo'lgan. Keyinchalik esa jamoat arboblarni differentsiyalashga ehtiyoj paydo bo'ladi. XX asrning 30-yillarida "Nyu-York Tayms" gazetasida chop etilgan maqolalarning asosiy qismini imijni yaratish, taraqqiy ettirish sohasidagi mutaxassislar tomonidan nashrga tayyorlangan materiallar tashkil etgan.

XX asrning boshlarida Rossiyada ham imijni shakllantirishning ijtimoiy rolga bag'ishlangan izlanishlar olib borilgan. M.Shepkin, V.Nemirovich-Danchenko, Ye.Vaxtangoev va K.Stanislavskiylar

badiiy obrazni yaratish usullarini tadqiq qilib, imijning ijtimoiy-psixologik jihatlariga e'tibor qaratishgan. K.Stanislavskiyning yozishicha, imij – inson faoliyati, muloqoti, xulq-atvori va tafakkurining obrazidir[4,488].

Tadqiqotchilar I.Nefedov va Ye.Vlasovlarning ta'kidlashicha imij – shaxsning odamlar nazaridagi obrazi degan, imij haqidagi eng lo'nda talqinni beradi[5,78].

Bizning fikrimizcha, G.Andreyevaning talqini imij mohiyatini ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida obyektiv aks ettiradi: "Imij – bu idrok etish hodisasining maxsus obrazidir. Shuning uchun ham obyekt yoki hodisaning hayoliy tasviri hissiy murojaatlar asosida yaratiladi"[6,42].

D.Yagerning ta'rifi ijtimoiy-psixologik xususiyatlardan tashqari shaxsiy tashqi ma'lumotlarini ham o'z ichiga oladi. U imij – tashqi qiyofaning o'ziga xos majmui, nutq, xulq-atvordan hosil qilinadi, deb yozadi. Imij – "taassurotlarni boshqarish" san'atidir[7,37]. Demak, imij nafaqat ko'riladigan obraz, balki shakl va mazmun jihatidan ichki va tashqi yaxlitlikning bir ko'rinishi sifatida ham tushuniladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, Qurolli Kuchlarning imiji haqida alohida fikr yuritish lozim. Ta'kidlash kerakki, armiyaning imiji odamlar ongida stixiyaviy (tasodifan paydo bo'lib qoluvchi) tarzda shakllangan siymo emas, balki, alohida subyektlar tomonidan maxsus yaratilgan va singdirilgandir.

General-leytenant V.Serebryannikov bu borada shunday yozadi: "Davlat tomonidan armiya xususida yaratiladigan imij katta ijtimoiy kuchga ega. Ishning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi davlat imijini ko'taradi, armiyaga nisbatan hurmat va harbiy xizmatchilarga ishonchni uyg'otadi, harbiylar va fuqarolarning jipsligini ta'minlaydi, aholining harbiy xizmatga hurmatini oshiradi. Bir so'z bilan aytganda, armiya va mamlakatning xavfsizligini har tomonlama mustahkamlaydi"[8,69]. Demak, berilgan tasniflardan ko'rinib turibdiki, armiyaning imiji bir qisqa vaqt davomida yaratib bo'lmaydigan, balki yetarli darajada tarixiy asoslarga ega va doimiy rivojlanib borilayotgan holatdir.

Shuning uchun, Qurolli Kuchlarning har bir obyektida ijobiy imij yetarli darajada yaratilmaguncha muntazam tarzda tadqiq etishni talab etadi. Ta'kidlash kerakki, armiyaning imiji uni alohida okrug, qo'shilmalar, harbiy qismlar va bo'linmalarni hamda barcha turdagi komandirlar, ofitserlar, shartnoma asosidagi harbiy xizmat serjantlari va oddiy askarlar toifasi hamda muddatli harbiy xizmatchi (askarlar) faoliyatini targ'ib etish asosida shakllanadi.

Qurolli Kuchlar imijining amaliy ahamiyatini qanday aniqlash mumkin yoki uni qanday ko'rsatkichlar asosida tavsiflash lozim? Buning uchun quyidagi asosiy omillar e'tiborga olinishi zarur:

birinchidan, armiya safida xizmat qiluvchilar sonining o'sib borishi;

ikkinchidan, mamlakat aholisida armiyaga nisbatan xayrixohlarcha munosabatning ifodalanishi;

uchinchidan, turli toifadagi harbiy xizmatchilarning o'z kasbidan yuqori darajada qoniqqanligi.

Har bir kasb o'z rivojlanish tarixiga ega bo'lib, bir-biridan farqli jihatlar mavjud. Masalan, harbiylik, jurnalistika, tibbiyot va uchuvchilik kabi ixtisosliklar zo'riqish (stress)ning kuchli darajada namoyon bo'lishi tufayli boshqa kasblardan ajralib turadi. Bu kasb egalari turli vaziyat, holat va hududlarda, vaqtning chegaralanganligida faoliyat yuritishi zarurligi, hatto xavf bilan bevosita yuzma-yuz bo'lgan davrda ham o'z vazifalarini bajarishlari zarur ekanligi bilan ajralib turadi.

Harbiy yo'nalishga bag'ishlangan tadqiqotlarda ko'plab harbiy ixtisosliklar ma'lum darajada tadqiq etilgan bo'lib, ijtimoiy-kasbiy tavsifnomalar, kasbiy talabnomalar ishlab chiqilgan. Biroq, mazkur ishlarda kasb egalovchining individual fazilatlarini, psixofiziologik va ijtimoiy xususiyatlariga (etnomadaniyat, gender, yosh va boshqalar) e'tibor qaratilmay, faqat kasbiy layoqatlilik darajasi, ya'ni "inson-kasb" tizimi doirasidagi jihatlar hisobga olingan.

Harbiy kasblar o'z xarakteri va tendensiyasiga ega bo'lib, unda harbiy xizmatchi shaxsining xususiyatlari alohida o'rin tutadi va ularni to'rtta guruhga ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1) harbiy xizmatchining umumiy sifatleri;

2) harbiy xizmatchining mutaxassis sifatidagi fazilatleri;

3) harbiy xizmatchining jangovar sifatleri;

4) harbiy mutaxassisning xizmat-vazifaviy sifatleri.

Albatta, bu sifatlar yoshlarimizni harbiy xizmatga tanlash va tayyorlash jarayonida alohida inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda mamlakatimizda mazkur tizimni joriy etish bo'yicha alohida yondashuv vujudga kelgan. Jumladan, hududlardagi Mudofaa ishlari bo'limlarida yoshlarni Qurolli Kuchlarimiz saflariga muddatli harbiy xizmatga yuborishdan oldin psixodiagnostik testlar orqali harbiylikka loyqlik darajasini o'rganish yo'lga qo'yilgan. Bu esa, harbiy faoliyatni ilmiy tadqiq etish va Mudofaa vazirligi tizimida harbiy xizmatni o'tash tajribalari va ekspert so'rovlarning natijalari asosida ta'kidlash zarurki, tanlangan test va metodikalar harbiy xizmatchilarni harbiy muhitga moslashuvchanlik, muloqotga kirishuvchanlik, jamoa bilan munosabatda bo'la olish, zo'riqishli vaziyatlarda o'zini tuta bilish,

vaqt tig'izligida psixologik barqarorlikni saqlay olish, harbiy texnika va qurol-yaroqqa to'g'ri munosabatda bo'lish, tolerantlik kabi xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lishi shart[9,54].

Komandir imijini ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganishda, qolaversa ular tomonidan harbiy xizmatni samarali tashkillashtirishda komandirning shaxsiy sifatleri muhim hisoblanadi. Shu bois, komandir imijini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini empirik jihatdan tadqiq etishda, ularning shaxsiy sifatlar uslubi darajasini o'rganish yuzasidan olingan tadqiqot natijalari Kraskal-Uollis mezoniga ko'ra, birinchi shkala ijtimoiy-axloqiy yetuklik harbiy uchuvchi komandirlarda 117,21, tank komandirlarida 140,13 va harbiy aloqa komandirlarida 105,12 natija bilan o'rtacha farqni namoyon qilgan. ($h=12,42$, $p\leq 0,05$). Ma'naviy yetuklik shkalasi harbiy uchuvchi komandirlarda 117,60, tank komandirlarida 125,25 va harbiy aloqa komandirlarida 105,36 natijalarni namoyon qilgan. Emotsional yetuklik shkalasi harbiy uchuvchi komandirlarda 101,65, tank komandirlarida 145,32 va harbiy aloqa komandirlarida 120,41 kabi darajalar bilan o'zaro yuqori farqlarni qayd etgan. Keyingi shkala, ijtimoiy intellekt shkalasi bo'yicha harbiy uchuvchi komandirlarda 102,54, tank komandirlarida 149,41 va harbiy aloqa komandirlarida 127,36 kabi natijalarni aks ettirgan va farqlar yuqori darajada kuzatilgan. Jamoada yetakchilik shkalasiga bo'yicha, harbiy uchuvchi komandirlarda 120,12, tank komandirlarida 154,84 va harbiy aloqa komandirlarida 129,84 kabi darajalar bilan o'rtacha farqlarni aks ettirgan. Boshqacha qilib aytganda, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda bilimlar (fanlar doirasida), ko'nikmalar (kasbiy yetuklik) va ijod (harbiy san'at)ning uyg'unlashuvi sodir bo'lgan.

Tadqiqotdagi miqdoriy natijalar va ularning tahliliga ko'ra komandirning boshqaruv faoliyatidagi shaxsiy sifatlar uslubi turli harbiy bo'linma komandirlari bo'yicha o'rganilgan bo'lsa-da, miqdoriy ko'rsatkichlar harbiy rahbar-komandir faoliyatining kognitiv jabhasi bevosita ularning ijtimoiy intellekt ko'rsatkichlarini tavsiflamogda. Ijtimoiy-axloqiy yetuklik darajasi esa, komandirlarning konativ jabhalarini aks ettirgani singari, emotsional intellektiga tayanib emotsional-baholovchi jabhasini ifodalaydi. Barcha jabhalar esa, komandirlar imijini ifodalovchi jamoadagi liderlik yoki boshqaruvdagi yetakchiligini belgilaydi. Miqdoriy natijalarga asoslanib, komandirlar boshqaruv faoliyatida ijtimoiy-axloqiy yetuklikning kognitiv va konativ faoliyatdagi o'ziga xosligi shundan iboratki, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan munosabatida bilim va qobiliyatlardan samarali foydalanishini ko'rsatmogda. Komandirlarning emotsional yetukligi esa harbiy xizmat faoliyatining emotsional-baholovchisiga xos xususiyatlarni tavsiflamogda, ya'ni o'zining va bo'ysinuvdagi harbiy xizmatchilarning kechinmlarini anglay oladigan va xatti-harakatlariga nisbatan sezgirlik hamda xulq-atvorini baholay olishini ko'rsatmogda. Bu borada ustuvorlik tank komandirlarida ustuvor ekanligi aks etgan (140,13). Ushbu yo'nalish komandirlar faoliyati harbiy aloqa komandirlari va harbiy uchuvchi komandirlariga nisbatan ustuvorligi shundan iboratki, tank komandirlarining faoliyatlari jamoaviy faoliyatni taqazo etganligi sabablidir

Xulosa qilib aytganda, komandir imijining ijtimoiy-psixologik tadqiqi o'z ichida harbiy qiyofa, kasbiy kompetentlik, harbiy professionallik, axloqiy qiyofa, milliy ong, milliy g'urur, ijtimoiy qiyofa, kasbiy qiyofa, harbiy burch, kasbiy kamolot, shaxsdagi yuksak hislar, intizom, sabr-toqat, dadillik, mehnatsevarlik, jasurlik, jangovor shaylik, psixologik tayyorgarlik, altruizm (o'zini fido qilish) kabi qator ijobiy sifatleri harbiy xizmatchilarda qay darajada shakllanganligini asoslab berishi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Утлик Э.П., Практическая психология имиджа // Вестник университета. Сер. Социология и психология управления. М.: ГУУ, 1999. С.47.
2. Аристотель., Поэтика // Аристотель. Соч.: В 4 т. М., 1984. С.78.
3. Макиавелли Н., Государь. Минск, 1998. С.35.
4. Станиславский К.С., Работа актера над собой. М.: Артист. Режиссер. Театр, 2002. С.488.
5. Нефедова И., Власова Е., Я и мой имидж. М.: ЭКСМО-Пресс, 1997. С.78.
6. Андреева Г.М., Социальная психология. Учебник для высших учебных заведений - М.Аспект Пресс, 2001. С.42.
7. Ягер Д., Психология народов и масс. СПб.,1995. С.37.
8. Серебрянников В.В., Социология войны. М.:Ось – 1998. С.69.
9. Ravshanov L.U., Mudofaa vazirligi tizimidagi rahbar imijining ijtimoiy-psixologik konsepsiyasi. psixol.f.d.(DSc) diss... O'zMU: T. 2023 y. 54-b.

Koshnazarova Maloxat Alimovna

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida o'qituvchisi

E-mail.maloxat75a@gmail.com

OLIV TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish mexanizmlari ko'rib chiqilib, bunda kasbiy tayyorgarlik mazmunini belgilovchi axborot ta'limi modeli tahlil qilinadi. Shuningdek, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy mobilligini shakllantirishning asosiy shartlari ochib berilgan. Bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirishga ta'sir qiluvchi psixologik omillar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: shaxs, mobillik, harakat, faoliyat, ehtiyoj, ta'lim, bilim, qobiliyat, ijtimoiy maqom.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ГОТОВНОСТИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В СФЕРЕ МОДЕРНИЗАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются механизмы развития профессиональной подготовки будущих специалистов, а также анализируется модель информационного образования, определяющая содержание профессиональной подготовки. Также выявлены основные условия формирования профессиональной мобильности будущих специалистов. Обсуждаются психологические факторы, влияющие на формирование профессиональной подготовки будущих специалистов.

Ключевые слова: личность, мобильность, движение, деятельность, потребность, образования, знания, способность, социальный статус.

MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL READINESS OF FUTURE SPECIALISTS IN THE FIELD OF MODERNIZATION OF HIGHER EDUCATION

Abstract. The article examines the mechanisms for the development of professional training of future specialists, and also analyzes the model of information education that determines the content of professional training. The main conditions for the formation of professional mobility of future specialists have also been identified. Psychological factors influencing the formation of professional training of future specialists are discussed.

Keywords: personality, mobility, movement, activity, need, education, knowledge, ability, social status.

Kirish. Bozor iqtisodiyotining shakllanishi bilan yuqori darajadagi ta'lim va madaniyat, kasbiy kompetentsiya, innovatsiyalarga ochiqlik, mobillik, doimiy ravishda o'z ustida ishlashga tayyorlik kabi ijtimoiy qadriyatlarining roli ortib bormoqda. Bu, ayniqsa, texnik yo'nalishdagi mutaxassislar uchun to'g'ri keladi. Chunki bozor sharoitida ularning kasbiy faoliyati sohasi doimiy o'zgarishlarni boshdan kechirib, doimiy rivojlanish jarayonidir. Mazkur jarayon jamiyatning iqtisodiy hayotida samarali amaliy ishtirok etish, ma'lum bir mutaxassisda shakllangan kasbiy va shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirish zarurati va qobiliyatisiz imkonsiz bo'ladi.

Mamlakatimizning texnik yo'nalishlardagi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarini kasbiy tayyorlash jarayonida, asosan, zarur kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallashga qaratilgan axborot ta'limi modelidan foydalanib, ularning shaxsiy o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy mobilligini shakllantirishga kamroq e'tibor qaratiladi. Biroq bunday holatda, kasbiy bilimlarning ustuvorligi shubha ostiga olinmaydi, aksincha jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida faqat bu bilan cheklanib qolish yetarli emas.

Kasbiy tayyorgarlik mazmunini belgilovchi texnik yo'nalishdagi mutaxassisliklarning Davlat ta'lim standartlarini tahlil qilar ekanmiz, bunda nafaqat talabning kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish masalasiga

e'tibor qaratish, balki oliy ta'lim jarayonida kasbiy mobilligini shakllantirishning individual o'ziga xosligi ham etarli darajada hisobga olmagan.

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning mobilligini rivojlantirish pedagogika va psixologiya sohalarida ko'proq o'rganilgan muammodir.

Rus pedagog olimlaridan - O.V.Xorshevaning tadqiqoti shaxsiy mobillikni tarbiyalash yechimiga; I.R.Eseinova va E.V.Troinikovalar kognitiv mobillikni shakllantirish; N.S.Zaburdayeva va O.V.Shishkinalar ijtimoiy mobillikni shakllantirishga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqotchilar ta'lim oluvchilardagi mobillik keyinchalik ularda ko'plab *kognitiv, shaxsiy va kommunikativ* fazilatlarini rivojlantirish uchun asos bo'lishini ta'kidlashadi [1].

Ularning fikricha, ta'lim oluvchilardagi o'quv faoliyatining asosiy elementlari muloqot madaniyati va aqliy mehnati, o'ziga va boshqalarga munosabatini shakllantirish bilan tavsiflanadi.

Psixologlar kichik maktab yoshidagi ta'lim oluvchilarning asosiy xususiyatlaridan quyidagilarni ajratib ko'rsatishadi:

- ✓ ongli faoliyat tarzida o'rganishga yo'naltirilganligi;
- ✓ faoliyat bilan shaxsiy qiziqish va bevosita motivlarning mavjudligi o'rtasidagi bog'liqlik;
- ✓ vizual fikrlashning ustunligi;
- ✓ axloqiy tuyg'ularni intensiv shakllantirish va jamoaga qo'shilish.

Shuningdek, rus pedagog olimlari - I.R.Eseinova va E.V.Troinikovalar kognitiv mobillikni rivojlantirish uchun maxsus tashkil etilgan didaktik makonga mos ravishda tanlangan va tuzilgan o'quv mazmunini ta'lim jarayonida amalga oshirish usuli sifatida matnli mashqlardan foydalanishni taklif qiladilar [2].

Rus pedagog olimlari O.V.Shishkina va N.S.Zaburdayevalar quyidagilarni tadqiq qiladilar:

- ✓ auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida ta'lim oluvchilarining ijtimoiy mobilligini shakllantirish, bunda ta'lim oluvchilar uchun to'garaklar tarmog'ini kengaytirish;
- ✓ auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda ta'lim oluvchilarning kognitiv sohasi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish;
- ✓ ijtimoiy mobillikning shakllanish darajasini aniqlash uchun diagnostika usullaridan foydalanish;
- ✓ ta'lim oluvchi yutuqlarining individual kundaligi, ya'ni portfoliyosini yaratish;
- ✓ guruh yoki jamoada sog'lom psixologik muhitni shakllantirish, o'ziga ishonch va mustaqillikni oshirish birga kasbiy rivojlantirish [3].

Rus pedagog olimi O.V.Xorsheva pedagogning faoliyatini birinchi o'ringa qo'yishib, har bir ta'lim oluvchi faol ishlaydigan, bilim olish bilan birga o'zini shaxsiy va kasbiy shakllantirishga undaydigan muhitni yaratishga qaratilgan bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi [4].

Biroq rus psixologlari - B.G.Ananyev, M.I.Dyachenko va L.A.Kandybovichlar turli xil faoliyat uchun kasbiy tayyorgarlik darajasi quyidagi holatlarda paydo bo'lishini belgilashadi:

- ijtimoiy va jamoaviy talablar bilan birga o'z ehtiyojlarini ham anglashi;
- o'z ehtiyojlari bilan jamiyat tomonidan qo'yilgan vazifalarni taqqoslashi hamda o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish jarayonida ehtiyojlarini qondirish imkoniyati;
- yaqinlashib kelayotgan ish sharoitlarini baholash asosida muayyan muammoni hal qilishning eng maqbul usullarini o'z tajribalari asosida aniqlashi;
- shaxsning intellektual, hissiy, motivatsion va irodaviy jarayonlarining namoyon bo'lishini bashorat qilishi, o'z imkoniyatlari va ma'lum bir natijaga erishish zarurligini baholashi [5].

Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy mobilligini shakllantirishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- *pedagogik shart-sharoitlar* - mutaxassislarni kasbiy tayyorlash jarayonida ta'lim unumdorligini ta'minlash;
- *psixologik sharoitlar* - kasbiy tayyorlash jarayonida qulay ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirish, bo'lajak mutaxassislarni o'z-o'zini anglashi va o'zini o'zi belgilashi;
- *boshqaruv shartlari* - talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga yaxlit mobilligini shakllantirishga kompleks yondashuvni joriy etish;
- *tashkiliy-uslubiy shart-sharoitlar* - kasbiy mobilligini shakllantirishga yo'naltirilgan ilmiy-uslubiy majmualarni ishlab chiqish;
- *moslashish shartlari* - talabalarni amaliy boshqaruv va muhandislik faoliyatiga faol jalb qilish;
- *texnologik sharoitlar* - kasbiy tayyorlash jarayoniga tegishli moddiy-texnik bazani yaratish va unda zamonaviy texnik vositalardan foydalanish;

• *meyoriy-huquqiy shartlari* – faoliyat tizimini amaldagi qonunchilikka muvofiq o‘rnatish, ya’ni uni tartibga solish [6].

Pedagogik shart-sharoitlar ta’lim jarayonining bir jihati sifatida tushuniladi. Pedagogik shart-sharoitlar pedagogik texnologiyalarning tarkibiy modeli hisoblanib, ularning istalgan tarkibiy qismlari asosida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash jarayonini amalga oshirish mumkin.

Metodlar: tarixiy, retrospektiv va nazariy-uslubiy manbalarni tahlil qilish, olingan ma’lumotlarni umumlashtirish va sharhlash, kuzatish, suhbat, anketa, kontent tahlil, kvalimetriya va ekspert baholash.

Natijalar va muhokama: Biz bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi uchun pedagogik shart-sharoitlarni ularning oliy kasbiy talimdagi ijtimoiy muhitga, umuman jamiyatga faolligi va ijobiy moslashishiga yordam beradigan ijtimoiy-ma’rifiy xarakterdagi o‘zaro bog‘liq pedagogik holatlarning bir turi sifatida ko‘rib chiqamiz. Bunda asosiy mas’uliyat oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari zimmasida bo‘lib, ular ushbu pedagogik shart-sharoitlarning tashabbuskori va muvofiqlashtiruvchisi hisoblanadilar.

Bizga yaxshi ma’lumki, bilim olish jarayonining boshlanishi doimo kognitiv ehtiyojning mavjudligiga bevosita bog‘liq.

Ehtiyoj - ta’lim subyekting yo‘nalishi, faolligi, ruhiy holati, faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Kognitiv ehtiyoj - bu yangi bilimlarga bo‘lgan ehtiyoj va intellektual faoliyatga bo‘lgan ehtiyojning kombinatsiyasidir. Agar shaxsda bilimga ehtiyoj sezilmasa, unda assimilyatsiya jarayonining bo‘lishi mumkin emas.

Assimilyatsiya - lotincha “*assimulatio*” so‘zidan olingan bo‘lib, “birikish, o‘zlashtirish, o‘xshatish” ma’nolarini anglatadi. Assimilyatsiya tashqi muhitdan olinadigan moddalardan organizm uchun zarur murakkab moddalar hosil bo‘lishidir. Assimilyatsiya jarayonida organizmning o‘sishi, rivojlanishi va yangilanishida energiya manbai sifatida foydalaniladigan moddalar to‘planishi ta’minlanadi. Termodinamik nuqtai nazardan organizmlar ochiq tizim bo‘lib, ularga tashqi muhitdan energiya kelib turadi.

Shaxs hayotida motivatsiya alohida o‘rin tutadi. Motivatsiya inson faoliyatini harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, uning yo‘nalishini belgilaydigan asosiy tushunchalardan biridir.

Ta’lim motivatsiyasi esa shaxs ishtirok etayotgan faoliyatga xos bo‘lgan bir qator omillarga bog‘liq:

- ✓ birinchidan, ta’lim muassasasining o‘zi shaxs faoliyatini belgilaydi;
- ✓ ikkinchidan, o‘quv jarayonini tashkil etishga ko‘maklashadi;
- ✓ uchinchidan, ta’lim subyektlarining psixologik xususiyatlari - yoshi, jinsi, intellektual rivojlaniishi, qobiliyatlari, o‘zini o‘zi anglashi boshqa qadriyatlarini hisobga oladi;
- ✓ to‘rtinchidan, o‘quv fanining o‘ziga xos jihatlarni qamrab oladi.

Rus psixolog olimlari - A.Leontyev, A.Markova, S.Rubinshteyn va G.Shukinalarning tadqiqotlarida bevosita bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ularda ta’lim natijalarining motivatsiyon xarakteriga egaligi tasdiqlangan [8].

Kasbiy faoliyatga tayyorlikni rivojlantirish uchun o‘quv jarayonida ijtimoiy o‘zaro ta’sir mexanizmi sifatida harakat qiladigan va boshqaruv pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradigan bunday aloqa sharoitlarini yaratish kerak. O‘quv mashg‘ulotlari davomida ko‘nikmalar o‘quv dasturlarini qo‘llash orqali olinadi. O‘quv jarayonini rolli tashkil etish tamoyiliga muvofiq, tashkil etilgan faoliyat rolli muloqot va rolli o‘yinlar shaklida amalga oshiriladi va o‘quv materiallari kommunikativ, vaziyatli, kasbiy til va motivatsion asos yaratadi.

Shunday qilib, ta’lim jarayonida talabaga yo‘naltirilgan, tizimli va kontekstli yondashuvlarni amalga oshirish quyidagilarni ta’minlaydi:

- birinchidan, talaba va o‘qituvchi shaxsining maqsadlarida, mazmunida ijodiy namoyon bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni kafolatlaydigan tegishli profildagi oliy ta’lim muassasasida butun pedagogik tizim faoliyatining kasbiy yo‘nalishi; birgalikdagi faoliyat shakllari, usullari va natijalari;

- ikkinchidan, talabalar, o‘qituvchilar, ilmiy va o‘quv bo‘limlari faoliyatining kasbiy yo‘nalishi o‘quv, ilmiy, uslubiy, tarbiyaviy va axloqiy-psixologik faoliyatga aylanadi;

- uchinchidan, talabalarning bilim faolligini faollashtirishning optimal darajasiga erishish.

Bo‘lajak muhandislarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning yana bir pedagogik sharti - bu interfaol ta’lim shakllari va usullaridan foydalanishdir. Shu maqsadda audio va video materiallar, shuningdek, kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni taklif qilamiz. Tasvir va og‘zaki matn o‘rtasidagi bog‘liqlik kommunikativ hodisani to‘liq kuzatish imkonini beradi. Videofilmdan foydalanish kelajakdagi menejment mutaxassislarining aqliy faoliyatining turli tomonlarini, birinchi navbatda, xotira va e’tiborni

rivojlantirishga yordam beradi. Filmni tomosha qilishda tomoshabinlarda birgalikdagi kognitiv faoliyat muhiti paydo bo'ladi. Bunday sharoitda hatto e'tiborsiz talaba ham diqqatli bo'lib qoladi.

Bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi ikki tomonlama xarakterga ega:

- 1) shaxsning o'ziga xos xususiyatlari;
- 2) shaxsning ijtimoiy muhitining tabiati bilan belgilanadi.

Kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi barcha omillar ichki va tashqi omillarga bo'linadi. Bu ularni ichki xarakterini ko'rsatadigan psixologik mexanizmlardan ham ajratib turadi.

Amaliyotda zamonaviy o'lchov moslamalari standart vazifalardagi barcha mushak guruhlarining (tana segmentlarini bukish va yozish), shuningdek, statik va dinamik kuchlanishlardagi kuchni o'lchash imkonini beradi. Ommaviy amaliyotda kuch sifatlarining rivojlanish darajasini baholash uchun ancha ko'p foydalaniladigan maxsus nazorat mashqlari (testlar) qo'llaniladi. Ularni qo'llash biror - bir qimmat baho moslama va jihozlarni talab qilmaydi. Maksimal kuchni aniqlash uchun texnik jihatdan oddiy bajariladigan mashqlardan foydalaniladi, masalan, yotgan holda shtangani ko'tarish, shtanga bilan o'tirib turish va h.k. Ushbu mashqlardagi natija texnik mahorat darajasiga unchalik bog'liq emas. Maksimal kuch shug'ullanuvchi (tekshiriluvchi) ko'tara oladigan eng katta og'irlik bo'yicha aniqlanadi.

1- rasm. Tezkor – kuch qobiliyatlari va kuch chidamliligi, kuchni rivojlanish darajasini baholash uchun (testlar) nazorat mashqlari.



Natijalar va tahlillar. Avvalo ushbu energiya ta'minotining samaradorligini va sportchining uzoq muddatli ishdagi chidamliligini belgilaydigan muhim parametr anaerob almashinuv chegarasi (PANO) ko'rsatkichlari bo'yicha baholanishi mumkin bo'lgan mavjud funksional salohiyatni utilizatsiya qilish qobiliyatidir[4].

Kuchni rivojlantirish metodlari va ularni qarshilik bilan bajariladigan mashqlarga yo'naltirilganligi

Jadval-1

Kuchni rivojlantirish metodlari	Kuchni rivojlantirish metodlarining yo'naltirilganligi	Yuklama komponentlarining mazmuni					
		Maksimumdan qarshilik og'irligi %	Mashqlarni takrorlash soni	Urinishlar soni	Dam olish, daqiqa	Harakatlar tezligi	Mashqlarni bajarish maromi
	Kuchlarni maksimal rivojlantirish ustunligi	100 gacha va undan ko'p	1-3	2-5	2-5	Sekin	Ixtiyoriy

Maksimal kuchlanish metodi	Mushaklar massasini sezilarli o'sishi bilan kuchni maksimal rivojlantirish	90-95	5-6	2-5	2-5	Sekin	Ixtiyoriy
	Mushaklar massasi va kuchni bir hilda oshirish	85-90	5-6	3-6	2-3	o'rtacha	o'rtacha
Chegaraviy bo'lmagan kuchlanishlar sonini me'yorlab takrorlash metodi	Mushaklar massasini oshirish ustunligi bilan kuchni maksimal o'sishi	80-85	8-10	3-6	2-3	o'rtacha	o'rtacha
	Kuch chidamliligini takomillashtirish va tana massasi yog' qatlamini kamaytirish	50-70	15-30	3-6	3-6	o'rtacha	Maksimal gacha yuqori
	Mushaklar reliefi va kuch chidamliligini takomillashtirish	30-60	50-100	2-6	5-6	yuqori	yuqori
Chegaraviy bo'lmagan kuchlanishlarni takrorlash metodi (ohirigacha)	Kuch chidamliligini takomillashtirish (anaerob sharoitda)	30-70	ohirigacha	2-4	5-10	yuqori	Sub-maksimal
	Kuch chidamliligini takomillashtirish (glikolitik hajmda)	20-60	ohirigacha	2-4	1-3	yuqori	Sub-maksimal
Dinamik kuchlanishlar metodi	Og'irlik harakatlari yordamida tezlikni takomillashtirish	15-35	1-3	Tezlik pasayguncha	tiklanishgacha	Maksimal	yuqori
"Zarbdor" metodi	Harakat apparatining reaktiv qobiliyatlari va "portlovchi kuch"ni takomillashtirish	15-35	5-8	Kuchlanish quvvati pasayguncha	tiklanishgacha	Maksimal	ixtiyoriy

Maksimal kuchlanish metodi maksimal qarshilikka bardosh berish zaruriyati bilan bog'liq vazifani bajarishni nazarda tutadi (masalan, chegaraviy og'irlikdagi shtangani ko'tarish).

Ushbu metod chegaraviy bo'lmagan metodga nisbatan kuchni oshishiga imkon berib, asab – mushak qobiliyatlarini rivojlanishini ta'minlaydi. Bolalar va yangi shug'ullanishni boshlaganlar bilan ishlashda uni qo'llash tavsiya qilinmaydi, agarda uni qo'llashga zaruriyat tug'ilsa u holda mashqlarni bajarilishini qattiq nazorat qilinishini ta'minlash zarur.

Chegaraviy bo'lmagan kuchlanish metodi chegaraviy takrorlash soni bilan chegaraviy bo'lmagan og'irliklardan (oxirigacha) foydalanishni nazarda tutadi.

5-6 dan 100 gacha qattiq me'yorlangan takrorlashlar soni kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan va maksimal kattalikka yetmagan og'irlik kattaligiga bog'liq. Chegaraviy bo'lmagan og'irliklardan foydalanib bajariladigan davomli takrorlashlar inson organizmining umumiy funksional imkoniyatlarining oshishi, organizmning boshqa tizimlari va mushak tizimining faollashishiga imkoniyat yaratadi.

Dinamik kuchlanish metodi Ushbu metodning maqsadi - maksimal tezlikdagi chegaraviy qarshilik bilan maksimal kuchlanish tarangligi orasida hamjixatlikni yaratishdan iborat. Ushbu holatda mashq to'liq amplitudada bajariladi. Ushbu metod tezkor harakat sharoitlarida katta kuch qobiliyatlarini shakllantirishda, tezkor kuchni rivojlantirishda qo'llaniladi.

"Zarbdor" metodi – yuqoridan tushayotgan yuk yoki tana og'irligi (chuqurlikka sakrash va yuqoriga qaytish, jumladan, og'irliklar bilan) kinetik quvvatdan foydalanish yo'li bilan mushak guruhlariga zarbdor ta'sir ko'rsatadi. Dastlabki tezkor cho'zilishdan keyin mushaklarning kuchli qisqarishi kuzatiladi. Ularning qarshilik kuchi tana og'irligi va qulash balandligiga ta'sir ko'rsatadi. 0,75 – 1,15 m

balandlikka optimal sakrash diapazoni kuzatuv yo'li bilan aniqlangan. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim holatlarda tayyorgarligi past sportchilarda nisbatan 0,25 – 0,5 m past balandlikni qo'llash maqsadga muvofiq.

Statik (izometrik) kuchlanish metodi Kuch qobiliyatlarini tarbiyalashda yechiladigan vazifalarga bog'liq holda turli kattalikdagi izometrik kuchlanishni qo'llashni nazarda tutadi. Maksimal kuchni tarbiyalashda izometrik kuchlanishni asta – sekin oshirib borish maqsadga muvofiq. Izometrik mashqlarni bajarandan keyin bo'shashtiruvchi mashqlarni bajarish lozim. Shug'ullanish 10 – 15 daqiqa davomida olib boriladi. Mashg'ulotlarga izometrik mashqlarni kuchni rivojlantirish uchun qo'shimcha vosita sifatida kiritish mumkin.

Statodinamik metod Izometrik va dinamik - mushaklar ishida ikkala tartibdagi mashqlarni ketma – ketlikda moslashuvini tavsiflaydi. Kuch qobiliyatlarini tarbiyalash uchun maksimumdan 80 – 90 % sezilarli qarshilikdagi pasaytirilgan portlovchi dinamik ish tavsifidagi 2-6 soniyali izometrik kuchlanishli mashqlar qo'llaniladi (bitta urinishda 2-3 qismdan iborat 2-3 takrorlash, qismlar orasida dam olish 2-4 daqiqa). Agarda, maxsus kuch qobiliyatlarini aynan, variativ tartibdagi mushaklar ish faoliyatida musobaqa mashqlarini qo'llashga zaruriyat bo'lsa, u holda ushbu metod maqsadga muvofiqdir.

Aylanma trenirovka metodi Turli guruhdagi mushaklarga majmualar ta'sirini ta'minlaydi. Mashqlar bekatlar bo'ylab o'tkaziladi va ular shunday tanlanadiki, har bir keyingi seriya yangi mushaklar guruhini qamrab olishi lozim. Har xil mushak guruhlariga ta'sir ko'rsatuvchi mashqlar miqdori, bekatlarda ularni bajarish davomiyligi mashg'ulot jarayonida hal etiladigan vazifalar, shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi va tayyorgarligiga bog'liq. Chegaraviy bo'lmagan og'irliklardan foydalanib bajariladigan mashq majmualari davra bo'ylab 1 – 3 marta takrorlanadi. Majmuaning har bir takrorlanish oralig'ida dam olish muddati kamida 2 – 3 daqiqa bo'lib, bu vaqtda bo'shashtiruvchi mashqlar bajariladi[5],[6].

O'yin metodi kuch qobiliyatlarining asosan o'yin faoliyatida tarbiyalanishini nazarda tutadi, bunda o'yin vazifalari har xil mushak guruhlarining zo'riqish rejimlarini o'zgartirishga va organizmni ortib borayotgan charchog'i bilan kurashishga majbur qiladi.

Bunday o'yinlar sirasiga tashqi ob'yektlarning tutib turilishini talab etuvchi (masalan, "Chavandozlar" o'yinida sherikni), tashqi qarshilikni yengishga asoslangan (masalan, "Arqon tortish"), har xil mushak guruhlarini zo'riqtirish rejimlarini navbatlash bilan bog'liq (masalan, har xil vaznli og'irliklarni ko'tarib yurish estafetalari) o'yinlar kiradi[3].

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha pedagoglar har doim shug'ullanuvchilarning tabiiy rivojlanish darajasini hamda jismoniy tarbiya dasturlarida va musobaqa faoliyati xususiyatlarida nazarda tutilgan talablarni e'tiborga olgan holda ularning kuch qobiliyatlarini rivojlantirish usullarini tanlashga ijodiy yondashish kerak.

Xulosa va takliflar. O'quvchilarda jismoniy kuchni rivojlantirish metodlarining ahamiyati nihoyatda dolzarbdir chunki, jahon olimpiadalari g'oliblari, qolaversa mamlakatimiz miqyosida o'tkaziladigan musobaqa va chempionat ishtirokchilari aynan o'quvchilar va ularning jismoniy jihatdan kuchli va chidamli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari musobaqalarda qatnashmaydigan o'quvchilarda ham jismoniy jihatdan baquvvat bo'lishi salomatlik ko'rsatkichlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.03.2018 yildagi PF-5368-son.
2. J.Eshnazarov. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2007., 386 b.
3. O'.L.Matnazarov. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. T: "Lesson Press" MCHJ nashriyoti, 2022.: 163 b.
4. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. — К.: Олимпийская литература, 2004. — 808 с.
5. Maxkamjanov K, Salomov R, Ikramov I. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Darslik. T.: "Iqtisod moliya", 2008.- 18 b.
6. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik, 1-jild.T.: "ITA PRESS", 2015 - 9 b.

Maxmudov Sharofiddin Asxatovich
Renessans ta'lim universiteti Boshlang'ich, maktabgacha ta'lim va sport"
kafedrası katta o'qituvchisi

Maxmudova Madina Qodirjon qizi
Nizomiy nomidagi TDPU Jismoniy tarbiya va sport kafedrası
o'qituvchisi
E-mail.maxmudovamadina727@gmail.com

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA GIMNASTLARNING TAYYORGARLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya.** Maqolada inson salomatligi va unga erishishda jismoniy mashqlarning o'rni, jismoniy mashqlarning turlari va tasnifi, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish usullari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** salomatlik, sog'lom turmush tarzi, hodimlar gimnastikasi, jismoniy mashqlar gimnastikasi.*

ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПОДГОТОВКИ ГИМНАСТОВ В ВУЗАХ

***Абстрактный.** В статье описывается здоровье человека и роль физических упражнений в его достижении, виды и классификация физических упражнений, методы организации занятий по физическому воспитанию.*

***Ключевые слова:** здоровье, здоровый образ жизни, кадровая гимнастика, физкультурная гимнастика.*

GYMNASTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS SPECIFIC CHARACTERISTICS OF INCREASING READINESS

***Annotation.** This article discusses the role of physical exercises in human health and fitness, types and stages of physical exercises, and methods of organizing physical education.*

***Key words:** health, healthy lifestyle, employee gymnastics, exercise, gymnastics.*

Kirish. Talaba qizlarimiz oliy ta'lim dargohlarida ham o'qib ham mustaqil hayotga qadam qo'yish arafasida bo'lishadi. Jismoniy sog'lomlikga erishish sport turlari rivojiga qo'yiladigan talablarni va ularning taraqqiyotini belgilab beradigan omil hisoblanadi. Turli sport o'yinlari turlariga nisbatan o'ta murakkabligi, ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun ko'proq vaqt talab qilishi bilan farqlanadigan sport turi bo'lgan badiiy gimnastika ham jamiyat ijtimoiy hayotida o'zining alohida o'rniga egadir. Shu bilan birga badiiy gimnastika o'ta tezkor va sportchidan mahorat, g'ayrat talab qiluvchi sport turiga mansubligini unutmasligimiz lozim. Shu narsa ayonki, "Bugungi gimnastlar" harakatchan, o'tkir zehni, tez fikrlovchi, irodali, o'zgaruvchan o'yin vaziyatlarida munosib harakat qiluvchi, raqibining harakat rejasini tez payqovchi hamda mazkur qobiliyatlarni uzoq vaqt davomida ijroiy saviyasini tushirmasligi zarur. Muntazam davom etib turadigan bunday trenirovka - musobaqa yuklamalariga bardosh bera olish gimnastikachidan yuqori ruhiy va biojismoniy tayyorgarlikka ega bo'lishni talab qilishligini inobatga olishimiz zarur. Yosh badiiy gimnastikachi qizlarni tarbiyalashda boshqa omillar singari ijtimoiylashuv omili ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarix ko'rsatib turibti, XXI asrga kelib, ilmiy texnikaviy taraqqiyot o'zining shubhasiz yutuqlari bilan birga ko'plab salbiy holatlarni, xususan, jamiyat va dunyoda yuz berayotgan barcha voqea-hodisalarni tushunib yetishning qiyinligi bilan bog'liq holda shaxsning inqirozga yuz tutishi ehtimoli, ijtimoiylashuv jarayonining murakkablashuvi sport, jismoniy faollashuvdan uzoqlashib ketishi holatlarini ham yuzaga keltirgani bilan izohlanadi. Jamiyatning barcha sohalarini insonparvarlashuviga qaratilgan umumdunyoviy jarayonlar hamda shu bilan bir qatorda bizning jamiyatimizda ro'y berayotgan chuqur siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar inson mohiyatini, uning jamiyatdagi o'rni va rolini, insoniyat tomonidan mavjud ijtimoiy-madaniy tajribani o'zlashtirish va yanada rivojlantirish yo'llari va usullarini qaytadan tushunib etishni talab qilib bormoqda. Jamiyatda insonlar ijtimoiylashuvi, jumladan, jismoniy tarbiya va sport usullari vositasida ijtimoiylashuvi muammosi nisbatan yangi, bir necha o'n yillik tarixga ega bo'lib, inson tabiatiga oid ilmiy muammoga shu qadar bog'liq, u bilan shu qadar o'zaro aloqadorki, u inson tabiati muammosidan alohida ravishda o'rganilishi mumkin emasligini taqozo etadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida yosh avlodni har tomonlama kamol

topgan shaxs sifatida tarbiyalash, bu faoliyatga jamiyatdagi barcha ijtimoiy institutlarni jalb qilish va ijtimoiy muhitning ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilishi fikrimizning dastak vazifasini bajaradi. Jamiyatning ajralmas bo'lagi sifatida ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida ham jismoniy tarbiya o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Tarbiya vositasi sifatida jismoniy tarbiya vositasida mehnatga o'rgatish bolalikdan boshlangan. Jamiyat gimnastikachilarini tadbqiq etish uchun Avstraliya aboriginlarining hayoti bilan bevosita tanishgan ingliz etnografi Frederik Rouzning yozishicha, "Kichkina o'g'il bolalar o'yinchoq nayzani ulotirish mashqlarini bajarishgan". Qizlar esa o'smir bolalar singari o'zlarining bo'lg'usi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalariga uzoq muddat o'rgatib borilgan. Bolalarni bunday tarbiyalash an'anaviy jamiyatning zaruriy tarkibiy qismi bo'lib, Rouzning fikricha, aboriginlar ular bilan har qancha faxrlanishsa arziydi. Buni qarangi, yoshlarni mustaqil hayotga tarbiyalash bizgacha hozirgi kunga qadar poydevor bo'lib kelmoqda ekan. Ayni damda, ularning insonparvarlik aqidasi jamiyat turmushini mavjud tabiiy sharoitlarga eng maqbul tarzda moslashgan shakllarda davom ettirish uchun inson va tabiatning takror ishlab chiqarishini ta'minlashdan iborat bo'lganligi ham nazardan chetga qolib ketmagan. Shu bilan birga o'sha davrga xos jismoniy tarbiyani zamonaviy ilmiy mazmunga mos tarzda tushunmaslik kerak. U davrda jamiyatda nafaqat kuchli, chaqqon, chidamli odamlarga, balki topqir, irodali, jamoaga birlashgan, mehnatga moslashgan insonlarga ham ehtiyoj kuchli bo'lgan. Sababi endi o'z o'zidan paydo bo'ladigan tabiiy qobiliyatlarning o'zi etarli bo'lmay qolayotgandi. Jamiyatda insonning sezgisi va aqli, to'plagan tajribasi va qaror topgan ijtimoiy uyushma tabiiy yo'l bilan urug'doshlarining jismoniy tarbiyasi zarurligini anglab etishiga zamin yaratadi. Aksariyat so'z ma'nosi shundaki, jismoniy tarbiya insonning biologik tuzilishiga ta'sir ko'rsatib, shubhasiz, aqliy, hissiy, ma'naviy imkoniyatlariga, botirlik va qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, topqirlik, iroda, uyushqoqlik, intizom, jamoaviylik va boshqa ijobiy sifatlarga ham ta'sir etishligida namoyon bo'ladi. Jamiyatda ijtimoiylashuv masalasini L.Morgan shunday yozadi, "...urug'doshlik jamoasining o'smir o'g'il va qizlari odatlarga ko'ra o'rnatilgan dasturlar asosida jismoniy tarbiya maktabini o'tashgan, keyin esa, balog'atga etib, jamoaning to'laqonli a'zosiga aylanish arafasida jiddiy, hattoki juda og'ir sinovdan o'tishgan, ya'ni: o'g'il bolalar jangchilik, ovchilik va botirlikda; qizlar esa yaralanganlarga yordam ko'rsatish, dorivor giyohlarni topish va ulardan shifobaxsh damlamalar tayyorlash kabilarida imtihon topshirganlar". Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, insonni hayotning jiddiy sinovlariga mustaqil hayotga tayyorlash – jismoniy tarbiyaning genetik jihatdan ilk vazifasi ana shundan iborat bo'lgan. Shu bilan birga, yana bir boshqa, ya'ni dam olish, tanani yengillashtirish kabi vazifasi ham bo'lgan, ammo u kengroq tarzda namoyon bo'lishligida. Biroq o'sha davrlarda ham xuddi hozirda bo'lganidek, hayot faqat yutuq va muvaffaqiyatlardan iborat bo'lmagan. Jamiyatda omadsizliklar, o'yinda mag'lubiyatlar bo'lgan, shu bois ana shunday holatlardan munosib tarzda chiqib keta olishni, sovuqqon bo'lish va aql bilan ish ko'rishni o'rganish muhim ahamiyat kasb etganligini sotsiologlar e'tirof etishgan. Misol tariqasida yana shuni ham aytishimiz mumkinki, Sharq mamlakatlarining jangovar sport san'atlari o'zlarining sharq davlatlaridagi turlicha yo'nalish, usul va uslublarda kechadigan shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoniga aloqadorligini yaqqol namoyon etgan. Jamiyatning o'rta asrlar madaniy hayotiga xos barcha belgilarga ega bo'lgan, ko'p yuz yillar davomida mavjud bo'lgan an'anaviy jamiyat sifatida baholanishligidadir. U davrning o'z iqtisodiy hayoti, siyosiy tuzumi, o'z huquqiy me'yorlari, axloqi va albatta, o'zining murakkab tuzilishli madaniyatiga ega bo'lganligidadir. Ana shu asosiy prinsipdan kelib chiqib, maktab va universitetlarda yoshlarning jismoniy tarbiyasi to'g'risida qayg'urilmog'i lozim bo'lganligi aytiladi. Biroq, mavjud tuzumni mustahkamlash to'g'risida bosh qotirgan cherkov ritsarlar tayyorlashga qaratilgan harbiy-jismoniy tayyorgarlikni qo'llab-quvvatlagan, shu bois ularning tarbiyasi sof harbiy-amaliy ko'rinishga ega bo'lgan deyiladi ma'lumotlarda. Jamiyat nufuzini shakllantirish maqsadida ularni otda yurishga, qilichbozlikka, ov qilishga, suzishga o'rgatishgan, ular ko'p vaqtlarini jismoniy mashqlarga, turli harakatli o'yinlarga sarflashgan, bir so'z bilan aytganda, axloq qoidalari va she'r yozish bilan bir qatorda bularning barchasi oqsuyak va zodagonlar uchun zarur hisoblangan ritsarlik xislatlari sanalgan. Bugungi kun tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, ginnastik mashqlarimiz nafaqat yoshlar mustaqil hayotda yashovchi hodimlarga ham, barkamol avlodga ham har tamonlama dastak bo'lish har birimiz uchun amaliy ko'nikma bo'lmog'i lozim. Zero, jamiyatning asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. Provardida jamiyatning kelajagi ham yoshlar zimmasidadir!

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, sport mashg'ulotlari xotin qizlar organizmining rivojlanishida, barkamol avlodni dunyoga keltirishda muhim o'rin tutadi. Ayollarning tug'ish jarayonini yengillashtirishda gimnastik mashqlar juda katta rol o'ynaydi, mushak elastikligini saqlab turishda yordam beradi. Xotin qizlarimiz qayerda bo'lmasin, ishda, o'qishda, qaysi soxalarda ishlamasin har doim sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari uchun dars soatlarimizda quyidagi mashqlarni tavsiya qilaman.

1) *Qomatni shakllantirish uchun;*

a). Devor yoki gimnastik devor oldidi qomatni to'g'ri tutish, boshning orqa tomoni, ko'kraklar chanoq, ikrasimon mushaklar, tovonlar devorga tegib turish kerak. 5 minut.

b). To'g'ri qomatni saqlab, devordan 2-3 qadam oldinga yurib va yugurib o'tish va qomatni to'g'ri tutish 3-4 marta.

v). Devor oldida qomatni to'g'ri saqlab, oyoq uchida 4-5 sekund turish.

g). To'g'ri qomatni saqlab o'tirish, tizzalarni yonga qo'yish, bosh va umurtqa pog'onasini to'g'ri saqlagan holda sekin va asta turish va dastlabki holatga qaytish, 5-6 marta.

d). Yotgan holatda qomatni to'g'ri saqlash va bel qismini gilamga tekkizib turish. 6-7 marta.

2. Qorin bo'shlig'i mushaklariga beriladigan mashqlar.

a). Ikkala oyoqni bukish va yozish. 2-4 marta.

b). Qo'llar boshda oyoqni ketma ket ko'tarish. 3-5 marta.

v). Qo'llar tepada oyoqlarni oldinga ko'tarib va sekin asta pastga tushirish. 4-6 marta.

g). Oyoqlarni to'g'ri ko'tarib chalishtirish. 6-8 marta.

d). O'tirish bosh va yelkani to'g'ri tutish 5 sekund.

e). Qo'llarni oldinga yozib, oyoqlarni ko'tarish, o'tirish holatga kelish va to'g'ri qomatni tutish 5 marta

3. Tananing yon tomonidagi mushaklarga beriladigan mashqlar.

a). Chap yonga yotish, o'ng qo'l tepada, chap qo'l tanada. Chap oyoqni kutarish va tushurish. Shu mashqni chap yonda bajarish. 7-8 marta

b). O'ng tomonga yotib, so'ng ikkala oyoqni to'g'ri ko'tarib, oyoqlarni 4-5 hisobda ushlatib turish, asta sekin o'z holatiga keltirish.

4. Oyoqlar uchun mashqlar. Oyoqlarni har xil holatlarda ko'tarish, egilgan oyoqlarni har xil holatlarda silkitish, sekinlik bilan bajarish, ikki oyoqda o'tirish, bir oyoqda harakatda va bir joyda o'tirish.

5. Qorinda yotgan holatda beriladigan mashqlar. Boshni ko'tarish, qo'llar yonda, qo'llarni panjalarda qisib yozish, tana va boshni ko'tarish, qo'llar oldinda yoki yonda 10-15 marta. Qorinda yotgan holatda to'g'ri oyoqlar bilan harakat qilish.

6. Tovuq mushaklarini mustahkamlaydigan mashqlar. Tovonda yugurish, tovonning yon tomonida panjalarni qisib yurish, panjalar bilan mashqlar bajarish. Bundan tashqari o'y sharoitida ham ritmik gimnastika bilan ham shug'ullanish mumkin. Ritmik gimnastikani uch qismga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-mayda qabul qilingan 76-II-sonli qonuni.
2. Ilmira Igorevna Margunova "Gimnastika va uni o'qitish metodikasi" Kasb hunar kolleji uchun o'quv qo'llanma- 2011 Toshkent.
3. Azimov I.G. Sobitov.Sh.S "Sport fiziologiyasi" T.O'z DJTI Nashriyot bo'limi, 1993 y.
4. Azimov I.G, Xamraqulov A.K, Sobitov.Sh.S "Umumiy va sport fiziologiyasidan amaliy mashg'ulotlar". T, O'qituvchi 1992y.
5. Maxmudova M.Q. "Maktab o'quvchilariga gimnastika mashg'ulotlarini o'rgatishning asosiy metodik tamoyillari" Muallim jurnal 406-412, 2023.
6. Maxmudova M.Q. "Yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilishda olimpiya ta'limining ahamiyati" Muallim jurnal 260-263, 2022.

Mingboyev Shuxrat Mingboy o'g'li
MTTDMQTMOI, Tayanch doktoranti
[E-mail.shukh823@gmail.com](mailto:shukh823@gmail.com)

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARINING RISKOLOGIK KOMPETENSIYA TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-MOHİYATI

Annotatsiya. Maqolada "risk", "pedagogik risk" va "riskologik kompetensiya" tushunchalari tahlil etilib, maktabgacha ta'lim tizimida risk tushunchasini qo'llanishi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari faoliyatida uchraydigan risklarning mazmuni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari riski, pedagogik risk, risk, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori, ehtimollik, risk, xavf, xavf-xatar, moliyaviy risk, ekologik risk, riskologik kompetensiya, riskologik immunitet.

ПОНЯТИЕ РИСКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ЕЕ СОДЕРЖАНИЕ

Аннотация. В статье анализируются понятия «риск», «педагогический риск» и «рискологическая компетентность», использование понятия риска в системе дошкольного образования и содержание рисков, встречающихся в деятельности директоров дошкольных образовательных учреждений организации раскрыты.

Ключевые слова: риск информационных технологий, педагогический риск, риск, директор организации дошкольного образования, вероятность, риск, опасность, риск, финансовый риск, экологический риск, рискологическая компетентность, рискологический иммунитет.

THE CONCEPT OF RISKOLGY COMPETENCE OF PRESCHOOL EDUCATION DIRECTORS AND ITS CONTENT

Abstract. The concept of "risk", "pedagogical risk" and "riskological competence" is analyzed in the article, the use of the concept of risk in the preschool education system and the content of risks encountered in the activities of directors of preschool educational organizations are revealed.

Key words: Information technology risk, pedagogical risk, risk, director of preschool education organization, probability, risk, financial risk, environmental risk, riskological competence, riskological immunity.

Kirish. O'zbekistonda barcha sohalar singari ta'lim tizimida ham tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Maktabgacha ta'lim tizimini dunyo hamjamiyati talablariga muvofiq zamonaviy ma'no va mazmun kasb etishi uchun eng muhim omillardan biri maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining kasbiy kompetensiyasilarini davr talabalariga muvofiq adaptatsiyalashdir.

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohatlarning samarasi hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati direktorning kasbiy tayyorgarlik darajalariga ko'p jihatdan bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan rahbarlarning kasbiy faoliyatida maqsadni belgilash tajribasi, ijobiy va maqbul qarorlar qabul qila olishi, har qanday ijtimoiy o'zgarishlarga moslasha olish mahorati katta ahamiyatga ega. Ta'lim tashkiloti direktori innovatsion firklashi, riskologik immunitetga ega bo'lishi davrning o'ziga xos talablarni tushunishi, ularning kompetentligini shakllantiruvchi eng muhim tarkibiy qismlardan biri hisoblanib, ular islohatlar davrida ta'lim xizmatlari bozorida yuzaga keladigan vaziyatlar orqali bujudga keladi.

Maqsadi va vazifasi: Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, rahbar va pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standrtlar asosida takomillashtirish borasida izchil tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplariga quyidagilarga katta e'tibor qaratish nazarda tutilgan.

ta'lim ustuvorligining tan olinishi;

ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;

jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik [1].

Yuqorida keltirilgan prinsiplarni to'laqonli amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariga ham yuksak mas'uliyat yuklaydi.

So'ngi yillarda maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarini ta'lim tizimida raqobatbardoshligini oshirish uchun kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8- maydagi PQ-4312-son qaroriga asosan Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan. Unga ko'ra maktabgacha ta'lim sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimini tahlil qilish quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarurligini belgilaydi[2].

xalqaro talablarga javob beradigan yagona ko'p darajali uzluksiz ta'lim tizimini yaratish;

ta'lim va amaliyotni integratsiyalashtirgan holda xalqaro ta'lim standartlari, o'quv-metodik reja va dasturlar, interaktiv va muammoli-vaziyatli o'qitish usullari va treninglari, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

maktabgacha ta'lim tizimi xodimlariga qo'yiladigan malaka talablarini yanada takomillashtirish, ularning faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini hamda pedagog xodimlarning kasbiy standartini ishlab chiqish va tasdiqlash;

ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish yo'li bilan maktabgacha ta'lim sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini tashkil qilish uchun, shu jumladan mamlakat hududlarida, ta'lim muassasalari sonini oshirish;

maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining xorijdagi yetakchi universitetlarda, ilmiy markazlarda va boshqa ta'lim tashkilotlarida stajirovka o'tashini tashkil qilish;

o'zlariga yuklatilgan xizmat vazifalarini eng yuqori professional darajada bajara oladigan, yuqori intellektual qobiliyat va axloqiy xislatlarga, chuqur kasbiy bilimlarga ega eng malakali xodimlarni saralab olishda raqobat muhitini ta'minlaydigan kadrlarni shaffof tanlov asosida tanlashning yangi mexanizmlarini joriy etish;

maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlariga zaruriy kasbiy kompetensiyalar ro'yxatini o'z ichiga olgan talablarni belgilash, sertifikatlash tizimini joriy etish;

strategik boshqaruv, moliyaviy va NR-menejment asoslarini majburiy joriy etgan holda, maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish[3].

Muhokama: Hozirgi zamon sharoitida ta'lim tashkiloti rahbarlarining maqomi va uning boshqaruv funksiyalari tubdan takomillashi bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmonida "O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASIDA xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida maktabgacha ta'lim tizimida bir qator quyidagi ustuvor vazifalar maqsad qilib olingan[4].

Istiqbolda amalga oshiriladigan ishlar maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlariga ham ma'lum talablar qo'yadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbari boshqaruv faoliyatini olib borish jarayonida rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiyalash va nazorat qilish funksiyalarini amalga oshiradi. Zamonaviy jihatdan maqsadga muvofiq fikrlashi va harakat qilishi shart.

Bugungi kunda rahbar nafaqat boshqaruv jarayonida va uning natijalarida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan risklardan mahoratli foydalanishi hamda zamonaviy tushuncha asosida barcha sohalarda ommalashayotgan riskologik kompetensiyasini takomillashtirish orqali ta'lim xizmatlari bozorida yuqori darajada raqobatbardosh kadr bo'lib yetishi mumkin.

O'z-o'zidan savol tug'iladiki, riskologik kompetensiya nimani aks ettiradi va samarali kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari qanday riskologik kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak?

Riskologik kompetensiya zamonaviy dunyoda keng ko'lamda kontekslarda foydalanilmoqda, mazkur tushunchani batafsilroq tahlil qilsak.

Risk tushunchasi Kembrij raqamli lug'atida "Yomon narsa sodir bo'lish ehtimoli, biror narsa qilish yoki xafa bo'lish yoki yo'qotish yoki mag'lub bo'lish ehtimoli mavjud bo'lgan vaziyatga kirish" ma'nolarini anglatadi.

Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug'ati bu tushuncha haqida quyidagi tarif keltirilgan. Risk - ta'sir ko'rsatish natijasi – bu, taxmin qilingan maqsaddan chetga chiqishdir (ijobiy yoki salbiy)[5].

Ushakovning izohli onlayn lug'atida esa quyidagicha tarif beriladi.

Risk - mumkin bo'lgan xavf. Bozor sharoitidagi o'zgaruvchanlik tufayli tijorat biznesida mumkin bo'lgan yo'qotish yoki muvaffaqiyatsizlik.

Risk tushunchasi yuqorida keltirilgan tariflardan tushunish mumkinki, risk bu har qandan faoliyat turida uchrashi ehtimoli bo'lgan kutilmagan xavf-xatarlardir

Pedagogika ensiklopediyasida kompetensiya atamasiga quyidagi tarif beriladi;

Kompetensiya – bu shaxsning biror - bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilish darajasi[4].

Xulosa qilib, Shuni tushunishimiz kerakki, riskologik kompetensiya – bu jamiyatda mavjud bo'lgan, har qanday sohada kutilgan va kutilmagan, ma'lum yoki noma'lum voqea, hodisa, holatlar hamda xavf-xatarlarning sodir bo'lish, yuzaga kelish ehtimolidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bilan bog'liq ko'plab risklar mavjud. Bular quyidagilar; pedagogik risklar, moliyaviy, sanitarik-gigenik, ekologik, axborot texnologiyalar, tabiiy-texnik risklar va boshq

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari faoliyatida eng ko'p uchraydigan risklar bu pedagogik risklardir.

Shular jumlasiga:

Maktabgacha ta'lim tashkilotida xodimlarni boshqarish bilan bog'liq vujudga keladigan risklar;

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari va ularning ota-onalari bilan yuzaga kelishi mumkin risklar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kutilmagan tabiiy-texnik voqea, hodisalarning sodir bo'lish (zilzila, yong'in va boshq.) ehtimolining mavjudligi;

Maktabgacha ta'lim tashkiloti(MTT) va uning atrofida joylashgan hududlarda ekologik hamda sanitarik-gigenik shartlarga amal qilmaslik holatlari;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan barcha rahbar, hodimlar tomonidan foydalanadigan barcha turdagi gadjetlarda ma'lumotlarni saqlash, olish, uzatish yoki yolg'on va noma'lum axborotlarning iste'moli oqibatida turli vaziyatlar yuzaga kelish ehtimolining mavjudligi.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan mulohazalardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida risk va riskologik kompetensiya tushunchasini qo'llanishi va ko'pgina hollarda kutilgan natijaning noma'lum holati, ular xavflarni oldini olish yoki kamaytirish uchun Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlariga ma'lim darajada bilim, ko'nikma hamda kompetensiyaga ega bo'lishi lozimligini bildiradi. Risklarni tushunish, anglash hamda uni boshqarish uchun Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlariga riskologik immunitetni shakllanishi bugungi kunning davr talabi hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni 23.09.2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.08.2019, PQ-4312.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023, PF-158.
4. Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug'ati "Kafolat print kompaniy" nashryoti, Toshkent-2022.
5. Pedagogika ensiklopediya II jild "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", Toshkent-2015, bet-184.

Muxamedjanov Umidullo Fayzullayevich
UzDJTU jismoniy madaniyat va sport
kafedrası o'qituvchisi
[E-mail. umidjon744@gmail.com](mailto:umidjon744@gmail.com)

BADMINTON SPORT TURINING O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIKDAN KEYIN RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Annotasiya. Ushbu maqolada badmintonning sportning mustaqillik va undan keying yillarda rivojlanish tarixi va bosqichlari haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: Badminton, badminton musobaqasi, volan, sport ustasi, trenerlar, hakamlar, sport kompleksi.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БАДМИНТОНА В УЗБЕКИСТАНЕ ПОСЛЕ ОБРЕТЕНИЯ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация. В этой статье рассказывается об истории и этапах развития бадминтона в годы независимости и в последующие годы.

Ключевые слова: Бадминтон, соревнования по бадминтону, маховик, мастер спорта, тренеры, судьи, спортивный комплекс.

DEVELOPMENT PROSPECTS OF BADMINTON SPORTS IN UZBEKISTAN AFTER INDEPENDENCE

Annotation. This article talks about the history and stages of badminton's development in the years of independence and subsequent years.

Key words: Badminton, badminton competition, shuttlecock, sports master, trainers, referees, sports complex.

Badminton – qadimgi o'yin bo'lib, uning kelib chiqishi haqida ko'plab manbalar mavjud. Qadimgi Yunoniston, Yaponiya, Hindiston va hattoki Afrika halqlari rivoyatlariga ko'ra, **ikki** ming yil ilgari katta yoshlilar va bolalar volan o'ynagan. Eng qadimgi "Uchadigan par" o'yini Xitoyda milodiy 1000 yil avval paydo bo'lgan. Yaponiyada bu o'yin "oyabane" nomi bilan tarqalgan va g'ozning bir nechta patidan va quritilgan sakura mevasidan tayyorlangan "volan"ni yog'och raketkalar yordamida oshirishdan iborat bo'lgan (1-rasm).



1991-yiida badminton bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi barcha turdagi musobaqalarda, shu jumladan, xalqaro turnirlarda ishtirok eta boshladi.

1992- va 1995-yillarda Toshkentda ilk bor xalqaro turnirlar tashkil etildi.

1998-yilda badminton bo'yicha O'zbekiston Respublikasi o'smirlar terma jamoasi Osiyo o'smirlar chempionatida ishtirok etdi.

1999-yilda O'zbekiston Respublikasi milliy terma jamoasi Kuala-Lumpur (Malayziya)da o'tkazilgan Osiyo chempionatida ishtirok etib, kvalifikatsion turnir bosqichidan yuqoriga o'ta olmadi.

2004-yilgacha badminton musobaqalari faqat O'zbekiston hududlarida o'tkazildi. Faqatgina 2003-yilda O'zbekiston terma jamoasi Qozog'istonda o'tkazilgan xalqaro turnirda ishtirok etdi. Ushbu turnirda vakillarimiz Oleg Savatyugin va Alisher Zoxidov sovrindor bo'lishdi. Faxriylarimiz terma jamoa tarkibida bir oltin va ikkita kumush medallarini olishga sazovor bo'lishdi. Mustaqillik davrigacha O'zbekistonda badminton bilan 450 ming kishi shug'ullangan, 19 nafar trener va 27 nafar hakamlar faoliyat ko'rsatishgan.

O'zbekistonda 1993-yilda Valeriy Aleksandrovich Tkachenko sport ustasi unvoniga sazovor bo'ldi.



Albatta Mustaqillik yillarida O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohalarida sezilarli darajadagi yutuqlarga erishildi, shu bilan bir qatorda milliy sport turlari bilan birgalikda xalqaro sport turlarini ham rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. O'zbekistonda badminton sport turini kelajakda yanada shakllantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini tadbiq etish va sport masterlik darajasini oshirish maqsadlarida 2011-yil 26-avgustda O'zbekiston badminton federatsiyani tashkil etildi. O'sha yilning sentabr oyida bizning milliy federatsiyamiz butunjahon badminton federatsiyasi va Osiyo badminton federatsiyasining a'zosiga aylandi. Qisqa fursat mobaynida poytaxtda va boshqa viloyatlarda badminton bilan shug'ullanish uchun bir qator bazalar va sport markazlari tashkil etildi. 2014-yilda Toshkentda badminton bo'yicha yangi, zamonaviy sport kompleksi qurib bitkaziladi.

Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Navoiy, Sirdaryo, Farg'ona, Xorazm viloyatlari va Toshkent shaharlaridagi badminton bazalarida yosh badmintonchilar yetishib kelishmoqda. Bugungi kunga kelib, respublikamizda 20 mingdan ortiq aholi doimiy tarzda badminton bilan shug'ullanib kelishmoqda, shulardan 12 nafari sport ustasi va 45 nafari esa sport ustaligiga nomzod, 10 nafari trenerlar, hakamlar 42 nafar hisoblanishadi. Yurtimiz badminton ustalarining asosiy maqsadlari mintaqaviy va xalqaro sport musobaqalarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, shu bilan birgalikda yozda bo'lib o'tadigan yozgi olimpiada o'yinlariga yo'llanmani qo'lga kiritishdir. "Texnika" atamasi aslida yunoncha (tehnus) so'z bo'lib, turli sohalarida juda keng ma'noda qo'llaniladi va o'zbek tilida "san'at" tushunchasini anglatadi. Etimologik lug'atdan shu narsa ma'lumki, miloddan avval 776-yildan boshlab har 4 yilda Gretsiyadagi Olimp tog'larining etagida joylashgan Olimp qishlog'ida Xudo Zevs sharafiga bag'ishlab o'tkaziladigan umumyunon bayram musobaqalari ishtirokchilari 2 g'ildirakli aravachada poyga, mushtlashish, beshkurash sporti bo'yicha o'z san'atlarini (texnikasini) namoyish etganlar. Qizig'i shundaki, har bir ishtirokchi musobaqadan oldin o'z qaddi-qomatini, tana, qo'l, oyoq mushaklarining shaklan va mazmunan go'zal ko'rinishda taraqqiy etganligini namoyish etishi mazkur musobaqalarning shartlaridan biri bo'lgan ekan.



Musobaqalardan 4-yil muqaddam ishtirokchining qaddi-qomati, mushaklarining shakli, ularning ish bajarish (qisqarish) mazmuni ma'lum dastlabki ko'rinish va rivojlanganlik darajasiga xos bo'lsa, 4 yil muntazam jismoniy mashqlar bilan maqsadli shug'ullanish natijasida qayd etilgan ko'rsatkichlar salohiyati yanada kuchayadi, qaddiqomat yanada go'zallashadi, mushaklarning qisqarish (bo'shshish) kuchi va tezligi ortadi, chidamkorligi va qayishqoqligi kuchayadi, organizmning barcha ichki a'zolari funksional jihatdan shakllanadi. Ana shu o'zgarishlar muayyan harakatni (ayniqsa, musobaqa uchun tanlangan harakatni) samarali va yuksak mahorat bilan ijro etilishiga imkon tug'diradi. Qadimiy yunon musobaqalaridan aynan mazkur mahorat "san'at" (texnika) sifatida baholangan. Masalaning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, ilg'or texnika va texnologiyalar yordamida ishlab chiqarilayotgan hamda uzluksiz shakllanib boradigan turli vositalar (samolyot, raketa, televizor, sovitgich, lift, traktor, avtomobil va h.k.)ning har bir avlodi o'zining tashqi ko'rinishiga, shakliga, mazmuniga, muayyan o'lchamlariga egadir. Ma'lumki, ushbu ko'rsatkichlar shu vositalarning texnik pasportida qayd etiladi. Ta'kidlash joizki, har bir sport turiga oid harakat malakalari ham o'z texnik ko'rsatkichlari, o'lchamlari va ularni ijro etishda o'ziga xos texnik tartibga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, sportchi muntazam shug'ullanishi natijasida musobaqada ishtirok etadi va o'zining texnik mahorati darajasi tufayli ma'lum o'rinni egallaydi, texnik pasportini esa sekin-asta yangilab boradi.

Zamonaviy badminton o'yini ham ko'pdan-ko'p harakat malakalaridan iborat bo'lib, shug'ullanuvchilardan ixtisoslashgan kuch, tezkorlik, chidamkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik sifatlarini, iroda, matonat, o'tkir zehnlilik, zukkolik, "ayyorlik" (yaxshi sport ma'nosida) va boshqa shu kabi xislatlarni shakllantirishni talab qiladi. Bugungi badmintonda g'alabaga erishish faqat uzluksiz va maqsadli qo'llanadigan katta yuklamali mashg'ulotlar evaziga amalga oshirilishi mumkin. Shug'ullanuvchilar organizmning imkoniyati ham bechegara emas, binobarin, yuklama va ish qobiliyatini tiklash (charchoqni bartaraf etish va organlarni tiklash) orqali shu organizm ish qobiliyatini, uni funksional faoliyatini muntazam shakllantirib borish zarur bo'ladi. 2022 yilning 2- aprel kunida badminton sportini rivojlantirish va insonlar hayotini yanada sog'lomlashtirish maqsadida Samarqand viloyatida ham o'quvchi-yoshlar o'rtasida musobaqalari o'tkazildi. Bugun, 2-aprel kuni badminton sport turi bo'yicha Barkamol avlod-2022 sport o'yinlarining Respublika final bosqichiga start beriladi. Samarqand viloyati mezbonlik qiladigan ushbu musobaqada akademik litsey va professional talim muassasalari o'quvchi-yoshlari badminton bo'yicha eng kuchli ekanliklarini isbotlash uchun o'zaro kurashga kirishadi.

Ushbu yilda mamlakatimizning 14 ta hududidan hududiy bosqichlarda o'zini ko'rsatib, respublika bosqichiga yo'l olgan sportchilar Samarqand shahrida jam bo'lishdi. Ertadan 114 nafar sportchi yoshlar o'g'il bolalar va qizlar toifasida musobaqalarda o'z ishtirokini boshlashadi. Turnir yakunida g'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanadi.

Ma'lumki, hukumat tomonidan koronavirus infeksiyasining tarqalishiga qarshi kurash davrida aholini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatining barqarorligini ta'minlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi aholisining sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishni kuchaytirish zamonaviy davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbek-



iston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 5- noyabrdagi "Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va "Workout" sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5282-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Davlat statistika qo'mitasida 15-dekabr kuni Markaziy apparati boshqarmalari o'rtasida "**Badminton**" bo'yicha sport musobaqalari o'tkazildi.

Muntazam jismoniy tarbiya va ommaviy sportni o'tkazishdan maqsad har bir fuqaroda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yomon odatlardan voz kechish, to'g'ri ovqatlanish tamoyillariga rioya qilish, kasalliklarga qarshi doimiy immunitet tizimini shakllantirish, shuningdek, jismoniy faoliyat orqali xodimlarning ish faoliyatini yaxshilashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. John Edwards – Badminton. Technique, tactics, training. The Crowood Press Ltd 2014.
2. Bernd-Volker Brahm – Badminton Handbook. Training, tactics, competition. Maidenhead: Meyer and Meyer Sport (UK) Ltd., 2014.
3. Помыткин В.П. Книга тренера по бадминтону. Теория и практика// ОАО «Первая образцовая типография», филиал «УЛЬЯНОВСКИЙ ДОМ ПЕЧАТИ», 2012.
4. Смирнов Ю.Н. – Бадминтон. Учебник для института физической культуры. «Физкультура и спорт».

Muxamadiyeva Xadicha Karamatovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim pedagogika kafedrası v.b.b. dotsent
E-mail.xadicha20182020@gmail.com

Murodova Mahbuba Po'latovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KONFLIKTOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUN VA MOHIYATI

Annotatsiya. *Konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik-psixologik fanlar orasidagi ichki integratsiyaning namoyon bo'lishi. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishda quyidagi pedagogik va psixologik fanlarning imkoniyatlari: Pedagogik konfliktologiya, Ijtimoiy psixologiya, Oila psixologiyasi, Psixologik trening asoslari, Pedagogik texnologiya, Pedagogik mahorat, Pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi, Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya, Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim va tarbiya, integratsiya, pedagogik-psixolog fanlar, o'quv-me'yoriy hujjatlar, o'zaro aloqadorlik, rivojlantirish.*

СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ РАЗВИТИЯ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. *Проявление внутренней интеграции педагогических и психологических наук в развитии конфликтологической компетентности. В данной статье рассматриваются возможности следующих педагогических и психологических наук в развитии конфликтологической компетентности у будущих учителей: Педагогическая конфликтология, Социальная психология, Семейная психология, Основы психологической подготовки, Педагогическая технология, Педагогическое мастерство, Методика преподавания педагогических наук, Психодиагностика. и экспериментальная психология, «Поведение» проанализировала психологию девиантных детей.*

Ключевые слова: *образование и обучение, интеграция, педагогико-психологические науки, образовательные и нормативные документы, взаимосвязь, развитие.*

CONTENT AND ESSENCE OF DEVELOPMENT OF CONFLICTOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

Abstract. *Manifestation of internal integration between pedagogical and psychological sciences in the development of conflictological competence. In this article, the possibilities of the following pedagogical and psychological sciences in the development of conflictological competence in future teachers: Pedagogical conflictology, Social psychology, Family psychology, Basics of psychological training, Pedagogical technology, Pedagogical skill, Methodology of teaching pedagogical sciences, Psychodiagnostics and experimental psychology, Behavior analyzed the psychology of deviant children.*

Key words: *education and training, integration, pedagogic-psychological sciences, educational and regulatory documents, interrelationship, development.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martda "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-son qarorida Umumiy o'rta ta'limga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni hisobga olgan holda umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, umumiy o'rta ta'limning o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzviy aloqadorligini ta'minlash maqsadida [1] boshlang'ich ta'lim o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dunyoda umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish, innovatsion yondashuvlar asosida konfliktologik madaniyatni shakllantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, o'quvchilarda affilyatsiya motivini qaror toptirish orqali samarali muloqotga tayyorlashning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirish, reflektiv yondashuv asosida o'z hissiyotlari va xulq-atvorini boshqarishning pedagogik-psixologik asoslarini aniqlashtirish, o'quvchilarda umumadaniy kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish alohida dolzarflik

kasb etadi.

Kasbiy kompetentlikka yondashuvlardagi barcha farqlarga qaramasdan, barcha mualliflar o'z doirasiga kommunikativ kompetentlikni kiritadilar.

Hozirgi davrda mutaxassisning kasbiy kompetentligi uning kommunikativ kompetentligini, ya'ni kasbiy faoliyat sharoitida muloqot qilish qobiliyatini ham nazarda tutadi.

Kommunikativ kompetensiya bu insonning shaxs sifatida psixologik xarakteristikasi bo'lib, u odamlar bilan muloqot qilishda yoki odamlar bilan kerakli aloqalarni o'rnatish va saqlash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Kommunikativ kompetensiya tarkibiga insonda aloqa jarayonlarining muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va malakalar to'plami kiradi.

Pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetensiya odatda ta'lim oluvchilar bilan kerakli aloqalarni o'rnatish va saqlash qobiliyatini anglatadi. Kompetensiya samarali muloqotni ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va malakalar to'plamini o'z ichiga oladi. Ushbu turdagi kompetensiya aloqa chuqurligini va doirasini o'zgartirish, aloqa sheriklari tomonidan tushunish va tushunish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Kommunikativ kompetensiya bu to'g'ridan-to'g'ri o'zaro ta'sirlashish sharoitida shakllanadigan odamlar o'rtasidagi rivojlanayotgan va asosan onli aloqalar tajribasi. Kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish jarayoni shaxs rivojlanishi bilan bog'liq. Kommunikativ harakatlarni tartibga solish vositalari insoniyat madaniyatining bir qismidir va ularni o'zlashtirish va boyitish butun madaniy merosni rivojlantirish va ko'paytirish bilan bir xil qonunlarga muvofiq sodir bo'ladi. Ko'p jihatdan kommunikativ tajribani egallash nafaqat to'g'ridan-to'g'ri o'zaro ta'sir jarayonida sodir bo'ladi. Kommunikativ kompetensiya insonning ijtimoiy hayoti bilan bevosita bog'liqdir. Kommunikativ kompetensiya og'zaki va og'zaki bo'lmagan aloqa vositalarining moslashuvchanligi va ulardan foydalanish erkinligini nazarda tutadi va insonning o'ziga, ijtimoiy olamga bo'lgan munosabatlar tizimini tartibga soluvchi kategoriyalardan iboratdir.

Tadqiqot usullari. Kuzatish, ilmiy manbalar va ilmiy tadqiqot ish natijalarini pedagogik-psixologik tahlil qilish, taqqoslash, pedagogik tajriba-sinov.

Kommunikativ kompetensiya shaxsning muloqot qobiliyati bo'lib, axborot-kommunikatsiya sohasida shaxsiy va kasbiy tajribasini o'z ichiga olgan bilim, ko'nikmalar va kommunikativ xususiyatidir. Muloqot qobiliyatining namoyonligi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- muloqot uchun zarur bo'lgan kommunikativ holatning psixologik va ijtimoiy tashxisi;
- o'ziga xos kommunikativ vaziyatda muloqot jarayonini programmalash;
- aloqa jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqarishni amalga oshirish.

Kommunikativ kompetensiya aloqa vazifalari turlariga ko'ra quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi: qo'yilgan maqsadlarni aniqlash, vaziyatni har tomonlama baholash, hamkorlik va muloqot usullarini hisobga olish (o'zaro hamkorlik), yetarli darajada pedagogik strategiyalarni tanlash, aloqa natijasining muvaffaqiyatini baholash, o'z kasbini turdosh kasbga o'zgartirishga tayyor bo'lish.

Kommunikativ kompetensiyaning faoliyat yo'nalishlari uning tarkibiy komponentlarini motivasion-maqsadli, kognitiv, hissiy, xulq-atvor komponentlaridan iborat ekanligini aniqlash imkoniyatini belgilaydi:

Kommunikativ qobiliyat shaxsiy, integral sifatida qaralishi kerak va strukturaviy tarkibiy qismlari kognitiv, motivasion, hissiy va xulq-atvorga ega bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshirilishi shaxsning kommunikativ faoliyatining samaradorligini belgilaydi.

Ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish orqali kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish zarur ahamiyatga ega ekanligi bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, bugungi kunda biz kommunikativ kompetentlik deb ataydigan samarali muloqot qilish qobiliyati har doim mutaxassislarning diqqat markazida bo'lgan.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan bo'lajak mutaxassislarni har tomonlama kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot natijasi. Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahoratning asosiy qonuniyati oz mehnat sarf qilib, ulkan natijalarga erishishda ijodkorlik uning hamisha hamrohi bo'ladi. Pedagogik va uning kompetentligiga faoliyatga qiziqqan, qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat hislatlari shakllanib boradi. Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. O'qituvchi o'quvchi shaxsini shakllantiradi, kutilmagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qiladi, pedagogik muammolarni yechadi, o'quv jarayonini mustaqil boshqaradi.

Muhokama. Tarbiyalash mahorati-o'qitish va tarbiyalash jarayonining bog'liqligi, uyg'un



rivojlangan shaxsni shakllantirishga, ularda yuksak madaniy va ma'naviy saviyasi qaror toptirishga, pedagogning yuksak shaxsiy sifatlariga. Uning vatanparvarlik, obro' va burchni his etishga, keng gumanitar va gumanistik tayyorligiga, shuningdek o'quvchilar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning amaliy ko'nikmalariga asoslanadi. Pedagogning o'quv-tarbiyaviy jarayondagi gumanitar omilni belgilaydigan shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik, haqqoniylik, halollik, mehribonlik, xushmomalalik. Ushbu sifatlar pedagogning ta'lim oluvchilar uchun ahamiyatini belgilashi kerak. Shaxsiy sifatlar o'qitish va tarbiyalash mahoratiga ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim oluvchilarning bilimlarini ularning kasbiy kompetentligini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati-psixologik pedagogik jihatdan o'qitish va tarbiyalash mahorati bilan uzviy bog'liqdir.

Xulosa qilish mumkinki, maktabdagi o'quvchilik davrida ijodiy fikrlash sifat jihatidan ham, moddiy jihatdan ham, protsessual yo'nalishlarda ham rivojlanadi va bu rivojlanish, avvalo, o'quvchi uchun yangi bo'lgan va shu tufayli yuzaga kelgan ta'lim faoliyati bilan bog'liq.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'qituvchilik kasbini tanlagan har bir pedagog o'ziga shu kasbni sevishi yoki sevmasligi to'g'risida savol beradi. Zero, masalaning yana bir muhim tomoni borki, bu bo'lajak o'qituvchi pedagogik qobiliyatga egami yoki yo'qmi degan muammo paydo bo'ladi. Vaholanki, har bir kasb, qobiliyat orqali egallanadi va mukammal o'rganiladi.

Aqliy aloqalardagi o'zgarishlar, ong va shaxsiyat ustidan nazoratni kuchaytiradigan, fikrlashning yanada samarali shakllarining kamolotini oshiradigan funksional aloqalarni ajratish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martda "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 6108 - sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli Farmoni.
4. Kuznetsova N.P. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi DTSlari talabalarini amalga oshirish sharti sifatida. M. 2003 yil.

Aslanova Nozima Xakimovna
Buxoro viloyati PYAMO'MM dotsenti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ZAMONAVIY PEDAGOGNING KOLLABORATIV MAHORATI: BOLA RIVOJLANISHIGA IJOBIY TA'SIR

Annotatsiya. Pedagog mamlakat bolalarining ta'limi va tarbiyalashning sifati va samaradorligi uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglagan holda ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etishda innovatsion yo'l orqali yondashishi, o'z mahoratini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishi va atrofidagi hamkasblarining kasbiy o'sishiga ko'maklashishi lozim. Bu sifatlar uning kollaborativ ko'nikmalarida namoyon bo'ladi. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining kollaborativ ko'nikmalari haqida ma'lumotlar kiritilgan.

Kalit so'zlar: kollaboratsiya, hamkorlik, ta'lim, bola, o'yin, jamoa, faoliyat, oila.

COLLABORATIVE SKILLS OF THE MODERN EDUCATOR: A POSITIVE EFFECT ON CHILD DEVELOPMENT

Abstract. A pedagogue should be aware of his responsibility to the nation and society for the quality and effectiveness of the education and upbringing of the country's children, and should approach the solution of educational tasks in an innovative way, continuously improve his skills and help his colleagues around him. These qualities are reflected in his collaborative skills. The article includes information about the collaborative skills of preschool teacher.

Key words: collaboration, cooperation, education, child, game, team, activity, family.

НАВЫКИ СОТРУДНИЧЕСТВА СОВРЕМЕННОГО ПЕДАГОГА: ПОЛОЖИТЕЛЬНОЕ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ РЕБЕНКА

Аннотация. Педагог должен осознавать свою ответственность перед нацией и обществом за качество и эффективность образования и воспитания детей страны, подходить к решению образовательных задач новаторски, постоянно совершенствовать свою квалификацию и помогать своим коллегам во всем. Эти качества отражаются в его навыках сотрудничества. В статье представлена информация о навыках сотрудничества педагога дошкольного образования.

Ключевые слова: сотрудничество, кооперация, обучение, ребенок, игра, коллектив, деятельность, семья.

Kirish. Bugungi tezkor davrda maktabgacha ta'lim tashkiloti yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlash, fikrini erkin ifodalashga o'rgatuvchi muhit yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy maqsadi bola shaxsini sog'lom va yetuk qilib maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Chunki sifatli ta'lim-tarbiya jarayoni qancha erta boshlansa, uning samarasi shuncha ertaroq namoyon bo'ladi. Shuningdek, erta olingan ta'lim insonning butun hayot tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv, amaliy va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalar va innovative usullarni qo'llash yuzasidan ko'pgina izlanishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talablaridan biri maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalar qamrovini kengaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini obodonlashtirish, guruh xonasidagi har bir jihozlar bolani rivojlantirish uchun yo'naltirilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda pedagog va ota-onalar zimmasiga o'sib kelayotgan yosh avlodni xalqning faxrlanishga arzigulik insonlari qilib tarbiyalashdek muhim, sharaflil va mas'uliyatli vazifalar turadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Kollaborativ ta'lim g'oyasi turli mamlakatlardagi, jumladan, Amerikadagi J. Xopkins universiteti professori – R. Slavin (1990), Minnesot universiteti professori – R. Jonson, D. Jonson (1987), Kaliforniya universiteti professori – Sh. Sharon (1988), tomonidan ishlab ishlab chiqilgan. Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o'qitish, asosan o'quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, Isroil va Evropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish, yuqorida qayd etilganidek, ko'proq o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qayta ishlash va loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va munozaralar o'tkazishni nazarda tutadi.

Natijalar.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kollaborativ ko'nikmalari bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etishda quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Har bir yosh guruhlarda bolalarning faoliyat markazlaridagi hamda kun davomidagi birgalikdagi hayotining tashkil etilishi. Bunda pedagog guruhlardagi barcha bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularni qurish yasash va matematika, fan va tabiat, til va nutq, san'at va syujetli rolli o'yinlar markazlaridagi hamkorligini ta'minlay olishi ko'zda tutiladi.

2. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya jarayonini fasilitatsiya qilish, ya'ni do'stona muhit yaratish orqali birgalikda ta'lim-tarbiya olinishini qulaylashtirish.

3. Turli yosh guruhi bolalarini har tomonlama faoliyat ko'rsatishi va samarali muloqoti uchun zarur jihozlangan muhitni yaratish. Bunda pedagog guruh xonalari, markazlarini standart asosida; pedagogik, gigiyenik va badiiy-estetik talablarining yagona birligi bo'yicha jihozlash va tayyorlash ishlarini rahbariyat, ota-onalar va mutaxassislar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

4. Turli faoliyat ko'rinishlari (o'yin, mehnat, ta'lim)ni birgalikda joriy etish. O'yinli ta'lim, markazlardagi faoliyat, o'z-o'ziga xizmat, navbatchilik, guruh xonasida va tabiatdagi mehnat faoliyatlarning kun tartibidagi o'rni, bolalarning rivojlanish darajasiga ko'ra bu faoliyat turlarini birgalikda olib borish.

5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli yosh guruhlarda bolalar hayotini, ular salomatligini muhofaza etish asosida tashkil etish. Bunda kichik (3-4 yosh), o'rta (4-5 yosh), katta (5-6 yosh), tayyorlov (6-7 yosh) guruh bolalari uchun xonalar, mebellar, jihozlar tanlanishi, qo'llanma va materiallar joylashtirishi, sifatli oziq-ovqat, sifatli ichimlik tizimi, ularni chiniqtirish va harakat faolligi dinamikasi kabi ishlar amalga oshiriladi.

6. Bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonini pedagogik va psixologik talablar asosida yo'lga qo'yish. Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga borishi ular uchun ma'lum muammolar va yosh davriga oid krizislar asosida turli adaptiv qiyinchiliklarni yanada og'irlashtiradi. Bunda bolalar hatti harakatlarida injiqlik, sabrsizlik, tajanglik, odamovilik, yig'loqlik, kamgaplik kabi xususiyatlar kuzatiladi. Doimiy hayajon tufayli stress holatiga tushishning asosiy sababi atrofida yaqin kishilarning bo'lmasligi, hayot tarzining notanish muhit bilan almashishi sabablidir. Boladagi psixologik va fiziologik xususiyatlar bolaning yangi sharoitga ko'nikishini yanada qiyinlashtiradi. Chunki bola bog'chaga kelishi bilan uning ijtimoiy ahvoli ham o'zgaradi: bog'chada u o'zining oila a'zolari bilan muloqotda, ularning diqqat markazida bo'lmaydi.

Endi u o'z tengdoshlarining teng huquqli jamoa a'zosiga, boshqa bolalarning tengdoshiga aylanadi. Bunda bola psixologik jihatdan o'zini qayta qurishga o'z xulqini o'zgartirishga, notanish katta kishilar va tengdoshlari bilan aloqaga kirishga majbur bo'ladi.

Tarbiyachi mashg'ulotning tashkiliy qismidan boshlab bolalar bilan frontal hamda kichik guruh tarzida hamkorlik qiladi. Bunda u mashg'ulotlarni uyushtirishda, shakli va mazmunini tanlashda bolalarning rivojlanganlik darajasiga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi.

Muhokama.

Pedagog mamlakat bolalarining ta'limi va tarbiyalashning sifati va samaradorligi uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglagan holda ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etishda innovatsion yo'l orqali yondashishi, o'z mahoratini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishi va atrofidagi hamkasblarining kasbiy o'sishiga ko'maklashishi lozim. Bu sifatlar uning kollaborativ ko'nikmalarida namoyon bo'ladi. Chunki bolalar hayotini samarali tashkil etishi orqali turli yosh guruhlarda bolalarning yakka, kichik guruhlar va umumiy guruhlar shaklidagi ta'limiy va tarbiyaviy jihatdan rivojlanishini maqsadga muvofiq tashkil etish, bu ishlarni uyg'unlikda olib borish, shuningdek, har bir bolani jismoniy; ijtimoiy-hissiy; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalarini hamda ularni ijodiy rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratish pedagogning eng asosiy burchi va vazifasi hisoblanadi.

O'yin ham maktabgacha yoshidagi bolaning asosiy faoliyati hisoblanib, bolalar hayotini mazmun tashkil etishda muhim o'rin egallaydi. Bolalar o'yin g'oyasini tushunishi uchun tarbiyachi tomonidan ko'rsatma beriladi. Tarbiyachining kollaborativ mahorati o'yin syujetini tanlash va rollarini taqsimlash, uni tashkil etishda namoyon bo'ladi. Ammo ixtiyoriy o'yinlar bolalarning kollaborativ sifatlarini rivojlantirishni to'liq ta'minlamaydi. Bolalar o'yinlariga tarbiyachining aralashuvi, uning o'yin jarayoniga mohirlik bilan rahbarlik qilishi bolalar bilan olib boradigan kollaborativ faoliyatni ta'minlaydi.

Bunda pedagog o'z guruhidagi bolalarning o'zaro munosabatlarini hisobga olib, muloqotga oson kirishadigan faol bolalarni ham, uyatchan bolalarni ham jamoada qamrab oladi. Masalan, uyatchan va tortinchoq bolalarni atrofidagi tengdoshlariga ko'proq murojaat qilishga undab, savol berish, ko'rsatib berish, o'z kuzatishlarini gapirib berish singari vazifalarni topshiradi.

Xulosa. Muloqot jarayonini kuzatish asosida tarbiyachi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini ham hisobga oladi. Samarali muloqot madaniyatini tarbiyalashning muhim vositasi bolalar faoliyatining jamoa shakllarining to'g'ri tashkil etilishidir. Turli bayram tadbirlari, ertaklarni sahnalashtirish, sayr va ekskursiyalar, tomoshalar, hatto yozgi sog'lomlashtirish davrida ham bolalardagi dis-kommunikatsiya (muloqotdagi muammolar) belgilari bartaraf etiladi.

Kollaborativ ta'limiy faoliyat asosida tashkil etiladigan bolalarning kundalik hayoti pedagoglar, tarbiyachi yordamchilari, ota-onalar, bolalar, hamda ular o'rtasidagi munosabatlarda ijobiy xususiyatlar: sabrlilik, mehribonlik, o'zaro kelishish, hamjihatlik ruhiyatini olib kiradi. Bolalar o'rtasida uchrab turadigan kelishmovchiliklar oldi olinadi va odilona hal etiladi. Maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy shakli an'anaviy ta'lim tizimidan afzalroq hisoblanadi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim jarayonini mazmunli tashkil etish uchun har bir pedagog kollaborativ ko'nikmalari va mavjud pedagogik mahoratidan maksimal foydalanishi bugungi kun ta'limi oldidagi maqsadlarga erishish uchun yanada yaqindan yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo'jayev N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat O'quv qo'llanma – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006.
2. Инновации: теория, механизм, государственное регулирование: Учебн. пособие /Под ред. Ю.В. Яковца. – М.: РАГС, 2000.
3. Канторович Л. Системный анализ и некоторые проблемы научно-технического прогресса. М.: Наука, 1986.
4. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo'llanma.–T.:O'qituvchi, 2004.
5. S.T. Turg'unov, L.A. Maqsudova, H.M. Tojiboyeva, G.M. Nazirova, M.A. Umaraliyeva "Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari" «O'zbekiston Respublikasi O'zPFITI» nashriyoti, T.:2014
6. J.G'. Yo'ldoshev, M.K. Shirinov, F.I. Ochilov "Pedagogik diagnostika" o'quv metodik qo'llanma T.:2014
7. O'tkir Tolipov, Dilnoz Ro'ziyeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" «Toshkent innovatsiya-ziyo» T.: 2019
8. www.wikipedia.uz

Shaalimov Muxtorsha Adxamovich
O'z DJTU Jismoniy madaniyat va sport
kafedrası katta o'qituvchisi
E-mail.shaalimov1952@gmail.com

RESPUBLIKAMIZDA MUSTAQILLIKDAN KEYIN VOLLEYBOL SPORTINING RIVOJLANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada voleybol sportini rivojlantirishda bugungi kunda qilinayotgan ishlar haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: voleybol, ommaviy sport, voleybol sport to'garagi, voleybol musobaqalari.

РАЗВИТИЕ ВОЛЕЙБОЛЬНОГО СПОРТА В НАШЕЙ РЕСПУБЛИКЕ ПОСЛЕ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация. В данной статье рассказывается о текущей деятельности по развитию волейбола.

Ключевые слова: волейбол, массовый спорт, волейбольный спортивный клуб, соревнования по волейболу.

DEVELOPMENT OF VOLLEYBALL SPORT IN OUR REPUBLIC AFTER INDEPENDENCE

Annotation. This article talks about the current activities in the development of volleyball.

Key words: volleyball, mass sports, volleyball sports club, volleyball competitions.

Aytish joizki, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish bilan birga "katta" sport mavqeini oshirishga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Yildan-yilga Respublikamizda xalqaro va jahon andozalari darajasidagi musobaqalarning o'tkazilishi an'anaviy tadbirlarning bir qismidir. O'zbekistonlik sportchilar Osiyo, mamlakat va olimpiya musobaqalarida yuksak natijalarga erishib, yurtimiz dovrug'ini jahon jamoatchiligi oldida tarannum etib kelmoqda.

Ana shu natijalarni mustahkamlash va yanada yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida 2000-yillardan boshlab mamlakatimizda "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" kabi ko'p bosqichli ommaviy sport musobaqalari "Universiada" maqomi bilan yo'lga qo'yildi. "Kichik Olimpiada" borgan sari nufuzli mavqega ega bo'lib, iqtidorli sportchilarni xalqaro va Olimpiya musobaqalariga olib chiqish uchun "ko'priq" bo'lib xizmat qilmoqda. Bu borada jahonda eng ommabop sport turi sifatida tanilgan ommaviy sport musobaqalari va Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan voleybolga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.



Volleybol o'zining universalligi, arzonligi, chiroyli o'yin mazmuni, hujum va mudofaa uyg'unligi bilan yosh-u keksaning e'tiborini tortadigani bilan mamlakatimizning shahar va qishloqlarida, mahalla va aholi punktlarida, to'y-hashamlarda, bayramlarda musobaqadir. salomatlik, jismoniy va ruhiy farovonlik vositasi sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Volleybol o'quv predmeti sifatida barcha ta'lim muassasalarining o'quv rejasiga kiritilgan, u mashg'ulotlardan va ishdan tashqari faoliyat ko'rsatadigan sport klublari, sport klublari, sport to'garaklarida maxsus reja hujjatlari asosida mashg'ulotlar jarayoniga kiritiladi.

Bundan tashqari, ayni paytda volleybol bo'yicha iqtidorli sport zaxiralari va yuqori malakali, raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash hamda ommaviy voleybol geografiyasini yanada kengaytirish, o'quv-mashg'ulot va musobaqalarni ilmiy asosda tashkil etish, bu boradagi bilim va salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash zarurligi ta'kidlandi. Yuksak kasbiy-pedagogik salohiyatning ahamiyatiga e'tibor qaratadi.

Bugungi voleybol qoidalariga kiritilgan ko'plab fundamental o'zgarishlar tufayli bunday "to'xtash" holatlari bartaraf etildi. Umuman olganda, o'yin 3 ta to'p bilan o'ynaladi (bir to'p o'yinda, 2 to'p zaxirada). Yon chiziq va hujum chizig'ining kesishgan joyidan maydon tashqarisidagi 1,75 m bo'lak chiziqlar bilan chegaralangan. To'pni tananing istalgan qismi bilan o'ynashga ruxsat beriladi. O'yin "tay-brek" uslubida o'tkazilishi, ya'ni gol "yo'qotilgan" taqdirda ham raqib jamoaga ochkolar berilishi joriy etildi. "Birinchi" to'pni qabul qilish yoki uzatish qoidasining "kuchliligi" ancha yumshatilgan va kiritilgan to'p to'rga tegsa, "to'g'ri" hisoblanadi.

Bugun Andijon shahrida voleybol bo'yicha oliy liganing ayollar jamoalari o'rtasidagi XXVIII O'zbekiston chempionatining 1-tur uchrashuvlariga start beriladi. Musobaqa Andijon davlat tibbiyot instituti sport majmuasida bo'lib o'tadi.



Bu yilgi O'zbekiston chempionatida odatdagidek, ya'ni amaldagi chempion O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti SKUF, Nukus davlat pedagogika instituti, "To'maris" (Namangan), "Andijon", "Ishanch" jamoalari ishtirok etishdi. (Farg'ona) o'ndan ortiq jamoa ishtirok etishi kutilmoqda. Bu boradagi yakuniy savollarga ertaga mandat komissiyasi javob beradi.

Erkaklar jamoalari o'rtasidagi 19-O'zbekiston chempionatining 1-tur bahslari bahorning ilk shodligi, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayramining ertasiga Navoiy shahrida start oladi. Navoiy shahridagi musobaqalar Olimpiya zaxiralari kolleji sport inshootida o'tkazilmoqda. Aytgancha, erkaklar ligasida yangi jamoalar ishtirok etishi kutilmoqda.

Milliy gvardiya va Mudofaa vazirligi ham o'z jamoalari bilan volleybol bo'yicha bu yilgi O'zbekiston chempionatida ishtirok etish istagini bildirdi. Demak, bu yilgi bellashuvlar har qachongidan ham shiddatli o'tishini taxmin qilish qiyin emas.

"Universiada-2022" sport musobaqalarining 3 ta sport turi bo'yicha final bosqichlari yakunlandi

Muhokama. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida an'anaviy tarzda har yili o'tkaziladigan "Universiada" sport musobaqalari 2022-yilgi respublika final bosqichlarining 3 ta sport turi o'z nihoyasiga yetdi. Ularda 188 nafar talaba-yoshlar ishtirok etib, jamoaviy va yakkalik bahslarida g'olib va sovrindorlar aniqlandi.



Volleybol (ayollar): Volleybol sport turi bo'yicha "Universiada – 2022" sport musobaqalarining Respublika final 2022-yil 14-18-noyabr kunlari Andijon shahridagi Andijon tibbiyot institutida o'tkazildi. Ushbu sport musobaqalarida jami 36 talaba qizlar ishtirok etdi. Sport musobaqalarida hududiy-saralash bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan Andijon, Samarqand, Xorazm va Toshkent viloyati jamoalari g'oliblik uchun kurash olib bordilar.

Musobaqa yakuniga quyidagi jamoalar quyidagi natijani qo'lga kiritdi.

- 1-o'rin: Xorazm viloyati;
- 2-o'rin: Toshkent viloyati;
- 3-o'rin: Andijon viloyati;
- 4-o'rin: Samarqand viloyati jamoalari egallashdi.

Volleybol (erkaklar): Voleybol sport turi bo'yicha "Universiada – 2022" sport musobaqalarining Respublika final 2022-yil 26-30-noyabr kunlari Samarqand shahridagi Samarqand Davlat Universitetida o'tkazildi. Ushbu sport musobaqalarida jami 36 talabalar ishtirok etdi. Sport musobaqalarida hududiy-saralash bosqichida Namangan, Samarqand, Buxoro va Toshkent shahri jamoalari g'oliblik uchun kurash olib bordilar.

Musobaqa yakuniga quyidagi jamoalar quyidagi natijani qo'lga kiritdi.

- 1-o'rin: Buxoro viloyati;
- 2-o'rin: Namangan viloyati;
- 3-o'rin: Toshkent shahri;
- 4-o'rin: Samarqand viloyati jamoalari egallashdi.

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy



tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa. Shu bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va manaviy sog'lomlikning asosi ekanini targ'ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyat va istedodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pulatov A.A. Voleybol. //JTI I kurs talabalariga mo'ljallangan ma'ruzalar to'plami. -T., 2004, 71 b.
2. Pulatov A.A., Isroilov Sh.X. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. O'quv qo'llanma. -T., 2007,148 b.
3. Pulatov A.A., Isroilov Sh.X., Qurbonova M.A., Kdirova M.A. I-IV kurs talabalar bilan seminar va uslubiy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha uslubiy ishlanmalar (voleybol nazariyasi va uslubiyati bo'yicha). -T., 2008, 78 b.
4. Pulatov A.A. Yosh voleybolchilar tezkorlik-kuch sifatlarini shakllantirish uslubiyati. Uslubiy qo'llanma. -T., 2008,38 b.
5. Селуянов В.Н., Шестаков М.П., Космина И.П. Научно-методическая деятельность. Учебник. -М.: Физкультура, 2005,287с.

Uralova Gulbahor O'ktamovna

Nizomiy nomidagi TDPU "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi"

kafedrası dotsenti v.b. (PhD)

E-mail.uralovagulbahor594@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITGA NISBATAN ONGLI MUNOSABATNI VA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi motivatsiyasi, jismoniy va gigiyenik tarbiyalashga homohangligini ta'minlash asosida shakllantirish, sog'lom turmush tarziga oid muayyan tibbiy va gigiyenik bilimlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan optimallashtirish asosida kengaytirish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ekologiya, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, kognitiv, atrof-muhit.

ВАЖНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ОСОЗНАННОГО ОТНОШЕНИЯ К ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы мотивации здорового образа жизни у студентов, формирования на основе обеспечения гармонии с физическим и гигиеническим воспитанием, расширения конкретных медико-гигиенических знаний о здоровом образе жизни на основе оптимизации с национальными и общечеловеческими ценностями обсуждаются.

Ключевые слова: Экология, экологическое образование, экологическая культура, познавательная, окружающая среда.

THE IMPORTANCE OF FORMING A CONSCIOUS ATTITUDE TO THE ENVIRONMENT AND ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation. In this article, the issues of motivation of a healthy lifestyle in students, formation on the basis of ensuring harmony with physical and hygienic education, expansion of specific medical and hygienic knowledge on a healthy lifestyle based on optimization with national and universal values are discussed.

Key words: Ecology, ecological education, ecological culture, cognitive, environment.

Ekologik ta'lim-tarbiya umumiy ta'lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo'lib, maktabda barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlod atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Ekologik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Agar bu masala oilada to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, uni maktablarda, keyingi ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik tarbiya berishda milliy xususiyat va tomonlarga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Bular: suv, yer, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. Ota-bobolarimiz: "Suv - tabiat in'omi, hayot manbai", - deb bejiz aytishmagan. Maktabda o'quvchilarni ekologik tarbiyalashda bunday ma'lumotlarni berib borish o'qituvchilarning asosiy vazifasi bo'lmog'i darkor. Atrof-muhitga, tabiat boyliklariga e'tiborsiz bo'lish butun sayyora jiddiy zarar yetkazishi ma'lum. Inson bilan tabiat o'rtasidagi muammolarni yechish zaruriyati tug'ildi. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish pedagogika nazariyasi va amaliyotida dolzarb muammoga aylandi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoydil kirishish zarur¹.

Ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya berish mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- atrof-muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri;
- tabiat va uning ahamiyatini anglash;
- tabiatga muhabbatni shakllantirishda maktab va oilaning hamkorligi;

¹ Iskandarovna D.T. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirish mazmuni. Scientific progress. 172-175.

- o'z tumani, shaharini, qishloq va maktab hovlisini ko'kalamzorlashtirishda, hatto sinf xonasidagi o'simliklarni ham parvarishlashga qiziqtirish;

- oiladagi, maktabdagi tabiatni, o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish;
- jonivor va qushlarni parvarish qilish;
- yoshlarni ekologik tarbiyalashda milliy an'ana va udumlarni qayta tiklash, ularga e'tiborni kuchaytirish.

Maktab o'quvchilari ekologik tarbiya jarayonida quyidagilarni bilishlari zarur:

- tabiat haqida tushuncha;
- tabiiy muhit, tabiiy omillar va ular orasidagi bog'lanish;
- tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish;
- tabiat boyliklarini muhofaza qilish;
- atrof-muhitni ifloslantirishdan saqlash;
- tabiatni kelajak avlodlar uchun tabiiy holda qoldirishga intilish.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda atrofda tabiat bilan to'g'ri munosabatda bo'lishga tayyorgarlik shakllanishi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi:

- hissiy tomon - tabiiy dunyoga moyillik, hayratlanish hissi, ishtiyoq, uning obyektlariga nisbatan hissiy ijobiy munosabat, xatti-harakatlar motivlari, biznesga tayyorlik - turli xil nostandart ta'lim va ta'lim sohasida o'z bilimlarini amalga oshirish qobiliyati, darsdan tashqari vaziyatlar, altruistik faoliyatda ishtirok etish istagi, xulq-atvorning "ichki" motivlarining boshlanishi fidoyilik va empatiyaning old sharti sifatida; intellektual tayyorgarlik - bolalarning tabiat haqida ma'lum darajadagi xabardorligi, bilim va kognitiv qiziqishlarning yosh darajasi, o'zini ekologik madaniyat tashuvchisi sifatida anglash.

Ekologiya-bu tirik organizmlar va ularning jamoalarining bir-biri bilan va atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri haqidagi fan. O.M.Barkovskaya ekologik ta'limni bolalarning ekologik ta'limi va tarbiyasini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli tizimli pedagogik faoliyat sifatida belgilaydi. Ekologik bilimlarni to'plash, tabiatda faoliyat ko'rsatish ko'nikma va malakalarini shakllantirish, yuksak axloqiy-estetik tuyg'ularni uyg'otish, ekologik ishlarni amalga oshirishda yuksak axloqiy shaxsiy fazilatlar va mustahkam irodani egallashdan iboratdir.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun uni o'qitish dasturini ishlab chiqish va u quyi tizimlar sifatida quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- hayotning tashuvchisi bo'lgan tirik organizmlar, ularning xususiyatlari: yaxlitligi, ehtiyojlar tizimi va atrof-muhitga moslashuvi va boshqalar haqidagi bilimlar;
- insonning tabiiy muhitda yashovchi tirik mavjudot sifatidagi asosiy bilimlari;
- tabiatning odamlar hayotidagi ahamiyati to'g'risida bilim berish, bolaga tabiatning moddiy, kognitiv va estetik qadriyatlarini ochib berish;

- odamlar va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sir to'g'risidagi bilimlar, shu jumladan bunday o'zaro ta'sirning mazmunli va me'yoriy mezonlari. Taklif etilayotgan bilimlar ro'yxati o'zining o'zaro bog'liqligida o'quvchirga jamiyatning ekologik madaniyatida o'quvchilarning yo'naltirilganligi tizimlarini yaratish uchun asos bo'lgan ijtimoiy, ijtimoiy-tarixiy tajribaning zarur miqdorini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv qobiliyatlar tizimini rivojlantirish ekologik bilimlarni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Ulardan quyidagilar katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin:

- tirik obyektning turli belgilar (xususiyatlari, fazilatlar, hayotiy ko'rinishlari va boshqalar) bo'yicha ko'rinish;

- tabiiy obyektlar (tirik organizmlar va atrof-muhit) holatini baholash;
- turli tabiiy obyektlarning yaxlitligini, ularning o'zaro munosabatlarining o'ziga xosligini belgilovchi sabab-oqibat xarakteridagi aloqalarni, strukturaviy-funksional bog'lanishlarni o'rnatish;
- obyektning turli burchaklardan, shu jumladan uni turli tizimlarda ko'rinish¹.

Bu ko'nikmalarning mazmuni va darajasi, tabiiyki, o'quvchilarning bilish faoliyatining yoshga bog'liq imkoniyatlari va o'zlashtirilayotgan bilimlarning mazmuni bilan belgilanadi. Bolaning tabiatdagi haqiqiy faoliyati ekologik yo'nalishga ega bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'yin, mehnat, kognitiv, ta'lim faoliyati va eng muhim qismi bo'lishi kerak. Ushbu blok olingan bilimlar amaliyotini ta'minlashi, uni "jonli", samarali qilish, shuningdek, tabiatga insoniy tuyg'ular va munosabatlarni namoyish etish imkoniyatini berishi kerak. Unga turli mazmundagi amaliy ko'nikmalar tizimini kiritish kerak:

- tirik mavjudotning hayoti uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash;

¹ Iskandarovna D.T. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirish mazmuni. Scientific progress. 172-175.

- o'simliklar va har qanday hayvonlarni etishtirish, ularga g'amxo'rlik qilish;
- tirik mavjudotga aniq yordam ko'rsatish (barcha mazmun va darajada), shuningdek, tirik obyektga yoki atrof-muhitga salbiy ta'sirlarning oqibatlarini tuzatish;
- tirik obyekt va tabiiy muhitning yaxlitligini saqlash;
- tabiatda to'g'ri xulq-atvor, yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni ongli ravishda hal qilish va tirik obyektlar va atrof-muhitga tegishli xatti-harakatlarning to'g'ri normasini tanlash.

Kichik maktab o'quvchisining axloqiy ijobiy axloqiy tajribasini tashkil qilishni ta'minlash kerak, bularga g'amxo'rlik, rahm-shafqat, mas'uliyat, faol pozitsiya, tirik mavjudotni samarali himoya qilishdan zavqlanish, tabiatga nisbatan uning harakatlarining to'g'riligiga ishonch va boshqalar. O'quvchirning boshqa odamlarning - tengdoshlarining va ehtimol ba'zi kattalarning harakatlarini baholash faoliyati tajribasini tashkil etish ham muhimdir. Kichik maktab o'quvchilarini o'qitishda dasturlash tamoyilini tasdiqlash muhim ahamiyatga ega (A.A.Bystrov, E.I.Tixeyeva, P.G.Samorukova, V.I.Loginova va boshqalar). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik ta'lim dasturini ishlab chiqish, uning mazmuni va tuzilishi uchun muhim asoslar beradi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchisining tabiatga munosabati har doim shaxsiy va tanlab olinadi. Unda har bir talaba o'z g'oyalari, ko'nikmalari va tajribasini amalga oshiradi. N.G.Kosolapova shaxsiy tajriba uning xulq-atvori va faoliyatini, dunyoga munosabatini belgilaydigan bilim, qobiliyat va ko'nikmalarning (aqliy va amaliy) o'ziga xos kombinatsiyasi ekanligini ko'rsatdi.

Keling, kichik maktab o'quvchilarida tabiat bilan muloqot qilishda estetik his-tuyg'ularni rivojlantirish uchun qanday ish qilish mumkinligini ko'rib chiqaylik. Estetik tuyg'ularni shakllantirishda eng muhimi o'quvchilarning tabiat bilan tabiiy aloqasi va tabiatning dekorativ go'zalligini idrok etishidir. Bular yorqin katta gullar, ba'zan o'simliklarning barglari, ularning g'ayrioddiy shakllari, hasharotlarning rang-barang ranglari, qushlar, qushlarning qo'shiqlari va boshqalar. Tabiiy obyektlar bilan bunday aloqalar tabiatning o'zi va sun'iy ravishda yaratilgan tabiiy muhit tomonidan ta'minlanishi mumkin. Ikkinchisida yopiq o'simliklar muhim o'rin egallaydi. Ular yilning istalgan vaqtida hissiy sohaga ta'sir qilishning muhim vositasidir, lekin ayniqsa qishda, tabiatdagi o'simliklar yorqin dekorativ ko'rinishini yo'qotib, yo'qolib ketadi. Obyektiv sabablarga ko'ra o'quvchining tabiat bilan aloqasi cheklangan bo'lsa, hasharotlar, qushlar qo'shiq aytmaydi. Estetik tarbiya uchun bebaho, deyarli cheksiz muhit - bu atrofdagi tabiatning o'zi. Bu kech kuzgacha gulzorlarda gullaydigan manzarali o'simliklar bo'lishi mumkin. Hali yalang'och zaminda birinchi gullaydigan o'simliklar erta bahorda jonli zavq keltiradi. Yorqin moviy osmonda astasekin suzib yuradigan bulutlar ham his-tuyg'ularning ifodasidir. Tushunish qiyinroq - tovushlar va harakatlarning go'zalligi. Ammo bu go'zallik bilan nafaqat kichik maktab o'quvchilarini, balki maktabgacha yoshdagi bolalarni ham tanishtirish mumkin. Bahorda biz qushlarning rang-barang qo'shiqlarini tinglaymiz va harakat qilamiz ularning xorda lark, starling, tit, chumchuq va kakukning ovozlari taniydilar. Agar ta'lim muassasasida qushlar bo'lsa, siz ba'zan ularni tinglashingiz mumkin. Kichik maktab o'quvchilariga his-tuyg'ularini ifoda etishning o'ziga xos usullarini tanlash imkoniyati beriladi. Tabiatni o'rganish bo'yicha darslar bunday turli xil faoliyat turlari uchun imkoniyatlar yaratadi: tabiat to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish jarayonida bola o'z faoliyat turida aniqroq ifodalashi mumkin bo'lgan kuzatuvlarning to'g'riligi va to'liqligini ko'rish muhimdir. u uchun afzalroq. Ushbu yondashuv, shuningdek, individual ijodkorlik va tasavvurning yuqori darajada namoyon bo'lishiga yordam beradi. Ko'rib turganimizdek, ta'limning tabiiy muhiti bolaning estetik tarbiyasi uchun juda katta imkoniyatlarni o'z ichiga oladi, bu bolaning hodisalar va narsalar bilan aniq bevosita aloqalari jarayonida hissiy madaniyatni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Estetik tarbiya jarayoni shaxsning boshqa fazilatlarini shakllantirishga foydali ta'sir ko'rsatadi. Bu fikrlash, hissiy savodxonlik, ekologik madaniyat, ijodkorlik va boshqalarni shakllantirishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish imkonini beradiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik tarbiyasi muammosi boshlang'ich sinflarda ta'lim nazariyasining eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Hozirgi bosqichda tarbiyaviy ta'sir doirasi sezilarli darajada kengaymoqda va ekologik ta'lim muammosi eng dolzarb bo'lib qolmoqda. XXI asrda naturalistik harakat o'rnini ekologik harakat egalladi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarning tahlili fikrlash atamasini tushunishdagi turli xil yondashuvlarni ko'rsatdi. Fikrlash-subyekt tomonidan yangi g'oyalarni ijodiy yaratishda, voqea va hodisalarni bashorat qilishda voqelikni maqsadga yo'naltirilgan, vositali va umumlashtirilgan tarzda aks ettirilishidan iborat bo'luvchi ahamiyatli aloqalarni faol aks ettirishning oliy shakli (falsafiy til bilan aytganda); oliy nerv faoliyati funksiyasi (fiziologiya tili bilan aytganda); o'rganilayotgan fenomenlar orasidagi aloqadorliklar va munosabatlar tushunchalar yordamida belgilanadigan, faqat odamga xos bo'ladigan psixik aks ettirishning



tushunchali shaklidir (psixologiya tilim tizimida). Fikrlash-bu narsalarning mohiyatini ochadigan g'oyalar harakatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Iskandarovna D.T. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirish mazmuni. Scientific progress. 172-175.
2. Xo'janazarov O', Mirsovurov M., "Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta'limi" Toshkent-2014.
3. Dhabliya, D., Ugli, I. S. M., Murali, M. J., Abbas, A. H., & Gulbahor, U. (2023). Computer Vision: Advances in Image and Video Analysis. In E3S Web of Conferences (Vol. 399, p. 04045). EDP Sciences.
4. O'ktamovna, U. G. (2022, December). Social-historical basics of the development of ecological-valeological culture in future primary class teachers. In Conference Zone (pp. 190-196).
5. O'ktamovna, U. G. (2022). Ekologik-valeologik madaniyatni rivojlantirish muammolarini tadqiq etishga nisbatan metodologik yondashuvlar. Conferencea, 40-44.
6. O'ktamovna, U. G. (2022). Formation of valeological culture in primary school pupils. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 7(5), 220-223.

Xalilova Xurshida Teshayevna

Nizomiy nomidagi TDPU "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi"
kafedrası dotsenti

E-mail.xurshidaxalilova545@gmail.com

TABIY FAN DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA AKT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada insonlarni asrab turgan tabiatni maktab ta'lim muassasasida o'quvchilar ongida yanada ahamiyatini kuchaytirish uchun tabiiy fanlar nomli darslikni yangicha pedagogik texnologiyalar bilan o'qitishning mazmuni haqida so'z boran.

Kalit so'zlar: tabiat, tabiatni asrash, tabiiy fanlar, tabiiy fanlar darslari, texnologiya, pedagogik texnologiya, tabiiy fanda pedagogik texnologiya.

РОЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИТ-СРЕДСТВ НА УРОКАХ ЕСТЕСТВЕННОСТИ

Аннотация. В данной статье говорится о содержании преподавания естествознания с использованием новых педагогических технологий с целью повышения значения природы, оберегающей человека, в сознании учащихся.

Ключевые слова: природа, охрана природы, естествознание, уроки естествознания, технология, педагогическая технология, педагогическая технология в естествознании.

THE ROLE OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND IT TOOLS IN NATURAL SCIENCE LESSONS

Annotation. This article talks about the content of teaching natural sciences with new pedagogical technologies in order to increase the importance of nature, which protects people, in the minds of students.


Key words: nature, nature conservation, natural sciences, natural science lessons, technology, pedagogical technology, pedagogical technology in natural science.

XXI asrda ta'lim jarayonida bo'layotgan o'zgarishlar o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini o'zgartirishni talab etmoqda. O'qituvchining kasbiy rivojlanishida kreativlik, kognitivlik, intellektual, kommunikativlik, mehnat, shaxsiy rivojlanish kabi fazilatlarining uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan pedagogning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. P.Torrensning fikricha kreativlik: muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish, farazlarni tekshirish va o'zgartirish, qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash, yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarni o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. Zamonaviy darslarni tashkil etishda o'qituvchilardan yangi texnologiyalarni qo'llashda yuksak kasbiy mahorat talab etiladi. Maktablarda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda xam kasbiy sifatlar muhim sanaladi. Integratsiyalashgan dars - mavzu yoki hodisani o'rganishda bir vaqtning o'zida bir nechta fanlar bo'yicha o'qitishni birlashtiradigan maxsus dars turi. Bunday darslar integrator vazifasini bajaradigan yetakchi fan va yetakchi fan materialini chuqurlashtirish, kengaytirish, aniqlashtirishga hissa qo'shadigan yordamchi fanlar bilan o'zaro bog'lanishi tufayli an'anaviy darslardan ajralib turadi. Integratsiyalashgan darslar turli xil fanlarni to'liq birlashtiradi, hayot xavfsizligi asoslari yoki dunyo kabi integrativ mavzularni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, yetakchi fanning o'qitish usullarini saqlab qolgan holda, siz fanlarning mazmunini birlashtirishingiz mumkin. Shuningdek, faqat bitta fan mazmunini saqlab qolgan holda turli fanlarni o'qitish metodikasini birlashtirish mumkin.

O'qituvchilar integratsiyalashgan darsga kamdan-kam holatlarda asosan quyidagi hollarda murojaat qilishadi:

- ❖ Agar o'quv dasturlari va darsliklarda bir xil materialning takrorlanishi aniqlansa;
- ❖ Mavzuni o'rganish uchun vaqt chegarasi va parallel fandan tayyor tarkibdan foydalanish istagi bilan;
- ❖ Fanlararo va umumlashtirilgan kategoriyalarni (harakat, vaqt, rivojlanish, kattalik va boshqalar), inson hayoti va faoliyatining turli tomonlarini qamrab oluvchi qonunlar, tamoyillarni o'rganishda;
- ❖ Turli fanlarda bir xil hodisalar, faktlarni tavsiflash va izohlashda qarama-qarshiliklarni aniqlashda;

❖ Fanni o`qitishning muammoli, rivojlantiruvchi metodini yaratishda.



O`qituvchi darsda pedagogik jarayonning har qanday tarkibiy qismlarini birlashtirish mumkin: maqsadlar, tamoyillar, o`qitishning mazmuni, usullari va vositalari. Masalan, mavzuning mazmuni, unda integratsiyalashuv uchun uning har qanday tarkibiy qismlarini ajratib ko`rsatish mumkin: tushunchalar, qonunlar, tamoyillar, ta`riflar, belgilar, hodisalar, farazlar, hodisalar, faktlar, g`oyalar, muammolar va boshqalar. Ushbu qismlar orqali intellektual, amaliy ko`nikma va qobiliyatlar birlashtiriladi. Turli fanlardan bo`lgan bu komponentlar bir darsda birlashtirilib, tizim hosil qiladi, o`quv materialini ularning atrofida to`planib, yangi tizimga kiritiladi.



O`qituvchi darsni tashkil etishda tizimni tashkil etuvchi omil asosiy hisoblanadi, chunki uni qurishning yangi ishlab chiqilgan usuli va texnologiyasi shu bilan belgilanadi. O`quv jarayonining tarkibiy qismlarini birlashtirish, ya`ni to`g`ri bog`lash uchun dastlab ma`lum harakatlarni bajarish kerak. Ushbu tayyorgarlik faoliyati davomida o`qituvchi quyidagilarni belgilaydi:

1. Integratsiyalashgan darsni o`tkazish uchun sizning motivlaringiz va uning maqsadi; Integratsiyaning tarkibi, ya`ni birlashtirilgan komponentlar yig`indisi;

2. Integratsiya shakli;

3. Birlashtirilayotgan material orasidagi bog`lanishlarning tabiati;

4. Materialning joylashishining tuzilishi (ketma-ketligi);

5. Uni taqdim etish usullari va texnikasi;

6. O`quvchilar tomonidan yangi materialni qayta ishlash usullari;

7. Integratsiyalashgan fan o`qituvchilari bilan rollarni taqsimlash;

8. Dars samaradorligini baholash mezonlari;

9. Ushbu darsda o`quvchilarning bilimni nazorat qilish shakllari va turlari.

10. Integratsiyalashgan darsni tayyorlashning bir necha bosqichlari:

O`qituvchini darsning ushbu turidan foydalanishga undagan motivlar uning ta`lim jarayonida aniqlagan qarama-qarshiliklari va ularni hal qilish uchun idrok etilgan ehtiyojlar bilan belgilanadi. Maqsad

qo'yib, uni qisqa va aniq shakllantirgandan so'ng, o'qituvchi uni bir darsda birlashtirish uchun materialni tanlaydi, ya'ni integratsiya tarkibini belgilaydi. Bu integratsiyalashgan darsni yaratishda ishtirok etuvchi fan o'qituvchisi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bu bosqichda faqat integratsiyaning mazmunli asosini tashkil etuvchi ta'lim mavzulari va ularning alohida qismlari tanlanadi. Albatta, integratsiya shakllaridan birini tanlashga pedagogning pedagogik integratsiya hodisasi, uning turlari, shakllari, tuzilmalari va amalga oshirish texnologiyalari haqidagi bilimlari sezilarli darajada ta'sir qiladi. O'quvchilarning rivojlanish darajasi ularning turli fanlardan bilimlarni birlashtira olish qobiliyatiga ham ta'sir qiladi. Bunday holda, ushbu turdagi darslarda ishtirok etishning amaliy tajribasi ham talab qilinadi va keyingi integratsiyalashgan darslar ishtirokchilar uchun osonroq bo'ladi. Darsning maqsadi aniqlangandan so'ng, bilimlarning integrallashuvchi bloklari belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda darslarni integratsiyalab o'qitishda o'qituvchi kreativ bo'lishi, mavzularni o'zaro bog'lab, o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishi, dunyoni yaxlit idrok eta olishida yetarli bilimlarni yetkazib bera olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasi kengashining qarori mamlakatimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini olib borishga doir chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi kengashining qarori, 25.11.2021 yildagi 1563-IV-son.

2. "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasin qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish. Qonunchilik palatasi tomonidan 2018 yil 30 noyabirda qabul qilingan Senat tomonidan 2019 yil 28 fevralda maqullangan.

3. Tabiiy fanlar [Matn]: 1-sinf uchun darslik / K. Suyarov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 88 b.

4. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. Darslik. Toshkent 2022y.

5. Polyankina S.Yu. Ta'lim falsafasining kategorik apparatida integratsiya tushunchasi. Falsafa va ta'lim №2, 2013.



Xaytmurodov Mardon Bobomurodovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Jismoniy madaniyat fakulteti
Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabasi

KURASH SPORTNING DZYUDODA ULOQTIRISH TURLARI VA ULARNING NOMLARINING MAZMUNI

Annotatsiya. Mazkur maqola shaxsni sog'lomlashtirishga ulkan yordam beruvchi kurash va uning dzyudo sport turi hamda ushbu sportning turlari, mazmuni haqida so'z borgan. Bundan tashqari ushbu sportning jahondagi turlari hamda dzyudoning amaliy uloqtirish usullari rasmlari bilan birga keltirilgan.

Kalit so'zlar: sport, sog'lik, kurash, dzyudo, uloqtirish, dzyudoda uloqtirish turlari, Tati Vaza, Sutema Waza, oochi yoki uchi mata, otish variantlari: tepada, kestirib yoki yelkada.

СОДЕРЖАНИЕ ВИДОВ МЕТАНИЙ И ИХ НАЗВАНИЯ ВИДОВ БОРЬБЫ В ДЗЮДО

Аннотация. В данной статье рассказывается о борьбе и ее виде дзюдо, являющемся большим подспорьем в укреплении здоровья человека, а также о видах и содержании этого вида спорта. Кроме того, вместе с картинками представлены виды этого вида спорта в мире и практические приемы метания дзюдо.

Ключевые слова: спорт, здоровье, борьба, дзюдо, метание, виды бросков дзюдо, Тати Вазы, Сутема Вазы, оочи или учи мата, варианты броска: через голову, через бедро или через плечо.

CONTENTS OF THROWING TYPES AND THEIR NAMES OF WRESTLING SPORTS IN JUDO

Annotation. This article talks about wrestling and its judo sport, which is a great help in improving the health of a person, as well as the types and content of this sport. In addition, the types of this sport in the world and the practical throwing methods of judo are presented together with pictures.

Keywords: sports, health, wrestling, judo, throwing, judo throwing types, Tati Waza, Sutema Waza, oochi or uchi mata, throw options: overhead, hip or shoulder.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 02.10.2017 yildagi PQ-3306-sonli "Kurash" milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹gi qarorida bu sport turiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan: Keyingi yillarda asrlar davomida mardlik, bag'rikenglik, oliyjanoblik va halollikning timsoli sifatida e'zozlanib kelingan, o'zbek xalqining tarixiy merosi — "Kurash" milliy sport turini (keyingi o'rinlarda kurash deb yuritiladi) qayta tiklashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlatimizning bevosita ko'llab-quvvatlashi natijasida kurash xalqaro sport turi sifatida keng e'tirof etildi, "kurash", "halol", "ta'zim", "to'xta" va "yonbosh" kabi atamalar esa xalqaro sport lug'ati tarkibidan mustahkam o'rin egalladi.

Kurash — sport turi, belgilangan qoidaga muvofiq ikki sportchining yakkama-yakka olishuvi. Kurash san'ati ko'p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma'lum. Kurash ayniqsa Yunonistonda keng tarqalib, qadimgi olimpiada musobaqalaridan doimiy o'rin olib kelgan. Milliy kurashning xilma-xil ko'rinishlari Gretsiya, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Rossiya, O'zbekiston, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarda mavjud.

Dzyudoda barcha uloqtirishlar: texnikalarning nomlari

Dzyudoda barcha uloqtirishlar quyidagilarga bo'linadi **ikki xil**²:

1. **Tati Vaza:** tik turgan holatda bajariladigan otishlar.

Sutema Waza: dushmanga yiqilish bilan bajariladigan texnikalar.


TATI VAZA

Te Waza (otadi qo'llarning ustun ishlatilishi bilan):

1. **Ippon Seoinage** - raqib qo'lini yelkasiga qo'yib, orqa bilan ijro etiladi. Otish asosan qo'llarning kuchi bilan amalga oshiriladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 02.10.2017 yildagi PQ-3306-sonli "Kurash" milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹gi qaror.

² Ato'ev A.Q. Yosh-o'smirlarga o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyoti. –T.: O'zDJTI nashriyot- matbaa bo'limi, 2005.



1-rasm. Ippon Seoinage uloqtirish texnikasi. Raqib yelkasidan ushlanib, keyin orqasiga tashlanadi.

1. **Kibisu Gaeshi** - sportchi bir qo'li bilan raqibining tovonidan ushlab, uni o'ziga qaratadi, ikkinchi dzyudochi esa raqibni kimonodan ushlab, uni ag'darib tashlashga yordam beradi.
2. **Seionaj** - raqibni orqa tomonida yelkada o'tkazish.
3. **Kata Guruma - aka "tegirmon"** - bu otishni amalga oshirish uchun siz bir qo'lingiz bilan jangchining qo'lini ushlashingiz, ikkinchi qo'lingiz bilan oyog'ini ushlashingiz kerak, shunda uning tanasi yelkangizga yotadi, so'ngra tiz cho'kib, jangchining tanasi bilan "g'ildirak" yasashingiz kerak.
4. **Obi Otoshi** - raqib kamarini ushlagan holda oyoq orqali bajariladi.
5. **Morot Gari** - oyoqlarga uzatma amalga oshiriladi, keyin raqib yelkasiga ko'tariladi va otish amalga oshiriladi.
6. **Seoi Otoshi** - jangchini orqa tomoniga yotqizish kerak va oyoqlari to'silgan, qo'lni tizzadan elkagacha ushlab turish bilan oldingi qadam.
7. **Sumi Otoshi** - orqaga surish natijasida raqib muvozanatdan chiqib ketadi.
8. **Sukui Nage** - raqib sportchining old oyog'i orqali chalqancha yiqiladi, uloqtirish asosan qo'llari bilan amalga oshiriladi.



1. **Oochi Mata Sukashi** - ichki tutqichdan burish orqali amalga oshiriladigan qarshi qabul qilish.
 2. **Tai Otoshi** - raqib qo'llari bilan orqa oyog'iga tashlanadi.
 3. **Yama Arashi** - sportchining ikkala oyog'ini old tomondan ko'tarib, bir vaqtning o'zida yengini va lapelini olish.
 4. **Uki Otoshi** - qo'llarning harakatlarini tangensial traektoriya bo'ylab burish orqali amalga oshiriladi.
 5. **Kouchi Gaeshi** - ichki kancadan qo'llar bilan qarshi qabul qilish.
 6. **Kutiki Taosi** - raqibning qarama-qarshi tizza bukilishini tashqaridan ushlash.
- Asi Vaza** (barcha harakatlar qilingan texnikalar **asosan oyoqlar**):
1. **Asi Guruma** - raqibning ikkala oyog'i, agar ulardan biri erga tegmasligi sharti bilan qo'lga olinadi.
 2. **Deasi Xaray** - yon tomondan supurish harakati bilan old oyoq ostidan kesish.
 3. **Xaray Tsurikomi Asi** - yuqoriga silkitib raqibni bo'shatib, oyoq bilan pastki qismini supurish.
 4. **Uchi Mata** - sportchining sonining ichki yuzasini oyog'i bilan urib tushirish, keyin esa yiqilish.
 5. **Kosoto Gake** - boshqa dzyudochi oyog'ining qarama-qarshi oyog'i bilan ilgak.
 6. **Tsubame Gaeshi** - yon supurishdan foydalaniladigan hisoblagich texnikasi.

7. **Hiza Guruma** - pastki kesilgan, aynan tizzada qilingan.
8. **Kosoto Gari** - tovon ostidan tashqaridan kesilgan.
9. **Ey Guruma** - raqibning oyoqlarini ko'tarib, tanangizni burish.
10. **Kuchi Gari** - ichki pastki kesish.
11. **O-Soto Gaeshi** - O-Soto Gari aylanasidan hisoblagichda ishlatiladi.
12. **Okuriashi Xaray** - qadamlar ritmida kesish.
13. **O-Soto Guruma** - dzyudochi zarbani taqillatib, raqibni muvozanatdan chiqarib, oyoqlariga uzatma va o'ziga siltab tashlaydi.
14. **O-Soto Gari** - tashqi taqillatish bilan o'zingizni silkit.




Oochi yoki uchi mata

Alohida, men Uchi Mataning (so'zma-so'z) otishini ta'kidlamoqchiman "sonning **ichki qismiga zarba berish**"). U tokchadan orqa tomondan amalga oshiriladi, so'ngra oyoq va tos suyagining harakatlari bilan yiqiladi. Bu eng amplitudali va ajoyiblardan biridir.

Yordam. Ushbu texnikaning o'zgarishlari mavjud. **sambo va erkin kurash bo'yicha.**

Texnika klassik Uchi Mata:

1. **Avval siz raqibni to'g'ri ushlashingiz kerak.** Qulaylik uchun ba'zi professional sportchilar raqibni bir qo'li bilan ko'ylagi yoqasidan quloqqa yaqin tutishni tavsiya qiladilar, ikkinchi qo'li bilan esa uni pastdan tirsagidagi ko'ylagidan olishadi. Bu erda klassik suratga olish ham qo'llaniladi.



3-rasm. Dzyudoda uchi-mata uloqtirishning izchil texnikasi. Qabul yetti bosqichdan iborat.

1. **Keyinchalik, oldinga bir qadam bilan dushmanning og'irligini o'zingizga topshirishingiz kerak.** Shu bilan birga, raqibni yuqoridan ushlab turgan qo'lining tirsagi biroq ko'tarilishi kerak, ikkinchi qo'l bilan esa sportchini o'zingizga tortishingiz kerak. Og'irlikni o'tkazishda ko'krak qafasi "g'ildirak" ga aylanishi kerak.

2. **Muvaffaqiyatli otish uchun siz dushmanni o'zingizga keskin va mahkam bosishingiz kerak.** Dushmanning jasadiga deyarli sizning orqangizga qo'yilishi kerak.

3. **Ushbu texnikaning eng muhim tafsiloti - oyoq bilan to'g'ri otish.** Dushman bilan yaqin aloqada bo'lganingizdan so'ng, siz bukishingiz kerak. Keyin oyog'ingiz bilan (ko'ylagi lapelini ushlab turgan qo'lining bir tomonida) siz dushmanning oyoqlari orasiga o'tishingiz va uni sonning ichki qismidan



oyog'ingizga parallel ravishda urishingiz kerak. Otish eng yaxshi amplitudaga ega bo'lishi uchun oyog'ingizni iloji boricha baland ko'tarishingiz kerak va siz sportchini poldan yirtib tashlashingiz mumkin.

4. **Oyoq bilan otish tananing oldinga egilishi bilan birga amalga oshiriladi.** Siz butun vazningiz bilan tashlashingiz va raqibning butun og'irligi bilan tashlashingiz kerak, ammo sayohatning o'zi oyoq bilan amalga oshiriladi. Og'irlikning barcha yo'nalishi oldinga siljishi kerak.

5. **Qo'llaringiz bilan otish paytida siz o'zingizga ham raqibingizni tashlashga yordam berishingiz kerak.**

6. **Shuni unutmangki, ushbu texnikani bajarayotganda siz tanani ichkariga burishingiz kerak.**

E'tibor bering! Raqib allaqachon sizning ustingizga tashlangan bo'lsa, ulotirishni yakunlang va **uni nazorat qilishni unutmang.** Nazorat hatto yerda ham bo'lishi kerak. Sizni ham qiziqtiradi:

Kurashning ushbu turi kundan-kun ommalashib bormoqda. Respublikamizda ham kurashni rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash rejalashtirilgan. Nukus va viloyatlar markazlarida kurash markazlari, har bir tuman va shaharda esa «zamonaviy sport klublari va seksiyalari»ni tashkil etish belgilangan.

Doimiy asosda kurash bo'yicha respublika va xalqaro musobaqalar hamda turnirlar o'tkaziladi. Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalariga «kurash» yo'nalishi bo'yicha qabul kvotalari soni oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 02.10.2017 yildagi PQ-3306-sonli "Kurash" milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror.
2. Atoyev A.Q. Yosh-o'smirlarga o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyoti. –T.: O'zDJTI nashriyot-matbaa bo'limi, 2005.
3. Arslonov Sh.A., Tangriyev A.Sh. Sport pedagogik mahoratini oshirish DZYUDO. T. 2017
4. Mirzaqulov Sh. Belbog'li kurash nazariyasi uslubiyati. O'quv qo'lanma. – T. 2013.

Xujomov Bobomurod Xaytmurodovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Jismoniy tarbiya va sport kafedrası professor v.b.
E-mail.bobomurodxujomov5@gmail.com

MILLIY KURASH SPORTINI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O'QITISH USULLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy kurash sporti jarayonlarini yanada tushunarli va samarali tas'ir ko'rsatish uchun oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanib o'qitishda bir nechta texnologiyalar misolida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: sport, salomatlik, kurash, milliy kurash, o'qitish, texnologiya, pedagogik texnologiya, modulli o'qitish, muammoli o'qitish.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ БОРЬБЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. С целью сделать процессы развития отечественного борцовского спорта более понятными и эффективными, в данной статье показаны примеры нескольких технологий обучения с использованием современных педагогических технологий в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: спорт, здоровье, борьба, национальная борьба, обучение, технология, педагогическая технология, модульное обучение, проблемное обучение.

METHODS OF TEACHING THE NATIONAL WRESTLING SPORT USING MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Annotation. In order to make the processes of national wrestling sport more understandable and effective, this article shows the example of several technologies in teaching using modern pedagogical technologies in higher education institutions.

Key words: sport, health, wrestling, national wrestling, teaching, technology, pedagogical technology, modular teaching, problem-based teaching.

O'zbek milliy kurashining jahon arenasiga chiqib, milliy mustaqillik yillarida shiddat bilan bir xalqning ma'naviy-jismoniy qadriyatidagi turli xalqlar va millatlarning udumiga aylanganligi olamshumul hodisadir. Zero kurash o'z jangovorligi, go'zalligi, jozibadorligi, halolligi bilan barchaning mehrini uyg'otgan, o'ziga katta qiziqish uyg'ota olgan sport turi hisoblanadi. Kurashda kurash tushuvchilar harom-harishdan, g'irromlikdan, o'g'rilikdan, kashandalikdan yiroq bo'lib, oliyanoblik, insoniylik, hatto raqibiga nisbatan hurmat ko'rsatadigan insonlar bo'lishi talab etiladi. Kurash insonlarni chiniqtiradi, irodani mustahkamlaydi, xalqiga, Vatanga bo'lgan muhabbatini uyg'otadi va mustahkamlaydi. Shuning uchun ham kurashchilar qat'iy qarorga ega bo'lib, hech qachon do'stlariga, millatiga, Vatanga xiyonat qilmaydilar. Kurash irodani toblaydigan, aniq maqsad sari undaydigan, qiyinchiliklarni chidam va bardosh bilan yengishga o'rgatadigan sport turi hisoblanadi. Shuning uchun ham kurash insonni ma'naviy, jismoniy, axloqiy jihatdan kamolotga yetkazuvchitarbiya maktabi rolini o'taydi.

Milliy kurash sportini o'qitishda ta'lim jarayoning yo'nalishini muayyan izchillik va yaxlitlikda qurish, o'quvchi (talaba)larning o'quv-biluv faoliyatini aniqlashtirilgan maqsadni amalga oshiruvchi ta'limning shakl, metod va vositalarini tanlash lozimligini taqozo etadi¹. Buning uchun didaktikaning muayyan qonuniyatlari, qoidalari va o'ziga xos jihatlarini e'tibordan chiqarmaslik lozim. Chunki ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, o'qitish texnologiyasi (natija sifatida)- didaktik jarayonning ilmiy loyihasi modeli bo'lib, faoliyat davomida pedagogik harakatalar muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Xo'sh, o'qitish texnologiyalari mazmunida nimalar mujassamlashgan:

1. Ta'lim standartlari asosida o'qitish jarayonini loyihalash.
2. Kutilayotgan natijani kafolatlash va kafolatlangan natijaga to'liq erishish.
3. Kafolatlangan natijani qo'lga kiritishda maqsadni aniq belgilash, ya'ni ta'limning umumiy maqsadi va o'quv mavzusining maqsadini hamda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'quv ma'lumotlarining maqsadini aniqlashtirish.

¹ Atoev A.Q. Yosh-o'smirlarga o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyoti. –T.: O'zDJTI nashriyot- matbaa bo'limi, 2005.

4. O'qitishning didaktik vositalarini aniq tanlash va ulardan maksimal (optimal) foydalanish.
5. O'qitishning uzluksizlik, tadrijiylik, ilmiylik, tushunarlik, ko'rgazmalilik, amaliylik, tamoyillariga asoslanish.
6. O'quv mashg'ulotlarining xaritasini o'zlashtirilishi lozim bo'lgan BKM (bilim, ko'nikma, malakalar) va pedagogik harakatlar (o'qituvchi-talaba faoliyati) asosida ishlab chiqish va rejalarini tuzish.
7. Ta'lim oluvchilarning mustaqilligi, faolligi, ijodiy kamolotining ta'minlanishiga qaratilgan bo'lganligi.
8. Ta'lim jarayonining motivatsiya, ta'lim oluvchining o'qish bilish faoliyati, o'quvchi faoliyati boshqarilishi komponentlaridan iborat bo'lishi va amalga oshishi. Qolaversa, "Milliy kurash turlari"ga tegishli fanlarni o'qitishda, fan mazmunini talabalarining o'zlashtirishlari uchun ta'limning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi innovatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlardan ilg'or innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurligi qayd qilingan. Shuni inobatga olib biz mazkur fanni o'qitishda foydalanishi mumkin bo'lgan ta'lim texnologiyalari xususida fikr yuritamiz.

Modulli ta'lim texnologiyasi. O'qitishning yangi texnologiyalarini izlab topish borasida olib borilgan tadqiqotlar, ta'lim oluvchilarning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limning modulli o'qitish texnologiyasining yaratilishiga olib keldi. Modulli o'qitish texnologiyasi aniq ta'lim oluvchiga mos keluvchi o'qitish usulini tanlashni, o'quv ma'lumotlarini o'quvchi-talabaning tayyorgarligi, o'quv-biluv ehtiyojiga muvofiqlashtirish, o'quv fani bo'yicha bilim va ko'nikmalarni mustaqil ishlashlari asosida modullar bo'yicha tizimlashtirishni nazarda tutadi. Professor N.H.Avliyoqulov va p.f.n.N.N.Mu-sayevalar ta'kidlaganlaridek[2]:

- modulli o'qitish didaktik tizimning har bir tizilmasini (komponentini) so'zsiz ishlanishini ta'minlaydi va ularni modulli dasturda va modullarda ko'rgazmali taqdim etadi;
- modulli o'qitish, o'qitish mazmunini aniq tarkiblash, nazariy materialni ketma-ket bayon etish, o'quv jarayonini uslubiy material bilan ta'minlash, o'qitish jarayoniga tuzatishlar kiritishga imkon beruvchi o'zlashtirilgan bilimlarni baholash va nazorat tizimini toqazo etadi;
- modulli o'qitish o'qitishni o'zgaruvchanligini, o'quv jarayonini o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari va talablariga moslashni nazarda tutadi.

Modulli ta'lim texnologiyasining mazkur o'ziga xos xususiyatlari Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi o'quv fanini o'qitishda:

- ✓ milliy kurash turlarini tartiblashtirish;
- ✓ "milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi"ni modulli dastur shaklida o'quv ma'lumotlari modullarga (makro-mikromodullar tarzida) ketma-ketlikda o'zlashtirishni rejalashtirish;
- ✓ tashkiliy shakllarda mustaqil bilim olish asosida olib borishni yo'lga qo'yish kabi masalalarni yechish amalga oshiriladi. Shunday qilib, modulli o'qitish texnologiyasi fan ma'ruzalarini modullarga ajratishni, o'qitish, o'zlashtirishni nazorat qilish va baholashni yuqori texnologik jarayon asosida olib boruvchi texnologiya deb xulosa chiqarish mumkin.

Muammoli o'qitish texnologiyasi – bu muayyan o'quv fanining muhim tomonlarini ijodiy o'zlashtirishga o'quvchilarni muntazam jalb qilishni nazarda tutadigan texnologiyadir. Muammoli o'qitish texnologiyasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u ta'lim oluvchilarga ma'lumot, axborotlarni tayyor holda emas, balki muammoli vaziyatlarni yaratish hamda ularni yechishga o'quvchilarni jalb etish orqali bilim o'zlashtirish, ko'nikma malaka hosil qilishga yo'llashni nazarda tutadi. Shuning uchun mazkur texnologiya ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, e'tiqodni tarbiyalaydi. Darhaqiqat, "Muammoli o'qitish, o'qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi o'zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi"

1. Zero, muammoli vaziyat – ta'lim oluvchilar fikrlash jarayonining dastlabki bosqichi bo'lib, unda biror narsani tushunish, anglash mantig'i yotadi va u talabani muammoni yechishga yo'naltiradi, yechimni izlashni tashkillashtiradi.

Milliy kurashni sportini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasi bo'lajak jismoniy tarbiya o'quvchilariga kurashchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarliklarini inobatga olib, vaziyatdan kelib chiqib, texnik, taktik mahoratini namoyish qilishda mustaqil qaror qabul qilish yo'llari hamda vositalari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, kurashchilarga hujum harakatlarini mustaqil tanlash, qo'llash texnikasi bilan tanishtiradi. Bu esa o'z navbatida, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va mashqlarini tashkil etish va o'tkazishga texnologik yondashish uchun amaliy yordam ko'rsatadi. Bunda muammoli vaziyatni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammoli vaziyat yaratishda:

- a) texnik-taktik tayyorgalikda ziddiyatlarni vujudga keltirish va uning yechimini topishga kurashchining o'ziga taklif etish;
- b) aynan bir xildagi texnik-taktik tayyorgarlikni turli xil yechimini topish;
- d) kurashchilarga holatga turlicha yondashishni o'rgatish;
- e) amalga oshirilgan texnik-taktik holatni taqqoslash, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga undashga olib keladi va ularni qo'llash ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Milliy kurash mashg'ulotlarining yanabir afzalligi aqliy qat'iylik va intizomni rivojlantirishdir. Kurashchilardan kuchli mashg'ulotlar va shiddatli musobaqalarga chidash talab etiladi, bu ularning aqliy chidamliligini oshirishga yordam beradi. Kurash paytida jismoniy va ruhiy to'siqlarni yengib o'tishni o'rganish odamlarda nafaqat kurashda, balki hayotning turli jabhalarida ham qimmatli bo'lgan kuchli qat'iyat va qat'iyatlilikni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, kurash tabiati intizomni o'rgatadi, chunki sportchilar o'z faoliyatini maksimal darajada oshirish uchun qat'iy tayyorgarlik rejimlari va sog'lom turmush tarziga rioya qilishlari kerak. Ushbu intizom hayotning boshqa sohalariga aylanadi, chunki kurashchilar o'z majburiyatlarini birinchi o'ringa qo'yishni va vaqtlarini samarali boshqarishni o'rganadilar. Milliy kurash mashg'ulotlari orqali sportchilar nafaqat jismoniy mahoratini oshiribgina qolmay, balki aqliy qat'iylik va intizomni rivojlantiradilar, bu ularga kurash karerasidan tashqari xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu insho quyidagilarga qaratilgan milliy kurashning har xil turlarini va ularning tegishli o'qitish metodikasini ko'rib chiqing. Ko'rinib turibdiki, har bir mamlakat o'ziga xos kurash uslubiga ega, ularning madaniy amaliyotlari, tarixiy voqealari va mintaqaviy imtiyozlari ta'sirida. Qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan Yunon-Rim uslubi yuqori tana texnikasiga qaratilgan va oyoq hujumlaridan foydalanishni taqiqlaydi. Boshqa tomondan, qo'shma Shtatlarda ishlab chiqilgan erkin kurash yuqori tana va oyoq hujumlariga, ko'p qirrali va chaqqonlikka imkon beradi. Bundan tashqari, qo'shma Shtatlarda keng tarqalgan folklor kurashi ta'kidlaydi raqibni boshqarish va mahkamlash. Ushbu o'ziga xos uslublar har bir kurash uslubining o'ziga xos texnikasi, qoidalari va maqsadlariga moslashtirilgan noyob o'qitish metodologiyasini talab qiladi. Samarali murabbiylik sportchilarning o'z kurash uslubida ishlashi va muvaffaqiyatini optimallashtiradigan maxsus mashg'ulotlar, texnik ko'rsatmalar va taktik strategiyalarni o'z ichiga oladi. Kurashchilar va murabbiylar uchun ushbu kurash uslublarining nuanslari va xususiyatlaridan xabardor bo'lish va mashg'ulot yondashuvini mos ravishda moslashtirish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 02.10.2017 yildagi PQ-3306-sonli "Kurash" milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror.
2. Atoev A.Q. Yosh-o'smirlarga o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyoti. –T.: O'zDJTI nashriyot-matbaa bo'limi, 2005.
3. O'zbek kurashi dovrug'i\Tuzuvchilar: H.Bobobekov, M.Sodiqov, Z.Ro'ziyeva. –T.: Ibn Sino nashriyoti, 2002. 9-bet.
4. Yair K. hammond. Kollegial kurash tarixi. Bir asrlik kurashning mukammalligi, Milliy kurash shon-sharaf zali va muzeyi, 1/1/2006.

Ахмедова Мукаддас Ходиметовна
доцент Национальный университет Узбекистана
имени Мирзо Улугбека кандидат педагогических наук

ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ КОММУНИКАТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ ИНОЯЗЫЧНОЙ РЕЧИ

Аннотация. Основу обучения студентов общению на другом языке составляет коммуникативный метод. Коммуникативный метод направлен на развитие всех видов коммуникативных навыков: говорения, аудирования, чтения и письма, и основан на нескольких принципах. Это: обучение говорению в коммуникативной ситуации, учет темы, практика устного общения, сотрудничество преподавателя и студента, индивидуализация преподавания и инновации в учебном процессе.

Ключевые слова: коммуникативный метод, обучение, речь, ситуация, речевая деятельность, принципы.

CHET TILI NOTIQNI KOMMUNIKATIV O'QITISHNING ASOSIY TASOSIYLARI

Annotatsiya. O'quvchilarni boshqa tilda muloqot qilishga o'rgatishning asosi kommunikativ metoddir. Kommunikativ usul barcha turdagi muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan: gapirish, tinglash, o'qish va yozish va bir nechta tamoyillarga asoslanadi. Bular: mavzuni hisobga olgan holda kommunikativ vaziyatda nutqqa o'rgatish, og'zaki muloqotni mashq qilish, o'qituvchi va talaba hamkorligi, o'qitishni individuallashtirish va ta'lim jarayonida innovatsiyalar.

Tayanch so'zlar: kommunikativ usul, o'qitish, nutq, vaziyat, nutq faoliyati, tamoyillar.

BASIC PRINCIPLES OF COMMUNICATIVE TEACHING FOREIGN LANGUAGE SPEECH

Abstract. The base of teaching students to communicate in another language constitutes the communicative method. Communicative method is devoted to develop all the types of communicative skills; speaking, listening, reading and writing, and is based on several principles. They are: training to speak through communicative situations, taking the theme into account, having the practice of oral communication, cooperation of teacher and student, individualizing the teaching, and innovating the teaching process.

Keywords: communicative method, learning, speech, situation, speech activity, principles.

Гармоничное соответствие мысли и слова, речи и речевого поступка представляется актуальной образовательной задачей. Понимание того, что язык является одним из главных инструментов развития личности, приводит к поиску эффективных подходов в преподавании.

Действенным импульсом для появления различных подходов к обучению иностранным языкам на относительно современном этапе стало изменение состояния общества, процесс глобализации. По мнению С.Ф. Шатилова «методика обучения иностранным языкам должна быть целостной, чужой односторонности в толковании и решении практических методических вопросов. В ней должны органично сочетаться положения, которые сейчас противопоставляются друг другу и которые на практике существенно дополняют друг друга. Методика должна располагать всем разнообразием приемов, способов и видов работы, быть гибкой и дифференцированной, учитывать все факторы, влияющие на успешность обучения». [5, 50]

Подход к изучению языка как к лингвистическому феномену обеспечивает знание системы языка, но не раскрывает механизмы ее использования. Отказ от комплексного изучения аспектов языка (фонетики, лексики, грамматики) не приводит к овладению правилами и лексикой при решении коммуникативных задач. Обучение готовым клише и фразам, соотнесенным с конкретными ситуациями, также не приводит к овладению иностранным языком, поскольку это не способствует осознанному формированию системы языка. Только последовательное целенаправленное обучение системе языка через речь в процессе речевой деятельности позволяет сформировать механизмы речи. Из числа способов овладения иностранным языком предпочтение стали отдавать тем, которые обладают развивающим потенциалом: будят мысль, оттачивают средства ее выражения, обогащают чувства, образные представления, совершенствуют общую культуру общения и социального поведения в целом.

Целью коммуникативного обучения является овладение изучающими иностранный язык коммуникативной компетенцией, позволяющей практически реализовывать усвоенные ими умения и навыки для успешного разрешения коммуникативных задач. Коммуникативный подход к обучению иностранному языку лег в основу коммуникативной теории обучения, рассматривающей языковую компетенцию в условиях социального взаимодействия. Особенность коммуникативного подхода заключается в сходстве процесса обучения с реальным процессом общения: процесс обучения моделирует процесс коммуникации, сохраняя при этом адекватность по всем параметрам.

Доминирующей идеей коммуникативного подхода является коммуникативная направленность всех видов речевой деятельности – говорения, аудирования, чтения и письма. Владение языком как средством общения предполагает создание таких условий, при которых усвоение языкового материала осуществлялось бы естественным путем, в процессе общения, курс носил бы целенаправленный характер, обеспечивающий достижение учебных целей.

Основные принципы коммуникативного метода обучения:

1. Принцип обучения речи на основе ситуаций. Использование этого принципа обосновывается тем, что общение всегда осуществляется в той или иной ситуации, вызывается и определяется ею. Ситуация – это основа функционирования общения. Весь процесс общения – это непрерывный динамичный ряд сменяющих друг друга ситуаций. Под ней понимается вся совокупность условий, необходимых и достаточных для того, чтобы осуществить речевое общение. К таким условиям относятся: наличие речевых партнеров; отношения между ними (ролевые, личностные, деятельностные и другие); средства связи (язык, жесты, сигнализация и т.п.); способы связи (устный-письменный, контактный-дистанционный и другие); тема, содержание общения. Каждый из этих факторов определяет степень эффективности общения.

2. В традиционной системе обучения главным фактором речевой деятельности, отправной точкой отсчета является тема. Различие между ситуацией и темой заключается в том, что ситуация – это то, что порождает проблему для общающегося человека, которую он должен решить. Именно наличие коммуникативной проблемы, задачи обеспечивает истинную ситуацию, способную служить стимулом и основой обучения. Следовательно, для обучения языку как средству общения необходимо организовать речевой материал вокруг ситуаций. Содержательной «начинкой» ситуации следует считать проблемы, соответствующие интересам данной аудитории.

3. Принцип приоритета практики заключается в такой организации обучения, когда учащийся постоянно вовлечен в процесс практического использования языка, то есть в процесс речевого общения. Данный принцип реализуется через совокупность следующих правил:

- не пренебрегайте теорией, но помните, что критерием истины является практика;
- теорию изучайте не столько для того, чтобы ее знать, сколько для того, чтобы применять ее на практике;
- доводите, насколько это возможно, все свои идеи, замыслы и намерения до практической реализации;

4. Принцип сотрудничества и сотворчества учителя и учащихся.

Поскольку общение – это не воздействие одного человека на другого, а их взаимодействие как партнеров, то в процессе обучения пересмотрелись отношения учителя и ученика. Их отношения на уроке должны быть не субординативными, где поведение обусловлено социальным статусом коммуникантов, а личностными, эмоциональными, заинтересованными. Принцип сотрудничества и сотворчества педагога и ученика можно раскрыть через следующие правила:

- создание на уроке доверительную, непринужденную атмосферу общения;
- помнить, что отношения между учителем и учеником должны быть равноправными, партнерскими;
- сотворчество – это совместное творческое решение проблем совершенствования речевой культуры;

5. Принцип развития мыслительной и речевой активности и самостоятельности учащихся. Речевое развитие учащихся невозможно без развития мышления, интеллекта, поскольку именно мышление управляет речью. А мышление можно развивать путем постановки коммуникативных задач. Следует также отметить, что чем больше самостоятельности проявляют ученики при решении какой-либо задачи, тем более эффективным будет усвоение и выполнение речевой деятельности. Поэтому при организации коммуникативного обучения следует уделять как можно больше внимания развитию самостоятельности мышления.

6. Принцип речевой направленности обучения. Коммуникативность обучения предполагает использование не языковых, а речевых упражнений, которые отличаются от первых наличием речевого партнера, речевой задачи, осуществлением определенного воздействия на собеседника.

7. Принцип индивидуализации обучения. Коммуникативность включает в себя индивидуализацию обучения, под которой понимается учет индивидуальных и прежде всего личностных свойств ученика: жизненного опыта, эмоциональной сферы, мировоззрения, склонностей, интересов. Все это позволяет создать полноценную мотивацию. При таком подходе учитель подбирает для ученика такие коммуникативные задачи, которые затрагивают его за живое, вызывают потребность вступить в общение, поделиться своими мыслями, чувствами, переживаниями. Требование индивидуализации основано на учете индивидуальных особенностей учащихся. Преподаватель руководится не только общими методическими и дидактическими принципами, но принимает в расчет способности учащихся, деятельность отдельных учеников. Им должна быть предоставлена возможность выбора таких способов усвоения материала, которые присущи их личностной характеристике и их индивидуальному когнитивному стилю.

8. Принцип функциональности. Функциональность как принцип проявляется в процессе обучения в том, что объектом усвоения являются не речевые средства сами по себе, а функции, выполняемые данными средствами. Отбор и организация материала осуществляются в зависимости от необходимости выражения учащимися тех или иных речевых функций: извинения, благодарности, просьбы, отказа, похвалы, убеждения, сообщения и т. П. Принцип функциональности проявляется также в текстовой основе подачи речевого материала. Это означает, что каждая новая тема должна изучаться на материале текстов, а не разрозненных словосочетаний или предложений, никак не связанных между собой.

9. Принцип новизны. Коммуникативное обучение строится таким образом, что все его содержание и организация проникнуты новизной:

- это новизна содержания материала, постоянная смена проблем обсуждения;
- новизна формы уроков (урок-дискуссия, урок-пресс-конференция, урок-экскурсия, урок-защита проекта);
- новизна видов и приемов работы;
- новизна речевых партнеров (образование новых групп);
- новизна ИКТ и иллюстративной наглядности.

Таким образом можем сделать вывод, что коммуникативное обучение иностранному языку – скорее подход, нежели метод. Хотя определенная часть теоретического содержания может быть описана на уровнях теории языка и обучения, на уровнях учебного плана и аудиторной деятельности, в рамках коммуникативного обучения иностранному языку существует гораздо больше свободы для личной интерпретации и разнообразия, чем это позволительно в рамках метода.

Основой коммуникативного подхода является понятие коммуникативной компетенции, введенное американским лингвистом Д. Хаймсом и широко используемое в методике преподавания иностранных языков. Компетенция же определяется, прежде всего, как круг вопросов, в которых кто-нибудь хорошо осведомлен. Необходимо подчеркнуть, что в рамках иноязычной коммуникативной деятельности коммуникативную способность рассматривается как совокупность навыков и умений, реализуемых взаимодействием невербальных и вербальных средств общения в неподготовленном коммуникативном акте, конечным продуктом которого является текст диалога. Идея ситуативности, зафиксированная одним из ведущих методических принципов, находит отражение в рамках коммуникативного подхода к обучению и предполагает навыки и умения осуществлять общение в форме естественной диалогической (полилогической) речи. Следовательно, обращение к коммуникативному подходу при обучении студентов является необходимым, поскольку данный подход во многом предполагает обучение именно иноязычной речи.

Коммуникативная компетенция относится как к знанию, так и к навыку в «реальном общении». Под знанием понимается все то, что человек знает сознательно и неосознанно о языке и других аспектах использования языка. Навык же соответственно относится к тому, насколько хорошо это знание реализуется в реальном общении.

Р. П. Мильруд включает в состав коммуникативной компетенции четыре основных компонента:

- грамматический (знание грамматики, лексики и фонетики);
- прагматический (знание того, что сказать в определенной ситуации определенным людям);

- стратегический (знание, как сказать в различных обстоятельствах);
- социокультурный (знание общественного этикета, национального менталитета, ценностей и т.д.).[11]

Но необходимо отметить, что при организации иноязычной коммуникативной деятельности у учащихся возникают определенные трудности.

1. Первая трудность состоит в том, что не все ошибки при овладении иностранной коммуникативной деятельности аналогичны. Не все грамматические неточности, которые допускает учащийся, могут считаться несущественными носителем языка, по причине их неожиданности или сложности для понимания.

2. Вторая трудность заключается в том, что не все учащиеся хотят концентрировать свое внимание исключительно на передаче задуманного смысла.

3. Третья трудность – проблематичность развития грамматической правильности, если главной с самого начала является передача смысла. В данном случае может сформироваться более или менее устойчивая индивидуальная коммуникативная деятельность, которая может отвечать основным потребностям общения в учебной обстановке, однако при этом она может не соответствовать полностью языковым системам, используемым носителями языка.

Анализ путей развития коммуникативной методики свидетельствует о том, что коммуникативный подход сформировался как самостоятельное концептуальное целое, благодаря достижениям функциональной лингвистики и грамматики. Функциональная лингвистика, отделившись от структурной, характеризуется функционированием языка как способа общения, в силу чего она, исследуя семантическую и коммуникативную стороны языка, обосновывает пути организации процесса овладения языком, исходя из категорий значения и функций, а не структурных элементов.

Иноязычная речевая деятельность, как объект обучения иностранных языков, определила возникновение и развитие ряда методов, относимых к группе деятельностно-личностно-коммуникативных. В центре внимания коммуникативных методик находится формирование коммуникативной компетенции, уделяется большое внимание учету личностных особенностей учащихся, коммуникативной мотивированности учебного процесса. Технология коммуникативного метода обучения – обучение на основе общения (коммуникации) – реализуется в таких современных методических разработках как игровой, групповой, проблемный, проектный, модульный методы обучения и др., а также в целом направлении, известном как интенсивное обучение иностранных языков.

Литература.

1. Пассов Е. И. Концепция коммуникативного иноязычного образования: методическое пособие для русистов. М., 2007. С. 145.
2. Лазарева О. А. Школа тестера Осипова. 2011. С. 115.
3. Петрова Н. С. Видеофильмы в практике преподавания РКИ и новые технологии // Русский язык: исторические судьбы и современность: международный конгресс 13.03-16.03.2001 г.: труды и материалы. М., 2001. 109 с.
4. Зимняя И. А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. М.: Просвещение, 1985, стр. 160.
5. Шатилов С. Ф. Иностранный язык в средней школе. О сознании рациональной методики обучения иностранным языкам в средней школе. 1990, № 2, стр. 50.
6. Волошина Н.Н. «Творческая педагогика», №3 2001г.
7. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. –М.:Русский язык, 1991.-223с.
8. Шарняс В.И. Об основном методе обучения. -РЯНШ, 1991, №3. С.22-28.
9. Леонтьев А.А. Речь и общение. / Иностранные языки в школе. 1994 №6.
10. Сальникова Т.П. Методика преподавания грамматики, правописания и развития речи. М.: 2001.
11. Янченко В.Д. Интерференционные ошибки как коммуникативная проблема и способы их преодоления в практике преподавания РКИ // Научно-исследовательские разработки. Современная коммуникативистика, 2013, №2 (3).

Nishonbekova Jadira O'rinbojevna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
tayanch doktoranti

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MUSIQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Annotatsiya. Maqolada musiqa savodxonligi faqatgina nota va nota yozuvlari haqida tushunchalar berish bilan chegaralanmasdan, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini, shu jumladan, musiqaning ifoda vositalari, oddiy musiqa shakllari, janrlari, major va minor ladlari haqida tushunchalar berishning ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: hissiyot, idrok, janr, major, minor, xotira, musiqiy did, musiqa shakllari, mumtoz musiqa.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧЕНИКОВ МЛАДШИХ КЛАССОВ

Аннотация. В статье рассмотрено, что музыкальная грамотность не ограничивается пониманием не только нот и обозначений, но и общего уровня музыкальных знаний учащихся, включая средства музыкальной выразительности, простые музыкальные формы, жанры, мажорные и минорные гаммы.

Ключевые слова: эмоция, восприятие, жанр, мажор, минор, память, музыкальный вкус, музыкальные формы, классическая музыка.

WAYS TO INCREASE MUSICAL LITERACY OF JUNIOR CLASS STUDENTS

Abstract. In the article, it has been observed that musical literacy is limited to understanding not only notes and musical notations, but also the general level of musical knowledge of students, including the means of expression of music, simple musical forms, genres, and major and minor scales.

Key words: emotion, perception, genre, major, minor, memory, musical taste, musical forms, classical music.

Kirish. Yosh avlodga har tomonlama puxta bilim berish, ularni vatanimizning yetuk kishilari qilib tarbiyalashda maktab muhim rol o'ynaydi. Maktab jamoasi o'quvchiga bilim berish, uni shaxs sifatida kamol topib voyaga yetishida katta xizmat qilishi bilan birga ularni musiqa san'ati olamiga olib kiradi, go'zallikka bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiradi. Respublikamizda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, barcha o'quv fanlari qatori, musiqa madaniyati fani uchun ham zamon talabi asosida yangi dastur yaratildi. Dastur asosida yangi o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratildi. Chunki musiqa o'z tabiatiga ko'ra, inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish xususiyati bilan birga o'quvchilarni nafosatga olib kirish va axloqiy-g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir [1].

Asosiy qism. "Musiqqa madaniyati" fani dasturida, o'quvchiga musiqa ta'limini berish bilan bir qatorda, uning ijodkorlik qobiliyatini o'stirish, vokal-xor malakalarini rivojlantirish, musiqani idrok etish, musiqiy savodxonligi, ritmik jo'r bo'lish kabi mahoratlarini oshirish alohida uqtirilgan. Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda musiqa ta'limining poydevori quriladi. Unda musiqaga oid barcha bilimlar (xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqaga xos harakatlar bajarish, bolalar cholg'u asboblari ritmik jo'r bo'lish) beriladi. Musiqa savodi mustaqil dars faoliyati sifatida amal qilinmay, balki boshqa faoliyatlar jarayonida musiqa asarlarini badiiy o'rganish va ijro etish usullarini savodxonlik asosida bajarish uchun qo'llaniladi. Bir so'z bilan aytganda, musiqiy savodxonlik darsning ta'limiy vazifasini bajaradi. Musiqa ta'limidan Davlat ta'lim standart asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazni tasavvur qilish, ijodkorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Mazkur standartda umumiy o'rta ta'lim doirasida o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan zaruriy bilim va malakalar majmuyi bayon etilgan. Shuningdek, boshlang'ich musiqa savodxonligi bo'yicha barcha bilimlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat mashg'ulotlar (tinglash, jamoaviy ijro, musiqiy harakatlar) berilgan mavzudagi asar o'rganiladi va uning xususiyatlari haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois, boshlang'ich musiqa savodi faqatgina nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'lmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi tushunchalar majmuasini tashkil etadi [4].

Boshlang'ich sinf musiqa savodxonligida musiqiy tovushlardan tortib, atamalar, sur'at (temp)lar, intervallar, alteratsiya, dinamik belgilar, musiqaning ifoda tili, oddiy musiqa shakllari va janrlar, major hamda minorlarga qadar bo'lgan nazariy bilimlar haqida tushunchalar beriladi. Maktab musiqa madaniyati darsliklardagi musiqa savodxonligi faoliyatiga nisbatan turli qarashlar mavjud. Metodist, nazariyotchi va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan maktabda "Musika savodxonligi" atamasining mohiyati turlicha talqin etilishini alohida qayd etib o'tish joiz. Uzoq yillar musiqa savodxonligi, uning elementar nazariyasini o'quvchi yoshlar ongiga singdirish borasida turli metod, usullardan foydalanish borasida ham har xil yondashuvlar bo'ldi. Achinarlisi shuki, musiqa savodi o'quvchilarga tushuntirilmasdan quruq qoida sifatida yodlatish hollari ro'y berdi. Natijada musiqa savodxonligini tarkib toptirish masalalariga munosabat turlicha darajada bo'ldi. Sohaning ayrim mutaxasislari musiqa savodi- bu musiqaning elementlar nazariyasi bo'lib, musiqiy nutq haqida ma'lumot berilishi ya'ni uning asosida nota savodining tasavvur etishini bildiradi deb hisoblashsa, bu nuqtayi nazarga qarshi ba'zi mutaxasislar esa musiqa savodini musiqiy ta'limning shunday qismidirki, unda musiqa haqida barcha ma'lumotlarni (uning uslubi, shakllari, ifodalilik elementlari, yozuv uslublari, musiqa asarining mualliflari va ishtirokchilari v.b) beradi, deb ta'riflashadi [3].

Musiqa savodxonligining mazmuni turlicha tushunilishi, uni amaliyotda o'qitish yo'llari turli mazmunda amalga oshiriladi. Ayrim hollarda musiqa savodxonligi elementlari ilk darslardan oq kiritiladi (masalan, musiqa tovushlari, o'zining balandligi va cho'zimi, bir-biridan farq qilishi va h. k). Boshqa nuqtayi nazarga ko'ra barcha nazariy tushunchalar, ma'lumotlar bolalarga musiqaga ancha yaqin bo'ladigan, ya'ni u bilan yaqindan oshno bo'lgandan keyin berilishi maqsadga muvofiq degan g'oya ilgari suriladi [2].

Shaxsning milliy o'z-o'zini anglashi, vatanparvarlik ruhida fikrlashi, yuksak ma'naviyati va fuqarolik fazilatlarini shakllantirish – mamlakatimizning ustuvor strategiyasi va ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Turli xil janrlar, shakllar, ma'lum bir joyga xos uslublari va ijro yo'sinlariga ega bo'lgan o'zbek xalqining g'oyat boy milliy merosi, xususan, folklori bunga fundamental asos va mustahkam platforma bo'lib xizmat qiladi [5].

O'quvchilarda musiqiy-estetik kompetensiyalar o'z-o'zini baholay olish ko'rsatkichlariga oid loyihaviy prognostik usullar va emotsional, obrazli ifodaviy- estetik gimnastik mashqlar ketma-ketligini belgilash asosida takomillashtirilgan. Yuqorida ta'kidlab o'tilgandek, shaxsning milliy o'z-o'zini anglashi oliy ta'lim tizimida ta'lim samaradorligini ko'rsatuvchi omillardan biridir. Shaxsning o'z-o'zini anglashi o'z-o'zini baholay olishiga asos bo'lib xizmat qiladi. O'zini anglash, o'zini baholash xususiyati boshqa kishilar bilan munosabat jarayonida, birgalikdagi faoliyat vaqtida tarkib topadi. Eng avvalo, o'zida qobiliyatning qanday xislatlari borligini o'rganishi kerak [6].

Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi. Demak, o'zini o'zi rivojlantirish – insonning o'zini shaxs sifatida to'la namo'ën etishga yo'naltirgan ongli faoliyati. O'zini o'zi rivojlantirish faoliyatning maqsadlarini aniq anglashni va uning mavjudligini, ideallar va shaxsiy yo'nalganlikni nazarda tutadi [163].

O'z-o'zini baholay olish ko'rsatkichlariga oid loyihaviy prognostik usullar sifatida ishda loyihalash va prognostik usullarni integrativ qo'llanishini ko'zda tutilgan. "O'quv loyihasi" tushunchasi keng qamrovga ega bo'lib, quyidagi mazmunga ega: muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish usuli [7].

Umumta'lim o'rta maktab o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirishda musiqiy tushunchalarni mazmunan-hissiy interpretatsiya qilish bilan birga kasbiy kompetensiyalarni o'z-o'zini baholay olish kabi ta'lim berish tamoyillarining tadrijiy dinamikligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning musiqiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirishda ta'lim berish tamoyillarining tadrijiy dinamikligida sekin-asta, daraja-badaraja sodir bo'ladigan, evolutsion davomiylik nazarda tutiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyada pedagogik prognostik usullaridan foydalanishda ta'lim jarayonini tashxis qilish va yaratilgan nazariyalar, o'quv-metodik majmualar tajriba-sinov asosida amaliyotga joriy qilishning metodologik asoslari, aniq mexanizmlari, usullarini ishlab chiqish va qo'llash ko'zda tutiladi.

Prognostik usullaridan foydalanishning asosiy mohiyati har bir shaxsda mavjud bo'lgan uning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ularda ijobiy xislat va fazilatlarini shakllantirish, rivojlantirish sanaladi.

O'quvchilarda musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda emotsional, obrazli ifodaviy-ritmik gimnastik mashqlardan foydalanish ketma-ketligini belgilashda ularning xususiyatlari va vazifalariga tayanildi. Emotsional bu ma'lum bir harakterdagi kuy yoki musiqani his qilish orqali uni ritmini topish yoki ritmik mashq bajarish. Obrazli ifodaviy deganda dars jarayonida o'quvchiga aynan bir obraz beriladi va o'quvchi shu obrazni ifodalovchi ritmik mashq bajarishi kerak. Misol qilib Karl Buxerni "Rabota i ritm" kitobida eshkakchilar, qayiqchilar yoki ishchilar qo'shiqlarini misol keltirish mumkin. Emotsional mashqlar esa bu ma'lum bir harakterga yoki lirik ohangga ega bo'lgan musiqani ritmik mashqlar orqali yangrayotgan harakterini ifodalash. Misol qilib, P.Chaykovskiyning "Detskiy albom" fortepiano uchun yozilgan asarini keltirish mumkin.

O'quvchilarda musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda ritmik gimnastik mashqlardan foydalanishda aytish lozimki, ritmik gimnastik mashqlar - asosan badanni jismoniy qizdirib olish va dars jarayonida o'tiladigan mashqlarga tayyorgarlik sifatida o'quvchilarga berilishi ko'zda tutiladi. Bunda o'qituvchi musiqiy cholg'u jo'rligida yoki jo'rligisiz ritmik gimnastik mashq beradi.

O'quvchilarda musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda o'zbek raqslari, ularning mintaqaviy o'ziga xosliklarini va harakatning umumiy maqsadi kontekstida shaxsning idividuallashishini ifodalovchi erkin harakat shakllari asosidagi raqs madaniyati yo'nalishini o'rganish asosida, harakat shakllarini tashkil etish masalasi qo'yiladi. Tadqiqotda o'zbek folklori merosining tarixiy shakllangan janrlariga, kompozitorlar musiqasiga va mamlakatimiz taniqli o'qituvchilarining pedagogik amaliyotida qo'llaniladigan amaliy mashqlarga tayaniladi.

Shaxsan tafakkurini boyitmasdan turib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jabhalardagi vazifalarni bajarish, an'ana, istiqloq mafkurasi kabi tushunchalarni to'la to'kis yaratish mumkin emas. Ko'p asrlik rivojlanish yo'lini bosib o'tgan folklor, ajdodlarimiz madaniy merosining noyob hazinasi bo'lib, ulkan tarbiyaviy salohiyatga ega.

Musiqasi san'atining har bir inson ijtimoiy hayotidagi o'rni beqiyos ekanligi hech kimga sir emas. Ular o'tgan yuz yilliklarda O'zbekistonning u yoki bu hududlari aholisi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarining etnik umumiy va o'xshash bo'lishi natijasida vujudga kelgan. Hududlar turmushining ayrim xususiyatlari, ashula va cholg'u janrlari, musiqasi asboblari bilan bir-biridan farq qiladi. Xalq musiqasi tarkiban va tabiatan sinkretik san'atdir. Xalq musiqiy ijodi o'z mohiyati bilan monotipdir. U xalq hayoti va maishiy turmushining aksi bo'lib, mavzularning serqirraligi va janrlar xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Xalq musiqasida, uning bajaradigan vazifalaridan kelib chiqqan holda, boshqa xalqlarda bo'lgani kabi, qo'shiq va cholg'u pesalarining guruhlarini: ma'lum vaqtlarda, biror narsaga atab ijro etiladigan; u yoki bu sharoitga bog'liq bo'lmagan holda, istalgan vaqtda ijro etiladigan guruhlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi guruhdagilar marosimlar, mehnat jarayonlari, bayramlar, turli udumlar, teatrlashtirilgan tomoshalar, o'yinlar bilan bog'liq. Ushbu guruh oilaviy-marosim qo'shiqlari (to'yda aytiladigan "Yor-yor", "Kelin salom", "O'lan" va boshqalar); mavsumiy qo'shiqlar (Navro'z marosimlari va boshqalar); mehnat qo'shiqlari (don yanchish va o't o'rishda aytiladigan "Mayda" va "Yozi"; qo'l tegirmonini ishlatishda ayollar aytadigan "Yorg'uchoq"); allalar, o'quvchilar o'yin qo'shiqlari va boshqalar. U yoki bu sharoitga bog'liq bo'lmagan holda, istalgan vaqtda ijro etiladigan qo'shiqlari, aksincha, tematikaning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ularga hamma joyda ijro etiluvchi qo'shiq janrlari: terma, lapar, yalla va ashulalarni kirgizishimiz mumkin.

Cholg'u musiqasiga turli tarixiy davrlar ta'sir ko'rsatib, xalq cholg'u musiqasining janrlari va uning tuzilishi ko'p yillar davomida to'y va boshqa marosimlarda, xalq sayllari va bayramlarda shakllandi.

O'zbekistonda musiqasi asboblari boy va xilma-xil. Torli-kamonchali asboblari orasida g'ijjak, sato, qo'biz, setor; chertib chalinadigan torlilardan do'mbira, dutor, tanbur, ud, afg'on (yoki Buxoro) va koshg'ar ruboblari; torli-zarbli asboblardan chang; tilchali puflab chalinadigan sibizg'a, bulaman (balaban), surnay, qo'shnay; fleytali chalinadigan nay, gajir nay; misli puflab chalinadigan - karnay; zarbli - doira, nog'ora, chindaul, safoyil, qoshiq va boshqalar bor [16]. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, zarbli cholg'ularda chalish barcha xalqlarda ham eng zavqli va zaruriy mashg'ulot hisoblanadi. O'zbek ansambllarining o'ziga xos hususiyati uning ijrosining osonligidir.

O'qituvchi o'quvchilarning ritmik qobiliyatlarini to'laqonli rivojlanishini ta'minlash uchun (qobiliyat - faoliyat jarayonida namoyon bo'luvchi imkoniyatdir. Musiqasi qobiliyatining turlari va ularning xususiyatlari. Musiqasi qobiliyati - bu tovushlar o'rtasidagi aloqani seza olish qobiliyatidir.

Yuqorida aytib o'tilganlardan musiqasi qobiliyati hodisasining o'zi g'oyat murakkab va ko'p qirrali ekani haqida xulosa chiqarish mumkin. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ba'zi o'quvchilarda yaxshi intonatsion eshitish qobiliyati bo'lgani holda, metroritm hissi sust rivojlangan, boshqalarda garmonik

eshitish qobiliyati rivojlangan, biroq melodik eshitish qobiliyati yetishmaydi va hokazo. Shu bois musiqa qobiliyatining sifati uning barcha shakl va tomonlarining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

O'zbekiston folklor merosining murakkab va ko'p pog'onali tizimi, birinchi navbatda, qo'shiqlari to'g'risida tasavvurlarga ega bo'lishi lozim. O'zbek xalq musiqasida turli janrlar mavjud – kuy, terma, lapar, yalla, qo'shiq, ashula kabi aytim janrlari, shuningdek, dostonchilik, ashulachilik, maqomchilik kabi kasbiy musiqa an'analari o'z aksini topgan. O'zbek qo'shiq folklorida ko'plab turlar mavjud bo'lib, ularning tasnifi taniqli olim R.S.Abdullayev tomonidan o'rganilgan.

Dissertatsiya mavzusining folklor qismini yozishda san'atshunoslik fanlari doktori, professor R.Abdullayevning "Markaziy Osiyo xalqlarining marosim musiqasi" ("Obryadovaya muzyka narodov sentralnoy Azii") nomli ilmiy ishi kerakli manbaa bo'lib xizmat qildi. R.Abdullayevning bu asarida, nafaqat O'zbekiston merosida, balki, umumjahon merosi uchun ahamiyatli bo'lgan, O'zbekiston hududidagi barcha viloyat va qishloqlar, voxalardagi o'zbek merosining moddiy va nomoddiy boyligi hisoblangan o'zbek urf-odatlar va an'analari haqida keng yoritilib berilgan. R.Abdullayevning ko'p yillik izlanishlari tufayli yaralgan ushbu asar juda qimmatli va kerakli material hisoblanib, dissertatsiya muallifi ayni asarga tayanib, ilmiy ishdagi dolzarb muammoni o'z ish amaliyotidagi ta'lim usullari va uslublari bilan bayon etadi. Asarni qisqacha tahlil etadigan bo'lsak, "Obryadovaya muzyka narodov sentralnoy Azii" Markaziy Osiyo tub xalqlarining marosimlari va marosim musiqasini etnografik o'rganish bilan bog'liq masalalarni tadqiq etadi.

Mintaqaning bepoyon hududida yashovchi xalqlarning ma'naviy hayotida turli-tuman odatlar, udumlar, rasm-rusumlarga ega marosim va bayramlar katta o'rin tutadi. Bunda ijtimoiy-psixologik omillar, diniy marosimlar va udumlar, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar me'yorlari – folklor belgilovchi rol o'ynaydi. Odat-marosim-bayram triadasi avlodlarning muhim ijtimoiy aloqasini aks ettirib etnomadaniy an'ana sifatida saqlanib kelmoqda. Jamiyat musiqa ishtirokidagi bayramlar, udumlar, marosimlarda aks ettiriladigan hayot timsolida o'zini ifodalaydi. Uning marosimdagi o'rnini aniqlash uchun inson ijtimoiy faolligining turli shakllari – bayram, udum, marosim, odat va boshqalarning o'zaro qanday munosabatda bo'lishini aniqlash muhim.

Udumlar va marosimlarning ma'nosi uning harakatlarini tashkil etuvchilarda emas, balki ularning ramzi bo'lgan narsalardan joy olgan. O'z navbatida, udum – g'oyalar, ahloq me'yorlari, qadriyatlar va his-tuyg'ularni, insonning ma'naviy talablari tufayli vujudga keladigan marosimga oid harakatlarni berishning alohida usulidir. Ular insonning muayyan vaziyatda o'zini qanday tutishi haqida batafsil "ko'rsatma beradi", "ushbu vaziyatda nima qilish kerak (yoki kerak emasligini) aniq belgilaydi". Agar "odat" inson hayotining barcha sohalarini o'zida mujassam etsa, "udum" faqat uning ayrim tomonlariga taalluqli bo'ladi. Bunday holatda odat odatdagi yoki maxsus tashkil etilgan harakatlardan (obrazlar), udum esa faqat muayyan odamlar – uning ishtirokchilari tomonidan bajarilishi kerak bo'ladigan maxsus harakatlardan iborat bo'ladi. Udum "urug'" tushunchasiga mos keluvchi odatning tarkibiy qismi bo'lsa, odatni ushbu urug'ga kiruvchi "tur" bilan taqqoslash mumkin.

Udum va bayram – xalq ma'naviy madaniyatining eng barqaror shakllari hisoblanadi. Bayramlarning genetik asosining ko'pchiligini insonning tabiat oldida zaifligi, uning obyektiv qonunlarini bilmasligi (ular irratsional (aql yetmaydigan), sehrlil deb bilingan turli marosimlarni paydo qilgan) keltirib chiqargan udumlar tashkil etadi. Tarixiy jarayon davomida an'analari deb ataluvchi ijtimoiy tajribaning saqlash va yetkazish shakllari, usul va mexanizmlari shakllandi. Ularni amalga oshirishda udum, odat va bayram alohida o'rin tutadi. Shu sababli olimlarning udumning kompleks xususiyatini, tizimli tabiatini, uning ijtimoiy munosabatlarning kengroq tizimiga kirishini tan olishda kelishilganligi ajablanarli emas.

O'troq dehqonchilik va ko'chmanchi xalqlar musiqa va she'riy san'atining ulkan qatlami qadim zamonlardan qolgan merosdir. Markaziy Osiyoda madaniy-maishiy turmush tarzi, dini va qo'shnligi bilan birlashgan ko'chmanchi va o'troq xalqlarning ikki yirik guruhi yashaydi. Ikki guruh udum marosimlarining o'ziga xos xususiyatlari komplekslarini tashkil etadi: o'tmishda, xo'jaligida chorvachilik eng muhim o'rin tutgan turkiy tilli xalqlar (qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, dashti qipchoq o'zbeklari) bilan bog'liq; xo'jalik faoliyatida dehqonchilik ustun bo'lgan turkiy tilli va fors tilli xalqlar (o'zbeklar va tojiklar). Xalqlarning udum komplekslarini qiyosiy tahlil qilish udum siklining bir necha asosiy guruhini oldindan belgilab qo'ydi: taqvimiy; oila-urug'doshlik; diniy marosim.

Guruhlardan har biri marosim musiqasi tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi; ular bir-biri bilan o'zaro bog'liq – yo biri, yo boshqasi udum sikliga kirgan, xususan bu sig'inish diniy marosim bo'lib u ham mavsumiy, ham oilaviy turmush bilan bog'liq. Shundan ularning maxsus funksiyalari va umumiy musiqiy voqeliklari kelib chiqadi. Ushbu guruhlardan har biri birgalikda aniq sikllarni tashkil etadi.

Birinchi guruh – udumga oid yil fasllari, tabiat hodisalari va mehnat jarayonlari bilan bog‘liq taqvimiy-mavsumiy sikl. Eng qadimiy marosimlar: “Navro‘z” – bahor va yangi yilning kirib kelishi; “Mehrjon” – kuzgi bayram, “Sada” – qishki quyosh turishi. Ularning barchasi dehqonlar homiysining nomi – Bobodehqon bilan bog‘liq.

Ikkinchi guruh – insonning hayotiy sikli: tug‘ilishi, balog‘atga yetishi, oila qurishi va vafot etishi bilan bog‘liq oila-urug‘ udumlari. Ushbu siklda hayotiy va ijtimoiy ahamiyatga ega o‘tishlar o‘z aksini topgan, zero oilaviy udumlarning har bir sohasi oddiydan ancha rivojlangan qo‘shiq-cholg‘u sikllarigacha bo‘lgan xalq qo‘shiqlari va kuylari doirasini shakllantirdi.

Uchinchi guruhni diniy bayramlar (Ramazon, Qurbon hayiti), shuningdek darveshlar zikri, kasalliklar, farzandlarning tug‘ilishi va dafn bilan bog‘liq udumlar sikli.

Markaziy Osiyo xalqlarining udumlar kompleksi, o‘zining hayotiy yo‘nalishi va etnologiyasi bo‘yicha, o‘z navbatida uchta yirik siklga bo‘linadi. Har bir sikl insonning hayot faoliyatida muayyan doirani qamrab oladiki, bular yillik udumlar sikli – egat bayrami, bahorni kutib olish, ekin ekish, hosilni yig‘ib olish, farzand tug‘ilishi, to‘y tantanasi, dafn va hk. Hayotiy udumlar sikli, inson hayotining tug‘ilish, balog‘atga yetish, uning muhabbati, turmush tarzi va o‘limi bilan bog‘liq. Shu bilan birga u yoki bu (hayotiy yoki yillik) sikl muayyan doirada cheklanib qolmaydi, balki endi boshqasida davom etadi. Va bu yerda nafaqat muayyan sikl va janrlar, balki har bir sikl va doira ichidagi tur va shakllarni ko‘rib chiqish masalasi ko‘ndalang bo‘ladi.

Udum – sinkretik hodisa, unda harakat (o‘yin, raqs va dramatik tomosha elementlari), musiqa va so‘z chatishib ketganki, ko‘p hollarda komponentlardan qay biri birinchi darajali, qaysi biri esa ikkinchi darajali ekanini aniqlash qiyin. Ular shu qadar o‘zaro bog‘langan bo‘lib, dominatsiya, ya‘ni udumlarning rivojlanishi va shakllanishidagi komponentlar teng ishtirokli holatdadir. Musiqa-urf-odat merosi ikki turdan – vokal (marsiya va qo‘shiqlar) va cholg‘u asboblarda ijro etiladigan (xalq cholg‘u kuylari, usul, melodiya) turlardan tarkib topgan bo‘lib, ularning har biri marosimda muayyan (diniy-sehr-jodu, ijtimoiy-kommunikativ, utilitar, dekorativ, psixologik, estetik) vazifalarni bajargan. Urf-odat musiqasining janr tarkibini belgilashda, musiqiy folklorda amalda namoyon bo‘ladigan udumning dramaturgik mohiyatini ham nazarda tutish zarur.

Musiqani passiv tinglash, shuningdek, musiqiy va hissiy faoliyatning ko‘ngilochar turlari va janrlari, albatta, o‘quvchini rivojlantiradi, lekin ko‘rib chiqilayotgan shaxsning xulq-atvori va ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qodir emas. Ushbu asarlar juda asosli, ularda xalq poetik merosi tahlil qilingan bo‘lsada, ritmik xilma-xillik kam o‘rganilgan. Avvalo, bunday tuzilmalar barqaror va harakatchan, o‘zaro ta‘sir etuvchi ritmik tuzilmalardir. Masalan: barqaror: mehnat – paxta tozalash; harakatchan: har-xil o‘zgarib turuvchi; o‘zaro ta‘sir etuvchi: lirik qo‘shiqlar, marsiya, yig‘i.

Har bir janr o‘z ritmoformulasi bilan ajralib turadi. Pedagogning vazifasi o‘quvchilarni ular bilan tanishtirishdir. O‘zbek musiqa madaniyati qadimiy va rango-rang, ayni paytda yangi zamon an‘analarini o‘zida mujassam etgan holda rivojlanmoqda. O‘zbekiston hududidagi folklor janrlar va shakllar, xalq qo‘shiqchiligi va cholg‘u san‘atining mahalliy uslublari ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni chuqur o‘rganib pedagogik amaliyotga tatbiq etish talab qilinadi. Ushbu paragrafdan shunday xulosa qilish zarurki, o‘qituvchi xalq musiqasining asoslarini o‘rganishda, birinchi navbatda, o‘zbek xalq qo‘shiqchiligining ritmik tuzilmalarini rivojlantirishga ahamiyat qaratishi zarur bo‘ladi.

Badiiy-pedagogik material ehtiyotkorlik bilan tanlanishi kerak. Demak, lapar va mehnat qo‘shiqlarining mazmun mohiyati, ular asosida bajariladigan ritmik harakatlarni bilish, anglash, tushunish o‘quvchilarning shaxsi va milliy ongini shakllantiradi, ularning musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida musiqa savodxonligi malakalarini shakllantirish muhim pedagogik muammolardan biridir. Albatta, har bir fan, avvalo, uning nazariy asoslari orqali o‘zlashtiriladi. Musiqa savodxonligisiz ushbu san‘at turi, uning madaniyatidan bahramand bo‘lish, san‘at asarlariga yetarli baho bera olish mumkin emas. Zero, musiqa san‘atining qudratli imkoniyatlari eng avvalo tinglovchidan savodxonlikni talab etadi. Maktab musiqa madaniyati darsi jarayonida nota savodi, umuman musiqiy savodxonlikni o‘rganishning ahamiyati nihoyatda katta, notani bilgan o‘quvchi maktab va oilada, teatr va konsert zallarida yangraydigan turli janrdagi musiqa asarlarini yaxshi tushunadi hamda ma‘naviy ozuqa oladi, ikkinchidan, u o‘ziga yoqqan har qanday ommaviy kuy va qo‘shiqni qiynalmay o‘rgana oladi. Uchinchidan, musiqiy iste‘dodga ega bo‘lgan kishilar yangi musiqa asarlari ijod etish sharafiga ham muyassar bo‘la olishi mumkin. Musiqa madaniyati darslari materiallarini puxta o‘zlashtirish, ommaviy musiqa bayramlariga faol qatnashishni ta‘minlaydi. Zero, musiqa kishini yangi bir

olamga yetaklay, hayotni yangi jilolarda ko'rsatib, ezgu his-tuyg'ular uyg'otadi va kishini ijodiy mehnatga chorlaydi. Musiqa ohanglari insonga olam-olam ruhiy ozuqa berish bilan birga, aqliy rivoj topishida, har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishiga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston"- 2017-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5763 son Farmoni
3. Umumiy ta'lim maktablari musiqa dasturi. Toshkent "O'qituvchi"- 1996
4. Nurmatov H., Norxo'jayev A. "Musiqa alifbosi" Toshkent "O'qituvchi"- 1998
5. Musiqa madaniyati fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi "Boshlang'ich ta'lim" jurnali 2007-yil 8-avgust
6. Инуакина Н.В. Детская школа искусств в пространстве инклюзивного образования. В сборнике: Инновационные методы профилактики и коррекции нарушения развития у детей и подростков: междисциплинарное взаимодействие. Сборник материалов II Международной междисциплинарной научной конференции. Под общей редакцией О.Н.Усановой. 2019. С. 265-269.
7. Davletov U. O'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 / Issue 4 / 2022. 372-379-b.
8. Sharipova G.N. Pedagogik ta'lim klasteri sharoitida o'quvchilarda o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish / ped. fan. fals. dokt. diss. T.: 2021. -B. 21-23.
9. Xodjayev B., Urazova M. Pedagogning loyihalash madaniyati / O'quv uslubiy majmua. Toshkent – 2016. Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016 yil 6 apreldagi 137-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlangan. 161 b

Исламова Гулчехра Ташпулатова
Доктор философии PhD, и/о доцент кафедры педагогики начального образования ТГПУ им. Низами
E-mail.islamovagulchexra1973@gmail.com

Ходжамбердиева Камила Равшановна
Магистрант 2 курса кафедры педагогики начального образования ТГПУ им. Низами
E-mail.kamila.xodjamberdiyeva@gmail.com

КРЕАТИВНО-ОРГАНИЗАЦИОННАЯ МОДЕЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. Статья посвящена проблеме обеспечения профессиональной компетентности учителя начального образования, в частности учителя школы. Приводится определение понятия «компетентность», раскрываются его структура и входящие в нее педагогические умения.

Ключевые слова: профессиональная компетентность педагога, учитель начальной школы, педагогические умения, педагогическое образование.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI KASBIY TA'LIM OLIISHINING IJODIY-TASHKILOT ROLI

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining, xususan, maktab o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini ta'minlash muammosiga bag'ishlangan. Biz "kompetentlik" tushunchasini aniqlaymiz va uning murakkabligi va unga kiritilgan pedagogik bo'lmagan ko'nikmalarni ochib beramiz.

Kalit so'zlar: kasbiy shubha, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, yomon malaka, o'qimagan ta'lim.

CREATIVE-ORGANIZATIONAL MODEL OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS

Annotation. This article is dedicated to the problem of ensuring the professional competence of primary education teachers, in particular school teachers. We define the concept of "competence" and reveal its complexity and the non-pedagogical skills included in it.

Key words: professional doubt, primary school teacher, poor skills, uneducated education.

На современном этапе педагогическое образование развивается в контексте качественных изменений профессионального труда учителя, где умелое решение проблем выдвигается на передний план в противовес информированности обучаемого в образовательном процессе, в отличие от традиционных представлений о педагогической деятельности, регулируемой нормами стандартизованного поведения в повторяющихся ситуациях, кардинально меняются цели, содержание, требования к качеству подготовки будущего педагога. В условиях введения стандартов особая роль в их качественной реализации принадлежит педагогу начального образования. При этом деятельность педагога рассматривается как активное инновационное реагирование на конкретные ситуационные взаимодействия субъектов образовательного процесса, где фактором успешности выступает модель профессионального поведения, адекватная оптимальным условиям развития субъекта воздействия.

Анализ психолого-педагогической литературы показывает, что в современной социально-экономической ситуации, когда происходит модернизация социальных функций учителя, изменение системы ценностей, характеризующих готовность к принятию решений, развитие индивидуальности и стиля мышления обеспечивается подготовкой в вузе, где происходит вхождение в мир профессиональной деятельности, формирование мировоззрения, осознание контуров будущей профессии, а также овладение профессиональными компетенциями. Студенты – вчерашние выпускники общеобразовательных школ, не воспринимают свою учебную деятельность как познавательную активность по освоению одновременно профессиональной деятельности и системы соответствующих ей компетенций. Это обостряет потребность в интенсивной подготовке педагога начального образования в вузе, где только начинается переход на новую систему высшего профессионального образования, ориентированного на компетентностный подход, которое развивало бы профессиональную познавательную активность будущих педагогов

начального образования, их способность к саморазвитию. Профессионально-педагогическая познавательная активность будущих педагогов начального образования – системообразующий фактор в подготовке и становлении профессионально-компетентного специалиста, обеспечивающий интеллектуальное и познавательное развитие личности как фундамент приобретения профессиональной компетентности. Задачей высшего профессионального образования является необходимость самообразования, обусловленная высоким уровнем развития познавательной активности будущего педагога начального образования в процессе обучения в вузе, где нет достаточной разработанности его системного дидактического составляющего на данный период развития образования. Следовательно, проблема обеспечения профессиональной компетентности учителя является объектом дискуссии психологов, педагогов, физиологов, вследствие чего отсутствует общепризнанный подход в определении сущности и структуры.



По мнению Т.Г. Браже, М.Н. Скаткина, С.А. Смирнова и др., в определении профессиональной компетентности специалиста, работающего в системе «человек – человек», отмечая многофакторность анализируемого явления, в качестве базовых выделяют научные знания и умения, а также ценностные ориентации как интегративные показатели его культуры (речь, стиль общения, отношение к себе, своей деятельности, смежным областям знания), включая способность к развитию творческого потенциала [1; 5; 7]. Сравнительно-сопоставительный анализ психолого-педагогической литературы позволяет выделить несколько подходов к изучению профессиональной компетентности учителя начальных классов:

- ✓ процессуальный, предполагающий исследование качества подготовки к деятельности специалиста в ходе учебно-воспитательного процесса, контрольно-диагностических процедур;
- ✓ личностный, ориентированный на оценку знаний и умений, мотивационный компонент, профессионально значимые личностные качества педагога;
- ✓ результативный, характеризующий степень усвоения учащимися содержания учебных программ, приобретения опыта репродуктивной и творческой деятельности в конкретной области, изменение эмоционально-ценностных отношений к содержанию учебного предмета и деятельности.

Обобщая вышеизложенное, представляется возможным определить профессиональную компетентность учителя сельской школы как совокупность личных качеств, способствующих успешному решению задач обучения и воспитания, готовность к сохранению и развитию образовательной среды как особого источника педагогического воздействия на подрастающее поколение. Образовательная среда является частью социокультурной среды и определяется исследователями как комплекс специально организованных психолого-педагогических условий, в результате взаимодействия с которыми происходит развитие и становление личности. Чем больше и полнее личность использует возможности среды, чем полнее среда наполнена возможностями реализации для личности, тем более успешно происходит ее свободное и активное саморазвитие: человек одновременно является продуктом и творцом своей среды, которая дает ему физическую основу для жизни и делает возможным интеллектуальное, моральное, общественное и духовное развитие.



Очень важно обеспечение психологической безопасности во взаимодействии участников образовательной среды. Образовательное пространство имеет качественные характеристики, позволяющие полноценно удовлетворять потребности в развитии, социализации и культурной идентификации детей и молодежи при обязательном соблюдении их безопасности. Организационной структурой, обеспечивающей решение этих задач, выступает образовательная система. Она включает в себя отдельные образовательные учреждения, психолого-педагогическая суть которых заключается в создании образовательной среды.

В структуре профессиональной компетентности будущего учителя сельской школы нами выделяются педагогические умения: гностические, проектировочные, конструктивные, организаторские, коммуникативные, исследовательские и т.д., каждая из которых состоит из совокупности умений. **Гностические умения** позволяют учителю управлять педагогической системой, включают в себя действия по изучению особенностей школьников и коллектива, изучение процесса и результатов педагогической деятельности, анализ учебного материала, выбор учебных пособий и средств обучения в соответствии со сложностью содержания учебной темы, характера познавательной деятельности учащихся. В стратегии модернизации образования приоритетное место среди ключевых компетенций занимает познавательная компетенция, основанная на усвоении способов получения знаний из различных источников, определяемая как готовность к индивидуальной познавательной деятельности, соответствующей системе принципов, ценностей и методов познания. С этих позиций образовательные учреждения должны способствовать не только освоению обучающимися основ различных наук, но и расширению индивидуальных познавательных ресурсов в ходе овладения содержанием той или иной учебной дисциплины.

Проектировочные умения обеспечивают возможности проектирования различных видов образовательной деятельности, выстраивания содержания учебной информации с формированием образа конечного результата, осуществления отбора и структурирования учебного материала, обоснования оптимальной системы занятий, планирования учебного процесса учащихся и собственной профессиональной деятельности. Предполагает выделение специальной группы умений, разработку проекта образовательно-воспитательной работы, определение содержания и видов деятельности, осуществление которых учащимися обеспечит развитие прогнозируемых качеств и состояний.

Конструктивные умения являются решающими в творческой деятельности, выступая в роли мысленного моделирования педагогического процесса, предварительного обдумывания его осуществления, связанного с реализацией конкретной задачи. В настоящее время наблюдается разрыв между профессионально конструктивным образованием и стратегией реализации подготовки специалистов на практике, потребностью в специалистах, владеющих основами конструирования, и возможностями выпускников вуза.

Организаторские умения характеризуют способность учителя организовать коллектив и целенаправленно управлять его деятельностью по реализации разработанного проекта в соответствии с целями учебно-воспитательного процесса. Умело организованная работа учителя позволяет

экономить время на достижение положительных результатов учащимися во всех направлениях образовательного процесса. В связи с этим педагог должен уметь организовать индивидуальную и коллективную деятельность учащихся, взаимодействуя с ними в учебно-воспитательной работе.



Коммуникативные умения позволяют устанавливать педагогически целесообразные отношения с участниками образовательного процесса, создавая благоприятный социально-психологический климат в учебном коллективе (умение говорить и объяснять грамотно, эмоционально воздействовать на учащихся в целях вовлечения их в учебный процесс, устанавливать различные виды взаимодействия на уроке, включая диалогическое общение, активно воспринимать и слушать ученика, сочетать вербальные и невербальные средства воздействия на сознание и чувства, проявлять симпатию, искренность, оптимизм, доверие и т.д.).

В компетентностном подходе обучаемый самостоятельно формулирует понятия, необходимые для решения, преобразуя учебную деятельность в исследовательскую. В связи с этим в комплекс практических умений включены исследовательские умения, характеризующие готовность работать с первоисточниками, формулировать и решать практические задачи обучения и воспитания как научную проблему, отбирать и применять диагностические методики по изучению конкретных аспектов педагогического процесса, проводить целенаправленное наблюдение педагогических явлений, осуществлять педагогический эксперимент и обработку его результатов. Внедрение исследовательского подхода способствует развитию творческих и познавательных способностей студентов, повышению их интереса к обучению.

Таким образом, подготовка будущего учителя к профессиональной деятельности предусматривает формирование компетенций, обеспечивающих успешное решение профессиональных задач, владение соответствующими умениями и навыками. Следовательно, педагогическая компетентность, содержательное наполнение и качественный уровень которой зависит от многих факторов (уровень развития педагогики и смежных наук, состояния культуры в конкретном регионе, социальных, психологических, экономических условий), требует соответствующей системы подготовки, ее реализации и системного целостного подхода к обеспечению готовности к профессиональной деятельности.

Литература.

1. Браже Т.Г. Из опыта развития общей культуры учителя // Педагогика. – 1995. – № 2. – С. 70–75.
2. Загвязинский В.И. Педагогическое творчество учителя // Советская педагогика. – 1988. – № 1. – С. 70–75.
3. Моделирование и экспертиза педагогического опыта: монография / Т.А. Каплунович [и др.]. – В. Новго-род: НРЦРО, 2001. – 152 с.



4. Орлов О.С. Образование в развивающейся школе: монография / О.С. Орлов. – В. Новгород: Новгородский гос. ун-т им. Ярослава Мудрого, 2001. – 200 с.
5. Педагогика. Педагогические теории, системы, технологии / под ред. С.А. Смирнова. – 4-е изд., испр. – М., 2000. – 512 с.
6. Савенков А.И. Развитие детской одаренности в условиях образования // Развитие личности. – 2002. – № 3. – С. 278–290.
7. Скаткин М.Н. Проблемы современной дидактики / М.Н. Скаткин. – 2-е изд. – М.: Педагогика, 1984. – 96 с.
8. Тожибоева Г. Р., Ходжамбердиева К., Сайидахмедова Н. Развитие креативного мышления младших школьников на основе применения смешанных сказок // Conferencea. – 2023. – С. 168-17
9. Tojiboeva G. R., Khojamberdieva K., Berdieva L. Creative and organizational model of professional training of a future primary teacher // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 603-606.

Saidova Rayhon Bekmurodovna

Zarmed universiteti dotsenti

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ERKIN VOHIDOV QARASHLARIDA SHE'R-U SHOIRLIK MASALALARI TALQINI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada yangi davr o'zbek adabiyotining mashhur namoyandasi Erkin Vohidovning she'r va shoirlik buyukligi aks etgan she'rlari, she'r va shoirlik haqidagi fikrlari tadqiq etiladi. Unda o'zbek she'riyatining yorqin siymosi Erkin Vohidovning she'r-u shoirlikka doir qarashlari, badiiy-estetik fikrlari ochib beriladi. Shu bilan birga mavzuni o'rganishda mumtoz va jadid adabiyoti vakillari ijodiga ham o'rni bilan murojaat etiladi. Shoirlikning yuksak maqom ekanligi "She'r dunyosi" to'plami misolida ochib beriladi. She'rning shakily xususiyatlari qofiya, vazn qoidalaridan ko'ra badiiy pafos, qalb hissiyotlari ustunligi erkin Vohidov she'rlari misolida yoritiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek adabiyoti, she'r-u shoirlik, Erkin Vohidov, badiiy-estetika, talant, iste'dod, shaxsiyat va siymo, shakl va mazmun, tahlil va talqin

INTERPRETATION OF POETRY ISSUES IN THE VIEWS OF ERKIN VAHIDOV

Annotation. In this scientific article, the poems of Erkin Vahidov, a famous representative of Uzbek literature of the new era, reflecting the greatness of poetry and poetry, his views on poetry and poetry are studied. In it, the views of poetry and artistic and aesthetic thoughts of Erkin Vahidov, a bright figure of Uzbek poetry, will be revealed. At the same time, in the study of the topic, works of representatives of classical and modern literature are also referred to. The high status of poetry is revealed by the example of the "Poetry World" collection. The shakily features of the poem are highlighted by the example of free Vahidov's poems, where artistic pathos prevails over the rules of rhyme, weight, and the emotions of the heart.

Key words: Uzbek literature, poet and poetry, Erkin Vahidov, artistic aesthetics, talent, talent, theme and idea, form and content, analysis and interpretation

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМ ПОЭЗИИ В МНЕНИЯХ ЭРКИНА ВАХИДОВА

Аннотация. В данной научной статье изучаются стихи Эркина Вахидова, известного представителя узбекской литературы новой эпохи, отражающие величие поэзии и поэзии, его взгляды на поэзию и поэзию. В нем будут раскрыты взгляды на поэзию, художественно-эстетические мысли Эркина Вахидова – яркого деятеля узбекской поэзии. При этом при изучении темы также привлекаются произведения представителей классической и современной литературы. Высокий статус поэзии раскрывается на примере сборника «Мир поэзии». Шаткие черты поэмы подчеркнуты на примере свободных стихотворений Вахидова, где художественный пафос важнее правил рифмы, веса и чувств сердца.

Ключевые слова: узбекская литература, поэзия-у поэзия, Эркин Вахидов, искусство-эстетика, талант, талант, личность и фигура, форма и содержание, анализ и интерпретация

Bizga ma'lumki, badiiy adabiyot har bir davrda o'zi uchun yangi mazmun va liboslar tanlashga intiladi. Bu ijtimoiy-iqtisodiy yoki madaniy-ma'naviy turmush sharoitining o'zgartirilishi yoxud adabiyotdagi evrilishlar natijasida ham yuzaga kelishi mumkin. Biron ijodkor yangi uslubni shakllantirishi uchun unga aynan tashqi hayot omili ta'sir qilishi shart emas, shoir adabiy aloqalar ta'sirida ham, o'z ijodiy tafakkuri yangilanishlari orqasidan ham o'z olamida yangiliklar paydo qilishi mumkin. Shu ma'noda shoirlik bu – iste'dod, iste'dod esa ilohiylikka doxil bir hodisa hisoblanadi. XX asr adabiyoti-she'riyatining o'zgarish yo'nalishlari shakllari va hissiy ifoda usullari jadidlar davri bilan bog'liq, adabiy nazariyalar ham Fitrat kabi donishmandlar tomonidan ishlab chiqilgan edi. Misol uchun Abdurauf Fitratning "Adabiyot qoidalari" kitobida har uchala adabiy tur haqida va yangi kirib kelayotgan janrlarga to'xtalib o'tish barobarida asl shakl va mazmun qanday bo'lishi kerakligi haqidagi bahsli savollarga ham javob berilgan edi. Unda birgina she'r haqida bildirilgan quyidagi fikrlari e'tiborlidir: "Biz ham she'rni "vazn" va "qofiya"dan

iborat (deb) bilib turg'ancha chin she'rga yaqinlasha olmaymiz. Talabimiz qilgan kabi "sharob, jom, xumor, hol, xat, qosh, ko'z, gul, bulbul" singari o'n-o'n besh so'zni bilgili vazn tizib, "ol, hol, xol" kabi so'zlarni "qofiya" qilarmiz-da, o'zlarimizni she'r yozg'an atab o'tub ketarmiz. Holbukim, she'r boshqa, "qofiya" bilan "vazn" boshqadir¹. Ko'rinib turibdiki, Fitrat she'r masalasida "qoidasevar"likni emas, badiiy pafosni ustun qo'yadi. Albatta, shoirdan inson qalbiga so'z orqali shakl emas, hissiyot ko'chib o'tadi. Aynan shu fikrni ustoz ijodkor Erkin Vohidov ham tasdiqlagan edi. Masalan, bir o'rinda atoqli shoir: "She'r shoir qalbida tug'ilgan hayotiy tuyg'ularni ifoda qiladi va shu bilan o'quvchi yuragini rom qiladi. Shoir o'zi yonmasa, boshqalarni yondirolmaydi, qalb hislarida otash bo'lmasa, boshqa qalblarga harorat berolmaydi. Bu sehrli otashsiz har qanday she'riy jimjimialardan, badiiy vositalardan, mahoratdan naf yo'q"² - deydi. She'rni har bir shoir o'zicha tushunadi, talqin qiladi, ichki bo'ronlarini she'r orqali yoritadi. Har bir shoir she'riyatga hayotining ajralmas qismidek, butun mazmunidek munosabatda bo'ladi va lirik qahramonlariga ham o'z badiiy sezimlarini singdiradi.

She'dan ayru tonglarim
Yaldo tuniday zim-ziyo,
She'r bilan tunlar charog'on
Xurshidi tobon qadar³.

Erkin Vohidov she'r inson umrining tongini yorituvchi quyoshi va tunning charog'on mohitboni bo'lmog'i kerakligi aytgan. Ustoz she'riyat va she'r masalasiga juda jiddiy masala sifatida qaraydi, qator maqolalarida ijod va adabiyotga qanday munosabatda bo'lmoq kerakligini uqtiradi. Ijodkor qismati balki bu dunyodagi eng og'ir qadardir. Shoir she'rlari olam va odamni badiiy-estetik idrok etish konsepsiyasi hosilasidir. Ayni konsepsiyada ijodkor mahorati va xarakter xususiyatlari oydinlashadi. Alloh tomonidan yuqtirilgan iste'dodga zamon ijodkorlari ham birlamchi omil sifatida qarashadi. Iste'dodgina bizga quyma satrlarni bera oladi. Shoirlikni da'vo qilgan kimsada faqatgina iste'dod bo'lmog'i darkor. Bu xususda Erkin Vohidov: "Barcha iste'dodlar kabi shoirlik iste'dodi ham tug'ma bo'ladi va bolalikdan o'zini namoyon etadi. Bu kunduzdek ravshan, haqiqatning o'zidek ayon. Tug'ma iste'dod egasi bo'lmagan, she'riyatga havas tufayli kirib qolganlar umr bo'yi havaskor bo'lib qoladilar"⁴ - deydi. Iste'dodsiz shoir ming chiransin aql kuchi bilan ham yuraklarni zabt eta oladigan biron zalvor yarata olmaydi. Yozganlari taqliddan bo'lak hadga yetib borolmaydi. Iste'dod yuragidan o'tkazib yozadi, o'zini she'rda chizadi. Go'yoki uning murakkab hayoti ham she'r. Kechmishning yolg'oni bo'lmas. She'r esa azaldan haqiqat bilan yonma-yon keladi.

O'yin ermak emas she'r ham, shaxmat ham –
Aqllar kurashi, tuyg'ular jangi.
Bu jangda qo'yilgan har bitta qadam
Odil-u haq bolsin, go'zal va yangi⁵.

Ijod ijodkorning o'tkir qurolidir. Bu Hadisi Shariflarda ham qayd etiladi. Jumladan, mumtoz shoir She'r Muhammad Munis ham bir o'rinda: "*She'r ul tig'i dudamdurkim, jahonni fath etar, Chekmayin lashkar gar olsa ilkiga har podshoh*", - degan edi. Erkin Vohidov to'rt jildlik saylanmasidan biriga aynan "She'r dunyosi" nomini bergan. Haqiqiy shoir she'rlarida yashaydi, haqiqiy ijodkorning she'rlari shoir bilan insonlarning yuragida joylashadi. Zamonaviy adabiyotda she'r va shoir tushunchalari davr adabiyoti talablari va ijtimoiy muhit ta'siri bilan shoirlar ijodida ramziy ma'no kasb eta boshladi. Asr boshida butun xalq adabiyotga qiziqib, uning ta'sir kuchi bilan onglar evrilishlarga uchragan bo'lsa, bugunga kunga kelib she'r va shoirlik darajasi o'zgardi. Xuddi jahon adabiyot klassitsizmdan modernizmga o'tgani kabi uslublar o'zgarishi boshqa ma'nolarni ochib berdi. Qaysidir shoir o'z kasbidan asr o'rtalarida g'urur tuygan bo'lsa, asr oxiri va mustaqillikdan keyingi adabiy jarayonda insonlarning adabiyotga bo'lgan munosabati va adabiyotning zamon insonlari xarakterini ochish vazifasida bir qancha yangilanishlar bo'ldi. Erkin Vohidov "G'azal sevgan qiz" kabi she'rlarida she'r va shoirlarga muhabbatning aksini ko'rish mumkin. Yoki shoir "O'lmas shoirlarning o'lmas qalami" misrasi bilan shoir va shoirlikning naqadar buyukligini tasvirlaydi. Erkin Vohidov va umuman XX asr o'zbek adabiyotida shoir obrazida dunyo tashvishlarini yelkasiga olgan bir qahramon gavdalanishi, insoniyat uchun doimo yaxshilikni sog'inguvchi, ularni to'g'ri yo'lga

¹ Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar (darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar). - T.: "Ma'naviyat", 2009. B. - 7

² Erkin Vohidov. Hayot va she'riyat haqoda. www.kh-davron.uz

³ Erkin Vohidov. O'zbekim. T.: "Yangi asr avlodi". 2017. -B.170

⁴ Erkin Vohidov. Shoiru She'ru Shuur (adabiy o'ylar). Toshkent: "Yosh gvardiya" nashriyoti", 1987. -B.15

⁵ Erkin Vohidov. O'zbekim. - T.: "Yangi asr avlodi", 2017. - B.153

boshlovchi, adolatpesha, qo'rqmaslik fazlatlariga ega lirik qahramonlar dunyoga kelgan. Masalan, "Salbiy hayajon" she'rida Erkin Vohidov chin shoirning matlabini aytadi:

Har inson zotida o'zgacha matlab,
Har inson zotida o'zgacha qismat.
Mendan har narsani qiling-u talab
Ko'r-u kar bo'lmoqni so'ramang faqat¹.

Shoirning qo'lidan beparvolik kelmaydi, shoir jonkuyar inson. Buyuk shoir o'zi ham she'rlarida aks etgani kabi shoirligni yuksak maqom deb biladi.

Axir bizga azal orzu – yaratmak,
O'zga bir jahon-u, o'zga bir inson².

Yaxshilikni yaratish shoirning azaliy orzusi. Cho'lpon istaganiday har bir shoir o'z xalqini shunday "dengiz" kabi, "olov" kabi ko'rishni istaydi. Shoir she'rlarida o'zini yaratibgina qolmay xalqni ham ifoda etadi. Asli uning dardi xalqniki bo'ladi. Bu mushoirada shoir Mirzo Kenjaboyev Erkin Vohidovga shunday savol bergan: "She'r va shoirlilik xususida bugungi yozuvchining burchi va vazifalari to'g'risida siz nimalar deb o'ylaysiz?" Erkin Vohidov: "Shoir, avvalo, o'zining hayoti yo'q ekanligiga tan berishi kerak. Shoirning dardi – xalqning dardi. Tomchida quyosh aks etganiday, shoir – iste'dod gavharida ko'ringan xalqning yuragi. U o'zining pinhoni yuragida shu gavharni ehtiyot qilishi kerak. Agar har bir so'zi xalqning, davrning nidosi bo'lsa, u shoir baxtli, uning nomini birov bilmasa-da, bir baytini el bilsa, bu yaxshi gap"³. Shu ma'noda Ozod Sharafiddinov "Talant – xalq mulki" deganda, albatta, haq edi. Shoirmi bunyodga keltirgan birlamchi omil xalq dardidir. Shoir darddan yaralgan, desak adashmaymiz. Dard haqida so'z ketar ekan, Erkin Vohidov bugungi kun shoiri qanday bo'lishi kerakligini shunday uqtiradi: "U bizga nihoyatda ulkan bo'lib ko'rinadigan, ammo sayyoralar ichida nuqtadek kichik ko'rinadigan yer dardi bilan yashamog'i shart. Bu kichik nuqtaning hasratlari ko'p"⁴. She'r shoirga in'om etilgan iste'dodning gulidir. Ana shu gul ochilaversa, xalq uning hidlaridan bahramand bo'laveradi. Bu hidlar turfa bo'lishi kerakki, insonlar unda o'z dardini topishi lozim. Bu hissiy jarayondan hissiyotga ulanib ketuvchi vaziyat. Yozuvchi mavzu tanlab yoza olishi mumkin, shoir unday qilolmaydi. Erkin Vohidov she'r mavzusi borasida haq edi. Shoir hatto yozganini tushuntirib berolmasligi ham mumkin, ammo minglab insonlar dard o'ziniki bo'lsa, uni yangilab olaveradi. Shoir aytganidek, "She'r gulxonada yoki yo'l chetida o'stirilgan gul emaski, qidirib o'tirmay yoqqani uzib olinsa. She'r qadam yetmagan daralarda ungan chaman, qancha kezsang, shuncha nodir chechaklarga duch kelasan"⁵. She'rda ramziy ifodalarni tahlil qilish mumkindir, ammo undagi hissiyotni talqin qilishga ehtiyoj bo'lmaydi. She'r bu zavq. Shoir "Dunyo ekan" deb boshlanuvchi she'rida ana shu zavqni sevgi bera olishini aytadi:

Sevgi butun borimni olib,
She'r zavqini qoldirdi faqat⁶.
Yoki shu zavq tufayli:
"Gullar menga oshiq bulbulning,
She'r daftari bo'lib ko'rindi", – deydi.

Jadid adabiyoti vakillari Fitrat, Cho'lponlar she'riyat orqali xalqning ongini yuksaltirishga, yuragida botirlik uyg'otishga harakat qilibgan bo'lsa, Erkin Vohidov va unga zamondosh shoirlar ijtimoiy muhit mo'tadilligi sababli ham mavzu qirralarini o'zgartirishgan. O'zgartirishgan deyish ham noto'g'riroq, chunki she'r mavzularini muhit dunyoga keltiradi. Bu shoirlarning ham ixtiyorida emas, hamma o'zining yashash muhitidan, ijtimoiy muammolar yoxud hodisalardan ta'sirlanib she'r yozadi. Fikrimiz tasdig'i uchun Alisher Navoiy "G'aroyib us-sig'ar" devonida shunday yozadi:

Qildi Navoiy qaddinga sarvi sahi tashbehini

Bu tab'i nomavzun ila bechora shoir bo'lg'usi, - biroz sarkazm va hazilga yo'yilgan misralarning mazmuniga diqqat qaratsak, qadning sarvga qiyoslanishi an'anaviy o'xshatish bo'lib, bu qabildagi o'xshatishlar endi she'rxonni hayratlantira olmasligi haqiqati ochiq tarzda bayon etilgan. Shoir zamon bilan qadam baqadam o'sib bormas ekan, eski andozadagi fikrlar, siyqasi chiqqan tashbehlar, takrorlangan qolip jumlar she'rxonga zavq bera olmaydi. Shu bilan bir qatorda shoirning nufuzini ham oshirmaydi.

¹ Erkin Vohidov. She'r dunyosi (Saylanma) 2-jild. – T.: "Sharq", 2001. – B. 102

² Shu manba

³ Erkin Vohidov. Shoiru She'ru Shuur (Adabiy o'ylar). - T.: "Yosh gvardiya", 1987. –B.159

⁴ Erkin Vohidov. Shoiru She'ru Shuur (Adabiy o'ylar). - T.: "Yosh gvardiya", 1987. –B.160

⁵ Erkin Vohidov. Umrin daryosi (saylanma, 3-jild). – T.: "Sharq", 2001. – B. 264

Bu jihatlarni to'g'ri anglagan Erkin Vohidov bir qator yangiliklar olib kirib, g'azal janridagi she'rlariga ham nafislik va tarovat baxsh etdi.

Erkin Vohidov she'r yelkasiga chin go'zallikni, quvonchni, inja tuyg'ularni ko'proq yukladi. Bu davr xalqi uni ko'proq quvonch bag'ishlovchi, nekbin shoir sifatida ko'radi.

Insoniyatga, jamiyatga manfaat yetkazadigan kishilar qatorida hazrat Alisher Navoiy shoirlarni ham e'tirof etar ekan, daho shoir quyidagicha fikr bildiradi: "...maoniy xazoinidan javohir termoq va el fayzi uchun nazm sulhig'a vazn bermoq". Anglaganimiz kabi "Mahbub ul-qulub" asarida shoirlarning zimmasidagi asosiy vazifasi "el fayzi uchun" ekanligini e'tirof etadi. Ya'ni, she'r ijod qilishdan asosiy maqsad xalqqa, el manfaatiga, insonlar foydasiga xizmat qilishdir. O'z davrining taraqqiyparvari sifatida Alisher Navoiy mumtoz she'riyatning estetik-badiiy mazmunini teran anglagan. G'azal mulkinging sultoni ta'kidlagan she'riyat vazifasi Erkin Vohidov ijodida to'laqonli maqsadiga erishgan.

Erkin Vohidov 60-yillar avlodining chin shoiri edi. Uning she'r va shoirlik haqidagi fikrlari ham chin shoir qanday bo'lishi lozimligini eslatib turadi. Bu shoirlikda mardlik, she'rlarda esa jasorat bor edi. U yoshlarga o'zidan katta she'riy me'ros bilan birga ma'naviy tarbiya ham qoldirdi. Qanchadan-qancha yosh ijodkorlarning shoir bo'lib shakllanishida o'z hissasini qo'shgan edi. U she'riyatni hayoti deb bilardi, undan tashqarida nafas yo'q, zero shoir degani shunday bo'lishini, she'ri unga nafas berishini yaxshi tushunardi va anglatardi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2018 йил, № 6 апрел № 15 (4465)
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-jomi' as -sahih.-Toshkent.Qomuslar bosh tahririyati, 1991.-96-b.
3. Абу Наср Фаробий. Шеър санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. –186 б.
4. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar (Darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar). - Toshkent: "Manaviyat", 2009 yil
5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent:"Yoshlar" nashriyoti, 2018.-23-b
7. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami.20 jildlik.3-jild.- Toshkent:"Fan",1987.209-bet
6. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 191 б.
7. Erkin Vohidov. Nayot va she'riyat haqoda. www.kh-davron.uz
8. Erkin Vohidov. O'zbekim. - T.: "Yangi asr avlodi", 2017 yil
9. Erkin Vohidov. Shoiru She'ru Shuur (Adabiy o'ylar). - T.: "Yosh gvardiya" nashriyoti, 1987 yil
10. Erkin Vohidov. O'zbekim. - T.: "Yangi asr avlodi", 2017 yil
11. Erkin Vohidov. Umrin daryosi (Saylanma, 3-jild). – Toshkent: "Sharq", 2001 yil
12. Ҳаққулов И.Ч. Шеърят - руҳий муносабат. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – 240 б.
13. www.ziyouz.com

Qo'chqarova Shakarjon Azimboy qizi
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: qochkorovashakarjon@gmail.com

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATNNI O'QISH, TUSHUNISH, NUTQIY BAYON QILISH KOMPETENSIYALARINING MATN USTIDA ISHLASHGA TATBIQI

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlash orqali matnni o'qib, idrok qilish hamda nutq o'stirishga doir ta'lim mazmunini boyitishda matn ustida o'qish topshiriqlarini hamda nutqiy topshiriqlarni berib borishi kutilgan natijani qo'lga kiritish omili xususida fikr bayon etilgan. Bunda o'quvchilar matn hajmi mazmuniga mos o'qish va nutqiy topshiriqlarni bajaradilar. Matn ustida ishlashni maqsadli tashkil qilish natijasida pedagogik faoliyat asosida o'quvchi ko'nikmalari shakllantirib boriladi.

Kalit so'zlar: matn, nutqiy qobiliyat, idrok qilish, matn ustida ishlash usullari, bilim, ko'nikma, malaka.

ПРИМЕНЕНИЕ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ, ПОНИМАНИЯ, РАЗГОВОРЕНИЯ ТЕКСТА ДЛЯ РАБОТЫ НАД ТЕКСТОМ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В статье изложено мнение о факторе достижения ожидаемого результата мирового образования в обогащении содержания обучения чтению и восприятию текста и развитию речи посредством работы над текстом в начальных классах. При этом учащиеся выполняют читательские и речевые задания, соответствующие содержанию объема текста. В результате целенаправленно организованной педагогической деятельности у ученика формируются навыки и умения.

Ключевые слова: текст, речевые способности, восприятие, способы работы над текстом, знания, умения, навыки.

APPLICATION OF TEXT READING, UNDERSTANDING, SPEAKING COMPETENCES TO WORK ON THE TEXT IN PRIMARY EDUCATION

Annotation. The article presents an opinion on the factor of achieving the expected result of world education in enriching the content of teaching reading and text perception and speech development through work on the text in elementary grades. At the same time, students perform reading and speech tasks corresponding to the content of the text volume. As a result of purposefully organized pedagogical activity, the student develops skills and abilities.

Keywords: text, speech abilities, perception, ways of working on text, knowledge, skills.

Kirish. Jahonda rivojlangan mamlakatlar ta'lim sifati loyihaviy o'qitish vositasida ona tili va o'qish darslari orqali o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini modellashtirish muammosining yechimi ularning innovatsion, kreativ faolligining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan loyihaviy ta'lim vositasida ona tili va o'qish darslarida ta'lim subyektlari faoliyatini modellashtirishda ularning kasbiy kompetentligini takomillashtirish lozimligi alohida e'tirof etilmoqda. Janubiy Koreya, Xitoy, Rossiya, Germaniya, Fransiya kabi mamlakatlarda ona tili va o'qish darslarida ta'lim subyektlari faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida tashkil etish, o'yinlar, debatlar asosida rivojlantirish amaliyoti keng joriy etilgan. Ayniqsa, ona tili va o'qish darslari orqali loyihaviy yondashuv asosida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini modellashtirish, ularda kommunikativ kompetentlikni rivojlanlantirishning innovatsionpedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim dolzarblik kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarida ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish hamda matnni o'qib tushunish malakasini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Jumladan, boshlang'ich ta'limda o'qitish, matn ustida ishlash malakasini rivojlantirish muammosi o'qish savodxonligi darslarining sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi vaqtda zamonaviy ta'lim sharoitida o'qitish usullari ta'lim maqsadlarini o'zgartirish, kompetensiyaga asoslangan yondashuvga asoslangan milliy o'quv dasturining qabul qilinishi hamda shuning zamirida yangi avlod davlat ta'lim standartini ishlab chiqish jarayoni davom etmoqda. Ta'limda jahon pedagogik tajribasida tan olingan va samarali natijaga erishayotgan nazariy qarashlar, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi. Mazkur faoliyat ta'lim tizimining ixtiyoriy bo'g'inini yangilash boyicha umumiy belgilarga qonuniyatlar, yangilik kiritish mexanizmiga ega.

Asosiy qism. Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti eng sodda aloqalardan murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy munosabatlarga tomon o'sib borish asosida kechgan. Agarda eng sodda aloqalar – ibtidoiy jamoa tuzumidagi urug' a'zolarining ko'p holatlarda bir-birlariga oziq-ovqat manbai, yuzaga kelayotgan xavf, harakatlarni tashkil etish yo'nalishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni uzatishiga asoslangan bo'lsa, murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy munosabatlar – ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ta'lim, sog'liqni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolik majburiyatlarini bajarish (masalan, soliq to'lash) jarayonida sub'ektlarning bir-birlari bilan kundalik hamda kasbiy faoliyatni tashkil etishda ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy munosabatlarning to'g'ri, oqilona tashkil etilishi, birinchidan, hal qilinayotgan masalaning ijobiy echimga ega bo'lishini, ikkinchidan, vaqtning tejaliyini, uchinchidan, samimiy muloqot jarayonining yuzaga kelishini ta'minlaydi. Mazkur jarayonda eng muhim omillardan biri nutq sanaladi.

Har bir davlatning ta'lim sohasida bolalarda nutq o'stirish tizimning asosiy tarkibiy elementi sifatida e'tirof etilgan. O'zbekistonda ham uzluksiz ta'limning dastlabki bosqichlari – maktabgacha va boshlang'ich ta'lim davrida bolalarda nutqni o'stirish pedagogik jarayonning muhim yo'nalishi etib belgilangan. Global axborotlashuv va innovatsion ta'lim muhitining shakllanishi, inson kapitalini rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojning ortishi yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, intellektual jihatdan rivojlantirish, bunda nutq imkoniyatlaridan foydalanishni taqozo etmoqda.

Shaxs nutqini o'stirishda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlari boshlang'ich davr bo'lishi inobatga olinsa, ularning takomillashtirilishi, "boshlang'ich ta'lim mazmunini to'liq integrallashtirish, mazkur mazmunda ta'lim-tarbiya elementlari uyg'unligini ta'minlash" [1; 15-b.]ning naqadar dolzarb ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

"Nutq", "nutq o'stirish", "matn ustida ishlash", "matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish", "boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish" kabilar tadqiqot muammosining muhim tayanch tushunchalaridir. Ularning mohiyatini yetarlicha anglash tadqiqotni olib borishda muammoning to'g'ri, oqilona yechimini topishga imkon beradi.

Nazariy tahlil "nutq" tushunchasiga mavjud tilshunoslik, pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlarda turlicha izohlar berilganligini ko'rsatdi. Xususan, "Pedagogik ensiklopedik lug'at"da nutq "insonlarning til vositasida amalga oshiriladigan muloqot (kommunikatsiya) shakli bo'lib, u fikrni ifodalash vositasi bo'lishi bilan birga fikrlashning asosiy mexanizmi" [2; 15-b.], "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da nutq deganda uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar)" [3; 424-425-b.], deya e'tirof etiladi. Psixologlar tomonidan nutq "odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki o'zaro aloqa o'rnatish yoki o'z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni" [4; 192-b.], deb ta'riflangan. Metodik olimlar tomonidan nutq "kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solish" [5; 300-b.] sifatida ham talqin etilgan. Bir so'z bilan aytganda, nutq ijtimoiy subyektlarning til vositasida amalga oshiriladigan faoliyat turidir.

Nutqda quyidagi xususiyatlar namoyon bo'ladi:

1) fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratiladi, tugallangan mavzuni ifodalaydi, logik va grammatik qoidalar asosida tuziladi, mustaqil, tugallangan, o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadi (u bog'lanishli nutq deb ataladi) [5; 321-b.];

2) og'zaki va yozma shaklda ifodalanadi;

3) og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish yagona jarayonda kechadi;

4) shunga qaramay, og'zaki va yozma nutq orasida jiddiy tafovutlar mavjud (ular haqida ishning keyingi bobida batafsil so'z yuritiladi);

5) nutq muloqot chog'ida ishtirok etuvchilarning soniga ko'ra dialogik va monologik kabi turlarga bo'linadi;

6) dialog og'zaki nutqning keng tarqalgan turlaridan, nutqiy muloqotning tabiiy shakllaridan biri bo'lib, ikki yoki bir necha shaxs o'rtasida kechadi;

7) og'zaki nutq, tabiatiga ko'ra, ko'proq suhbat shaklida yuzaga keladi;

8) nutqning juda muhim shakllaridan biri sanaladigan monolog dialogga nisbatan mazmunni ifodalash uchun til vositalarini tanlash, nutqning qurilishiga ko'ra bir qadar an'anaviylikka ega.

Matn nutqiy hodisa bo'lib, u ikki yoki undan ortiq gapning mazmun va grammatik jihatdan birikishidir. O'z tuzilishiga ko'ra gap xat boshi, bo'lim qism, boblardan tashkil topadi. Matn narsa va hodisalarni tasvirlaydi, so'zlovchining munosabatini aniqlaydi. O'quvchida avvalo, ta'lim berish orqali dunyoqarashni shakllantirish, yozma va og'zaki nutqini rivojlantirish, shuningdek tinglab idrok etishni shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Shuni aytish lozimki, bu maqsadimizga biz boshlang'ich hamda

maktabgacha ta'lim dasturlari asosida maqsad belgilangan. Biz bu belgilangan maqsadimizga erishimizda jahon andozlaridan foydalanish ta'lim jarayoniga tatbiq etishni matn bo'yicha ish usullari yordamida keltirib o'tmoqchimiz.

Boshlang'ich sinf darsliklarida matnlar turli ijtimoiy mavzularda yoritilgan bo'lib asosiy maqsad bu matndagi asosiy g'oyani o'quvchi ongiga singdirish hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matn mazmunini so'z bilan tasvirlashga o'rgatishda matnning darslikda berilgan rasmga mos qismini taqqoslashdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bunda o'quvchilar yozuvchi tasvirlagan qahramonning xarakterli jihatlarini rassom mahorat bilan ko'rsata olganiga ishonch hosil qiladilar. Dars jarayonida matnni so'z bilan tasvirlashda uning qayta hikoyalashga aylanib qolmasligiga e'tibor qaratish lozim. Tahlil jarayonida o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini muallif ishlatgan so'z va so'z birikmalaridan foydalanishga jalb qiladi.

O'quvchilarning asar mazmunini to'liq o'zlashtirishida asar voqealari o'rtasidagi sababiy bog'lanish, peyzaj, qahramonlarning xarakter xususiyati va tashqi ko'rinishini so'z bilan tasvirlashning ahamiyati juda katta.

Grafik tasvirlash ko'proq uyda bajariladi. Buning uchun o'quvchilar matnni diqqat bilan qayta o'qib, mazmuniga mos rasm chizadi hamda darsda matn mazmuni yuzasidan fikr yuritadi. Natijada ularning til boyligi ortadi, og'zaki nutqi va mustaqil fikrlash malakasi shakllana boradi. Shunisi xarakterliki, kitobda tasvirlangan rasmlar matnlarni o'qish, mazmunini tushunish va ifodalangan axloqiy-ma'naviy masalalar mohiyatini anglashga yaqindan yordam beradi. Rasmlarda matnning ahamiyatli o'rinlarini aks ettirish orqali o'quvchilarning diqqati adabiy qahramonlar xulq-atvorining xarakterli jihatlarini o'rganishga, asarning g'oyaviy mazmuniga to'g'ri munosabatda bo'lishga yo'naltiriladi.

Rasmlarda personajlarning xatti-harakati, ayniqsa, ularning ichki ma'naviy olamini ochishga alohida urg'u beriladi. Shunga ko'ra, tasviriy san'at namunalarini bo'lgan rasmlar o'quvchilarning nutqini o'stirishgagina emas, mustaqil fikrlashiga ham ijobiy ta'sir qiladi. O'quvchilar tasviriy san'at asarlari orqali badiiy asarlarni faqatgina tashqi jihatdan emas, balki g'oyaviy-badiiy jihatdan ham o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi.

O'quvchilarni matndagi asosiy so'zlarni qiyinchiliksiz ongli ravishda, tushunib tanlashga o'rgatish ham matn ustida ishlashning muhim jihatidir. "O'quvchi asar matni ustida ishlash jarayonida undagi fikr-g'oyaning mag'zini chaqishga harakat qiladi. Unda mustaqil fikrlash malakasi shakllanib, yangicha o'quv-biluv sifatleri ham tarkib topadi" [6; 20-b.].

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida darslikda berilgan matn asosida o'quvchilar tomonidan qayta matn yaratishga qaratilgan uzluksiz, izchil va maqsadli tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat natijasida ular matn belgilari va uni tuzish qoidalarini o'zlashtirib, o'z fikrlarini mustaqil, aniq bayon qilish ko'nikmasini o'zlashtira boradilar. Zero, maktabda nutqni rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan harakatlarning pirovard maqsadi o'quvchini o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda erkin bayon qilishga o'rgatishdan iboratdir.

Tajribadan ma'lumki, bola ma'nosiz so'zlardan ko'ra ma'nodor tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega. Uning nutqi maktab ta'limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarning fikrini uqib olish va to'g'ri idrok qilish darajasida, nutqining tuzilishi va grammatik qoidalarga mos, mantiqan izchil, ifodali, miqdor va ko'lam jihatdan fikr almashishga yetarli bo'ladi [7; 110-b.].

Tilning tasviriy vositalari orasida obrazli o'xshatishlar yaqqol ajralib turadi. Obrazli o'xshatishlar muallif fikrini ifodalashning yorqin usullaridan biridir. O'xshatish ilmiy tilda bir predmetni boshqasiga umumiy belgi asosida qiyoslashni anglatadi [8;139-b.], O'xshatish istalgan mavhum tushunchani, aniqrog'i, noma'lumni ma'lum tushuncha orqali idrok etish imkonini beradi. O'quvchilarni matn ustida ishlash orqali o'xshatishlarni qayta yaratishga o'rgatish ularning individual nutq uslubini shakllantirishga yordam beradi.

O'xshatishlarni o'z nutqida ongli qo'llashga o'rgatish ishini quyidagicha ikki bosqichda olib borish mumkin:

1. O'quvchilarni asar tili va mazmunini tahlil qilish orqali o'xshatishlarning o'rni va ahamiyati bilan tanishtirish.

2. Ona tili darslarida maxsus topshiriqli mashqlarni bajarish natijasida yozma nutqda u yoki bu turdagi o'xshatishlarni mustaqil qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.

Boshlang'ich ta'limning dastlabki ikki yilida o'qishning asosiy turi ovoz chiqarib o'qish bo'lib, ichida o'qish yordamchi rol o'ynaydi. Ta'kidlandiki, o'qishdan oldin o'quvchilarni matnni idrok etishga tayyorlashga doir kirish suhbatini o'tkaziladi. Tushunarsiz so'zlarni sharhlash kirish suhbatining tarkibiy

qismidir. Kirish suhbatidan keyin o'qituvchining ta'limiy ahamiyatga ega namunali o'qishi amalga oshiriladi.

Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari ta'limiy materiallarning ichki bog'lanishlariga ahamiyat bermay, ma'nosiga tushunmay quruq eslab qoladilar. O'rganilayotgan materiallarni mantiqiy tahlil qilmay, yodaki o'zlashtiradilar [9; 120-b.].

Namuna bo'yicha ishlash – qonuniyatli jarayon. Chunki nutq ko'proq faqat taqlid jarayonida o'zlashtiriladi. O'quvchilar namunaviy nutqqa taqlid qilish orqali o'z nutqini leksik va grammatik jihatdan boyitadi. Unda tilni sezish rivojlanadi, nutqiy xotira takomillashadi.

O'qituvchining o'qish namunasiga ko'ra o'quvchilar to'g'ri, ifodali o'qishni o'rganadi. Darsda matnni o'qib berish uchun o'qituvchi puxta tayyorgarlik ko'rishi, mazmunni chuqurroq anglashga intilishi, matnning ayrim o'rinlari qanday o'qilishi lozimligini belgilab olishi lozim. O'qituvchi ayrim tovush, bo'g'in, so'zlarni qanday o'qish kerakligini izohlagach, o'quvchilar matnni navbat bilan o'qishadi. O'qituvchi ularni kuzatib, to'g'rilab boradi.

To'g'ri, aniq va ravon talaffuz ustida ishlashda jamoa bo'lib o'qishdan foydalaniladi. Bu esa barcha o'quvchilarni o'qishga jalb qilish imkonini beradi.

O'qish texnikasini egallashda takror o'qish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim o'quvchilar u yoki bu matnni bir necha marta o'qishga harakat qiladi. O'qish faoliyatiga qiziqish, uning mazmuniga ham qiziqishni vujudga keltiradi, bilim olish ehtiyojini tug'diradi va o'qish motivlarini tarkib toptiradi [10; 113-b.].

Matnni bir necha bor qayta o'qish, yangi so'z, so'z birikmasi va namunaviy gaplarning izohlanishi mazmunni chuqurroq anglashga ko'maklashadi. Bundan tashqari, u o'qish sifatining ortishiga, uning to'g'riligi, ravonligi, ifodaliligi, kompleks rivojiga yordam beradi. Matnni takror o'qish maxsus mashqlar yordamida uyushtirilmaligi o'quvchilar uchun zerikarli bo'lib, ularni toliqtirib qo'yadi. Matn ustida ishlashda tanlab o'qish, ya'ni alohida gap, parcha yuzasidan savol-javob o'tkazish muhim o'rin tutadi. Bunda savol-topshiriqlarni metodik jihatdan to'g'ri shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinflarda nutq va uni o'stirishning nazariy asoslari, usullari borasida ko'pgina olimlar, tilshunos va adabiyotshunoslar, metodist va o'qituvchilar o'z fikrlarini bayon etganlar. R.Yo'ldoshev o'z monografiyasi[11]da ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablar misolida o'quvchilarni o'zbek tilida gapirishga o'rgatish, bunda, asosan, ularning og'zaki nutqini o'stirish metodikasi haqida so'z yuritgan. Monografiyada muallif o'quvchilarni o'zbek tilida gapirishga o'rgatishning psixologik, lingvopsixologik va psixofiziologik asoslari, grammatik nutqiy namunalarini modellashtirish, so'zlash mashqlarini leksik jihatdan ta'minlash, og'zaki nutq o'stirishga qaratilgan o'zbek tili darslarining tuzilishi va boshqa shu kabi muammolar haqida batafsil to'xtalgan. Muallif tomonidan matn asosida og'zaki nutqni o'stirishning muammo sifatida qaralishi, namuna asosida savol-javob qilish yoki hikoyalashning nutq o'stirishdagi ahamiyati, ushbu muammolarning uzoq yillik tajribalarga tayangan holda chuqur tadqiq qilinishi diqqatga sazovor.

N.Bekniyazova monografiyasi[12]da esa boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida o'quvchilarga matn yaratishni o'rgatishning nazariy, amaliy, lingvometodik asoslari tadqiq qilingan, matnning tashkiliy va leksik-grammatik jihatdan ichki tuzilish xususiyatlari, matn yaratishni o'rgatishdagi mashqlar tizimi, tuzilgan matnni takomillashtirishni o'rgatish borasida qimmatli fikrlar aytilgan.

Safo Matchanovning tadqiqot ishi[13]da o'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatish orqali mustaqil ishlarni tashkil etish usullari ko'rsatib berilgan. Unda matn turlari, ularning bir-biridan farqi hamda matn ustida ishlash bosqichlari muallifning ko'p yillik ilmiy izlanishlari mahsuli misolida yoritilgan.

D.Toshxo'jaevaning tadqiqot ishi [14] ham rusiyabon o'quvchilarni matn mazmunini o'z so'zlari bilan qayta hikoya qilishga o'rgatish orqali nutq o'stirish masalalariga bag'ishlangan. Bu borada muallif "Bola matn mazmunini so'zlashga tayyor darajada nutqiy ko'nikmaga ega bo'lgandan keyin hikoya qilish bilan oldinma-keyin qayta hikoya qilishga o'tiladi", – deb ta'kidlaydi. Tadqiqot ishida, shuningdek, matnni o'z so'zlari bilan qayta hikoyalashning psixologik va metodik asoslari, o'quvchilarni matn mazmunini tushunib o'qishga tayyorlash uchun bajariladigan ayrim leksik va grammatik mashq turlari ham bayon qilingan.

A.Nisanbaevaning tadqiqot ishi [15]da esa o'zbek tili darslarida matn vositasida o'quvchilar nutqini o'stirishning metodik asoslari ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar misolida yoritilgan.

M.Hamdamova o'zining ilmiy ishi [16]da 1- va 2-sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirishni keng ko'lamda aks ettirib, ona tili va o'qish darslari misolida masalaga umumiy jihatdan yondashgan. Tadqiqotchi nutq va uni o'stirish masalasi haqida so'z yuritir ekan, "nutq o'stirishda matnlar

ustida tizimli tarzda ishlash o'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish, ularning so'z boyligini aniqlash va rivojlantirib borish, so'z ma'nolarini to'g'ri anglash, o'z nutqlarida to'g'ri ishlatish imkoniyatlarini tug'diradi" degan qimmatli fikrni ham aytib o'tgan.

T.G'afforova va X.G'ulomovalarning "O'qish darslari" qo'llanmasi [17]da 1-sinf o'qish darslari bo'yicha dars ishlanmalari keltirilgan. Dars ishlanmalariga matn ustida ishlash va nutq o'stirishning turli usullari amaliy jihatdan to'g'ri singdirilgan. "Asar tahlilida asar tilini o'rganish o'quvchi lug'atini boyitadi, nutqini o'stiradi", – deb ta'kidlaydi mualliflar [18; 10-b.]. Shu bilan birga ushbu qo'llanmada o'qish darslarida qo'llaniladigan ko'pgina ish turlari ham birma-bir sanab ko'rsatilgan, matnni ifodali o'qish, unga reja tuzishga oid tavsiyalar hamda hikoya, ertak va she'rni o'rganishning metodik modellari namuna sifatida keltirilgan.

"2-sinfda o'qish darslari" nomli metodik qo'llanma [19; 128-b.]da o'qish darslarida "badiiy matnlarni tahlil qilish usuli orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish maqsadga muvofiqligi" qayd etilgan. Qo'llanmada, shuningdek, og'zaki va yozma nutqni ularning mutanosibligini ta'minlagan holda o'stirish lozimligi, bolalarni o'qishga o'rgatishda usullardan to'g'ri foydalanish, og'zaki hikoya, rasmlar asosida matn tuzish, o'quvchilarni bayon va insho yozishga tayyorlash, ta'lim jarayonida o'qituvchi nutqining o'ziga xos jihatlari borasida ham fikr yuritilgan hamda dastur bo'yicha dars ishlanmalaridan namunalari ham keltirilgan.

"Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish" nomli qo'llanma [20]da mualliflar asosan 4-sinf o'qish darslarida yangi pedagogik texnologiya usullari asosida dars ishlanmalarini keltirishgan. Bunda ular 4-sinf "O'qish kitobi"dagi matnlar ustida ishlashning turli usullarini dars ishlanmalariga to'g'ri singdirgan, 1-2-sinf o'qish darslarini tashkil etish va sinfdan tashqari o'qish bo'yicha amaliy tavsiyalarini berganlar hamda boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini amalga oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish borasidagi fikrlarini bayon etganlar.

R.Lutfetdinova tomonidan chop etilgan metodik qo'llanma [21]da esa boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish borasida mulohaza yuritilgan, bu borada "Ona tili", "O'qish", "Odobnoma", "Tabiatshunoslik" kabi o'quv fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari tadqiq qilingan. Qo'llanmada o'qish darslarida o'qish turlari va ulardan foydalanish texnologiyasi hamda o'qish darslarida nutq o'stirish borasida ham tegishli fikrlar aytilgan. "Badiiy matnlarni tahlil qilish jarayonida o'quvchilarning nutqini o'stirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir" [22; 22-b.], – deb yozadi muallif. Bu jarayonda boshlang'ich sinf o'qish darslarida matnlarni o'qish, qahramonlar ovozigacha taqlid qilish, rasmlar asosida reja tuzish, bayon va insho yozish kabi ish turlaridan unumli foydalanish yaxshi samara berishini muallif alohida ta'kidlab o'tgan. Shuningdek, qo'llanmada boshlang'ich sinflarda nutq o'stirish yaxlit didaktik jarayon sifatida qaralib, boshlang'ich sinflarning DTSi, "Ona tili" va "O'qish" dastur va darsliklari tadqiqot muammosi yuzasidan tahlilga tortilgan.

S.Matchonov va X.G'ulomovalar "Nutq madaniyati" ishi [17; 8-10-b.]da nutq ustida ishlashda uzluksizlikni ta'minlash borasida fikr yuritganlar. "O'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirishda boshlang'ich ta'lim alohida bosqich hisoblanadi, – deb yozadi mualliflar. – Xususan, boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish, ona tili, o'qish darslari oldidagi asosiy vazifalardan biri nutq o'stirish, nutq ustida ishlashdir". Shuningdek, maqolada mualliflar savod o'rgatish darsi namunasini keltirib, bu jarayonda nutq o'stirish usullarini qay tarzda qo'llashni ko'rsatib bergan.

X.G'ulomova va Sh.Yo'ldoshevalar tomonidan tuzilgan «Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi» nomli ma'ruzalar matni [17]da esa bog'lanishli nutq, badiiy asarni tahlil qilish, badiiy asar matni ustida ishlash va turli janrdagi asarlarni o'qishga oid metodika mohiyati yoritilgan. E'tiborli jihati shundaki, mazkur ma'ruzalar matnida qayta hikoyalash usulidan foydalanish va uning turlari haqida alohida to'xtab o'tilgan.

A.Hamroyevning tadqiqot ishi [21]da boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish haqida so'z yuritilgan ekan, bu jarayonda o'quvchilarning ijodkorligini oshirishda turli mashq turlaridan, jumladan, nutqiy instruksiyalardan unumli foydalanilgan. Tadqiqotchi tilning lug'aviy birliklari ustida ishlash, topishmoq, maqol va she'riy parchalar matnining grammatik mavzu bilan bog'liq lingvistik tahlili o'quvchilar lug'atini boyitishi, aqlini charxlashi, kuzatuvchanlik, ziyiraklik, topqirlik ko'nikmalarini shakllantirishini alohida ta'kidlagan.

U.Masharipova o'zining tadqiqot ishi [22]da innovasion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari nutq madaniyatini shakllantirish metodikasini rivojlantirishga oid fikrlarini bayon qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilari nutq madaniyatini shakllantirishning tashkiliy tuzilmasi komponentlarini integratsiyalash asosida multimedial elektron axborot resurslarini yaratish bo'yicha tavsiyalarni ham

taqdim etgan. Tadqiqotchi nutq madaniyatining me'yoriy, etik va kommunikativ sathlarini tahlil qilar ekan, "boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishga imkon beradigan yozma va og'zaki nutqni muvaffaqiyatli o'zlashtirish maxsus mashqlarni bajarish yo'li bilan amaliy ko'nikmalar hosil qilishni talab qilishi"ni alohida ta'kidlab, juda ahamiyatli fikrni aytib o'tgan.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish jarayonida o'quvchilar quyidagi kommunikativ malakalarni o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi:

1. Mavzuni o'z mulohazalari asosida ochib berish malakasi.
2. Mulohaza bildirishda asosiy fikrni ochib berish malakasi.
3. Mulohaza bildirish uchun materialni yig'ish malakasi.
4. Yig'ilgan materiallarni tizimlashtirish malakasi.
5. Yozma nutqni rivojlantirish malakasi.
6. Alohida kompozitsion shaklda mulohazalarni bildirish malakasi.
7. O'z fikrini to'g'ri, aniq va tushunarli bayon qilish malakasi [22].

Shunday qilib, tadqiqot mavzusi bilan bog'liq ilmiy-metodik adabiyotlar, dastur va darsliklar tahlili shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish yaqin o'tmishda sho'ro mafkurasi nuqtai nazaridan yo'l-yo'lakay ko'zdan kechirilgan bo'lib, ta'limiy muammo sifatida mavjud ehtiyoj, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida mustaqil tadqiq etilmagan.

Innovatsion ta'lim muhitining shakllanishi, global axborotlashuv nuqtai nazardan boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etishini ta'minlamoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini takomillashtirishda nutqiy namunalar, ularning ifoda imkoniyatlarini anglash va qayta yaratish ishlari tizimi katta ahamiyatga ega. O'qituvchi zid ma'noli so'zlar yordamida quyidagicha turli grammatik mashqlarni tuzishi mumkin:

1. Zid ma'noli so'zlarni ko'chiring. Ayrim so'zlar ishtirokida gap tuzing va yozing.

Namuna: Mehnatsevar – dangasa. Misol: Mehnatsevar bolani hamma yaxshi ko'radi. Dangasaning bahonasi ko'p.

2. Berilgan so'zlarga zid ma'noli so'zlarni qo'shib yozing, biroq ular ham shu savolga javob bo'lsin.

Namuna: do'st (kim?) – dushman (kim?)

oq (qanday?) – qora (qanday?)

3. So'z birikmalarini ko'chiring, zid ma'noli so'zlar tagiga chizing. Masalan: oson ish – qiyin ish, uyga kelmoq – uydan ketmoq.

4. So'z birikmalarini ko'chiring. Zid ma'no yasovchi qo'shimchalar tagiga

chizing: aqlli bola – aqlsiz bola, tuzli ovqat – tuzsiz ovqat.

5. So'z birikmasini ko'chiring. Qarama-qarshi yo'nalish ifodalovchi qo'shimchalar tagiga chizing: uyga bormoq – uydan kelmoq.

Ma'lumki, morfema (asos va qo'shimcha)lar zid ma'noli so'zlarga murojaat qilish imkonini beradi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilari imkoniyatlariga muvofiq quyidagicha mashqlar tuzish mumkin:

1. Ushbu so'zlar ma'nosidagi umumiy va farqli jihatlarni toping: yaxshi – yaxshilik – yaxshila; gulli – gulla – gulchi – guldor – guldon.

2. Berilgan so'zlardan zid ma'noli asosi bir xil bo'lgan so'z yasang: baxtli – ... , ishli – ...

3. Ko'chiring. Zid ma'noli so'zlarning tagiga chizing. Ular qanday hosil qilinganini tushuntiring: Bilimlga dunyo yorug', bilimsizga – qorong'i. [21]. Bunday mashqlar zid ma'noli so'z(antonim)larni til hodisasi sifatida puxta o'zlashtirishga ko'maklashadi. Bunda o'quvchilar nafaqat antonim so'zlar, balki ma'nodosh qo'shimchalar bilan ham ishlaydi. Natijada ularning fikrlash tarzi takomillashadi. O'quvchilar so'zni shunchaki tarkibiga ko'ra ajratmay, tegishli qo'shimchalar o'rtasidagi munosabatlarni ham aniqlaydi. Grammatik-nutqiy mashqlar material imlo malakalari uchun ham muhim. Umuman, zid ma'noli so'zlar ustida ishlash o'quvchilarga nutqiy amaliyotni to'laqonli egallashda ko'maklashadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirish yuzasidan olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning ko'pchiligi o'z fikrini ifodalashga qiynaladi, uni mantiqan izchil bayon qila olmaydi, bog'lanishli jumalarni noto'g'ri yoki noo'rin tuzadi. Zero, ular hali gap qurilishini, mustaqil gaplarning o'zaro bir-birlari bilan bog'lanish shartlaridan xabardor emas. Shuning uchun o'qish darslarida amalga oshirilayotgan o'quvchilarda nutq o'stirish borasidagi harakatlarning ona tili darslarida matn ustida ishlashga oid mashqlar bilan uzviy bog'lab olib borilishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Matn ustida ishlash orqali o'quvchilarni ijodiy fikrlashga yo'naltirish ular ongi va tafakkurining rivojlanishiga asos bo'ladi. O'quvchi matnning ma'nosini tushunishi orqali dunyoqarashi va fikrlashi

o'zgaradi. Bu o'qituvchidan eng maqbul usullardan foydalangan holda matn ustida ishlash usullarini kiritishni talab qiladi.

Jahon ta'limi Ingliz tili matni o'qib tushunish ko'nikmasi bo'yicha quyidagi ish turlaridan foydalaniladi. .

1. Qisqa javobli savol turlari.
2. Ko'p tanlovli savol.
3. So'z va so'zlar qo'yish usuli bilan matni to'ldirish.
4. Gapni tugatish.
5. Gapni to'ldirish.
6. Xato, to'g'ri, umuman berilmagan fikr tanlovi.
7. Sarlavha tanlash.

Matni tinglab tushunish bo'yicha ham quyidagi ish turlari belgilangan.

1. Ko'p tanlovli savol.
2. So'z qo'yish.
3. Xato, to'g'ri umuman berilmagan fikr tanlovi.

O'quvchi og'zaki nutq ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha quyidagi ish turlaridan foydalaniladi. Mavzular ketma-ketligi asosida ish turlari belgilab chiqilgan.

1. Umumiy ma'lumot.
2. Mavzu bo'yicha mazmuniy nutq.

Namuna:

Mavzu: Yordam berish

Topshiriq: 1. Qachondir kimgadir yordam berganingizni tasvirlab bering. (belgilangan 2 daqiqa vaqt oraligida)

Mavzu mazmuni savollari:

1. Qachon, kimga, nimagadir yordam bergansiz.
2. Nimaga yordam bergansiz?
3. Kimgadir, nimagadir tez tez yordam berib turasizmi.
4. Yordam qilganingizdan keyin o'zingizni qanday sezdingiz.

Topshiriq: 2. Yordam qilish haqida dialog.

Savollar:

1. Siz qanday o'ylaysiz ko'p odamlar yordam beradimi bir-biriga?
2. Kimdandir yordam olish yaxshimi?
3. Siz odamlarga yordam berishni yoqtirasizmi?
4. Odamlarga yordam berishning qanday afzalliklari bor deb o'ylaysiz?
5. Odamlarga yordam berishning qanday zararli taraflari bor?

Biz matni o'qib tushinish ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha 3-sinf darsligi asosida berilgan matnlar asosida yuqoridagi ish turlari asosida topshiriq turlarini belgilab chiqamiz.

Daraxtlar tabiat mo'jizasi

Jannatmakon yurtimizning tabiati betakror o'simlik dunyosi boy. Bunda har bir daraxtning o'ziga xos xislati, xosiyati bor. Deylik, xalqimiz chinorni umrboqiy daraxt deb biladi. Yurtimizda turli joylarda ming yillik chinorlar bor. Ular nodir tarixiy yodgorlik. Masalan Surxondaryoning Sayrob qishlog'idagi ko'hna chinor ichida bir vaqtlar maktab bo'lgan.

Mamlakatimiz tarixida archa daraxtining bir qancha turlari uchraydi. Tog'larda mahalliy aholi "Cho'pon archa" deb ataydigan bir archa- bir quduq qiymatiga teng: qishda qorni yozda namlikni saqlaydi. Bunday archalar juda nodir bo'lib nihoyatda qadrlanadi.

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida tatum(tuz) daraxti o'sadi. Mahalliy aholi tuz daraxti deb ataydigan tabiatning bu ne'mati ajabtovur xislatga ega. Uning mevasini bemalol ovqatga tuz o'rniga ishlatish mumkin. Dunyoning hech bir joyida uchramaydigan bu "tuz daraxti" mamlakatimizning boshqa biror hududida o'smasligi kishini lol qoldiradi.

Tug'dona daraxti haqida eshitganmisiz? Tug'- yalov bayroq, dona esa - daraxt ma'nosini bildiradi. Lekin nima uchun tug'dona ya'ni bayroq daraxt deb nomlanishi ko'pchilikka noma'lum.

Rivoyat qilishlaricha, tog' qo'ynida joylashgan mamlakatlarning biriga yov yurish qilibdi. Xabarchilar barcha qishloq, ovullarni xatardan ogoh etib jangga chorlabdi. Odamlar shu atrofda o'sadigan daraxtlardan kaltak va cho'qmor yasab vatan uchunhayot-mamot jangiga kiradi. Hatto qariyalar va yosh bolalar ham qo'llarida daraxt novdalarini bayroq kabi boshlari uzra baland ko'tarib, hayqirganlaricha, jangchilarga madad berishadi. Birgalashib yovni butunlay mag'lub etgan el og'ir kunlarda madad bo'lgan

daraxtni e'zozlab-tug'dona bayroq daraxt deb ataydi. Tug'dona tosh kabi mustahkam daraxt. U toshni yorib chiqib o'sadi. Tug'dona yog'ochidan yo'nib yasalgan do'mbiraning toza va jarangdor tovushi odamlarga kuch, g'ayrat, shijoat ko'ngillariga orom bag'ishlagan.

Matn bo'yicha savollar

Gapni to'ldirish

1. Quyidagi nuqtalar o'rniga matndan mos so'zlarni qo'yib gaplarni to'ldiring.

1 nodir tarixiy yodgorlik hisoblanadi.

2. Ko'hna chinor ichidabo'lgan.

3. Tog' aholisideb nomlaydigan archa suv manbai hisoblangan.

2. Xato, to'g'ri, umuman berilmagan

2. Quyidagi fikrlardan matnda berilgan berilmagan yoki xato jummalarni topib HA/YO'Q/ASLO belgilab chiqing.

HA YO'Q ASLO

1. "Tuz daraxti" mamlakatimizning ba'zi viloyatlarida o'sadi.

2. Tatum daraxti mevasini hozirgi kunda tuz o'rniga ishlatishadi.

3. Tug'dona daraxti Surxondaryo viloyatida o'sadi.

4. Tug' -yalov, bayroq, dona-daraxt ma'nosini bildiradi.

5. Tug'dona daraxtidan ro'zg'or buyumlarni yasashda foydalanilgan

3.Sarlavha tanlash.

1.Yozuvchi yuqoridagi matn orqali matn mazmuniga mos sarlavha tanlang.

A) Mamlakatimizdagi daraxt turlari.

B) Yurtimizdagi daraxtlarning foydali jihatlari.

C) Mamlakatimizdagi afsonaviy daraxtlar.

D) Mamlakatimizdagi ko'hna chinorlar.

Bu ish usuli o'quvchini tizimli ishlashga o'rgatish bilan birgalikda matn mazmuni to'liq anglashga olib keladi. Ushbu maqolada matn bo'yicha o'quvchi nutqiy qobilyati quyidagi ish usuli asosida olib borilish rejasi tuzilgan.

1. Umumiy savol qismi:

1. Siz qanday daraxt turlarini bilasiz

2. Siz yashayotgan qishloq shahar joyda daraxtlar bormi.

2.Asosiy savol qismi

1. Siz eshitgan oxirgi afsonaviy mo'jizaviy daraxt haqida gapiring. (2 daqiqa)

Nutq mazmunini oydinlashtiruvchi savollar.

1. Qachon va qayerda eshitdingiz mo'jizaviy daraxt haqida?

2. U qaysi daraxt qanday nomlanadi?

3. Qayerda o'sadi?

4. Qanday mo'jizasi bor.

3.Daraxtlar haqida dialog.

1. Qanday o'ylaysiz daraxtlar insonlarga qanday foyda beradi?

2. Siz daraxt ekanmisiz?

3. Daraxtning insonga zararli xususiyatlari bor deb o'ylaysizmi?

Ushbu savol turlaridan foydalanish orqali o'quvchida ravon mazmunli to'liq nutq shakllanadi. Mazkur tartibda matn bo'yicha ishlash jarayoni tizimli tarzda olib borilsa matn to'liq yoritilishi bilan birgalikda asosiy ko'zlangan maqsadlarga erishiladi. Biz bu ish shakllini loyiha tarzda belgilab ish tartiblarini belgilab chiqdik.

Ish shakli	Ish tartibi	Belgilash
O'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish	Qisqa javobli savol turlari	

	Ko'p tanlovli savol	
	So'z va so'zlar qo'yish usuli bilan matnni to'ldirish	+
	Gapni tugatish	
	Gapni to'ldirish	
	Xato, to'g'ri, umuman berilmagan fikr tanlovi	+
	Sarlavha tanlash	+
Nutqini dunyoqarashini shakllantirishga doir savollar	Umumiy savollar qismi	+
	Asosiy mavzu bo'yicha mazmuniy monolog (2-daqiqa)	+
	Mavzu bo'yicha dialog	+

Bu jadvalda ish turlari to'liq ko'rsatilgan ulardan matn hajmi bo'yicha tanlangan holda foydalaniladi. Yuqoridagi matnda matnni o'qib idrok qilish bo'yicha uchta turidan foydalanilgan va ulardan foydalanish loyiha chizmasida datslab belgilanib aks qildiriladi keyin mos ish tartibi tuzib chiqiladi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish jarayonida ta'lim texnologiyalarini qo'llash o'quvchilarda o'quv fanini o'zlashtirish, kitob o'qishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani kuchaytiradi, o'quv-bilish faolligini yuzaga keltiradi. Shu sababli o'qituvchilar boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirishda ta'lim texnologiyalarini tanlashga e'tibor qaratishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarova R., Musayev U., Musaev P., Yusupova F., Nurjanova R. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. – T.: Fan, 2005. – 85-86-b.
2. Педагогический энциклопедический словарь / Гл. ред. Б.М. Бим-Бад. 3-е издание, стереотипное. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2009. – 528 с.
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi / 12 jildli. 6-j. – T.: "O'ME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 424-425-b.
4. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 192-b.
5. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi / Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik. – T.: Noshir, 2009. – 352 b.
6. Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – T.: O'qituvchi, 1996. – 108 b.
7. G'oziyev E. Psixologiya / Yosh davrlari psixologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1994. – 224 b.
8. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 272 b.
9. Yo'ldoshev R.A. O'zbek tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini ularni ko'p gapirtirish orqali o'stirish metodikasi (ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablar misolida). – T.: O'zPFITI, 2012. – 212 b.
10. Bekniyazova N. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarga matn yaratishni o'rgatish metodikasi (ta'lim o'zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida): Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012. – 160 b.
11. Matchanov S. Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish: Ped. fan. dokt. ...dis. – T.: TDPU, 1998. – 300 b.
12. Toshxo'jayeva D.R. Matn mazmunini o'z so'zi bilan qayta hikoya qilishga o'rgatishning metodik asoslari (ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablar misolida): Ped. fan. nomz. ...dis. – T.: O'zPFITI, 2000. – 130 b.



13. Nisanbayeva A.Q. O'zbek tili darslarida matn vositasida o'quvchilar nutqini o'stirishning metodik asoslari (ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar misolida): Ped. fan. nomz. ...dis. – T.: TDPU, 2008. – 160 b.
14. Hamdamova M.Z. 1-, 2-sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish tizimi: Ped. fan. nomz. ...dis. – T.: 1998. – 160 b.
15. G'afforova T., G'ulomova X. O'qish darslari (1-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). – T.: Tafakkur, 2011. – 208 b.
16. Abdullayeva Q., Shodmonova Sh., Rahmonbekova S. 2-sinfda o'qish darslari. – T.: O'qituvchi, 2008. – 128 b.
17. Matchonov S., G'ulomova X., Suyunov M., Boqiyeva H. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. – T.: Yangiyul poligraph service, 2008. – 224 b.
18. Lutfetdinova R. Boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish. – Namangan: NamDU, 2011. – 128 b.
19. Matchonov S., G'ulomova X. Nutq madaniyati // Boshlang'ich ta'lim j. – T.: 2000. – №1. – 8-10-b.
20. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi / Ma'ruzalar matni. 2-qismli. I qism. – T.: TDPU, 2002. – 81 b.
21. Hamroyev A.R. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish: Ped. fanl. doktori (DSc). ...diss. avtoref. – BuxDU. 2020. – 75 b.
22. Masharipova U.A. Innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi: Ped. fanl. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – T.: TDPU. 2018. – 46 b.
23. Психолого-педагогические основы развития речи // <http://www.ecsir.ru/plmeds-560-3.html>.
24. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O'qish kitobi (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik). – T.: Sharq, 2019. – 128 b.

Xalilova Ruxsora Raupovna

Buxoro davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti

NOTIQLIK TA'LIMOTI TIZIMIDA "NUTQNING INDIVIDUAL USLUBI" TUSHUNCHASI

Annotatsiya. Individual nutq uslubi - bo'lajak o'qituvchining ritorik tayyorgarligining butun jarayonini ma'naviylashtiradigan kontseptual muhim tushunchadir. O'qituvchi uchun individual nutq uslubi alohida ahamiyatga ega, chunki, birinchidan, o'qituvchining nutqi o'quvchilar uchun nutq namunasi bo'lsa, ikkinchidan, ona tili va adabiyotini o'rgatish o'ychan va onglilikni talab qiladi. O'quvchilarni jamiyatning til madaniyati bilan tanishtirish, ularda tilga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish, tilni muloqot vositasi sifatida ongli ravishda o'zlashtirish shakllaridir.

Kalit so'zlar: nutq, ta'lim, pedagogik, ritorika, nutq uslubi, o'qituvchilar, individual nutq, notiqlik, muloqot.

ПОНЯТИЕ «ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ СТИЛЬ РЕЧИ» В СИСТЕМЕ ОБУЧЕНИЯ РЕЧИ

Аннотация. Индивидуальный стиль речи – концептуально важное понятие, нравственное, морализирующее весь процесс риторической подготовки будущего учителя. Индивидуальный стиль речи имеет для учителя особое значение, поскольку, во-первых, речь учителя является образцом речи учащихся, а во-вторых, обучение родному языку и литературе требует вдумчивости и осознанности. Формами являются ознакомление учащихся с языковой культурой общества, формирование у них бережного отношения к языку, сознательное овладение языком как средством общения.

Ключевые слова: речь, образование, педагогика, риторика, стиль речи, педагоги, индивидуальная речь, красноречие, общение.

THE CONCEPT OF "INDIVIDUALIZED SPEECH STYLE" IN THE SYSTEM OF SPEECH TRAINING

Abstract. Individual speech style is a conceptually important concept, moral, moralizing the entire process of rhetorical training of a future teacher. The individual style of speech is of particular importance for the teacher, since, firstly, the teacher's speech is a sample of the students' speech, and secondly, teaching the native language and literature requires thoughtfulness and awareness. The forms include familiarizing students with the linguistic culture of society, developing a caring attitude towards language, and consciously mastering language as a means of communication.

Key words: speech, education, pedagogy, rhetoric, speech style, teachers, individual speech, eloquence, communication.

Pedagogik ta'lim tizimida o'qituvchilik faoliyati samaradorligini ta'minlashga, nutq mahoratini oshirishga, o'zini izlanuvchan shaxs sifatida shakllantirishga, talabalarda ijodiy individuallikni tarbiyalashga qodir ijodiy shaxsni tarbiyalashga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilanadi. Pedagogik mahoratni o'rgatish muammosini hal qilish kontekstida muloqot qobiliyatlari va o'z kasbiga ijodiy yondashishning eng yuqori darajasining ko'rsatkichi sifatida professional nutqning individual uslubini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Nutqning individual uslubi mohir notiq, iste'dodli ma'ruzachi, ustoz ustozning ajralmas xususiyati sifatida hamisha notiqlar, o'qituvchilar va metodistlarning e'tiborini tortgan.

Pedagogik ritorika – kasbiy yo'naltirilgan ritorikalardan biri bo'lib, uning asosiy vazifasi samarali pedagogik muloqotga o'rgatish, kasbiy nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, kasb egasi kommunikativ shaxs bo'lishdan iborat.

Individual nutq uslubi - bo'lajak o'qituvchining ritorik tayyorgarligining butun jarayonini ma'naviylashtiradigan kontseptual muhim tushunchadir. O'qituvchi uchun individual nutq uslubi alohida ahamiyatga ega, birinchidan, o'qituvchining nutqi o'quvchilar uchun nutq namunasi bo'lsa, ikkinchidan, ona tili va adabiyotini o'rgatish o'ychan va onglilikni talab qiladi. O'quvchilarni jamiyatning til madaniyati bilan tanishtirish, ularda tilga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish, tilni muloqot vositasi sifatida ongli ravishda o'zlashtirish shakllaridir.

Ushbu kontseptual yondashuv kontseptsiyaning o'zini aniqlashtirish sohasida ham, professional nutqning individual uslubini rivojlantirishning uslubiy usullari sohasida ham yanada aniq nazariy va amaliy rivojlanishni talab qiladi. Uning markazida o'qituvchining o'ziga xosligi turadi, u o'zining ijodiy ritorik qobiliyatini kasbiy muloqot sohasida ochib beradi va takomillashtiradi.

Shubhasiz, o'qituvchi nafaqat yuqori kasbiy darajadagi kommunikativ va nutq ko'nikmalariga ega bo'lishi, balki uning oldida turgan ta'lim vazifalarini hal qilishga ijodiy munosabati, ushbu muammolarni hal qilishning maqbul usullarini topishga individual yondashuvi bilan ham ajralib turishi kerak.

Uslubiy maqsadlarga erishishda individual ijodiy yondashuv tajribasi talabalarga nutqiy xatti-harakatlar meyorlarini o'rgatish va ularning individual ritorik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shaxsiy tajribada tasdiqlangan usul sifatida ham muhimdir. Uning markazida o'qituvchining o'ziga xosligi turadi, u o'zining ijodiy ritorik qobiliyatini kasbiy muloqot sohasida ochib beradi va takomillashtiradi. Shubhasiz, o'qituvchi nafaqat yuqori kasbiy darajadagi kommunikativ va nutq ko'nikmalariga ega bo'lishi, balki uning oldida turgan ta'lim vazifalarini hal qilishga ijodiy munosabati, ushbu muammolarni hal qilishning maqbul usullarini topishga individual yondashuvi bilan ham ajralib turishi kerak.

Izohlovchi nutq janrini individual uslubning namoyon bo'lishi nuqtai nazaridan o'rganishga murojaat qilish uning o'qituvchining nutq amaliyotida katta kasbiy ahamiyati bilan bog'liq.

Dastlabki o'zlashtirish darajasida barqaror va samarali kommunikativ amaliyot bilan ushbu janrda individual uslubni namoyon qilishning mumkin bo'lgan usullarini bilish, o'quv jarayonida bo'lajak o'qituvchining kommunikativ ko'nikmalarini boshqa sohaga sifatli o'tkazishni ta'minlaydi. Pedagogik nutqning janrlari. Uslubiy maqsadlarga erishishda individual ijodiy yondashuv tajribasi talabalarga nutqiy xatti-harakatlar normalarini o'rgatish va ularning individual ritorik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shaxsiy tajribada tasdiqlangan usul sifatida ham muhimdir.

O.S. Axmonova uslub nima ekanligini tushuntirib berar ekan, shunday ta'kidladi: "Inson nutqdan foydalanar ekan, u shunchaki bo'lgan narsani aytishni emas, balki aytilgan narsa ta'assurot qoldiradigan, ma'lum bir ta'sir, ko'rsatadigan tarzda aytishni anglatadi. Muayyan so'zlarni tanlash va jummalarni qurish orqali erishiladigan bunday turdagi ta'sirlar uslubiy effekt deb ataladi. Bunday ta'sir vositalari haqidagi fan uslubiyotdir" [2].

Fikrni ifodalash usuli sifatida "uslub", nutqning individual usuli sifatida "individual uslub", o'tmishdagi ritorik va uslubiy ishlarda individual uslubni rivojlantirish va takomillashtirish yo'llari alohida o'rin tutadi.

"Uslub juda past, juda baland bo'lmasligi kerak, lekin nutq mavzusiga mos kelishi kerak" [1].

Individual nutq uslubini ma'ruzachining kommunikativ shaxsining aksi sifatida o'rganish dolzarb va istiqbolli hisoblanadi. Ilm-fan individual nutq uslubining nutqning turli funksional usublari va janr turlarida namoyon bo'lishining lingvistik vositalarini tahlil qiladi

Xulosa qilib aytganda, ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra, ilmiy nutq uslubini janrlarida individual uslubning namoyon bo'lishi mutlaqo tabiiy va mantiqiydir. Ilmiy-ommabop matnlarda (M.N.Kojina, R.K. Tereshkina, E.S.Troyanskaya, M.P.Senkevich va boshqalar asarlari) muallif individualligini ifodalash uchun yanada keng imkoniyatlar mavjud. O'quv, ilmiy va ilmiy-ommabop uslublarning xususiyatlarini o'zida mujassam etgan, buning uchun individual stilistik rangga ega bo'lgan vositalardan foydalanish tabiiy bo'lgan tushuntirish nutqi janrida nutqning individual uslubini oshirish vositalarini tanlashda aniq namoyon bo'ladi. Nutqning ekspressivligi ritorik figuralar, intonatsiyadan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аристотель и античная литература. / Отв. ред. М.Л. Гаспаров. - М., 1978.-231 с.
2. Ахманова О.С. О стилистической дифференциации слов. // Сб. статей по языкознанию. М.: Изд-во МГУ, 1958 . - С.24 - 39.
3. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров // Бахтин М.М. Литературно- критические статьи / Сост. С. Бочаров и В. Кожинов. - М.: Художественная литература, 1986. - С.431 - 479.
4. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. 2-е изд.— М.: Искусство, 1986. - 444 с.
5. Виноградов В.В. Итоги обсуждения вопросов стилистики // Вопросы языкознания. - 1955. - №1.- С.83 - 93
6. Конечкая В.П. Социология коммуникации. - М.: Международный университет бизнеса и управления, 1997. - 304 с.
7. Коновалова Т.Р., Паршина О.Н. Устная профессиональная речь учителя (на материале речи учителя) // Вопросы стилистики. - Вып. 23. - Саратов: Изд-во Саратов ун-та, 1989. - 25 - 38.
8. Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият.— Тошкент: Ўзбекистон, 1992.— 110б.

Юлдашева ФарогаТ Туракуловна

Старший преподаватель межфакультетской кафедры
русского языка Национального университета Узбекистана
им.М.Улугбека

E-mail: yuldashevafarogat@mail.ru

СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ДРУГИХ ЯЗЫКОВ МИРА

Аннотация. В данной научной статье проводится сравнительный анализ русского языка и других языков мира. Рассматриваются сходства и различия в грамматике, лексике, фонетике и синтаксисе и подчеркиваются уникальные особенности русского языка. В целом, статья дает полное представление о том, как русский язык сравнивается с другими языками мира и какие преимущества и недостатки он имеет.

Ключевые слова. Лексика, фонетика, синтаксис, акцент, интонация, японская культура, лексическая особенность.

SIMILARITIES AND DIFFERENCES THE RUSSIAN LANGUAGE AND OTHER LANGUAGES OF THE WORLD

Abstract. This scientific article presents a comparative analysis of the Russian language and other languages of the world. It examines similarities and differences in grammar, vocabulary, phonetics, and syntax, emphasizing the unique features of the Russian language. Overall, the article provides a comprehensive overview of how the Russian language compares to other languages of the world and what advantages and disadvantages it possesses.

Key words. Lexicon, phonetics, syntax, accent, intonation, Japanese culture, lexical feature.

RUS TILI VA DUNYONING BOSHQA TILLARINI O'XSHASHLIK VA FARQLARI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada rus tili va dunyoning boshqa tillari qiyosiy tahlili berilgan. Grammatika, lug'at, fonetika va sintaksisdagi o'xshashlik va farqlar ko'rib chiqiladi va rus tilining o'ziga xos xususiyatlariga urg'u beriladi. Umuman olganda, maqola rus tilini dunyoning boshqa tillari bilan qanday solishtirishi va uning qanday afzalliklari va kamchiliklari borligi haqida to'liq tasavvur beradi.

Kalit so'zlar. Lug'at, fonetika, sintaksis, urg'u, intonatsiya, yapon madaniyati, leksik xususiyat.

В современном мире значимость изучения языка становится все более очевидной и неоспоримой. В условиях глобализации, международных связей и многонационального общества знание иностранных языков приобретает особую важность для личного, профессионального и культурного развития. Изучение языка открывает двери к новым возможностям, позволяет углубить понимание других культур и обогатить свой мировоззрение.

Каждый язык мира имеет свои особенности, которые делают его уникальным и отличают от других языков. Язык - это не просто средство общения, но и отражение культуры, истории и образа мышления народа, который им владеет.

Одной из основных особенностей языка является его фонетика. Каждый язык имеет свои звуки, интонации и ритм, которые отличают его от других языков. Например, в некоторых языках существуют звуки, которые отсутствуют в других, что делает их произношение для носителей других языков сложным.

В наше время изучение иностранных языков становится все более востребованным, так как глобализация и международные связи играют ключевую роль в современном мире. Развитие технологий способствует появлению новых методов и подходов к изучению языков, делая этот процесс более эффективным.

В методике преподавания русского языка как иностранного существуют универсальные приемы и принципы, помогающие иностранным учащимся усваивать и осваивать русский язык, но при всей своей универсальности в каждой аудитории они реализуются по-разному. Каждый раз, знакомясь с новой группой, преподаватель, опираясь на уже разработанные и зарекомендовавшие себя методики, намечает для себя тактику и стратегию преподавания русского языка именно в данной аудитории, что способствует наиболее эффективному и быстрому освоению русского языка иностранцами.

Наибольший интерес представляет процесс освоения грамматики русского языка. Небезызвестен тот факт, что грамматика русского языка признается иностранцами одной из самых сложных, так как имеет большое количество категорий и такие части речи, которые отсутствуют в других языках. Самое сложное в процессе изучения русского языка иностранцами – это освоение категорий рода и падежа у существительных и прилагательных, категорий спряжения и вида у глаголов, а также таких частей речи, как причастие и деепричастие в совокупности всех их категорий и форм.

В любой аудитории обучение русскому языку должно проходить с учетом определенных лингвистических принципов РКИ. Назовем основные: во-первых, принцип системности языка, рассматривающий язык как систему, состоящую из взаимосвязанных элементов разных уровней. Реализация данного принципа предполагает изучение языковых единиц с точки зрения их коммуникативной и функциональной значимости для выражения различных смыслов; изучение грамматики в связи с лексикой для выявления лексико-семантических особенностей языковых единиц в процессе их функционирования; изучение морфологии вкрупне с синтаксисом, что позволяет вводить в речь учащиеся словосочетания и предложения, определяемые условиями общения. Во-вторых, принцип концентризма, предполагающий изучение языка на основе концентров – относительно замкнутых циклов.

Изучение языка не ограничивается просто изучением грамматики и словарного запаса. Социолингвистические аспекты играют ключевую роль в понимании языка как социокультурного явления и его использовании в различных социальных контекстах. Социолингвистика изучает влияние общественных и культурных факторов на языковые структуры, варианты и изменения. Понимание этих аспектов помогает студентам лучше освоить язык и эффективнее взаимодействовать с носителями языка.

В русском языке существует богатая система грамматических категорий и морфологических форм. Одна из особенностей русского языка – это его широкий набор падежей. Русский язык имеет шесть падежей: именительный, родительный, дательный, винительный, творительный и предложный. Падежи определяют роль слова в предложении и его синтаксическую функцию.

В отличие от русского языка, английский язык имеет более простую систему морфологии. Он имеет меньше грамматических категорий и морфологических форм. Например, английский язык имеет только два числа (единственное и множественное) и два рода (мужской и женский).

Наличие трех групп глаголов в родном языке иностранных учащихся также способствует адекватному пониманию ими такого понятия, как исключение. В португальском языке есть группа нерегулярных глаголов, которая соотносится студентами с группой глаголов-исключений в русском языке. Такое распределение языковых единиц изучаемого языка накладывается на систему глаголов родного языка, и путем их сравнения студенты формируют для себя свою систему русского глагола, приближенную в понимании к системе родного языка.

Глаголы в английском языке имеют меньше форм, чем в русском языке. Они спрягаются по лицу и числу, а также имеют несколько временных форм, таких как прошедшее, настоящее и будущее время. Однако английский язык не имеет такого разнообразия видов глаголов, как русский язык.

Например, приступая к изучению глагола как части речи, мы обязательно условно собираем глаголы в группы и маркируем их как группы «Е» и «И» (I и II спряжение соответственно). Это позволяет иностранным учащимся провести параллели как между языками, так и между формами глагола внутри изучаемого языка. Это тот случай, когда особенно эффективен в процессе обучения РКИ сознательно-сопоставительный метод, предполагающий именно осознанное изучение явлений иностранного языка и их сопоставление с явлениями родного языка.

Русский и английский языки имеют различный словарный состав. В русском языке больше слов, чем в английском, и это связано с историческим развитием и культурными особенностями народов, говорящих на этих языках. Например, в русском языке есть много слов, связанных с русской культурой, традициями и историей, которых нет в английском языке.

В английском языке есть много звуков, которых нет в русском языке. Некоторые из этих звуков могут быть трудными для носителей русского языка, так как они не присутствуют в их родном языке. Это может привести к тому, что носители русского языка будут иметь акцент при говорении на английском языке.

